O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7-son (iyul 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Ilyos, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (UrDU),

ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),

ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),

ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),

BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),

DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),

HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),

IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),

IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),

JUMATOV Rashid Yangibaevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),

JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),

KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),

KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),

MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),

NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),

OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),

QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),

RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),

RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),

SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),

SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),

SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),

XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari, UrDU),

YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),

O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),

O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),

G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul kotib, UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI● 7-son (iyul 2025)

MUASSIS: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan **●GUVOHNOMA № 1131.**

FIZIKA-MATEMATIKA

Ulug‘bekova Aziza Ulug‘bek qizi (Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi;
E-mail: azizaulugbekova0803@gmail.com)

KARRALI INTEGRALLARNING FIZIK MASALALARGA TATBIQI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada karrali integral tushunchasi va uning fizik masalalarga qo‘llanilishi o‘rganilgan. Xususan, ikki va uch o‘lchamli sohalarda karrali integrallarning modellashtirish quvvati tahlil qilingan. Fizikadagi massa, hajm, ish va bosim kabi miqdorlarni aniqlashda karrali integrallardan foydalanish usullari misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, turli geometriyali oblastlar ustida integral olishning uslublari ko‘rib chiqilgan hamda amaliy masalalarga yechim topishda ularning roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari karrali integrallarning fizik modellashtirishdagi dolzarbligini tasdiqlaydi va ularni qo‘llash ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *karrali integral, fizik modellashtirish, ikkiqat integral, uchqat integral, massa, hajm, ish, bosim.*

ПРИМЕНЕНИЕ КРАТНЫХ ИНТЕГРАЛОВ В ФИЗИЧЕСКИХ ЗАДАЧАХ

Аннотация*. В данной статье рассмотрено понятие кратного интеграла и его применение в физических задачах. В частности, проанализирована модельная мощность кратных интегралов в двух- и трехмерных областях. Показаны методы использования кратных интегралов для определения таких физических величин, как масса, объем, работа и давление, на примерах. Также рассмотрены методы интегрирования по областям различной геометрии и освещена их роль в решении практических задач. Результаты исследования подтверждают актуальность кратных интегралов в физическом моделировании и содержат рекомендации по расширению сферы их применения.*

Ключевые слова: *кратный интеграл, физическое моделирование, двойной интеграл, тройной интеграл, масса, объем, работа, давление.*

APPLICATION OF MULTIPLE INTEGRALS IN PHYSICAL PROBLEMS

Annotation. *This article explores the concept of multiple integrals and their application in physical problems. In particular, the modeling power of multiple integrals in two- and three-dimensional domains is analyzed. Methods of using multiple integrals to determine physical quantities such as mass, volume, work, and pressure are demonstrated through examples. Additionally, techniques for integrating over regions with various geometries are examined, and their role in solving practical problems is highlighted. The research results confirm the relevance of multiple integrals in physical modeling and provide recommendations for expanding their scope of application.*

Keywords*: multiple integral, physical modeling, double integral, triple integral, mass, volume, work, pressure.*

Kirish. Karrali integrallarning ta’rifi, xossalari, hisoblash usullari tadqiqotchilarga ma’lum deb hisoblab, ularni fizik masalalarga tatbiqini qaraymiz. Tabiiyki, fazodagi biror (V) jismda massa taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fizik miqdorlar asosan (V) jism bo‘yicha olingan uch karrali integrallar bilan ifodalanadi. Bunda ham “cheksiz kichik” elementlarni yig‘ish, ya’ni masalaga mos integral yig‘indilarni tuzish yo‘lidan borish ancha qulayroqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Karrali integrallar nazariyasi matematik analizning muhim bo‘limi bo‘lib, uning fizik masalalardagi qo‘llanilishiga oid ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Ilmiy manbalarda bu integrallar massa, hajm, ish, energiya, tortishish kuchi va potensial kabi fizik miqdorlarni aniqlashda keng tatbiq qilinishi bayon etilgan. Shuningdek, silindrik va sferik koordinatalarga o‘tish orqali hisoblashlarni soddalashtirish metodikasi ham ko‘plab manbalarda tavsiya qilingan. O‘quv adabiyotlarida esa ikki va uch karrali integralni amaliy masalalarda ishlatish bo‘yicha misollar orqali tushuntirishlar berilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda matematik analiz usullaridan foydalangan holda, fizik kattaliklarning integral asosida ifodalanishi o‘rganildi. Jismning og‘irlik markazi, statik va inersiya momentlari, potensial maydon va tortishish kuchlari kabi fizik miqdorlar karrali integrallar orqali hisoblab chiqildi[1]. Hisoblashlarda silindrik va sferik koordinatalarga o‘tish, o‘zgaruvchilarni almashtirish, Eyler integrallari kabi usullar qo‘llanildi. Har bir masala matematik modellashtirish asosida bosqichma-bosqich yechildi.

Tahlil va natijalar. Massa taqsimotining (V) jismning ixtiyoriy nuqtasidagi zichligini ρ bilab belgilab, nuqta koordinatalari funksiyasini uzluksiz deb faraz qilamiz.

Massa elementlari $dm = \rho dV = \rho dxdydz$ larni integral yig‘indi sifatida yig‘ib, kerakli limitga o‘tib, butun massa uchun

$$m = \iiint_{(V)} \rho dV = \iiint_{(V)} \rho dxdydz \quad (1)$$

formulaga ega bo‘lamiz [2].

Elementar statik momentlar

$$dK_{yz} = xdm = x\rho dV, dK_{zx} = ydm = y\rho dV, dK_{xy} = zdm = zpdV$$

larni “yig‘ib”, statik momentlarni topamiz:

$$K_{yz} = \iiint\limits_{(V)} x\rho dV\,, K_{zx} = \iiint\limits_{(V)} y\rho dV\,, K_{xy} = \iiint\limits_{(V)} z\rho dV \quad (2)$$

Bu tengliklardan foydalanib, og‘irlik markazining koordinatalarini ham topamiz:

$$\xi = \frac{\iiint_{(V)} x\rho dV}{m}, \eta = \frac{\iiint_{(V)} ypdV}{m}, \tau = \frac{\iiint_{(V)} zpdV}{m} \quad (3)$$

Agar jism bir jinsli bo‘lsa, ρ o‘zgarmas bo‘lib, (3) formulalar yana ham soddalashadi:

$\xi = \frac{\iiint_{(V)} xdV}{V}, \eta = \frac{\iiint_{(V)} ydV}{V}, \tau = \frac{\iiint_{(V)} zdV}{V}$

Inersiya momentlarining koordinata o‘qlariga nisbatan ifodalari

$$I_x = \iiint\limits_{(V)} (y^2 + z^2)\rho dV,\ I_y = \iiint\limits_{(V)} (z^2 + x^2)\rho dV\,, I_z = \iiint\limits_{(V)} (x^2 + y^2)\rho dV \quad (4)$$

formulalar, koordinata tekisliklariga nisbatan inersiya momentlari ifodalari

$$I_{yz} = \iiint\limits_{(V)} x^2\rho dV\,, I_{zx} = \iiint\limits_{(V)} y^2\rho dV,\ I_{xy} = \iiint\limits_{(V)} z^2\rho dV \quad (5)$$

bilan ifodalanishi o‘z-o‘zidan ravshandir [3].

Faraz qilaylik, (V) jismni to‘ldiruvchi massalar Nyuton qonuniga binoan, massasi 1 bo‘lgan $A(\xi, \eta, \tau)$ nuqtani tortib turgan bo‘lsin [4]. Massa elementi $dm = \rho dV$ tomonidan tortishish kuchining koordinata o‘qlariga proyeksiyalari

$dF_x = \frac{x-\xi}{r^3}\rho dV, dF_y = \frac{y-\eta}{r^3}\rho dV, dF_z = \frac{z-\tau}{r^3}\rho dV$

bo‘ladi. Bunda r −elementning massasi to‘plangan deb hisoblangan $M(x, y, z)$ nuqtadan $A(\xi, \eta, \tau)$ nuqtagacha bo‘lgan masofa bo‘lib,

$$r = \sqrt{(x-\xi)^2 + (y-\eta)^2 + (z-\tau)^2}$$

ga tengdir. Bu ifodalarni “yig‘ib”, umumiy tortishish kuchi $\vec{F}$ ning koordinata o‘qlariga proyeksiyalarini hosil qilamiz:

$$F_x = \iiint\limits_{(V)} \frac{x-\xi}{r^3}\rho dV,\ F_y = \iiint\limits_{(V)} \frac{y-\eta}{r^3}\rho dV,\ F_z = \iiint\limits_{(V)} \frac{z-\tau}{r^3}\rho dV \quad (6)$$

Jismning A nuqtadagi potensiali ham shu usulda topiladi:

$$W = \iiint\limits_{(V)} \frac{\rho dV}{r} \quad (7)$$

Agar A nuqta jismdan tashqarida yotgan bo‘lsa, yuqoridagi integrallar hammasi xos integrallar uchun foydalanilgan mulohazalarga o‘xshash fikr yuritilib, W integralni istalgan ξ, η, τ o‘zgaruvchilar bo‘yicha integral belgisi ostida differensiallash mumkin. Natijada

$$\frac{\partial W}{\partial \xi} = F_x, \frac{\partial W}{\partial \eta} = F_y, \frac{\partial W}{\partial \tau} = F_z \quad (8)$$

larga ega bo‘lamiz [7].

Agar A nuqta (V) jismga tegishli bo‘lsa, $r = 0$ bo‘lib, A nuqta atrofida (6) va (7) dagi integral ostidagi funksiyalar chegaralanmagan bo‘lib, bu integrallar xosmas ma’noda mavjud bo‘ladilar va (8) munosabatlar ular uchun ham bajariladi [3].

Yuqorida bajarilgan ishlarni bir jinsli silindrik g‘o‘la $(p = 1)$ning statik momentlarini ikki karrali integral orqali hisoblab, bu natijalarni maqolada keltirilgan uch karrali integral yordamida topilgan natijalardan hosil qilish mumkinligini misol sifatida ko‘rsatamiz.

Shunday g‘o‘lacha berilgan bo‘lsin. Bu silindr $z = z(x, y)$ sirt bilan, uning xy tekisligiga bo‘lgan proyeksiyalari bilan va yasovchilari z o‘qiga parallel bo‘lgan proyeksiyalovchi silindr bilan chegaralangan

bo‘lsin. Silindrning statik momenti K_{xy}ni topish uchun g‘o‘lachaning asosi dP, balandligi z bo‘lgan elementar ustunchalardan iborat deb faraz qilib, har bir ustunchaning xy tekisligiga nisbatan statik momenti uning massasi bilan yoki uning hajmi zdP bilan, og‘irlik markazidan shu tekislikkacha masofaning, ya’ni $\frac{1}{2}z$ ning ko‘paytmasiga teng [9]. Shunday qilib, statik moment

$$dK_{xy} = \frac{1}{2}z^2 dP$$

bo‘lib, bularni barcha ustunchalar bo‘yicha integral yig‘indi sifatida “yig‘ib”, tegishli limitga o‘tib,

$$K_{xy} = \frac{1}{2}\iint\limits_{(P)} z^2 dP \tag{9}$$

ni hosil qilamiz. Xuddi shuningdek,

$$K_{zx} = \iint\limits_{(P)} yzdP\,, K_{yz} = \iint\limits_{(P)} xzdP \tag{10}$$

formulalarni hosil qilamiz. Bulardan g‘o‘lachaning og‘irlik markazi koordinatalari ξ, η, τ lar uchun

$$\xi = \frac{K_{yz}}{V} = \frac{\iint_{(P)} zxdP}{V}, \eta = \frac{K_{zx}}{V} = \frac{\iint_{(P)} zydP}{V}, \tau = \frac{K_{xy}}{V} = \frac{\frac{1}{2}\iint_{(P)} z^2 dP}{V}$$

larni hosil qilamiz.

G‘o‘lachaning z o‘qiga nisbatan inersiya momenti I_z uchun ham yz va zx koordinata tekisliklariga nisbatan inersiya momentlari I_{yz} va I_{zx} uchun

$$I_z = \iint\limits_{(P)} (x^2 + y^2)zdP\,, I_{yz} = \iint\limits_{(P)} x^2 zdP,\ I_{zx} = \iint\limits_{(P)} y^2 zdP \tag{11}$$

kelib chiqadi. Ma’lumki, $I_z = I_{zx} + I_{yz}$

Uch karrali integral orqali ifodalangan statik momentlarni, masalan, K_{xy} ni ikki karrali integral orqali ifodasini topamiz.

$K_{xy} = \iiint_{(V)} zdV = \iint_{(P)} dxdy \int_0^{z(x,y)} zdz = \frac{1}{2}\iint_{(P)} z^2(x,y)dxdy\,.$

Endi moddiy nuqtaning statik, inersiya momentlari va og‘irlik markazini topishga doir masalalar qaraymiz [10].

1-masala. Quyidagi tenglamalar $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = \frac{z^2}{c^2}, z = c$ bilan berilgan bir jinsli jismning og‘irlik markazi koordinatalarini toping.

Yechish. (V) jism bir jinsli va $S = \left\{(x,y,z) \in R^3 : z = c\sqrt{\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2}}\right\}$ konus sirt,

$S_1 = \{(x,y) \in R^2 : z = c\}$ tekislik qismi bilan chegaralanganligi va Oz o‘qqa nisbatan simmetrik bo‘lgani uchun uni $M_0 = (x_0, y_{0,} z_0)$ og‘irlik markazi Oz o‘qda yotib,

$x_0 = 0, y_0 = 0$ bo‘ladi.

$$x_0 = \frac{1}{m}\iiint\limits_V x\rho(x,y,z)dxdydz,\ y_0 = \frac{1}{m}\iiint\limits_V y\rho(x,y,z)dxdydz,$$

$z_0 = \frac{1}{m}\iiint_V z\rho(x,y,z)dxdydz$ formulalarga ko‘ra, V jism massasi

$$m = \iiint\limits_V \rho(x,y,z)dxdydz$$

bo‘lgan V bir jinsli jismning og‘irlik markazining koordinatalari, $\rho(x,y,z) = 1$ bo‘lgani uchun $x_0 = 0, y_0 = 0, z_0 = \frac{1}{V}\iiint_V zdxdydz$ bo‘ladi. Bu yerda $V - (V)\ jism\ hajmi$

Uch karrali integralda umumlashgan koordinatalar $x = arcos\varphi, y = brsin\varphi, z = z\ (0 \le \varphi \le 2\pi)$ ga o‘tib, o‘zgaruvchilarni almashtirib,

$$V = ab\int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^1 rdr \int_{cr}^c dz = 2\pi abc \int_0^1 r(1-r)dr = \frac{\pi}{3}$$

ni topamiz. shunday qilib,

$$z_0 = \frac{ab}{V}\int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^1 rdr \int_{cr}^c zdz = \frac{\pi abc^2}{V}\int_0^1 r(1-r^2)dr = \frac{\pi abc}{4V} = \frac{3}{4}c$$

ga ega bo‘lamiz.

2-masala. (V) jism $\left(\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}\right)^2=\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}-\frac{z^2}{c^2}, a>0, b>0, c>0$ sirtlar bilan chegaralangan bo‘lsa, uni koordinata tekisliklariga nisbatan inersiya momentlarini aniqlang.

Yechish. $I_{xy}=\iiint_V z^2\rho(x,y,z)dxdydz$, $I_{yz}=\iiint_V x^2\rho(x,y,z)dxdydz$,

$$I_{zx}=\iiint_V y^2\rho(x,y,z)dxdydz,$$

formulalardan foydalanib va $I_{xy}=\iiint_V z^2 dxdydz$ integralda umumlashgan sferik koordinatalar

$$x=arsin^{\alpha}\theta cos^{\beta}\varphi, y=brsin^{\alpha}\theta cos^{\beta}\varphi, z=crsin^{\alpha}\theta cos^{\beta}\varphi$$
$$(r\geq 0, 0\leq\theta\leq\pi, 0\leq\varphi\leq 2\pi)$$

ga o‘tib va $\alpha=\beta=1$ deb hisoblab, (V)jism chegarasi uchun $r^2=sin^{\alpha}\theta-cos^{\beta}\varphi$ tenglamani hosil qilib, bundan $\frac{\pi}{4}\leq\theta\leq\frac{3\pi}{4}$ ni topamiz.

$$(V')=\left\{(r,\theta,\varphi)\in R^3:\frac{\pi}{4}\leq\theta\leq\frac{3\pi}{4}, 0\leq r\leq\sqrt{-cos2\theta}, 0\leq\varphi\leq 2\pi\right\}$$

jism (V) jismga akslanadi. $\left|\frac{D(x,y,z)}{D(r,\theta,\varphi)}\right|$ yakobian qiymati $abcr^2sin\theta$ ga teng bo‘lib,

$$I_{xy}=abc^3\int_{\pi/4}^{3\pi/4} sin\theta cos^2\theta d\theta\int_0^{2\pi}d\varphi\int_0^{\sqrt{-cos^2\theta}} r^2dr$$
$$=\frac{2}{5}\pi abc^3\int_{\pi/4}^{3\pi/4} sin\theta cos^2\theta(sin^2\theta-cos^2\theta)^{5/2}d\theta$$

ga ega bo‘lamiz.

Integralda $\sqrt{2}cos\theta=t^{\frac{1}{2}}$ deb almashtirish olib,

$I_{xy}=\frac{\pi abc^3}{5\sqrt{2}}\int_0^1 t^{\frac{3}{2}-1}(1-t)^{\frac{5}{2}}dt$ ni topib, oxirgi integralga Eyler integrali $B(a,b)$ni qo‘llab,

$I_{xy}=\frac{\pi abc^3}{5\sqrt{2}}B\left(\frac{3}{7},\frac{7}{2}\right)=\frac{\pi^2abc^3}{128\sqrt{2}}$ ni topamiz.

Xuddi shunday

$$I_{yz}=\frac{15\pi^2a^3bc}{256\sqrt{2}}, I_{zx}=\frac{15\pi^2ab^3c}{256\sqrt{2}}$$

larni hosil qilamiz [8].

Xulosa. O‘rganilgan masalalar shuni ko‘rsatdiki, karrali integrallar fizik kattaliklarni modellashtirishda juda qulay va samarali vositadir. Bu usullar yordamida murakkab jism shakllarining hajmi, og‘irlik markazi va boshqa xossalarini aniq hisoblash mumkin. Tadqiqotlar karrali integrallarning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham ochib berdi. Natijalar asosida karrali integrallarning ta’limda va ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanish doirasini kengaytirish mumkinligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov A.A. Matematik analizning asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2018.

(2). Raxmatov B.T. Yuqori matematika. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2020.

(3). Xolmuhamedov N.N. Matematik analiz va uning tatbiqlari. Toshkent, “Fan”, 2019.

(4). Niyozov S.S. Fizikaga tatbiq qilingan integral usullar. Toshkent, TDPU, 2017.

(5). Apostol T.M. (1969). Mathematical Analysis. Addison–Wesley. Karrali integrallar va ularning nazariy asoslari bo‘yicha klassik manba.

(6). Stewart J. (2015). Calculus: Early Transcendentals (8th ed.). Cengage Learning. Ikki va uch o‘lchamli integral hisoblari, fizik misollar bilan.

(7). Marsden, J.E., Tromba, A.J. (2003). Vector Calculus (5th ed.). W.H. Freeman.Vektor hisoblari va ko‘p o‘lchovli integrallar, fizik amaliyotlarga oid yechimlar.

(8). Zorich V.A. (2004). Mathematical Analysis I. Springer. Karrali integrallar va ularning geometriyadagi qo‘llanilishi.

(9). Özisik M.N. (1993). Heat Conduction. Wiley-Interscience. Fizikada massa, ish, bosim kabi miqdorlarning modellashtirilishi.

(10). Özisik, M.N. (1980). Introduction to Fluid Mechanics. McGraw-Hill. Hajm va bosim hisoblashlarda integral hisobining qo‘llanilishi.

(11). Kreyszig, E. (2011). Advanced Engineering Mathematics (10th ed.). Wiley. Karrali integrallar va ularning muhandislik va fizik muammolarga tatbiqi.

(12). Thomas G.B., Weir M.D., Hass J. (2018). Thomas' Calculus (14th ed.). Pearson. Integral hisobining amaliy aspektlari va fizik masalalar uchun misollar.

Mirzoyeva Gulzira To‘raqul qizi (Buxoro davlat Texnika universiteti 2-kurs tayanch doktoranti; gulimirzoyeva1992@gmail.com)

OSILGAN MASSALI TO‘RTBURCHAKLI DEFORMATSIYALANUVCHAN PLASTINKANING CHIZIQLI ERKIN TEBRANISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barcha qirralari qattiq mahkamlangan alyuminiy kvadrat shakldagi plastinkaning markaziga turli qiymatdagi massalar (1 kg, 10 kg, 50 kg va 100 kg) qo‘yilgan holatdagi erkin tebranish xarakteristikalari sonli usulda o‘rganilgan. Tahlil Abaqus dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, plastinkaning geometriyasi (uzunligi 1 m, eni 1 m, qalinligi 0.003 m), material xususiyatlari (elastiklik moduli* $E = 70 \cdot 10^9\, Pa$*, Puasson koeffitsienti* $\mu = 0.33$*, zichligi* $\rho = 2700\, kg/m^3$*) va markazga qo‘yilgan massa hisobga olingan. Birinchi uchta tabiiy tebranish chastotalari aniqlangan va massa qiymatining ularga ta’siri o‘rganilgan. Tebranish shakllarining vizual tahlili ham keltirilgan. Olingan natijalar muhandislik amaliyotida konstruksiyalarning dinamik xatti-harakatini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *plastinka, erkin tebranish, Abaqus, sonli tahlil, qo‘yilgan massa, tabiiy chastota, tebranish shakli.*

Мирзоева Гульзира Туракуловна (аспирантка второго курса Бухарского государственного технического университета; gulimirzoyeva1992@gmail.com)

ЛИНЕЙНЫЕ СВОБОДНЫЕ КОЛЕБАНИЯ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ДЕФОРМИРУЕМОЙ ПЛАСТИНЫ С ПОДВЕШЕННОЙ МАССОЙ

Аннотация. *В настоящей работе численным методом исследованы характеристики свободных колебаний квадратной алюминиевой пластины с жестко закреплёнными по всем краям кромками, к центру которой присоединены сосредоточенные массы различного значения (1 кг, 10 кг, 50 кг и 100 кг). Анализ проведён с использованием программного обеспечения Abaqus с учётом геометрических параметров пластины (длина 1 м, ширина 1 м, толщина 0,003 м), её материальных свойств (модуль упругости Па, коэффициент Пуассона, плотность кг/м³), а также присоединённой в центре массы. Определены три первые собственные частоты и исследовано влияние значения массы на них. Также приведён визуальный анализ форм колебаний. Полученные результаты имеют важное значение для понимания динамического поведения конструкций в инженерной практике.*

Ключевые слова: *пластина, свободные колебания, Abaqus, численный анализ, присоединённая масса, собственная частота, форма колебаний.*

Mirzoyeva Gulzira Turaqul qizi (is a second-year doctoral student at Bukhara State Technical University; gulimirzoyeva1992@gmail.com)

LINEAR FREE VIBRATIONS OF A RECTANGULAR DEFORMABLE PLATE WITH A SUSPENDED MASS

Annotation. *In this study, the free vibration characteristics of a square aluminum plate with all edges rigidly clamped and a concentrated mass placed at the center were investigated using numerical methods. The analysis was performed using Abaqus software, considering the plate geometry (length 1 m, width 1 m, thickness 0.003 m), material properties (Young’s modulus Pa, Poisson’s ratio, density kg/m³), and the centrally attached masses with varying values (1 kg, 10 kg, 50 kg, and 100 kg). The first three natural frequencies were determined, and the influence of the attached mass on these frequencies was examined. A visual analysis of the corresponding mode shapes was also provided. The obtained results are of significant importance for understanding the dynamic behavior of structures in engineering practice.*

Keywords*: plate, free vibration, Abaqus, numerical analysis, suspended mass, natural frequency, mode shape.*

Kirish (Introduction). Aylanish simmetriyasiga ega yupqa deformatsiyalanuvchi qobiqlar va ularga biriktirilgan massalar aviatsiya sanoati va qurilish sohasida keng qo‘llaniladi.

Bunday konstruksiyalarning turli xil garmonik va nostatsionar yuklamalar ta’sirida dinamik xatti-harakatini o‘rganish xususiy hosilali tenglamalardan iborat murakkab masalani hal etishga olib keladi. Qo‘yilgan masalani yechish esa vaqt bo‘yicha mustaqil o‘zgaruvchiga ega oddiy differensial tenglamalar sistema-

sini qurishga asoslanadi. Shu bilan birga, biriktirilgan massalarga ega qobiqsimon konstruksiyalarning o‘ziga xos tebranishlari o‘rganiladi. Shu asosda umumlashtirilgan koordinatalar bo‘yicha tuzilgan oddiy integraldifferensial tenglamalar sistemasi sodda ko‘rinishga ega bo‘ladi va uni mashhur usullar yordamida tadqiq qilish imkoniyati mavjud.

Sof chastotalar spektrini aniqlash, ya’ni, biriktirilgan massalardan tashkil topgan konstruksiyalarning chastota spektrini topish bu konstruksiyalarning qattiqlik va inertsiya jihatidan bir jinsli bo‘lmaganligiga juda bog‘liq bo‘lib, katta amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli ishonchli sonli va analitik usullarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

[1;2] ishlarda biriktirilgan massalarga ega silindrsimon qobiqlarning chiziqli tebranishlari o‘rganilgan.[3]-ishda esa muntazam ravishda stringerlar va shpangoutlar bilan mustahkamlangan yopiq halqasimon silindrsimon qobiq o‘rganilgan. [4]-ish butunlay qattiq jism va silindrsimon qobiq o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir matematik modelini yaratishga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda qattiq jism qobiqning bir uchiga biriktirilgan. [5]-ishda esa biriktirilgan massaga ega erkin tayangan to‘g‘ri to‘rtburchak elastik plastinkaning tebranishi o‘rganilgan. Qattiqlashtiruvchi elementlar va biriktirilgan massalarga ega qobiqlarning o‘ziga xos tebranishlari [6] ishda tadqiq qilingan. [7]-ishda esa qattiqlashtiruvchi elementlar hamda biriktirilgan qattiq jismlarning aylanish simmetriyasiga ega yupqa elastik qobiqlarning erkin tebranish chastotalari va shakllariga ta’siri xususiyatlari o‘rganilgan. Masala chiziqli qo‘yilishda, Rits usuli yordamida va qattiqlashtiruvchi elementlarning diskret joylashishini hisobga olgan holda yechilgan.Plastinkalar muhandislikning turli sohalarida keng qo‘llaniladigan muhim konstruktiv elementlardan biridir. Ushbu elementlarning dinamik xatti-harakatini o‘rganish, xususan tebranish xususiyatlarini aniqlash, rezonans kabi xavfli hodisalarning oldini olish va konstruksiyalarning ishonchli ishlashini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qattiq mahkamlangan kvadrat plastinkalarning erkin tebranishi analitik usullar bilan yechish murakkab bo‘lgan muammo hisoblanadi. Konstruksiyaga qo‘shimcha massalar o‘rnatilishi esa vaziyatni yanada murakkablashtiradi, chunki bu sistema massasining taqsimlanishini o‘zgartiradi va demak, uning dinamik xususiyatlariga ta’sir qiladi. Chekli Elementlar Usuli (FEM) murakkab geometriya, material xususiyatlari va chegaraviy shartlarga ega bo‘lgan elastik sistemalarning dinamik tahlilini o‘tkazish uchun samarali va keng qo‘llaniladigan sonli usuldir. Abaqus dasturiy ta'minoti muhandislik tahlilining turli sohalarini qamrab oluvchi kuchli FEM paketlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi barcha qirralari qattiq mahkamlangan alumіniy kvadrat plastinkaning markaziga turli qiymatdagi massalar (1 kg, 10 kg, 50 kg va 100 kg) qo‘yilgan holatdagi birinchi uchta tabiiy tebranish chastotasini Abaqus dasturida sonli tahlil qilish orqali aniqlash va qo‘yilgan massaning tebranish xususiyatlariga ta'sirini o‘rganishdan iborat. Tebranish shakllarining vizual tahlili ham taqdim etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So‘nggi yillarda deformatsiyalanuvchi plastinka va qobiqsimon konstruksiyalarning tebranish holatlarini o‘rganish muhandislik mexanikasida dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Jumladan, bunday konstruksiyalarga qo‘shilgan yoki osilgan massalarning dinamik xususiyatlarga ta’siri turli usullar orqali analitik, sonli va eksperimental yo‘nalishlarda tadqiq qilingan.

Silindrsimon va qobiqsimon tuzilmalar bo‘yicha olib borilgan klassik tadqiqotlar (Breslavskiy [1], Palamarchuk [2], Trotsenko [3]) strukturaning o‘ziga xos tebranishlariga qo‘shilgan massalarning sezilarli ta’sirini nazariy modellar orqali isbotlagan. Ayniqsa, qo‘shilgan qattiq jismlar bilan o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish tizimning umumiy inertsiya va qattiqlik xossalariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatib bergan.

Plastinkaga joylashtirilgan massasining dinamik javobga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar (Amba-Rao [4], Bespalova [7], Andreev va boshqalar [10]) bu masalaning murakkabligini ochib bergan. Ushbu ishlarda tebranish chastotalari va mod shakllaridagi o‘zgarishlar sonli tahlil va eksperimentlar yordamida ishonchli tarzda tavsiflangan.

Qobiq va plastinka strukturalarining qatlamlanganligi, qattiqlashtiruvchi elementlar bilan mustahkamlanishi yoki massaning nooddiy joylashuvi tizimning rezonans holatlari va chastota spektriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi (Amirov, Zarutskiy, Palamarchuk [5], Kairovlar [6]). Bu jihatlar, ayniqsa, aerokosmik va qurilish muhandisligida xavfsizlikni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.

Klassik tebranish nazariyasiga oid fundamental manbalar (Babakov [8], Gontkevich [9]) esa hozirgi zamonaviy tahlillar uchun mustahkam nazariy asosni ta’minlab, chegaraviy shartlar, analitik yechimlar va rezonansning oldini olish kabi masalalarni yoritib bergan. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar deformatsiyalanuvchi konstruksiyalar uchun qo‘shilgan massalarning dinamik holatga ta’siri dolzarb va keng o‘rganilgan mavzu ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu tadqiqotlarning aksariyati soddalashtirilgan geometrik sharoitlar yoki analitik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, murakkab real sharoitlarni to‘liq aks ettira olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, plastinkaga osilgan markaziy massaning sonli (FEM asosidagi) tahlili bilan o‘rganilishi, ayniqsa, Abaqus dasturi yordamida, ushbu sohada mavjud bo‘lgan bo‘shliqlarni to‘ldirishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tahlil uchun kvadrat shaklidagi yupqa elastik plastinka modeli yaratildi. Plastinkaning geometrik o‘lchamlari quyidagicha: qirralari $a = 1$ m va qalinligi $h = 0.003$ m. Plastinka aluminiy materialidan tayyorlangan bo‘lib, uning elastiklik moduli $E = 70 \cdot 10^9$ Pa, Puasson koeffitsyienti $\mu = 0.33$ va zichligi $\rho = 2700$ kg/m^{3}ga teng. Plastinkaning barcha to‘rtta qirrasi qattiq mahkamlangan chegaraviy shartlari bilan modellandi. Bu shartlar Abaqus dasturida barcha siljishlar ($U1 = U2 = U3 = 0$) va buralishlari ($UR1 = UR2 = UR3 = 0$) harakat erkinliklarini cheklash orqali qo‘llanildi. Markazga massa ta’sirini hisobga olish uchun plastinkaning markazida joylashgan muqtaga yoki uzelga “nutqaviy mass” elementi kiritildi. Tahlil to‘rtta har xil massa qiymati uchun o‘tkazildi: 1 kg, 10 kg, 50 kg va 100 kg. Plastinkaning markaziy nuqtasi koordinatalari boshida joylashgan.Plastinka modeli elementlar bilan tahlil qilish uchun to‘rt tugunli qobiq elementlari (S4R) ishlatildi. Mesh (to‘r) plastinkaning yuzasi bo‘ylab taqsimlangan bo‘lib, hisoblash aniqligini ta'minlash uchun yetarli darajada zichlikka ega. Erkin tebranish tahlili “Frequency” qadamida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Abaqus dasturida turli qiymatdagi massalar qo‘yilgan alyuminiy plastinkaning erkin tebranish tahlili natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli massa qiymatlarida birinchi uchta erkin tebranish chastotalari (Hz)

Massa (kg)	1-chastota (Hz)	2-chastota (Hz)	3-chastota (Hz)
1	19.897	55.399	55.399
10	8.5437	55.399	55.399
50	3.9611	55.399	55.399
100	2.8139	55.399	55.399

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, markazga qo‘yilgan massa qiymati ortishi bilan birinchi tabiiy tebranish chastotasi sezilarli darajada kamaymoqda. Xususan, massa 1 kg dan 100 kg gacha oshirilganda, birinchi chastota, taxminan, 7 marta pasaygan. Bu holat fizikaviy jihatdan kutilgan natijadir, chunki qo‘yilgan massa sistema inersiyasini oshiradi va elastik elementlarning tebranishini sekinlashtiradi.

Ikkinchi va uchinchi tabiiy tebranish chastotalari esa massa qiymatining o‘zgarishiga deyarli sezgir emas. Bu shuni ko‘rsatadiki, bu yuqori tartibli tebranish shakllari qo‘yilgan massaning lokal ta'siriga unchalik bog'liq emas va ko‘proq plastinkaning o‘zining geometrik va material xususiyatlari bilan aniqlanadi.



a)



b)

1-rasm. 1 kg massa uchun plastinkaning 1- va 2-tebranish formalari.



a)



b)

2-rasm. 10 kg massa uchun plastinkaning 1- va 2-tebranish formalari.



3-rasm. 50 kg massa uchun plastinkaning 1- va 2-tebranish formalari.



4-rasm. 100 kg massa uchun plastinkaning 1- va 2-tebranish formalari.

Tebranish shakllarining vizual tahlili shuni ko‘rsatadiki, birinchi tebranish shakli barcha massa qiymatlari uchun plastinkaning markazida maksimal egilish bilan sodir bo‘ladi, qirralar esa mahkamlangan holatda qoladi (1, (a) 2, (a) 3, (a) va 4-(a) rasmlarga qarang). Ikkinchi va uchinchi tebranish shakllari va chastotalari bir xil bo‘ladi. Markaziy siljish kamayadi, balki markaz va mahkamlangan qirralar o‘rtasidagi oraliq qismlarda maksimal siljishlar kuzatiladi (1, (b) 2, (b) 3, (b) va 4-(b) rasmlarga qarang). Bu yuqori tartibli tebranishlarda plastinka yuzasida tugun chiziqlarining paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Massa qiymatining o‘zgarishi birinchi tebranish chastotasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatsa-da, tebranish shakllarining umumiy ko‘rinishiga unchalik ta’sir etmaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, konstruksiyalarga qo‘shimcha massalar o‘rnatilganda ularning dinamik xarakteristikalari, ayniqsa, asosiy erkin tebranish chastotasi sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Bu rezonans hodisalarining oldini olish, tebranish darajasini nazorat qilish va konstruksiyalarning ishlash muddatini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu maqolada barcha qirralari qattiq mahkamlangan alyuminiy plastinkaning markaziga turli qiymatdagi massalar (1 kg, 10 kg, 50 kg va 100 kg) qo‘yilgan holatdagi erkin tebranish xarakteristikalari Abaqus dasturida sonli tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, qo‘yilgan massa qiymatining ortishi birinchi tabiiy tebranish chastotasining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi, ikkinchi va uchinchi chastotalar esa deyarli o‘zgarmaydi. Tebranish shakllari asosan massa o‘zgarishi bilan barqarorligini saqlaydi. Bu konstruksiyalarning dinamik loyihalashida massa ta'sirini hisobga olish zarurligini va tebranish xususiyatlarini nazorat qilish uchun massa parametrini ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Бреславский В.Е. Продольные колебания цилиндрической оболочки, скрепленной с упруго-вязким заполнителем и сосредоточенными массами. Проблемы машиностроения. 1981, № 14, с. 27–32.

(2). Паламарчук В.Г. Свободные колебания системы, состоящей из ребристой цилиндрической оболочки и абсолютно твердого тела. «Прикл. мех”., 1978, 14, № 4, с. 56–62.

(3). Y.V.Trotsenko. On equilibrium equations of cylindrical shell with attached rigid body. Nonlinear Oscillations 4 (2001), p. 422–431.

(4). Amba-Rao C.L. On the Vibration of a Rectangular Plate Carrying a Concentrated Mass. Transactions of the ASME, Journal of Applied Mechanics 1964, 550–1.

(5). Амиро И.Я., Заруцкий В.А., Паламарчук В.Г. Динамика ребристых оболочек. Киев, “Наукова думка”, 1983, 204 с.

(6). Каиров А.С., Каиров В.А. Численное исследование свободных колебаний конструктивно неоднородных подкрепленных оболочек с присоединенными твердыми телами. Вісник Донецького університета, Сер.А, Природничі науки, 2008, вип.1, с. 170–174.

(7). Беспалова Е.И. Колебания пластин с присоединенными массами, распределенными по участку поверхности. “Прикл. мех.”, 1978, 23, № 6, с. 78–83.

(8). Бабаков И.М. Теория колебания. М., 1965, 559 с.

(9). Гонткевич В.С. Собственные колебания пластинок и оболочек. Киев, “Наук. думка”, 1964, 228 с.

(10). Андреев Л.В., Дышко А.Л., Павленко И.Д. Динамика пластин и оболочек с сосредоточенными массами. М., Машиностроение, 1988, 200 с.

Qalandarova Dildora Abdullayevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil“ kafedrasi o‘qituvchisi dildora.qalandarova.90@gmail.com);
Olloyorova Mohira Azimboy qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrasi 1-kurs magistranti; olloyorovamohira1@gmail.com)

$(A)m-cv$ FUNKSIYALARNING BA’ZI XOSSALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz m-plurisubgarmonik funksiyalar yordamida aniqlanadigan $(A)m$-qavariq funksiyalarni o‘rganamiz. Xususan, $(A)m$-qavariq funksiyalarning ba’zi xossalarini isbotlaymiz.*

Kalit so‘zlar: *m-qavariq funksiyalar, m-plurisubgarmonik funksiyalar, $(A)m$-qavariq funksiyalar, xos qiymatlar, Hessianlar.*

НЕКОТОРЫЕ СВОЙСТВА $(A)m-cv$ ФУНКЦИЙ

Аннотация. *В данной работе мы изучаем $(A)m$-выпуклые функции, определяемые с помощью m-плюрисубгармонических функций. В частности, мы доказываем некоторые свойства $(A)m$-выпуклых функций.*

Ключевые слова: *m-выпуклые функции, $(A)m$-выпуклые функции, m - плюрисубгармонические функции, собственные значения, гессианы.*

SOME PROPERTIES OF $(A)m-cv$ FUNCTIONS

Annotation. *In this paper, we study $(A)m$-convex functions defined using m-plurisubharmonic functions. In particular, we prove some properties of $(A)m$-convex functions.*

Keywords: *m-convex functions, $(A)m$-convex functions, m-plurisubharmonic functions, eigenvalues, Hessians.*

Kirish (Introduction). $m-$qavariq funksiyalar nazariyasi haqiqiy geometriya nazariyasida kam o‘rganilgan va yangi yo‘nalishdir. Lekin $m=n$ bo‘lganda, bu sinf subgarmonik funksiyalar sinfi bilan ustma-ust tushadi, $m=1$ bo‘lganda esa bu sinf $\mathbb{R}^n$ dagi qavariq funksiyalar bilan mos keladi. Qavariq funksiyalar sinfi A.Aleksandrov, I.Bakelman, A.Pogorelov, A.Artiqbayevlar ishlarida yaxshi o‘rganilgan. $m>1$ bo‘lganda, bu sinf N.Ivochkina, N.Trudinger, X.Vang va boshqalarning bir qator ishlarida o‘rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). $(A)m-$qavariq funksiyalar sinfi B.Abdullayev va D.Qalandarovalarning ishlarida o‘rganilgan. Bu sinf $m-$qavariq funksiyalar sinfi bilan $m=2$ bo‘lganda, ustma-ust tushishini isbot qilishgan. Shuningdek, bu sinflar $1\le m\le n\le 7$ larda va $n=9,\ n=8$ va $m=3$ bo‘lganda ustma-ust tushishini isbotlashgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) m-qavariq funksiyalar $\mathbb{R}^n$ fazodagi qavariq funksiyalarning umumlashmasi hisoblanadi. Qavariq funksiyalar sinfi A.Aleksandrov [1], I.Bakelman [2],

A.Pogorelov [3] ishlarida o‘rganilgan. $m > 1$ bo‘lgan holda esa I.Ivochkina [4], N.Trudinger, X.Wang [5], R.Sharipov, M.Ismoilov [6] ishlarida o‘rganilgan. Quyida biz m-qavariq funksiyalarni gessiandagi operatorlar yordamida anqlaymiz. Aytaylik, $u(x)$ funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada aniqlangan ikki marta silliq funksiya bo‘lsin. U holda $\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right)$ matrisa simmetrik, ya’ni $\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_t \partial x_k}$ bo‘ladi. Mos ortonormal alamashtirishlardan keyin bu matrisa quyidagi diagonal ko‘rinishga keltiriladi:

$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right) \to \begin{pmatrix} \lambda_1 & 0 & ... & 0 \\ 0 & \lambda_2 & ... & 0 \\ ... & ... & ... & ... \\ 0 & 0 & ... & \lambda_n \end{pmatrix},$$

bunda $\lambda_j = \lambda_j(x) \in \mathbb{R} - \left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right)$ matrisaning xos qiymatlari. $H^k(u) = H^k(\lambda) = \sum_{1 \le j_1 < ... < j_k \le n} \lambda_{j_1} ... \lambda_{j_k}$ – esa $\lambda = (\lambda_1, \lambda_2, ..., \lambda_n)$ xos qiymatlar vektorining $k-$ darajali gessiani bo‘lsin.

1-ta’rif. Agar ikki marta silliq $u \in C^2(D),\ D \subset \mathbb{R}^n$ funksiyaning $\lambda = \lambda(x) = (\lambda_1(x), \lambda_2(x), ..., \lambda_n(x))$ xos qiymatlari vektori

$$H^k(\lambda(x)) \ge 0,\ \forall x \in D,\ k = 1, ..., n - m + 1$$

tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada $m-$qavariq $(u \in m - cv(D))$ deyiladi.

Ravshanki, $1 - cv(D) \subset m - cv(D) \subset n - cv(D) = sh(D)$.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). (A) $m-$qavariq funksiyalar sinfini aniqlashda m o‘l-chovli $\forall \Pi \subset \mathbb{R}^n,\ \dim_{\mathbb{R}} \Pi = m$ tekisliklardagi qisqartmasi subgarmoniklik xossasiga ega bo‘lgan m-plurisubgarmonik funksiyalar deb nomlanuvchi funksiyalar sinfi kerak bo‘ladi. Bu yo‘nalishda B.D. Drnovšek, F.Forstnerič [7], F.R.Harvey va H.B.Lawson [8] va boshqa matematiklar tomonidan muhim na-tijalarga erishilgan.

2-ta’rif. $u(x)$ funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada berilgan bo‘lsin. Agar bu funksiya:

1) D sohada yuqoridan yarim uzluksiz, ya’ni $\overline{\lim_{x \to x^0}} u(x) \le u(x^0)$;

2) Har bir $m-$o‘lchovli haqiqiy $\Pi \subset \mathbb{R}^n \left(\dim_{\mathbb{R}^n} \Pi = m \right)$ tekislik uchun $u\big|_{\Pi} \in sh(\Pi \cap D)$

shartlarini qanoatlantirsa, u holda $u(x)$ funksiya D sohada *m-plurisubgarmonik* $(m - psh)$ ($m-$o‘lchovli haqiqiy tekisliklarda subgarmonik, bunda $1 \le m \le n$) deyiladi.

$m-psh\left(D\right)$ funksiyalar subgarmonik bo‘ladi va shuning uchun bunday funksiyalar subgarmonik funksiyalarning barcha xossalarini qanoatlantiradi.

$m-psh$ funksiya ta’rifidan quyidagi tasdiq kelib chiqadi:

Agar ikki marta silliq $u\in C^2\left(D\right)$ funksiyaning $\lambda=\lambda\left(x\right)=\left(\lambda_1\left(x\right),\lambda_2\left(x\right),...,\lambda_n\left(x\right)\right)$ xos qiymatlari vektori $\lambda_{j_1}\left(x\right)+\lambda_{j_2}\left(x\right)+...+\lambda_{j_m}\left(x\right)\geq 0,\ \ 1\leq j_1<...<j_m\leq n$ tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda u funksiya $m-psh$ funksiyadan iborat bo‘ladi.

Ushbu maqolada $\left(A\right)m$-qavariq funksiyalarning ba’zi xossalarini o‘rganamiz:

$\left(A\right)m$- qavariq funksiyalar va ularning ba’zi xossalari

3-ta’rif. Agar ikki marta silliq $u\in C^2\left(D\right)$ funksiyaning $\lambda=\lambda\left(x\right)=\left(\lambda_1\left(x\right),\lambda_2\left(x\right),...,\lambda_n\left(x\right)\right)$ xos qiymatlari vektori $\lambda_{j_1}\left(x\right)+\lambda_{j_2}\left(x\right)+...+\lambda_{j_m}\left(x\right)\geq 0,\ 1\leq j_1<...<j_m\leq n$ va $H^{n-m+1}\left(\lambda\left(x\right)\right)\geq 0,$ $\forall x\in D$ tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $D\subset\mathbb{R}^n$ sohada $\left(A\right)m$- qavariq $\left(u\in\left(A\right)m-cv\left(D\right)\right)$ deyiladi.

Shunday qilib, $\left(A\right)m-cv$ funksiya bu $H^{n-m+1}\left(\lambda\left(x\right)\right)\geq 0$ qo‘shimcha shartga ega bo‘lgan m-plyurisubgarmonik funksiya ekan.

$\left(A\right)m$-qavariq funksiyalar quyidagi xossalarga ega:

1. $\left(A\right)m-cv\left(D\right)\subset m-psh\left(D\right)\subset sh\left(D\right).$

2. $cv\left(D\right)=\left(A\right)1-cv\left(D\right),\quad\left(A\right)n-cv\left(D\right)=sh\left(D\right).$

Yuqoridagi xossalarning isboti bevosita ta’rifdan kelib chiqadi.

Shuningdek, $\left(A\right)m$-qavariq va m-qavariq funksiyalarning ustma-ust tushishi haqida quyidagi teoremalar isbot qilingan (qarang [9]):

1-teorema. $D\subset\mathbb{R}^n$ *bo‘lsin. U holda* $\left(A\right)2-cv\left(D\right)\bigcap C^2\left(D\right)=2-cv\left(D\right)\bigcap C^2\left(D\right)$ *tenglik o‘rinli bo‘ladi.*

2-teorema. $D\subset\mathbb{R}^n,\ \ 1\leq m\leq n\leq 7$ *bo‘lsin. U holda* $\left(A\right)m-cv\left(D\right)=m-cv\left(D\right)\bigcap C^2\left(D\right)$ *tenglik o‘rinli bo‘ladi.*

3-teorema. $D\subset\mathbb{R}^n$ *bo‘lsin. U holda* $n=9$ *va* $n=8$ *uchun* $\left(A\right)3-cv\left(D\right)=3-cv\left(D\right)\bigcap C^2\left(D\right)$ *tenglik o‘rinli bo‘ladi.*

Endi biz $n=10,m=3$ bo‘lgan holda $\left(A\right)m$-qavariq va m-qavariq funksiyalar sinflarining ustma-ust tushmasligini quyidagi misol yordamida ko‘rsatamiz:

1-misol. $u\left(x_1, x_2, \ldots, x_{10}\right) = -\sum_{s=1}^{2} x_s^2 + 2\sum_{t=3}^{10} x_t^{\,2}$ funksiyani $\left(A\right)3$-qavariq va 3-qavariqlikka tekshiramiz. Buning uchun, dastlab, quyidagi hisoblashlarni bajaramiz:

$$\frac{\partial u}{\partial x_1} = -2x_1,\ \frac{\partial u}{\partial x_2} = -2x_2,\ \frac{\partial u}{\partial x_3} = 4x_3, \ldots,\ \frac{\partial u}{\partial x_{10}} = 4x_{10};$$

$$u_{11} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_1^{\,2}} = -2,\ u_{22} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_2^{\,2}} = -2,\ u_{33} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_3^{\,2}} = 4, \ldots, u_{10,10} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_{10}^{\,2}} = 4;$$

$$u_{st} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_s \partial x_t} = 0,\ t \neq s.$$

$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_s \partial\, x_t}\right) \to \begin{pmatrix} -2 & 0 & \ldots & 0 \\ 0 & -2 & \ldots & 0 \\ \ldots & \ldots & \ldots & \ldots \\ 0 & 0 & \ldots & 4 \end{pmatrix},$$

Yuqoridagilardan $\lambda_1 = \lambda_2 = -2,\ \ \lambda_3 = \lambda_4 = \ldots = \lambda_{10} = 4$ va

$$H^8\left(\lambda\right) = \lambda_1\lambda_2\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_6\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_6}\right) + \lambda_1\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_7\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_7}\right) +$$

$$+\lambda_2\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_7\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_7}\lambda\right) + \lambda_3\lambda_4\ldots\lambda_{10} = 0,$$

ekanligini hamda quyidagi tengsizliklarning o‘rinli ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

$$\lambda_{j_1} + \lambda_{j_2} + \lambda_{j_3} \ge 0, \quad 1 \le j_1 < j_2 < j_3 \le 10.$$

Demak, $u\left(x\right) \in \left(A\right)3 - cv\left(\mathbb{C}^{10}\right)$.

$$H^7\left(\lambda\right) = \lambda_1\lambda_2\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_5\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_5}\right) + \lambda_1\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_6\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_6}\right) +$$

$$+\lambda_2\left(\sum_{3\le j_1<\ldots<j_6\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_6}\right) + \sum_{3\le j_1<\ldots<j_7\le 10} \lambda_{j_1}\lambda_{j_2}\ldots\lambda_{j_7} = -6\cdot 4^7 < 0$$

bo‘lishidan esa $u\left(x\right) \notin 3 - cv(\mathbb{C}^{10})$ ekanligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, $n = 10, m = 3$ bo‘lgan holda $\left(A\right)m - cv$ va $m - cv$ funksiyalar sinflari ustma-ust tushmaydi, ya’ni $n \ge 10$ larda bu sinflar turli xil bo‘lar ekan.

$\left(A\right)m$-qavariq funksiyalar uchun $n = 11,\ m = 3$ bo‘lgan holda $\left(A\right)m - cv(D) \subset \left(A\right)(m+1) - cv(D)$ munosabat o‘rinli emasligini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz:

2-misol. $u\left(x\right)=3\sum_{j=1}^{9}x_j^2-x_{10}^2-2x_{11}^2$ funksiyani $\left(A\right)3-cv(\mathbb{R}^{11})$ likka tekshiramiz:

$$\frac{\partial u}{\partial x_1}=6x_1,...,\frac{\partial u}{\partial x_9}=6x_9,\ \frac{\partial u}{\partial x_{10}}=-2x_{10},\ \frac{\partial u}{\partial x_{11}}=-4x_{11};$$

$$u_{11}=\frac{\partial^2 u}{\partial x_1^{\ 2}}=6,...,\ u_{99}=\frac{\partial^2 u}{\partial x_9^{\ 2}}=6,\ u_{1010}=\frac{\partial^2 u}{\partial x_{10}^{\ 2}}=-2,u_{1111}=\frac{\partial^2 u}{\partial x_{11}^{\ 2}}=-4;$$

$$u_{st}=\frac{\partial^2 u}{\partial x_s\partial x_t}=0,\ t\neq s.$$

Demak, $\mu_1=...=\mu_9=\mu=6,\ \mu_{10}=-2,\ \mu_{11}=-4,$ va $\mu_{j_1}+\mu_{j_2}+\mu_{j_3}\geq 0,$ $1\leq j_1<j_2<j_3\leq 11$ tengsizliklar o‘rinli. Bundan esa $u\left(x\right)\in 3-psh(\mathbb{R}^{11})$ ekanligi kelib chiqadi va gessian hisoblash formulasiga ko‘ra,

$$H^9\left(\mu\right)=\left(\mu_{10}+\mu_{11}\right)C_9^8\mu^8+\mu_{10}\mu_{11}C_9^7\mu^7+C_9^9\mu^9=$$
$$=-6\cdot 9\cdot 6^8+8\cdot 36\cdot 6^7+6^9=-9\cdot 6^9+8\cdot 6^9+6^9=0.$$

tenglik bajarilishini ko‘rishimiz mumkin. Demak, $u\left(x\right)\in\left(A\right)3-cv(\mathbb{R}^{11})\bigcap C^2(\mathbb{R}^{11}),$ lekin

$$H^8\left(\mu\right)=\left(\mu_{10}+\mu_{11}\right)C_9^7\mu^7+\mu_{10}\mu_{11}C_9^6\mu^6+C_9^8\mu^8=$$
$$=-6\cdot 36\cdot 6^7+8\cdot 12\cdot 7\cdot 6^6+9\cdot 6^8=-216\cdot 6^7+112\cdot 6^7+54\cdot 6^7<0$$

tengsizlikdan $u\left(x\right)\notin\left(A\right)4-cv(\mathbb{R}^{11})\bigcap \mathrm{C}^2(\mathbb{R}^{11})$ bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

$\left(A\right)m$-qavariq funksiyalar yig‘indisi har doim ham $\left(A\right)m-cv$ funksiyalar sinfiga tegishli bo‘lavermasligini quyida $n=10,m=3$ bo‘lgan holat uchun ko‘rib chiqamiz:

3-misol. $u\left(x\right)=10\sum_{j=1}^{8}x_j^2-5x_9^2-5x_{10}^2$ va $v\left(x\right)=-x_1^2-x_2^2+2\sum_{j=3}^{10}x_j^2$ funksiyalar berilgan bo‘lsin. $u\left(x\right)\in\left(A\right)3-cv(\mathbb{R}^{10})$ va $v\left(x\right)\in\left(A\right)3-cv(\mathbb{R}^{10})$ ekanligini tekshirib ko‘rish qiyin emas. Endi

$$w\left(x\right)=u\left(x\right)+v\left(x\right)=18x_1^2+18x_2^2+24\sum_{i=3}^{8}x_i^2-6x_9^2-6x_{10}^2$$

funksiyani $\left(A\right)3-cv(\mathbb{R}^{10})$ likka tekshiramiz. Yuqoridagi misollardagi kabi,

$$\eta_1=\eta_2=18,\ \eta_3=...=\eta_8=24,\ \ \eta_9=\eta_{10}=-6$$

va $\eta_{j_1}+\eta_{j_2}+\eta_{j_3}\geq 0,\ 1\leq j_1<j_2<j_3\leq 10$ ekanligidan $w\left(x\right)\in 3-psh(\mathbb{R}^{10})$ bo‘ladi. $H^8\left(\eta\right)<0$ ekanligidan esa $w=u+v$ funksiya $\mathbb{R}^{10}$ da $\left(A\right)3-cv$ bo‘la olmaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, $n\geq 10$ larda $\left(A\right)m$-qavariq va $m-$qavariq funksiyalar sinflari turli xil bo‘ladi. $\left(A\right)m$-qavariq funksiyalar $n=11,\ m=3$ bo‘lgan

hol uchun $\left(A\right)m-cv(D)\subset\left(A\right)(m+1)-cv(D)$ shartni qanoatlantirmasligi va $\left(A\right)m$ -qavariq funksiyalar yig‘indisi har doim ham $\left(A\right)m-cv$ funksiyalar sinfiga tegishli bo‘lmasligi $n=10,m=3$ bo‘lgan holda isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aleksandrov A.D., Konvexe Polyeder. Academie-Verlag, Berlin, 1958,419 p.

(2). Bakelman I.J., Convex Analysis and Nonlinear Geometric Elliptic Equations.Springer-Verlag, Berlin-Heidelberg, 1994, 410 p.

(3). Погорелов А.В. Внешняя геометрия выпуклых поверхностей. Монография, М., “Наука”, 1969, 760 с.

(4). Ivochkina N.M., Trudinger N.S., Wang X.J. The Dirichlet problem for de-generate Hessian equations. Communications in Partial Differential Equations, 29(2004), pp. 219–235.

(5). Trudinger N.S., Wang X.J. Hessian measures I. Topological Methods in Nonlinear Analysis, 10(2), (1997), pp. 225–239.

(6). R.Sharipov, M.Ismoilov $m-$convex $\left(m-cv\right)$ functions. Azerbaijan Journal of Mathematics, Vol 13, №2 (2023), pp. 237–247.

(7). Drnovšek B., Forstnerič F. Minimal hulls of compact sets in $\mathbb{R}^3$. Trans. Amer. Math. Soc., 368(2016), pp. 7477–7506.

(8). Harvey F.R. and Lawson H.B.Jr. Calibrated geometries // Acta Mathematica, 148(1982), pp. 47–157.

(9). Абдуллаев Б., Каландарова Д. О равенстве функций $\left(A\right)m-cv$ и $m-cv$. “Ilm sarchashmalari”, 6(2024), с. 7–12.

Musayev Sardor Xabibulla o‘g‘li (University of Science and Technology “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi; sardormusayev1999@gmail.com)

LEYBNITS ALGEBRALARIDA KVAZI-DIFFERENSIALLASH

Annotatsiya. *Bu maqolada Leybnits algebralari kvazi-differensiallashlarining elementar xossalari, ikki o‘lchamli Leybnits algebralarining kvazi-differensiallashlari tasniflangan. Shuningdek, nol filiform va tabiiy usulda gradiurlangan Leybnits algebralarining kvazi-differensiallashlari hisoblangan.*

Kalit so‘zlar: *differensiallash, kvazi-differensiallash, umumlashgan differensiallash, sentroid, kvazi-sentroid.*

Мусаев Сардор Хабибулла угли (Университет науки и технологий, преподаватель кафедры «Точные науки»; sardormusayev1999@gmail.com)

КВАЗИ-ДИФФЕРЕНЦИАЛ В АЛГЕБРАХ ЛЕЙБНИЦА

Аннотация. *В данной статье изучаются элементарные свойства квази-дифференцирований алгебр Лейбница. Проведена классификация квази-дифференцирований двумерных и трёхмерных нильпотентных алгебр Лейбница. Также вычислены квази-дифференцирования нуль-филиформных и естественно градуированных алгебр Лейбница.*

Ключевые слова: *дифференцирование, квази-дифференцирование, обобщённое дифференцирование, центроид, квази-центроид.*

Musayev Sardor Xabibulla o‘g‘li (University of Science and Technology Teacher of the Department of “Exact Sciences”; sardormusayev1999@gmail.com)

QUASIDERIVATION IN LEIBNIZ ALGEBRAS

Annotation. *This article explores the elementary properties of quasi-derivations of Leibniz algebras. In particular, it classifies the quasi-derivations of two-dimensional Leibniz algebras and three-dimensional nilpotent Leibniz algebras. Additionally, the quasi-derivations of null-filiform and naturally graded Leibniz algebras are computed.*

Keywords: *derivation, quasi-derivation, generalized derivation, centroid, quasi-centroid.*

Kirish. Algebralarni o‘rganishda differensiallashlarni o‘rni muhim. Turli differensiallashlar mavjud. Bu maqolada kvazi differensiallashlar tushunchasi Leybnits algebralari uchun o‘rganildi. Shuningdek, uning qator xossalari ham keltirib o‘tilgan.

1-ta’rif. Agar $(L,[-,-])$ algebraning barcha a,b,c elementlari uchun:

$$[a,[b,c]]=[[a,b],c]-[[a,c],b]$$

ayniyat bajarilsa, $(L, [-,-])$ algebra Leybnits algebrasi deb ataladi.

2-ta'rif. d akslantirish $d: L \to L$ chiziqli akslantirish bo'lsin deylik. Agar $(L, [-,-])$ Leybnits algebraning barcha elementlariga:

$$d([a,b]) = [d(a), b] + [a, d(b)]$$

ayniyat o'rinli bo'lsa, d chiziqli akslantirishga L Leybnits algebra differensiallashi deyiladi.

3-ta'rif. $D \in End(L)$ uchun, $\exists P, Q \in End(L)$ topilsa va barcha $\forall a, b \in L$ uchun

$$[D(a), b] + [a, P(b)] = Q([a,b]),$$

bajarilsa, D ga umumlashgan differensillashi (generalised) deyiladi.

4-ta'rif. $D \in End(L)$ uchun, $\exists T \in End(L)$ topilsa va barcha $\forall a, b \in L$ uchun,

$$[D(a), b] + [a, D(b)] = T([a,b])$$

bajarilsa, D akslantirish kvazi-differensillash deyiladi.

5-ta'rif. L leybnits algebrasi va I uning bo'sh bo'lmagan qism to'plami bo'lsin. $Z_L(I) = \{a \in L \mid [a,b] = [b,a] = 0, \forall b \in I\}$ to'plamga I ning L dagi markazi deyiladi. Xususan, $Z_L(L) = \{a \in End(L) \mid [a,b] = [b,a] = 0, \forall b \in L\}$ to'plam L Leybnits algebrasining markazi deyiladi va $Z(L)$ deb yuritiladi.

Asosiy qism. 1-lemma. Agar L Leybnits algebrasi bo'lsa, u holda:

(1) $GDER(L), QDER(L)$ va $C(L)$ algebralar $End(L)$ ning qism algebrasi bo'ladi.

(2) $ZDER(L)$ algebra $DER(L)$ ning ideali bo'ladi.

(3) I esa L ning ideali bo'lsa, u holda $Z_L(I)$ ham L ning ideali bo'ladi. Shuningdek, $Z(L) = Z_L(L)$, $Z(I) = Z_I(I)$ lar ham L ning ideallari bo'ladi.

(4) Agar L Leybnits algebrasini ikkita ideallarining to'g'ri yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin bo'lsin, $L = M \oplus N$. U holda, $Z(L) = Z(M) \oplus Z(N)$.

2-lemma. L leybnits algebrasi bo'lsin, $End(L)$da quyidagicha amal aniqlaymiz:

$$T_1 \bullet T_2 = T_1T_2 + T_2T_1, \forall T_1, T_2 \in End(L)$$

U holda, $(End(L), \bullet)$ Yordan algebrasi bo'ladi.

1-tasdiq. L leybnits algebrasi bo'lsin, $QC(L)$da quyidagicha amal aniqlaymiz: $\forall T_1, T_2 \in QC(L)$ uchun $T_1 \bullet T_2 = T_1T_2 + T_2T_1$. U holda, $(QC(L), \bullet)$ Yordan algebrasi bo'ladi.

1-teorema. L Leybnits algebrasi uchun quyidagilar o'rinli:

(1) Agar $QC(L)$ Li algebrasi bo'lishi uchun, $[T_1, T_2] = T_1T_2 - T_2T_1$ kommutatorga ko'ra, $charF \neq 2$ va $QC(L)$ kompozitsiyaga nisbatan assotsiativ algebra bo'lishi zarur va yetarli.

(2) Agar $QC(L)$ Li algebrasi bo'lishi uchun, $charF \neq 2$, $Z(L) = 0$ va $[QC(L), QC(L)] = 0$ bo'lishi zarur va yetarli.

Ixtiyoriy ikki-o'lchamli Leybnits algebrasi quyidagi uchta o'zaro izomorf bo'lmagan Leibnits algebralaridan biriga izomorfdir:

$L_1: [e_1, e_1] = e_2$

$L_2: [e_1, e_2] = -[e_2, e_1] = e_2$

$L_3: [e_1, e_2] = [e_2, e_2] = e_1$

2-teorema. Ikki o'lchamli Leybnits algebralari differensiallashlari matritsalari quyidagi jadvalda berilgan:

$L_1: [e_1, e_1] = e_2$				
$Der(L_1)$	$QDer(L_1)$	$GDer(L_1)$	$C(L_1)$	$QC(L_1)$
$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & 2t_{11} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & t_{11} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & t_{22} \end{pmatrix}$
$L_2: [e_1, e_2] = -[e_2, e_1] = e_2$				
$Der(L_2)$	$QDer(L_2)$	$GDer(L_2)$	$C(L_2)$	$QC(L_2)$
$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ 0 & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ t_{21} & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ t_{21} & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & 0 \\ 0 & t_{11} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & 0 \\ 0 & t_{11} \end{pmatrix}$
$L_3: [e_1, e_2] = [e_2, e_2] = e_1$				
$Der(L_3)$	$QDer(L_3)$	$GDer(L_3)$	$C(L_3)$	$QC(L_3)$
$\begin{pmatrix} t_{11} & 0 \\ t_{11} & 0 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{21} + t_{22} & 0 \\ t_{21} & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & t_{12} \\ t_{21} & t_{22} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & 0 \\ 0 & t_{11} \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} t_{11} & 0 \\ 0 & t_{11} \end{pmatrix}$

Endi keyingi kichik o'lchamli Leybnits algebralar bu uch o'lchamli nilpotent Leybnits algebralaridir. Ular:

λ_1: $abelian$;
λ_2: $[e_1, e_1] = e_2$;
λ_3: $[e_2, e_3] = e_1,\ [e_3, e_2] = -e_1$;
λ_4: $[e_2, e_1] = e_3,\ [e_1, e_2] = \gamma e_3,\ \gamma \neq \gamma^{-1} (\gamma \in C)$;
λ_5: $[e_1, e_1] = e_3,\ [e_2, e_1] = e_3,\ [e_1, e_2] = -e_3$
λ_6: $[e_1, e_1] = e_2,\ [e_2, e_1] = e_3$.

3-teorema. Uch o‘lchamli nilpotent Leybnits algebralarining differensiallashlari matritsalari quyidagi jadavlda berilgan:

λ_2: $[e_1, e_1] = e_2$				
$Der(\lambda_2)$	$QDer(\lambda_2)$	$GDer(\lambda_2)$	$C(\lambda_2)$	$QC(\lambda_2)$
$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & 2x_1 & 0 \\ 0 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & x_1 & 0 \\ 0 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$
λ_3: $[e_2, e_3] = e_1,\ [e_3, e_2] = -e_1$				
$Der(\lambda_3)$	$QDer(\lambda_3)$	$GDer(\lambda_3)$	$C(\lambda_3)$	$QC(\lambda_3)$
$\begin{pmatrix} y_2 + z_3 & 0 & 0 \\ y_1 & y_2 & y_3 \\ z_1 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 \\ y_1 & y_2 & y_3 \\ z_1 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 \\ y_1 & y_2 & y_3 \\ z_1 & z_2 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 \\ y_1 & x_1 & 0 \\ z_1 & 0 & x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 \\ y_1 & y_2 & 0 \\ z_1 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$
λ_4: $[e_2, e_1] = e_3,\ [e_1, e_2] = \alpha e_3,\ \alpha \neq \alpha^{-1}, (\alpha \in C)$				
$Der(\lambda_4)$	$QDer(\lambda_4)$	$GDer(\lambda_4)$	$C(\lambda_4)$	$QC(\lambda_4)$
$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & x_1 + y_2 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ y_1 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$
λ_5: $[e_1, e_1] = e_3,\ [e_2, e_1] = e_3,\ [e_1, e_2] = -e_3$				
$Der(\lambda_5)$	$QDer(\lambda_5)$	$GDer(\lambda_5)$	$C(\lambda_5)$	$QC(\lambda_5)$
$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & 2x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$
λ_6: $[e_1, e_1] = e_2,\ [e_2, e_1] = e_3$				
$Der(\lambda_6)$	$QDer(\lambda_6)$	$GDer(\lambda_6)$	$C(\lambda_6)$	$QC(\lambda_6)$
$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & 2x_1 & x_2 \\ 0 & 0 & 3x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ 0 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & x_2 & x_3 \\ y_1 & y_2 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & x_1 & 0 \\ 0 & 0 & x_1 \end{pmatrix}$	$\begin{pmatrix} x_1 & 0 & x_3 \\ 0 & x_1 & y_3 \\ 0 & 0 & z_3 \end{pmatrix}$

Nol filiform Leybnits algebrasining kvazi-differensiallashlari. Ma’lumki, quyidagi ko‘paytirish jadvali orqali aniqlangan, $\boldsymbol{NF_n}$ orqali belgilanuvchi yagona $\boldsymbol{n}$ o‘l-chamli nol filiform Leybnits algebrasi mavjud:

$$NF_n: [e_j, e_1] = e_{j+1},\ 1 \leq j \leq n-1.$$

Biz dastlab bu algebrani kvazi-differensiallashini hisoblaymiz:

4-teorema. NF_n nol filiform Leybnits algebrasi uchun quyidagi o‘rinli:

$$QDer(NF_n) = \begin{pmatrix} t_{1,1} & t_{1,2} & t_{1,3} & \dots & t_{1,n-1} & t_{1,n} \\ 0 & t_{2,2} & t_{2,3} & \dots & t_{2,n-1} & t_{2,n} \\ 0 & t_{3,2} & t_{3,3} & \dots & t_{3,n-1} & t_{3,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & t_{n-1,2} & t_{n-1,3} & \dots & t_{n-1n-1} & t_{n-1,n} \\ 0 & 0 & 0 & \dots & t_{n,n-1} & t_{n,n} \end{pmatrix}$$

$$GDer(NF_n) = \begin{pmatrix} t_{1,1} & t_{1,2} & t_{1,3} & \dots & t_{1,n-1} & t_{1,n} \\ t_{2,1} & t_{2,2} & t_{2,3} & \dots & t_{2,n-1} & t_{2,n} \\ t_{3,1} & t_{3,2} & t_{3,3} & \dots & t_{3,n-1} & t_{3,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ t_{n-1,1} & t_{n-1,2} & t_{n-1,3} & \dots & t_{n-1n-1} & t_{n-1n} \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & t_{n,n} \end{pmatrix}$$

$$QC(NF_n) = \begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 & \dots & x_n \\ 0 & x_1 & 0 & \dots & y_n \\ 0 & 0 & x_1 & \dots & z_n \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & w_n \end{pmatrix} \qquad C(NF_n) = \begin{pmatrix} x_1 & 0 & 0 & \dots & x_n \\ 0 & x_1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 0 & x_1 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & x_1 \end{pmatrix}$$

Ixtiyoriy, n o‘lchamli tabiiy usulda graduirlangan filiform Leybnits algebralari quyidagi o‘zaro izomorf bo‘lmagan algebralardan biriga izomorf bo‘ladi:

$$F_n{}^1\colon\ [e_1,e_1]=e_3,\ [e_j,e_1]=e_{j+1},\ 2\le j\le n-1$$
$$F_n{}^2\colon\ [e_1,e_1]=e_3,\ [e_j,e_1]=e_{j+1},\ 3\le j\le n-1$$

5-teorema. Tabiiy usulda graduirlangan filiform Leybnits algebralari uchun kvazi – differensiallashlar fazosi matritsalari quyidagi jadvalda berilgan:

$F_n{}^1$	$QDer(F_n{}^1) = \begin{pmatrix} p_{1,1} & p_{1,2} & p_{1,3} & \dots & p_{1,n-1} & p_{1,n} \\ 0 & p_{1,1}+p_{1,2} & p_{1,3} & \dots & p_{1,n-1} & p_{2,n} \\ 0 & p_{3,2} & p_{3,3} & \dots & p_{3,n-1} & p_{3,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & p_{n-1,2} & p_{n-1,3} & \dots & p_{n-1,n-1} & p_{n-1,n} \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & p_{n,n} \end{pmatrix}$
$F_n{}^2$	$QDer(F_n{}^2) = \begin{pmatrix} p_{1,1} & p_{1,2} & p_{1,3} & \dots & p_{1,n-1} & p_{1,n} \\ 0 & p_{2,2} & 0 & \dots & 0 & p_{2,n} \\ 0 & p_{3,2} & p_{3,3} & \dots & p_{3,n-1} & p_{3,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & p_{n-1,2} & p_{n-1,3} & \dots & p_{n-1,n-1} & p_{n-1,n} \\ 0 & p_{n,2} & 0 & \dots & 0 & p_{n,n} \end{pmatrix}$

Xulosa. Mazkur maqolada Leybnits algebralari uchun kvazi-differensiallash tushunchasi chuqur o‘rganildi. Avvalo, kvazi-differensiallashlarning asosiy elementar xossalari tahlil qilindi. Keyin esa ikki o‘lchamli va uch o‘lchamli nilpotent Leybnits algebralari doirasida kvazi-differensiallashlar to‘liq tasniflandi. Bundan tashqari, nol filiform va tabiiy usulda gradiurlangan Leybnits algebralari uchun ham kvazi-differensiallashlar aniqlandi. Olingan natijalar Leybnits algebralari tuzilmasini chuqurroq tushunish va ularning differensial xossalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (references):

[1]. Musayev, S. (2024). Tabiiy usulda graduirlangan Filiform Leybnits algebralarining kvazi-differensiallashlari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(7), с. 72–76.

[2]. Xabibulla o‘g‘li, M.S. (2025). Faktoriallar haqida tushuncha va ularning turlari. ilg‘or pedagog, 2(1), 3-7.

[3]. Musayev, S.X. (2023). Nol-Filiform Leybnits algebralarining kvazi-differensiallashlari. mathematics, mechanics and intellectual technologies. Tashkent, 2023, p. 227.

[4]. Musayev, S.X. (2022). Elementary properties of centroid, quasicentroid and central derivations of Leibniz algebras. OF COMMUNICATIONS, 75, 81.

[5]. Musayev, S.X. Leybnits algebralarining kvazi-differensiallashlari va ularning xossalari. Операторные алгебры, неассоциативные структуры и смежные проблемы, с. 118.

Tursunov Ikrom Eshpo‘latovich (Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, p.f.f.d. PhD; i.tursunov1506@mail.ru)

KO‘P O‘ZGARUVCHILI FUNKSIYA XOSSALARI BILAN UNING XUSUSIY HOSILALARI XOSSALARI ORASIDAGI BOG‘LANISHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar va ularning xususiy hosilalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar tahlil qilingan. Funksiyaning biror nuqtada differensiallanuvchi bo‘lishi uning barcha xususiy hosilalariga ega bo‘lishi uchun zaruriy va ayrim hollarda yetarli shart ekanligi isbotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, funksiyaning xususiy hosilalari mavjud bo‘lishi uning differensiallanuvchanligini kafolatlamasligi misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Bir o‘zgaruvchili va ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar orasidagi farqlar ham umumlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘p o‘zgaruvchili funksiya, xususiy hosila, differensiallanuvchanlik, uzluksizlik, teorema, orttirma, limit, matematik analiz.*

Турсунов Икром Эшпўлатович (доцент Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам; i.tursunov1506@mail.ru)

СВЯЗИ МЕЖДУ СВОЙСТВАМИ ФУНКЦИИ НЕСКОЛЬКИХ ПЕРЕМЕННЫХ И СВОЙСТВАМИ ЕЁ ЧАСТНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ

Аннотация. *В данной статье проанализированы связи между функциями нескольких переменных и их частными производными. Показано, что дифференцируемость функции в некоторой точке является необходимым и в некоторых случаях достаточным условием существования всех частных производных в этой точке. Также с помощью примеров продемонстрировано, что существование частных производных не всегда гарантирует дифференцируемость функции. Обобщены различия между функциями одной переменной и функциями нескольких переменных.*

Ключевые слова: *функция нескольких переменных, частная производная, дифференцируемость, непрерывность, теорема, приращение, предел, математический анализ.*

Tursunov Ikrom Eshpo‘latovich (Associate Professor at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; i.tursunov1506@mail.ru)

RELATIONSHIPS BETWEEN THE PROPERTIES OF MULTIVARIABLE FUNCTIONS AND THE PROPERTIES OF THEIR PARTIAL DERIVATIVES

Annotation. *This article analyzes the relationships between multivariable functions and their partial derivatives. It is demonstrated that differentiability of a function at a certain point is a necessary and in some cases sufficient condition for the existence of all partial derivatives at that point. Moreover, examples are provided to show that the existence of partial derivatives does not always guarantee differentiability. The distinctions between single-variable and multivariable functions are also generalized.*

Key words: *multivariable function, partial derivative, differentiability, continuity, theorem, increment, limit, mathematical analysis.*

Kirish. Bir o‘zgaruvchili funksiyalarda hosilaning mavjudligi uning differensiallanuvchi bo‘lishi uchun ham zaruriy, ham yetarli shart edi. Endi ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarda ham bu o‘rinli yoki o‘rinli emasligi bilan tanishib o‘tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1-teorema. Agar $f(x) = (x_1, x_2, \dots x_n)$ funksiya x_0 nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda bu funksiyaning shu nuqtada barcha xususiy hosilalari $f'_{x_1}(x_0),\ f'_{x_2}(x_0), \dots, f'_{x_n}(x_0)$, mavjud va ular mos ravishda

$$\Delta f(x_0) = A_1\Delta x_1 + A_2\Delta x_2 + \cdots A_m\Delta x_m + \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2 + \cdots + \alpha_m\Delta x_m$$

munosabatdagi $A_1, A_2, \dots, A_m$ larga teng bo‘ladi:

$$f'_{x_1}(x_0) = A_1,\ f'_{x_2}(x_0) = A_2,\ \dots\ ,\ f'_{x_m}(x_0) = A_m.$$

$f(x)$ funksiya x_0 nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsin. U holda ta’rifga ko‘ra,

$$\Delta f(x_0) = A_1\Delta x_1 + A_2\Delta x_2 + \cdots A_m\Delta x_m + \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2 + \cdots + \alpha_m\Delta x_m$$

bo‘ladi. Bu tenglikda $\Delta x_1 \neq 0. \Delta x_2 = \Delta x_3 = \cdots = \Delta x_m = 0$ deb olsak, u holda

$$\Delta x_1 f(x_0) = A_1\Delta x_1 + \alpha_1\Delta x_1$$

ko‘rinishni oladi. Bu tenglikdan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\lim_{\Delta x_1 \to 0} \frac{\Delta x_1 f(x_0)}{\Delta x_1} = \lim_{\Delta x_1 \to 0} (A_1 + \alpha_1) = A_1.$$

Bundan ko‘rinadiki, $f'_{x_1}(x_0) = A_1$. Xuddi shunga o‘xshash $f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtada $f'_{x_1}(x_0),\ f'_{x_2}(x_0), \dots, f'_{x_n}(x_0)$ xususiy hosilalarining mavjudligi va

$$f'_{x_1}(x_0) = A_1, f'_{x_2}(x_0) = A_2, \dots, f'_{x_n}(x_0) = A_n.$$

ekanligi ko‘rsatiladi.

1-natija. Agar $f(x)$ funksiya x_0 nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda

$$\Delta f(x_0) = f'_{x_1}(x_0)\Delta x_1 + f'_{x_2}(x_0)\Delta x_2 + \cdots f'_{x_n}(x_0)\Delta x_n + \alpha(\rho)$$

bo‘ladi.

Eslatma. $f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtada barcha xususiy hosilalari $f'_{x_1}(x_0)$, $f'_{x_2}(x_0), \dots, f'_{x_n}(x_0)$, larning mavjud bo‘lishidan funksiyaning shu nuqtada differensiallanuvchi bo‘lishi doim ham kelib chiqavermaydi.

Misol.

$$f(x_1, x_2) = \begin{cases} \dfrac{7x_1 \cdot x_2}{\sqrt{{x_1}^2 + {x_2}^2}}, agar\ (x_1, x_2) \neq (0,0) \\ 0\ agar\ (x_1, x_2) = (0,0) \end{cases}$$

funksiyaning $(0,0)$ nuqtada differensiallanuvchi emasligi ko‘rsatilsin.

Yechish. Bu funksiya $(0,0)$ nuqtada xususiy hosilalarga ega:

$$f'_{x_1}(0,0) = \lim_{\Delta x_1 \to 0} \frac{f(\Delta x_1, 0) - f(0,0)}{\Delta x_1} = 0,$$

$$f'_{x_2}(0,0) = \lim_{\Delta x_2 \to 0} \frac{f(0, \Delta x_2) - f(0,0)}{\Delta x_2} = 0.$$

Berilgan funksiyaning $(0,0)$ nuqtadagi orttirmasi

$$\Delta f(0,0) = f(\Delta x_1, \Delta x_2) - f(0,0) = \frac{7\Delta x_1 \cdot \Delta x_2}{\sqrt{{\Delta x_1}^2 + {\Delta x_2}^2}}$$

bo‘lib, uni

$$\Delta f(x_0) = A_1\Delta x_1 + A_2\Delta x_2 + \cdots A_m\Delta x_m + \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2 + \cdots + \alpha_m\Delta x_m$$

va

$$\Delta f(x_0) = f'_{x_1}(x_0)\Delta x_1 + f'_{x_2}(x_0)\Delta x_2 + \cdots f'_{x_n}(x_0)\Delta x_n + \alpha(\rho)$$

ko‘rinishlarda ifodalab bo‘lmaydi. Buni isbotlash maqsadida, teskarisini faraz qilamiz, ya’ni $f(x_1, x_2)$ funksiya $(0,0)$ nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsin. U holda

$$\Delta f(0,0) = f'_{x_1}(0,0)\Delta x_1 + f'_{x_2}(0,0)\Delta x_2 + \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2 = \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2$$

bo‘lib, bu munosabatda $\Delta x_1 \to 0$, $\Delta x_2 \to 0$ da $\alpha_1 \to 0$, $\alpha_2 \to 0$ bo‘lishi lozim. Demak,

$$\frac{7\Delta x_1 \cdot \Delta x_2}{\sqrt{{\Delta x_1}^2 + {\Delta x_2}^2}} = \alpha_1\Delta x_1 + \alpha_2\Delta x_2.$$

Ma’lumki, Δx_1 va Δx_2 lar ixtiyoriy orttirmalar. Jumladan, $\Delta x_1 = \Delta x_2$ bo‘lganda, yuqoridagi tenglik ushbu

$$\frac{\Delta x_1}{\sqrt{2}} = \Delta x_1(\alpha_1 + \alpha_2)$$

ko‘rinishga kelib, undan esa

$$\alpha_1 + \alpha_2 = \frac{\sqrt{2}}{2}$$

bo‘lishi kelib chiqadi. Natijada $\Delta x_1 \to 0$, $\Delta x_2 \to 0$ da α_1 va α_2 miqdorlarning nolga intilmasligini topamiz. Bu esa $f(x_1, x_2)$ funksiyaning $(0,0)$ nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsin deb qilingan farazimizga zid.

Shunday qilib, funksiyaning biror nuqtasida barcha xususiy hosilalarga ega bo‘lishi funksiyaning shu nuqtada differensiallanuvchi bo‘lishining zaruriy shartidan iborat ekan.

Tadqiqot metodologiyasi. Endi ko‘p o‘zgaruvchili funksiya differensiallanuvchi bo‘lishining yetarli shartini keltiraylik.

$f(x) = f(x_1, x_2, \dots x_n)$ funksiya ochiq $M(M \subset R^n)$ to‘plamda berilgan bo‘lib, $x^0 = (x_1^0, x_2^0, \dots, x_n^0) \in M$ bo‘lsin.

2-teorema. Agar $f(x)$ funksiya x^0 nuqtaning biror atrofida barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha xususiy hosilalarga ega bo‘lib, bu xususiy hosilalar shu x^0 nuqtada uzluksiz bo‘lsa, $f(x)$ funksiya x^0 nuqtada differrensiallanuvchi bo‘ladi.

$x^0 \in M$ nuqtani olib, koordinatalariga mos ravishda shunday $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots \Delta x_n$ orttirmalar beraylikki, $(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n)$ nuqta x^0 nuqtaning aytilgan atrofiga tegishli bo‘lsin. Keyin funksiya to‘la orttirmasi

$$\Delta f(x^0) = f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_n^0)$$

ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta f(x^0) = [f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n) - \\ -f(x_1^0, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n)] + [f(x_1^0, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n) - \\ -f(x_1^0, x_2^0, x_3^0 + \Delta x_3, \dots, x_n^0 + \Delta x_n)] + \dots + [f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_{n-1}^0, x_n^0 + \Delta x_n) - \\ -f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_n^0)]$$

Bu tenglikni o‘ng tomonidagi har bir ayirma tegishli bitta argumentning funksiya orttirmasi sifatida qaralishi mumkin. Buning uchun Lagranj teoremasini tatbiq qilishimiz mumkin, chunki teoremamizda keltirilgan shartlar Lagranj teoremasi shartlarini bajaradi:

$$\Delta f(x^0) = f'_{x_1}(x_1^0 + \theta_1 \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n) \cdot \Delta x_1 + \\ + f'_{x_2}(x_1^0, x_2^0 + \theta_2 \Delta x_2, x_3^0 + \Delta x_3 \ \dots, x_n^0 + \Delta x_n) \cdot \Delta x_2 + \dots + \\ + f'_{x_n}(x_1^0, x_2^0, \dots, x_{n-1}^0, x_n^0 + \theta_n \Delta x_n) \cdot \Delta x_n$$

bunda $0 < \theta_i < 1$ $(i = 1,2, \dots, n)$. Odatda, bu funksiya orttirmasining formulasi deyiladi. Shartga ko‘ra, x^0 nuqtada $f'_{x_2}, f'_{x_2}, \dots, f'_{x_n}$ xususiy hosilalar uzluksiz. Shunga ko‘ra,

$$f'_{x_1}(x_1^0 + \theta_1 \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_n^0 + \Delta x_n) = f'_{x_1}(x^0) + \alpha_1,$$
$$f'_{x_2}(x_1^0, x_2^0 + \theta_2 \Delta x_2, x_3^0 + \Delta x_3 \ \dots, x_n^0 + \Delta x_n) = f'_{x_2}(x^0) + \alpha_2,$$
$$\dots\dots\dots

[8]. Ильин В.А., Садовничий В.А., Сендов Б.Х. Математический анализ. 1, 2 т, М., «Проспект», 2007.

Davronbekova Muslima Javlonbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi; E-mail: m.j.davronbekova@gmail.com)

SINC(*X*) FUNKSIYASI UCHUN EYLER CHEKSIZ KO‘PAYTMASINING OLIMPIADA MASALALARINI HAL QILISHGA TATBIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematik analizning muhim tushunchalaridan bo‘lgan sinc(x) funksiyasi va uning Eyler cheksiz ko‘paytmasi, Vallis formulasi va ular orqali isbotlanadigan olimpiada masalalari keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *cheksiz ko‘paytma, aniq integral, aniqmas integral, Vallis formulasi, funksional qator.*

Давронбекова Муслима Джавлонбек кызы (студентка Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни)

ПРИМЕНЕНИЕ БЕСКОНЕЧНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЭЙЛЕРА ДЛЯ ФУНКЦИИ SINC(X) ПРИ РЕШЕНИИ ОЛИМПИАДНЫХ ЗАДАЧ

Аннотация*. В данной статье рассматривается функция sinc(x) – одно из важных понятий математического анализа, а также её представление в виде бесконечного произведения Эйлера, формула Валлиса и олимпиадные задачи, решаемые с их использованием.*

Ключевые слова: *бесконечное произведение, определённый интеграл, неопределённый интеграл, формула Валлиса, функциональный ряд.*

Davronbekova Muslima Javlonbek qizi (Student of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni)

APPLICATION OF THE EULER INFINITE PRODUCT FOR THE SINC(X) FUNCTION IN SOLVING OLYMPIAD PROBLEMS

Annotation. *This article presents the sinc(x) function, one of the important concepts in mathematical analysis, as well as its Euler infinite product, the Wallis formula, and olympiad problems that can be solved using these tools.*

Keywords: *infinite product, definite integral, indefinite integral, Wallis formula, functional series.*

Kirish. Matematikaning turli bo‘limlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy izlanishlarda yangi metodlar yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, funksiyalar nazariyasi va cheksiz ko‘paytmalar nazariyasining sintezidan olingan metodlar olimpiada masalalrini yechishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Eyler cheksiz ko‘paytmalari nafaqat olimpiada masalalarini qulay hal qilishda, balki muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan gipotezalarni o‘rganish va ular ustida atroflicha fikr yuritishda (Riman zeta funksiyasining cheksiz ko‘paytmasi) ham katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda o‘tkazilayotgan kop‘lab Xalqaro matematika olimpiadalari masalan, OMOUS–2025 (7), AKhIMO–2025 (8)larda cheksiz ko‘paytmalarga oid masalalar ko‘p uchramoqda. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarni bu mavzudagi bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga zarurat tug‘diradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Olimpiada masalalarini yechimini topishda turli noodatiy yondashuvlar qo‘llaydigan talabalar ilmiy tadqiqotlarda qo‘yilgan masalalarni ham turli xil fanlar kesishmasidagi vositalar bilan oson hal qilishlari mumkin. (3). Ushbu maqolada Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rayotgan talabalar va o‘quvchilar uchun Eyler cheksiz ko‘paytmasini turli olimpiada masalalariga tatbiq qilish uslubi keltirilgan. Matematik analizning rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shgan Leonard Eyler (1707–1783) 1748-yilda nashr etilgan “Introductio in analysin infinitorum” asarida Eyler sinus funksiyasining cheksiz ko‘paytma orqali ifodasini bergan. Bu ko‘paytmani ifodalashda Jon Vallis (1616–1703) tomonidan 1655-yilda yaratilgan va o‘zining *“*Arithmetica Infinitorum”(1656) asarida taqdim etgan Vallis formulasidan foydalangan, ya’ni, sinus funksiyasi va π soni orasidagi bog’liqlikni ko‘paytma shaklida umumlashtirgan (6).

Tahlil va natijalar. Bizga quyidagicha:

$$\sin c(x) = \begin{cases} \dfrac{\sin x}{x}, & x \neq 0 \\ 1, & x = 0 \end{cases} \tag{1}$$

aniqlangan funksiya berilgan bo‘lsin.

1-tasdiq. sinc(x) uchun quyidagi cheksiz ko‘paytma o‘rinli (4):

$$\frac{\sin x}{x}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{\pi^2 n^2}\right) \tag{2}$$

Izoh: Xuddi shuningdek, bu formulani quyidagi

$$\frac{\sin \pi x}{\pi x}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right) \tag{3}$$

ko‘rinishda ham yozish mumkin.

Endi $\forall x\in(-1,1)$ oraliqda $\frac{\sin \pi x}{\pi x}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ tenglik o‘rinli ekanini isbotlaymiz.

Isbot. Bizga ma’lumki, $-1<t<1$ da quyidagi

$$\pi\cot \pi t-\frac{1}{t}=\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{1}{t-n}+\frac{1}{t+n}\right]=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2},$$

tenglik o‘rinli (4). Uni -1<x<1 uchun 0 dan x gacha integrallaymiz.

$$\int_0^x\left(\pi\cot \pi t-\frac{1}{t}\right)dt=\int_0^x\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2}dt$$

Dastlab, tenglikning chap tomonidan olingan aniqmas integralni hisoblaymiz:

$$\int\left(\pi\cot \pi t-\frac{1}{t}\right)dt=\int\frac{\pi\cos \pi t}{\sin \pi t}dt-\int\frac{1}{t}dt=\int\frac{d(\sin \pi t)}{\sin \pi t}-\int\frac{1}{t}dt=\ln|\sin \pi t|-\ln|t|=\ln\left|\frac{\sin \pi t}{t}\right|$$

Endi uni chegaralarini qo‘yamiz:

$$\int_0^x\left(\pi\cot \pi t-\frac{1}{t}\right)dt=\ln\left|\frac{\sin \pi x}{x}\right|-\lim_{t\to 0}\ln\left|\frac{\sin \pi t}{t}\right|=\ln\left|\frac{\sin \pi x}{x}\right|-\ln \pi=\ln\left|\frac{\sin \pi x}{\pi x}\right|=\ln\left(\frac{\sin \pi x}{\pi x}\right)$$

Demak, $\ln\left(\frac{\sin \pi x}{\pi x}\right)=\int_0^x\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2}dt,\quad -1<x<1$ tenglik o‘rinli.

Endi chap tomonidagi $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2}$ funksional qatorni baholaymiz:

$\forall|t|<1$ uchun $\left|\frac{2t}{t^2-n^2}\right|<\frac{2}{\left|t^2-n^2\right|}=\frac{2}{n^2-t^2}$ tengsizlik o‘rinli bo‘lib, bu yerdan $|t|\le q<1$ qa-noatlantiruvchi t lar uchun $\frac{1}{n^2-t^2}\le\frac{1}{n^2-q^2}$ baholashni olamiz.

Matematik analiz kusidan ma’lumki, |q| < 1 da $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{n^2-q^2}$ sonli qator yaqinlashuvchi. Funksional qator uchun Veyershtras teoremasiga (2) asosan $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2}$ funksional qator tekis yaqinlashuvchi. Tekis yaqinlashuvchi qatorlarning xossasiga (q.[2]) ko‘ra, funksioanal qatorni hadlab integrallash mumkin:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\int_0^x\frac{2t}{t^2-n^2}dt=\sum_{n=1}^{\infty}\int_0^x\frac{dt^2}{t^2-n^2}=\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left|t^2-n^2\right|\Big|_0^x==\sum_{n=1}^{\infty}\left[\ln|x^2-n^2|-\ln n^2\right]=\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left|\frac{x^2-n^2}{n^2}\right|=\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left|\frac{x^2}{n^2}-1\right|$$

-1 < x < 1 oraliqda $\frac{x^2}{n^2}<1$ ekanligidan $\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left|\frac{x^2}{n^2}-1\right|=\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ o‘rinli. $S_N=\sum_{n=1}^{N}\ln\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ bilan yigzindining qismiy yig‘indilar ketma-ketligini belgilaymiz, bu uchun $\sum_{n=1}^{N}\ln\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)=\ln\prod_{n=1}^{N}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ tenglik o‘rinli, tenglikni limitga o‘tsak va lnxning uzluksizligidan foydalansak,

$\sum_{n=1}^{\infty}\ln\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)=\ln\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ kelib chiqadi. Demak, $-1<x<1$ oraliqda $\int_0^x\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2t}{t^2-n^2}dt,=\ln\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ munosabat o‘rinli ekanidan, $\frac{\sin\pi x}{\pi x}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{x^2}{n^2}\right)$ tenglik kelib chiqadi. Isbot tugallandi.

Izoh. Yuqoridagi (2) formulaga sinc(x) funksiyasi uchun Eyler cheksiz ko‘paytmasi deyiladi. (3) tenglik esa uning qayta ishlangan (sinc(πx) uchun) ko‘rinishidir.

2-tasdiq. Ushbu $\lim_{n\to\infty}\frac{2}{1}\cdot\frac{2}{3}\cdot\frac{4}{3}\cdot\frac{4}{5}\cdot\frac{6}{5}\cdot\frac{6}{7}\cdot\ldots\cdot\frac{2n}{2n-1}\cdot\frac{2n}{2n+1}=\frac{\pi}{2}$ tenglik o‘rinli.

Isbot. Dastlab, bu limitni quyidagi $\lim_{n\to\infty}\frac{2}{1}\cdot\frac{2}{3}\cdot\frac{4}{3}\cdot\frac{4}{5}\cdot\frac{6}{5}\cdot\frac{6}{7}\cdot\ldots\cdot\frac{2n}{2n-1}\cdot\frac{2n}{2n+1}=\prod_{n=1}^{\infty}\frac{4n^2}{4n^2-1}$ ko‘rinishda yozib olamiz. Endi yuqorida isbotlangan (3) formulaga $x=\frac{1}{2}$ni olib borib qo‘ysak, $\frac{\pi}{2}=\prod_{n=1}^{\infty}\frac{4n^2}{4n^2-1}$ tenglik kelib chiqadi. Isbot tugallandi.

Izoh. Bu formula 1655-yilda Jon Vallis tomonidan fanga kiritilganligi sababli, Vallis formulasi deyiladi.

Endi $\frac{\sin(\pi x)}{\pi x}$ ning kompleks tekislikka analitik davomini qaraymiz. Bu analitik davom uchun ham $\frac{\sin\pi z}{\pi z}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{z^2}{n^2}\right)$ (3’) tenglik o‘rinli bo‘ladi (5).

Bu yoyilmadan foydalanib, (3’) tenglikka x=i (bu yerda i mavhum birlik, ya’ni $i^2=-1$) ni olib borib qo‘ysak,

$$\prod_{n=1}^{\infty}\left(1+\frac{1}{n^2}\right)=\frac{(e^{\pi}-e^{-\pi})}{2\pi}=\frac{\sinh\pi}{\pi} \tag{4}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Endi ko‘rib chiqilgan yoyilmalarning ba’zi olimpiada masalalariga tatbiqlarini qaraymiz.

1-misol (OMOUS-2025). Quyidagi cheksiz ko‘paytmani hisoblang.

$$\prod_{n=1}^{\infty}\frac{(2n)^4-1}{(2n+1)^4-1}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}$$

Yechim. Quyidagi ko‘paytmani aniqlaymiz:

$$P=\prod_{n=1}^{\infty}\frac{(2n)^4-1}{(2n+1)^4-1}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}$$

Dastlab, bu ko‘paytmaning dastlabki N ta hadining ko‘paytmasidan tuzilgan ketma-ketlikni qaraymiz:

$$P_N=\prod_{n=1}^{N}\frac{(2n)^2-1}{(2n+1)^2-1}\cdot\frac{(2n)^2+1}{(2n+1)^2+1}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}$$

Bu ifodani ikkita ko‘paytuvchiga ajratamiz va P_{1_N}, P_{2_N} orqali belgilaymiz:

$$P_N=\left(\prod_{n=1}^{N}\frac{(2n-1)(2n+1)}{(2n+2)(2n)}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}\cdot\frac{(2n)^2}{(2n+1)^2}\right)\cdot\left(\prod_{n=1}^{N}\frac{1+\frac{1}{(2n)^2}}{1+\frac{1}{(2n+1)^2}}\right)=P_{1_N}\cdot P_{2_N}$$

Endi P_1 ni qaraylik, bu yerda $P_1=\lim_{N\to\infty}P_{1_N}$

$$P_{1_N}=\prod_{n=1}^{N}\frac{(2n-1)(2n+1)}{(2n+2)(2n)}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}\cdot\frac{(2n)^2}{(2n+1)^2};$$

$$P_1=\lim_{N\to\infty}P_{1_N}=\lim_{N\to\infty}\frac{2}{(2N+2)(2N+1)}\frac{1}{(N+1)^2}=0$$

Demak, $P_1=0$.

Endi P_{2_N} ni yaqinlashuvchi ekanligini ko‘rsatamiz: $P_{2_N}=\prod_{n=1}^{N}\frac{1+\frac{1}{(2n)^2}}{1+\frac{1}{(2n+1)^2}}=\frac{\prod_{n=1}^{N}\left(1+\frac{1}{(2n)^2}\right)^2}{\prod_{n=1}^{N}\left(1+\frac{1}{n^2}\right)}$

Hosil bo‘lgan ko‘paytmalar uchun cheksiz ko‘paytmalarni tuzib, ularni hisoblashda yuqoridagi (3’) formuladan foydalanamiz: $\frac{\sin\pi z}{\pi z}=\prod_{n=1}^{\infty}\left(1-\frac{z^2}{n^2}\right)$; Bu formulada z ning o‘rniga i va $\frac{i}{2}$ ni olib borib qo‘ysak, quyidagilarga $\prod_{n=1}^{\infty}\left(1+\frac{1}{(2n)^2}\right)=\frac{2\sinh(\frac{\pi}{2})}{\pi}$, $\prod_{n=1}^{\infty}\left(1+\frac{1}{n^2}\right)=\frac{\sinh(\pi)}{\pi}$ ega bo‘lamiz. Demak, $P_2=\frac{\left(\frac{2\sinh(\frac{\pi}{2})}{\pi}\right)^2}{\frac{\sinh(\pi)}{\pi}}=\frac{2}{\pi}\tanh(\pi/2)$ bo‘lib, bundan izlanayotgan cheksiz ko‘paytma uchun $P=P_1\cdot P_2=0\cdot\frac{2}{\pi}\tanh(\pi/2)=0$ ni olamiz.

Javob: $\prod_{n=1}^{\infty}\frac{(2n)^4-1}{(2n+1)^4-1}\cdot\frac{n^2}{(n+1)^2}=0$

2-misol. Quyidagi tenglikni isbotlang.

$$\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{\{\tan x\}}{\tan x}dx=\frac{1}{2}\left(\pi-\ln\left(\frac{e^{\pi}-e^{-\pi}}{2\pi}\right)\right).$$

Yechim. $\{\tan x\}=\tan x-[\tan x]$ dan foydalanib, integralni $\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{\tan x-[\tan x]}{\tan x}dx=\frac{\pi}{2}-\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{[\tan x]}{\tan x}dx$ ko‘rinishda yozib olamiz. Demak, biz $\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{[\tan x]}{\tan x}dx=\frac{1}{2}\ln\left(\frac{e^{\pi}-e^{-\pi}}{2\pi}\right)$ tenglikni isbotlasak, yetarli.

Bu integralni aniq integralning additivlik xossasidan (q.[1]) foydalanib, quyidagicha yozish mumkin: $\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{[\tan x]}{\tan x}dx=\int_0^{\frac{\pi}{4}}0dx+\int_{\frac{\pi}{4}}^{\arctan 2}\frac{1}{tanx}dx+\cdots+\int_{\arctan(n-1)}^{\arctan n}\frac{(n-1)}{tanx}dx+\cdots$

bundan, $\int_0^{\frac{\pi}{2}}\frac{[\tan x]}{\tan x}dx=\sum_{k=1}^{\infty}\int_{\arctan(k)}^{\arctan(k+1)}\frac{k}{tanx}dx$ bo‘lib,

$\sum_{k=1}^{\infty}\int_{\arctan k}^{\arctan(k+1)}\frac{k}{tanx}dx=\sum_{k=1}^{\infty}k\cdot\ln|\sin x|\Big|_{arctank}^{\arctan(k+1)}=\sum_{k=1}^{\infty}k\cdot\ln\frac{\sin\arctan(k+1)}{\sin\arctan k}$ ga ega bo‘lamiz.

$\sin\arctan(k+1)$ ni hisoblash uchun, $\arctan\alpha = x, \quad \tan x = \alpha, \ \sin x = \dfrac{\alpha}{\sqrt{1+\alpha^2}}$ formulalaridan foydalanamiz. Bundan

$$\sum_{k=1}^{\infty} k\cdot\ln\frac{\sin\arctan(k+1)}{\sin\arctan k} = \sum_{k=1}^{\infty} k\cdot\ln\frac{\dfrac{k+1}{\sqrt{1+(k+1)^2}}}{\dfrac{k}{\sqrt{1+k^2}}} = \sum_{k=1}^{\infty} k\cdot\left(\ln\frac{k+1}{\sqrt{1+(k+1)^2}} - \ln\frac{k}{\sqrt{1+k^2}}\right).$$

$$S_n = \sum_{k=1}^{n} k\cdot\left(\ln\frac{k+1}{\sqrt{1+(k+1)^2}} - \ln\frac{k}{\sqrt{1+k^2}}\right) = \sum_{k=1}^{n}\left(\left(k\ln\frac{k+1}{\sqrt{1+(k+1)^2}} - (k-1)\ln\frac{k}{\sqrt{1+k^2}}\right) - \ln\frac{k}{\sqrt{1+k^2}}\right) =$$

$$= n\ln\frac{n+1}{\sqrt{1+(n+1)^2}} - \sum_{k=1}^{n}\ln\frac{k}{\sqrt{1+k^2}} = n\ln\frac{n+1}{\sqrt{1+(n+1)^2}} - \ln\frac{n!}{\sqrt{1+1^2}\cdot\sqrt{1+2^2}\cdot\ldots\cdot\sqrt{1+n^2}} =$$

$$= \ln\frac{(n+1)^n}{n!}\cdot\frac{\sqrt{1+1^2}\cdots\sqrt{1+n^2}}{(1+(n+1)^2)^{\frac{n}{2}}} = \ln\prod_{k=1}^{n}\sqrt{1+\frac{1}{k^2}}\cdot\frac{1}{\left(1+\dfrac{1}{(n+1)^2}\right)^{\frac{n}{2}}}$$

Endi $\lim\limits_{n\to\infty}\prod\limits_{k=1}^{n}\sqrt{1+\dfrac{1}{k^2}}\cdot\dfrac{1}{\left(1+\dfrac{1}{(n+1)^2}\right)^{\frac{n}{2}}}$ ni hisoblaymiz. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\dfrac{1}{(n+1)^2}\right)^{\frac{n}{2}} = 1$; yuqoridagi

$\prod\limits_{n=1}^{\infty}\left(1+\dfrac{1}{n^2}\right) = \dfrac{\sinh\pi}{\pi}$ tenglikka ko‘ra, $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\prod\limits_{k=1}^{n}\left(1+\dfrac{1}{k^2}\right)\right)^{\frac{1}{2}} = \sqrt{\dfrac{\sinh\pi}{\pi}}$.

lnx uzluksiz funksiya ekanligidan,

$\lim\limits_{n\to\infty} S_n = \lim\limits_{n\to\infty}\ln\prod\limits_{k=1}^{n}\sqrt{1+\dfrac{1}{k^2}}\cdot\dfrac{1}{\left(1+\dfrac{1}{(n+1)^2}\right)^{\frac{n}{2}}} = \ln\sqrt{\dfrac{\sinh\pi}{\pi}} = \dfrac{1}{2}\ln\dfrac{e^{\pi}-e^{-\pi}}{2\pi}$ ga ega bo‘lamiz.

Demak, $\int\limits_0^{\frac{\pi}{2}}\dfrac{[\tan x]}{tanx}dx = \sum\limits_{k=1}^{\infty} k\left(\ln\dfrac{k+1}{\sqrt{1+(k+1)^2}} - \ln\dfrac{k}{\sqrt{1+k^2}}\right) = \dfrac{1}{2}\ln\dfrac{e^{\pi}-e^{-\pi}}{2\pi}$.

Javob. $\int\limits_0^{\frac{\pi}{2}}\dfrac{\{\tan x\}}{\tan x}dx = \dfrac{1}{2}\left(\pi - \ln\left(\dfrac{e^{\pi}-e^{-\pi}}{2\pi}\right)\right)$ tenglik isbotlandi.

Mustaqil yechish uchun misollar

1. (AKhIMO-2025). (q.[8]) Barcha x ∈ R lar uchun quyidagi tenglikni isbotlang.

$$\prod_{n=1}^{\infty}\sin c\left(\frac{x}{2n-1}\right) = \prod_{n=1}^{\infty}\cos\frac{x}{2n};$$

bu yerda (1) ko‘rinishda aniqlangan.

2. Vallis formulasidan foydalanib, quyidagi tenglikni isbotlang.

$$\lim_{n\to\infty}\frac{(n!)^2\,2^{2n}}{(2n)!\sqrt{n}} = \sqrt{\pi}$$

3. Stirling formulasini (q.[3]) isbotlang.

$$n! = \sqrt{2\pi n}\left(\frac{n}{e}\right)^n \cdot e^{\frac{\theta_n}{12n}};\ \text{bu yerda}\ 0 < \theta_n < 1.$$

Xulosa. Ushbu maqolada matematik analizning muhim tushunchalaridan biri sinc(x) funksiyasi uchun Eyler cheksiz ko‘paytmasi haqida ma’lumot berilgan hamda Vallis formulasi va Xalqaro matematika olimpiadalarida taklif qilingan muhim masalalarni sinc(x)ning Eyler cheksiz ko‘paytmasi orqali qulay hal qilish ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Азларов Т., Мансуров Х. Математик анализ. I қисм, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1986.

[2]. Азларов Т., Мансуров Х. Математик анализ. II қисм, Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995.

[3]. Razvan Gelca, Titu Andreescu, Putnam and Beyond, Second Edition. Springer, 2017.

[4]. R.Courant, F.John. Introduction to calculus and analysis. Vol.1, Interscience publishers, London, New York,1965.

[5]. Sh.Maqsudov, M.Salohiddinov, S.Sirojiddinov. Kompleks o‘zgaruvchining funksiyalar nazariyasi, “O‘qituvchi”, Toshkent, 1979.

Internet saytlari:

[6]. https://web.mae.ufl.edu/uhk/INFINITE-PRODUCTS.pdf

[7]. https://iuhd.edu.tm/competition/110

[8]. https://akhimo.urdu.uz/

Ruziyeva Mavluda Anvarovna (Buxoro davlat Texnika universiteti “Aniq fanlar” kafedrasi 3-bosqich doktoranti; e-mail: ruziyevama825@gmail.com)

ELASTIK MUHITDAGI SILINDRIK QOBIQQA KO‘NDALANG TO‘LQIN TARQALISHI

Annotatsiya. *Bu ishda elastik muhitdagi silindrik qobiqda ko‘ndalang to‘lqin tarqalishi masalasi yechilgan. Silindrik qobiqning ichki sirti kuchlanishlardan ozod qiligan. Dispersion tenglama Bessel va Xankel funksiyalari orqali olingan. Olingan transendent tenglama Myuller usuli orqali yechiladi. Sonli natijalar faza tezligining to‘lqin soniga bog‘liq olingan va tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: silidrik jism, muhit, ko‘chish potensiallari, maxsus funksiyalar, chastota, faza tezligi.*

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПОПЕРЕЧНЫХ ВОЛН В ЦИЛИНДРИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКЕ В УПРУГОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В данной работе решена задача распространения поперечной волны в цилиндрической оболочке в упругой среде. Внутренняя поверхность цилиндрической оболочки свободна от напряжений. Дисперсионное уравнение получено с использованием функций Бесселя и Ханкеля. Полученное трансцендентное уравнение решено с использованием метода Мюллера. Получены численные результаты, которые проанализированы в зависимости от волнового числа фазовой скорости.*

Ключевые слова: *цилиндрическое тело, среда, потенциал смещения, частота, функция Бесселя, фазовая скорость.*

PROPAGATION OF TRANSVERSE WAVES IN A CYLINDRICAL SHELL IN AN ELASTIC MEDIUM

Annotation. *In this paper, the problem of transverse wave propagation in a cylindrical shell in an elastic medium is solved. The inner surface of the cylindrical shell is free of stresses. The dispersion equation is obtained using the Bessel and Khankel functions. The resulting transcendental equation is solved using the Mueller method. Numerical results are obtained, which are analyzed depending on the wave number of the phase velocity.*

Key words: *cylindrical body, medium, displacement potential, frequency, Bessel function, phase velocity.*

Kirish. Elastik jismlarda (muhitda) garmonik to‘lqin tarqalishi jarayonini o‘rganishning tarixi 130-yildan ortiй vaqtni tashkil etadi. Shu vaqt ichida turli geometriyaga ega bo‘lgan elastik to‘lqin o‘tkazgichlarni har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar chop etilgan [1;3].

Bunday masalalar deformatsiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasining asosiy masalalaridan hisoblanadi. O‘tgan asrning saksoninchi yillarida M.A.Koltunov va I.Y.Troyanovskiylarning ilmiy maktabida dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar kvazistatik deformatsiyalanishi nazariyasiga asos solingan. Bu nazariya keyinchalik V.P.Mayboroda, M.Mirsaidov, I.I.Safarov, V.M.Yaganov, A.Balakirov va boshqalar ishida dinamik masalalar yechish uchun umumlashtirilgan. Ularni tadqiqotlaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, mexanik sistema qovushqoq-elastik va elastik elementlardan iborat bo‘lsa, sis-

temadagi energiyaning dissipativlik xususiyati dissipativ bir jinsli bo‘lgan sistemanikidan tubdan farq qilar ekan [4;5]. Bu holat erkinlik darajasi chekli bo‘lgan mexanik sistemalar uchun nomlari yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan isbotlab berilgan [6;7]. Lekin bu nazariya qonunlari va nazariy asosi juda oz o‘rganilgan bo‘lib, to‘liq o‘rganishni talab etadi. Hozirgi texnikaning juda tez rivojlanib borayotgan bir paytda dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar xossasiga ega bo‘lgan materiallar texnikaning (radio elektron apparatlarni vibratsiyasini kamaytirish va himoya qoplamalari va boshqalar) va qurilishning (fundament osti qatlam, yo‘l va aerodrom qoplamalari va boshqalar mustahkamligi oshirish) ko‘p sohalarida keng qo‘llaniladi [8;11-b.]. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar nazariyasi, deformatsiyalanuvchi qatiq jismlar mexanikasi nazariyasini kelajagi hisoblanadi va uni o‘rganish hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

2.Masalani qo‘yilishi va yechish metodikasi. Endi cheksiz elastik muhitda joylashgan qovushqoq-elastik silindrlarda faza tezligini tarqalishini ko‘rib chiqamiz [12]:

$$u_r = u_z = 0\,,\; u_\theta = -\frac{\partial \psi_r}{\partial r} = \frac{\partial \psi}{\partial r}\,. \tag{1}$$

U holda to‘lqin tenglamasi (1) quyidagi ko‘rinishni egallaydi:

$$\nabla^2 \psi_i = \frac{1}{C_{\beta^2 i}} \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2}; \qquad C_{\beta^2 i} = \mu_i / \rho_i \;\; \text{i=1,2} \tag{2}$$

(2) to‘lqin tenglamasining yechimi silindr va muhit uchun quyidagicha bo‘ladi:

$$\psi_1 = \left[A^{(1)} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 r) + B^1 H_0^{(2)}(\overline{K}_1 r)\right] e^{ik_z z};$$

$$\psi_2 = C^{(II)} K_0\left[(\overline{K}_2 r)\right] e^{-iK_z z},$$

bunda K_0 – modifitsirlangan Bessel funksiyasi

$$\overline{K}_1^2 = \frac{\omega^2}{\overline{C}_{\beta 2}^2}; \quad \overline{K}_{21}^2 = \frac{\omega^2}{\overline{C}_{\beta 2}^2},$$

$H_0^{(1)}$ va $H_0^{(2)}$ – Xankel funksiyasi nolinchi tartibli birinchi va ikkinchi jinsi. Qo‘yilgan masalani yechish uchun chegaraviy shartlar r = a_1 va r = a_2 qo‘yildi:

r = a_1 : $\tau_{R\theta 1} = 0$;

r = a_2; $u_{\theta 1} = u_{\theta 2}$, $\tau_{R\theta 1} = \tau_{R\theta 2}$.

Ko‘chish vektor komponentalarining kattaligi silindr va uni o‘rab turuvchi muhit uchun quyidagicha bo‘ladi:

$$u_{\theta 1} = -\frac{\partial \psi_1}{\partial r} = \left[\left(A^I \frac{d}{dr} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 r) + B^I \frac{d}{dr} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 r)\right)\right] e^{-K_z z}\;;\; u_{\theta 2} = -C^I \frac{d}{dr} K_0(\overline{K}_2 r) e^{-iK_z z}\;;$$

$$\gamma_{R\theta 1} = -\left\{\begin{array}{l}\left[A^I \dfrac{d^2}{dr^2} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 r) + B^I \dfrac{d^2}{dr^2} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 r)\right] e^{-K_z z} + \\ + \dfrac{1}{r}\left[A^I \dfrac{d}{dr} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 r) + B^I \dfrac{d}{dr} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 r)\right]\end{array}\right\} e^{-iK_z z}.$$

Chegaraviy shartlar r = a_1: $\tau_{R\theta 1} = 0$; ya’ni

$$\gamma_{R\theta 1} = -\mu\left\{\begin{array}{l}\left[A^I \dfrac{d^2}{dr^2} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a) + \dfrac{1}{a}\dfrac{d}{dr} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a)\right] + \\ + B'\left[\dfrac{d}{dr^2} H_0^{(2)}(k_1 a) + \dfrac{1}{a}\dfrac{d}{dr} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a)\right]\end{array}\right\} e^{-iK_z z} = 0\,.$$

Silindr va muhitning kontaktida r = a_2 qattiq mahkamlanganlik sharti qo‘yiladi $u_{\theta 1} = u_{\theta 2}$, yoki

$$\left[\left(A^I \frac{d}{dr} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a_2) + B^I \frac{d}{dr} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2)\right)\right] e^{-K_z z} = -C^{II} \frac{d}{dr} K_0(\overline{K}_2 a_2) e^{-iK_z z},$$

hamda r = a_2 : $\tau_{R\theta 1} = \tau_{R\theta 2}$.

Bu yerda $\tau_{R\theta 1} = \mu_1 \gamma_{R\theta 1}$; $\tau_{R\theta 2} = \mu_2 \gamma_{R\theta 2}$ yoki quyidagi tenglikni olamiz:

$$-\mu_1 \left\{ \begin{array}{l} A^1 \left[{}_1\frac{d^2}{dr^2} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a_2) + \frac{1}{a_2}\frac{d}{dr} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a_2) \right] + \\ + B^1 \left[{}_1\frac{d^2}{dr^2} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2) + \frac{1}{a_2}\frac{d}{dr} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2) \right] \end{array} \right\} e^{-iK_z z} =$$

$$= \mu_2 \left\{ c^{II} \frac{d^2}{dr^2} K_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2) + \frac{1}{a_2}\frac{d}{dr} K_0(\overline{K}_1 a_2) \right\} e^{-iK_z z}$$

Uchta ixtiyoriy o‘zgarmaslar A^1, V^1 va S^{11} topish uchun uch noma’lumli uchta tenglamadan iborat bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz:

[C] {q}={0}, bunda { q} = $\{A^1, B^1, C^{11}\}^T$.

Bir jinsli tenglamalar sistemasi yechimga ega bo‘lishi uchun tenglamalar sistemasini asosiy aniqlovchisi nolga teng bo‘lishi kerak. Bu shartdan quyidagi dispersion tenglamani olamiz:

$$\begin{vmatrix} -\overline{K}_1^2 H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a_1) & -\overline{K}_1 H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_1) & 0 \\ -\overline{K}_1 H_1^{(1)}(\overline{K}_1 a_2) & -\overline{K}_1 H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2) & -\overline{K}_{21} K_1(\overline{K}_{21} a_2) \\ -\overline{K}_1^2 \mu_1 H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a_{21}) & -\overline{K}_1^2 \mu_1 H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a_2) & -\overline{K}_2 \mu_2 K_0(\overline{K}_2 a_2) \end{vmatrix} = 0 .$$

Bu yerda quyidagi munosabatlardan foydalanildi:

$$\frac{d}{da_1} H_0^{(1)}(\overline{K}_1 a) = -K_1 H_1^{(1)}(\overline{K}_1 a_1), \quad \frac{d}{da_1} H_0^{(2)}(\overline{K}_1 a) = -KH_1^{(2)}(\overline{K}_1 a);$$

$$\frac{d^2}{da_1^2} H_0^{(1),(2)}(\overline{K}_1 a) = -\overline{K}_1 H_1^{(2)}(\overline{K}_1 a) + \frac{\overline{K}_1}{a_1} H_1^{(1),(2)}(\overline{K}_1 a).$$

Murakkab bo‘lmagan almashtirishlardan so‘ng, quyidagi dispersion munosabatni olamiz:



1-rasm. Faza va guruh tezliklarini to‘lqin uzunligiga bog‘liq o‘zgarishi $C_{\beta 1}$ = 200 m /s; $S_{\beta 2}$ = 1100 m /s.

$$\frac{K_1(Ya_2)}{Y\mu_2 K_{01}(Ya_2)} = \frac{H_0^{(1)}(xa_1)H_1^{(2)}(xa_2) - H_0^{(2)}(xa_1)H_1^{(1)}(xa_2)}{x\mu_1(H_0^{(1)}(xa_2)(H_0^{(1)}(xa_2) - H_0^{(1)}(xa_1)H_0^{(2)}(xa_2)} , \quad (3)$$

$$K_1 = \sqrt{K_1^2 - K_Z^2} \; ; \; K_1^2 = \frac{\omega^2}{V_{\beta_1}^2} \quad ; \quad V_{\beta_1}^2 = \frac{\mu_1}{\rho_1} , \text{ v sluchaye } K^2{}_z > K^2{}_1.$$

Bu transendent tenglamani sonli yechish uchun ishlab chiqilgan algoritm va dasturdan foydalanildi. Sonli hisoblash natijalari 1 va 2-rasmlarda faza va guruh tezliklarini silindr devorining qalinligini turli qiymatlarida to‘lqin uzunligiga bog‘liq o‘zgarishi ($C_{\beta 1}$ = 200 m /s; $S_{\beta 2}$ = 1100 m /s)keltirilgan.



2-rasm. Faza va guruh tezliklarin to‘lqin uzunligiga bog‘liq o‘zgarishi $C_{\beta 1}$ = 200 m /s; $S_{\beta 2}$ = 1100 m /s.

Sonli natijalardan ko‘rinib turibdiki, silindr devorining qalinligi oshib borishi bilan faza va guruh tezliklari kamayib borar ekan.

Xulosa.

1. Yuqori tartibli kompleks elementli (maxsus funksiyalar kombinatsiyasidan tashkil topgan) aniqlovchilardan ko‘phadlarga o‘tish va Myuller usulini qo‘llash algoritmi yaratildi. Kompleks argumentli Bessel va Neyman funksiyalarini hisoblash algoritmi yaratildi. Bu funksiyalar kompleks argumentli funksional qator bo‘lib, yaqilashishini ta’minlash uchun almashtirishlar bajarildi va hisoblash jarayonida tekshirib borildi (funksional yaqinlashish radiusi topildi). Dispersion tenglama ω-ning ko‘p qiymatli funksiyasi hisoblanadi (Rabotnov Y.N.ning kasr eksponensional yadrosi qo‘llanganda).

2. Dispersion munosabat kompleks $\Omega(\omega = \omega_R + i\omega_I)$ chastotaning o‘lchamsiz to‘lqin uzunligiga bog‘liq o‘rganildi. Xos sonlarni hisoblashning absolyut xatoligi $18 \cdot 10^{-11}$ (xos son tenglamaga qo‘yilgandan keyingi natija) teng. Dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar uchun olingan, so‘nish koeffitsiyentining to‘lqin soniga bog‘liq o‘zgarishi nomonoton funksiyalar (chastotalar yoki faza tezligini haqiqiy qismlarini maksimal yaqinlashgan qiymatlarda) orqali ifodalanishi topildi. Bu samaraning yangi qirralari ochildi. Dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemada global so‘nish koeffitsiyenti deb ataladigan kattalik kiritildi. Bu kattalik mexanik sistemada harakatni (tebranishlarni) so‘nishini to‘liq ifoda qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1).Авлиякулов Н.Н., Сафаров И.И. Современные задачи статики и динамики подземных трубопроводов. Ташкент, “Fan va texnologiya”. 2007, 306 с.

(2). Авлиякулов Н.Н., Сафаров И.И. Методы повышения сейсмостойкости подземных пластмассовых трубопроводов. “Узбекский журнал нефти и газа”, 2005, № 4, с. 42– 44.

(3). Алексеева Л.А. Стационарная дифракция волн на круговом отверстии в упругом полуплоскости. “Прикладная математика и механика”, 1985, т. 49, вып. 2, с. 299 – 306.

(4). Алешин В.В. [и др.]. Численный анализ прочности подземных трубопроводов. М., изд-во Едиториал УРСС, 2003, 320 с.

(5). Барон, Мэтьюз. Дифракция волны давления относительно цилиндрической полости в упругой среде. “Прикладная механика”, сер. Е, № 1, 1961, с. 31–38.

(6). Базаров М.Б. Сафаров И.И., Шонин Ю.М Численное моделирование колебаний диссипативно-неоднородных и однородных механических систем. Новосибирск, Сибирского отд. РАН, 1996, 189 с.

(7). Борисовец В.А., Козел А.М. Напряженно-деформированное состояние пород вблизи горных выработок, сооружаемых буровзрывными способами. Физико-технические проблемы разработки полезных ископаемых. 1973, № 1, с. 13 – 20.

(8). Быховский В.А., Завриев С. и др., Сейсмостойкие сооружения за рубежом. М., Стройиздат, 1968, 221 с.

Аннотация. *В данной статье анализируются просветительские, общественно-политические идеи джадидского движения, сформировавшегося в начале XX века в Туркестане. На примере деятельности таких выдающихся представителей джадидизма, как Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний и Мунавваркари Абдурашидханов, раскрывается роль джадидских идей в процессе модернизации общества, особенно в сферах образования и воспитания, печати, женского вопроса, гражданского общества и осознания национальной идентичности.*

Ключевые слова: *джадидизм, просветительство, модернизация, социальные реформы, образование и воспитание, национальное возрождение, традиционность, современность, Бехбудий, новое* мышление.

THE CONCEPT OF MODERNIZING SOCIETY IN THE ENLIGHTENMENT IDEAS OF THE JADID MOVEMENT

Annotation. *This article analyzes the educational and socio-political ideas of the Jadid movement, which emerged in Turkestan in the early 20th century. Through the example of prominent Jadid figures such as Mahmudkhuja Behbudi, Abdulla Avloni, and Munavvarqori Abdurashidkhanov, the article explores the role of Jadid ideas in modernizing society, particularly in the areas of education, press, women's issues, civil society, and the development of national identity.*

Keywords: *jadidism, enlightenment, modernization, social reform, education, national revival, tradition, modernity, Behbudi, new thinking.*

Kirish (Introduction). Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakllangan ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi musulmon jamiyatini jahondagi ilg‘or taraqqiyot yo‘nalishlariga mos ravishda yangilash, isloh qilish va zamonaviylashtirish edi. Bu harakatning asosida ma’rifatparvarlik g‘oyalari yotgan bo‘lib, ular jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid Q.Rajabov [1], D.Alimova [2], B.Qosimov [3], Mirza Salimbek [4]larning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma’naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy qarashlari, ularning jadid ma’rifatparvarligidagi alohida o‘rni qisman o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani yozishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanilsi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). 1. **Ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot.** Jadidlar fikricha, jamiyatning orqada qolishining asosiy sababi jaholat va savodsizlik edi. Shuning uchun ular yangi usulda ta’lim beruvchi maktablar (usuli jadid) ochib, ilm-fan, texnika va dunyoviy bilimlarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratdilar. Bu orqali jamiyatning tafakkur darajasini oshirish, zamonaviy dunyo bilan raqobatlasha oladigan avlodni tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

2. **Ayollar erkinligi va teng huquqlilik g‘oyalari.** Jadidlar ayollarni ham zamonaviy ta’lim olishga chorlab, ularning jamiyatdagi o‘rnini oshirish tarafdori edilar. Bu o‘zgarish, o‘z navbatida, jamiyatda modern fikrlashni shakllantirishga olib keldi.

3. **Milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglash.** Jadidlar harakati jamiyatni modernizatsiya qilishda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, madaniyat va adabiyotni rivojlantirish orqali milliy g‘urur va birdamlikni mustahkamlashga intildi. Bu g‘oya modern milliy davlatning shakllanishiga zamin yaratdi.

4. **Matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali modern ongni shakllantirish.** Jadidlar gazeta, jurnal va kitoblar chiqarish orqali keng xalq ommasini zamonaviy g‘oyalar bilan tanishtirdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Cho‘lpon, Fitrat kabi jadidlar ijtimoiy ongni uyg‘otish uchun publitsistika vositasidan keng foydalandilar. Bu esa fikr erkinligi va tanqidiy tafakkurni rivojlantirdi.

5. **Islohot orqali siyosiy modernizatsiya.** Jadidlar ta’lim bilan birga siyosiy islohotlar, konstitutsiyaviy tuzum, parlament, fuqaro huquqlari kabi g‘oyalarni ilgari surdilar. Ular zamonaviy davlat boshqaruvining asoslarini tushuntirib, xalqni siyosiy faollikka chaqirdilar. Jadidchilik harakatining ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat diniy yoki madaniy sohada, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda ham jamiyatni modernizatsiya qilishni maqsad qilgan. Bu harakat zamonaviy o‘zgarishlarga yo‘l ochib, O‘zbekistonda uchinchi Renessans tamoyillarining shakllanishiga asos bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida o‘zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va ma’rifatparvarlik qarashlari orqali butun musulmon jamiyatini uyg‘otishga, uni modern tamoyillar asosida isloh qilishga intilgan. Uning fikricha, taraqqiyotga erishishning eng muhim yo‘li bu ma’rifat, ya’ni ilm, tafakkur va ong yuksalishidir.

1. **Ta’lim-tarbiya orqali jamiyatni uyg‘otish.** Behbudiy “Risolayi maktub”, “Padarkush”, “Muallim ul-atfol” kabi asarlarida yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, dunyoviy fanlarni o‘qitish, bolalar va ayollarni ham ta’limga jalb qilish orqali jamiyatni uyg‘otish g‘oyasini ilgari suradi. U ta’limni millat kelajagining asosi deb biladi: “Har bir millatning najoti ma’rifatdadir.”

Bu pozitsiya jamiyatni modernizatsiya qilishning epistemologik **(**bilim orqali o‘zgarish) asosini tashkil qiladi.

2. Dunyoviylik va ijtimoiy islohotlar zarurati. Behbudiy islom dini va dunyoviy taraqqiyot o‘rtasida ziddiyat ko‘rmasdan, ikkalasini uyg‘unlashtirishga intilgan. U diniy ta’limotlarni hayotiy ehtiyojlarga moslab talqin etish tarafdori bo‘lgan. Bu yondashuv ijtimoiy modernizatsiyaning gumanistik va tolerant asoslarini belgilab beradi.

3. **Ayollar erkinligi va gender tengligi.** Behbudiy o‘z asarlarida ayollarning savodsizligiga, ularning ta’limdan chetda qolishiga qattiq tanqid bilan yondashadi. U jamiyat taraqqiyoti uchun ayollar ta’limini zarur deb hisoblaydi. Bu bilan u jamiyatni modernizatsiya qilishda gender yondashuvini ilgari suradi.

4. Ommaviy axborot vositalari orqali tafakkurni uyg‘otish. Behbudiy “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Oyina” kabi gazetalarni nashr qilib, xalq ongini yangilash, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilgan. U publitsistikani jamiyatda tanqidiy fikrlashni, ijtimoiy faollikni va fuqarolik ongini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko‘rgan. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy-modernizatsion omil sifatida e’tiborga loyiqdir.

5. Siyosiy ong va fuqarolik madaniyatini shakllantirish. Behbudiy fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun konstitutsion boshqaruv, qonun ustuvorligi va parlament tizimi zarurligini ta’kidlaydi. U o‘zining “To‘rt siyosat”, “Vaqt va ahli” kabi maqolalarida siyosiy islohotlarning dolzarbligini asoslab bergan. Bu fikrlar jamiyatni siyosiy jihatdan modernizatsiya qilishning demokratik asoslarini ifodalaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlari jadidchilik harakatining asosiy tamoyillarini chuqur ifodalaydi: ilm-fan va ta’limga asoslangan islohot, jamiyat ongini uyg‘otish, zamonaviy fuqarolik ongini shakllantirish, ayollarga nisbatan tenglik g‘oyasini ilgari surish, siyosiy faollik va mas’uliyatli jamiyat qurish. Behbudiy merosi orqali jamiyatni har tomonlama modernizatsiya qilishning ilmiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy asoslari shakllantirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikricha, jamiyat taraqqiyotining poydevori bu sof milliy g‘oyalar, zamonaviy fan va bilimga asoslangan ta’lim-tarbiyadir. U o‘zining “Turkiston qayg‘usi”, “Vaqt va ahli”, “Ta’lim va tarbiya haqida” kabi maqolalarida jamiyatning sust taraqqiyotining sabablarini johillik, ilmsizlik va qadimchi qarashlarda deb hisoblagan. Behbudiy ta’limni modernizatsiya qilish orqali jamiyatni o‘nglash, milliy uyg‘onishni ta’minlash mumkin, deb hisoblagan. U yangi usuldagi maktablar tashkil etish, ayollar ta’limiga e’tibor berish, milliy matbuot orqali fuqarolar ongini shakllantirishga alohida ahamiyat berdi. Behbudiyning jadidchilikdagi konsepsiyasi an’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga asoslangan bo‘lib, u o‘z faoliyatida Islom qadriyatlari va Yevropa ilmiy tajribasini sintezlashtirishga intilgan.

Kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida ta’lim ijtimoiy guruhlar, shaxslar, jamiyat va davlatning turli iqtisodiy, siyosiy, madaniy, milliy, diniy va boshqa sohalarda manfaatlari bir-biriga mos kelmay kurash maydoni bo‘lib kelgan. Yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash davlat va ziyoli jamoatchilik diqqat markazida bo‘lishining sababi, uning tayyorgarlik darajasi, dunyoqarashning kengligi yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun ham davlat rahbarlari va mahalliy sarmoyadorlar tomonidan madrasalar qurilishiga beg‘araz yordam ko‘rsatilgan. Ayniqsa, omma o‘rtasida ma’rifatparvarlik

g‘oyalarini singdirish maqsadida turkistonlik milliy ziyolilar tomonidan o‘z sarmoyalariga ona tilida gazeta va jurnallar chop etilishi, o‘lka xalqining ma’naviy-siyosiy ongini oshirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqolamizda Turkiston o‘lkasida chop etilgan davriy matbuot manbalaridan bo‘lmish “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi haqida fikr yuritamiz [5].

Rasmiy va norasmiy matbuotning tarixiy manba sifatida Turkiston o‘lkasidagi o‘rni va ahamiyati haqida tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [6;80–81-b.]. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, tadqiqotchi olimlar tomonidan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda chop etilgan davriy matbuot tarixi va uning o‘sha davr taraqqiyotiga qo‘shgan ilmiy-amaliy hissasi o‘rganilib kelmoqda. Milliy matbuot sahifalarida ma’rifatparvar ziyolilar zamonaviy ta’lim tizimni isloh qilish haqidagi qarashlari bilan keng ommani xabardor qilib borgan. Chop etilgan maqolalar mazmunidan O‘zbekistonning rus chorizmiga qaramlik davrigina emas, balki uning ijtimoy-siyosiy, ilmiy-madaniy hayoti haqida ham ma’lumot olish mumkin. Bunday manbalarning qiymati faqat o‘rganilayotgan masala uchungina emas, balki butun bir tarixiy davr uchun ham qadrlidir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning izohlari, misollaridan anglashiladiki, adib adabiy so‘zlashuv tilini oddiy so‘zlashuv tili, shevalardan farqlanib turishi kerakligini anglagan holda, boshqa bir masalani ham ilgari suradi. O‘sha davr fojiasi – farzandlarga til o‘rgatadigan onalarning o‘zlari bilimsizligi, ularning o‘zlarini o‘qitmoq zarurligini ta’kidlaydi: “Taraqqiy etgan millatlar onalari o‘qutar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmog‘imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandir [7;170-b.]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilga oid ushbu maqolalarini o‘qir ekanmiz, jadid allomaning bilim, dunyoqarash borasida o‘z davridan ancha ilgarilab ketgani va jamiyat, millat, xalqdagi eng og‘riqli nuqtalarni nihoyatda tiyrak ko‘z va o‘tkir sezgilar orqali ko‘ra bilganining guvohi bo‘lamiz. Allomaning xalqni ma’rifatli, ilmli ko‘rish, yurtimizning barcha jabhalarda rivojlanganini ko‘rish istagi ushbu maqolalardagina emas, barcha asarlarida mavjudligini yana bir bor aytib o‘tishimiz darkor.

Yurt qayg‘usini o‘z hayotidan ustun ko‘rgan, jamiyat rivojini ma’rifatda deb bilgan buyuk vatanparvar, davlat arbobi, tilshunos, adabiyotshunos olim, adib Abdurauf Fitratning “Tilimiz” maqolasida o‘zbek millati uchun, millatning har bir qadriyatini saqlab qolish uchun jon kuydirgan, fidokor millatparvar shaxs siymosi gavdalanadi. Bu siymo o‘z fikrlarini murojaat bilan boshlaydi: “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, Eng baxtsiz til xud turkchadir” [8;124-b.]. Maqola davomida Abdurauf Fitrat tilimiz boyligini nafaqat Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn asaridan misollar keltirish orqali, balki bir qancha so‘zlarning ko‘plab sinonimlarini keltirish, ular orasidagi ma’no nozikliklarini sharhlash orqali isbotlaydi. Bu haqida A.Ibrohimov “Biz kim o‘zbeklar” asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “O‘zbek millatining jonkuyari va fidoyilaridan biri bo‘lmish Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining boyligi, so‘z yasalishining kengligi, mukammalligi to‘g‘risida so‘zlab, birgina “bil” fe’lidan 99 ta so‘z yasab, tilimizning “arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan” mukammalroq va nozikroq ekanini ko‘rsatadi” [9;183–184-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xalqni ma’rifatli qilish, jamiyatni rivojlantirish, vatanni mustaqil ko‘rish uchun zahmat chekkan, asarlari bilan xalqni uyg‘otish uchun kurashgan, mana shu yo‘lda jon fido qilgan buyuk jadid allomalarimizning millatning asosiy davlatchilik timsoli, millionlab xalqni birlashtiruvchi ma’naviy boylik ona tilimiz, uning ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari beqiyos va ulkandir. Ular nafaqat hozirgi o‘zbek adabiy tilimizning nazariy jihatdan ilmiy asosini yaratishga o‘z hissalarini qo‘shdilar, balki o‘z ijodlari bilan bu tilning yorqin namunalarini ham yaratib berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодадир (1917–1935 йиллар). Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000.

(2). Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Тошкент, “Фан”, 1996.

(3). Исмоилбек Гаспирали. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.

(4). Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского амирата. Перевод с персидского вводная статья и примечаниях Н.Норвулов. Ташкент, “Академия”, 2009, с. 143.

(5). “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi. 1914-yil 3-aprel.

(6). Архангельский Н.П. Библиография(алфавитно-предметный указатель) печатных материалов на русском язхыке по народному образованию на территории Узбекистана в колониальный период (1865–1917). Ташкент, 1952.

(7). Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1997, 170-bet.

(8). Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. IV jild, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006, 124-bet.

(9). Ibrohimov A. Biz kim, o‘zbeklar. Toshkent, “Sharq”, 2011, 183–184-betlar.

Bekimbetova Dilfuza Oralbayevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi;
email: bekimbetovassss@gmail.com)

YOSHLARDA BADIIY IJODNI RIVOJLANTIRISH ULARNI MUSTAQILLIK G‘OYASI RUHIDA TARBIYALASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar tushunchasi, ularda badiiy ijodni rivojlantirish, yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalash masalalari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Yoshlar masalasida olib borilgan davlat siyosati, uning huquqiy asoslari, takomillashuv bosqichlari tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida ko‘rib o‘tilgan. Yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar va ulardan yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirishning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, badiiy ijodni rivojlantirish, yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalash, yoshlar sohasidagi siyosat, yoshlar masalasida qabul qilingan qonunlar, yoshlarning badiiy ijodi, uning tizimli va qonuniyatli jarayon sifatidagi mohiyati.*

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА У МОЛОДЕЖИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ВОСПИТАНИЯ В ДУХЕ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *В статье анализируется понятие молодежи, развитие у молодежи художественного творчества, вопросы воспитания молодежи в духе идеи независимости с социально-философской точки зрения. Также государственная молодежная политика, ее правовые основы, этапы совершенствования рассматриваются как системный и закономерный процесс. Выделяются факторы, влияющие на воспитание молодежи в духе идей независимости и среди них вопросы роли и значения развития художественного творчества молодежи в жизни общества.*

Ключевые слова: *молодёжь, развитие художественного творчества, воспитание молодёжи в духе идеи независимости, молодёжная политика, законы принятые по вопросам молодёжи, художественное творчество молодёжи, его сущность как системного и закономерного процесса.*

DEVELOPMENT OF ARTISTIC CREATION IN YOUTH IS AN IMPORTANT FACTOR OF EDUCATING THEM IN THE SPIRIT OF THE IDEA OF INDEPENDENCE

Annotation. *The article analyzes the concept of youth, the development of artistic creativity in them, and the issues of educating young people in the spirit of the idea of independence from a socio-philosophical perspective. The state policy on youth issues, its legal foundations, and stages of improvement are considered as a systematic and legitimate process. The factors influencing the upbringing of young people in the spirit of the idea of independence and, among them, the issues of the role and importance of the development of artistic creativity in youth in the life of society are highlighted.*

Keywords: *youth, development of artistic creativity, upbringing of young people in the spirit of the idea of independence, youth policy, laws adopted on youth issues, artistic creativity of youth, its essence as a systematic and legitimate process.*

Kirish. Har bir davlatning barqaror rivojlanishi, taraqqiy etib borishi uning yoshlar sohasida olib boradigan siyosatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, yoshlar mamlakatning ravnaqi va yuksalishiga, fuqarolarning farovon turmushini ta’minlashga, uning jahondagi ilg‘or jamiyatlar safidan o‘rin olishiga munosib hissa qo‘shadigan ijtimoiy faol qatlamdir. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisiga, jamiyatning haqiqiy tayanchiga aylantirish davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatdagi ustuvor va strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Keyingi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosati samaradorligiga oid bo‘lgan 100 ga yaqin qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanib, 79-modda bevosita yoshlar masalasiga tegishli hisoblanadi. Ushbu moddada, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi [1], deyilgan. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi ko‘rsatib o‘tilgan.

2016-yil 14-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 3 moddasida yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlar tushunchalari-

ga ta’rif berilgan bo‘lib, ushbu ta’riflarga ko‘ra, yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘-nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iq-tisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidan iborat bo‘lsa, yoshlar (yosh fuqarolar) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [2].

Tahlil va natijalar. Jamiyat hayoti bir butun tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida ko‘rib o‘tilganda uning turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlardan iborat ekanligi va ularning ichida yoshlar alohida o‘rin tutishi masalasiga doimo katta e’tibor qaratib kelingan. Ijtimoiy hayotda yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami va kelajakning ishonchli vorislari deb e’tirof etiladi. Har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi o‘sha jamiyatdagi yoshlarning bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasi asosida belgilana-di. Mamlakatning barqarorligi va qudrati shu yurtda voyaga yetayotgan yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol, dunyoqarashi keng, siyosiy va huquqiy savodxon, iqtisodiy bilimlarni egallagan yoshlarning faolligi va amaliy faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Jamiyat hayotida muntazam ravishda bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishadigan shaxslar guruh-lari ijtimoiy guruhlar deyilib, ular kasbga oid, diniy, etnik, turli demografik guruhlar (yoshlar, ayollar, nuro-niylar va hokazolar)dan iborat bo‘ladi.

Yoshlar tushunchasiga ta’rif beriladigan bo‘lsa, “Yoshlar – ma’naviy dunyoqarashi shakllanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o‘sish, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuv, ijtimoiy hamda ruhiy-fizi-ologik balog‘at yosh (14–30)ni boshdan kechirayotgan ijtimoiy-demografik guruh hisoblanadi. Yoshlar-ning kundalik faoliyatga va katta hayotga qadam qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator asosiy ijtimoiy masalalar mavjud bo‘lib, bular ta’lim olish, oila qurish, mehnat faoliyatini boshlash, kasbiy mahoratni egal-lash, qat’iy ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishga intilish kabilardan iboratdir. Yoshlarning ijti-moiylashuvi va jamiyat hayotiga moslashuvi mazkur jamiyat, ijtimoiy jamoa va guruhga tegishli bo‘lgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, qoidalar, tartiblar, odob-axloq namunalari va me’yorlarining yoshlar tomonidan o‘rganilishi asosida amalga oshiriladi. Yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ular-ning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy, mafkuraviy munosabatlarga moslashuvi hamda ijtimo-iy hayotda shaxs sifatida faoliyat yuritishi ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarning ijtimoi-ylashuvi, bir tomondan, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, yoshlar ana shu mu-nosabatlarga kirib borar ekan, ularning ta’siri ostida o‘zgara boradi” [3].

Yoshlarning sog‘lom bo‘lib o‘sishi, sifatli ta’lim olishi, barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishi, ular-ning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgan masaladir.

Yoshlar tushunchasiga ijtimoiy siyosiy, falsafiy fanlarda turlicha ta’riflar berilgan bo‘lib, shunday ta’riflarning birida, “Yoshlar – yosh chegaralari va jamiyatdagi mavqeyi bilan ajralib turadigan, bolalik va o‘smirlikdan ijtimoiy mas’uliyatga o‘tadigan maxsus ijtimoiy yosh guruhidir. Yoshlar jamiyat ijtimoiy ri-vojlanish imkoniyatiga ko‘mak beruvchi, ularga imtiyozlar beriladigan, jamiyat hayotining muayyan soha-larida faol ishtirok etadigan shaxslar majmuyi. Shaxslarni yoshlar deb tasniflash imkonini beruvchi yosh chegaralari muayyan mamlakatlarda turlicha farqlanadi. Yoshlarning quyi yosh chegarasi 14 yoshdan 16 yoshgacha, yuqori yosh chegarasi 25 yoshdan 35 yoshgacha va undan keyin ham belgilanishi mumkin” [5], deyilgan.

Yoshlar masalasi bo‘yicha amerikalik Tolkott Parsons, Robert Merton, Neyl Smelzer, rossiyalik V.T. Lisovskiy, N.M.Blinov va boshqalar o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Agar V.T.Lisovskiy yoshlar to‘g‘ri-sida “bu ta’lim, kasbiy, madaniy va boshqa ijtimoiy funksiyalarni o‘zlashtiruvchi, ijtimoiylashuv bosqichini o‘tayotgan insonlar avlodi” deb hisoblasa, Igor Kon yoshlarni “sotsial-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy mavqeyining o‘ziga xosligiga ko‘ra farq qiluvchi, yosh xarakteristikasi umumiyligi asosida ajralib turuvchi sotsial-demografik guruh” [6] deb hisoblaydi. Yoshlarni alohida ijtimoiy guruhlarga ajratib o‘rganish jara-yonida ularning yoshi, mavqeyi, jamiyatda tutgan o‘rni kabi masalalarga doimo katta e’tibor qaratib kelin-moqda.

Yoshlar jamiyat hayotida ijtimoiy faol qatlam sifatida jamiyat va davlat rivojlanishida qo‘lga kiritil-gan yutuqlar, moddiy va ma’naviy madaniyat, ijtimoiy yutuqlarning vorisi sifatida faoliyat olib borishadi. Ular davlat va jamiyat hayotida faoliyat olib borish jarayonida o‘zlarining maqsad va vazifalariga, fikriga ega bo‘ladilar, yangiliklarga ijobiy tarzda munosabatda bo‘ladilar. Yoshlar ta’lim va tarbiyaning obyekti va subyekti sifatida muayyan qadriyatli mo‘ljallarga, ma’naviy axloqiylikka tayanadilar. Yoshlar mamla-katning sotsial-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishida faol harakat qiladilar.

O‘zbekistonning yoshlar sohasida olib borayotgan siyosatida yoshlarni jismonan va aqlan sog‘lom bo‘lib o‘sishini ta’minlash, ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini singdirish, har bir yoshni o‘z Vataniga mehr va muhabbat, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning o‘z millati, o‘z yurti tarixini, urf-odatlari va rasm-rusumlarini, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rnini har tomonlama chuqur bilishi ularni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ma’naviy, intellektual, jismoniy-axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish ularda badiiy ijodni rivojlantirish, ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy bilim, tasavvur va dunyoqarashini kengaytirish asosida amalga oshirilmoqda. Iqtidorli, iste’dodli, tadbirkor yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida badiiy ijodiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratmoqdalar. Bu esa milliy g‘oya va mafkurada ilgari surilgan ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarini yoshlarning ongi va qalbiga ularni badiiy ijodga qiziqtirish, ularda adabiyotga, san’atga, madaniyatga qiziqishni uyg‘otish, yoshlarning estetik ongi va madaniyatini yanada kengaytirish asosida singdirib, yoshlarning mafkuraviy immunitetini yanada kuchaytirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekistonda shakllanayotgan milliy g‘oya va mafkura fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvarlik, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Har bir fuqaro, eng avvalo, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini kuchaytirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish, ularda badiiy ijodni rivojlantirish asosida amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayoni ham yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirish bilan uyg‘un tarzda amalga oshiriladi.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql idrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar ham xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [8].

Bugungi yoshlar ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan bo‘lishlari uchun yoshlarda keng bilim va dunyoqarash, badiiy ijodiy tafakkur talab etiladi.

2020-yil 4-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilib, uning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Milliy tiklanishdan–milliy yuksalish sari!” g‘oyasi atrofida birlashtirish vazifalari belgilandi. Iqtidorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalariga ta’lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini ta’minlash, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiya bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyati va iste’dodini rivojlantirish O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining muhim masalalari sifatida e’tirof etildi.

Xulosa va takliflar. Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda O‘zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalar sifatida e’tirof etilmoqda. Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirish, ularda estetik ong va madaniyatni yuksaltirish jarayoni bilan o‘zaro bog‘liq holatda amalga oshirilmoqda.

Barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash, yangi tashkil etiladigan kompyuter o‘yinlari markazlarini yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta’minlash masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida, yangi tashabbus doirasida barcha viloyat va tumanlarga turli mavzulardagi kitoblar yetkazib berilmoqda. Har bir shahar va tuman markazlarida namunali kitob do‘konlari tashkil etilishi-

ga, ko‘chma kitob pavilonlari joylashtirilib, “Bibliobus”lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlarini tashkil etishga e’tibor berilmoqda.

Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash maqsadida barcha tumanlarda turli korxonalar tashkil etilmoqda, aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko‘p joylarda ish o‘rinlari tashkil etilib, aholining turmush darajasi yaxshilanmoqda. Yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratish masalasiga ham bugungi kunda e’tibor kuchaytirilmoqda. Yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilish yoshlarga oid davlat siyosatida katta e’tibor qaratilayotgan masalalardan biridir. Shuning uchun O‘zbekistonda yoshlar qatlamiga yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatidagi munosabat shakllantirilmoqda. Yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga, badiiy ijodiy tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, ularning ongi va qalbiga mustaqillik g‘oyasi va mafkurasini singdirish O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosatida asosiy e’tibor qaratilayotgan masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023, 31-bet.

[2]. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni (14.09.2016-yildagi O‘RQ-406-son). https://lex.uz/docs/3026246

[3]. Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010, 104–105-betlar.

[4]. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent,” O‘zbekiston”, 2020, 444-bet.

[5]. Aripov Alisher Abdumalikovich. Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda bag‘rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa. Falsafa f.b.f.d.(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Jizzax, 2023, 16–17-betlar.

[6]. Социология молодёжы. https://ru.wikipedia.org/wiki/

[7]. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 23-bet.

[8]. Yorboboyeva I.B. Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta’sirlarning tutgan o‘rni. Maqolalar to‘plami, Toshkent, 2020, 286-bet.

[9]. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 37–38-betlar.

Shamsiyev Mirjalol Umirzoqovich (Sharof Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi)

O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda xavfsizlikni ta’minlash muammosi har qanday davlat uchun o‘ta muhim va dolzarb strategik vazifa hisoblanadi. Vaholanki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda jamiyatda notinchlik keltirib chiqaradigan omillarning shu qadar keng ko‘lamdagi shakl va ko‘rinishlari namoyon bo‘lmoqdaki, unga qarshi kurashish, immunitet hosil qilish tobora murakkablashib bormoqda. Jamoat xavfsizligi, butun bir jamiyat sistemasining ijtimoiy-siyosiy, milliy-umuminsoniy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy hamda ekologik xavf-xatarlardan himoyalanganlik darajasidir. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari yuqorida, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayoni orqali shakllantiriladi. Ma’naviy-ma’rifiy asos mustahkam bo‘lsa, hech bir g‘oyaviy-mafkuraviy omil jamoat xavfsizligiga tahdid sola olmaydi. Ma’naviy-ma’rifiy asos jamiyat a’zolarida mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydigan eng muhim vosita sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *jamoat xavfszligi, ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, xavf-xatar, notinchlik, himoyalanish, tinchlik, farovonlik, barqarorlik, din, mafkura.*

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В настоящее время проблема обеспечения безопасности является исключительно важной и актуальной стратегической задачей для любого государства. Однако в стремительно развивающемся современном мире проявляются такие многочисленные и разнообразные факторы, вызывающие нестабильность в обществе, что борьба с ними и формирование иммунитета к этим угрозам становится всё более сложной задачей. Общественная безопасность – это уровень защищённости всей социальной системы общества от социально-политических, национально-гуманистических, экономических, культурных, духовно-нравственных и экологических угроз. Духовно-прос-*

ветительские основы обеспечения общественной безопасности, прежде всего, формируются через систему образования и воспитания. Если духовно-просветительская основа прочна, то никакие идеологические и идеологически-пропагандистские факторы не смогут угрожать общественной безопасности. Духовно-просветительская основа является важнейшим средством укрепления идеологического иммунитета среди членов общества.

Ключевые слова: *общественная безопасность, духовность, просвещение, образование, воспитание, опасность, беспорядки, защита, мир, процветание, стабильность, религия, идеология.*

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL FOUNDATIONS OF ENSURING PUBLIC SECURITY IN UZBEKISTAN

Annotation. *At present, the problem of ensuring security is an extremely important and urgent strategic task for any state. However, in the rapidly developing modern world, such numerous and diverse factors causing instability in society appear that the fight against them and the formation of immunity to these threats is becoming an increasingly difficult task. Public security is the level of protection of the entire social system of society from socio-political, national-humanistic, economic, cultural, spiritual-moral and environmental threats. Spiritual and educational foundations for ensuring public security are formed, first of all, through the system of education and upbringing. If the spiritual and educational foundation is strong, then no ideological and ideological-propaganda factors will be able to threaten public security. The spiritual and educational foundation is the most important means of strengthening ideological immunity among members of society.*

Keywords: *public safety, spirituality, enlightenment, education, upbringing, danger, unrest, protection, peace, prosperity, stability, religion, ideology.*

Kirish (Introduction). “Jamoat xavfsizligi” tushunchasi eshitilganda yoxud qo‘llanilganda jamiyat a’zolarida deyarli hamma vaqt ichki ishlar, huquq-tartibot idoralari yoki davlatning huquqiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan mas’ul idoralarini xavfsizlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlari tushuniladi. Ammo shuni ta’kidlash o‘rinliki, bugungi global taraqqiyot davriga kelib, tahdidlarning, jamiyatga nisbatan xurujlarning, urushlarning xilma-xil zamonaviy, yangicha shakl va turlari kelib chiqmodaki, nafaqat xavfsizlikni ta’minlash tizimlari, balki butun bir jamiyat sistemasi tinchlikni ta’minlash uchun mas’ul bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, bu jamiyat a’zolarining o‘zi, farzandlari, yaqinlari, oilasi, birodarlari osoyishtaligi bilan bog‘liq muhim masala ekanligi anglab yetilmoqda. Jamoat xavfsizligi tushunchasi keyingi yillarda juda keng ko‘lamdagi falsafiy mohiyatga ega bo‘lib bormoqdaki, uning ilmiy-nazariy mazmuni borasida tadqiqotlar olib borish zaruratga aylanmoqda. Zero, tinchlik, farovonlik, osoyishtalikni ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor masalalaridan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Xavfsizlik masalasi nafaqat davlat arboblari, hukumat yoxud hukmdorlarni, balki azal-azaldan olimlar, shu jumladan, faylasuflarni ham qiziqtirib kelgan. Mazkur muammo g‘arb olimlaridan T.Gobbs, J.Lokk, Gegel, Fuko, Bodriyar [9;90–95-b.] kabi bir qator faylasuflar asarlarida tahlil etiladi. T.Gobbs o‘z qarashlarida xavfsizlikni, asosan, hukmdor elita bilan bog‘lab, jamiyat a’zolarining xavfsizligi ularning erkinligi mutlaq hokimiyatga o‘tkazilishi orqali ta’minlanishi mumkinligini ta’kidlaydi. J.Lokk xavfsizlikka jamiyatni tashkil etishning optimal shakli sifatida qaraydi. Xavfsizlik masalasi V.Gegelning “Huquq falsafasida” [6;280–289-b.]da ham tahlil etiladi. Davlatning qonunlar asosida boshqarilishi, huquqlarga amal qilinishi, shuningdek, huquq, odob-axloq, din singari milliy-ma’naviy omillar xavfsizlik asosi ekanligi Gegel falsafasida ham o‘z aksini topadi. O‘zbek faylasuf olimlaridan B.Turayev, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, A.Berdimuratova, Sh.Negmatova, M.Ergasheva kabi ko‘plab olimlarimiz ilmiy asarlarida xavfsizlik, uni ta’minlash, turli tahdid omillariga qarshi kurash masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda xavfsizlikni ta’minlash muammosi har qanday davlat uchun o‘ta muhim va dolzarb strategik vazifa hisoblanadi. Vaholanki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda jamiyatda notinchlik keltirib chiqaradigan omillarning shu qadar keng ko‘lamdagi shakl va ko‘rinishlari namoyon bo‘lmoqdaki, unga qarshi kurashish, immunitet hosil qilish tobora murakkablashib bormoqda. Ensiklopedik manbalarda “Jamoat xavfsizligi–shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulotda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, yirik holatlar avariya, shuningdek, yong‘inlarda himoyalanganlik holatini ifodalash maqsadida qo‘llaniladigan tushuncha” [11;167-b.] sifatida keltiriladi. Demak, shaxsning, davlatning, jamiyatning

har qanday tahdidlardan, xatar va tajovuzlardan himoyalanganlik darajasi “jamoat xavfsizligi” tushunchasini ifodalaydi.

Bizningcha, bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

–inson hayoti, qadri, shaxsiy daxlsizligini kafolatlash;

–ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash;

–ekologik xavfsizlikni shakllantirish;

–axborot xurujlaridan himoyalanish;

–kiberxavfsizlikning oldini olish;

–psixologik tajovuzlarga qarshi immunitet hosilm qilish;

–milliy xavfsizlikni ta’minlash;

–millatlararo ziddiyatlarning oldini olish;

–psixotrop vositalardan himoyalanish va h.k.

Jamiyat va inson hayotiga xavf solayotgan yo‘qoridagi tahdid omillarini yana bir qator kengytirilgan tarzda davom ettirish mumkin. Masalaning muhim tomoni ham mazkur omillar safi yildan yilga kengayib, yanada takomillashib bormoqda. Xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim asosi ma’naviy-axloqiy yuksalish orqali amalga oshadi. Zero, “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz” [4;261-b.]. Demak, inson tanasining salomatligi, avvalo, uning ruhan salomatligi orqali ta’minlanganligi kabi, jamiyatning ham barqarorligi, eng avvalo, ruhan barqarorlik bilan belgilanadi. Shuning uchun ham jamiyatdagi ichki, ruhiy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash butun bir xafvfsizlik sistemasining muhim asosi hisoblanadi. Ma’naviy barqarorlik har qanday barqarorlik shaklining tayanch nuqtasi sanaladi. “Bugungi kunda o‘zbek xalqi o‘zining milliy mafkurasi tamoyillariga to‘liq amal qilgan holda, uning mustaqilligiga tahdid solayotgan har xil buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar bilan kurash olib bormoqda. Bu esa mamlakat ichkarisida va tashqarisida ham o‘zbek xalqining ma’naviy raqobatbardoshligini ta’minlash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda [8;43-b.]. Demak, xavfsizlik masalasi, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash muammosi ham yangicha yondashuvni, yangicha kurash usuli va vositalarini talab etmoqda. Bu masalada falsafiy yondashuvning, ma’naviy-mafkuraviy yondashuvning yanada muhimligi anglab yetilmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayoni orqali shakllantiriladi. Ma’naviy-ma’rifiy asos mustahkam bo‘lsa, hech bir g‘oyaviy-mafkuraviy omil jamoat xavfsizligiga tahdid sola olmaydi. Shu o‘rinda, jamoat xavfsizligini ta’minlashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

–milliy ta’lim va tarbiya modelini shakllantirish;

–dinning ilmiy-nazariy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik ta’sirini kuchaytirish;

–ajdodlar merosiga hamda milliy qadriyatlarga tayanuvchi ta’lim-tarbiya metodlarini ishlab chiqish;

–san’at va adabiyotning konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanish;

–milliy-ma’naviy meros targ‘ibotining zamonaviy shakllarini takomillashtirish va h.k.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, jamiyatda oqilona milliy ta’lim-tarbiya modelini tashkil etilishi millatning birlashuvi, har qanday tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish qobiliyati, milliy g‘urur, sha’n, or-nomus tuyg‘ularini shakllanishida muhim funksional ahamiyatga egadir. Milliy ta’lim-tarbiya modeli har bir millatning ham milliy, ham umume’tirof etilgan belgilari asosida shakllantirladi.

“Millatning umume’tirof etilgan belgilariga quyidagilar:

1) yagona til birligi;
2) yaxlit hudud birligi;
3) mushtarak iqtisodiy hayot kechirish yashash birligi;
4) urf-odat, qadriyatga asoslangan umumiy madaniyat birligi;
5) o‘zligini anglatuvchi ruhiy birlik kiradi” [12;91-b.].

Demak, milliy ta’lim-tarbiya modelining shakllanishida ham mazkur belgilar inobatga olinsagina, u tom ma’noda milliy mustaqillikni mustahkamlash hamda milliy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Jamiyat hayotida bugungi kunga kelib, eng kuchli tahdidlardan biri bu din niqobi ostidagi ma’naviy tahdidlar hisoblanadi. Dinning kuchli ta’sir etish xususiyatidan buzg‘unchi maqsadlar yo‘lida foydalanish uni tahdid quroliga aylantirish keyingi vaqtlarda bu borada jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Aslida din madaniyat fenomeni, din jamiyat tinchligi, farovonligi, ma’naviy barqarorligi asosi hisoblanadi.

Shuningdek, “Har qanday madaniyat ibodat bilan bog‘liq. U diniy ibodatdan kelib chiqadi va rivojlanadi” [13;273-b.]. Jamiyatda dinning ma’naviy-axloqiy ta’sirini kuchaytirsh juda muhim sanaladi. Zero, “Diniy va dunyoviy bilimlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmas to‘siq yo‘q, ular doimo bir-birini to‘ldiradi va bir-birini boyitadi…Inson amaliy faoliyatida ularning birortasi “yetishmasa”, inson barkamolligi to‘liq bo‘lmaydi” [10; 237-b.]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, din nafaqat jamiyat a’zolari ilmiy dunyoqarashiga, balki ma’naviy-axloqiy tafakkur tarzini shakllantirishga ham ta’sir eta oladi. Ilmiy-nazariy, diniy, ma’naviy-axloqiy tafakkur tarzi mustahkam bo‘lgan shaxsning mafkuraviy immunitetei ham mustahkam bo‘ladi va uni hech bir tahdid o‘z izmiga sola olmaydi.

“Ma’naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” [5;19-b.]. Bu esa jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng muhim asos hisoblanadi. “Yurtda doimo tinchlik va barqarorlik bo‘lishi taraqqiyot mezoni hisoblanadi…Tinchlik bu har bir inson, elat, millat, xalq va davlatlarning hayoti faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan, ularni har xil yomonliklar bilan bezovta qilmaydigan betashvish, urush-janjallarsiz osoyishta yashashlari uchun to‘s-to‘polonlardan, o‘zaro ziddiyatli to‘qnashuvlardan, katta-kichik urushlardan xoli bo‘lgan sharoitdir [12;229–230-b.]. Umuman olganda, xavfsizlik xususida mulohaza yuritilganda, mazkur tushunchaning mazmunini shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlik haqidagi fikrlar orqali anglab yetish mumkin. Shaxsiy xavfsizlik ma’lum bir shaxsning individual hayotini turli tahdidlardan himoyalash faoliyatini anglatsa, ijtimoiy xavfsizlik esa butun bir jamiyaning tahdid omillaridan himoyalanganlik darajasini bildiradi. “Xavfsizlikka bo‘lgan talab inson yashash faoliyatining basis motivatsion mexanizmlari tarkibiga kiradi va bu tomondan inson boshqa tirik maxluqotlardan unchalik ham farqlanmaydi. Bu fakt, birinchidan, xavfsizlik tushunchasini mavjudlikning asosiy (insoniyat mavjudligi) stixiyasi bilan bog‘laydi, ikkinchidan, uning mazmuniga individlar ham ijtimoiy obektlarning ko‘plab holatlar va omillar (ular orasida birinchi urinda, albatta, negativ va destruktiv ta‘sir qiladigan omillar ajralib turadi) bilan o‘zaro ta‘sirining xilma-xilliligi kiritadi” [7]. Ijtimoiy xavfsizlik butun bir tarixiy taraqqiyot davrida jamiyat va davlatning eng muhim funksiyasi hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash mamlakat tinchligining eng muhim omili sanaladi. Shu boisdan ham mamlakatimizda bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasiga davlat siyosati drajasida e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchidan, shaxsning, davlatning, jamiyatning har qanday tahdidlardan, xatar va tajovuzlardan himoyalanganlik darajasi “jamoat xavfsizligi” tushunchasini ifodalab, bugungi kunda zamonaviy xavf-xatar omillarining tobora kengayib borishi bu boradagi ilmiy-nazariy, falsafiy tadqiqotlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi, avvalo, inson hayoti, qadri, shaxsiy daxlsizligini kafolatlash, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, ekologik xavfsizlikni shakllantirish, axborot xurujlaridan himoyalanish, kiberxavfsizlikni oldini olish, turli psixotrop vositalardan himoyalanish kabi bir qator yo‘nalishlar doirasida olib borilmoqda.

Uchinchidan, global taraqqiyot davriga kelib, jamoat xavfsizligini ta’minlashning bosh yo‘nalishi sifatida ma’naviy-ma’rifiy xavfsizlikni ta’minlanishi, butun bir xavfszlik sistemasi uchun fundamental asos bo‘lishi o‘z isbotini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 29.11.2021. PF-27-sonli.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 26.03.2021. PF-6196-son.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 18.02.2020. PF-5938-sonli.

(4). Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Иккинчи нашр, Т., “O‘zbekiston”, 2022.

(5). Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch (ikkinchi nashr). T., “Ma’naviyat”, 2010.

(6). Гегель. Философия права. М., 1990, с. 280–289.

(7). Muxammadiyarova A. “Ekologik xavfsizlikni tahlil qilishning falsafiy-metodologik asoslari” mavzusidagi PhD dissertasiyasi avtoreferati, Samarqand, 2024.

(8). Negmatova Sh.Sh., Abbosova M.S. Sog‘lom ma’naviy raqobat – ma'naviy raqobatbardoshlik asosi sifatida // Ilm sarchashmalari. Urganch, 2020, 43-bet.

(9). Философия эпохи постмодерна. “Мир”, 1996, с. 90–95.

(10). Хаитов Ш.И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. Т., “Noshir”, 2011, 237-.

(11). Ўзбекистон юридик энциклопедияси. Т., “Адолат”, 2010.

(12). Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Дарслик. Т., “Чўлпон”, 2018, 91-.
(13). Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand, SamDU, 2021, 273-bet.
(14). Ergasheva M. Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, SamDU, 2021.
(15). Ergasheva M. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik, Samarqand, SamDU, 2024.

Utegenova Jamila Djolmurzayevna (Innovatsion texnologiyalar universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi d.v.v.b.)

BIOETIKANI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bioetika tushunchasi, uning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari va global miqyosdagi dolzarb masalalari keng tahlil qilingan. Shu bilan birga, texnologik yutuqlar, biotibbiyotning innovatsion taraqqiyoti va ijtimoiy ongning o‘zgarishi sharoitida bioetika me’yorlarini takomillashtirishning muhimligi yoritib berilgan. Mazkur masalaga milliy va xalqaro tajribalar prizmasidan qaralgan.*

Kalit so‘zlar: *bioetika, klinik tadqiqotlar, tibbiy axloq, raqamli sog‘liqni saqlash, genetik tahlil, ekologik bioetika, shaxsiy ma’lumotlar, sog‘liqni saqlashdagi tenglik.*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ БИОЭТИКИ

Аннотация. *В статье представлен комплексный анализ понятия биоэтики, современных тенденций её развития и актуальных проблем в глобальном масштабе. При этом подчёркивается важность совершенствования биоэтических стандартов в условиях технологического прогресса, инновационного развития биомедицины и изменений в общественном сознании. Данная проблема рассматривается через призму отечественного и зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *биоэтика, клинические исследования, медицинская этика, цифровое здравоохранение, генетический анализ, экологическая биоэтика, персональные данные, равенство в здравоохранении.*

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF BIOETHICS

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the concept of bioethics, its modern development trends and current issues on a global scale. At the same time, the importance of improving bioethical standards in the context of technological advances, innovative development of biomedicine and changes in social consciousness is highlighted. This issue is considered through the prism of national and international experience.*

Keywords: *bioethics, clinical research, medical ethics, digital healthcare, genetic analysis, environmental bioethics, personal data, equality in healthcare.*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklar davomida ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Xususan, biotibbiyot va genetik muhandislik sohalarida erishilayotgan yutuqlar inson hayotining sifatini oshirishga, yangi davolash usullarini yaratishga keng imkoniyat ochmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar bioetika kabi nozik va murakkab sohaning shakllanishi va rivojlanishiga turtki berdi. Chunki har qanday innovatsion yondashuv inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlariga mos kelishi lozim.

Bioetika – biologik va tibbiy tadqiqotlar, klinik amaliyot hamda sog‘liqni saqlash siyosatining axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganadigan muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan. Uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari texnologik taraqqiyot va ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Jirovning ta’kidlashicha, bioetika zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismiga aylanib, klinik faoliyat va ilmiy tadqiqotlarda inson sha’ni va huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etishni taqozo etadi. Uning fikriga ko‘ra, zamonaviy biotexnologiyalar rivoji axloqiy tamoyillarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi [1].

Nazarovaning ta’kidlashicha, bioetika va zamonaviy jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik inson huquqlarini himoya qilish, sog‘liqni saqlash tizimida adolat va shaffoflikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘langan [2]. Muallifning fikricha, bioetika milliy mentalitet va xalqaro normalar uyg‘unligida rivojlanishi lozim.

Beauchamp va Childressning ta’kidlashicha, bioetika prinsiplari, avvalo avtonomiya, ezgulik, zarar yetkazmaslik va adolat tamoyillari – har qanday tibbiy amaliyotning poydevori sifatida e’tirof etilishi kerak [3]. Ular bu prinsiplarga asoslanib universal bioetik kodeks shakllantirish g‘oyasini ilgari surgan.

Karimovning ta’kidlashicha, tibbiy axloq va bioetika O‘zbekiston sharoitida ham o‘zining dolzarbligini oshirib bormoqda [4]. U zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida bemor roziligi, axborotning maxfiyligi va kasbiy mas’uliyat kabi masalalarni chuqur o‘rganadi.

Vasilenkoning ta’kidlashicha, bioetika nafaqat bemor va shifokor o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, sog‘liqni saqlash tizimining adolatli ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi [5]. U bioetik masalalarni madaniy kontekstda ko‘rib chiqish muhimligini urg‘ulaydi.

Ahmedovaning ta’kidlashicha, sog‘liqni saqlashda bioetik tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi [6]. U tibbiy faoliyatda bemor huquqlari, axborotning shaffofligi va ijtimoiy mas’uliyat mezonlari yetarli darajada nazarda tutilishi zarurligini alohida qayd etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Zamonaviy bioetika rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu soha hozirda ko‘plab yangi yo‘nalishlarni qamrab olyapti va kengayib borayotgan faoliyat maydoniga ega bo‘lmoqda. Bioetika nafaqat tibbiyot amaliyotida, balki ilmiy tadqiqotlarda, ijtimoiy siyosatda, ekologiya va texnologiya bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda ham muhim tamoyillar majmuasini shakllantiradi. Shu sababli uni zamonaviy sivilizatsiyaning axloqiy poydevorlaridan biri deb baholash mumkin.

Bir jihatini ta’kidlash joizki, bioetika tamoyillarining shakllanishi nafaqat ilmiy texnologiyalar rivojiga bog‘liq, balki turli jamiyatlarning madaniy qadriyatlari, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy ongiga ham bevosita bog‘langan. Shu sababli ayrim bioetik masalalarda milliy yondashuv va xalqaro standartlar o‘rtasida muvozanatni topish ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda. Masalan, evtanaziya, embrion hujayralardan foydalanish, reproduktiv texnologiyalar kabi yo‘nalishlarda turli davlatlarda tubdan farqli huquqiy va axloqiy qarashlar mavjud.

Zamonaviy bioetika rivojlanishining yana bir dolzarb tendensiyasi insonning reproduktiv huquqlari va ularni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy, huquqiy va axloqiy mezonlarni shakllantirishdir. Sun’iy urug‘lantirish, surrogat ona xizmatlari va embrion banklar faoliyati masalalarida jamiyatning turli qatlamlari va mutaxassislar o‘rtasida fikrlar xilma-xilligi mavjud. Shu sababli bu masalalarni tartibga solishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy bioetika nafaqat odamga oid masalalar bilan cheklanmay, balki hayvonlar huquqlarini himoya qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash kabi keng qamrovli vazifalarni ham qamrab oladi. Masalan, laboratoriya tadqiqotlarida hayvonlardan foydalanish axloqiy chegaralari doimo muhokama etiladigan masalalardan biri hisoblanadi. Ba’zi davlatlarda hayvonlarga nisbatan tajribalarning minimumga tushirilishi bo‘yicha qat’iy reglamentlar ishlab chiqilgan. Shu sababli ekologik va hayvonot bioetikasining rivojlanishi zamonaviy tafakkurda axloqiy javobgarlikning kengayishini aks ettiradi.

Hozirgi davr bioetikasining muhim yo‘nalishlaridan yana biri transchegaraviy biotibbiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlikning kuchayishi bilan bog‘liqdir. Masalan, xalqaro farmatsevtika kompaniyalari tomonidan turli davlatlarda klinik tadqiqotlar o‘tkazilganda, tadqiqot ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, ularning sog‘lig‘i va roziligini kafolatlashga oid masalalar bioetikaning dolzarb qismi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlarda sog‘liqni saqlash resurslarining cheklanganligi sababli axloqiy risklar ko‘payishi ehtimoli borligi ham bioetika doirasida jiddiy e’tiborni talab qilmoqda.

Yana bir diqqatga sazovor tendensiya – sog‘liqni saqlashning raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida kasalliklarni aniqlash va davolashda axborotning maxfiyligi, tahlillar aniqligi va ma’lumotlarni saqlash xavfsizligi bo‘yicha yangi bioetik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu borada, ayniqsa, “aqlli sog‘liqni saqlash” (smart healthcare) kontseptsiyasi jadal rivojlanib, bemorning shaxsiy ma’lumotlari va hayotiy faoliyati bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlar yig‘ilmoqda. Shu sababli raqamli tibbiyotning bioetikasini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik asoslarini yaratish zaruriyati ortib bormoqda. Shuningdek, tibbiy ko‘makning adolat tamoyillariga asoslanganligi ham zamonaviy bioetikaning muhim mezoni hisoblanadi. Masalan, dori vositalari va davolash texnologiyalariga kirish imkoniyati ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini yuzaga chiqaradi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida mavjud resurslar nomutanosibligi ko‘plab global bioetik savollarni tug‘diradi. Shu sababli Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar universal bioetik kodekslar ishlab chiqishni faol qo‘llab-quvvatlamoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha yo‘nalishlar shuni anglatadiki, bioetika taraqqiyoti zamonaviy fan, texnologiya va jamiyatning o‘zaro murakkab aloqalari natijasida shakllanmoqda. Uning rivojlanishida milliy va xalqaro tajribalar sintezini ta’minlash, umumiy axloqiy qadriyatlarni saqlash va zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish eng asosiy vazifalardan biridir.

Natijalar. Bioetika so‘nggi o‘n yilliklarda insoniyatning eng muhim ijtimoiy va ilmiy muammolarini muhokama qiladigan zamonaviy platformaga aylandi. Shu bois uning rivojlanish jarayonida axloqiy qarashlar va huquqiy tamoyillarni doimiy yangilab borish zarurati tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar, biotibbiy kashfiyotlar va globallashuv bioetika maydonini yanada kengaytirib, ko‘plab murakkab savollarni yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda tibbiyot va biologiyada yuz berayotgan jadal innovatsiyalar bioetikaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirib yubordi. Masalan, regenerativ tibbiyot, individual genomik tahlil, biobankar faoliyati kabi yo‘nalishlar inson huquqlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mezonlarini talab qilmoqda. Shu sababli, bioetika yondashuvlarida uchta muhim ustunlik – shaffoflik, shaxsiy huquqlar ustuvorligi va ijtimoiy javobgarlik g‘oyasi asos sifatida qabul qilinmoqda. Shuningdek, zamonaviy bioetikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatidagi global tenglik masalalarini ko‘tarishi. Bugun dunyo miqyosida davolash va diagnostika texnologiyalarining rivojlanishi ko‘pchilik uchun imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Shu bilan birga, resurslar yetishmovchiligi va sog‘liqni saqlash tizimidagi iqtisodiy tafovutlar ko‘plab mamlakatlarda adolat tamoyillariga zid vaziyatlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, qimmat dori vositalari va yuqori texnologik davolash usullariga hamma ham erisha olmaydi. Bu esa bioetika doirasida “salomatlikning ijtimoiy adolati” deb ataluvchi muhim tushunchani shakllantirdi.

Alohida e’tiborga molik masalalardan biri klinik tadqiqotlarda ishtirokchilarning huquqlarini to‘liq kafolatlashdir. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, har bir klinik tadqiqot qatnashchisi barcha risk va ehtimoliy natijalar to‘g‘risida oldindan ma’lumot olish va ongli rozilik berish huquqiga ega. Shu sababli bioetika jarayonlari mutlaqo ochiq va huquqiy asosga tayangan bo‘lishi lozim.

Yana bir muhim yo‘nalish – ekologik bioetika. Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, hayvonlar huquqlarini hurmat qilish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi vazifalar bugun bioetikaning ajralmas qismi sifatida rivojlanmoqda. Bu borada O‘zbekistonda ekologik qonunchilik va tibbiy-amaliy faoliyatning bioetik normalari uyg‘unlashib borayotgani ijobiy jarayon sifatida e’tirof etiladi. Shu asosda ta’kidlash joizki, bioetika hozirda sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi bo‘lib qolmadi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilayotgan muhim yo‘nalish sifatida shakllandi.

Xulosa va munozara. Xulosa qilib aytganda, bioetika – bu faqat ilmiy tushunchalar majmuasi emas, balki jamiyatning axloqiy va huquqiy ongini ifodalovchi muhim qadriyatlar tizimidir. Zamonaviy tendensiyalar bioetikaning doimiy rivojlanishini, yangi texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashishini taqozo etadi. Shu bois bioetik me’yor va tamoyillarni shakllantirishda milliy an’analar, xalqaro tajriba va zamonaviy fan yutuqlari uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kelajakda bioetika nafaqat tibbiyot, balki butun ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida rivojlanib boradi. Shu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va huquqiy islohotlar inson salomatligi va sha’ni, ijtimoiy barqarorlik hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Жиров Б.В. Основы биоэтики. Москва, Медицинское информационное агентство, 2015, 288 с.
(2). Назарова Г.Т. Биоэтика и современное общество. Ташкент, “O‘zbekiston”, 2020, 224-бет.
(3). Beauchamp T.L., Childress, J.F. Principles of Biomedical Ethics. Oxford: Oxford University Press, 2019, 432 p.
(4). Karimov S.K. Bioetika va tibbiy axloq asoslari. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018, 260-бет.
(5). Василенко В.А. Биоэтика. Москва, “ГЭОТАР-Медиа”, 2019, 320 с.
(6). Ahmedova Z.M. Sog‘liqni saqlashda bioetik tamoyillar. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2021, 190-бет.
(7). World Health Organization. Guidance on Ethics of Clinical Research. Geneva: WHO Press, 2020, 112 p.

Xolova Umida (Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi; UDK:0009-0003-3624-3477)

G‘ARB FALSAFASIDA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING ILIMY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada G‘arb falsafasi tarixida ma’rifatparvarlik harakati paydo bo‘lishidan tortib, rivojlanganligiga qadar bir qancha tarixiy davrlarni bosib o‘tganligi, O‘rta asrlarning fikriy va madaniy ta’sirlarining yo‘qolishi bilan boshlanadigan holatlar ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifatparvarlik, sxolastika, renessans, gumanizm, ma’rifatchilik, g‘oya, optimizm, axloqiylik, taraqqiyot, tamoyil, prinsip.*

Холова Умида (научный сотрудник Бухарского государственного университета; УДК:0009-0003-3624-3477)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИДЕЙ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс возникновения и развития просветительского движения в истории западной философии, охватывающий несколько исторических эпох, начиная с исчезновения интеллектуальных и культурных влияний Средневековья, что является основой для дальнейшего научного анализа.*

Ключевые слова: *просветительство, схоластика, ренессанс, гуманизм, моральность, просвещённость, идея, оптимизм, анализ.*

Xolova Umida (Researcher of Bukhara State University; ORCID:0009-0003-3624-3477)

THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENLIGHTENMENT IDEAS IN WESTERN PHILOSOPHY

Annotation. *This article analyzes the process of the emergence and development of the Enlightenment movement in the history of Western philosophy, covering several historical periods, starting with the disappearance of the intellectual and cultural influences of the Middle Ages, which serves as the basis for further scientific analysis.*

Keywords: *Enlightenment, scholasticism, Renaissance, humanism, Hegel, I.Kant, enlightenment thought, idea, optimism, analysis.*

Kirish. G‘arb ma’rifatparvarlarining aql va ilmga tayanishga da’vatlari ularning inson aqlini asosiy kuch deb bilishlari muhim ahmaiyatga ega bo‘lgan. Inson huquqlari vijdon erkinligi, shxsiy erkinliklar ma’rifatparvarlar faoliyatining markazi bo‘lgan. Bilim tarqatish tarbiya orqali jamiyatda adoalt, taraqqiyot va tinchlikka erishish mumkinligini asoslashga harakat qilganlar. G‘arbiy Yevropada ma’rifatchilik g‘oyaviy oqim sifatida madaniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi bo‘lgan ma’rifat davri bilan bir xil vaqt oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Gumanizm Frensis Bekon, Nikolay Kopernik va Galileyning amaliy fanlarning asoslarini va Rene Dekart, Gotfrid, Vilgelm, Leybnits va Isaak Nyuton esa matematik tadqiqotlarni yaratdi. Uyg‘onish davri klassik madaniyatning ko‘p qismini qayta kashf etdi va insoniyatning ijodiy va ilohiy mavjudot haqidagi tushunchasini o‘zgartirdi. Martin Lyuter uchun Bekon yoki Dekart kabi, haqiqatga yo‘l inson aql-idrokidan foydalanishi natijasida angalanadi, degan g‘oya mavjud edi. Ma’rifatchilikning xronologik doiralariga kelsak, bu yerda ham yakdil fikr yo‘q. Bunda V.F.Pustarnakov, G.V.Plexanov va boshqalar insoniyat tarixida bunday ma’rifatparvarlik davrlari ko‘p bo‘lganligini uqdiradi. R.T.Eymontova, A.G. Kuzmin bu tushunchalarni nafaqat semantik, balki geografik jihatdan ham farqlaydi. Ma’rifatchilik davrida jamiyat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini insonlarning moddiy turmush sharoitlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilindi. Ma’rifatparvarlar axloqiy, ijtimoiy g‘oyaga intilar edilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Russo “Ijtimoiy shrtnoma” asari xalq suverentetini adolatli jamiyat barpo etishni ijtimoiy shrtnoma asosida qilish kerakligini ilgari suradi. Wolterning “falsafiy lig‘at”, Monteskining “Qonunlarning ruhi to‘g‘risida”gi asarlari ham o‘z davrining eng muhim manbalaridan biridir. Mening yoqlayotgan optimizmim nazariyasi shundan iboratki, barcha muvaffaqiyatsizliklar, barcha yomonliklar – yetarli bilimning yo‘qligidan kelib chiqadi. Muammolar doimiy bo‘ladi, chunki bizning bilimimiz hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Ba’zi muammolar murakkab, lekin murakkab muammolarni hal qilinishi dargumon bo‘lgan muammolar bilan aralashtirib yuborish xato bo‘ladi. Muammolar yechimlidir va har bir konkret yomonlik hal qilinadigan muammoga aylanadi. Undan tashqari, ma’rifat o‘z mohiyatiga ko‘ra bir qarshilik harakatidir. Bu jarayonda din, an’anaviy tabiiy qarashlar, jamiyat va davlat tuzumi tanqid qilinadi. Har bir narsa o‘z mavjudligini aqlning hakam kursisida isbotlashi yoki aqlning rad etishiga rozi bo‘lishi kerak edi [1;21-b.]. I.Kant (1724–1804) ma’rifatni insonning voyaga yetmaganlik holatidan chiqishi deb ta’riflagan [2;29-b.]. Gegel ma’rifatchilikni XVIII asrdagi madaniy va ma’naviy hayot sohasidagi ratsionalistik harakat mavjud bo‘lgan boshqaruv usulini, davlat tuzumini, siyosiy mafkurani, huquqni va sud ishlarini yuritishni, dinni, san’at, axloq tizimlarini takomillashtirish deb ta’riflagan [3;34-b.]. Ma’rifat davri falsafasining asosiy g‘oyalarini belgilab berdi, keyinchalik, demokratik jamiyat, ilmiy taraqqiyot va huquqiy davlat tamoyillarining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ma’rifat davrining keng ko‘lamli ta’sirini va insoniyat rivojidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, xoroijiy tildagid adabiyotlarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Foma Akvinskiy ijodi sxolastika deb nomlanuvchi tafakkur tizimini insoniyatning aqlini idrokini olamni anglash vositasi sifatida qayta tiriltirdi. Xristianlik dinidagi vahiylar oliy haqiqatni o‘z ichiga olganligi sababli, Foma Akvinskiy insoniyatning aql salohiyatini ilohiy qonunga unga zid bo‘lmagan holda bo‘ysundirishga urindi. Ma’rifatning kelib chiqishi Renessans davrida amalga oshirilgan katta sayohatlar va bu sayohatlar natijasida amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar, yozilgan sayohatnomalar va yuzaga kelgan ilmiy rivojlanishlar “cherkov”ning haqiqatlariga qarshi ishonchsizlikni boshlagan edi [4;307-b.].

Garchi bu asr yorqin kashfiyotlarga, prinsipial novatorlik g‘oyalariga boy bo‘lmagan degan fikr mavjud bo‘lsa-da, “aql asri” falsafasining o‘ziga xos jihatlari va bir qancha yutuqlari ham bor edi. Ma’rifatparvarlik antifeodal sifatida o‘z mohiyati bilan burjuaziya mafkurasi feodal tuzumning yemirilish sharoitlarida paydo bo‘lgan edi. Biroq ma’rifatparvarlik harakati nafaqat ijtimoiy iqtisodiy shart sharoitlarni, balki millatlarning shakllanish jarayoniga hammuayyan darajada ta’sir ko‘rsatdi. I.Kant, quyidagi taklifni ilgari surdi.

Ma’rifat nima degan savolga javob? nomli maqolasida ma’rifatni insoniyat taraqqiyotining zarur tarixiy davri bo‘lib, uning mohiyati inson aql-idrokidan ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirish degan fikrni ilgari surgan. Ma’rifatning shiori, I.Kant ta’kidlaganidek: “Tushunishga jur’at et!” bo‘lib, uning asosiy talabi erkin fikrlash va erkin so‘zlash huquqidir. Xuddi shu g‘oyaning XXI asrda bildirilgan bir ifodasi fizik Devid Dyoychning ma’rifatni himoya qilgan “The Beginning of Infinity” (“Cheksizlikning boshlanishi”) asarida topilishi mumkin. Dyoych, agar tushunishga jur’at qilsak, ilmiy, siyosiy va axloqiy sohalarda taraqqiyot qilish mumkin, deb ta’kidlaydi:

I.Kantning fikricha, ma’rifat uchun faqat erkinlik va har qanday holatda ham o‘z aql-idrokidan ommaviy foydalanish mumkin bo‘lgan erkinlik talab qilinadi. Shuningdek, I Kant ommaning o‘zi ana shunday erkinlik bilan o‘zini-o‘zi ma’rifatli qilishi mumkin, deb hisoblaydi. Chunki olomonning tepasida turgan vasiylar orasida ham mustaqil fikrlaydigan odamlar topiladi, ular o‘zlaridan balog‘atga yetmaganlik yukini olib tashlab, atrofga o‘z qadr-qimmatini oqilona baholash ruhini va har bir kishini mustaqil fikrlashga undashni targ‘ib qiladilar [5;29-b.]. Demak, yetuk bo‘lmaslikning sababi aqlda emas, balki o‘z aqlini ishlatishga jur’at eta olmaslikda, ishlatish qarorini qabul qila olmaslikda, ya’ni insondadir [6;25-b.]. I.Kantning ma’rifat to‘g‘risidagi qarashlarining tub mohiyatida erkinlik masalasi, shu bilan birga, insonning aql-idrokidan mustaqil ravishda foydalana olish xususiyatlari yaqqol seziladi. Binonbarin, ma’rifat davrining mutafakkirlari insoniyat holatini yangicha tushunishga intildilar. Bu davrda ko‘plab g‘oyalar tug‘ildi, ba’zilari bir-biriga zid bo‘lsa-da, ularni to‘rt asosiy mavzu bog‘lab turdi: aql, ilm-fan, gumanizm va taraqqiyot [7;8-b.].

XVIII asrdan boshlab keng tarqalgan va keyingi asrda esa ta’sirlari sekin-sekin ko‘zga tashlana boshlagan. Ma’rifatparvarlik harakati Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g‘oyalarning amalda qo‘llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir [8;8-b.].

I.Kant singari Gegel ham ma’rifatchilikning eng xarakterli xususiyati inson qadrini qaror toptirish ekanligini e’tirof etgan [9;440-b.]. Darhaqiqat, ma’rifat davri mutafakkirlari insonni borliqda markaziy o‘ringa qo‘yib, uning ongli qarorlar qabul qilish va o‘z hayotini yaxshilashdagi rolini ta’kidlaydilar. Shunday qilib, ma’rifat falsafasi inson erkinligi, aql-idrokni rivojlantirish va jamiyatdagi har bir shaxsning qadrini e’tirof etish g‘oyalariga asoslanadi.

G‘arbiy Yevropada ma’rifatchilik g‘oyaviy oqim sifatida madaniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi bo‘lgan ma’rifat davri bilan bir xil vaqt oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Bu yangi hayot tarzining va madaniyatning umumiy xususiyatlari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. Din asosli tushuntirish tizimi o‘rnini aqlga asoslangan tushuntirishlar va asoslantirishlarga bo‘shatib berdi. Aqlning oldingi o‘ringa chiqishi bilan tanqidiy yondashuv rivojlangan, an’anaviy qadriyatlar va institutlar savolga tutilgan. Hammaning o‘lchovi bo‘lgan Xudo yoki cherkov inkor qilingan va inson aqli markaziy o‘ringa keltirilgan. Insonning o‘lchov sifatida qabul qilinishi nisbiy yondashuvlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi.
2. Inson va madaniyat masalalari asosiy mavzuga aylangan.
3. Metafizik fikrlar ishlab chiqarish o‘rniga, sezgi va tajribaga asoslangan fikrlar hukmron bo‘la boshlagan.
4. Davlat, din va jamiyat kabi ijtimoiy hayotni belgilovchi tushunchalar aql tomonidan qayta talqin qilingan.

5. Ma’lum bir qatlam va cherkovning hukmronligidan ozod etilgan bilim va ishlab chiqarilgan nazariy bahslar jamiyatning keng qatlami tomonidan kuzatila boshlagan va bunga bog‘liq holda ijtimoiy ong o‘sgan [10;22-b.].

Yevropada boshlangan va har jihati bilan “yangilikni o‘z ichiga olgan bu madaniy, diniy, ilmiy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy harakat va o‘zgarishning asosida dunyoviy (sekular) bir qarash hukmron bo‘lgan. Ma’rifatning ham ushbu “sekularlik”ni o‘ziga nafaqat uslub, balki maqsad sifatida ko‘rganini va bu “sekularlik”ni qabul qildirish maqsadida harakatda bo‘lganini aytish kerak. Amaliyotda o‘zini namoyon qilmagan ma’rifat, haqiqiy ma’rifat bo‘lolmaydi. Harakat zarurati tufayli ham ma’rifat bir turmush tutumidir: insonning o‘ziga ishonib, o‘zini ro‘yobga chiqarishi, mavjud bo‘lganidan ko‘ra oldinga va mukammalroq bo‘lgan narsaga erishishi, hayotini rivojlanayotgan bir jarayon holatiga keltirish yo‘lida harakat qilishi hisoblanadi. Ma’rifatning mohiyatidagi va uslubidagi “sekularlik” har jihati bilan harakatchan bir uslubda mavjud bo‘lgan. Ma’rifatparvar mutafakkirlarni birlashtirgan asosiy narsa, bu dunyoni tushunishda aql me’yorini faol qo‘llashga bo‘lgan ishonch edi va ular o‘z tasavvurlarini xurofot keltiruvchi omillarga, masalan, e’tiqod, dogma, vahiy, hokimiyat, karizma, mistika, folbinlik, tush ko‘rish, ichki his-tuyg‘u yoki muqaddas matnlarni nozik tahlil qilishga asoslanmaslik talab qilindi [11;8-b.].

Gegelning ma’rifatparvarlik haqidagi mashhur ma’ruzalarida “Ma’rifat odam sog‘lom aqlining aniq, ishonarli haqiqatlari” faylasuflar haqida esa “buyuk daho, hissiyotning issiqligi, aqlning otashinligi va mardlik”ning namoyon bo‘lgan kishilar haqida so‘z boradi [12;441-b.].

G‘arb falsafasining asosiy jihatlaridan biri aql ko‘pchilik ma’rifat davri mutafakkirlarini insoniy xususiyatlarga ega va insoniy ishlar bilan qiziqadigan Xudoga bo‘lgan e’tiqoddan voz kechishga olib keldi.

Monteskiy fikriga ko‘ra, “Agar uchburchaklarning Xudosi bo‘lsa, ular unga uch tomoni bor shakl berishar edi. Shunga qaramay, barcha ma’rifat mutafakkirlari ateist emas edi. Ba’zilari deistlar edi (teistlardan farqli ravishda). Ular Xudo koinotni harakatga keltirib, keyin tabiat qonunlariga muvofiq rivojlanishiga imkon berib, chetda turgan deb hisoblashgan. Boshqalari esa panteistlar edi va Xudo atamasini tabiat qonunlariga sinonim sifatida ishlatishgan [13;8-b.]. G‘arb falsafasining o‘ziga xos jihatlaridan biri, ilm-fan rivojlanishi bilan, Xudo tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan inkor etiladi yoki yangi ilmiy qarashlar bilan izohlanadi. Yangi ilmiy nazariyalar, masalan, evolutsiya nazariyasi, Xudo mavjudligi masalalariga yangi jihatdan yondashishga olib keladi. Ma’rifat falsafasida Xudo tushunchasi har doim muhim mavzu bo‘lib qolgan va u ko‘plab fikr va talqinlar orqali rivojlanishda davom etmoqda. Bu davrda Xudo masalasi nafaqat diniy, balki falsafiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, insoniyat hayoti va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda keng muhokama qilinadi.

I.Kant tomonidan qo‘yilgan masala “ma’rifat” va “ma’rifatparvarlik” tushunchalarining o‘zaro munosabati hozirgacha bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ma’rifatparvarlik harakati uzoq vaqt davom etgan va o‘z ichida chuqur muammolarni boshdan kechirgan Yevropa jamiyatining erishgan bir davrini tasvirlaydi. Ijtimoiy hayot va savdo hayotidagi muhim o‘zgarishlar natijasida fan va falsafa sohasida bilim ishlab chiqarish va usuli sezilarli darajada o‘zgargan. Natijada “ratsional” fikrlash an’anasi Yevropada har bir sohada o‘zini ko‘rsatgan. Bu yerda “ratsional” fikrlashning asosini insonning o‘zini rivojlanishdan to‘xtatadigan har qanday holatdan qutulishi va hayotini aql nurida qurishi sifatida tushunish mumkin.

Bir qator ishlarda ushbu tushunchalar sinonimmi yoki yo‘qmi degan muammo muhokama qilinadi. Ammo ko‘plab mualliflar ma’lumotlarni chegaralaydilar, tushunchalarni va ularning nuqtayi nazarini shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruh ko‘rib chiqilganlarning ko‘pchiligini tashkil qiladi I.I.Leshilovskaya, A.P.Valitskaya, N.P.Berkov va boshqa tadqiqotchilar fikricha, ma’rifat yangi madaniyatni shakllantirish jarayonidagi muayyan tarixiy tipdagi bosqichdir. Boshqa bir guruh olimlar esa ma’rifatparvarlik obyektiv-burjua mafkurasi ekanligiga ishonadilar. Ma’rifatchilik ijtimoiy ongning bir turi degan fikrlar ham mavjud.

Xullas, ma’rifatparvarlik bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo‘nalganligi, intilishi bilan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo‘q qilish tarafdorlari bo‘lgan. Ma’rifatchilik kengroq tushuncha bo‘lib, u, o‘z navbatida, uning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’rifatning o‘zini ham o‘z ichiga oladi [14;35-b.].

Ma’rifatchilikning xronologik doiralariga kelsak, bu yerda ham yakdil fikr yo‘q. Bunda V.F.Pustarnakov, G.V.Plexanov va boshqalar insoniyat tarixida bunday ma’rifatparvarlik davrlari ko‘p bo‘lganligini uqtiradi. R.T.Eymontova, A.G.Kuzmin bu tushunchalarni nafaqat semantik, balki geografik jihatdan ham farqlaydi. Ma’rifatchilik davrida jamiyat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini insonlarning moddiy turmush sharoitlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilindi. Ma’rifatparvarlar axloqiy, ijtimoiy g‘oyaga intilar edilar.

Chunonchi, jamiyatda shaxs va jamiyatning o‘z manfaatlari uyg‘unlashgan, butun jamiyat adolatli bo‘lgan bo‘lar edi. Ma’rifatparvarlar bunday g‘oyaga xalq ommasini o‘qitish, tarbiyalash, ma’rifatli qilish orqali erishish mumkin deb hisoblaganlar. Ularda shunday ideal jamiyat qurish mumkinligiga qat’iy ishonch mavjud edi. Ammo buning uchun siyosiy va ijtimoiy tuzumni o‘zgartirish talab qilinardi. Ana shu sabablarga ko‘ra, ma’rifat davri utopiyaning oltin asri nomini oldi. Aynan shu davrda ideal jamiyat haqida hikoya qiluvchi ko‘plab adabiy, publitsistik asarlar yaratildi. Ma’rifatparvarlar inson tabiatining barcha xususiyatlari uning yashash muhiti, shuningdek, uni o‘rab turgan sharoitlar bilan tushuntirilishi muhim ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar etarlcha hukm surgan. Shuning uchun ma’rifatparvarlar yetuk inson uchun sharoit yaratish ustida bosh qotirganlar. Ularning ideali uyg‘un inson edi. Erkinlik, birodarlik, tenglik, baxt-saodat, odamlarning farovonligi, jahonda zo‘ravonlik qilmaslik bu davrning oliy maqsadi bo‘lib qolgan edi.

Demak, Xulosa qilish mumkinki, ma’rifat tushunchasining ildizlari turli sarchashmalardan bahramand bo‘lgan:

1. Diniy ildizlar “ma’rifat” tushunchasi, asosan, diniy ma’noda ishlatilib, ilohiy haqiqatni anglash, Allohni tanish va unga yaqinlashishni ifodalagan. Islom madaniyatida ma’rifat Allohning ilmiga intilish, ilohiy haqiqatlarni bilish orqali ruhiy poklanishga erishishni maqsad qilgan. Bu tushuncha tasavvufda “ma’rifat” sifatida ifodalanib, Allohni qalb bilan idrok qilish g‘oyasini o‘z ichiga olgan.

2. Ilmiy-falsafiy rivojlanish. Islom madaniyati rivojlanishi jarayonida “ma’rifat”ilm-fan va aqlni rivojlantirish bilan bog‘langan tushunchaga aylangan. U ilm olish va haqiqatni izlash orqali aqlning kuchini namoyon etish sifatida tushunila boshlandi. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda Beruniy, Forobiy, Ibn Sino kabi olimlar ma’rifatni ilmiy izlanishlar orqali haqiqatga yaqinlashish yo‘li deb bilganlar.

3. Yevropada ma’rifatparvarlik davri. XVIII asrda Yevropada ma’rifatparvarlik davri boshlandi va bu tushuncha keng ma’noda shakllana boshladi. Bu davrda “ma’rifat” inson aqlini rivojlantirish, fan va texnikani taraqqiy ettirish orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyasi bilan uyg‘unlashdi. Bu yangi qarashlar nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng tarqaldi va ta’sir qildi.

4. Zamonaviy ma’rifat tushunchasi. Bugungi kunda “ma’rifat” tushunchasi ilm olish, dunyoqarashni kengaytirish, ma’naviy rivojlanish, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish kabi keng qamrovli ma’nolarga ega. Ma’rifat nafaqat diniy yoki milliy boylik, balki global ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosi sifatida qadrlanadi. Umuman olganda, ma’rifat tushunchasi insoniyatning bilishga, rivojlanishga va komillikka intilishi natijasida shakllangan va turli davrlar hamda madaniyatlarda yangicha ma’nolar bilan boyib kelgan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va ma’rifat juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma’rifat zamonaviy Yangi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda va bilimli hamda yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz” [15]. Darhaqiqat, O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va ta’lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ma’rifatning muhimligini yana bir bor namoyon etadi. Ma’rifatdan uzoqlashgan jamiyatning halokati muqarrar. Bugun o‘zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab, jahon hamjamiyatiga o‘zining boy tarixi, ma’naviy xazinasi bilan qo‘shilayotgan ekan, bu yo‘nalishda ma’rifatning salmog‘i beqiyos. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish orqali o‘zlikni anglash va rivojlanishning o‘ziga xos yo‘li shakllanmoqda. Ma’rifat tushunchasi insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuch hiso-lanadi. O‘zlikni anglashning eng yaqin va to‘g‘ri yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri diyarbakir. 2006, s. 21.

(2). И.Кант. Ответ на вопрос. Что такое просвещение? 1784. Кант, Иммануил. Собр.соч. в 8 тт, М., Чоро, 1994, Т. 8, с. 29.

(3). Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013, с. 34.

(4). Baykan E.Dine eleştirel yaklaşilmlar: aydInlanma ve din. Yüzüncü yil üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü dergisi. 2001, s. 307.

(5). Кант.И. Ответ на вопрос. Что такое просвещение? 1784. Кант, Иммануил. Собр.соч. в 8 тт. М., Чоро, 1994, т. 8, с. 29.

(6). G.Macit.Aydinlanma Felsefesi, devrimler ve Atatürk. Cumhuriyet, 1997, s. 25.

(7). P.Steven. Enlightenment now the case for reason, science, humanism, and progress. New York, 2018, p.8.

(8). Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 8.

(9). Г.В.Ф.Гегель. Лекции по истории философии. Санкт-Петербург, “Наука”, 2000, с. 440.
(10). Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 22.
(11). P.Steven. Enlightenment now the case for reason, science, humanism, and progress. New York, 2018, p. 8.
(12). Г.В.Ф.Гегель. Лекции по истории философии. Санкт-Петербург, “Наука”, 2000, с. 441 (13), P. Steven. Enlightenment now the case for reason, science, humanism, and progress. New York, 2018, p. 8.
(13). Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты, “Вестник бурятского государственного университета”. 14/2013, с. 35.
(14).https://m.kun.uz/news/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonni-jadal-islohotlar-ilm-marifat-va-innovatsiya-bilan-rivojlangan-mamlakatga-aylantira-olamiz

Xudoyqulov Yo‘lchi Azamqulovich (O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi; E-mail: yulchi.hudoykulov@mail.ru)

HARBIY-NAZARIY BILIMINI YUKSALTIRISHDA KOGNITIV FANNING ILMIY-AMALIY TAJRIBALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harbiy-nazariy bilimni rivojlantirishda kognitiv fan, hususan, neyropsixologiya, kognitiv lingvistika, axborotni qayta ishlash nazariyalari va sun’iy intellekt kabilarning imkoniyatlaridan foydalanish tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy fan, harbiy bilim, kognitiv fan, kognitiv model epistemologiya, refleksiv, assotsiativ va intuitiv idrok modellar.*

Худойкулов Йулчи Азамкулович (доцент университета общественной безопасности Республики Узбекистан, кандидат философских наук, доцент; E-mail: yulchi.hudoykulov@mail.ru)

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ЭКСПЕРИМЕНТЫ КОГНИТИВНОЙ НАУКИ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ВОЕННО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Аннотация. *В статье анализируется применение когнитивных наук, в частности нейропсихологии, когнитивной лингвистики, теорий обработки информации и искусственного интеллекта, в развитии военно-теоретических знаний.*

Ключевые слова: *военная наука, военное знание, когнитивная наука, когнитивная модель, эпистемология, рефлексивные, ассоциативные и интуитивные модели восприятия*.

Khudoykulov Yulchi Azamkulovich (Associate Professor of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, PhD in Philosophy, Associate Professor; E-mail: yulchi.hudoykulov@mail.ru)

SCIENTIFIC AND PRACTICAL EXPERIMENTS OF COGNITIVE SCIENCE TO IMPROVE MILITARY-THEORETICAL KNOWLEDGE

Annotation. *The article analyzes the application of cognitive science, in particular neuropsychology, cognitive linguistics, information processing theories and artificial intelligence, in the development of military-theoretical knowledge.*

Keywords: *military science, military knowledge, cognitive science, cognitive model, epistemology, reflexive, associative and intuitive models of perception.*

Kirish. Harbiy-nazariy bilimini yuksaltirish masalasi kognitiv fan yutuqlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinar ekan, ushbu muammo nafaqat amaliy-uslubiy, balki chuqur falsafiy kontekstlarda, xususan, ontologik, gnoseologik va mantiqiy (logik) mezonlarda ham qaralishi zarur. Chunki harbiy nazariya, mohiyatan, reallikning o‘ziga xos qatlamiga oid bilimlar majmuasi bo‘lib, uni rivojlantirish jarayonida inson tafakkurining ongli konstruksiyasi, haqiqatga eltuvchi bilish jarayonlari va ularni asoslaydigan formal tuzilmalar (mantiqiy apparat) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur tahlil aynan shu falsafiy platformada olib boriladi. Avvalo, ontologik nuqtayi nazardan, harbiy-nazariy bilim voqelikning maxsus sohasini urush holati, harbiy harakatlar, xavfsizlik dinamikasi va kuch ishlatar tizimlarining mavjudlik usullarini qamrab oladi. Harbiy reallik determinatsiyalangan va iyerarxik tizimga ega bo‘lib, u tabiat qonunlari, inson psixofiziologiyasi, texnologik vositalar va siyosiy strategiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Kognitiv fan bu reallikni modellashtirishda zamonaviy neyrobiologik bilimlar, algoritmik fikrlash shakllari va sun’iy intellekt vositalarini jalb etadi. Bu esa harbiy mavjudlikni avvalgi abstrakt-modelsimon yondashuvlardan ajratib, tajriba va tahlilga asoslangan empirik-matematik sistemaga aylantiradi. Harbiy haqiqat – bu oddiy jismoniy yoki ijtimoiy haqiqat emas, balki o‘zida ham texnologik, ham ideologik, ham simulativ omillarni mujassamlashtirgan murakkab konstrukt bo‘lib, uni idrok etish uchun ontologik asoslar qaytadan ko‘rib chiqilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqot mavzusi yuzasidan olimlarning ilmiy ishlari tahlil etilganda quyidagi yondashuvlarni tahlil qilish mumkin. Kognitiv yondashuvlar, ayniqsa, harbiy qaror

qabul qilish jarayonlarida inson idrokining chegaralari, informatsion ortiqcha yuklanish holatlari, stressga chidamlilik va metakognitiv refleksivlik kabi psixologik determinantlarni inobatga olgan holda harbiy bilim strukturasini tubdan qayta konseptualizatsiya qiladi [1;76-b.]. Aytish mumkinki, harbiy bilish faoliyati "faqat tashqi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish emas, balki har bir harakat orqasida turgan sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish, ya'ni semantik infratuzilmani o'zlashtirish orqali chuqurlashadi" [2;104–107-b.]. Harbiy psixologiyada bu jarayon "axborotni kontekstual asosda idrok qilish" [3;97-b.] tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, harbiy bilimni real sharoitda modellashtirib o'rganish, shaxsga informatsion qaror qabul qilishda moslashuvchanlik beradi. Bu yerda metakognitsiya, ya'ni, o'z bilish faoliyatini anglash, nazorat qilish va baholash, "fikrlashni anglash va boshqarish qobiliyati, bu qaror qabul qilishda aniqlik va strategik tafakkurni ta'minlaydigan asosiy vositadir" [4;113-b].

Shuningdek, harbiy bilimni tashkil etishda aqliy xaritalar, mental modellar va semantik tarmoqlar kabi idrok strukturalarining roli ortib bormoqda. Bu jarayon kognitiv fan doirasida "bilimni tashkiliy strukturalarda saqlash va uni tezkor ravishda qayta tiklash" yondashuvi orqali izohlanadi [5;113-b.].

Harbiy bilimga kognitiv yondashuv, bilimni nafaqat axboriy resurs, balki psixik faoliyat, ongiy struktura va axborotni qayta ishlash mexanizmi sifatida yondashadi. Kognitiv fan yutuqlari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tajribalar harbiy nazariy bilimni yuksaltirishda nafaqat samarali, balki zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa harbiy shaxsning intellektual salohiyatini, reflektiv tafakkurini, metakognitiv ongini va strategik idrokini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks yondashuvdir" [6;104–107-b.].

R.Samarov harbiy sohaga oid konseptual qarashlarni ilgari surar ekan, quyidagi xulosani bildiradi: "Har qanday davlatning barqarorligi va xavfsizligi uning harbiy salohiyati, milliy armiyasi va bu armiyaga tayangan mustaqil qarorlari bilan belgilanadi" [7;226–229-b.]. Ushbu fikrda harbiy bilimlarning ontologik asoslari, ya'ni, ular davlat mavjudligining ontik negizi sifatida shakllanishi ochib beriladi. Bunday yondashuvda bilimlar real voqelikda mavjud bo'lib, ular kuch va suverenlikni ifodalovchi asosiy epistema sifatida namoyon bo'ladi.

J.Ramatov harbiy strukturalarning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri haqida fikr yuritar ekan, ta'kidlaydi: "Qurolli Kuchlar mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi kuch sifatida shakllangan" [8;17–20-b.]. Bu fikr, o'z navbatida, harbiy bilimlarning faqat jangovar texnika emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy ong va tartibning qayta ishlab chiqaruvchi modeli sifatida qaralishini anglatadi.

Bilish nazariyasi (gnoseologiya) nuqtayi nazaridan harbiy bilimlar inson subyektining idrok, analiz, sintetik fikrlash va mental modellashtirish qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq. A.A.Abdurasulov harbiy-patriotik tarbiyaning nazariy asoslarini tahlil qilar ekan, ta'kidlaydi: "Yosh harbiylar ongida vatan g'oyasi faqat tushuncha emas, balki ichki ehtiyoj, psixologik tayyorlik va shaxsiy mas'uliyat tuyg'usi sifatida jamlanishi lozim" [9;96-b.]. Bu yondashuvda harbiy bilimlar gnoseologik jihatdan passiv o'zlashtirish emas, balki faol, reflektiv va ongli tajriba natijasi sifatida qaraladi.

Ayniqsa, Z.Sh.Alimardonov harbiy ta'lim tizimi bo'yicha olib borgan izlanishlarida harbiy bilimlar shakllanishi va ularni kompetensiya sifatida amaliyotga tatbiq etish mexanizmini kognitiv nazariyalar bilan bog'laydi: "Harbiy ta'limda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda kognitiv strukturalar asosida mukammallashtirilishi lozim" [10;64-b.]. Bu fikr kognitiv fan yondashuvlari orqali bilimlarni shunchaki eslab qolish emas, balki ularni transformatsiyalash va situativ xulq modellarida qo'llashni nazarda tutadi.

K.A.Xaydarov axborot xavfsizligi va uning psixologik tahdidlarini tahlil qilarkan, shunday deydi: "Axborot oqimi orqali amalga oshiriladigan psixologik ta'sirlar, ko'pincha, tizimli bo'lib, ularga qarshi samarali mudofaa mexanizmlari kognitiv-mantqiy modellar orqali ishlab chiqilishi lozim" [11;46-b.]. Bu yerda harbiy fikrlash tizimlarining mantiqiy asoslangan va prognozlash imkoniga ega bo'lgan strukturaviy tuzilmalarga tayangan holda rivojlanishi nazarda tutilmoqda.

K.Usmonov harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy mezonlar bilan bilimlar mantiqiylik darajasining uyg'unligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: "Harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirishda mantiqiy bilimlar bilan axloqiy qadriyatlar orasidagi mutanosiblik muhim o'rin tutadi" [12;114–117-b.]. Bu qarash harbiy bilimlar faqat empirik dalillarga emas, balki mantiqan asoslangan, konseptual asosli intellektual tizim sifatida shakllanishi zarurligini ko'rsatadi.

E.Tursunov kognitiv neyrobiologik tadqiqotlarga tayangan holda ta'kidlaydi: "Harbiy bilimni shakllantirishda kognitiv fanlar axborot yuklamasini boshqarish, qaror qabul qilishning vizual-model asoslarini o'rgatish va situatsion sezgirlikni oshirish kabi yo'nalishlarda beqiyos ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega" [13; 67-b.]. Biroq tanqidiy nuqtayi nazardan bu fikrda "axborot yuklamasi' tushunchasining metodologik asoslari yetarlicha aniqlashtirilmagan, ayniqsa, yuklama chegarasi, ongiy kuchlanish va qaror samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik eksperimental tarzda asoslanmagan.

Shuningdek, L.Sharipovaning fikricha: “Kognitiv fanlar orqali harbiy bilimlar strategik idrokni shakllantirish bilan birga, harbiy ongda tashqi stimul va ichki motivatsiyalarni sintezlovchi refleksiv qaror modellarini vujudga keltiradi. Bu esa axborot tanlovida sezuvchanlik darajasini oshiradi” [14;144-b.]. Ushbu yondashuv, o‘z mohiyatida, reflektiv bilishning axborot muhitidagi psixosemantik jihatlarini ilgari suradi. Biroq tanqidiy qaraganda, “motivatsion sintez” atamasi aniq eksperimental indikatorlar bilan bog‘lanmagan.

Tahlil va natijalar. Natija va munozara qismida tadqiqotchi harbiy-nazariy bilimlarni shakllantirishda kognitiv fanning imkoniyatlari borasida bir qator olimlar bilan munozaraga kirishgan holda quyidagi natijaviy xarakterga ega bo‘lgan mulohazalarni keltirib o‘tadi:

1. Harbiy bilimlarni chuqurroq idrok etish, ularni faqat taktik va texnik ko‘nikmalar tizimi sifatida emas, balki jamiyatning madaniy-sivilizatsion himoya mexanizmi, ontologik barqarorlik garovi sifatida tahlil qilish ehtiyoji kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan, harbiy nazariy bilimni shakllantirish va rivojlantirishda kognitiv fanning ilmiy-amaliy tajribalari alohida o‘rin egallaydi. Kognitiv fan bu inson tafakkuri, idroki, xotirasi va qaror qabul qilish mexanizmlarini tizimli o‘rganuvchi ilmiy soha sifatida harbiy bilimlarni anglash va ularni uzviylashtirishda fundamental imkoniyatlar yaratadi.

2. Harbiy bilimlar faqat tashqi ijtimoiy-madaniy va siyosiy shart-sharoitlarga emas, balki individual ongi, subyektiv idrok va psixologik qurilmalarga tayangan holda shakllanadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bilimlarining mavjudlik mohiyatini (ontologiya), paydo bo‘lish asoslarini (gnoseologiya) va nazariy tizimlilik darajasini (mantiqiy asos) bir butun falsafiy mezonlar orqali o‘rganishni talab etadi.

3. Harbiy-nazariy bilimni yuksaltirishda kognitiv fan yutuqlari zamonaviy harbiy tafakkurning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy qarorlar qabul qilish, vaziyatni model asosida tahlil qilish, xatarlarni oldindan his qilish, insonning emotsional-hissiy holatini baholash kabilar barchasi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Harbiy bilimni shunchaki ratsional tahlil mahsuli deb emas, balki kognitiv sathdagi integratsiyalashgan aqliy faoliyat natijasi sifatida tahlil etish, harbiy epistemologiyaning yangi bosqichini belgilab beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy harbiy ta’lim tizimining epistemologik va gnoseologik asoslarini shakllantirishda kognitiv faning ilmiy-amaliy yondashuvlari o‘ziga xos konseptual paradigma taklif etadi. Harbiy nazariy bilimni faqat tashqi fenomenlar majmui sifatida emas, balki idrokiy mexanizmlar, reflektiv ong va axborotga asoslangan ongiy faoliyat tizimi sifatida talqin etish g‘oyasi, ayniqsa XXI asr axborot-kommunikatsiya tizimi murakkabligi sharoitida harbiy subyektni strategik tafakkur egasi sifatida shakllantirish zaruratidan kelib chiqadi. Kognitiv model konsepsiyalariga ko‘ra, bilimlar tizimi, ularni idrok qilish va ongda tuzilmaviy tarzda joylashtirish, subyektiv-konstruktiv yondashuvga asoslanadi. Bu nuqtayi nazardan qaralganda, harbiy nazariy bilim individual tafakkurning faol-konstruktiv jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy-nazariy bilimlarni yuksaltirishda kognitiv fan yondashuvlarining qo‘llanilishi falsafa kontekstida chuqur asoslangan nazariy-gnoseologik va aksiologik tafakkurni talab qiladi. Avvalo, harbiy bilimning o‘zi bilish jarayonining maqsadli, axborotga asoslangan va ongli faoliyati sifatida namoyon bo‘lib, bu faoliyatda inson tafakkuri va idrokining imkoniyatlarini maksimal darajada safarbar etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, kognitiv fan harbiy bilimni shakllantirishda abstrakt-mantiqiy tahlilni, qaror qabul qilishdagi evristik modellashuvni va reflektiv tafakkurni metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Harbiy tafakkurdagi strategik ilg‘orlik, ehtimollarni baholash va situatsion fikrlash kabi komponentlar aynan kognitiv yondashuvlar orqali chuqurlashtiriladi. Falsafiy jihatdan, bu holat bilimning tabiatiga oid muhim savollarni o‘rtaga qo‘yadi: bilim qanday vujudga keladi? Harbiy bilimning ontologik asoslari nimada? Uning gnoseologik aniqligi qanday kafolatlanadi? Bu savollarga javoban, kognitiv fan tajribalari orqali aniqlangan natijalar, jumladan, e’tiborni boshqarish, operativ xotirani rivojlantirish, intuitiv qaror qabul qilish mexanizmlarining aniqlanishi, harbiy bilim subyektining o‘zligini ongli tarzda qayta qurishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Simon, H.A. (1985). The Sciences of the Artificial. MIT Press.

(2). Gardner, H. (2002). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.

(3). Выготцкий, Л.С. (1978). Мышление и речь. Москва: Педагогика.

(4). Spiro, R.J., Feltovich, P.J., Jacobson, M.J., & Coulson, R.L. (1991). Cognitive Flexibility, Constructivism, and Hypertext: Random Access Instruction for Advanced Knowledge Acquisition in Ill-Structured Domains. Educational Technology. 113-бет.

(5). Spiro, R.J., Feltovich, P.J., Jacobson, M.J., & Coulson, R.L. (1991). Cognitive Flexibility, Constructivism, and Hypertext: Random Access Instruction for Advanced Knowledge Acquisition in Ill-Structured Domains. Educational Technology.

(6). Gardner H. (2002). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York, Basic Books.

(7). Самаров Р. Вооруженные силы- гарант безопасности страны и стабильности в регионе. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги. Республика илмий-амалий анжуман материаллари, Тошкент, МВ, 2005.

(8). Раматов Ж. (ҳаммуаллифликда) Қуролли Кучлар барқарорликнинг кафолати /Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги. Республика илмий-амалий анжуман материаллари, Тошкент, МВ, 2005.

(9). Абдурасулов О.А. Ҳарбий хизматчилар ўртасида ватанпарварлик тарбиясини амалга ошириш йўллари ва унинг назарий асослари. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги. Республика илмий-амалий анжуман материаллари, Тошкент, ЎзРМВ, 2005.

(10). Алимардонов З.Ш. (2019). Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш. PhD диссертацияси, Тошкент.

(11). Хайдаров К.А. (2020). Мудофаа тизимида ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми. PhD дисс. автореф., Тошкент.

(12). Усмонов К. (2016). Ҳарбий ватанпарварликнинг ахлоқий мезонлари ва тарбиявий асослари. Ижтимоий фикр – инсон ҳуқуқлари, 4-сон.

(13). Tursunov E. Kognitiv neyrofiziologiya va harbiy strategiya asoslari. Toshkent, “Harbiy ilm”, 2021.

(14). Sharipova L. Kognitiv strategiyalar va harbiy intuitsiyaning shakllanishi. Samarqand, “Ilmiy fikr”, 2022.

Turdiyeva Iroda Maxmarajabovna (Toshkent davlat Transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi; E-mail: irodamaxmarajabovna@gmal)

JADIDLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDAGI AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidchilik harakati vakillarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Jumladan, ularning an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy islohotlar o‘rtasida muvozanatni saqlashga bo‘lgan intilishlari ko‘rib chiqiladi. Jadidlar islomiy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik, ilm-fan va ta’lim orqali jamiyatni modernizatsiya qilishga harakat qilganlar. Ushbu qarashlar o‘z davrining siyosiy, madaniy va ijtimoiy kontekstida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, an’anaviylik, zamonaviylik, ijtimoiy-falsafa, islohot, ma’rifatparvarlik, modernizatsiya.*

ТРАДИЦИОННОСТЬ И СОВРЕМЕННОСТЬ В СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДАХ ДЖАДИДОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются социально-философские взгляды представителей джадидизма. Особое внимание уделяется их стремлению сохранить баланс между традиционными ценностями и современными реформами. Джадиды стремились модернизировать общество через исламские ценности, просвещение, науку и образование. Анализ проводится в контексте политических, культурных и социальных реалий их времени.*

Ключевые слова: *джадидизм, традиционность, современность, социальная философия, реформы, просветительство, модернизация.*

TRADITIONALISM AND MODERNITY IN THE SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF THE JADIDS

Annotation. *This article explores the socio-philosophical views of the Jadid movement representatives. It particularly focuses on their efforts to balance traditional values with modern reforms. The Jadids aimed to modernize society through Islamic principles, enlightenment ideals, science, and education. Their perspectives are analyzed within the political, cultural, and social context of their era.*

Keywords*: Jadidism, traditionalism, modernity, social philosophy, reform, enlightenment, modernization.*

Kirish (Introduction). Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy tenglik va adolat g‘oyalari bugungi jamiyat uchun ham nihoyatda dolzarb. Ularning faoliyati shuni ko‘rsatadiki, tenglik bu insonni jamiyatda to‘laqonli, faol ishtirokchiga aylantiradigan asosiy mezon, adolat esa ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir. Ushbu qadriyatlarni chuqur o‘rganish va amaliy hayotga tatbiq etish orqali adil va barqaror jamiyat qurish yo‘lida mustahkam poydevor yaratiladi. Ilmga tayanish: Ular “Najot – ilmda” degan shiorni ilgari surib, fan, texnika va zamonaviy tafakkurni rivojlanishning kaliti sifatida ko‘rgan. Jadid ma’rifatparvarlari-

ning faoliyatida ilmga tayanish eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib, ularning barcha islohotparvarlik harakatlarining negizini tashkil qilgan. Ular fikricha, millatning uyg‘onishi, taraqqiyoti va ozodligi faqat ilm va ma’rifat orqali amalga oshadi. Bu g‘oya jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish shiori bilan birgalikda ilgari surilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jadidlar harakatiga oid xorijiy olimlardan yaponiyalik H.Komatsu, S.A.Zunkovskiy [1], E.Bekon (2), A.Bunniksun [3] kabi tarixchi, sharqshunos olimlarning jadidshunoslikka oid tadqiqot olib bordilar. Mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid M. Alimova [4], B.Qosimov [5], R.Tursunov [6], G.Ostonova [7]larning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma’naviy murosining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy qarashlari, ularning jadid ma’rifatparvarligidagi alohida o‘rni qisman o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada mantiqiylik, sinergetika, giroteza, dialektika, tarixiylik analogiya, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jadidlar faoliyatining asosida turgan “ilmga tayanish” g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ular ilmni nafaqat individual yutuq, balki jamiyatni o‘zgartiruvchi, xalqni uyg‘otuvchi, millatni rivojlantiruvchi kuch sifatida ko‘rgan. Shu bois bugungi O‘zbekiston sharoitida ularning ilmparvarlik g‘oyalarini chuqur o‘rganish va yosh avlodga yetkazish ma’naviy tiklanish va zamonaviy taraqqiyotning asosiy kafolatlaridan biridir.

G‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish. Globalizatsiya sharoitida jamiyatda ma’naviy bo‘shliq va qadriyatlar inqirozi kuzatilmoqda. Bu holat milliy tarixiy tajribani, xususan, jadidchilik g‘oyalarini chuqur anglash zaruratini yuzaga chiqaradi. Har bir jamiyat barqaror taraqqiyot sari intilar ekan, u nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy-ruhiy tayanchga ham muhtoj bo‘ladi. Agar bu tayanch bo‘lmasa yoki yetarlicha mustahkamlanmagan bo‘lsa, g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga keladi. Bu holat jamiyatda befarqlik, begonalashuv, iste’molchilik ongining kuchayishi, ekstremistik g‘oyalarga moyillik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish masalasi milliy xavfsizlik va ma’naviy yuksalishning kaliti hisoblanadi.

Jadidlar g‘oyalarining g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirishdagi roli. 1. Ma’naviy tiklanish manbayi. Jadidlar o‘z davrida xalq ongidagi jaholat, sustkashlik va ijtimoiy befarqlikka qarshi kurashgan. Ular ilgari surgan ma’rifat, adolat, taraqqiyot, vatanparvarlik kabi g‘oyalar jamiyatda ma’naviy uyg‘onishni boshlab bergan.

2. Erkin fikr va tafakkurga da’vat. Jadidlar xalqni mustaqil o‘ylashga, savol berishga, tafakkur qilishga undagan. Bu tanqidiy fikr va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishi uchun muhim asosdir. G‘oyaviy bo‘shliq faqat tashqi axborot bilan to‘ldirilmaydi; uni to‘ldirish uchun ichki intilish, o‘zlikni anglash zarur. Jadidlar buni o‘z asarlarida faol ilgari surgan.

3. Milliy g‘oya va o‘zlikni anglash. Jadidlar turkistonlik, o‘zbek, musulmon degan tushunchalarni modern milliy ong bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Bugun “Men kimman?”, “Qayerdanman?”, “Nima uchun yashayapman?” degan savollarga teran, milliy g‘oyaviy javoblar aynan jadidlar merosida mavjud.

Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida g‘oyaviy bo‘shliqning salbiy ko‘rinishlari. Yoshlar orasida maqsadsizlik, yengil-yelpi madaniyatga berilish, internetdagi zararli ta’sirlarga ochiqlik. Ba’zilar uchun yot g‘oyalar, diniy radikalizm yoki materialistik qadriyatlar jozibador ko‘rinadi. Bu holatda jamiyatga o‘z tarixidan, ma’naviy ildizlaridan ozuqa beruvchi g‘oyaviy asos zarur.

G‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish istiqbollari. Jadidchilikdan o‘rnak olish yo‘llari. 1. Tarixiy merosni ommalashtirish. Jadidlar hayoti, asarlari, g‘oyalari haqida film, teatr, darslik, internet loyihalari yaratish. Ularning shiorlarini zamonaviy tilda yosh avlodga yetkazish.

2. G‘oyaviy immunitetni mustahkamlash. Jadidlarning yuksak ma’naviy qadriyatlari orqali yoshlar ongida qarorli dunyoqarash va g‘oyaviy immunitetni shakllantirish. “Ilm, ma’rifat, vatan, adolat, halollik” – bu qadriyatlar asosida jamiyatda musbat ijtimoiy muhit vujudga keldi. Zamonaviy dunyoda axborot oqimining keskin kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar va global g‘oyaviy raqobat sharoitida inson, ayniqsa yosh avlod, turli qarama-qarshi fikrlar va mafkuralar ta’siriga duch kelmoqda. Shu sababli har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar ongida g‘oyaviy immunitet, ya’ni yot g‘oyalarga nisbatan mustahkam, izchil, tanqidiy qarashga ega bo‘lish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bu immunitet esa bo‘sh shiorlar bilan emas, balki mustahkam ma’naviy-ma’rifiy asoslar bilan shakllanadi. Aynan shu yerda jadidlar merosi o‘ta muhim manba sifatida qaraladi. G‘oyaviy immunitet – bu shaxsning yot mafkuralar, ekstremistik qarashlar, manipulyativ targ‘ibotlar va ruhiy tahdidlar qarshisida fikrda mustaqillikni saqlab qolish qobiliyati. U o‘zlikni anglash, tarixiy ong, tanqidiy tafakkur, axloqiy va fuqarolik mas’uliyati orqali shakllanadi.

Jadidlarning g‘oyaviy immunitetga oid yondashuvi. 1. Fikr erkinligi va tanqidiy tafakkur. Jadidlar insonni fikrlashga, izlanishga va savol berishga undagan. Ular “ko‘r-ko‘rona ergashish”ni rad etgan. Masalan, Abdurauf Fitratning asarlarida “ilmiy asosda fikr yuritish” tamoyili alohida o‘rin tutadi.

2. O‘zlikni anglash va milliy g‘urur. Ular xalqni o‘z tarixini bilishga, o‘z tili, dini, madaniyati bilan faxrlanishga chorlagan. Bu esa g‘oyaviy himoyaning asosiy poydevori – milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlagan.

3. Ma’rifat va tafakkurga asoslangan qarshilik. Jadidlar mustamlaka mafkurasi, eskilik va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan. Ular zo‘ravonlik emas, ilmdan kuch olishni taklif qilgan.

4. Yoshlarni tarbiyalashda g‘oyaviy mustahkamlik. Munavvarqori, Behbudiy, Avloniy kabi jadidlar yoshlar uchun g‘oyaviy barkamollikni shakllantiruvchi asarlar, maktablar, darsliklar yaratgan. Ular yosh avlodni “ertangi jamiyatning ongli egasi” sifatida tarbiyalagan.

Ijtimoiy tarmoqlarda radikal g‘oyalar, yolg‘on axborot, manipulativ ta’sirlar ko‘paygan. Ba’zi yoshlar “moda” bo‘lgan chet mafkuralar, iste’molchilik madaniyatiga mahliyo bo‘lmoqda. Bu holat o‘z milliy qadriyatlari, tarixi va g‘ururidan yiroqlashuvga olib kelishi mumkin. Ularning fikrlashga undovchi, vatanparvarlik, adolat, ma’rifat g‘oyalari orqali bugungi yosh ongida asosli qarashlar shakllantirish mumkin. Ular bergan bilim, ruh va qadriyat asosida mustahkam “ichki g‘oyaviy qalqon” barpo etiladi.

G‘oyaviy immunitetni mustahkamlash yo‘llari (jadidlar merosiga tayanib)

Yo‘nalish	Amalga oshirish shakli
Ta’lim tizimi orqali	Jadidlar g‘oyalarini maktab, litsey va oliy ta’lim darslariga singdirish
Axborot makonida	Jadidlar qarashlarini targ‘ib etuvchi videolar, infografikalar, maqolalar
Tarixiy ongni kuchaytirish	Jadidlar haqida hujjatli filmlar, teatr asarlari, ko‘rgazmalar
Yoshlar bilan ishlash	Kitobxonlik klublari, g‘oya asosidagi munozaralar, esse tanlovlari

Bugungi o‘zbek jamiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida g‘oyaviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash dolzarb va strategik masaladir. Jadid ma’rifatparvarlarining g‘oyaviy qarashlari esa bu borada bebaho manba hisoblanadi. Ular ilgari surgan fikrlash, o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va ilm g‘oyalari har bir fuqaroning g‘oyaviy immunitetini kuchaytiruvchi asosiy omillardir. Bu g‘oyalarni zamonaviy shakllarda yosh avlodga yetkazish mustahkam va g‘oyaviy sog‘lom jamiyat qurish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Ta’lim va tarbiya tizimida integratsiya. Jadidlar g‘oyalarini maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ma’naviyat va tarix fanlariga singdirish. Ularning faoliyatini faqat tarixiy fakt emas, hayotiy namuna sifatida ko‘rsatish. Bugungi O‘zbekiston jamiyatida mavjud bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish uchun eng tabiiy va hayotiy manba bu jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-falsafiy merosidir. Ular ilgari surgan g‘oyalar xalqni uyg‘otgan, ruhlantirgan, harakatga undagan va bugun ham o‘z quvvatini yo‘qotmagan. Agar biz bu g‘oyalarga qayta yuzlansak, zamonaviy taraqqiyotga milliy ma’naviyat asosida intilishimiz mumkin bo‘ladi.

Jadidlar ilgari surgan ta’lim islohoti bugungi zamonaviy maktablar, STEAM yo‘nalishlari, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish uslublarining asosida turgan prinsiplar bilan uyg‘unlashadi. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson kapitaliga, ya’ni ta’lim va tarbiyaga bog‘liq. Aynan shu yo‘nalishda tariximizdagi jadid ma’rifatparvarlari o‘z davrida tub islohotlarni boshlab bergan edi. Ularning ilg‘or qarashlari bugungi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Jadidlar uchun ta’lim shunchaki bilim berish emas, balki insonni ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy jihatdan kamol toptirish vositasi edi. Ular ta’lim orqali xalqni uyg‘otmoqchi, millat tafakkurini o‘zgartirmoqchi bo‘lgan. 1. Yangi usul maktablari (usuli jadid). Eski madrasalarning yodlashga asoslangan, hayotdan uzilgan metodlariga qarshi zamonaviy, amaliy bilimlar beradigan maktablarni joriy qilganlar. Matematika, geografiya, tarix, adabiyot, biologiya kabi fanlar dars dasturlariga kiritilgan.

Zamonaviy O‘zbekiston ta’lim va tarbiya tizimi. Jadidlar g‘oyalari asosida takomillashuv yo‘llari. 1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. 2. Tarbiya bilan ta’limning uyg‘unligi. 3. O‘qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish. 4. Texnologiyalar bilan uyg‘unlik. Raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, sun’iy intellekt texnologiyalari jadidlar orzu qilgan “ilmda erkinlik va tenglik” tamoyilini kengaytiradi. Har kim, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi – jadidchilik ruhiga to‘la mos keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi an’anaviylik va zamonaviylik – bu o‘zaro to‘qnashadigan emas, balki bir-birini to‘ldiradigan hodisalar sifatida qaralgan. Ularning yondashuvi orqali o‘z davrining inqirozli ijtimoiy muammolariga samarali yechim-

lar taklif qilingan. Jadidchilik harakati milliy o‘zlikni saqlagan holda, zamonaviy dunyo bilan hamqadam bo‘lish zaruratini ilgari surgan ijtimoiy-falsafiy oqimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Zenkovsky S.A. Pan-Turcizm and islam in Russia. Camvridge-Massachusetta: Harward University Press, 1960.

(2). Bacon E. Central Asia under Russian Rule: A Study in Cultural Chage. New York, 1966.

(3). Bennigsen A. Islam in the Soviet Union: the religios factor and the nationality problem. New York, 1967.

(4). Алимова М., Мухамеджанова Л. Бухорода жадидчилик ҳаракати тарихидан. Бухоро, “Дурдона”, 2019.

(5). Исмоилбек Гаспирали. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.

(6). Турсунов Р. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга миллий тараққий-парварларнинг қарашлари. Тарих фанлари номзоди диссертация автореферати, Тошкент, 2008.

(7). Остонова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920–1924 г. Автореферат дисс … канд. ист.наук, Тошкент, 2008.

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich (“Sanjarbek Matrasulovich” advokatlik byurosi rahbari)

INSON KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY-ME’YORIY MAZMUNI: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson kapitalining mazmun-mohiyati, uni rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda ushbu jarayonning dolzarbligi yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida inson kapitalini shakllantirish va himoya qilishga qaratilgan siyosat tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat, yoshlar siyosati kabi sohalar orqali inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, huquqiy asoslar, Konstitutsiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat huquqi, yoshlar siyosati.*

ПОНЯТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ЕГО ПРАВОВОЕ-НОРМАТИВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ: НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается сущность человеческого капитала, правовые основы его развития, а также актуальность данного направления в условиях национального прогресса. Особое внимание уделено анализу государственной политики Республики Узбекистан в сфере формирования и защиты человеческого капитала на основе Конституции и других нормативно-правовых актов. Изучаются такие направления, как образование, здравоохранение, трудовое право и молодежная политика.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, правовые основы, Конституция, образование, здравоохранение, трудовое право, молодежная политика.*

THE CONCEPT OF HUMAN CAPITAL AND ITS LEGAL AND REGULATORY CONTENT: NATIONAL AND INTERNATIONAL APPROACHES

Annotation. *This article explores the concept of human capital, the legal foundations for its development, and the relevance of this issue in the context of national growth. In particular, it analyzes the policies aimed at the formation and protection of human capital based on the Constitution and other legal documents of the Republic of Uzbekistan. Areas such as education, healthcare, labor, and youth policy are examined as key components in the development of human capital.*

Keywords: *human capital, legal framework, Constitution, education, healthcare, labor law, youth policy.*

Kirish. Jamiyatning barqaror taraqqiyoti, davlat boshqaruvining samaradorligi hamda iqtisodiy o‘sishning asosiy omili – bu, eng avvalo, inson kapitali bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi zamonaviy ilmiy yondashuvlar inson kapitalini faqat ishchi kuchi bilan emas, balki shaxsning bilim darajasi, malakasi, aql-zakovati, yangicha fikrlash qobiliyati hamda axloqiy va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida talqin qiladi. Shu sababli ham inson kapitali jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi va uning o‘rni tobora ortib bormoqda.

Global raqobat va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda inson kapitali har bir mamlakat uchun strategik boylik sifatida qaralmoqda. Uni shakllantirish, rivojlantirish hamda oqilona boshqarish nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan ham bog‘liq. Shu bois xalqaro tajribada inson kapitaliga oid siyosat ko‘plab davlatlarda taraqqiyot strategi-

yalarining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, bu borada huquqiy va me’yoriy bazani yaratish esa asosiy shartlardan biri deb tan olingan.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar, islohotlar mavjud bo‘lib, ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya hamda yoshlar siyosatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda inson shaxsining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi, salohiyatini yuzaga chiqarish hamda ijtimoiy faolligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi islohotlar bosqichidan o‘tayotgan davlatlarda inson kapitali ustuvor siyosiy yo‘nalish darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu borada qator huquqiy va institutisonal islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson kapitali tushunchasi zamonaviy ijtimoiy fanlar, xususan, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va huquq nazariyasidagi eng muhim tushunchalardan biriga aylangan. Uning nazariy asoslarini anglash faqat ma’naviy yoki ijtimoiy jarayonlarga emas, balki insonning ishlab chiqarish, mehnat munosabatlari va umumiy taraqqiyotdagi rolini qayta baholashga imkon yaratadi. Inson kapitali – bu insonning o‘ziga sarmoya sifatida qarash, uning bilimi, malakasi, salohiyati va sog‘ligini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida qabul qilish demakdir. Inson kapitali tushunchasi ilk bor Geri Bekker, Teodor Shults va Jeykob Mintser asarlarida atroflicha ishlab chiqilgan. Ular ta’lim, sog‘liq va malakaga yo‘naltirilgan sarmoyalar insonning mehnat bozoridagi samaradorligini oshiradi, degan nazariyani ilgari surdilar [1]. Chunonchi, “Inson kapitali – bu mehnat unumdorligini oshiradigan bilim va ko‘nikmalar majmuasidir, u ishlab chiqarish jarayonida mulk shaklida emas, balki shaxsning salohiyati sifatida ishtirok etadi”, deb yozadi T.Shults [2]. Jeykob Mintser (Jacob Mincer) esa individual darajadagi bilim va ish tajribasining mehnat bozorida qanday haq to‘lanishini tahlil qilgan. U inson kapitali nazari-yasini empirik tahlillar orqali boyitgan va “ta’lim daromadning oshishiga olib keladi” degan qarashni ishlab chiqqan. Inson kapitali tushunchasi muosir ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda insonning shaxsiy rivojlanishi va uning jamiyatdagi iqtisodiy samaradorligini baholashda markaziy kategoriya aylangan. Uning nazariy asoslari ta’lim, sog‘liq va malakaga yo‘naltirilgan sarmoyalarning ahamiyatini ochib beradi hamda insonni faqat ijtimoiy subyekt emas, balki taraqqiyotning faol harakatlantiruvchisi sifatida namoyon etadi. Ko‘rinib turganidek, Geri Bekker, Teodor Shults, Jeykob Mintser kabi olimlarning tadqiqotlari inson kapitali tushunchasini mustahkam ilmiy asoslarga ega qilgan bo‘lib, ularning ishlari orqali inson resurslariga kiritilgan sarmoyalar iqtisodiy o‘sish va mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Shu bois inson kapitali nafaqat iqtisodiyot va davlat boshqaruvi, balki huquqiy normalarda ham o‘z aksini topishi lozim bo‘lgan strategik ahamiyatga ega tushuncha hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson kapitali tushunchasi an’anaviy ravishda iqtisodiy nazariyada ishchi kuchining bilim, malaka, sog‘liq va qobiliyatlariga bog‘liq bo‘lgan qimmatli resurs sifatida qaraladi. Biroq bu tushuncha nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy asosga ham ega. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi inson huquqlari va davlatning huquqiy majburiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson kapitali, avvalo, insonning shaxsiy va ijtimoiy huquqlari ta’minlangan taqdirdagina, mukammal shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu huquqlar kafolatlangan. Jumladan, ta’lim olish huquqi (Konstitutsiyaning 41-moddasi): “Har kim malakali ta’lim olish huquqiga ega [6]. Bu norma nafaqat fuqarolarning ta’lim olish huquqini tan oladi, balki davlatning ushbu huquqni ro‘yobga chiqarishdagi majburiyatlarini ham belgilaydi. Konstitutsiyadagi ushbu kafolat inson kapitalini rivojlantirishda davlat siyosatining huquqiy asosini tashkil qiladi. Ta’lim olish huquqi orqali fuqaro o‘z bilim va salohiyatini mustahkamlab, jamiyatda faol ishtirok eta oladigan, raqobatbardosh inson kapitaliga aylanadi. Shu jihatdan mazkur konstitutsiyaviy norma inson kapitali tushunchasining huquqiy-me’yoriy asoslari qatorida alohida o‘rin tutadi.

Konstitutsiya bu borada to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya’ni, bevosita ta’sir etuvchi, tartibga soluvchi asosiy hujjat bo‘lib, inson kapitalini barpo etishda asosiy mezonlarni belgilaydi. Unda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, xususan, ta’lim olish, mehnat qilish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, shaxsiy taraqqiyotga erishish kabi imkoniyatlari aniq belgilab qo‘yilgan. Mazkur huquqlar esa inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularni qonuniy jihatdan kafolatlanishi orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolat tamoyillarini ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Konstitutsiyada belgilangan ushbu asosiy tamoyillar davlat organlari va boshqa institutlar faoliyatining yo‘nalishini belgilab beradi va har qanday sohadagi islohotlar, dasturlar, strategiyalar uchun normativ tayanch bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida inson kapitaliga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularni tahlil qilish inson kapitalining shakllanishida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizmlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Jumladan, ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar, sog‘liqni saqlash

tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlovchi normativ hujjatlar, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, yoshlar siyosatiga oid qarorlar va boshqa ko'plab dasturiy hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlarda inson kapitalining tarkibiy elementlari bo'lgan bilim, salomatlik, kasbiy malaka, innovatsion salohiyat, mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarni rivojlantirish mexanizmlari huquqiy jihatdan belgilangan. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida qabul qilinayotgan strategik hujjatlar, masalan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlar ham inson kapitalini barpo etishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Bu hujjatlar fuqarolarning salohiyatini ro'yobga chiqarishga, ularni qo'llab-quvvatlashga, har tomonlama taraqqiyotga erishishga xizmat qilmoqda. Natijada inson kapitalining yuksalishi orqali jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishi, innovatsion rivojlanishning jadallashuvi, iqtisodiy raqobatbardoshlikning oshishi kutilmoqda [7]. Masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'lim sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solib, har bir fuqaroga sifatli, uzluksiz va bosqichma-bosqich ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim – inson kapitali rivojida asosiy omil bo'lgani sababli, ushbu qonun ham to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi hujjatlar sirasiga kiradi [8].

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun davlat xizmatchilari malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish orqali inson salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu kasbiy kapitalning rivojlanishini tartibga soluvchi mexanizm bo'lib, bevosita ta'sir etuvchi hujjatlar qatorida baholanadi [11].

"Mehnat kodeksi" xodimlarning mehnat huquqlarini, mehnatni muhofaza qilish, malaka oshirish kabi normalarni o'z ichiga oladi; "Aholining sog'ligini saqlash to'g'risida"gi qonun esa fuqarolar sog'ligini saqlash sohasida davlatning kafolatlarini mustahkamlaydi [9].

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish birinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Biroq uni amalga oshirish uchun me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish talab etiladi, ya'ni, u siyosiy-strategik darajadagi hujjat bo'lib, bilvosita ta'sir etuvchi xarakterga ega. Unda ta'lim, tibbiyot, fuqarolik xizmatlari va ilmiy salohiyatni rivojlantirish maqsadlari belgilangan bo'lsa-da, ularning bajarilishi qonunchilik bilan ta'minlanishi zarur [12].

"Sog'lom avlod uchun" dasturlari orqali sog'lom turmush tarzi, profilaktik tibbiyot va bolalar sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar inson kapitali (ayniqsa, salomatlik va ruhiy barqarorlik) rivojida muhim rol o'ynaydi. Biroq ular iqtisodiy-ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, qonun emas, balki ijro mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Shu bois, ular ham bilvosita ta'sir etuvchi hujjatlar sirasiga kiradi [10].

Tahlil va natijalar. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida davlatning huquqiy-me'yoriy siyosati muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda unga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini – ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat qilish imkoniyati, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy himoya tizimlarini tartibga soluvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Konstitutsiyada har bir fuqaroning malakali ta'lim olish huquqi, salomatligini muhofaza qilish, erkin mehnat qilish va ijtimoiy himoya huquqlari kafolatlangan. Ushbu huquqlarning huquqiy asosda mustahkamlanishi esa jamiyatda inson kapitalini shakllantirish uchun barqaror va aniq yo'nalishni belgilaydi. Amaldagi qonunlar, davlat qarorlari va strategik dasturlarni tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim sifatini oshirishga doir islohotlar, sog'liqni saqlash tizimidagi moliyaviy va institutsional yangilanishlar, yoshlar va ijtimoiy zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Ayniqsa, "O'zbekiston–2030" strategiyasida inson kapitali ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, unda aholi salohiyatini oshirish, zamonaviy kasb va ko'nikmalarni egallashga yordam berish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan innovatsion muhitni shakllantirish kabi maqsadlar ilgari surilgan. Huquqiy-me'yoriy asoslar tahlilidan ko'rinadiki, mavjud qonunchilik nafaqat inson kapitali elementlarini rivojlantirishni maqsad qilgan, balki ularni o'zaro bog'liq tizimda takomillashtirishni ham nazarda tutadi. Bunda ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat sohalarining o'zaro integratsiyasi orqali aholining bilim darajasi, sog'lomligi va iqtisodiy faolligi oshirilishi ko'zda tutilgan. Xususan, ta'lim tizimidagi uzluksizlik va sifat ko'rsatkichlari, sog'liqni saqlash xizmatlarining qulayligi va moliyaviy yengilliklar, zamonaviy kasblarni egallashga oid yondashuvlar orqali inson kapitalining innovatsion salohiyatini kuchaytirish mumkinligi aniqlanmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonning milliy qonunchilik tizimi xalqaro standartlarga tobora yaqinlashib bormoqda. Xalqaro tajribada mavjud bo'lgan huquqiy mexanizmlarning moslashtirilishi esa milliy kontekstda samarali natijalar berishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Natijaviy jihatdan qaralganda, inson

kapitaliga oid huquqiy-me'yoriy yondashuvlar mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va aholining hayot sifatini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish borasida salmoqli huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan bo'lib, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaviy huquqlar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy himoya sohalaridagi qonuniy kafolatlar, inson kapitalini mustahkamlashda tayanch vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, milliy qonunchilik xalqaro huquqiy tajriba bilan uyg'unlashib, aholining salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yuridik asoslarni kengaytirib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson kapitali faqatgina ta'lim yoki sog'liqni saqlash bilan cheklanmaydi, balki u jamiyatdagi huquqiy madaniyat, iqtisodiy ishtirok va ijtimoiy adolat tizimi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu borada kompleks yondashuv muhim bo'lib, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim tizimlarning o'zaro muvofiqligi va amaliy samaradorligi yanada kuchaytirilishi lozim.

Shunga asosan, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, inson kapitalining tarkibiy qismlarini (ta'lim, sog'liq, mehnat, malaka, ijtimoiy muhofaza va boshqalar) yagona tizimli yondashuv asosida boshqarish va tahlil qilish mexanizmlari yanada takomillashtirilishi zarur; ikkinchidan, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashda monitoring va baholash tizimi mustahkamlanmog'i kerak; uchinchidan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali inson kapitali samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish orqali inson kapitalining rivojlanish jarayoni tezlashtirilishi, shaxsiy salohiyatning ochilishi va iqtisodiy samaradorlikka olib kelishi mumkin. Bunda, ayniqsa, yoshlar, ayollar va ijtimoiy zaif guruhlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, O'zbekistonda inson kapitalini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va uni yanada mustahkamlash yo'lida zarur sharoitlar va mexanizmlar shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Becker, G.S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago: University of Chicago Press// https://www.nber.org/books-and-chapters/human-capital-theoretical-and-empirical-analysis-special-reference-education-first-edition.

(2). Schultz, T. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), p. 1–17// https://la.utexas.edu/users/hcleaver/330T/350kPEESchultzInvestmentHumanCapital.pdf

(3). UNDP. Human Development Report 2023/24. URL: https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24

(4). UNDP. Human Development Report, 2016.

(5). UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2021.

(6). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) // O'RQ, 2023-yil 30-aprel.

(7). O'zbekiston – 2030 strategiyasi. https://lex.uz/docs/-6600413

(8). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // O'RQ–637, 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz/docs/-5013007

(9). O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // O'RQ–840, 2022-yil 28-oktabr (2023-yil 1-maydan kuchga kirgan). https://lex.uz/docs/-6257288

(10). O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni // O'RQ–408, 2016 yil 14 sentyabr. https://lex.uz/docs/-3026246

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun // O'RQ-788, 2022 yil 8 avgust. https://lex.uz/uz/docs/-6145972

2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026). https://lex.uz/uz/docs/-5841063

TILSHUNOSLIK

Ismoilova Muattar Ilyosovna (O‘zbekiston Milliy universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi; E-mail: s42813275@gmail.ru)

TURKOLOGIYADA POSESSIVLIK KATEGORIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Turkologiyada posessivlik kategoriyasi alohida til misolida o‘rganilgan ahamiyatga molik ishlardan biri R.N.Garyaevning “Категории числа и принадлежности имени существительного и происхождение их показателей в татарском языке” nomli tadqiqotidir. Bu ishda tatar tilida son va egalik kategoriyasi, uning kelib chiqishi muammosi tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotda turkiy tillarda otning son va egalik/qarashlilik kategoriyasini ifodalovchi vositalar, ularning taraqqiyoti nafaqat tatar tili, balki oltoy, mo‘g‘ul, tungus-manjur, shuningdek, Ural (mariy, udmurt va boshqalar) tillari va ularning dialektlari misolida o‘rganilgan. To‘plangan material tatar va boshqa turkiy tillarda ko‘plik va egalik/qarashlilik affikslarining tarixiy taraqqiyotini diaxron aspektda xolis baholash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *agglutinativ, egalik, qarashlilik, diaxron, affiks, mansublik.*

РОЛЬ КАТЕГОРИИ ПРИТЯЖАТЕЛЬНОСТИ В ТЮРКОЛОГИИ

Аннотация. *Одной из важных работ, в которой притяжательная категория в тюркологии изучалась на примере отдельного языка, является исследование Р.Н.Гаряева “Категории числа и принадлежности имени существенного и происхождение их показателей в татарском языке”. В данной работе изучается проблема категории числа и принадлежности в татарском языке, ее происхождение. В данном исследовании средства выражения категории числа и принадлежности/зависимости имен существительных в тюркских языках, их развитие изучаются не только на примере татарского языка, но и на примере алтайских, монгольских, тунгусо-маньчжурских, а также уральских (марийский, удмуртский и др.) языков и их диалектов. Собранный материал позволяет объективно оценить историческое развитие аффиксов множественного числа и принадлежности/зависимости в татарском и других тюркских языках в диахроническом аспекте.*

Ключевые слова: *агглютинативный, принадлежность, зависимость, диахрония, аффикс, принадлежность.*

THE IMPORTANCE OF THE POSSESSIVE CATEGORY IN TURCOLOGY

Annotation. *One of the important works in which the possessive category in Turkology was studied on the example of a separate language is the study by R.N. Garyaev entitled “Категории числа и принадлежности имени существенного и происхождение их показателей в татарском языке”. This work studies the problem of the category of number and possession in the Tatar language, its origin. In this study, the means of expressing the category of number and possession/dependence of nouns in Turkic languages, their development are studied not only on the example of the Tatar language, but also on the example of the Altai, Mongolian, Tungus-Manchu, as well as the Uralic (Mari, Udmurt, etc.) languages and their dialects. The collected material allows us to objectively assess the historical development of plural and possession/dependence affixes in Tatar and other Turkic languages in a diachronic aspect.*

Keywords: *agglutinative, possession, dependency, diachrony, affix, affiliation.*

Kirish. Ishning ilmiy yangiligi tatar tilidagi son va egalik/tegishlilik kategoriyalari ko‘rsatkichlarining shakllanish jihatlari o‘rganilganligi, bu tilining agglyutinativ tuzilishidagi individual grammatik xususiyatlar aniqlanganligi bilan belgilanadi. R.N.Garyaevning fikriga ko‘ra, birinchi va ikkinchi shaxs egalik shakllari asosga -m va -ts ko‘rsatkichlarini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan: kulым (mening qo‘lim) va kul-ыts (sening qo‘ling). Mazkur kategoriyaning ko‘plik shakli esa asosga -z hamda birlikdagi -m va -ts ko‘rsatkichlarini qo‘shish bilan shakllangan: kul-ыb-ыz (qo‘l-im-iz), kulыg-ыz (qo‘l-ing-iz). Uchinchi shaxsda bu ko‘rsatkich; -ы bilan hosil bo’ladi: at-ы (ot-i).

Adabiyotlar tahlili. A.D.Kaksin xakas tilidagi qarashlilik/tegishlilik kategoriyasining xususiyatlari bilan qiziqqan. U turkiy tillardagi bu grammatik kategoriyaning semantikasi, shakliy ifodasi masalasini xakas tili misolida yoritgan va qarashlilik/tegishlilik grammatik ma’nosining asosiy ko‘rsatkichi sifatida maxsus affikslarni ko‘rsatgan. Masalan, minің ipchim (mening xotinim) kabi birikmalar, izofali birikma (-lыg’ ko‘rsatkichli ism+nominativ vazifadagi ism) kabilar. Tadqiqotchi agglutinativ tillarda qarashlilik/ tegishlilik kategoriyasining ifodalanishiga oid ayrim masalalarni o‘rtaga tashlagan. Jumladan, “egalik” va “qarashlilik” tushunchalarini farqlash masalasini ko‘rib chiqqan. Egalik terminining ma’nosi mansublik, qarashlilik va boshqa terminlariga nisbatan umumiyroq, kengroq ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, agglyutina-

tiv tillarda qarashlilik/tegishlilikni ifodalashning umumiy usullarini aniqlagan. A.D.Kaksin xakas tilida qarashlilik/tegishlilik kategoriyasida quyidagi ma’nolar ifodalanishini ko‘rsatgan:

1) predmetning kimgadir tegishli ekanligi: аал малы (qishloqda yashovchilarga tegishli buqa), тура эезі (uyning egasi), миниң китабым (mening kitobim), хакас чири (xakas yeri/zamini), Azarxannың turazы (Azarxonning uyi) va b.;

2) biror narsa-hodisaning kimga/nimagadir tegishli ekanligi: kizi adы (shaxs ismi), adamnың adы (otamning ismi), aday adы (itning laqabi), миниң холым (mening qo‘lim) va b.;

3) kimningdir boshqa jonli subyektga uzoq qarindosh, yaqin qarindosh, tanish, hamkasb kabi munosabat bilan bog‘langanligi: Катяның пабазы (Katyaning otasi), миниң танызым (mening tanishim), ачамның нанчызы (mening katta akamning do‘sti), хончыхтың оолғы (qo‘shnining o‘g‘li) va b.;

4) kimdir biror subyektga qarindosh, yaqin, tanish, hamkasb sifatida aloqadorligi: ööremniң apsaa (mening dugonamning eri), миниң ipchim (mening xotinim), миниң nanchылarым (mening o‘rtoqlarim), teatrыпың aktyorы (teatr aktyori);

5) narsa/shaxs biror narsa/shaxsning bir qismi sifatida ekanligi: аал азағы (qishloq cheti), аал клубы (qishloq klubi), ит кизегі (go‘sht bo‘lagi), кизек торғы (ipak bo‘lagi).

Tahlil va natijalar. Boshqa turkiy tillarda bo‘lganidek, xakas tilida ham qarashlilik/tegishlilik ma’nosi otlarga qo‘shiladigan shaxs va son jihatidan bir-biridan farq qiluvchi affikslar va boshqa so‘zlar bilan ifodalanadi: paba-m (mening otam), paba-bыs (bizning otamiz), pabalar-ыbыs (bizning otalar), kime-ң (sening qayig’ing), parg‘an-ы (u(lar)ning parvarishi). Xakas tilida ham mazkur kategoriya qarashlilik/tegishlilik ma’nosini bildiruvchi olmosh va sifatlardan iborat sintetik shakllar orqali ifodalanadi. Bu tilda qarashlilikni ifodalovchi bir necha so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham mavjud: -tii; -tың; -tыгых; -тых; -xa; -xay; -xan; -xax; -chы; -chыl; -tii kabi qo‘shimchalar qarashlilikni bildiruvchi sifat va olmoshlarni hosil qiladi: inson qizi (kizi chelovek) kabi. D.M.Tokmashev, V.M.Lemskaya teleut va chulim tillarida egalik ma’nosi nominal konstruksiyalar vositasida ifodalanishini ko‘rsatishgan. Bunday vositalar sifatida, asosan, uchinchi shaxs izofali birikmalar, kishilik olmoshlari hamda egalik qo‘shimchalarini olgan otlar ko‘rsatiladi. Tilshunoslar bu tillarda egalik ma’nosi qator grammatik shakllar tizimi orqali ifodalanishi hamda “obyektni uning biror narsa yoki predmetga tegishlilik xususiyatini ifodalashi”ni ta’kidlashadi. Ularning qayd etishicha, egalik ma’nosini ifodalovchi uchinchi shaxs birlik qo‘shimchasi - (z) ı sintaktik doimiylikka ega bo‘lsa-da, uning semantik doirasi chegaralangan. Shuningdek, bu shaxsda birlik va ko‘plik qo‘shimchasi sinkretlashadi. Birinchi va ikkinchi shaxs qo‘shimchalari faqat shu shaxs/songa xoslikni anglatsa, uchinchi shaxs qo‘shimchasi birlik va ko‘plikni bildiradi.T.M.Xubiyeva qorachoy-bolqor tilida egalik/q-rashlilik kategoriyasining quyidagi xususiyatlarini farqlaydi: 1.Qarashlilik kategoriyasi ism grammatik kategoriyasida shaxs egotsentrizmiga denotativ yo‘nalganlik, qarashlilikni ko‘rsatadi, interpersonallik, olam va predmet orasidagi partativlik (butun/bo‘lak) munosabatini ifodalab, turkiy tillar olam lisoniy manzarasini tasvirlaydi.

2. Qarashlilik/egalik funksional-semantik maydoni -m, -ng, -bыz, -g’ыz, -ы, -i formal shaklga ega aniq ifodalanuvchi yadro hamda -lы/-li, dag‘ы/-degi kabi polifunksional morfemalar bilan yaqin va uzoq periferiyaga ega.

3. Tilda egalik kategoriyasi boshqa grammatik va funksional-semantik kategoriyalar bilan aloqadorligi bilan tavsiflanadi, ular tarkibiga shaxs, kvantitativlik, kvalitativlik, lokativlik, temporallik (miqdor, sifat, joylashuv, zamon) va boshqalar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, turkiy tillarning ko‘pchiligida qarashlilik/tegishlilik kategoriyasi doirasida faqat egalik shakllari tahlilga tortilgan. O‘zbek tilida esa qarashlilik/tegishlilik kategoriyasi egalik kategoriyasidan alohida o‘rganilgan.

Turkiy tillar tizimi doirasida o‘zbek tilida qarashlilik/tegishlilik ma’nosining ifodalanishi masalasi dastlab o‘zbek tili tarixi tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan. Tilshunoslar qarashlilik/tegishlilik ma’nosini ifodalovchi birliklarni turli davr materiallari misolida tekshirishgan. Bu haqida yuqorida ham ma’lumot berib o‘tildi.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligi tarixida qarashlilik/tegishlilik kategoriyasi shu nom ostida ajratilmagan bo‘lsa-da, ammo bu ma’noni ifodalovchi morfologik vositalar egalik kategoriyasi tarkibida tahlilga tortilgan. Ayrim manbalarda egalik va qarashlilikni ifodalovchi vositalar bir-biridan farqlanganligi kuzatiladi. Jumladan, egalik ma’nosining asosiy hollarda egalik affiksi bilan, qarashlilik ma’nosi esa -niki affiksi orqali ifodalanishi ta’kidlangan.

Shunisi xarakterliki, shu kunga qadar o‘zbek tilidagi egalik kategoriyasi morfologiya bo‘yicha yaratilgan barcha darslik va grammatika kitoblarida qayd etilgan. Jumladan, ushbu kategoriya 1975-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida keng yoritilgan.

Xullas, turkiyshunoslikda qarashlilik/tegishlilik kategoriyasi egalik kategoriyasi tarkibiga birlashtirilgan holda o‘rganilgan. Bu kategoriyaning ifodalanish usullari va vositalari aniqlanib, turli jihatdan o‘rganilgan**.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Челебиева Э.Р. Способы выражения категории принадлежности в крымскотатарском и русском языках. Ученые записки Таврического национального университета имени В.И.Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 26 (65), 2013, № 1, ч. 1, с. 80–84.

(2). Касаткин Л.Л. Краткий справочник по современному русскому языку. Л.Л.Касаткин, Е.В.Клобуков, П.А.Лекант, под. Ред. П.А.Леканта, М., “Высшая школа”, 1991, 383 с.

(3). Гаряев Р.Н. Категории числа и принадлежности имени существительного и происхождение их показателей в татарском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Тобольск, 2009, 27 с.

(4). Хубиева Т.М. Категория принадлежности в карачаево-балкарском языке. Дисс. …канд. филол. наук, Карачаевск, 2005, 171 с.

(5). Дмитриев Н.К. Категория принадлежности, ИСГТЯ, II т, М., 1956, с. 22–27; Севортян Э.В. Категория принадлежности. ИСТГЯ, II т, М., 1956, с. 38–44.

(6). Каксин А.Д. К вопросу о категории притяжательности и формах её выражения в хакасском языке / Tehlikedeki Diller Dergisi /Journal of Endangered Language// https://dergipark.org.tr/tr/ download/article-file/689697

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi professori, filologiya fanlari doktori; E-mail: azamaturalov06@gmail.com),

Suyarova Dilrabo Valijon qizi (mustaqil tadqiqotchi; E-mail: suyarovadilrabo6@gmail.com

MORFOLOGIK SHAKLLARDA ASIMMETRIK DUALIZM JARAYONI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada morfologik tizimlarda kuzatiladigan asimmetrik dualizm hodisasi tahlil qilinadi. Dualizm klassik tilshunoslikda ikkilik qarama-qarshilik sifatida qaralsa, morfologik strukturalarda bu hodisa simmetrik bo‘lmagan, muvozanatsiz ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Maqolada fe’l va otlar paradigmasida, birlik-ko‘plik, hozirgi-o‘tgan zamon shakllaridagi morfologik nomutanosibliklar misolida ushbu jarayon ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *morfologiya, dualizm, asimmetriya, grammatik kategoriya, paradigmatik tizim.*

АСИММЕТРИЧНЫЙ ДУАЛИЗМ В МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ФОРМАХ

Аннотация. *В статье анализируется явление асимметричного дуализма, наблюдаемое в морфологических системах. Если в классической лингвистике дуализм рассматривается как бинарная оппозиция, то в морфологических структурах это явление проявляется в асимметричной, несбалансированной форме. В статье этот процесс раскрывается на примере морфологических несоответствий в парадигме глаголов и имен существительных, форм единственного – множественного числа и настоящего – прошедшего времени.*

Ключевые слова*: морфология, дуализм, асимметрия, грамматическая категория, парадигматическая система.*

ASYMMETRIC DUALISM IN MORPHOLOGICAL FORMS

Annotation. *This article analyzes the phenomenon of asymmetric dualism observed in morphological systems. While dualism is considered as a binary opposition in classical linguistics, in morphological structures this phenomenon is manifested in an asymmetrical, unbalanced form. The article reveals this process on the example of morphological asymmetries in the paradigm of verbs and nouns, singular – plural, present – past tense forms.*

Keyword*s: morphology, dualism, asymmetry, grammatical category, paradigmatic system.*

Kirish. Tilshunoslikda morfologiya so‘z shakllanishining qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu jarayonda ko‘plab shakllar va ularning o‘zaro bog‘liqligi dualistik qarama-qarshiliklar asosida shakllanadi. Ammo ayrim holatlarda bu dualizm simmetrik bo‘lmaydi – shakllar orasida ustuvorlik, foydalanish chastotasi yoki grammatik vazifa jihatidan tafovutlar kuzatiladi. Bu holat “asimmetrik dualizm” deb ataladi. Ushbu maqola morfologik tizimda bu hodisaning namoyon bo‘lishini tahlil qiladi.

Har qanday tilda morfologik birliklar o‘zaro qarama-qarshi juftliklar orqali tizimlanadi. Bu juftliklar, odatda, ikkilik (dual) prinsip asosida shakllanadi, masalan, birlik–ko‘plik, hozirgi zamon–o‘tgan zamon,

ergash gap–asosiy gap va hokazo. Shu tarzda dualizm tilda tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Biroq bu dualizm doimo muvozanatli yoki simmetrik bo‘lmaydi. Ko‘plab morfologik juftliklar orasida grammatik yuklama, qo‘llanish chastotasi, semantik kenglik yoki formal ko‘rinish jihatidan muvozanatsizlik mavjud. Asimmetrik dualizm deganda, grammatik birliklarning juft holda mavjud bo‘lishi, ammo ular orasida mazmuniy, strukturaviy yoki funksional jihatdan tengsizlik mavjudligi tushuniladi. Tilshunoslikda dualizm tushunchasi ko‘plab lingvistik strukturalarni tashkil etishda markaziy rol o‘ynaydi. Bu tushuncha nafaqat semantik juftliklarda, balki sintaktik va morfologik tuzilmalarda ham aks etadi. Morfologik jihatdan dualizm – bu grammatik kategoriyalarning juftlik asosida qurilishi demakdir. Masalan, hozirgi va o‘tgan zamon, birlik va ko‘plik, erkak va ayol jins, faol va nofaol nisbatlar va hokazo. Biroq ayrim hollarda bu juftliklar to‘liq muvozanatda emas. Masalan, hozirgi zamon shakllari ko‘proq ishlatiladi, funksional yuklamasi kengroq, semantik jihatdan ham ko‘proq kontekstda namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘tgan zamon shakllari unga nisbatan kamroq qo‘llanadi. Bu holat simmetrik dualizm emas, balki asimmetrik dualizm namunasidir. Shunga o‘xshash holatlar til tizimida ko‘plab uchraydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Asimmetrik dualizm morfologik tizimda bir necha shaklda namoyon bo‘ladi. Z.Xaitov “Morfologik tizimda simmetriya va asimmetriya” ilmiy maqolasida o‘zbek tilidagi grammatik birliklarda mavjud bo‘lgan simmetrik va asimetrik tizimlar tahlil qilingan. Asosiy e’tibor fe’l shakllari va affikslar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarga qaratilgan. “Morfologik asimmetriya – bu til tizimida grammatik birliklarning har doim ham to‘liq va barqaror simmetrik juftlikda bo‘lmasligidir” [9;20-b.]. Bundan tashqari, D.Bozorov “Zamonaviy o‘zbek tilida morfemik asimmetriya holatlari” nomlanuvchi ilmiy maqolasida ham morfologik yasovchi qo‘shimchalarning funksional asimmetriyasi va ularning ishlatilish chastotasi haqida ma’lumotlar berilgan. Yana shunday ilmiy maqollardan biri R.Islomov “Grammatik birliklarda asimmetrik struktura” maqolasida til sistemalarida grammatik birliklar simmetriyasining buzilishi va bu holatlarning sintaktik strukturalarga ta’siri yoritilgan. Morfologik asimmetriya tilning tabiiy dinamikasi, fonetik qisqarish, soddalashtirish va tarixiy omillar bilan bog‘liq jarayondir. Asimmetrik holatlar tildagi evolutsiya izlari bo‘lib, ular orqali tilning rivojlanish bosqichlarini aniqlash mumkin.

Quyidagi grafikda morfologik asimmetriya yuzaga kelishining asosiy sabablariga ko‘ra, foizli taqsimot (tasodifiy raqamlar asosida) ko‘rsatilgan:



Natija va muhokama. Bu hodisani uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Strukturaviy asimmetriya: fe’l shakllaridagi nomutanosiblik. Funksional asimmetriya: ko‘plik shakllarining semantik yuklamasi. Paradigmatik asimmetriya: ayrim shakllarning paradigmadagi yetakchi roli. Har qanday semiotik tizim umumiy va individual subyekt sifatida emas, balki ikkita oraliq yoki ikkita semiotik qiymatlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida mavjud bo‘lib, ularning har biri boshqasini farqlashga xizmat qiladi. Lingvistik belgining bu farqlash xarakteriga juda ko‘p talabning qo‘yilishi to‘g‘ri bo‘lmaydi: *bola – farzand (kuyov bola), bola – nasl (mushukning bolasi*) [1;38-b.].

So‘zning aniq mantiqiy qiymatini faqat aniq vaziyatning vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Aks holda har qanday so‘z bir ma’no uchun xizmat qilgan bo‘lar edi. Faqat ilmiy terminlarning qiymati bir marta va umumiy fikrlar tizimiga kiritilishi bilan belgilanadi. Ammo kundalik hayotiy so‘zlarimiz sema anglatish nuqtayi nazardan asimmetrik dualizm uchun xizmat qilsa, ajabmas. Shuning uchun morfologik birliklar fikrlar to‘plamini o‘z ichiga olgan holda, bir tizimda shakllanadi.

Biz har safar so‘zni aniq voqelikka semantik qiymat sifatida qo‘llaganimizda, ozmi-ko‘pmi yangi tasavvurlarga ega bo‘laveramiz. Boshqacha qilib aytganda, biz doimo belgining semantik qiymatini uslub tarafdan o‘zgartiramiz. Agar belgining odatiy qiymati, mazmuni biz anglash uchun yetarlicha bo‘lmasa, biz buni sezmaymiz: *bola* ***qovun*** *tushirmoqda* (frazalogik) – *bolalar* ***qovun*** *tushirmoqda* (leksik). Birinchi navbatda, belgining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi, chunki bizning fikrimiz integratsiyaga intiladi va tasavvurlar to‘plamidagi har qanday o‘zgarishlarni qayd etishdan bosh tortadi; ikkinchidan, biz eski belgining yangi qiymatiga turtki beradigan taqqoslashni ongimizda joriy qilamiz. Bu jarayon so‘zning ko‘chishi va ma’noning kengayishiga olib keladi: *sovuq havo – sovuq xabar.* Bir so‘z nutq uslublarining so‘zlashuv uslubida turli sema maydonlari hosil qilsa, rasmiy uslubda aniq bir maydonda harakatlanadi [1;42-b.].

Til tizimida bunday birliklarning vujudga kelishi, o‘z-o‘zidan ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, zid ma’nolilikni keltirib chiqaradi. Bunday tushunchalarning vujudga kelishi tilning tarixiy ildizlari bilan bog‘lansa-da, bugungi kun nuqtayi nazaridan ham yangi birliklarning paydo bo‘lishi tabiiy holat.

Mohiyatdan uzoqlashgan semantik birlik asl mohiyatga nisbatan nomutanosibdir. Simmetriya holati muqim bo‘lmasdan u sekinlik bilan asimmetriya (nomutanosiblik) holatiga o‘tadi. Shakldagi bunday o‘zgarish bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmaydi. Morfemalarda asta-sekin, semantik “qamrab olish” hududi miqdoriy jihatdan sifatgacha kengayib boradi, ma’lum bir ma’noning yetarli darajada shakllanmaganligi yoki o‘rnini bosuvchi boshqa bir shaklning mavjudligi tufayli turli nomutanosibliklar yuzaga chiqadi. Bunda ma’no ifodalovchi shakl ikki xil ko‘rinishda: tekis yoki notekis rivojlanadi.

Xulosa. Morfologik tizimda dualizm til birliklari o‘rtasidagi qarama-qarshi, lekin o‘zaro bog‘liq juftliklar orqali ifodalanadi. Biroq bu juftliklar doimo teng asosda qurilmaydi. Ular orasida strukturaviy, funksional, paradigmatik, semantik va pragmatik jihatdan nomutanosibliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada “asimmetrik dualizm” tushunchasi aynan shunday holatlarni izohlash uchun taklif qilindi va tahlil qilindi. O‘zbek tilidagi fe’l va ot shakllarida, ayniqsa, zamon, ko‘plik, shaxs-son, nisbat kabi grammatik kategoriyalarda asimmetrik dualizmning turli ko‘rinishlari kuzatildi. Bu asimmetrikliklar grammatik shakllarning faolligi, qo‘llanish chastotasi, semantik kengligi va kontekstual mosligi asosida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy va stilistik omillar ham til birliklari o‘rtasidagi bu nomutanosiblikni kuchaytiradi. Demak, asimmetrik dualizm morfologik tizimni chuqurroq tushunish, grammatik birliklarning haqiqiy ishlash me-xanizmini aniqlash uchun muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Uralov A. O‘zbek tili morfologiyasida nomutanosiblik. Guliston, “Ziyo nashr matbaa”. 2022.

(2). Ўзбек тили грамматикаси. I жилд, Тошкент, 1975.

(3). Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1985.

(4). Элтазаров Ж. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Филол. д-ри дисс. ... автореф., Тошкент, 2008.

(5). Шарипов Ф. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Филол. д-ри ... дисс. автореф., Тошкент, 2022.

(6). Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. Бишкек, 2013.

(7). Асимметричность знака и межъязыковые различия. Теоретические проблемы современного языкознания. Воронеж, 2009.

(8).https://www.researchgate.net/publication/361934902SKarcevskij_on_the_asymmetrical_dualism_of_the_linguistic_sign1 (Sergej Karcevskij. Du dualisme asymetrique du sign linguistique. Travaux du Cercle linguistique de Prague, I (1929).

(9). Xayitov Z. Morfologik tizimda simmetriya va asimmetriya. Toshkent, “Filologiya masalalari” jurnali, 2-son, 2012.

Mamatkulova Nasiba Maxamadjonovna (Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi; mamatkulova84@internet.ru)

MORFONOLOGIK O‘ZGARISHLARNING LINGVISTIK MOHIYATI

Annotatsiya. *Maqolada morfonologiyaning morfologiya va fonologiyaga o‘xshash hamda farqli jihatlari, morfologiyaning o‘rganish obyekti, bu bo‘limdagi dolzarb masalalar bo‘yicha tilshunoslarlarning qimmatli fikrlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: morfonologiya, morfologiya, fonologiya, fonema, affiks, agglyutinativ, fuziya, amorf, morftaqlid.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ МОРФОФОНЕМНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются сходства и различия между морфофонологией, морфологией и фонологией. Также освещаются объекты изучения морфологии и приводятся ценные мнения лингвистов по актуальным вопросам в данной области.*

Ключевые слова*: морфонология, морфология, фонология, фонема, аффикс, агглютинативность, фузия, аморфность, морфоподражание.*

THE LINGUISTIC ESSENCE OF MORPHOPHONOLOGICAL CHANGES

Annotation*. The article discusses the similarities and differences between morphophonology, morphology, and phonology, as well as the subject of study in morphology. It also highlights the valuable insights of linguists regarding the pressing issues in this field.*

Keywords: *morphonology, morphology, phonology, phoneme, affix, agglutinative, fusion, amorphous, morph imitation.*

Kirish. Ilmiy manbalarda morfonologiyani morfologiya va fonologiya o‘rtasidagi oraliq soha sifatida ko‘rish tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu yondashuv uni qo‘shimcha bo‘lim yoki yordamchi fan sifatida talqin etilishiga olib kelmoqda. Biroq morfonologik hodisalar, xususan, morfonemalar, allomorflar, affikslar paradigmasi va morfonologik variantlik singari tushunchalarning til tizimidagi ahamiyatini chuqur o‘rganish, ushbu sohani alohida ilmiy-nazariy maqomga ega fan sifatida qarash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbek tilida morfonologik o‘zgarishlar masalasi, ularning ijtimoiy mohiyati, til tizimidagi o‘rni, tadqiqot obyektlari, morfologik o‘zgarishlarning lingvistik tomonlari turkiy tilshunoslikda otgan asrdan boshlab o‘rganila boshlandi. Garchi bu masalaga aloqador tadqiqotlar talaygina bo‘lsa-da, aynan morfonologik o‘zgarishlar va ularning til mazmun sathiga ta’siri masalasi fundamental tadqiqot sifatida to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan yo‘l-yo‘lakay ayrim fikrlar berilgan. Masala doirasida morfonologik o‘zgarishlarning morfologiyaga, leksikologiyaga, so‘zlashuv nutqiga bevosita ta’siri, ularning mohiyati, o‘zgarishlar jarayonida yuz beradigan ma’noviy (semantik) o‘zgarishlarni, shuningdek, bu ma’nolarni va bu ma’nolarni ifodalayotgan shakllarni tadqiq qilish, ularning til tizimidagi mavqeyini belgilash bugungi tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. “Morfonologiya (morfologiya va fonologiya) – turli morfemalarning fonologik tuzilmasini va fonologik farqlanishlarning morfologik maqsadda qo‘llanishini ilmiy tadqiq etuvchi tilshunoslik bo‘limi. Morfonologiya – fonologiya va morfologiya oralig‘idagi til bosqichi bo‘lib, bu terminni birinchi marta rus-chex tilshunosi N.S.Trubetskoy taklif etgan. Bunda morfonologiya bir morfemadagi turli fonemalarning almashinuvi sifatida juda tor izohlangan. Morfonologiyaga keng ma’noda qaralganda, u: 1) so‘z va morfemalarning fonologik tarkibi hamda o‘zak va affiksal morfemalarning o‘zaro farqlanishini nazarda tutadi; 2) so‘z yasash va so‘z shakllarini yasash jarayonida morfemalar va ularning bir-biriga ulanishida bo‘ladigan turli o‘zgarishlarni e’tiborga oladi; 3) morfemalar oralig‘idagi va chegaraga ajratishdagi turli xususiyatlarni morfonologiyada o‘rganadi”.[1] Manbadan aniq bo‘ladiki, morfonologiya sohasi so‘nggi yuz yil davomida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Natijada sohaning o‘rganish obyektlari kengayib borgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Professor F.Sharipovning 2021-yilda e’lon qilingan “O‘zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlar” nomli maqolasida “Morfonologiya o‘zining “tug‘ilishi” bilan fonologiya va morfologiyaga “qarzdor” hisoblanadi. Odatda, ana shunday ikki fan sohalari oralig‘ida bo‘lgan masalalarni tadqiq etish ancha qiyin bo‘ladi va yangi xususiyatlarni keltirib chiqaradi. O‘zbek tilining morfonologiyasini yoritishda professor A.G‘ulomovning chuqur ilmiy g‘oyalari katta yordam beradi. O‘zbek tilining morfologik sistemasi ham boshqa turkiy tillardagi ayrim xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan farq qilishi asoslab berildi”,[2] deya professor A.G‘ulomovning morfonologiya yuzasidan keltirilgan fikrlariga munosabat bildiradi. Yana ta’kidlaydiki, “Olimning bu boradagi ishlariga, o‘tgan asrning 90-yillariga qadar e’tibor qaratilmagan. Rus tilshunosligida morfonologiya borasida ko‘lamli tadqiqotlar vujudga kelganidan keyin A.G‘ulomovning 60-yillardagi ishlariga e’tibor qaratila boshladi. Olim morfonologiyaga oid ilmiy qarashlarini XX asrning 40-yillarida “O‘zbek tilida ichki o‘zgarishlar asosida so‘z yasalishi” maqolasida bayon etgan bo‘lishiga qaramay, shu asrning 60-yillarida yozilgan “O‘zbek tilida affiksatsiya jarayonida sodir bo‘ladigan hodisalar” maqolasida o‘zbek tili morfonologiyasiga aloqador masalalarga keng to‘xtalib o‘tilgan. Olimning etimologiyaga oid asosiy qarashlari ham aynan shu maqolada o‘z ifodasini top-

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. XII jildlik, VI jild, Toshkent, 2003, 751-bet.

[2] Sharipov F.G., Galiyev T.F. O‘zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlar. Academic research in educational sciences. Volume 2, 2021, p. 91.

gan: qovurg‘a – qopurg‘a, sirg‘a – asirg‘a – sergi, isiriq va boshqa o‘nlab so‘zlar”[1] buning dalilidir. Natijada morfonologik o‘zgarishlarning lingvistik mohiyati so‘z tarkibi: asos, so‘z yasovchi, shakl yasovchi affikslarning chuqurroq tahlil qilinishi lozimligi aniq bo‘lib qoldi.

Natija va muhokama. So‘z yasalishi va morfologiyaning chuqur qatlamlariga kirib borish, ularning fonologik omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishda morfonologiyaning alohida o‘rni mavjud. Jumladan, morfonologik tahlil orqali til tizimida amal qiladigan qonuniyatlar, morfemalarning o‘zgarish mexanizmlari va ular bilan bog‘liq fonetik-fonologik xususiyatlar aniqlanadi. Bu esa morfonologiyani nafaqat yondosh fan sifatida, balki mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qarash zaruratini asoslaydi.

Morfonologiya nafaqat morfologik birliklarning shakl o‘zgarishlarini o‘rganadi, balki bu o‘zgarishlarning fonologik asoslari va qonuniyatlarini ham ochib beradi. Bu ikki soha o‘rtasida yuzaga keladigan interfeys – lingvistik transformatsiyalarni tushunishda kalit bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu jihati bilan morfonologiya lingvistikaning integrativ sohalaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Tilshunoslikda morfonologiyaning aniq fan sifatida e’tirof etilishi hozirga qadar turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni keltirib chiqargan. Ba’zi olimlar uni fonologiyaning tarkibiy qismi deb hisoblagan bo‘lsa, boshqalar morfologiyaning ichki bo‘limi sifatida ko‘radi. Biroq morfonologik hodisalarning til tizimidagi ahamiyatini e’tiborga olgan holda, uni o‘z predmeti, uslublari va tadqiqot obyekti bo‘lgan mustaqil ilmiy soha sifatida qarash tobora asosli bo‘lib bormoqda.

Morfonologiya nafaqat morfologik birliklarning shakl o‘zgarishlarini o‘rganadi, balki bu o‘zgarishlarning fonologik asoslari va qonuniyatlarini ham ochib beradi. Bu ikki soha o‘rtasida yuzaga keladigan interfeys – lingvistik transformatsiyalarni tushunishda kalit bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu jihati bilan morfonologiya lingvistikaning integrativ sohalaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi kunda rus tilshunosligining so‘z shakllanishi sohasidagi morfologik hodisalarni tavsiflash bo‘yicha ishlarni keng o‘rganilmoqda. Zamonaviy jahon tilshunosligining rivojlanishi til va inson, til va jamiyat, til va madaniyat, til va tarix munosabatlarini o‘rganish yo‘lidan bormoqda. Zamonaviy til hodisalarining kelib chiqishini tahlil qilish tilshunoslikning tegishli sohalarini ajratib ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi: sotsiolingvistika, morfonologiya, lingvokulturologiya, lingvotexnologiya, etnolingvistika va boshqalar.

Morfonologiya sohasining muammolaridan birini o‘rganishga, morfonologik hodisalarning so‘z yasalishi sohasida so‘zning tovush ko‘rinishini sintez qilish jarayonida tutgan o‘rnini, morfemika sohasidagi morfemalarning leksemaga munosabatida ro‘y bergan fuzion va agglutinatsion hodisalarni, o‘zak va affiks morfemalarning fonologik strukturasini hamda tilshunoslik bo‘limlari munosabatini o‘rganish tadqiqot obyektlarini ham kengroq olishga to‘g‘ri keladi.

Masala morfonologiyaning obyekti haqida borar ekan, bu borada N.S.Trubetskoy ma’lum bir tilning fonologik vositalarini morfologik nuqtayi nazardan tadqiq etishni morfonologiyaning obyekti sifatida qarab, izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, morfonologiya faqat som va hind-yevropa tillari grammatikasidagina emas, barcha tillarning grammatikasida fonologiya va morfologiya oralig‘ida bo‘lib, ularni bog‘lab turuvchi aloqa (ko‘prik) sifatida beriladi. Uning mavqeyini shu nuqtayi nazardan belgilash lozimligini ta’kidlab, morfologiyaga ega bo‘lmagan tillar morfonologiyaga ham ega bo‘lmasligini qayd etadi. Morfonologiya har bir tilning o‘ziga xos jihatlari, xususiyatlari haqida to‘laroq ma’lumot beradi. Morfonologiya nuqtayi nazardan qaralganda ayrim til tiplarini esa dunyo tillarining ilmiy tasnif qilishda guruhlarga ajratib olish ancha qulay ekanligini qayd etadi va morfonologiya nazariyasini 3 ta bo‘limga ajratib olish kerakligini ko‘rsatdi.[2] Natijada morfonologiya sohasidagi izlanishlar kengayib, tadqiqot obyektini belgilash qiyinlashib bordi.

Morfonema – bu morfonologiyaning markaziy shakli bo‘lib, u morfemalarning o‘zgaruvchan shakllarida saqlanadigan umumiy mazmuniy va fonologik birlikni ifodalaydi. Morfonemalar orqali morfologik variantliliklar va fonologik almashinuvlar tahlil qilinadi. Masalan, biror morfema turli kontekstlarda fonetik jihatdan o‘zgarib qoladi, lekin semantik jihatdan o‘zgarmaydi.

Bu birliklar nafaqat so‘z yasalishida, balki grammatik kategoriyalar (ko‘plik, egalik, kelishik, shaxs-son, zamon va boshqalar) ifodasida ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, morfonemik variantlarning aniqlanishi affikslar paradigmasini strukturaviy jihatdan qayta ko‘rib chiqish va tadqiq etish imkonini yaratadi.

---

[1] Sharipov F.G., Galiyev T.F. O‘zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlar. Academic research in educational sciences. Volume 2, 2021, p. 91.

[2] Трубецкой Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии. Пражский лингвистический кружок. М., 1967, с. 115.

Turkiy tillar, Slavyan tillari va boshqa qardosh tillar morfonologiyasini yagona metodologik asosda tadqiq qilish, ularning tuzilishidagi umumiy va o‘ziga xos morfonologik xususiyatlarni aniqlash, obyektini yanada to‘laroq belgilab olish lozim bo‘ladi. Bu esa nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki amaliy tillarni o‘qitish, tarjima nazariyasi va kompyuter lingvistikasi kabi yo‘nalishlar uchun ham katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday tipologik yondashuv doirasida, masalan, rus tilidagi agglutinatsiya va o‘zbek tilidagi fuziya (fleksiya) (yoki aksincha, rus tilidagi fuziya va o‘zbek tilidagi agglutinatsiya) tizimlar o‘rtasida morfonologik jihatdan qanday o‘xshashliklar va farqlar mavjudligini aniqlashtirish masalasiga oydinlik kiritadi. Bu esa o‘zbek tilshunosligidagi morfonologik birliklar (morfema, morfonema, affiks, allomorf)ning turli tillarda qanday ishlashini ko‘rsatib beradi.

A.G‘ulomovning ta’kidlashicha, “...so‘z fonologiyasi o‘zining tuzilishiga ko‘ra, so‘z morfologiyasi bilan umumiylikka ega. Bu umumiylik so‘z morfologiyasi o‘zak morfemalar fonologiyasiga to‘g‘ri kelishi, so‘z birikmasi va gaplarning morfologiyasi, o‘zak morfemalarning affikslari bilan birikuviga to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi”.[1] Ma’lum bo‘lmoqdaki, bu jarayon biri ikkinchisini taqozo etuvchi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tizimli, birmuncha murakkab jarayondir.

Tadqiqotimiz davomida affiks paradigmasi tushunchasi kengaytirilib, uni nafaqat grammatik ma’no ifodalovchi vosita, balki murakkab morfonologik tizim sifatida qarash zaruratini asoslashga harakat qilamiz. Aslini olib qaralganda, affikslar paradigmasi doirasidagi qo‘shimchalarning o‘zgarishi – fonologik sharoit, asosning tuzilishi va morfemik strukturaga bog‘liq bo‘lgan holda yuz berishi, shu nuqtayi nazardan qaralganda, affikslarning o‘zgarib, ularning har bir kontekstda qanday fonetik shaklni olishi bilan emas, balki ular o‘zining qanday morfonologik vazifani bajarayotgani bilan belgilanadi. Bu esa yangi terminologik tushuncha – “morfonologik affiks paradigmasi”ni ilm-fanga kiritishni asoslaydi.

Xulosa. Bugungi kunda morfonologik tizimlarni yagona metodologik yondashuv asosida qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkoniyatlari, bunda umumiylik va farqlilik (xususiylik) mezonlari (dialektikasi)ga asoslangan holda morfonologik birliklarning funksional o‘xshashliklari va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Almashinuv jarayonlariga tizimli yondashuv morfonologik o‘zgaruvchanlik darajasini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv asosida til tizimida yuzaga keladigan allomorflar va ularning variantlari tahlil qilinib, bu hodisalarning ichki qonuniyatlari ochib berilishi lozim bo‘ladi. Manbalarda morfonema tilning o‘ziga xos birliklaridan biri sifatida ajratilib ko‘rsatilishi va uning mavjudligi morfonologiyaning mustaqil fan sifatidagi maqomini asoslashda muhim dalil sifatida qaraladi.

Hozirda rus tilidagi so‘z yasalishi jarayonida kuzatiladigan morfonologik hodisalarni tizimli tarzda tavsiflash orqali birlashma (fusional) va agglutinativ tizimlarning chegaralari qayta ko‘rib chiqilgan. Ushbu tahlil asosida fusionizm fenomenining mazmun-mohiyati aniqlik kasb etishi va uning ifoda vositalari morfonologik birliklar darajasida berilmoqda. Morfonologik birlik sifatida affiksning yangi talqini ilgari surildi. U so‘z yasovchi qo‘shimchalar paradigmasini ifodalovchi va mazkur paradigmada yuzaga keladigan allomorflarning morfonologik belgilarini aks ettiruvchi birlik sifatida tavsiflandi. Qo‘shimchalardagi variantlar esa asosning morfonologik xususiyatlariga ko‘ra shakllanadi, bu esa affikslar paradigmasini ichki tizimli birlik sifatida o‘rganish imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari morfonologiyaning lingvistik tizimdagi ilmiy maqomini qayta ko‘rib chiqish, uning obyektini belgilab olish zaruratini ko‘rsatadi. Morfonologiya morfemik darajadagi fonologik o‘zgarishlarni o‘rganish bilan birga, til tizimidagi morfologik jarayonlarning chuqur mohiyatini ochib beruvchi mustaqil fan sifatida namoyon bo‘lishining o‘ziyoq, bu masaladagi tadqiqotlar anchagina rivoj topganligini ko‘rsatadi. N.S.Trubetskoyning ilmiy-nazariy qarashlari ana shu masalarni rivoj topishi uchun asos bo‘lib xizmat qila boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966, с. 505.

(2). Редькин Б.А. Построение раздела «Морфонология». Основы построения описательной грамматики современного русского литературного языка. М., 1966, с. 7 – 49.

(3). Трубецкой Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии. Пражский лингвистический кружок. М., 1967, с. 115.

(4). Бертагаев Т.А. Морфологическая структура слова в монгольских языках. М., 1969, с. 54.

(5). Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках. Структура и история тюркских языков. М., “Наука”, 1971, с. 8.

(6). Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике. М., 1974, с. 9.

[1] G‘ulomov A. Ayub G‘ulomovning ilmiy merosi. Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2005, 8-bet.

(7). Серебренников В.А. О некоторых фонетических особенностях конечных формативов. Современные проблемы литературоведения и языкознания. М., “Наука”, 1974, с. 401.

(8). Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф., Тошкент, 2009, 12-bet.

(9). Mirtojiyev M. Semasiologiya. Toshkent, 2010, 75–125-betlar.

(10). Усмонов С. Ўзбек тилида сўзнинг морфологик тузилиши. Тошкент, 2010 (1964).

(11). G‘ulomov A. Ayub G‘ulomovning ilmiy merosi. Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2005, 8-bet: Pardayev A. O‘zbek tili yordamchi so‘zlarida farqlash va zidlanish. “SamDU Ilmiy axborotnoma”, 2021, 2-son, 11-bet.

(12). Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni sistema sifatida o‘rganish. Namangan, 2011, 58-bet.

(13). Sharipov F.G., Galiyev T.F. O‘zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlar. Academic research in educational sciences. Volume 2, 2021, p. 91.

(14). Uralov A. O‘zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik. Fil. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Samarqand, 2024, 104 – 105-betlar.

(15). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. XII jildlik, VI jild, Тошкент, 2003, 751-bet.

Patullaeva Gauxar Saklapbergenovna (Nukus DPI “Qoraqalpoq tili” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi),
Jumamuratova Gulmira Maqsetbaevna (magistrant)

TURKIY TILLARDA VA QORAQALPOQ TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z YASASH FORMANTLAR KOMPLEKSINING NAZARIY ASOSLARI VA TADQIQI

Annotatsiya. *So‘z yasash usullari so‘zlarning yasalishidagi asosiy obyektlardan biri hisoblanadi. So‘z yasash usulini aniqlamay turib, so‘z yasash haqida to‘liq ma’lumotga ega bolish qiyin, chunki so‘z yasalishda bir so‘zdan yangi ma’noli so‘zning yasalishida so‘z formantlari alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada turkiy tilshunosligidagi, xususan, qoraqalpoq tilshunosligidagi so‘z yasash formantlar kompleksining nazariy asoslari va o‘rganilishi ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z yasash, formant, so‘z yasovchi formantlar kompleksi, so‘z yasash usullari, affiksatsiya usuli, so‘z qo‘shilish usuli, leksika-semantik usul, leksika-sintaksislik usul.*

Патуллаева Гаухар Саклапбергеновна (доцент кафедры каракалпакского языка Нукусского ГПИ, кандидат филологических наук),
Джумамуратова Гулмира Максетбаевна (магистрантка)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИССЛЕДОВАНИЕ КОМПЛЕКСА СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ФОРМАНТОВ В ТЮРКСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *Способы словообразования являются одним из основных объектов в словообразовании. Без определения способа словообразования сложно получить полную информацию о словообразовании, поскольку словообразующие форманты занимают особое место в словообразовании, образуя слово с новым значением из одного слова. В данной статье рассмотрены теоретические основы и изучение комплекса словообразовательных формантов в тюркском языкознании, в частности, в каракалпакском языкознании.*

Ключевые слова: *словообразование, формант, комплекс словообразовательных формантов, способы словообразования, способ аффиксации, способ сложения слов, лексико-семантический способ, лексико-синтаксический способ.*

Patullaeva Gaukhar Saklapbergenovna (Candidate of Philological Sciences, Associate Professor of the Department of Karakalpak Language, Nukus State Pedagogical Institute),
Jumamuratova Gulmira Maksetbaevna (Master’s Student Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute)

THEORETICAL FOUNDATIONS AND STUDY OF THE COMPLEX OF WORD-FORMATION FORMANTS IN TURKIC AND KARAKALPAK LINGUISTICS

Annotation. *Word formation methods are considered one of the main objects in word formation. Without determining the method of word formation, it is difficult to have complete information about word formation, since word formants occupy a special place in the formation of a word with a new meaning from one word in word formation. This article examines the theoretical foundations and study of the complex of word-formation formants in Turkic linguistics, in particular in Karakalpak linguistics.*

Keywords: *word formation, formant, complex of word-forming formants, word-formation methods, affixation method, word addition method, lexico-semantic method, lexico-syntactic method.*

Kirish. So‘z yasash usullari so‘zlarning yasalishidagi asosiy obyektlardan biri hisoblanadi. So‘z yasash usulini aniqlamay turib, so‘z yasash haqida to‘liq tushincha olish mumkin emas. So‘z yasalishda bir so‘zdan yangi ma’noli so‘zning yasalishida so‘z formantlari alohida o‘rin egallaydi.

So‘z yasash formanti deganda yasama so‘zning qanday yasalgani tushuniladi, ya’ni qanday vosita yordamida yasalishi. Shuning uchun ham so‘z yasalish formantini so‘z yasovchi vosita deb hisoblaymiz. Masalan: pada-shı, balıqshı-lıq, is-ker, ayt-ıs so‘zlarida -shı, -lıq, -ker, -ıs affikslari so‘z yasash formati vazifasini bajarib turibdi, ya’ni ular o‘zak va negizlarga qo‘shilib, yangi ma’noli yasama so‘z yasaydi. Bunday yangi ma’nodagi so‘zlarning yasalishi o‘zining so‘z yasash usullariga ega bo‘ladi. So‘z yasash usullari hozirgi turkiy tillardagi tadqiqotlarga sharh qilib qaraganimizda, har bir tilning o‘zining materiallari asosida turlicha bo‘lib o‘rganilib kelayotganligi ko‘rinadi. O‘zbek tili tadqiqotchilarining ishlarida so‘z yasash usullari quyidagicha ko‘rsatiladi. Morfologik tip, leksik-semantik tip, morfologik-sintaktik tip, fonetik tip. Demak, so‘z yasash grammatik so‘z yasash, leksik-semantik so‘z yasash, fonetik so‘z yasash tarzida bo‘ladi.[1] “Qazaq tiliniń sóz jasam júyesi” nomli asarida qozq tilinin so‘z yasash usullari: 1) sintetik (morfologik); 2) analitik (sintaktik); 3) leksik-semantik tarzida ajratib ko‘rsatilgan.[2] F.A.Ganiyev tatar tilining so‘z yasash usullarini quyidagicha bo‘ladi: 1) fonetik; 2) suffiksatsiya; 3) so‘z qo‘shish; 4) so‘z birikmasining qo‘shma o‘tishi va suffiksatsiya; 5) konversiya; 6) leksik-semantik; 7) abbreviatsiya.[3]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qoraqalpoq tilida ham so‘z yasash usullarini aniqlashda har xil fikrlar, qarashlar uchraydi. Masalan, N.A.Baskakov qoraqalpoq tilida yasama so‘zlarning leksik, morfologik va sintaktik usullar bilan hosil qilinishini ko‘rsatadi.[4] Axmet Qidirboyev esa buning ikki usul: morfologik va sintaktik usullar bilan qilinishini aytadi.[5] A.Bekbergenovning asarlarida esa so‘z yasash usullari to‘rt guruhga bo‘lib ko‘rsatilgan: 1) morfologik; 2) leksik-sintaktik; 3) morfologik-sintaktik; 4) leksik-semantik.[6] A.Bekbergenov bu asarida so‘z yasash formantlarini quyidagicha tushuntiradi. Avval, ularni bo‘lib oladi. Morfologik usulga affiksatsiya, so‘z qo‘shish va abbreviatsiyani kiritadi. Balıq-balıqshı, jaqsı-jaqsılıq, bil-bilim, aqsha-aqshalay. Bu misollardagi -shı, -lıq, -im, -lay affikslari so‘z yasovchi formant vazifasini bajarmoqda. Ular o‘zak morfemalarga qo‘shilib, yangi ma’nodagi yasama so‘zni hosil qiladi. Ammo bir qator tadqiqotchilar tomonidan *prefikslar* deb ko‘rsatib kelinayotgan *biy, n*a (biymálim, nadurıs) va h.k. kabi elementlarni so‘z yasash formantlariga kiritmaydi. Birinchidan, ularning har doim ham yangi so‘z yasay olmasligini, ikkinchidan, ular boshqa tildan o‘zlashtirilgan elementlar bo‘lgani uchun faol emasligini aytadi. So‘zlarning qo‘shilishi orqali yasalishiga tawıqkóz (tawıq-kóz), asqazan (as-qazan), alabuǵa (alabuǵa), demalıs (dem-alıs) kabi misollarni keltirib so‘zlarning birlashishi, qo‘shilishi orqali yasalgan so‘z ma’no jihatidan o‘zaklarning ma’nosidan o‘zgacha bo‘lib, boshqa bir yangi tushunchani anglatishi bilan dalillaydi. Shuning uchun turkologlarning so‘zlarning bir-biri bilan birikishini, qo‘shilishini sintaktik usul deb qarash to‘g‘ri kelmasligini aytadi. “Chunki sintaktik usul orqali so‘zlar hech qachon bir-biriga bilan birikmaydi, qo‘shilmaydi, balki, aksincha, alohida-alohida turib o‘zaro biriksak ham ma’lum bir sintaktik bog‘lanishdagi so‘z birikmasini hosil qiladi,”, deb dalma aniq dalillaydi. So‘z yasalishi bo‘yicha 1990-yillardan keyingi tadqiqotlarda ba’zi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Akademik ilmiy grammatikada yuqoridagilarga nisbatan ancha o‘zgarishlar bor. Bunda so‘z yasalishi yangi termin – morfemika atamasi bilan ataladi va uni ikki katta guruhga ajratilgan: 1) morfemik usul; 2) morfemik bo‘lmagan usul. Morfemik usulga affiksatsiya, so‘z qo‘shilishi, so‘z qo‘shilishi va affiksatsiya, abbreviatsiya usullari, nomorfema usulga esa leksik-sintaktik va leksik-semantik usullar kiritilgan. Affiksatsiya usulida so‘z yasovchi vositalar (formantlar) bevosita o‘zakka va boshqa so‘z yasovchi affikslardan so‘ng (ya’ni so‘zning asosiga) qo‘shilaveradi. Masalan, *temir-shi, diyqan-shılıq, quwat-la, kemis-lik, may-la,* so‘zlarida -shi, -shılıq, -la, -lik,-la affikslari ildizga qo‘shilib, *ón-im-dar-lıq, as-paz-lıq, qural-sız-lan-dırıw* so‘zlaridagi affikslar asosga qo‘shilib so‘z yasovchi formant vazifasini bajarib turibdi. So‘zlarning bunday yasalishini suffiksatsiya usuli deb ataydi. Ammo so‘z yasovchi qurolning (formantning) so‘zning bevosita o‘zagiga va negiziga ulanmay, so‘z o‘zgartiruvchi morfemalardan (ko‘plik, kelishik, qaratqich) so‘ng ulanishiga postfiksatsiya deb ataladi.

---

[1] Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. I том. Morfologiya, Tashkent, “Фан”, 1975, 22–23-betlar.

[2] Қазіргі қазақ тілі созжасам жуйесі. Алматы, «Гылым», 1989, 64-бет.

[3] Ганиев Ф.А. Способы словообразования в современно татарском язике. «Избранные статьи», Казань, 2010, с. 174.

[4] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. Часть I (Части речи и словообразования. М., 1952, с. 170.

[5] Házirgi qaraqalpaq tili. I, Morfologiya, Nókis, 1974, 17-bet

[6] Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilindegi tiykarǵı sóz jasaw usılları. “ÓzIAQB xabarshısı”, 1976, №1, 68–73-betler; Qaraqalpaq tilinde sózlerdiń jasalıwı. Nókis, 1979.

Masalan, oyım-sha (oy o‘zak morfema, -ım tortish kelishigi, -sha ravish yasovchi morfema), awılda-ǵı (awıl- o‘zak morfema, -da - o‘rin kelishigi, -g‘i - sifat yasovchi morfema), mártler-she (márt - o‘zak morfema, -ler - ko‘plik affiksi, -she - ravish yasovchi morfema).[7] A.Davletov, M.Davletov, M.Qudaybergenovlar tomonidan yozilgan darslik kitobda quyidagi so‘z yasash usullarini quyidagicha ko‘rsatgan: affiksatsiya, so‘z qo‘shish, so‘z qo‘shish va affiksatsiya, leksik-semantik, leksik-sintaktik usullar.[8] Bu ilmiy asarda olimlarning bugungi ishimizning obyekti hisoblangan so‘z yasash formantlariga oid nazariyalari, qoidalari, ko‘rsatmalari yuqorida muhokama qilingan ilmiy grammatika bilan deyarli bir xil ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o‘tganimizday, Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilning grammatikasida so‘z yasalish usuliga o‘zgartirish kiritilgan terminlarga berilgan tushunchalar so‘z yasalish sohasining morfologiyadan ajralib, alohida til ilmining bir sohasi sifatida o‘rganilishiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Haqiqatda ham, so‘z yasalishining morfologiyadan alohida ajralib chiqishiga bog‘liq affiksatsiyani morfemalik usul deb olish eskirdi. Shuning uchun bu usulni M.Davletov va M.Qudaybergenovlar hozirgi o‘rganilayotgan an’ana bo‘yicha affiksatsiya yoki affiksal-morfemik usul deb ataydi.[9] Shunday qilib, so‘z yasash usullarini quyidagicha to‘rt usulga ajratadi: 1) affiksatsiya (so‘z yasalish asosi+so‘z yasovchi formant); 2) so‘z qo‘shish (ikki ma’noli so‘zning qo‘shilishi); 3) abbrevatsiya (so‘zlarning qisqartirib qo‘shilishi); 4) leksik-semantik usul (ma’no o‘zgarishi orqali yasalishi). Olimlar bu ishda yuqoridagi tadqiqotlarni, fikrlarni hisob-ga olib, ayrim tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanib kelayotgan qo‘shma so‘zlarga affikslarning qo‘shilishidan yasalgan qo‘shma so‘zlarni morfologik-sintaktik usul deb qaramay, affiksatsiya usuli bilan yasalgan so‘zlarning qatorida o‘rgangan to‘g‘ri deb baholaydi va morfologik-sintaktik usulni affiksatsiya usuliga birlashtiradi. Bu holat so‘z yasash usullarini ko‘paytira bermay, amaliy o‘rganishda yengillik tug‘diradi. Shuningdek, abbreviatsiya usulini (qisqargan qo‘shma otlar) so‘z qo‘shish usuliga birlashtiradi. Sababi ularni tarqatib, to‘liq holda yozganda, o‘sha tarqatib yozilgan qo‘shma so‘zlarning ekvivalentligi bo‘lib chiqishini aytadi. P.Najimov, Sh.Xojanov, D.Seytqasimovlar tomonidan 2021-yili chiqqan “Qaraqalpaq tiliniń sóz jasalıwı” asarida ham so‘z yasalish formantlariga qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Bu ishda so‘z yasash for-mantini so‘z yasalishning elementar yoki bazaviy birligi deb hisoblaydi.[10] Bundan tashqari, Q.Paxratdinov, I.Seytnazarovalar tomonidan yozilgan “Qaraqalpaq tilindegi sóz jasawshı affiksler”, A.Aymurzayeva muallifligidagi “Qaraqalpaq tilindegi kelbetlik hám kelbetlik feyillerdiń substantivlesiwi", Q.Paxratdinov va D.Seytqosimovning “Qaraqalpaq tilindegi kelbetlik jasawshı affiksler” nomli asarlarini va shuningdek, D.Seytqasimovning “Qaraqalpaq tilindegi kelbetliklerdiń jasalıwı” nomli monografiyasidan ham so‘z yasash formantlari haqida biroz ma’lumotlarni bilsak bo‘ladi.

Xulosa va taklif. Ushbu maqolada tilshunoslikdagi so‘z yasash formantlar kompleksining nazariy asoslari va o‘rganilishi bo‘yicha bir qator muhim masalalar ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari so‘z yasash tizimini chuqur tushunib, uni nazariy va amaliy jihatdan isbotlashga imkon beradi va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tilimizda so‘z yasash formantlari kompleksiga kiradigan morfemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qarab, hozirgi kunda ham eng unumli qo‘llanilib kelayotgan formantlarga affiksatsiya va so‘z qo‘shilishi usuli orqali yasaladigan yasama so‘zlarni kiritishimiz mumkin.

2. So‘z yasashning affikslar orqali yasaladigan bu turini – morfemalik usul emas, affiksatsiya usuli yoki affiksal-morfemalik usul deb atash.

3. Shuningdek, abbreviatsiya usulini alohida usul deb qaramay, so‘z qo‘shish usuliga qo‘shib o‘rganish. Umuman aytganda, hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida so‘z yasash formantlari juda keng mavzu bo‘lib, ularning nazariy va amaliy jihatdan yanada kengroq tadqiqotlarni talab qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Kelajakda formantlarning fonetik variantlari, dialektik tizimlardagi o‘rni va til xususiyatlariga bog‘liq ta’sirlari orqali to‘liq tadqiqotlar olib borilishi kerak.

---

[7] Házirgi qaraqalpaq ádebiy tiliniń grammatikası. Sóz jasalıw hám morfologiya. Nókis, 1994, 19–28-betler.

[8] Dawletov A., Dawletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Morfemika. Morfonologiya, Sóz jasalıw. Morfologiya. Nókis, 2010, 33–45-betler.

[9] Dawletov M, Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq tiliniń sóz jasalıw sisteması. Nókis. 2021, 31-bet.

[10] Nájimov P, Xojanov Sh, Seytqasimov D. Qaraqalpaq tiliniń sóz jasalıwı. Nókis. 2021, 9-10-betler.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1) Házirgi qaraqalpaq ádebiy tiliniń grammatikası. Sóz jasalıw hám morfologiya. Nókis, 1994, 19–28-betler. (20>Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilindegi tiykarǵı sóz jasaw usılları. “ÓzIAQB xabarshısı”, 1976, №1, 68–73-betler; Qaraqalpaq tilinde sózlerdiń jasalıwı. Nókis, 1979.

(3). Dawletov A., Dawletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Morfemika. Morfonologiya. Sóz jasalıw. Morfologiya. Nókis, 2010, 33–45-betler.

(4). Dawletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq tiliniń sóz jasalıw sisteması. Nókis. 2021, 31-bet.

(5). Nájimov P., Xojanov Sh., Seytqasimov D. Qaraqalpaq tiliniń sóz jasalıwı. Nókis. 2021, 9–10-betler.

(6). Баскаков Н.А. Каракалпакский язик. II. Фонетика и морфологтя. Часть I (Части речи и словообразования). М., 1952, 170-bet.

(7). Ўзбек тили грамматикаси. Еки томлык. I том. Morfologiya. Tashkent, “Фан” 1975, 22-23-betler.

(8). Қазіргі қазақ тілі сөзжасам жуйесі. Алматы, «Ғылым», 1989, 64-бет.

(9). Ганиев Ф.А. Способы словообразования в современном татарском язике. «Избранные статьи». Казань, 2010, с. 174.

Sharipov Fazliddin Galiyevich (Guliston davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor; fazliddindpr@mail.ru),

Sharipova E‘zoza Fazliddinovna (Guliston davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi; e’zozadpr@mail.ru)

TILSHUNOSLIKDA MORFOLOGIK ANALIZATOR MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korpus lingvistikasiga doir masalalarning muqaddimasidan to xotimasigacha bo‘lgan holatning qisqacha mazmuni yoritib berilgan. Ya’ni har qanday ijtimoiy-gumanitar fanlarni matematik modellarga solish, qisqcharoq qilganda, qoliplash yoki raqamlashtirish fan olamida innovatsion muhitni shakllantirib beradi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham fannning fundamental asosi shakllantirilgan bo‘lib, bugungi kunda internet tarmoqlarida baralla yangrayotgan, ya’ni, yangilik sifatida tan olinayotgan kompyuter lingvistikasining salohiyatini yanada oshirmoqda. Maqolada ko‘zlangan asosiy maqsad ham shundaki, tilshunoslikda tadqiq qilingan minglab ilmiy izlanishlar hamda kelajakda qilinishi lozim bo‘lgan falsafiy yoki vertual yangiliklarning o‘quvchi ommasiga yetkazish uchun matining avtomatik tahlili juda zarur ekanligi yoritib berildi. Bu borada rus, ingiliz, nemis va boshqa qardosh bo‘lgan hamda qardosh bo‘lmagan tillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ham nazar tashlandi. Jumladan, tilshunoslikda fanlar o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlar tahlilga tortildi.*

Kalit so‘zlar: *morfologik analizator, avtomatik tahlil, grafematik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil, lemma, stem, teg, prosodik teg, anaforik teg, semantik teg, morfologik teglash, sintaktik teg.*

ПРОБЛЕМА МОРФОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗАТОРА В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация*. В данной статье представлен краткий обзор нынешнего состояния корпусной лингвистики, то есть моделирования или оцифровки любых социальных и гуманитарных наук в математические модели, которые создают инновационную среду в мире науки. В частности, фундаментальная основа науки сформирована в узбекской лингвистике, которая сегодня бурно развивается в интернете, то есть она ещё больше увеличивает потенциал компьютерной лингвистики, которая признана новаторством. Основная цель статьи – подчеркнуть необходимость автоматического анализа текста для донесения до читателя тысяч научных исследований, проведённых в области лингвистики, а также философских или виртуальных инноваций, которые будут сделаны в будущем. В этой связи также были рассмотрены научные исследования, проведённые на русском, английском, немецком и других родственных и неродственных языках. В частности, были проанализированы различия и сходства между дисциплинами в области лингвистики.*

Ключевые слова: *морфологический анализатор, автоматический анализ, графематический анализ, морфологический анализ, синтаксический анализ, семантический анализ, лемма, основа, тег, просодический тег, анафорический тег, семантический тег, морфологическая разметка, синтаксический тег.*

THE ISSUE OF MORPHOLOGICAL ANALYZER IN LINGUISTICS

Annotatsiya. *This article provides a brief overview of the current state of corpus linguistics, that is, modeling or digitizing any social and human sciences into mathematical models that create an innovative environment in the world of science. In particular, the fundamental basis of science is formed in Uzbek linguistics, which is rapidly developing on the Internet today, that is, it further increases the potential of computational linguistics, which is recognized as an innovation. The main goal of the article is to emphasize*

the need for automatic text analysis to convey to the reader thousands of scientific studies conducted in the field of linguistics, as well as philosophical or virtual innovations that will be made in the future. In this regard, scientific studies conducted in Russian, English, German and other related and unrelated languages were also considered. In particular, the differences and similarities between disciplines in the field of linguistics were analyzed.

Key words: *morphological analyzer, automatic analysis, graphematic analysis, morphological analysis, syntactic analysis, semantic analysis, lemma, base, tag, prosodic tag, anaphoric tag, semantic tag, morphological markup, syntactic tag.*

Kirish. Morfologik analizator – lug‘at(leksikon)dagi so‘zshakl va alohida so‘zlarni qiyoslashga mo‘ljallangan, so‘zning grammatik xususiyatini ifodalaydigan algoritmlar to‘plami.[1] Sintaktik parser matnni “tanish” funksiyasiz ham ishlay olsa-da, tahlil jarayonida morfologik analizator tahlil natijasini faol qo‘llaydi. Matnning grammatik axborot beruvchi razmetkasi sintaktik tahlil qoidalarini tuzishga yordam berishi aytilgan. Masalan, ot va sifat orasidagi munosabatni aniqlash qoidasini olish mumkin. Rus grammatikasi qoidalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, otdan chap tomonda turuvchi sifat ot bilan bir xil kelishik, son va rodda bo‘lsa, u bilan aloqaga kirishadi. Na krutom (predlojno‘y, ed., muj.) beregu (pokativ, ed., muj.). Ushbu qoida ot va sifat bog‘lanishining yagona asosi hisoblanmaydi, ammo u nisbatan ko‘proq holatlarda shunday bog‘lanishlarni hosil qiladi.[2]

Morfologik analizator mualliflarning fikricha, analizator vazifalari sirasiga so‘zning barcha grammatik shakllarini tavsiflash, uning aynan ma’lum bir matndagi istisno holatlari haqida ma’lumot berish kabilar kirishi ta’kidlangan. Analizatorning eng oxirgi, ko‘p vaqt sarflanadigan vazifasi notanish so‘zning ehtimoliy grammatik ma’nosini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Morfologik analizatorning muhim tomoni shundaki, u bitta tilga moslashtirilmagan, balki bir necha tilni tahlil qilishda foydalanish, ma’lum bir tilning qoidalari majmui lug‘at bazasiga joylashtirilib, morfologik tahlil algoritmi turli tillarga joylashtirilishi mumkin.

Material va usullar. Tadqiqotning obyekti sifatida korpus lingvistikasida morfologik analizatorlar joriy etilgan jahon va o‘zbek ilmiy tilshunosligidagi ilmiy asarlar kompyuter lingvistikasi bilan bog‘liq tarzda yoritilgan bo‘lib, jumladan, jahon, rus va o‘zbek tilshunosligining grammatikasiga oid ilmiy qarashlar ham asos qilib olindi. Bundan tashqari, maqolada jahon va o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy tadqiqotlaridan, ya’ni, kompyuter lingvistikasi, qolaversa, milliy korpus lingvistikasi bilan bog‘liq munozarali masalalarga oydinlik kiritganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin egallagan.

Natijalar va muhokama. Matnning avtomatik tahlili bir necha murakkab operatsiyadan iborat: kompyuter tabiiy tildagi matn tahlilini belgilangan algoritm asosida amalga oshiradiki, avtomatik tahlil davomida kompyuter matn haqida o‘z tilida leksik-morfologik, sintaktik, semantik tasavvur hosil qiladi. Matnning avtomatik analiz va sintez jarayoni kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu vazifa sun’iy intellekt uchun lingvistik modellar yaratish va insoniyatning amaliy ehtiyojidan (masalan, avtomatik mashina tarjimasi) kelib chiqadi.[3]

Matnning avtomatik tahlili bir necha bosqichdan iborat:[4]

1) grafematik tahlil: so‘z, gap, abzats va boshqa matniy element (masalan, gazeta matni bo‘lagi) chegarasini aniqlash;

2) morfologik tahlil: matnda qo‘llangan so‘zshaklning bosh shaklini hamda bu so‘zning morfologik belgilarini aniqlash;

3) sintaktik tahlil: matndagi gapning grammatik strukturasini aniqlash;

4) semantik tahlil: iboralarning ma’nosini farqlash.

Yuqorida ko‘rsatilgan tahlil turlaridan biri grafematik tahlil tokenizatsiya (ing. token. – matndagi so‘z, ibora yoki biror ahamiyatli element)ga teng bo‘lishi mumkin. Matniy elementlar chegarasi aniqlovchisi sifatida shakliy-signal so‘zlar orasida probel (ajratma) bo‘lsa, gap va uning qismlari chegarasi bosh harf va tinish belgilar, matnning mazmuniy qismlari abzas bilan farqlanadi.[5] Ammo so‘z chegarasini aniq-

[1] sehttp://www.solarix.ru/for developers/docs/morphology analyzer.shtml.

[2] Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингивистик таъминоти. Тошкент, ClobeEdit, 2020, 50-бет.

[3]Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике. Москва, “Наука”, 2013, с. 43.

[4]Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика.Москва: МИЭМ, 2011, с. 106–107.

[5]Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике. Москва, “Наука”, 2013, с. 43.

lashda doim ham formal metod qo‘l kelmaydi. Masalan, xitoy tilida so‘zning shakliy chegarasi mavjud emas. Hatto Yevropa tillarining aksariyatida probel (ajratma) bilan ajratilgan bir necha so‘zlarning bitta leksemaga teng kelish holati ham bu metod bilan grafematik tahlil natija bermasligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi tahlilga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ya’ni, matnning morfologik tahlilida unda qo‘llangan so‘zshaklning bosh shakli – lemma aniqlanadi hamda so‘zning shu kontekstdagi grammatik ma’nolari ajratiladi. Masalan, ot uchun turkum, shaxs, son, kelishik, fe’l uchun shaxs, son, zamon va h.k. Matnda ishlatilgan har bir so‘z, so‘zshakl yoki so‘z qo‘llash holati deyiladi. Flektiv tillarda morfologik tahlildagi o‘zak (asos) an’anaviy grammatikadagi asosga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Morfologik tahlilda asosni aniqlash *stemming* deyiladi. Stem – bu so‘zshaklning sintaktik shakl yasovchilarsiz qismi, fleksiya hodisasiga uchragan ayrim turkiy o‘zaklarning grammatik asosi bilan morfoanaliz jarayonidagi asosi – stem mos kelmay qolish holatlari uchrab turadi. Masalan, son o‘zagidan yasalgan *sana* fe’lining o‘zagi son, ammo bu so‘zshaklning stemi *san*. Bu yerda o‘zakdan *-a* so‘z yasovchi ajratib olinadi hamda *san* stem bo‘lib qoladi. Lekin agglutinativ tillarda, jumladan, o‘zbek tilida, odatda, lemma stemga teng keladi hamda fleksiya holati morfoanaliz jarayoniga ko‘p xalaqit bermaydi.[1]

Morfoanalizda faqat lemmatizatsiya jarayonining o‘zi kamlik qiladi, bunda stemmingning ham o‘z o‘rni bor. Xususan, internetda qidiruv sifatini yaxshilashda stem asosiy omil bo‘ladi, ya’ni qidiruv lemma asosida emas, stem asosida amalga oshiriladi.[2] Demak, morfologik tahlilda kompyuterning so‘zshaklni tushunishi bilan ish bitmaydi, ya’ni, belgilar ketma-ketligining kompyuter tomonidan farqlanishi etarli bo‘lmaydi. So‘zshaklning paradigmadagi barcha a’zolaridan farqini topish jarayoni bilan tahlil tugamaydi. Balki so‘zshaklning turkumga xosligi (tagging) hamda morfologik belgilarini topish ham asosiy vazifa, grammatik ma’nosini bildiruvchi qo‘shimchalar (kompyuter modellari) muayyan leksemaning shakl yasovchilari hamda uning paradigma a’zosi sifatida shakllantirilsa, maqsadga muvofiq. So‘zlardagi leksik-morfologik omonimiya holatini aniqlash uchun so‘zshaklga morfologik belgilarni to‘g‘ri biriktirishi uchun gapning sintaktik hamda semantik xususiyatiga tayaniladi. Xullas, avtomatik hamda inson omili bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bu kabi jarayonlarning avtomatik teglanishida qoidalar modullari ishga tushiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday qoidalar majmui, ya’ni, gapda so‘z turkumlari va gap bo‘laklarining tartibini aniqlash orqali omonimiyani farqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Sh.Hamroyevaning monografiyasida morfologik analizator tuzishning uch usuli sanab o‘tiladi:[3]

1) lug‘atga asoslangan analizator;

2) lug‘atsiz grammatik qonuniyatlar majmuiga asoslangan analizator;

3) lug‘at va grammatik qoidalar bazasiga asoslangan analizator.

Bunda Oltoy oilasiga kiruvchi tillar orasida singarmonizm hodisasi nisbatan keng tarqalgan qirg‘iz tili qoidalari hamda dalillariga tayanganligiga va to‘rt bosqichda amalga oshirilishiga guvoh bo‘lamiz:

1) kirish matni so‘zlarini grammatik shakllarga ajratish;

2) so‘zni lemmatizatsiyalash, ya’ni asoslar lug‘atidan, so‘zning leksema shaklini topish, aniqlash;

3) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar zanjirini aniq qismlarga ajratish;

4) har bir affiksning morfologik belgisini aniqlash.

Tadqiqotchi tomonidan morfologik analizatorning mohiyatini tushuntirish uchun o‘zbek va qirg‘iz tili dalillarini qiyoslanganligini ko‘ramiz. Masalan, baldar (bolalar) so‘zshakli tahlil qilinayotganda, morfologik analizator bu shakl *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilgan bola asosidan hosil bo‘lganligini aniqlashi kerak. Asosga *-lar* qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida qirg‘iz tilidagi singarmonizm hodisasi *bala* asosidagi oxirgi harfning tushib qolishiga olib kelgan. Bunday holatda analizator so‘zni lemmalashi, qo‘shimchadan oldingi asosni avtomatik aniqlashi lozim. Bunda asoslar lug‘ati qidiruvi ishga tushiriladi. Kitobim so‘zshaklini tahlil qilishda morfologik analizator uning kitob so‘ziga *-im* egalik shakli qo‘shilganligini aniqlashi lozim: kitob asos ekanligi aniqlanadi. Qirg‘iz tilida kitebim egalik shaklidagi so‘z kitep o‘zagiga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda -im qo‘shimchasi ta’sirida jarangsiz *p* jarangli *b* tovushiga aylanadi. Bunday holatda asoslar lug‘ati qo‘shimcha qoidalar bilan ta’minlanadi. O‘zbek tilida fonetik o‘zgarishlarning katta miqdorni tashkil etmaganligi morfologik tahlil jarayonida algoritmlar bosqichini qisqartirishi mumkin. Ammo

[1] Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент, ClobeEdit, 2020.

[2] Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская АА. Автоматический морфологический анализ. Фонд знаний «Ломоносов», М., 2011.

[3] Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент, ClobeEdit, 2020, 60-бет.

fonetik o‘zgarish uchraydigan holatda xuddi qirg‘iz tili kabi o‘zgarishga uchragan so‘zning o‘zagini aniqlash jarayoni 2–3-bosqichli algoritmda amalga oshiriladi.[1]

Bundan shunday xulosaga kelinadiki, o‘zbek tili morfologik analizatori tuzishning lingvistik ta’minotini ishlab chiqish tamoyillari orasida mana shu qoidalar bloki – lingvistik modulni shakllantirishning asosiy vazifasi sanaladi.

Morfologik analizatorda morfologik ma’lumotlar bazasini yaratish ham muhim. Bunda foydalanuvchi ehtiyoji talabiga javob beradigan keng ko‘lamli ma’lumotlar majmui nazarda tutiladi. Ushbu ma’lumotlar saralanadi, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi tomonidan boshqariladigan jadval shaklida saqlanadi. Hozirgi vaqtda ma’lumotlar bazasi bilan ishlashga mo‘ljallangan ko‘plab tizim mavjud: SQL, MySQL, Oracle, Accss. Katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash doim ham qiyin kechadi, vaholanki, har bir tizimning o‘ziga xos afzalligi mavjud.

Morfologik tahlilni, amalga oshirish uchun, tabiiy tilni sinab ko‘rish va taklif qilingan algoritmni tekshirish maqsadida Embarcadero RAD Studio sinov dasturi yaratildi, ushbu analizatorda Access ma’lumotlar bazasi bilan ishlash tizimidan foydalanilgan. Mazkur analizator ma’lumotlar bazasining uch jadvali (asos, qo‘shimcha va so‘z turkumi) hamda ushbu jadvallar o‘rtasidagi munosabatdan iborat.

Tadqiqotchi Sh.Hamroyevaning ta’kidlashicha, mukammal morfologik analizator yaratish qiyin. Shunday bo‘lsa-da, morfologik analizator tuzish uchun quyidagi algoritmni amalga oshirish nisbatan aniq tahlilni amalga oshiruvchi analizator yaratishga asos bo‘la oladi:[2]

1) so‘zning grammatik shakli freym-modelini yaratish. Bunda ko‘makchi morfema kategoriyasining to‘g‘ri aniqlanishi uchun turkumga oid qo‘shimchalar jadvali tuzish nazarda tutiladi;

2) analizator tuzishda kompyuter xotirasiga murojaat sonini kamaytirishga mo‘ljallangan algoritmlar ishlab chiqish;

3) sinov dasturi ishlab chiqish, natijalarni unda tajribadan o‘tkazish.

Yana bir tadqiqotchimiz K.Shadmanovaning ta’kidlashicha, tizimli dasturning nazariy asoslaridan biri – formal til nazariyasi. Bu nazariya o‘zining matematik tushunchalari bilan oddiy dasturchiga murakkab tuyuladi, lekin tizimli dastur shunday nazariya asosida yaratiladi. Har qanday dasturiy interfeys biror-bir formalizmga, formalizm esa formal til nazariyasiga tayanadi. Umuman olganda, ixtiyoriy tilda (forma yoki tabiiy) tuzilgan gap mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi uchun u quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:[3]

1) so‘zlar alifbo talabiga mos yozilgan bo‘lishi (morfologiya, leksika);

2) gap qurilishida grammatik xatoga yo‘l qo‘ymaslik (grammatik, sintaktik);

3) gap mazmuniy qurilishi (semantika)ning to‘g‘riligi.

Turkiy tillarning morfologik analizatorlarini ishlab chiqish o‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan,[4] dastlabki analizatorlarning asosiy xususiyati shunda ediki, ular aynan bitta tilga mo‘ljallanmagan: bir morfoanalizatorni boshqa tilga moslashtirish mumkin. Chunki dasturga morfotaktik qoidalar biriktirilgan, qoidalar tizimi tilning leksikon hamda affiksal morfemalari bilan to‘ldirilsa, boshqa tilning analizatori sifatida ishlatish imkoni paydo bo‘ladi, boshqa tilning analizatorini yaratish uchun alohida kodlar yozishga zarurat mavjud emas. O‘shandan hozirgi davrga qadar texnologiyalar o‘zgardi, turkiy tillarning universal morfologik analizatorlari yaratildi, lug‘atlar hajmi, ma’lumotni qayta ishlash tezligi oshdi. Turkiy tillar morfoanalizatorini ishlab chiqish harakati boshlanganiga 50 yildan oshganiga qaramasdan, bu soha o‘sishi haligacha turkiy tillarning barchasida turli darajada. Tatar, boshqird, qozoq, chuvash, turk, xakas tillari hamda universal morfologik analizator haqidagi ishlar fikrimizni qo‘llab-quvvatlaydi.

Adabiyotlarda avtomatik tahlilning stemming, so‘zshaklning lug‘at asosidagi tahlili, mantiqiy yondashuv asosidagi tahlil, jadval[5] asosida, lug‘atsiz tahlil kabi turlari ko‘rsatiladi. Mutaxassislar avtomatik morfologik tahlil stemmatizatsiya, lemmatizatsiya, grammemalash kabi asosiy bloklardan tashkil topishini uqtirishadi.[6]

---

[1] Ўша манба. 60–61-беттар.

[2] Ўша манба. 63 бет.

[3] Шадманова К. Табиий тиллар учун лексико-семантик луғат маълумотлар базаси яратиш тамойиллари //http://buxdu.uz/index.php/uz/.

[4] Халитова Н.А., Закирова Р.А., Гимадудтинова Р.У. Морфологический анализ при машинном переводе с татарского языка на русский. Версятностные методы и кибернетика. Сборник работ НИИММим. Н.Т.Чеботарева при Казанском университете, Учен. зап. Казан.ун-та, 122, № 4, Казань, изд-во Казанского ун-та, 1962, с. 98–105.

[5] Марчук Ю. Компьютерная лингвистика. Москва, МГУ, 2006, с. 65.

[6] Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.

Stemmatizatsiya (yoki stemming ing. stemming so‘zidan) – qidiriliyotgan so‘zning asosini topish jarayoni, bunda har qanday stem (so‘zshakl asosi) qidirilayotgan so‘zshaklning grammatik asosiga teng bo‘lishi shart emas: tahlil jarayonida bir paradigmaga mansub so‘zshakllarning bitta stem sifatida ko‘rsatilishi ma’lum stem(asos)ni aniqlash uchun etarli. M.Abjalova ushbu jarayonni shunday tavsiflaydi: “Stemming, asosan, foydalanuvchining so‘rovi bo‘yicha izlanishni kengaytirish maqsadida qidiruv tizimlari uchun qo‘llanadi, matnni me’yorlashtirish jarayon qismi. So‘z asosini topishning muayyan usuli stemming algoritmi, uning amalga oshirilishi, ya’ni dasturning o‘zi stemmer deyiladi.[1]

Lemmatizatsiya so‘zshaklni lemmaga keltirish jarayoni bo‘lsa, lemma so‘zning asosiy shakli, leksema. Demak, lemmatizatsiya jarayoni ko‘proq flektiv tillar uchun ahamiyatli, chunki agglyutinativ tillarda, odatda, so‘zning "stem"i leksemaga teng bo‘ladi. Faqat fleksiyaga uchragan so‘zshaklda lemma va stemning mos kelmaslik holatlari kuzatiladi. Masalan, ot, olmosh uchun lemma birlik son, bosh kelishikdagi shakl: bola, men; sifatning oddiy daraja ko‘rinishi – katta, yorug‘; ravish, son hamda yordamchi so‘zlarning lemmasi ularning lug‘atdagi shakliga teng kelishini aytishimiz mumkin.

Grammemalash (teglash ing. gavetg so‘zidan) so‘zshaklga grammatik xarakteristika (grammatik belgi) yozish demak. Grammema (grammatik xarakteristika) – so‘zshaklning ma’lum morfologik sinfga mansubligini ko‘rsatuvchi sodda morfologik ko‘rsatkich.[2]

Grammema atamasiga rus tilining o‘zlashma so‘zlar lug‘atida shunday ta’rif beriladi: “grammema (ing.tagging) – sintaktik shakl yasovchi morfema yoki yordamchi so‘z vositasida (mas., ko‘makchi) ifodalanadigan grammatik ma’no; ikki (hatto undan ham ortiq) grammema bir morfema orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan, zamon ko‘rsatkichi xabar maylini ham bildiradi: keldi (o‘tgan z., xabar m., aniq n.). Faqat bitta belgisi bilan farq qiluvchi grammema (masalan, birlik va ko‘plik) bitta grammatik kategoriyani shakllantiradi”.[3] V.A.Plungyannin grammemani quyidagicha ta’riflaydi: “Grammema (ing. grammeme) grammatik kategoriya elementlaridan biri bo‘lgan grammatik ma’no bo‘lib, bir grammatik kategoriyaning turli grammemalari bir-biridan farqlanadi hamda bir paytda ifodalana olmaydi. Rus tilida birlik va ko‘plik son kategoriyasining grammemasi, albatta, so‘zda yoki unisi, yoki bunisi voqelanadi, lekin ikkalasi emas. Shuningdek, grammatik ko‘rsatkich ham grammema deyiladiki, grammema morfologik kategoriyani tashkil etuvchi morfologik shakllar bilan ifodalanadi, shuningdek, sintaktik shakl bilan ifodalanuvchi grammema ham uchraydi. K.Payk tomonidan taklif qilingan grammema atamasi, A.A.Zaliznyak tomonidan an’anaviy lingvistik terminga aylantirildi.[4]

Olimlarning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammema grammatik ma’no, u grammatik kategoriyaning elementi, grammatik shakl bilan ifodalanadi. Masalan, *stol* lemmasining stol so‘zshakliga quyidagi grammemalar yig‘indisi biriktirilishi mumkin: (mr, ed, im, neod). Biroq turkiy tillarda grammema biriktirishning bu tartibi amal qilmaydi, chunki bitta morfema, ko‘pincha, bir grammemaga to‘g‘ri keladi; aynan bir morfema bir so‘zshaklda qayta-qayta kelishini til materiallari qo‘llab-quvvatlaydi.

Morfoanalizatorda ishlatiladigan asosiy til birliklari sifatida quyidagilar ajratiladi:

1) morf – elementar segment belgi: shaklan tasodifan o‘xshash bo‘lgan aynan bir morfologik xususiyatga ega bo‘lgan minimal hodisa;

2) allomorf – bir morfemaning bir xil fonetik tarkibga ega bo‘lgan morflar yig‘indisi. Allomorfning asosiy xususiyatlaridan biri allomorf kontekstini tavsiflovchi xususiyati, u ikkiga: allomorfning so‘zshakl chegarasidagi konteksti hamda allomorfning so‘zshakl chegarasidan tashqaridagi kontekstiga bo‘linadi;

3) so‘zshakl – tarkibiy qismlari orasida morfotaktika orqali aniqlanadigan aloqa mavjud bo‘lgan allomorflar ketma-ketligi;[5]

Хусаинов. Формальные модели и програмные инструменты компьютерной обработки татарского языка. Казань, Академии наук, 2019, с. 39–40.

[1] Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун). Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс ер., Фарғона, 2019, 29-бет.

[2]Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и програмные инструменты компьютерной обработки татарского языка. Казань, Академии наук, 2019, с. 39–40.

[3] Словарь иностранных слов русского языка/ dic. Academic/ru>dic>nsf>die_fwords> граммема.

[4] Плунгян В.А. Классификация морфологических значений и общая морфология. Введение в проблематику: Учебное пособие, изд. 2-е, исправленное, Москва, Едиториал УРСС, 2003, с. 107.

[5] Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э., А.Ф. Хусаинов. Формальные модели и програмные инструменты компьютерной обработки татарского языка.

4) morfema – tilning so‘zni tashkil etuvchi eng kichik ma’noli birligi; u bitta vazifani bajaruvchi, turli umumiy, o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan morf (allomorf)lar yig‘indisidan iborat bo‘ladi;

5) birikish qoidalari – morfoanalizator ishini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri. Bu qoidalar oddiy elementdan nisbatan murakkab birliklarni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, turkiy tillarning ko‘ptilli polifunksional internet-servis dasturi morfoanalizator birikishlar qoidasining ikki tipi: bir so‘zshakl ichidagi birikish qoidalari; “analitik shakllarni keltirib chiqaruvchi birikish qoidalari bilan “ish ko‘radi”.[1] Bunday qoidalarning mavjudligi morfoanalizator ish jarayonida algoritmlar ketma-ketligini kamaytiradi, jarayonni soddalashtiradi. Demak, o‘zbek tili morfoanalizatorini ishga tushirish uchun morf, allomorf, so‘zshakl, morfema va birikish qoidalari kabi muhim birliklar ajratilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун). Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссер., Фарғона, 2019, 29-бет.

(2). Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Москва, МИЭМ, 2011, с. 106–107.

(3). Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и програмные инструменты компьютерной обработки татарского языка. Казань, Академии наук, 2019, с. 39–40.

(4). Марчук Ю. Компьютерная лингвистика. Москва, МГУ, 2006, с. 65.

(5). Плунгян В.А. Классификация морфологических значений и обшая морфология: Введение в проблематику: Учебное пособие. Изд. 2-е, исправленное. Москва, Едиториал УРСС, 2003, с. 107.

(6). Словарь иностранных слов русского языка/ dic. Academic/ru>dic>nsf>die_fwords> граммема/

(7). Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская АА. Автоматический морфологический анализ. Фонд знаний «Ломоносов», М., 2 011.

(8). Халитова Н.А., Закирова Р.А., Гимадудтинова Р.У. Морфологический анализ при машинном переводе с татарского языка на русский. Версятностные методы и кибернетика. Сборник работ НИИММим. Н.Т. Чеботарева при Казанском университете, Учен. зап. Казан. ун-та, 122, № 4, Казань, изд-во Казанского ун-та, 1962, с. 98–105.

(9). Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингивистик таъминоти. Тошкент, ClobeEdit, 2020, 60-бет.

(10). Шадманова К. Табиий тиллар учун лексико-семантик луғат маълумотлар базаси яратиш тамойиллари //http://buxdu.uz/index.php/uz/.

(11). Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике. Москва, “Наука”, 2013, с. 43.

(12). sehttp://www.solarix.ru/for developers/docs/morphology analyzer.shtml.

Otaxonova Sohiba (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti)

NUTQ AKTLARIDA ANTROPONIMLARNING PERLOKUTIV TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutq aktlarida antroponimlarning perlokutiv ta’siri masalasi yoritiladi. Antroponimlarning nafaqat nominativ, balki kontekstdagi kommunikativ va kumulyativ funksiyalari tahlilga tortiladi. Pragmatik yondashuv orqali esa aynan shu til birliklarining kontekstda qanday ma’no kasb etishini, qanday illyokutiv va perlokutiv ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Maqolada ayrim matnlardan olingan misollar mavzuni to‘liqroq ochib berish uchun xizmat qilgan.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, lingvopragmatika, onomastika, kommunikativlik, perlokutiv akt, kontekst.*

ПЕРЛОКУТИВНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ АНТРОПОНИМОВ В РЕЧЕВЫХ АКТАХ

Аннотация. *В настоящей статье рассматривается перлокутивное воздействие антропонимов в речевых актах. Анализируются не только номинативные, но и коммуникативные и кумулятивные функции антропонимов в контексте. С прагматической точки зрения изучается, какое значение приобретают эти языковые единицы в конкретной речевой ситуации, а также каким иллокутивным и перлокутивным эффектом они обладают. Приведённые примеры из различных текстов способствуют более полному раскрытию темы и иллюстрируют особенности функционирования антропонимов в реальной коммуникации.*

Казань, Академии наук, 2019, с. 39–40.

[1] Ўша манба. 39–40-бетлар.

Ключевые слова: *антропоним, лингвопрагматика, ономастика, коммуникативность, перлокутивный акт, контекст.*

PERLOCUTIONARY EFFECT OF ANTHROPONYMS IN SPEECH ACTS

Annotation. *This article explores the perlocutionary effect of anthroponyms within the framework of speech act theory. It analyzes not only the nominative function of anthroponyms but also their communicative and cumulative roles in context. Through a pragmatic approach, the study investigates how these linguistic units acquire meaning in specific contexts and how they generate illocutionary and perlocutionary effects. Examples drawn from literary and social texts are used to provide a deeper understanding of the topic.*

Keywords: *anthroponym, linguistic pragmatics, onomastics, communicativity, perlocutionary act, context.*

Kirish. Til faqat aloqa vositasi emas, balki ma'no yaratishning kuchli tizimi hisoblanadi. Antroponimlar, ya'ni insonlarga beriladigan ismlar bu tizimda muhim ijtimoiy-madaniy yuklamaga ega birliklardir. Ular nafaqat nomlash, balki muomala, baholash, kinoya qilish, hurmat yoki tahqir ifodalash kabi turli kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Pragmatika esa aynan shu til birliklarining kontekstda qanday ma'no kasb etishini, qanday illyokutiv va perlokutiv ta'sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Zamonaviy tilshunoslikda antroponimlarning o‘rganilish doirasi nafaqat ularning nominativ funksiyasi bilan cheklanmay, balki ularning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish zarurati bilan belgilanmoqda. Bu yondashuv tilshunoslikda ustuvor bo‘lib borayotgan antropotsentrik paradigma bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda til hodisalari inson faoliyati va ongining markaziy mezoni sifatida qaraladi. Xususan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tuzumlarning keskin o‘zgarishi kuzatiladigan tarixiy burilish davrlarida til birliklari, jumladan, antroponimlar semantik va pragmatik qatlamlarida yuzaga keladigan dinamik o‘zgarishlar til va madaniyat o‘zaro ta'sirining yangi qirralarini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada kognitiv-pragmatik, kontekstual va lingvostilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy adabiyot, publitsistik matnlar va reklama matnlari tanlab olindi. Misollar, asosan, o‘zbek tili materiallari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, rus tilshunosligidagi ayrim ilg‘or nazariy manbalar ham solishtirma tahlil uchun jalb qilindi.

Perlokutiv akt nutqiy akt nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lib, u so‘zlovchining nutqi orqali tinglovchida yuzaga keladigan ta'sirni ifodalaydi. N.Arutyunova [12], A.Doroshenko [13], G.Matveyeva [8] kabi tilshunoslar ishlarida perlokutiv akt haqida qarashlar mavjud. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham nutqiy ta'sir muammosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, E.Ibragimov [6], D.Mamirova [5] larning tadqiqotlarida yoshlar nutqi, reklama matnida nutqiy ta'sir masalasi haqidagi muhim xulosalar mavjud. E.E.Qurbonovning dissertatsiyasida nutqiy ta'sir masalasi, asosan, kognitiv mezonlar, pragmalingvistik va psixolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. O‘zbek tilshunosligida M.Hakimov [10] va Sh. Safarovlar [3] tomonidan perlokutiv akt masalalari nazariyasi jihatdan atroflicha o‘rganilgan. M.Qurbonova tomonidan bolalar kommunikativ muloqotida perlokutiv aktning voqelanishi tahlil qilingan [7]. Sh. Yusupovaning tadqiqotida diniy nutqda perlokutiv aktning intonatsion xususiyatlari, intonatsiyaning perlokutiv akt hosil bo‘lishidagi ahamiyati yoritilgan [11]. Z.Madumarova tomonidan perlokutsiya, ya'ni nutqiy ta'sir ko‘rsatishning usul va vositalari o‘rganilgan [2]. Tilshunoslikda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish ularning muloqot jarayonidagi ta'sirchanligini, ya'ni qanday perlokutiv natija berishini anglashni taqozo etadi. Nutq aktlari nazariyasi doirasida perlokutiv akt bu tinglovchiga qandaydir hissiy, psixologik yoki ijtimoiy ta'sir ko‘rsatishga qaratilgan harakatlardir. Antroponimlar esa bu ta'sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi [9].

Antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari tilshunoslikda bir necha yillardan beri o‘rganib kelinmoqda. Нина Германовна Рогозинниковaning “Антропонимическая формула и ее стилистические функции в см” maqolasida antroponimik formula va uning ommaviy axborot vositalaridagi stilistik funksiyalari haqida fikr bildiriladi. Zamonaviy jurnalistik matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxs nomlari – antroponimlar – matnga nafaqat ma'lumot, balki stilistik boylik, baholovchi munosabat, ijtimoiy signallarni olib kiradi. Muallif N.G.Rogozinnikova o‘z maqolasida rus tilidagi OAV materiallarida antroponimlarning qanday stilistik funksiyalarni bajarayotganini tahlil qiladi.

Tahlil va natijalar. Matn tarkibida antroponimlar ko‘p hollarda o‘ziga qo‘shimcha ma'no yuklaydi. Komik effekt beruvchi ekspressiv antroponimlar esa kinolarda keng qo‘llanadi: “Boyvachcha” filmidagi personajlar nomlari (masalan, Sultonboy, Qo‘ng‘iroqboy) orqali ularning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi yoki stereotipik ko‘rinishlari ifodalanadi. Bu esa kommunikatsion jarayonda tinglovchining (yoki tomoshabinning) shaxsga yoki vaziyatga nisbatan munosabatini shakllantiradi.

Bu jihatlar shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar bu oddiy nom emas, balki murakkab pragmatik yuklamaga ega bo‘lgan til birliklari bo‘lib, ular muloqotning semantik emas, aynan kommunikativ-sotsial qatlamida faol ishtirok etadi. Antroponimlar shunchaki identifikatsiya vositasi emas, balki ma’lumot tashuvchidir. Ular kontekstga qarab *iliqlik, masofa, e’tirof,tanbeh, hazil yoki kinoya* ifodalaydi.

Aslida, atoqli otlar semantik ma’nosini yo‘qotgan bo‘lsa ham, ularning ba’zilari o‘zi mansub qatlam uchun juda tanish va umumiy mazmunga ega. Lingvokulturologiyadan ma’lumki, ismlar o‘zining semantik ma’nosini yo‘qotadi va ba’zan ism egasining ayrim xususiyatlarini tashuvchisi hisoblanadi. Matn ichida ishlatilgan paytda u so‘zlovchi va tinglovchi uchun yaxshi tanish bo‘lgan ana shu mazmunni ifodalaydi. Masalan, “Sinfimizning Alpomishi bugun navbatchilik qiladi”. Bu yerda Alpomish, aslida, navbatchi o‘quvchining haqiqiy ismi emas, lekin butun sinf uni Alpomish sifatida biladi. Bu o‘rinda antroponim so‘zlovchi va tinglovchi uchun birdek tanish. Shu orqali muloqot jarayonida muammo yuzaga kelmaydi. Qolaversa bu o‘rinda Alpomish antroponimi orqali nazarda tutilayotgan shaxsning tashqi ko‘rinish jihatidan baquvvatligi yoki aksincha, kinoya shaklida ishlatilgan bo‘lsa, nisbatan nimjon ekanligini ifodalashi mumkin. Har ikki holatda ham matn ichida qo‘llanilayotgan birlikning so‘zlovchi va tinglovchi uchun mazmun jihatdan tushunarliligi muloqot jarayonining muammosiz bo‘lishini ta’minlaydi. Bilamizki, matnning badiiy qiymatini oshirish uchun va nutq jarayonida ko’plab ma’no ko‘chishlaridan foydalaniladi. Tilshunoslikdagi ma’no ko‘chish usullaridan biri bo‘lgan metonimiya hodisasi ko‘p o‘rinlarda antroponimlar bilan bog‘liqligini kuzatamiz. Masalan, “Navoiyni tugatdim” yoki “Bedilni o‘qimoq” kabi jumlalarda ma’no ko‘chishi aynan antroponimlar vositasida sodir bo‘lgan. Matn ichida buni tushunish uchun tinglovchi Navoiy va Bedilni bilishi muhim. Bu o‘rinda asar va uning muallifi o‘rtasida yuzaga kelgan integratsiya tufayli ma’no ko‘chishi hosil bo‘ladi. Antroponim esa kontekst ichida o‘ziga qo‘shimcha vazifa oladi. Antroponimlar matn ichida nafaqat shaxsni, balki umumiy xususiyatga ega shaxslar guruhini ham nomlab kelishi mumkin. Masalan, zamonamiz farhodlari, qishlog‘imiz shirinlari” kabi birikmalarda antroponimning so‘zlovchi va tinglovchi, qolaversa, shu madaniyat vakillari uchun tanish bo‘lgan ma’nosi butun bir shaxslar guruhini nomlab kelganini kuzatishimiz mumkin. Farhod antroponimi o‘zida “mard va jasur, yengilmas oshiq yigit” semasini jamlagan. Demak, zamonamiz farhodlari deyish orqali ana shunday jihatga ega bo‘lgan yigitlar nazarda tutiladi. Quyidagi matnda esa antroponimning boshqacha mazmun uchun xizmat qilganini kuzatishimiz mumkin.

…Konchilik mashaqqatli bo‘lishi bilan birga, sharafli kasbdir. Bugungi kunda Qizilqum sahrosida fidokorona mehnat qilayotgan zamonamiz farhodlari buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy o‘z asarlarida tarannum etgan, insonlarni baxtli va farovon yashashi haqidagi orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarmoqda (Quvondiq Sanaqulov, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi) [1].

Bu o‘rinda zamonamiz farhodlari deyish orqali tog‘-kon sohasida faoliyat yurituvchi yigitlar nazarda tutilgan. Farhod antroponimidan foydalanish orqali tinglovchilarga kuchli ta’sir o‘tkazish nazarda tutilgan. Matnda boshqa so‘zlardan ham foydalanish o‘rinli bo‘lishi mumkin edi. Masalan, bahodir, arslon, tulpor shunqor va hokazolar. Lekin aynan Farhod antroponimi bu yerda nutqning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, she’riy matnlarda ham antroponimlardan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda intertekstuallik atamasi bilan yuritiluvchi bu hodisada antroponimning o‘quvchi uchun oldindan tanishligi va o‘zida ayrim madaniy kodlarni jamlaganligi muhim hisoblanadi. Ayrim ilmiy ishlarda, jumladan, M. Karimovaning “Antroponimlarning badiiy matnda alluziv nom sifatida qo‘llanilishi” maqolasida bu mavzuga alohida to‘xtalib o‘tgan [4] …Alluziya–badiiy adabiyotda tarixiy voqea, shaxslar, diniy, mifologik rivoyatlarga, asosan, retsipientga ma’lum va mashhur narsalarga ishora qilish. Bunda retsipientning xabardorlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Antroponimlar perlokutiv aktlarda ta’sirchanlikni kuchaytiradi, ya’ni tinglovchiga ta’sir etish, e’tiborini jalb qilish, muloqot muhitini shakllantirishda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Shu asosda antroponimlar til pragmatikasida universal hodisa bo‘lishi bilan birga, milliy-madaniy tafovutlarni ifodalovchi pragmatik birlikdir. Ular orqaligina nutqda kuchli psixologik va kommunikativ effektlar yaratiladi. Shu bois bunday tahlillar lingvopragmatik tadqiqotlar doirasini kengaytiradi, ayniqsa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatlararo muloqotda dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://yuz.uz/uz/news/hazrat-navoiyning-orzulari-royobga-chiqmoqda?utm_source
(2). Madumarova Z. O‘zbek tilida perlokutsiya. Filol.fan. b. fals. d-ri (PhD) diss…, Andijon, 2023.
(3). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.
(4). https://tilvaadabiyot.uz/f/elektron_jurnal_6-son_2023.

(5). Ma’mirova D. Reklama matnlarining o‘ziga xos xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar. Xorijiy filologiya. Samarqand, 2021, 24–27-betlar.
(6). Ибрагимов Э. Ёшлар дунёқарашини бошқариш сабаблари ва йўллари // https://elibrary.ru/default.asp.
(7). Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри (DSc) дисс., Тошкент, 2018.
(8). Матвеева Г., Ленец А., Петрова Е. Основы прагмалингвистики. М., 2014.
(9). Нина Германовна Рогозинникова. Антропонимическая формула и ее стилистические функции в см journal.fledu.uz N6/2019, с. 72–86.
(10). Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фан. д-ри. дисс., Тошкент, 2018; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент, 2013; Ҳакимов М. Нутқий актлар назарияси. Фарғона, 2020.
(11). Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) дисс …, Фарғона, 2021.
(12). Арутюнова Н. Предложение и его смысл. М., 1976.
(13). Дорошенко А. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах. Логический анализ языка. М., 1989.

Eshchanov Zakir Xudayarovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; zakir.eshchanov1980@gmail.com)

YOZUV VA DAVLAT SIYOSATI: TURKIY TILLI MAMLAKATLARDA YOZUV O‘ZGARISHINING SIYOSIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozuv tizimlarining o‘zgarishi turkiy tilli mamlakatlar misolida siyosiy jarayonlar kontekstida tahlil etiladi. Yozuv faqat lingvistik hodisa emas, balki ideologik, madaniy va siyosiy vosita sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston kabi davlatlarda yozuv islohotlarining siyosiy sabab va oqibatlari tahlil qilinadi. Milliy identitet, mustaqillik va modernizatsiya bilan bog‘liq siyosiy yondashuvlar yozuv siyosatining shakllanishida qanday rol o‘ynagani ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *yozuv siyosati, turkiy xalqlar, siyosiy islohot, milliy identitet, lotin alifbosi, kirill yozuvi, madaniy meros.*

Эшчанов Закир Худоярович (аспирант базовой докторантуры Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруний; E-mail: zakir.eshchanov1980@gmail.com)

ПИСЬМЕННОСТЬ И ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА: ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗМЕНЕНИЯ ПИСЬМЕННОСТИ В ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ СТРАНАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются политические основания изменений письменности на примере тюркоязычных стран. Письменность рассматривается не только как лингвистическое явление, но и как важный инструмент идеологического и культурного воздействия. Особое внимание уделяется анализу реформ алфавита в Узбекистане, Азербайджане, Казахстане и Туркменистане, а также политическим мотивам, стоящим за этими реформами. В центре внимания – роль письменности в формировании национальной идентичности и государственной независимости.*

Ключевые слова: *языковая политика, тюркоязычные народы, политические реформы, национальная идентичность, латиница, кириллица, культурное наследие.*

Zakir Khudayarovich Eshchanov (PhD student basic doctoral student at Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni; E-mail: zakir.eshchanov1980@gmail.com)

SCRIPT AND STATE POLICY: POLITICAL FOUNDATIONS OF SCRIPT CHANGE IN TURKIC-SPEAKING COUNTRIES

Annotation. *This article explores the political foundations behind script changes in Turkic-speaking countries. Script is analyzed not merely as a linguistic phenomenon but as an ideological and cultural instrument. The study focuses on the alphabet reforms in Uzbekistan, Azerbaijan, Kazakhstan, and Turkmenistan, discussing their political motivations and consequences. Special attention is given to how script reforms have shaped national identity, reflected modernization efforts, and contributed to cultural and political transformation in post-Soviet contexts.*

Keywords: *script policy, Turkic peoples, political reform, national identity, Latin alphabet, Cyrillic script, cultural heritage.*

Kirish (Introduction). Til insoniyat tarixidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, uning yozma shakli madaniy merosni saqlash, avlodlararo aloqa va ijtimoiy-siyosiy tizimlarning barqarorligini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Yozuv tizimi nafaqat lingvistik hodisa, balki siyosiy, ideologik

va madaniy kod sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli yozuvdagi har qanday o‘zgarishlar ortida muayyan siyosiy motivlar va ijtimoiy-ideologik omillar yashiringan bo‘lib, ular davlat siyosati, milliy identitet va madaniy meros siyosatining ajralmas qismi sifatida shakllanadi.

XX asr va undan keyingi davrlarda turkiy tilli mamlakatlar, xususan, sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan respublikalarda yozuv tizimi bir necha marotaba o‘zgargan. Bu o‘zgarishlar bevosita siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, yozuvdan yozuvga o‘tish harakati (arab yozuvidan lotin yozuviga, so‘ng kirill yozuviga va mustaqillikdan so‘ng yana lotin yozuviga qaytish) til siyosati, milliy identitet qurilishi va davlat suverenitetini mustahkamlash siyosatining ajralmas qismi sifatida amalga oshirilgan. Masalan, O‘zbekistonda 1920-yillar oxirigacha arab yozuvi qo‘llanilgan bo‘lsa, 1928-yildan boshlab lotin yozuviga, 1940-yildan esa kirill yozuviga o‘tildi. Mustaqillikdan so‘ng esa lotin yozuviga qaytish jarayoni boshlandi va bu harakatlar siyosiy mustaqillik, modernizatsiya hamda global integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Yozuv tizimining o‘zgarishi nafaqat til tuzilmasiga, balki madaniy meros, ta’lim tizimi, axborot vositalari va xalq ongiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Turkiy tilli mamlakatlarda yozuv o‘zgarishlari milliy g‘oya va madaniy identitetni shakllantirish, mustamlakachilik merosidan voz kechish va zamonaviy davlat qurish yo‘lidagi muhim siyosiy vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Ushbu maqolada yozuv tizimlarining siyosiy asoslari, ularning shakllanishiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi siyosiy omillar tahlil qilinadi. O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkmaniston kabi turkiy tilli mamlakatlar misolida yozuv o‘zgarishlarining siyosiy motivlari, ularning milliy g‘oya va madaniy identitetni shakllantirishdagi o‘rni, shuningdek, bu jarayonlarning ijtimoiy-madaniy oqibatlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yozuv tizimining siyosiy va madaniy funksiyalari masalasi tilshunoslik, sosiolingvistika, tarixiy sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi sohalarning kesishgan nuqtasida o‘rganiladi. Bu borada, eng avvalo, til va yozuvning milliy identitet shakllanishidagi o‘rni haqida yozgan B.Andersonning “Imagined Communities” (1983) asari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Anderson yozuvni «bosma kapitalizm» doirasida millatning tasavvuriy birlik sifatida shakllanishidagi tayanch omillardan biri sifatida ko‘radi. Bu g‘oya yozuv siyosatining mustaqillik va milliy o‘zlikni barpo etishdagi roli haqida chuqur mulohaza yuritishga asos yaratadi [1;240-b.].

Til siyosatining davlat siyosatidagi o‘rnini izohlagan J.Fishman (1972, 1991) ham muhim nazariy asos yaratgan. U tilni ijtimoiy stratifikatsiya, siyosiy boshqaruv va identitet siyosatining markazida deb baholaydi. Ayniqsa, Fishman til rejalashtirishni status rejalashtirish va korpus rejalashtirish deb ikki asosiy bosqichga ajratib, yozuv islohotlarini aynan status rejalashtirish doirasida ko‘radi. Bu holat, ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida yozuv almashinuvi siyosiy kuch vositasi sifatida qo‘llanilganini tushunishga xizmat qiladi [3;489-b.].

Mahalliy kontekstda esa O‘zbekiston yozuv siyosati bo‘yicha O.Yo‘ldoshev (2004), Z.M.Mamajonov (2001) va Sh.Inomov (2017) kabi olimlarning tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiq. Masalan, O.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotida yozuv islohotining faqat texnik emas, balki g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari borligini, bu jarayon milliy mafkura bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u mustaqillik davrida lotin yozuviga qaytishni modernizatsiya va globallashuvga moslashuv sifatida talqin etadi [4;5;6;176-b.].

Turkiy dunyo miqyosida esa Y.Akdog‘an (2011) va H.O‘zturk (2016) kabi turk olimlari lotin yozuvining umumturkiy integratsiya uchun ramziy va amaliy ahamiyatini asoslaydi. Ayniqsa, ularning ishlanmalarida turkiy mamlakatlar o‘rtasida madaniy yondashuv birligi va yozuv orqali o‘zaro anglashuvning osonlashuvi masalalari ilgari suriladi [7;210-b; 8;224-b.].

Qozog‘iston tajribasi bo‘yicha A.Smagulova (2008) o‘z tadqiqotida yozuv o‘zgarishining ijtimoiy qabul qilinishi, avlodlar o‘rtasidagi tafovut va ta’lim tizimiga ta’sirini tahlil qiladi. U yozuv siyosatini milliy birlik va post-sovet ongini shakllantirish kontekstida ko‘rib chiqadi [9;440–475-b.].

Lotin yozuviga o‘tishning siyosiy-mafkuraviy asoslarini tahlil qilgan xalqaro manbalar qatorida T. Kamusella (2009) “The Politics of Language and Nationalism in Modern Central Europe” asarida yozuv siyosatini milliy til siyosatining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadi va yozuvni hegemonik kuchlar o‘rtasidagi kurash maydoni sifatida tavsiflaydi [10;596-b.].

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozuv tizimidagi o‘zgarishlar har doim lingvistik zaruriyat natijasi emas, balki siyosiy ehtiyojlar, ideologik ustuvorliklar va identitet siyosatining ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy tilli mamlakatlar misolida bu jarayonlar milliy o‘zlikni tiklash, mustaqillikni mustahkamlash va madaniy tafakkurni yangilash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda yozuv tizimidagi o‘zgarishlarning siyosiy asoslari tarixiy-komparativ, diskursiv-analitik va sotsiopragmatik yondashuvlar asosida o‘rganildi. Yozuv til siyosatining muhim unsuri sifatida tarixiy kontekstda talqin qilinib, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkmaniston kabi turkiy mamlakatlar tajribasi ketma-ketlikda tahlil qilindi. Lotin-kirill-lotin almashinuvi har bir mamlakatda siyosiy qarorlar, qonunlar va mafkuraviy bayonotlar bilan bog‘lanib ko‘rib chiqildi. Yozuv siyosatining davlat diskursi orqali qanday asoslangani davlat rahbarlarining nutqlari, qonunchilik hujjatlari va OAV materiallari asosida diskursiv tahlil orqali aniqlandi. Shu bilan birga, yozuv almashinuvi jamiyat hayoti, madaniy meros va ta’lim tizimiga ta’siri nuqtayi nazaridan sotsiopragmatik tahlil doirasida baholandi. Asosiy manbalarni normativ-huquqiy hujjatlar, tarixiy ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar tashkil etadi. Ushbu manbalar tanqidiy yondashuvda tahlil qilinib, yozuv siyosatining siyosiy va madaniy-ideologik qatlamlari chuqur o‘rganildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yozuv tizimidagi o‘zgarishlar turkiy tilli mamlakatlarda milliy siyosatning markaziy komponenti sifatida qaraladi. Bu jarayonlar nafaqat lingvistik yoki texnik masala bo‘lib qolmay, balki mustaqillik, milliy identitet, davlat suvereniteti va modernizatsiya siyosatining muhim ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Turkiy mamlakatlar misolida yozuv siyosatining siyosiy-ideologik asoslari, amaliyotdagi tafovutlar va ularning ijtimoiy-madaniy oqibatlari ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilinadi.

O‘zbekiston tajribasi: siyosiy-mafkuraviy bosqichlar va amaliy muammolar. O‘zbekiston yozuv siyosatida Sovet davridan meros qolgan kirill yozuvidan mustaqillikdan keyin lotin yozuviga o‘tish jarayoni siyosiy va madaniy jihatdan eng chuqur ideologik asosga ega. 1940-yilda kirill yozuvi joriy etilishi rusifikatsiya siyosatining bir qismi sifatida amalga oshirilganligi haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud [11;78–85-b.]. Mustaqillikdan so‘ng, 1993-yilda lotin yozuviga qaytish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi milliy o‘zlikni tiklash, sovet merosidan ajralish va zamonaviy dunyo bilan integratsiyalashish siyosatining muhim qismi sifatida ko‘riladi [12;320-b.]. Biroq amaliyotda lotin yozuviga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilgani, tizimli muvofiqlashtirishning sustligi va avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Bu holat til siyosatining ijtimoiy qabul qilinishida qiyinchiliklar yaratdi, ayniqsa, qishloq joylarda va katta yoshdagi aholi orasida yangi yozuvni o‘zlashtirish sekin kechdi. Shunga qaramay, lotin yozuviga o‘tish siyosati O‘zbekiston jamiyatida mustaqillik va zamonaviylik ramzi sifatida ijobiy qabul qilinmoqda.

Ozarbayjon tajribasi: qat’iy siyosat va muvaffaqiyatli amalga oshirish. Ozarbayjon Respublikasi yozuv o‘zgarishini eng tez va qat’iy siyosat bilan amalga oshirgan davlatlardan biridir. 1992-yilda lotin yozuviga qaytish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinib, 2001-yilda yangi yozuv tizimi rasmiy ravishda joriy etildi [14;34–49-b.; 15;150-b.]. Ozarbayjon tajribasi turkiy birdamlikni mustahkamlash, sovet merosidan voz kechish va mustaqil axborot makonini yaratish maqsadlarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Davlat tomonidan barcha rasmiy hujjatlarda faqat lotin yozuvining qo‘llanishi qat’iy talab qilinishi, ta’lim va ommaviy axborot vositalarida yangi yozuv tizimining keng joriy etilishi muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo‘ldi. Bu siyosat milliy identitetni mustahkamlash va davlat suverenitetini namoyon etishda yozuv o‘zgarishining siyosiy vosita sifatida samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Qozog‘iston tajribasi: bosqichma-bosqich va murosali yondashuv. Qozog‘istonda yozuv siyosati ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Sobiq Prezident Nursulton Nazarboyev 2017 -yilda lotin yozuviga o‘tish tashabbusini ilgari surdi va bu jarayon 2025-yilgacha yakunlanishi rejalashtirilgan. Qozog‘iston tajribasi modernizatsiya, xalqaro raqobatbardoshlik va texnologik integratsiyaga moslashuvga asoslangan [16;112–120-b.].

Yozuv almashinuvi yosh avlod uchun zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashuv, internet va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, davlat ijtimoiy qarshiliklar va madaniy tafovutlarni inobatga olib, ko‘p bosqichli, murosali yondashuvni tanlagan. Bu yondashuv jamiyatning turli qatlamlari orasida yozuv o‘zgarishini qabul qilishni osonlashtirishga qaratilgan.

Turkmaniston tajribasi: markazlashtirilgan va ramziy yozuv siyosati. Turkmanistonda lotin yozuviga o‘tish 1993-yilda boshlangan va 2000-yillarga kelib rasmiy ravishda yakunlangan. Bu yozuv islohoti Saparmurod Niyozov siyosatining markaziy elementlaridan biri bo‘lib, sovet merosidan ajralish, milliy qadriyatlarni tiklash va davlat mustaqilligini mustahkamlash siyosiy vositasi sifatida xizmat qilgan [18; 280-b.]. Biroq Turkmanistonda axborot erkinligining cheklanganligi, siyosiy muhokamalarning cheklanganligi sababli, yozuv islohoti keng jamoatchilik tomonidan baholanmagan va ijtimoiy bahs-munozaralar-

dan chetda qolgan. Bu holat yozuv siyosatining markazlashtirilgan va ramziy xarakterini yanada kuchaytirdi.

Siyosiy asoslar va amaliy yondashuvlarning xilma-xilligi. Turkiy tilli mamlakatlarda yozuv almashinuvi jarayonlari umumiy tarixiy va madaniy ildizlarga ega bo‘lsa-da, ularning siyosiy asoslari va amaliy yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi. Ozarbayjon yozuv o‘zgarishini davlat suverenitetining qat’iy siyosiy vositasi sifatida amalga oshirgan bo‘lsa, Qozog‘iston ijtimoiy murosalar va bosqichma-bosqich yondashuvni tanlagan. O‘zbekiston esa siyosiy-mafkuraviy bosqichlarni hisobga olgan holda, yozuv siyosatini amalga oshirgan bo‘lsa, Turkmaniston tajribasi markazlashtirilgan va ramziy xarakterga ega.

Turkiy Mamlakatlarda Yozuv Islohotlari Jadvali

	Mamlakat	Islohot yillari	Siyosiy yondashuv	Amaliy muammolar	Natijalar
1	O‘zbekiston	1993 - hozirgacha	Ideologik qayta qurish; milliy o‘zlik va mustaqillik	Sekin o‘tish, avlodlararo tafovut, qishloqlarda qarshilik	Mustaqillik va zamonaviylik timsoli sifatida qabul qilinmoqda
2	Ozarbayjon	1992 - 2001	Qat’iy siyosat; Sovet merosidan tez ajralish	Davlat tomonidan qat’iy joriy etilishi muvaffaqiyat omili bo‘ldi	Milliy identitet va axborot mustaqilligini mustahkamladi
3	Qozog‘iston	2017 - 2025 (rejalashtirilgan)	Bosqichma-bosqich; ijtimoiy murosa va modernizatsiya	Raqamli savodxonlik va texnologiyaga moslashish, ijtimoiy e’tirozlar inobatga	Texnologik integratsiya va global raqobatbardoshlikka xizmat qilmoqda
4	Turkmaniston	1993 - 2000	Markazlashtirilgan va ramziy; davlat qurilishi siyosati	Axborot erkinligi cheklangan, ommaviy muhokamalar bo‘lmagan	Davlat nazorati ramzi; jamoatchilik ishtiroki cheklangan

Bu xilma-xillik yozuv siyosatining nafaqat lingvistik, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda ham chuqur ildiz otganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, yozuv o‘zgarishlarining muvaffaqiyati faqat siyosiy qarorlar va qonunlar qabul qilishda emas, balki ularning jamiyat tomonidan qabul qilinishi va amaliyotga samarali tatbiq etilishida ham namoyon bo‘ladi.



Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Turkiy tilli mamlakatlarda yozuv tizimidagi o‘zgarishlar tili modernizatsiya siyosatining ajralmas elementi sifatida davlat suvereniteti va milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Har bir mamlakatda bu jarayon turlicha yondashuv bilan olib borilgan bo‘lsa-da, umumiy maqsad – sobiq mustamlaka merosidan voz kechib, global integratsiyaga mos yozuv tizimini joriy etish bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosli va dolzarb takliflar ilgari suriladi:

1. **Yozuv siyosatida ijtimoiy integratsiyaga asoslangan yondashuv qo‘llanishi lozim.** Yangi yozuv tizimi aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, katta yoshdagilar va qishloq aholisi ehtiyojlarini hisobga olgan holda joriy etilishi kerak. Bu esa siyosiy islohotlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlaydi.

2. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kompleks foydalanish islohot samaradorligini oshiradi.** Lotin yozuvining joriy etilishi raqamli savodxonlik, elektron ta’lim resurslari va ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llanilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur.

3. **Madaniy uzviylikni ta’minlovchi mexanizmlar ishlab chiqilishi shart.** Yozuv almashinuvi tarixiy-adabiy merosning saqlanishi va uzluksiz avlodlararo o‘tkazilishini ta’minlaydigan tarjima, adaptatsiya va ta’limiy resurslar orqali amalga oshirilishi lozim.

4. **Yozuv islohotlarini baholovchi institutsional monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.** Islohotlarning natijadorligi ijtimoiy qabul darajasi, ta’limdagi integratsiya holati va AKT bilan uyg‘unligi kabi indikatorlar asosida doimiy tahlil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. London: Verso, 1983, 240 p.

[2]. Fishman J.A. Language Loyalty in the United States: The Maintenance and Perpetuation of Non-English Mother Tongues by American Ethnic and Religious Groups. The Hague: Mouton, 1972, 489 p.

[3]. Fishman J.A. Reversing Language Shift: Theoretical and Empirical Foundations of Assistance to Threatened Languages. Clevedon: Multilingual Matters, 1991, 412 p.

[4] .Yo‘ldoshev O. O‘zbek tili va yozuvining ijtimoiy funksiyalari. Toshkent, “Fan”, 2004, 176-bet.

[5]. Mamajonov Z.M. O‘zbek yozuvi va imlosi: tarix va taraqqiyot bosqichlari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001, 192-bet.

[6]. Inomov Sh. Yozuv islohotining ijtimoiy-mafkuraviy asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2017, 168-bet.

[7]. Akdoğan Y. Türk Dünyasında Alfabe Birliği ve Ortak Dil. Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2011, 210 s.

[8]. Öztürk H. Türk Dünyasında Alfabe Değişimi ve Ortak Yazı Dili. İstanbul: Bilge Kültür Sanat, 2016, 224 s.

[9]. Smagulova A. Language Policies of Kazakhization: The Kazakh Script and Identity. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 2008, vol. 11, № 3–4, pp. 440–475.

[10]. Kamusella T. The Politics of Language and Nationalism in Modern Central Europe. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2009. 596 p.

[11] Abdullaev S. Language Policy and Script Reform in Uzbekistan. Central Asian Survey, 2015, vol. 34, №. 1, pp. 78–85.

[12]. Allworth E. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance, A Historical Overview. Durham: Duke University Press, 1990, 320 p.

[13]. Fierman W. Language Planning and National Identity in Uzbekistan. International Journal of the Sociology of Language, 2009, № 197, pp. 45–60.

[14]. Heydarov R. The Transition to Latin Alphabet in Azerbaijan: Political and Cultural Dimensions. Journal of Turkic Studies, 2004, vol. 12, № 2, pp. 34–49.

[15]. Ismailov E. Language Reform and National Identity in Azerbaijan. Baku: Baku University Press, 2010, 150 p.

[16]. Kassenova N. Kazakhstan’s Alphabet Reform: Challenges and Prospects. Central Asian Affairs, 2019, vol. 6, №. 1, pp. 112–120.

[17]. Khalikov D. Challenges of Latinization in Uzbekistan: Sociolinguistic Perspectives. Uzbek Journal of Linguistics, 2018, vol. 3, pp. 55–70.

[18]. Smith G. Turkmenistan. Strategies of Power, Dilemmas of Development. London: Routledge, 2005, 280 p.

ADABOYOTSHUNOSLIK

Eshanova Zilola Qo‘chqarovna (Andijon davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; zeshanova79@gmail.com)

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA XALQ QO‘SHIQLARI STILIZATSIYASI VA SINTEZI

Annotatsiya. *Foklor va yozma adabiyot munosabatlarini, folklorizmlar asosidagi aloqalarini o‘rganish, folklorizmlar tipologiyasini istiqlol davri o‘zbek adabiyoti kontekstida tekshirish, o‘ziga xosliklarini yoritish adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolada istiqlol davrida ijod qilgan shoirlar ijodidagi xaql qo‘shiqlari stilizatsiyasi va sintezi asosida yaratilgan she’rlarni struktural, semiotik, germenevtik tahlil qilish orqali stilizatsiya va sintezlanish qonuniyatlarini ochish maqsadi qo‘yilgan. Shuningdek, ijodkorlarning xalq qo‘shiqlarini stilizatsiya qilish, xalq qo‘shiqlari hamda she’r, xalq qo‘shiqlari va mumtoz adabiyotga xos g‘azal janri komponentlarini sintezlash, xalq qo‘shiqlariga xos ramzlardan, folklorga xos obrazlardan ijodiy foydalanish orqali etnomadaniy kontekstni yoritish, davr muammolarini va kechinma tasvirini ifodalash, asarlaridagi xalqchillikni, milliy ruhni, milliy koloritni ta’-.minlashga erishayotgani asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *lirik asar, she’r, g‘azal, lirik kechinma, muvashshax, sintez, sintezlashgan folklorizm, stilizatsion folklorizm, analitik folklorizm.*

Эшанова Зилола Кучкаровна (докторант Андижанского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент; zeshanova79@gmail.com)

СТИЛИЗАЦИЯ И СИНТЕЗ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *Изучение взаимоотношений фольклора и письменной литературы, их связей на основе фольклоризмов, исследование типологии фольклоризмов в контексте узбекской литературы периода независимости, освещение их особенностей является актуальной задачей, стоящей перед нашим литературоведением. В статье ставится цель раскрыть закономерности стилизации и синтеза путем структурного, семиотического, герменевтического анализа стихотворений, созданных на основе стилизации и синтеза народных песен в творчестве поэтов периода независимости. Также обосновывается мнение, что творцы путем стилизации народных песен, синтеза народных песен и стихотворений, народных песен и компонентов жанра газели, характерных для классической литературы, творческого использования символов, характерных для народных песен и образов, свойственных фольклору, достигают освещения этнокультурного контекста, выражения проблем эпохи и изображения лирического переживаний, обеспечения народности, национального духа, национального колорита в своих произведениях.*

Ключевые слова: *лирическое произведение, стихотворение, газель, лирическое переживание, мувашшах, синтез, синтезированный фольклоризм, стилизационный фольклоризм, аналитический фольклоризм.*

Eshanova Zilola Qochqarovna (Doctoral student of Andijan State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, zeshanova79@gmail.com)

STYLIZATION AND SYNTHESIS OF FOLK SONGS IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Annotation. *The study of the relationship between folklore and written literature, their connections based on folklorisms, the examination of folklorism typology in the context of Uzbek literature during the independence period, and the elucidation of their characteristics is a crucial task facing our literary scholarship. This article aims to reveal the patterns of stylization and synthesis through structural, semiotic, and hermeneutical analysis of poems created based on the stylization and synthesis of folk songs in the works of poets from the independence period. It is also substantiated that creators by stylizing folk songs, synthesizing folk songs with poems, synthesizing folk songs with the components of the ghazal genre characteristic of classical literature, creative use of symbols and images characteristic of folklore, achieve the illumination of the ethnocultural context, expressing the problems of the time and the image of lyrical experience, ensuring folk character, national spirit and national color in their works.*

Key words: *lyrical work, poem, ghazal, lyrical experience, muwashshah, synthesis, synthesized folklorism, stylized folklorism, analytical folklorism.*

Kirish. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida sintezlanish jarayonlari yuz bermoqda, she’r va xalq qo‘shiqlari, g‘azal va xalq qo‘shiqlari komponentlarining sintezi asosida badiiy asarlar yaratilmoqda va ularda ishqiy, tasavvufiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mavzular qalamga olinmoqda. Mumtoz va yangi o‘zbek she’riyatidagi ushbu an’ana vorisiylik asosida shakllangan istiqlol davri o‘zbek she’riyatida ham bir qancha yangilanishlar asosida davom ettirilmoqda. Biz ushbu maqolamizda istiqlol davri o‘zbek she’riyatidagi ushbu dolzarb masalani yoritishni, xalq qo‘shiqlari va she’r sintezining namoyon bo‘lishini istiqlol davri o‘zbek adabiyoti kontekstida tekshirishni maqsad qildik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Foklor va yozma adabiyot munosabatlari, ularning folklorizmlar asosidagi aloqalari, folklorizmlar tipologiyasi masalasi N.P.Andreyev, M.K.Azadovskiy, D.N. Medrish, L.I.Yemelyanov, A.A.Gorelov, U.B.Dalgat, K.V.Chistov, V.YE.Gusev, B.Sarimsoqov, S. Mirzayeva, I.Yormatov, L.Sharipova, G.Imomova, Sh.Davronova, Z.Eshanova, D.Xoliqova, N.Tursunova, S.Xamdamova, N.Alisultonovalarning ishlarida yoritilgan. XX asr so‘nggi choragi va istiqlol davri o‘zbek she’riyatiga folklor an’analarining ta’siri masalasini yoritish L.Sharipova, Q.Yo‘lchiyev, M.Xolova, G. Oripova, Q.Mamiraliyev kabi olimlar tadqiqotlarida kuzatiladi. Xususan, L.Sharipova XX asr so‘nggi choragi o‘zbek she’riyatidagi folklorizmlarni o‘rganadi [1]. Q.Yo‘lchiyev xalq qo‘shiqlarining kompozitsion tuzilishiga xos xususiyatlar (tezis+tezis-sintez) Anvar Obidjonning uchchanoqlariga ham tegishli ekanligini asoslaydi [2;54-b.]. M.Xolova esa mifologik obrazlarning o‘zbek modern she’riyatida istefoda qilinishini [3;18-b.], G.Oripova mustaqillik davri o‘zbek lirikasini, janr xususiyatlari va poetikasini [4], Q.Mamiraliyev esa istiqlol davri o‘zbek she’riyatidagi badiiy modifkatsiya hodisasini o‘rganish jarayonida davr she’riyatidagi folklorizmlarni badiiy modifikatsiyaning bir turi sifatida tadqiq qiladi [4;97–121-b.]. Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, istiqlol davri o‘zbek she’riyatidagi xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi, sintezlashgan va analitik folklorizmlar asosida she’rlar yaratish masalasini ochiqlash, folklorizmlar tipologiyasini istiqlol davri o‘zbek adabiyoti kontekstida tekshirish yuqoridagi tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada xalq qo‘shiqlarini stilizatsiya qilish, xalq qo‘shiqlari hamda she’r, xalq qo‘shiqlari va g‘azal janri komponentlarini sintezlash, xalq qo‘shiqlariga xos ramzlardan, folklorga xos obrazlardan ijodiy foydalanish asosida yaratilgan she’rlarni struktural, semiotik, germenevtik tahlil qilish orqali stilizatsiya va sintezlanish qonuniyatlari ochiqlandi hamda bu adabiy hodisaning etnomadaniy kontekstni yoritish, davr muammolari va kechinma tasvirini ifodalash, xalqchillikni, milliy ruhni, milliy koloritni ta’minlashga xizmat qilayotgani asoslandi.

Tahlil va natijalar. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida xalq qo‘shiqlari sintezi xalq qo‘shiqlaridan analitik folklorizm sifatida foydalanish, stilizatsion va sintezlashgan folklorizmlar asosida amalga oshmoqda.

1. Analitik folklorizm haqida B.Sarimsoqov ”Analitik folklorizmlar asarning badiiy to‘qimasi, uning yetakchi g‘oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatdan xarakterlanadi... Murakkab folklorizmlar tarkibiga kiruvchi analitik folklorizmlar, asosan, epik janrlarda qo‘llanishga mos bo‘lib, lirik janrlar tabiati bu tipdagi folklorizmlarni ko‘tara olmaydi” [6;354–359-b.], deydi. L.Sharipova esa: ”Folklorga mansub satr yoki bir band she’r yozma she’r tarkibida aynan keltirilsa, analitik folklorizm sanaladi” [7;134-b.], deydi va analitik folklorizmlar lirik asarlarda ham qo‘llana olishini asoslaydi, analitik folklorizm shoir fikrining daliliga aylanishini ta’kidlaydi.

Faxriyorning “Keldigim, kelmaging bunchalar qiyin?” (1999) deb boshlanuvchi she’rida xalq qo‘shiqlari naqoratlariga xos “Suydim, allayor-allayor, kuydim, allayor-allayor!” [8;424-b.] misralari har bir band so‘nggida aynan keltirilgan va badiiy asar to‘qimasi bilan organik birikib ketmagan. Shoirning “Tiyramoh bog‘lari rutubatlidir” deb boshlanuvchi she’rida ham xalq qo‘shiqlariga xos “Bor-ho, kel-ho, hamalam-ha, yo‘l qaydi?..” [8;425-b.] analitik folklorizm lirik qahramon, oshiqning kechinmalarini, ruhiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Rauf Parfining ”Hoy bola-bola, hoy bola” (1963) deb boshlanuvchi she’rida ham “Hoy bola-bola, yor-yor” [9;98-b.] analitik folklorizmi she’rning ilk misrasida keltirilgan va she’rning xalq qo‘shiqlariga xos sodda ritmda shakllaniga xizmat qilgan. Shoir she’rda dunyoning g‘amga to‘laligi, g‘am sharobini sipqorish hamma yigitga taqdir qilingani haqidagi falsafiy qarashlarini bergan.

Jontemir Jondorning “Hirgoyi” she’rida “Chittigul” bolalar qo‘shig‘idan olingan “Hayu chittigul” analitik folklorizmi lirik kirish vazifasini bajaruvchi ilk bandda hamda lirik xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi yettinchi bandda keltirilgan va davr ijtimoiy muammolari asosida yuzaga kelgan lirik subyekt kechinmalari tasvirini berishga xizmat qilgan:

Yurakda dardimiz mo‘l,
Vale ruhimiz tetik.
Darveshning xudosi – yo‘l,

Izligim, qani, ketdik.
Hayu chittigul!
Hayu chittigul!

Qolgan bandlarda “o‘z davlatidan yovla kelishib yulgan, to‘shagi qush patidan, yemishi kiyik go‘shtidan bo‘lgan insonlarga “Hayu savlatidan”, adolatsizlikni ko‘rib, unga qarshi kurashishda lirik qahramonga yordamchi bo‘la olmayotgan homiy eranlarga ”Hayu chiltanlar”, tillo g‘amlayotgan ochofat va diyonatsizlarga ”Hayu shaytonlar”, bunday hayotga ko‘nib yashayotgan insonlarga “Hayu motamsaro”, barchasiga qo‘l siltagan lirik subyekt va u kabi odamlarga “Hayu basma-bas” deya murojaat qilish orqali lirik subyektning kinoyaviy munosabati ifodalangan.

2. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida xalq qo‘shiqlari va ritmi stilizatsiyasi asosida she’rlar yozish an’anasi davom ettirilmoqda. B.Sarimsoqov stilizatsion folklorizmlarni ijobiy xarakterdagi va salbiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlarga bo‘ladi. Olimga ko‘ra” ...ijobiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar..., asosan, folklor materiallarining ham g‘oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga to‘liq tayangan holda, ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga keladi [6;358-b.]. I.Yormatov esa folklor motivlariga ijodkor erkin yondashib, uni to‘liq qayta ishlasa, bunday stilizatsiyani progressiv stilizatsiya sifatida, agar folklor materialining shakli kengaytirilib, uning g‘oyasi aynan berilsa, regressiv stilizatsiya sifatida tavsiflaydi [10;33-b.]. L.Sharipova o‘zbek she’riyatidagi stilizatsion folklorizmlarni janr stilizatsiyasi, motiv stilizatsiyasi, obraz stilizatsiyasi va folklorga xos ritm stilizatsiyasi kabi to‘rt tipga bo‘lib o‘rganadi [1].

Davr she’riyatida xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasining barcha ko‘rinishlari uchraydi. Xususan, Rauf Parfi “Qadimgi turkulardan” she’rida Turkiston boshiga tushgan fojialar ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasvirini berishda xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasidan foydalanadi. Turk xalq og‘zaki ijodida xalq qo‘shiqlari turku deyiladi. She’r sarlavhasi uning xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilganligini asoslaydi. She’r bandlarida tarixiy qo‘shiqlarga xos ritmik-intonsion xususiyatlardan (3+4=7 turoqlanish) va “Po‘latxonni o‘ldirdi, Oqposhsho jallodlari” [9;297-b.] kabi tasvirlardan; “Qodir Xudo boqmasmi?”, “Chiqmasmi quyosh balqib” kabi ritorik so‘roqlardan, “O‘zbekmomo avlodi, O‘zota o‘g‘lonlari” kabi sifatlashlardan Turkistonning tiklanishiga umid, chaqiriqni berishda foydalanilgan.

Normurod Narzullayevning “Tumori bo‘lay”, “Bir yor ko‘rdim”, “Qoraqalpoqcha lapar”, “Farg‘onada tong otar”, “Kel, Layli, gul sayli”, “Quyosh kulgan zamon bu”, To‘lan Nizomning “Rozi dil”, Turob To‘laning “Ro‘mol yoyibman dorga”, A’zam O‘ktamning “Qo‘shiq” kabi she’rlari ham xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan bo‘lib, ularda xalq qo‘shiqlariga xos ramzlardan, folklorga xos obrazlardan foydalanilgan. Normurod Narzullayevning “O, Yali, yali, yalli...”, “Ishqim tushdi o‘shanga”, “Dukur-dukur ot keldi...”, A’zam O‘ktamning “Qo‘shiq” kabi she’rlari sarlavhasidan so‘ng xalq yo‘lida izohi qo‘yilgan. Bunday izoh (xalqona, xalqona ohanglarda izohi ham) qo‘yilgan she’rlar aksariyat holatda xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi, obraz, motiv va ritm stilizatsiyasi asosida shakllangan bo‘ladi. To‘g‘ri, bunday she’rlarda ham xalq qo‘shiqlaridan olingan parcha (Dukur-dukur ot keldi, Chiqib qarang, kim keldi [11;380-b.] kabi mavjud, biroq ular she’rning kompozitsion, ritmik-intonatsion tashkillanishiga asos bo‘lgan, ya’ni bunday she’rlar xalq qo‘shiqlariga xos shakliy komponentlar vositasida shakllantirilgan. Bunday she’rlar orasida B.Sarimsoqov ta’kidlagan, “folklor asarlarining shakliy komponentlariga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan” [6;358-b.] salbiy xarakterdagi stilizatsiyalar ham uchrab turadi. N.Narzullayevning “Ho o‘yna, o‘yna, o‘yna!” she’rida parodiyalangan stilizatsiya belgilari mavjud. Biroq shoirning “Ishqim tushdi o‘shanga” she’rida xalq qo‘shiqlariga xos oq olma, qizil olma, olmaning oqib kelishi, olma otish kabi ramzlar semantikasidan ijodiy foydalanilganini, xalq qo‘shiqlari, obraz, motiv va ritm stilizatsiyasining mahorat bilan amalga oshirilganini ko‘ramiz: Oq olma, qizil olma, Tanlaganingni ol, ma, Olma otgan yigitning, Gapini xazil olma [11;373-b.].

Rauf Subxonning “Yalli-yalli yalola” (1984) deb boshlanuvchi she’ri ham xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan. Besh bandli she’rning har bandi ilk misrasida takrorlanuvchi xalq qo‘shiqlariga xos naqorat she’r musiqiyligini ta’minlagan:

Yalli-yalli yalola,
Ketar araz nolalar,
Non sinib to‘y bo‘lar o,
Umr shirin navo-da! [12;45-b.]

Davr adabiyotida xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida she’rlar yaratish yosh shoirlar ijodida ham davom ettirilmoqda. Mansur Jumayevning “Ishq yo‘lida” she’ri xalq qo‘shiqlari va ritmi stilizatsiyasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda shoirning majoziy yor ishqining ilohiy ishqqa olib borishi haqidagi tasavvufiy-

falsafiy qarashlar sintezi berilgan, xalq qo‘shiqlariga xos o‘ynoqi ohang “kelodir” so‘zi takrori va 7 hijoli barmoq vazni orqali ta’minlangan:

Tongday yonib kelodir,
Kunday isib kelodir,
qaro qaro sochidan
tunning isi kelodir.[13;75-b.]

She’rning lirik qahramoni, oshiq tilidan ma’shuqaning go‘zalligi ta’riflanadi va sevgi degan bahodir uning qalbining mirshabiga aylangani (go‘zal topilma – izoh bizniki–Z.E), ya’ni unga oshiq bo‘lganini obrazli tasvirlaydi. Lirik qahramon “inja so‘qmoq bo‘lgan sevgi yo‘li”da vafodor bo‘lmoqchi. Oshiq “bu gulning ishqi” uni Xudoga olib borishiga umid qiladi. Shoir she’rda Xudo, unga olib boruvchi ishq yo‘li arxetipik motividan o‘zining tasavvufiy-falsafiy qarashlarini berishda foydalangan. Shoirning “Kattalar uchun qo‘shiq” she’rining ramka unsuri bo‘lgan epigrafga “Otdim botdim, loyga botdim, Loydan chiqib, miltiq otdim” bolalar qo‘shig‘i parchasi qo‘yilgan. Bu analitik folklorizm mohiyatining she’rga sintezlanishi shoirning g‘oyaviy maqsadi ifodasiga xizmat qilgan. Shoir ayni shu bolalar qo‘shig‘i stilizatsiyasi orqali jamiyatdagi olg‘ir insonlarning kirdikorlari, xalqning og‘ir kunlarida “qumga boshini tiqib yotsa-da, oxir oqibat bunday “olg‘irlarning shon-shuhratga botishi” haqidagi lirik subyektning dardli kechinmalarini beradi: qumga boshin tiqib yotdi, qonga botdi, moyga botdi, moydan chiqib, orni sotdi, bud-u shud-u borni sotdi qirov-qishda qorni sotdi [13;78-b.]. She’rdagi “qumga boshini tiqib yotish” iborasi qo‘rqoqlikni, “qirov-qishda qorni sotish” matali esa xalqning og‘ir kunlaridan foydalanib, manfaatdor bo‘lishni anglatadi. Bu bolalar qo‘shig‘ining yana bir turida Sottivoyning bor-budini sotishi va o‘zini yo‘qotishi savol-javob tarzida beriladi [14;210-b.]. Bu haqda O.Safarov: ”Savol-javob bolalarning hali o‘zlariga noma’lum voqelikni o‘rganish, o‘zlashtirish, qolaversa, kashf etish yo‘llari bo‘lib, o‘ynoqi ritmga solinganligi tufayli poetik mohiyat kasb etadi, ayni choqda, qo‘shiqda voqeabandlikni (sujetni) yuzaga keltiruvchi vosita sifatida ritmni harakatga soladi, o‘ynoqi shiddat bilan oqishini ta’minlaydi” [15;346-b.], deydi. Bu she’rda ham shoir kechinmalariga turtki bo‘lgan voqelik parchalari (fragmentlari) bolalar qo‘shig‘ini stilizatsiya qilish, tovushlar allitretsiyasi, assonansi, tard aks tasvir vositalari orqali yuzaga chiqarilgan. Shoir she’rni “Bir havodan nafas olish/menga juda og‘ir botdi” [13;78-b.], deya xulosalash orqali o‘zining ularga nisbatan qanday pozitsiyada ekanligini ochiqlaydi.

3. Istiqlol davri o‘zbek lirikasida xalq qo‘shiqlari sintezi yanada kuchaydi. Aksariyat hollarda, bu jarayon sintezlashgan folklorizmlar orqali amalga oshirilmoqda. B.Sarimsoqov sintezlashgan folklorizmlar: “...asarning badiiy to‘qimasini, uning g‘oyaviy-tematik asoslarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi... Binobarin, sintezlashgan folklorizmlar asosida yaratilgan asarlarning poetik tabiati, g‘oyaviy-tematik doirasi bevosita folklor ruhi bilan sug‘orilgan bo‘ladi” [6;356-b.], deb ko‘rsatadi. L.Sharipova esa: “Biror-bir ijodkor folklorga xos sujetni o‘z asari sujetiga singdirib yuborsa va bu ikki sujet qorishib, ajralmas holga kelsa, murakkab folklorizmning sintezlashgan folklorizm ko‘rinishi yuzaga keladi” [1;17-b.], deydi. Demak, sintezlashgan folklorizmlar xalq qo‘shiqlari mohiyatini ijodkorlar tomonidan ijodiy o‘zlashtirilib, shoir yaratgan she’r lirik sujetiga biriktirilib, organik butunlik hosil qilishidan paydo bo‘ladi hamda ular muallifning ijodiy konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Halimjon Karimovning “Muvashshax” she’ri mumtoz adabiyot va folklor an’analari sintezi, yana ham aniqroq aytganda, tashvih san’ati asosida yaratilgan. Unda g‘azal kompozitsion elementlari va xalq qo‘shiqlari komponentlari sintezlashishi asosida lirik sujet yuzaga chiqqan. “Oq ilon” xalq qo‘shig‘i komponenti bo‘lgan misradan yetti banddan iborat muvashshax g‘azalning matlasida o‘zgartirilgan holda foydalaniladi:

Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotgoning qani?
Oy yuzingdan ayrilib, yulduzni topgoning qani? [10;74-b.]

Qo‘shiq matnida kelgan oq ilon ramz sifatida bevafo yorni (oshiq yigit) anglatadi. Lirik subyektning ritorik so‘roqlaridan ko‘ramizki, uning sevgan yori bevafolik qilib, yaxshi yor topish umidida tashlab ketgan [11;34-42-b.]. Xalq qo‘shiqlarida lirik qahramon – ma’shuqa va bevafo oshiq munosabatlari asosidagi lirik kechinma tasviri berilgan bo‘lsa, muvashshah g‘azalda shoir xalq qo‘shiqlaridagi oq ilon birikmali ramzidan lirik qahramon, oshiqning kechinmalari tasvirini berishda foydalanadi. Muvashshax g‘azal ramali musammani maxfuz vaznida (-V--/-V--/-V--/-V-) yozilgan bo‘lib, g‘azalning har bir bayti bir harf bilan boshlangan va bu harflar yig‘indisidan “Oydinim” ismi hosil qilingan. She’rda xalq qo‘shiqlari ritmi stilizatsiya qilinmagan, balki xalq qo‘shiqlari komponentlari sintezlangan, natijada xalq qo‘shig‘ining ikki misrasi mohiyati, undagi ramziy obrazlar talqini shoirga lirik qahramon kechinmalarini ifodalashga imkon bergan. Xalq qo‘shig‘idagi ritorik so‘roq muvashshah g‘azalning kirish vazifasini bajaruvchi matlasidan bosh-

lab to lirik xulosa vazifasini bajaruvchi maqtagacha juft misralar so‘ngida radif sifatida takrorlangan va mumtoz g‘azallarga xos ritm bilan sintezlangan.

S.N.Broytman g‘azal janrini lirik turning qat’iy janri sifatida tavsiflar ekan, o‘ziga xos “...arxitektonika, turli janrlarning sintezi, g‘azalga xos bo‘lgan mavzular qamrovi va chuqurlashtirilgan yakunlovchi “imo-ishora” uni nafaqat kompozitsion, balki arab adabiyotida mavjud bo‘lgan katta (qasida) va kichik (qit’a) janr tuzilmalarining qarama-qarshiligini aks ettiruvchi o‘ziga xos universal janr shakliga aylan”ganligini [12;198-b.] ta’kidlaydi. Hozirgi adabiy jarayonda esa ana shunday qat’iy, kanonik janr bo‘lgan g‘azal ham sintezga uchragan. Unda xalq qo‘shiqlari va mumtoz an’analar sintezlashib, majoziy va ilohiy ishq haqidagi tasavvufiy mavzular qalamga olinmoqda. Ayni shunday xususiyatni Xurshidabonu ijodida kuzatamiz. Shoiraning “Daryodin oqib kelodir...” deb boshlanuvchi besh banddan iborat g‘azali “Shoda-shoda marvarid” nomli xalq qo‘shig‘i ta’sirida yaratilgan. Xalq qo‘shig‘i komponenti bo‘lgan misra shunchaki analitik folklorizm sifatida, fikrni dalillash maqsadida keltirilmaydi, balki g‘azalning g‘oyaviy-tematik va kompozitsiyon jihatdan tashkillanishiga asos bo‘lgan:

“Daryodin oqib kelodir shoda-shoda marvarid”,
Oyda bir ham yo‘qlamaydir qosh qaro barno yigit. [13;71-b.]

Bizga ma’lumki, ushbu xalq qo‘shig‘ida lirik qahramon, ya’ni ma’shuqaning barno yigit ishqidagi kechinmalari berilgan. Bu qo‘shiq haqida A.Musaqulov quyidalarni yozadi: “qo‘shiqni bugungi she’riyat nuqtai nazaridan tahlil qilsak, ajib bir lirik manzara va holatni ko‘ramiz: Daryodan shoda-shoda marvaridlar kabi to‘lqinlar oqib kelmoqda. Sohilda qiz va barno yigit yolg‘iz. Qiz negadir xafa. Ammo yigit uni tashlab ketolmaydi. Negaki, qizning kokili qiymat baho. Parsial magiya qoidasiga ko‘ra, kokil qizning o‘ziga teng bo‘lib, kokildan voz kechish, qizdan ayrilishdir” [14;106-b]. Olim qo‘shiqning tarixiy asoslaridan kelib chiqib tahlil qilar ekan, daryoni hosildorlik kultlaridagi suv kulti obyektini, shoda-shoda marvarid hosildorlik ramzini, juftlik ifodasini, oila asosini, to‘lqinlarning marvaridga o‘xshatilishida farzand g‘oyasini, kokil (soch poetik obrazi) soch magiyasi bilan bog‘liq qarashlarni ifodalashini ta’kidlaydi. Ushbu qo‘shiqdagi asosiy ramz daryo ramzi bo‘lib, u xalq qo‘shiqlarida chegara, ayriliq talqinlariga ega. Qo‘shiqning lirik qahramoni bir yosh chegarasidan ikkinchi yosh chegarasiga o‘tish, ya’ni, turmush qurish arafasida, uning daryodan oqib kelayotgan marvaridga ishora qilishi oila qurish orzusini ifodalamoqda. Shoira xalq qo‘shiqlaridagi ayni shu ramzlardan lirik qahramon, ma’shuqa kechinmalarini berishda ijodiy foydalangan.

Xulosa. Davr adabiyotidagi xalq qo‘shiqlari sintezi hodisasi analitik, stilizatsion va sintezlashgan folklorizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Analitik folklorizm asosida yaratilgan she’rlarda xalq qo‘shiqlaridan olingan misra, naqorat, o‘ziga xos takrorlar she’r bandlarining turli o‘rinlarida keltiriladi va turli maqsadlarga xizmat qiladi. Xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan she’rlar esa xalq qo‘shiqlariga xos shakliy komponentlar vositasida shakllantiriladi, xalq qo‘shiqlariga xos ritmik-intonatsion xususiyatlar va tasvirlar she’rning kompozitsion, ritmik-intonatsion tashkillanishiga asos bo‘ladi. Sintezlashgan folklorizmlar asosida yaratilgan she’rlarda xalq qo‘shig‘i mazmuni (g‘oya, mavzu, kechinma, ideal, muammo) va shakliy komponentlari (misra, band, naqorat va takrorlar) sintezi orqali she’r g‘oyaviy-tematik va kompozitsiyon jihatdan tashkillanadi va organik butunlik yaratiladi. Xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi va sintezi etnomadaniy kontekstni yoritish, davr muammolarini va kechinma tasvirini ifodalash, asarlardagi xalqchillikni, milliy ruhni, milliy koloritni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Sharipova L.F. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filol. fanlari doktori (DSc) ...diss avtoreferati, Toshkent, 2019, 76-bet.

[2]. Yo‘lchiyev Q. Poetik olam sirlari (Anvar Obidjonning ignabarg va uchchanoqlari misolida). Toshkent, “Akademnashr”, 2012, 96-bet.

[3]. Xolova M.A. O‘zbek modern she’riyati poetikasi. Filol. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ...diss., Samarqand, 2018.

[4]. Oripova G.M. Mustaqillik davri o‘zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi. Filol. fan. dok. (DSc) ... diss., Farg‘ona, 2024.

[5]. Mamiraliyev Q.Q. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. Toshkent, “Anorbooks”, 2024.

[6]. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. XX asr o‘zbek folklorshunosligi. Antologiya [matn]. Tuzuvchilar: O.To‘laboyev va boshq., Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 354–359-betlar.

[7]. Sharipova L. Boychechak obrazining poetik vazifasi. Filoloji ve kültür araştirmalari. Filologiya va madaniyat masalalari (Akademik Aziz Qayumov xotirasiga bag‘ishlanadi) ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami, “Karabuk”, 2019, 1005-bet.

[8]. XX acp o‘zbek she’riyati antologiyasi. [tahrir hay’ati: A.Oripov va boshq. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: B.Karimov, H.Abdiyev]. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklonediyasi”, 2007, 496-bet.

[9]. Rauf Parfi. Saylanma. 2 jildlik, 1-jild, nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Olim Oltinbek. Toshkent, “Muharrir”, 2022, 416-bet.

[10]. Yormatov I. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1984, 3-son, 33-bet.

[11]. Narzullayev N. Alyor. Saylanma. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2005.

[12]. Rauf Subxon. Inonch. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2015.

[13]. Jumayev Mansur. Biz kutgan fasl. She’rlar. Toshkent, “Akademnashr”, 2024, 96-bet.

[14]. Boychechak. Bolalar folklori va mehnat taronalari [to‘plovchilar: O.Safarov, K.Ochilov]. Toshkent, “Adabiyot va san’at”, 1984, 336-bet.

[15]. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Musiqa”, 2010.

[16]. Halim Karim. Yurak bilan so‘zlashuv. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.

[17]. Z.Eshanova. Xalq qo‘shiqlarini o‘qitishning interaktiv metodlari. “Ilmiy xabarnoma”, Andijon, 2022, 6 (66), 34–42-bet.

[18]. Теория литературы. Т. 2, Бройтман С.Н. Историческая поэтика. М., “Академия”, 2004, 368 с.

[19]. Xurshida Vahobjon qizi. Yangi tong: she’rlar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 416-bet.

[20]. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. Monografiya, Toshkent, “Fan”, 2010, 320-bet.

Nilufar Chuliyeva A’zam qizi (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O‘zbekiston Milliy universiteti “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi doktoranti; E.mail: nilufarchuliyeva9@gmail.com)

HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYA VA QISSALARIDA ZAMON HAMDA MAKONNING POETIK IFODASI

Annotatsiya. *Badiiy zamon va makon vositasida muallif olamning badiiy-individual tasvirini, bu olamning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Shu sababdan nasriy asarlarda har bir muallifning o‘ziga xos badiiy zamon va makon yaratish usullari bo‘lib, ularni asar badiiy g‘oyasi, mavzusi, va albatta, janriga mos holda shakllantiradi. Qahramonlar ham shunga uyg‘un tarzda jonlantiriladi. Shu bilan birga, obrazlar xarakterining shakllanishida ham muayyan zamon va makon xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ham ayni shu xususiyatlar so‘ngi yillar o‘zbek adabiyotida yaratilgan qissa va hikoyalar misolida tahlil etilgan. Mazkur asarlardagi badiiy zamon va makon poetikasiga doir xulosalar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy makon, badiiy zamon, hikoya, qissa, sujet, kompozitsiya, poetika.*

Нилуфар Чулиева Аъзам кызы (доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент, Национальный университет Узбекистана, докторант кафедры узбекской литературы)

ПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ РАССКАЗАХ И ПОВЕСТЯХ

Аннотация. *Через художественное время и пространство автор отражает художественно-индивидуальное изображение мира, его уникальные аспекты. По этой причине в прозаических произведениях у каждого автора есть свои методы создания художественного времени и пространства, которые он формирует в соответствии с художественной идеей, темой и, конечно же, жанром произведения. Герои также оживляются в соответствии с этим. В то же время, особенности конкретного времени и пространства играют важную роль в формировании характера образов. В статье эти же особенности анализируются на примере рассказов и повестей, созданных в узбекской литературе последних лет. В этих произведениях содержатся выводы о поэтике художественного времени и пространства.*

Ключевые слова: *художественное пространство, художественное время, рассказ, повесть, сюжет, композиция, поэтика.*

Nilufar Chuliyeva Azam kizi (Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Associate Professor National University of Uzbekistan Doctoral student of the Department of Uzbek Literature)

POETIC EXPRESSION OF TIME AND SPOT IN MODERN UZBEK STORIES AND STORIES

Annotation. *Through artistic time and space, the author reflects the artistic-individual image of the world, its unique aspects. For this reason, in prose works, each author has his own methods of creating artistic time and space, which he forms in accordance with the artistic idea, theme, and, of course, genre of the work. The characters are also brought to life in a similar way. At the same time, the characteristics of a certain time and place play an important role in the formation of the character of the images. In the article, these same features are analyzed using the example of short stories and novellas created in Uzbek literature in recent years. These works contain conclusions on the poetics of artistic time and space.*

Keywords: *artistic space, artistic time, story, novella, plot, composition, poetics.*

Kirish (Introduction). Jahon adabiyotining tajribalari o‘zbek adabiyoti rivojiga ham hissa qo‘shdi. Natijada 80-yillar ikkinchi yarmi 90-yillardan boshlab o‘zbek adabiyoti o‘zining yangi, boshqa bir taraqqiy bosqichiga o‘tdi. Yaratilayotgan asarlar miqyosida dunyo adabiyotining ko‘pgina adabiy an’ana va uslublari, ifoda yo‘sinlari faol, ijobiy ma’noda o‘zlashtirila boshlandi. Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sultonov, Erkin A’zam, Olim Otaxonov, Ahmad A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul kabi adiblar o‘z ijodi orqali jahon adabiyotining tajribalarini qo‘llash va milliy adabiyotimizni yanada boyitishga; inson deb atalmish mavjudlikka umuminsoniy, hech qanday qoliplarsiz, sof, murakkab ruhiy borliq sifatida yondashish tamoyilini olib kirishga harakat qildilar. Bu jarayon mazkur yillarda nashr etilgan “Galatepaga qaytish”, “Lolazor”, “Anoyining jaydari olmasi”, “Saodat sohili”, “Jajman”, “Soyasini yo‘qotgan odam”, “Maymun yetaklagan odam” kabi asarlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu kabi yangi to‘lqin, adabiy dunyoviy intilish asar va uning ifodaviy-kategorial tabiatiga ham ta’sir etmay qolmadi. Jumladan, adabiy-estetik kategoriyalar bo‘lmish badiiy makon va zamonni tashkil etish: asarlararo umumiy badiiy makon yaratish, zamonning murakkab harakat tarzi; tasvirda ong oqimi texnikasi kabi xususiyatlarda aks etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Nasriy asarlardagi badiiy zamon va makon poetikasi bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchalar atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, rus adabiyotshunosligida badiiy makon va zamon tushunchasining dialektik uyg‘unligi haqidagi “xronotop nazariyasi” (M.Baxtin [1], makon “belgilar tizimi” sifatida o‘rganilib, “semiotik makon” konsepsiyasi (Y.Lotman [1]) ishlab chiqildi. Badiiy makon va zamon mifopoetik semantika asosida ham o‘rganildi (V.Toporov va V.Ivanov [1]. Fransuz adabiyotshunosligida esa makonni inson xotirasi, hissiyoti va tasavvur orqali anglashga asoslangan fenomenologik yondashuv ilgari surildi (G.Bachelard [2]. Mazkur adabiyotshunoslikda makonni kodlangan belgilar tizimi sifatida tahlil qilib, har bir makon – inson ongida o‘rnatilgan ijtimoiy yoki madaniy kodlar bilan belgilanadi (R.Bart [2]. Badiiy asarda makonni ijtimoiy real makonlardan ajralgan, “boshqa makon”, ya’ni normativ ijtimoiy tartibdan chetga chiqqan, ideologik parchalovchi maydon sifatida tadqiq etildi va “geterotopiya” tushunchasi kiritildi (M.Fuko [2]. Ingliz adabiyotshunosligida esa badiiy zamon masalasi asosan, matndagi rivoyaviylikka ko‘ra o‘rganildi. Natijada real vaqt emas, balki estetik zaruratga binoan shakllangan vaqt ketma-ketligini asosiy ahamiyat kasb etuvchi deb talqin etildi (E.M.Forster [3]. O‘zbek adabiyotshunosligida esa badiiy makon va zamon tushunchalarini asoslovchi nazariy manbalar (I.Sulton, T.Boboyev, D.Quronov [4], monografik tadqiqotlar (A.To‘ychiyev, U. Jo‘raqulov, B.To‘rayeva, O‘.Nazarov, D.Xursanov [5] hamda turli maqolalarda tadqiq etildi. Ammo bugun yangilanishda davom etayotgan o‘zbek nasrida zamon va makon tushunchalarini o‘rganish zamonaviy nasr poetikasining nazariy xulosalarini boyitishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analsys and results). Murod Muhammad Do‘st asarlariga badiiy makon sifatida adibning o‘z tug‘ilib o‘sgan joyi – Samarqandning Jom qishlog‘i Galatepa nomi ostida olib kirilgan. Bu haqida adabiyotshunos olim U.Normatov shunday yozadi: *“*Murod Muhammad Do‘st asarlarining qahramonlari o‘zi uchun qadrdon maskan – kindik qoni to‘kilgan yurt – Samarqand viloyatiga qarashli Jom qishlog‘i odamlari. Bu yurtni yozuvchi asarlarida “Galatepa” degan chiroyli adabiy nom bilan ataydi. Buning boisi shuki, muallif tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i haqida hujjatli asar – ocherklar turkumi yozmoqchi emas edi, balki o‘sha qadrdon maskanda turib tanish manzaralar, chehralar vositasida o‘sha kezlardagi millat hayoti, holati, ruhiyatida kechayotgan jarayon – evrilishlarni, shaxsan o‘zini qiynayotgan o‘y-kechinmalarni ifoda etishga chog‘lanadi” [6]. M.M.Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi o‘zining milliy ohangi va ruhiyati bilan farqli asardir. Hikoyadagi qahramonlar ham ana shunday nozik ruhiy olamini dag‘al, chapani qiyofasi ortiga berkita olgan murakkab xarakterlar. Balki muallifning aynan mana shu yondashuvi asarning tabiiyligini, milliyligini kuchaytirgandirki, hikoya badiiyati ijodkorlarni ham o‘ziga maftun etgan: “Dasht-u dalalarda” hikoyasining o‘ziyoq Murod Muhammad Do‘stni o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos yo‘nalishdagi, o‘ziga xos maktabdagi asar yaratgan, yangi shakl, yangi ruh olib kirgan adib sifatida tan olishga to‘liq asos beradi” [7;155-b.]. Ushbu asardagi badiiy makon ham Galatepa bo‘lib, hikoya shu yerlik Polvonning o‘ziga xos qalb kechinmalari, qishloq odamlarining milliy qiyofasini aks ettiradi. Asarda Polvon oilasi bilan yashagan uy, so‘ngra ayoli uni tark etib ota yurtiga ketgach, yerto‘la asosiy voqealar kechuvchi kichik makonlar sifatida tanlanadi. *“*Yerto‘la – mikroolam, olamning modeli. Qahramon nazdida xotini bilan yashagan uyi uning uchun butun koinot bilan teng. Shaklan kichik, ammo mazmunan olam bilan barobar. “Shifti past, agar chiroq bo‘lmasa, naq lahadning o‘zginasi…”–Yerto‘la lahadga qiyoslanadi” [8]. Yerto‘la qahramonning o‘z qalb sasini tinglay olishi, ko‘ngli bilan suhbatlashishi, ruhan o‘z-o‘zini anglashi uchun muhim badiiy makon vazifasini o‘tagan. Inson aslida zulmatda nurni ravshan ko‘ra oladi. Polvon ham o‘zining hayot mazmuni, ko‘ngil boyligi, muhabbati – ayoli Hadicha ekanini yaqqol tushunib

yetadi, go‘yo Alpomish uchun zindon o‘z ruhiyasi, ruhiy quvvatini anglab yetish vositasi bo‘lgani kabi. Hikoyadagi badiiy zamon ham qahramon xotiralari orqali retrospektiv ravishda ortga qaytadi, so‘ngra uning keyingi xatti-harakatlariga binoan oldinga siljib, voqealar yuz berayotgan zamonga evriladi.

Adabiyotimizda umumlashtirilgan, mazmunan, bir nechta davlatlarni qamrab oluvchi badiiy makonga ega nasriy asarlar ham talay. Jumladan, Erkin A’zamning “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasi aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. Qissadagi obrazlarning hech birisi individuallashtirilmagan. Chunki muallifning maqsadi yolg‘on e’tiqodlar asosida yashagan mustabid mamlakatlar xalqlarida o‘zlikning yo‘qotilishi, oqibatda ruhsiz yashayotgan odamlar taqdirini yoritish edi. Mazkur asardagi “chapaklar va chalpaklar mamlakati” – Buriyo va Xoniya esa sobiq mafkura qurgan mustamlakachi davlatning, insoniy qadriyatlarning chirigan qiyofasini umumlashtirgan. Shuningdek, zombilashgan jamiyatning, totalitar tuzumning salbiy oqibatlarini kinoyaviy ko‘rsatishga yo‘naltirilgan badiiy makon sanaladi. Shu jihatdan ham ba’zi mutaxassislar qissada antiutopik uslubning ayrim xususiyatlari mavjud ekanini ta’kidlaydilar. Zero, “antiutopiyadagi eng muhim xususiyat shaxs va totalitar jamiyat o‘rtasidagi konflikt hisoblanadi” [10]. Qissadagi badiiy zamon esa o‘n kunlik sarguzashtlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu zamon dialoglar, bosh qahramonning fikr-o‘ylari, manzaralar, tasvirlar ketma-ketligi, joylar o‘zgarishi mobaynida ilgarilab boradi.

Olim Otaxon asarlarida esa badiiy makon obraz darajasida ekanini ko‘rishimiz mumkin. Adibning “To‘rtinchi qavatdagi sarg‘ish deraza” nomli hikoyasida qahramonning his-tuyg‘ulari deraza vositasida anglashiladi. U uchun to‘rtinchi qavatdagi, chiroqlari yonganidan sarg‘ayib turadigan deraza hech xayolidan ketmaydigan qadrdonga aylanadi. Hikoyadagi qahramon ruhiyati aynan mana shu deraza vositasida anglashilar ekan, badiiy makon tasvirining vazifasi yanada kengayadi. Umuman, jahon nasrida xona, bino, qal’a kabi makonlar obraz ifoda qamroviga ega. Jumladan, Kafkaning “Evrilish” hikoyasidagi Zamza xonasi, “Qal’a” romanidagi qal’a yoki Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanidagi Raskolnikov xonasi (bu yerda uning qotillik g‘oyasi yuzaga keladi, shuning uchun dostoyevskiyshunoslar bu yerni “g‘oyaviy makon” ham deyishadi (9;29–41c.) kabi makonlar badiiy asar sujeti va poetikasida asosiy fikrlarni ifodalashga yo‘naltiriladi. Badiiy makon qismlari, xususan, uy interyerini asarlarda tahlil etgan fransuz olimi Gaston Bashlyar o‘zining tadqiqotida shunday yozadi: “Derazadagi chiroq – uyning ko‘zi. Xayol olamida hech qachon ko‘chada chiroq yoqilmaydi. Yorug‘lik uy ichida chegaralangan, u faqat tashqariga sizib chiqishi mumkin… Chiroq – katta kutish belgisi… Obraz narsalarning hukmronligidan, ongsizlikning tazyiqidan ozoddir” [2;49–53 c.]. Olimning mazkur fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, ushbu hikoyadagi deraza borliqqa o‘zgacha nazar solish, bu orqali o‘zni va tuyg‘uni anglash, ko‘ngilga eltish vositasidir. Ichkaridagi chiroq yorug‘i esa umid, kutish, chorlovdir. Xullas, hikoyada deraza badiiy obraz – olamni, insonning murakkab hislarini ko‘rsatuvchi oynadir.

Inson ruhiyatini, uning murakkab taqdir yo‘lini, asosan, yengil, qisqa jumlalarda, hozirjavob dialoglarda, satirik, yumoristik, kinoyaviy usulda tasvirlashga intilish Ahmad A’zam ijodiga xos xususiyatdir. Uning “Asqartog‘ tomonlarda” qissasi jamiyatdagi ziyoli insonni qiynayotgan savollar, qaysidir ma’noda risoladagidek yashayotgan insonning o‘zini anglashga intilishi, o‘z-o‘zidan ko‘ngli to‘lmasligi, hayotida, ish joyida, ishlayotgan sohasida nimanidir o‘zgartirishni xohlashi ich-etini tirnaydi. Ammo bunga qunt qilmaydi, turmush tashvishlariga burkanadi: “Yo‘-o‘q, turmushimdan ko‘nglim to‘lmay, hayotdan noroziligim yo ishlarim yurishmayotganidan emas <…> ketay-ketay deganimda ichim huvullab, bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolaman” [11]. Asarda ba’zi illatlar – poraxo‘rlik, nepotizm, kadrlar savodsizligi, majburiy mehnat (paxta terimiga talabalarning majburiy jalb etilishi) kabi muammolar Mahdi Ashrapov va uning atrofidagi insonlar misolida ochib beriladi. Qissadagi har bir makon asar qahramoning hayot yo‘li bilan uzviy bog‘langan. Qis-sadagi zamon ham Mahdining xotiralari orqali bir ortga qaytadi, bir kelajakka daxldor bo‘ladi. Ahmad A’zamning aksariyat qahramonlari voqelik qahramonlarning fikri, tasavvuri, tahlili hosilasidir. Bu to‘g‘rida Nazar Eshonqul shunday yozadi: “Bu novellalarda “men”dan boshqa qahramon yo‘q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu “men”ning o‘zi, ya’ni o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgan odam. Ahmad A’zam bu obrazi bilan o‘zi mansub avlodning butun boshli konsepsiyasini ifodalab berganga o‘xshaydi” [7;446–447-b.]. Shuni ta’kidlash joizki, adib asarlarida xalqona qarashlar, xalqona ohang sezilib turadi.

Nazar Eshonqulning hikoya va qissalarida, asosan, qahramonlar ruhiy holati tasviri joriy zamonni cho‘zadi yoki qisqartiradi. Qahramon uchun zamon iztirob chekish va o‘zini anglash davri bo‘lib xizmat qiladi. Ba’zi asarlarida voqealarning ketma-ketligi obyektiv zamon ustuvorligini ta’minlaydi (masalan, “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq” qissalarida). Shuningdek, ijodkorning mifologik zamon va makon mavjud asarlari ham talaygina (“Ajr”, “Sibizg‘a volasi”, “Qultoy” kabi hikoyalari). Nazar Eshonqul aksariyat asarlaridagi makon – Tersota qishlog‘i adib biografiyasi bilan bog‘liq badiiy makon deyish mumkin. Nazar

Eshonqul asarlarida makon ramziy, falsafiy, ijtimoiy mazmun-mohiyatga ega bo‘lib, zamon orqali o‘tmish, bugun va kelajak oraliqlarida yashayotgan inson ruhiyati, kechinmalari tasvirlanadi.

Xulosa (Conclusion). Umuman olganda, dunyo va o‘zbek adabiyotidagi bosqichlar, oqimlar; adabiy jarayondagi muayyan hodisalar natijasi o‘laroq, zamon va makon haqidagi sodda tasvirlar murakkab shakllarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Ya’ni, nasriy asarlarda, dastavval, faqat ketma-ket voqealar joylashadigan fon sifatida ishlagan zamon va makon tushunchasi hamda tasviri vaqt o‘tib, inson ruhiyati, ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy tushunchalar bilan bog‘langan murakkab adabiy-estetik kategoriyaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Refrences):

(1). Бахтин М.М. Формы времени и хронотипа в романе: Очерки по исторической поэтике. Вопросы литературы и эстетики. М., “Худож. лит”., 1975, с. 235; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Ю.М.Лотман. Об искусстве. СПб., “Искусство-СПБ”, 2000, с. 212; Топоров В.Н. Мифология. Статьи для мифологических энциклопедий. Т. 1, Предисл. Вяч.Вс. Иванова. Ред.-сост. А.Григорян, М., “Языки славянских культур”, 2011, 600 с.

(2). Башляр Г. Избранное. Поэтика пространства. Пер. с франц. М., «Российская политическая энциклопедия», 2004, 376 с; Барт Р. S/Z. Пер. с фр. 2-е изд., испр. Под ред. Г.К.Косикова. М., Эдиториал УРСС, 2001, 232 с; Фуко М. Другие пространства. Интеллектуалы и власть. Ч. 3, М., “Праксис”, 2006, с. 191–204, 320 с.

(3). Forster E.M. Aspects of the Novel. New York, 1927, 264 p.

(4). Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1986, 408-bet; Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001, 558-bet; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, “Noshir”, 2019, 336-bet.

(5). Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2009, 152-бет; Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Монография, Т., “Турон-Иқбол”, 2017, 297-бет; To‘rayeva B. Zamonaviy romanlarda xronotop poetikasi. Toshkent, “Effect-D”, 2022, 288-bet; Nazarov O‘. Romanda badiiy xronotopning o ‘ziga xosligi. Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2014, 140-bet; Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида хронотоп поэтикаси. Филол.фан.фалс.д-ри ...дисс., Самарқанд, 2020, 152-бет.

(6). Normatov U. Murod Muhammad Do‘st haqida. Ikki qissa. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umarali-normatov-murod-muhammad-dost-haqida.html

(7). Eshonqul N. Mendan “men”gacha. Toshkent, “Akademnashr”, 2014, 512-bet.

(8). To‘laganova S. Muhabbat haqida aytilmagan qo‘shiq. Murod Muhammad Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi tahlili. https://oyina.uz/uz/article/2172

(9). Кошечко А.Н. Поэтика художественного пространства романов Ф.М.Достоевского 1860-х годов («Преступление и наказание», «Идиот»). Дисс…к.ф.н., Томск, 2003, 250 с.

(10). https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/4214/

(11).https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Ahmad%20A'zam.%20Asqartog'%20tomonlarda%20(qissa).pdf

Ashurov Baxshillo Sharopovich (Navoiy davlat universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA SO‘Z QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Annotatsiya. *O‘zbek bolalar adabiyotining istiqlol davri rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan bolalar shoirlari Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajab ijodida so‘z qo‘llashning o‘ziga xosligi to‘g‘risidagi yozgan she’rlarining ba’zilari tahlilga tortildi. Kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘qituvchi va jonajon maktabga muhabbat kabi masalalar ilgari surilgan. Shoir she’rlari orqali bolalarni tabiat voqea-hodisalarni bilan tanishtiradi, tabiatni asrash, e’zozlash, ardoqlashga o‘rgatadi.*

Kalit so‘zlar: *do‘stlik, maktab. qor bahor, yomg‘r, tabiat, ramz, o‘xshatish, tasvir, bolalar, adabiyot, ijod, she’r.*

СВОЕОБРАЗИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВ В УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности использования слова в творчестве поэтов Абдурахмона Акбара и Дильшода Раджаба, внёсших вклад в развитие и процветание узбекской детской литературы в период независимости. В анализ включены некоторые их стихотворения. Поднимаются такие темы, как уважение к старшим, забота о младших, дружба и братство между детьми, любовь к учителю и родной школе. Через свои стихи поэты знакомят детей с явлениями природы, воспитывают бережное отношение к окружающему миру, учат защищать и ценить природу.*

Ключевые слова: *дружба, школа, снег, весна, дождь, природа, символ, сравнение, образ, дети, литература, творчество, стихотворение.*

THE PECULIARITIES OF USING WORDS IN UZBEK CHILDREN'S POETRY

Annotation. *This article analyzes the unique use of language in the poetry of Abdurahmon Akbar and Dilshod Rajab, who have contributed to the development and progress of Uzbek children's literature during the period of independence. Several of their poems are examined. The themes explored include respect for elders, care for the younger, friendship and brotherhood among children, and love for teachers and school. Through their poetry, the poets introduce children to natural phenomena and events, encouraging them to protect, cherish, and value the environment.*

Keywords: *friendship, school, snow, spring, rain, nature, symbol, simile, imagery, children, literature, creativity, poem.*

Kirish (Introduction). Bolalar adabiyoti, ayniqsa, bolalar she’riyati bu nafaqat estetik mazmun bilan boyitilgan badiiy janr, balki psixologik sezgirlik, sotsiomadaniy bilimlar va til poetikasining murakkab uyg‘unligidir. Ushbu janrda muvaffaqiyatga erishish ijodkordan nafaqat iste’dod va ilhom, balki bolalar dunyoqarashi, orzu-umidlari, ruhiy ehtiyojlarini chuqur tushunishni ham talab etadi. Shu jihatdan qaralganda, zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyotining yorqin vakili Abdurahmon Akbar ijodi alohida e’tiborga loyiqdir.

Shoirning poetik makoni beg‘uborlik, musaffolik va samimiylik tamoyillariga asoslanadi. Uning she’rlarida gavdalanadigan qahramonlar – bolalar – o‘z tabiatiga xos sodda, beg‘ubor va pokiza tuyg‘ulari bilan nafaqat individual kechinmalarini, balki umumiy insoniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Bu obrazlar orqali muallif bolalar ruhiy olamining nozik jihatlarini ochib beradi, ularning emotsional-intellektual tajribalarini badiiy ifodaga ko‘chira oladi.

Xususan, “Armon haqida she’r” asarida tasvirlangan holat – sinfdoshi Nigoradan erta ajralgan o‘quvchining ruhiy holati bolaning chuqur emotsional zarba bilan yuzlashuvi, motamni idrok etish bosqichlari va iztirobining poetik ko‘rinishidir. She’rda to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmagan, ammo subtekst orqali anglashiladigan fojia hissi yuqori darajadagi stilistik lakonizm va lirizm orqali ifodalanadi. Bu, o‘z navbatida, bolalar adabiyotida emotsional-terapevtik funksiyaning muhimligini ko‘rsatadi.

“Nodira” she’rida esa bolakay qalbida endi-endi paydo bo‘layotgan, hali nomlanmagan, ammo sezgir va beg‘ubor tuyg‘ular obrazli ifoda vositalari yordamida badiiylashtiriladi. Bu yerda metafora, tashbih va personifikatsiya singari poetik vositalar orqali bola kechinmasi go‘zal va nozik ranglarda tasvirlanadi. Bolakayning ilk his-tuyg‘ulari she’riy nutqda estetik kod orqali yetkaziladi va bu jarayon o‘quvchida iliqlik, quvonch va samimiylik hissini uyg‘otadi.

Quloq soling, – dedi muallim.
Chor atrofni bosgandayin suv
Zim o‘tmasdan sinf bo‘ldi jim.
Mening esa Nodira bilan
Suhbatlashgim kelaveradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Abdurahmon Akbarning bolalar uchun yaratgan she’riyati – bu lingvopoetik tadqiqot uchun boy material bo‘lib, unda bolalar qalbining emotsional dinamikasi, estetik idroki va axloqiy o‘sishi badiiy til vositalari orqali mahorat bilan ifodalangan. Uning asarlari bolalar adabiyotining sotsial, estetik va tarbiyaviy funksiyalarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, zamonaviy bolalar poetikasining taraqqiyot yo‘nalishlarini o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlanadi.

Bolalar adabiyoti doirasida yaratilgan badiiy asarlarni tematik va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra tasniflash adabiy jarayonni chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bolalarga bag‘ishlab yozilgan asarlar mazmun va tasvir uslubiga qarab bir nechta poetik yo‘nalishlarga ajratilishi mumkin. Bu yerda ayniqsa muhim mezonlardan biri muallifning bolalik obrazini qanday yondashuv orqali aks ettirayotganidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayrim ijodkorlar bolalar hayoti va ruhiyatini tasvirlar ekan, uni kattalar hayotiy falsafasi, tajribasi bilan uyg‘unlashtirib, bolalikni retrospektiv – kattalar nigohi orqali eslashga urinadilar. Bunday uslubda muallif o‘zining to‘plagan hayotiy tafakkuri, ijtimoiy kuzatuvchanligi bilan bolalar obrazini shakllantiradi. Bu yondashuvda bola – ko‘proq tahliliy, fikr yurituvchi, to‘g‘ridan to‘g‘ri emotsional emas, balki muayyan ijtimoiy yoki axloqiy g‘oyani ifodalovchi vositaga aylanadi.

Biroq bolalar adabiyotining boshqa bir yo‘nalishida esa, muallif bolalik olamiga bevosita kirib boradi, voqelikni go‘yoki bolaning o‘zi hikoya qilayotgandek tarzda bayon etadi. Bunday uslubda yozilgan asarlar bola dunyoqarashi, so‘z boyligi, emotsional refleksiyasi va o‘ziga xos mantiqiy fikrlash tizimi bilan

uyg‘unlashgan bo‘ladi. Hikoya qiluvchi pozitsiyasi bolaning ichki ovozi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bunday matnlar o‘quvchi bola uchun yanada yaqin va qiziqarli bo‘lib, o‘zini shu voqelik ishtirokchisi sifatida tasavvur qilish imkonini beradi.

Xususan, “Shoir dadam haqida she’riy hikoyalar” turkumidagi asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu to‘plamda bevosita bola nomidan hikoya qilish usuli yetakchi estetik tamoyil sifatida ilgari surilgan. Liriksubyektiv yo‘sinda ifodalangan ushbu she’riy hikoyalar bolalik ongining tabiiyligi, sezgirligi va hayrat tuyg‘ularini yorqin poetik tasvirlar orqali ochib beradi. Matnlarda muallif emas, aynan bola obrazining ichki nutqi, unga xos so‘zlash uslubi va hissiy ohangi yetakchilik qiladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchiga matnni chuqurroq anglash va unda o‘z qiyofasini ko‘rish imkonini yaratadi.

Demak, bolalar adabiyotida hikoya etish uslubining xilma-xilligi muallifning estetik niyati, pedagogik yondashuvi va psixologik sezgirligiga bog‘liqdir. “Shoir dadam haqida she’riy hikoyalar” kabi turkumlar esa zamonaviy adabiy jarayonda bola tasavvurini ichki pozitsiyadan ochib beruvchi samarali poetik model sifatida alohida o‘rganishga arziydi. Jumladan, “Dadamning qalbi” she’riy hikoyasida shunday deyiladi:

“Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to‘rt she’ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko‘rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish…” (“Yozning tug‘ilgan kuni”).

E’tibor berilsa, ushbu hikoyalash modeli mumtoz adabiyotimizning sajʻ – qofiyali nasr an’analarini jonlantiradi. Matndagi ichki qofiyaga mos, tizimli so‘z takrorlari to‘plamga kiruvchi she’riy hikoyalar-ning kompozitsion yaxlitligi va mazmuniy serqatlamligini mustahkamlaydi. Aslida, bunday tasvir yo‘sini she’riy shaklga sig‘magan, teran fikrlar oqimini ifodalovchi “so‘z ummoni” deb atash mumkin. Bor-yo‘g‘i olti gapdan iborat bir hikoyada «dadamning qalbi» birikmasi olti bor yangraydi va bu refren bedor ko‘ngil to‘lqinlarining beqaror rezonasini eslatadi. «Dadamning fikri», «Ari», «Supacha», «Dadamning hazili» kabi boshqa namunalarda ham mazmunan to‘yimli g‘oyalar sajʻ prinsipida bayon etilib, yosh kitobxon qalbida badiiy-estetik sezgirlik va so‘z ohangiga oshnolikni kamol toptirishga xizmat qiladi.

“Dadamning hazili” she’riy hikoyasiga e’tiborimizni qarataylik:

Mehmon kelib qolishin ta’kidlab dadam, jo‘nab ketdi ishiga shoshib subhidam. Birozdan so‘ng onam ham tushdilar yo‘lga: – U-bu narsa olarman, ilinsa qo‘lga. Barno dedi peshbandin egniga tutib: – Bu ahvolda mehmonni bo‘lmaydi kutib. Hovliga bir qaranglar, uyga bir qarang. Alg‘ov-dalg‘ov hammayoq, hammayoq kir, chang.

Yulduzxon, sen ayvonni polin artib chiq. Obdastaga suv to‘ldir, hozirla sochiq. O‘tinlardan qalab qo‘y, tandirga, Omon. Xamir oshsa, yopamiz hademayin non. Qo‘ylaringga, Bahodir, qarab tur, qarab. Uyaltirib qo‘ymasin basma-bas ma’rab…

Xullas, uyga qaytguncha onam va dadam, yumushlarni bitkazib, bo‘ldik xotirjam. Bu orada o‘n quloch yerni ham chopdik. Oshxonani oqlashga fursat, vaqt topdik. Katta uyga yozdik so‘ng katta dasturxon. Biroq kelavermadi biz kutgan mehmon. Hayron edik bu holga, topolmasdik so‘z. Quvontira olmasdi dasturxon ham ko‘z. Uyga boshlab kiraman mehmonni shodon, deya chiqdi ko‘chaga ikki bor Omon. Qah-qah otib, kulvorib dadamlar nogoh, hamma “sir”dan bizlarni etdilar ogoh:

– Bilgim keldi judayam qodirsiz nega. Qolmas ekan sevindim, uyim beega.Yolg‘onimni sirayam olmanglar og‘ir. Rahmat, Yulduz – oy qizim, rahmat, Bahodir. Qani, oshga qaranglar, o‘tirmanglar jim. Bugun “mehmon” o‘zimman, bolajonlarim.[1]

Shoir Abdurahmon Akbar bolalar uchun yaratgan she’riy hikoyalarida bolalik olamiga xos holat va voqeliklarni nozik estetik idrok bilan aks ettiradi. Uning poetik matnlari bolalar hayotining oddiy, ammo pedagogik va axloqiy jihatdan muhim bo‘lgan tafsilotlarini o‘z ichiga oladi. A.Akbar ijodining diqqatga sazovor jihatlaridan biri – uning bolalar kundalik turmushidagi real motivlarni poetik tasvirga olib chiqishdagi yondashuvidir. U ijodiy faoliyatida kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘qishga mehr uyg‘otish, odob-axloq normalariga rioya qilish, kasb va hunarga qiziqish hamda mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida badiiy so‘zni mohirlik bilan qo‘llaydi.

Abdurahmon Akbar poetik nutqning bolalar uchun ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglagan holda, badiiy obrazlar orqali o‘quvchining tafakkuriga ta’sir ko‘rsatuvchi didaktik konstruksiyalar yaratadi. Shoir asarlarining muhim xususiyatlaridan biri unda bola hayotining dolzarb jihatlari, ya’ni ma’naviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, oila va mehnatga munosabat singari masalalar adabiy-falsafiy asosda yoritilgani-

[1] A.Akbar. Yozning tug‘ilgan kuni. T., “Cho‘lpon”, 1992, 25–26-betlar.

dir. Bu jarayonda muallifning lirik tili, ifodaviy vositalarni bolalar tasavvuriga mos tarzda ishlatishdagi mahorati alohida e'tiborga loyiq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada asosan: matnshunoslik, lingvopoetik yondashuv, qiyosiy-tahliliy metod qo'llangan. Tanlangan namunalar – Abdurahmon Akbarning "Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar", "Salom xat", shuningdek, Dilshod Rajabning "O'zbek", "Qishki safar" kabi she'rlari o'zbek bolalar she'riyatidagi so'z qo'llashning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish uchun asos qilib olingan.

Metodologiya sifatida poetik vositalarni (metafora, personifikatsiya, tashbih) aniqlash va ularning bolalar adabiyotidagi estetik-ta'sirchanlik jihatlarini izohlash yo'li tanlangan. Bundan tashqari, A.Akbar ijodida o'zbek bolalar poeziyasiga yangicha uslubiy va mazmuniy elementlarni olib kirgan eksperimentlar ham mavjud. Ayniqsa, u tomonidan yaratilgan raqamli va sonli she'rlar bolalar adabiyotida shakllanayotgan innovatsion yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Bu turdagi she'rlar son va raqamlar orqali bola tafakkurining mantiqiy va assotsiativ fikrlashini faollashtiradi, ularni nazmiy shaklda matematika elementlari bilan tanishtiradi, shuningdek, abstrakt tushunchalarni obrazli tarzda qabul qilishga yordam beradi. Ushbu uslub o'quvchi e'tiborini jalb qilish, ta'limiy jarayonni badiiy-estetik muhitga singdirish nuqtayi nazaridan sezilarli samaradorlik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Akbar ijodi o'zbek bolalar adabiyotida nafaqat poetik obrazlar tizimini boyitgan, balki pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashgan yangi shakl va uslublarni ham muvaffaqiyatli tatbiq etgan holda milliy poeziyaning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodiy hodisa sifatida baholanishi mumkin. Fikr dalili uchun "Salom xat" she'riga e'tibor qaratamiz:

– Tushlarimga bu kecha
Akang kiribdi, Rahmat.
Vaqt topib yozib yubor
Yana 2 enlik xat.
Sog'inibman chamasi,
3ayapti ko'zim ham.
Buvim salom aytdi deb
Qo'shib qo'y, xo'pmi, bolam?

Abdurahmon Akbar ijodida bolalar qalbining sof va samimiy kechinmalari real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashgan holda badiiy ifodaga ega bo'ladi. Shoirning armiyada xizmat qilayotgan yigitni sog'ingan buvi, buvining topshirig'ini bajarayotgan Rahmatjon ismli bolaning harakati orqali ochib berilgan she'riy hikoyasi bunga yorqin misol bo'la oladi. Asar syujeti oddiy axborot shaklida – bolaning amakisiga maktub yozayotgani tasviri bilan boshlanadi. Bu oddiy holat orqali muallif bir vaqtning o'zida bir necha muhim mavzular – vatanparvarlik, oilaviy bog'liqlik, mehr-oqibat hamda bolalar tafakkurining o'ziga xos ijodiy tabiati kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Rahmatjonning harakatlarida bir tomondan jiddiylik, ya'ni buvisining holatini yengillashtirish, nevarasiga xabar yetkazish istagi sezilsa, ikkinchi tomondan, bola qalbining tabiiy o'yinchanligi va ijodkorlikka moyilligi yorqin ko'rinadi. Aynan shu she'rda tasvirlanganidek, bola hatto jiddiy kontekstda ham o'zida ijodiy izlanish kayfiyatini saqlab qoladi. U "ikki enlik" kabi iborani ko'zdan kechirarkan, ichidagi "ikki" so'ziga alohida e'tibor qaratadi va uni raqam shaklida yozib ko'radi. Bu, o'z navbatida, bolaning nutqdagi estetik buzilishlar orqali yangi semantik shakllarni kashf etish istagini bildiradi.

Mazkur harakat – so'z ichidan raqam, belgi yoki grafik element izlash – bolalar tafakkuridagi lingvokognitiv ijodkorlikni ifodalaydi. Bu holat til va matematik tushunchalarning kesishgan nuqtasida yuzaga kelgan qiziqarli fenomen sifatida baholanishi mumkin. Rahmatjon o'z tajribasi davomida yangi, g'ayritabiiy shakllar yaratishga harakat qiladi – bu esa bola ongida vizual-tasviriy ifoda vositalariga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni ko'rsatadi. Harf va raqamni uyg'unlashtirish orqali vujudga kelgan yangi ifodalar, bir tomondan, bolaga zavq bag'ishlasa, ikkinchi tomondan, matnning o'ziga xos poetik semantikasini kuchaytiradi.

Shu tarzda, she'rda nafaqat syujet dinamikasi, balki bolalar tafakkurining yaratuvchanligi, semiotik sintezga intilishi ham yuksak badiiy darajada ifodalanadi. Bu jihatlar A.Akbar ijodining muhim xususiyatlaridan biri sifatida bolalar poeziyasida raqamli, belgisimon ifodalar orqali poetik shaklni boyitishga intilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

"Aka, qanday yuribsiz,
So'z ketyaptimi xizmat?
Askarlikka k10ikib
Ketgandirsiz batamom.

Kichik yoshdagi qahramonning nutqi orqali ifodalangan ushbu she’r o‘zining quvnoq va o‘ynoqi ohangi, shuningdek, soddaligi bilan ajralib turuvchi leksik vositalar yordamida muhim ijtimoiy-axloqiy g‘oyani yetkazishga xizmat qiladi. She’rni o‘qigan kitobxon, shubhasiz, badiiy-estetik zavq bilan birga emotsional ko‘tarinkilikni ham his etadi.

6ariqqa bordik
O‘tgan oy bo‘lib mehmon.
Kirib keldi qishloqqa
Bahor chalib q10g‘iroq.
G‘3 – g‘3 gulladi o‘rik,
Gullari mayda 1oq…
Fursatingiz bo‘lganda
Yozib turing, aka, xat.
3rashguncha xayr deb
Ukangiz Abdurahmat.[1]

Shoirning barcha she’riy asarlarida kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘qituvchi va jonajon maktabga muhabbat kabi masalalar ilgari surilgan. “Sentabr quvonchi” she’ridan bir parcha keltiramiz:

…Ukam ham shod mendayin
Qo‘limizda guldasta.
Maktab darvozasiga
Yetsak deymiz bir pasda.

Har bir badiiy ijodkor bolalar obrazini yaratishda, avvalo, yaratuvchanlik ruhiyati bilan yashayotgan, kelajakka umid va ishonch bilan qarovchi, “kim bo‘lsam ekan?” degan savol bilan orzu-havas og‘ushida ulg‘ayayotgan bola timsolini diqqat markaziga qo‘yadi. Bu, tabiiy ravishda, bolalar adabiyotining g‘oyaviy-estetik tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda yuzaga chiqadi. Abdurahmon Akbar ijodi ham ushbu yo‘nalishning yorqin namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Iqtidorli va o‘ziga xos poetik uslubga ega bo‘lgan bolalar shoiri Abdurahmon Akbarning asarlari, xususan, o‘zida quvnoqlik, soddalik va badiiy sirli qatlamlarni mujassam etgan she’rlari, bolalar qalbiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish kuchi bilan ajralib turadi. Uning obrazli va mazmunan boy she’riy misralari kitobxon bolalarda estetik zavq uyg‘otadi, ularni fikrlashga, his etishga va orzu qilishga undaydi. Akbarning ijodi or-qali bolalar badiiy so‘zning kuchini, uning tarbiyaviy va ruhiy-ma’naviy imkoniyatlarini his qiladilar. Shu boisdan, shoirdan o‘qilgan har bir asar, ayni paytda, bolalik ruhiyatining badiiy ifodasiga aylanadi.

Tunlari kuladigan
Gullar ekan yulduzlar.
Ko‘zga ko‘rinmas ekan
Shu boisdan kunduzlar.
Oftob bilan Oymoma
Ota-yu ona ekan.
Bolalarin boshida
Doim parvona ekan.
Bolalari kim dersiz
Kun va Oyni sizlar ham.
Menga ishonavering,
Ular Bulutlar desam[2]*…* (“Yomg‘ir” she’ri)

Bolalar shoiri Abdurahmon Akbar ijodi yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maqolada quyidagilar aniqlangan: Abdurahmon Akbar asarlarida bola qalbining emotsional dunyosi sodda, lekin chuqur ma’no bilan boyitilgan obrazlar orqali ifodalangan; Akbar ijodida raqamli va belgisimon she’rlar innovatsion yo‘nalish sifatida o‘rganilga; Dilshod Rajabning she’rlarida qish manzaralari, tabiat ramzlari, falsafiy ishoralar bolalarga qulay tilda yetkazilga; Ikkala shoir ijodida ham mehr-oqibat, oila, do‘stlik, Vatanga muhabbat kabi umumiy g‘oyalar yetak-

[1] R.Barakayev. Jonajonim, she’riyat. T., “Cho‘lpon”, 1997, 64–66-betlar.
[2] A.Akbar. Uyquchining tushlari. Toshkent, 2006, 77-bet

chi bo‘lib kelgan. Poetika vositalari (qofiya, lirik ohang, obrazlilik) bolalarning nutqiy va estetik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Ma’lumki, qish fasli badiiy tasvirlarda, ko‘pincha, yorug‘lik ustidan zulmatning, iliqlik ustidan sovuqlikning vaqtinchalik g‘alabasi sifatida talqin etiladi. Shu sababli, adabiy matnlarda qish manzaralari tasvirlanganda, odatda, sust ranglar palitrasi, ichki sokinlik, mahzunlik va falsafiy mushohada ohangi ustuvorlik kasb etadi. Ushbu semantik va emotsional fon Dilshod Rajabning quyidagi to‘rtlik misrasida ham o‘z ifodasini topadi. Mazkur she’riy parcha qish fasliga xos bo‘lgan tabiiy va ruhiy holatlarning obrazli poetik talqinini aks ettiradi:

Turar qator daraxtlar –
Hali nochor daraxtlar.
Boshga tushgan qor – g‘amdan
Sochi oppoq oqargan.[1]

To‘rtlikda qish faslining ma’yus ruhiy manzarasi orqali o‘z ko‘rki va tarovatidan ayrilgan, hayotiy quvvatdan mahrum bo‘lgan daraxtlar obrazi yaratiladi. Boshiga qor yopirilgan daraxtlar – bu yerda g‘amalam timsolida metaforik darajada talqin etiladi. Oppoq qorga burkangan daraxtlar obrazi esa, beixtiyor, sovuqdan qaltirayotgan, ust-boshiga yupun, nochor holatdagi kambag‘al insonni eslatadi. Bu holat orqali shoir qishning o‘tkinchi qahrini, hayotdagi muvaqqat sinovlarni estetik obraz vositasida aks ettiradi.

Biroq ushbu manzaradagi ruhiy tushkunlik holati abadiy emas. Shoir qish manzarasi orqali inson hayotining dialektik xarakterini ham ochib beradi: zulmat qancha kuchli bo‘lmasin, u baribir yorug‘likka o‘rin bo‘shatadi. Bu tabiatning abadiy qonuniyati, hayotiy harakat va yangilanishning timsolidir. Dilshod Rajab ijodining navbatdagi to‘rtligida aynan shu mangu metafizik qonuniyat zulmat va yorug‘lik, sovuq va iliqlik, turg‘unlik va harakat o‘rtasidagi dialektik kurash ulug‘lanadi. Bu tasvir hayot boqiyligini, umid va taraqqiyot g‘oyasining g‘alabasini madh etuvchi kuchli poetik ifodadir:

Kechki osmon ohista
Qorni elay boshlaydi.
Tunning qaro sochiga
Oq oralay boshlaydi.

Ma’lumki, yosh bolaning sarhad bilmas xayolot olami borliqni kattalarning ramkalarga solingan tasavvurlariga sig‘maydigan turfa va rangin qiyofalarda ko‘radi. Aslida, ana shu taassurotni bir umrga saqlab qolgan kishilar bolalar ijodkorlari bo‘lib yetishsalar ham ajab emas. Dilshod Rajab ham bu ko‘hna olamga yosh kitobxonlarining ko‘zi bilan boqadi, shu boisdan uning she’rlaridagi biz bilan siz – kattalar uchun kutilmagan tasvirlar yosh kitobxon uchun qadrdon, qiziqarli, uning xayolot olamiga hamohang. “Qishki safar” she’ri ham ana shunday bolalarcha munavvar taassurot mahsuli:

Mo‘risidan dud chiqqan
Uylar misli poyezdlar.
Yelayotir manzilga –
Shitob, bizning poyezdlar.
Ular to‘xtamas toki,
Sovuq qorlar ketguncha.
Toki so‘nggi bekati
Navbahorga yetguncha.

Mo‘risidan tutun chiqayotgan uylarni poyezdlarga va o‘zini shu poyezd ichida “Navbahor” degan ramziy bekatga tomon yelayotgan yo‘lovchiga o‘xshatish aynan bola tasavvurining mahsuli ekanligi bilan ham tabiiy.

Sevimli bolajonlar shoiri Dilshod Rajabning “O‘zbek” she’ri Inson, xalq tasviriga urg‘u berilgani bilan ham e’tiborga loyiqdir. She’rning dastlabki satrlaridanoq bag‘ri keng o‘zbek qiyofasiga chizgilar chizila boshlaydi:

Sig‘masa ham o‘zi, do‘stga
Joyi bor uning,
Yo‘lovchiga “Bir piyola –
Choy”i bor uning.

O‘zbek milliy mentalitetini shakllantiruvchi asosiy belgilardan biri bu uning chuqur ildiz otgan mehnatsevarlik fazilatidir. O‘zbek mehnatsevarligi faqat agrar faoliyat yoki daladagi jismoniy mehnat bilan

[1] D.Rajab. Otamning bog‘i. T., “Cho‘lpon”, 1996, 14-bet.

cheklanmay, balki oila va jamiyat farovonligiga qaratilgan keng ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimida namoyon bo'ladi. U o'zining vaqtinchalik rohat-farog'atini emas, balki farzandlarining baxtli kelajagini ustuvor maqsad sifatida ko'radi.

O'g'il uylantirish, qiz uzatish, xalq oldida dasturxon yozib, oq niyatli duolarni olish – o'zbek xalqining hayotida eng oliy qadriyat, ma'naviy boylik sifatida talqin etiladi. Ana shu yuksak maqsad sari intilgan o'zbek oilaboshi har yili yoz kelganda loy qorib, imorat barpo etadi. Bu jarayon tashqi jismoniy mehnat bo'lib ko'ringani bilan, aslida bola-chaqasining mustahkam, barqaror va baxtli hayotini qurishga qaratilgan chuqur ijtimoiy va ruhiy harakatdir. Binobarin, mehnat o'zbek xalqining nafaqat moddiy, balki ma'naviy kamolotini ta'minlovchi asosiy hayotiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki:

O'g'il-qizi – yorug' yulduz,
Oyi bor uning,
O'chmas izi, bosadigan
Toyi bor uning.[1]

Binobarin, o'zbek uchun "ot izini bosadigan toylar"i, ya'ni, uning farzandlari, kelajagining davomchilari eng katta ilhom va maqsaddir. "O-yu-yulduz"dek aziz bolalari uchun qilinadigan har qanday mehnat, har qanday fidoiylik mashaqqat emas, balki faxr va baxt manbaidir. Bu bolajonlik tuyg'usi esa avloddan avlodga o'tgan, ming yillar davomida qadrlangan, muqaddas meros sifatida yashab kelayotgan milliy qadriyatdir. Aynan shu tuyg'u sababli o'zbekning ko'ngli doimo ochiq, chehrasi nurli, dasturxoni esa mehmonu musofir uchun doim tayyor bo'ladi.

Bu ruhiy-axloqiy barqarorlik, insonparvarlik va mehr-oqibatga asoslangan dunyoqarash o'zbek xalqining qadimiy zamindan o'sib chiqqan madaniyatida, she'riyati va og'zaki ijodida chuqur ildiz otgan. Shu bois ham xalqimiz yashab turgan jannatmakon diyorga, uning fayzli tabiatiga, osoyishtaligiga va barakotiga bevosita ma'naviy bog'liqlik seziladi. Shoirning she'ri ham ana shu yuksak e'tiqod va minnatdorchilik tuyg'usi bilan yakunlanadi:

Do'ppisini ko'kka otib
Shodlansa arzir;
O'zbekiston degan jannat
Joyi bor uning[2]

Bu misralarda shoirning ulug' el farzandi ekanidan faxr va g'urur tuyg'ulari jo'sh uradi. Unda xalqiga bo'lgan sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga daxldorlik hissi ifodasini topgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bolalar uchun mo'ljallangan poetik asarlarning muvaffaqiyati, avvalo, ularning emotsional sezgirligi, lisoniy soddaligi va estetik yoqimliligi bilan belgilanadi. Bu jihatdan taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev tomonidan ilgari surilgan fikr, ya'ni "bolalarga qisqa vaznli, kutilmagan qofiyalarga asoslangan, jinday yumor va falsafa omuxta qilingan she'rlar yozish zarur", bolalar adabiyotining zamonaviy talablari va pedagogik-ma'rifiy vazifalari bilan uzviy bog'liqdir. Aynan qofiyadagi ohangdorlik elementlari she'rning tez yod olinishi, esda qolish qobiliyatini kuchaytiradi va shu orqali poetik matnning ta'sirchanlik darajasini oshiradi.

Dilshod Rajabning poetik uslubi qisqa, ohangdor va semantik jihatdan zich tuzilgan baytlar orqali bolalarning tafakkur olamiga ta'sir ko'rsatadi. Uning she'rlarida lirik obrazlar orqali bola dunyoqarashi, uning axloqiy-estetik qadriyatlari, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati shakllanadi. Shuningdek, she'rlaridagi yumoristik ohang va yumshoq falsafiy ishoralar bolalarning qiziqishini uyg'otib, ularni badiiy matn bilan emotsional jihatdan o'zaro aloqaga kirishishga yordam beradi.

Shunday qilib, zamonaviy bolalar adabiyotining muvaffaqiyati muallifning qofiyalash mahorati, lisoniy soddalik, ohangdorlik va kichik yoshdagi kitobxonning psixologik muloqot ehtiyojlarini to'g'ri anglay olishi bilan chambarchas bog'liq. Tursunboy Adashboyev va Dilshod Rajab kabi ijodkorlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, bolalar she'riyati – bu nafaqat pedagogik vosita, balki lingvopoetik va madaniy-estetik muloqot maydonidir. Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajabning bolalar uchun yozgan she'rlari zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida katta o'rin tutadi. Maktab darsliklarida bu ijodkorlarning asarlarini ko'proq qo'llash, ayniqsa interaktiv va o'yinli shaklda o'rgatish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). A.Akbar. Yozning tug'ilgan kuni. T., "Cho'lpon", 1992, 25–26-betlar.

[1] D.Rajab. Tanish tovushlar. Toshkent, 1998, 36-bet.
[2] O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. I jild, She'riyat, T., "O'qituvchi", 2009, 19–20-betlar.

(2). R.Barakayev. Jonajonim, she'riyat. T., "Cho'lpon". 1997, 64–66-betlar.
(3). A.Akbar. Uyquchining tushlari. Toshkent, 2006, 77-bet.
(4). D.Rajab. Otamning bog'i. T., "Cho'lpon", 1996, 14-bet.
(5). D.Rajab. Tanish tovushlar. Toshkent, 1998, 36-bet.
(6). O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. I jild, She'riyat, T., "O'qituvchi", 2009, 19–20-betlar.
(7). R.Barakayev, Z.Isomiddinov. Beg'uborlik olami kuychisi. Toshkent, 2011, 112-bet.

Talipova Aida Muratovna (TTYSI, 3-kurs doktoranti)

NURALI QOBUL VA JEK LONDON HIKOYALARIDA ROVIY OBRAZI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek yozuvchisi Nurali Qobul hamda amerikalik yozuvchi Jek London hikoyalaridagi roviy obrazi tahlil qilinadi. Har ikki yozuvchining hikoyalarida roviy qanday tanlangan, uning dunyoqarashi, voqelikka munosabati va bayon uslubi qanday, shular asosida o'xshash va farqli jihatlar ochib beriladi. Bu orqali turli adabiy maktablar doirasida roviy obrazining qanday shakllanishi hamda u orqali asarning badiiy qiymati qanday yuzaga kelishiga aniqlik kiritiladi.*

Kalit so'zlar: *roviy, roviy obraz, roviy nutq, uslub, vosita, roviy muallif, uslub, personaj, muallif.*

АНАЛИЗ ОБРАЗА РАССКАЗЧИКА В РАССКАЗАХ НУРАЛИ КОБУЛА И ДЖЕКА ЛОНДОНА

Аннотация. *В данной статье анализируется образ рассказчика в рассказах узбекского писателя Нурали Кабула и американского писателя Джека Лондона. В рассказах обоих писателей раскрывается, как был выбран рассказчик, его мировоззрение, отношение к действительности, сходства и различия в стиле повествования. Благодаря этому становится ясно, как формируется образ рассказчика в рамках различных литературных школ и как через него возникает художественная ценность произведения.*

Ключевые слова: *рассказчик, рассказчик, образ, рассказчик, речь, стиль, средство, рассказчик, автор, стиль, персонаж, автор.*

ANALYSIS OF THE NARRATOR'S IMAGE IN THE STORIES OF NURALI QOBUL AND JACK LONDON

Annotation. *This article analyzes the character of the narrator in the stories of Uzbek writer Nurali Kabul and American writer Jack London. In the stories of both writers, similarities and differences are revealed based on how the narrator was chosen, his worldview, attitude to reality, and style of narration. Through this, it is clarified how the image of the narrator is formed within the framework of different literary schools and how the artistic value of the work arises through it.*

Keywords: *narrator, narrator image, narrator speech, style, means, narrator author, style, character, author.*

Kirish. Adabiyotda roviy obrazi asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda, uning badiiy va hissiy muhitini yaratishda muhim o'rin tutadi. Turli adabiy an'analarda roviy nafaqat voqealarni bayon qiluvchi shaxs, balki muallifning ichki dunyosi, falsafasi va qarashlarini ifoda etuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Sharq va G'arb adabiyoti o'zining betakror naql qilish uslublari va roviy obrazini yaratishdagi yondashuvlari bilan farqlanadi. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining namoyandalaridan biri Nurali Qobul hamda Amerika adabiyoti klassigi Jek London hikoyalaridagi roviy obrazi taqqoslanadi. Har ikki yozuvchining asarlarida voqealarni qanday roviy orqali bayon qilishlari, qanday uslub va ifoda vositalaridan foydalanishlari tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda Nurali Qobul hikoyalarida hikoyachi obrazurli ilmiy manbalar tahlil qilindi. Badiiy asarlarda hikoyachi rolini tadqiq etgan mutaxassislarning asarlari va nazariy yondashuvlari asosida tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, hikoyachi uslubini, uning tasvir texnikasini va psixologik ta'sirini o'rganishda tahliliy va strukturaviy yondashuvlardan foydalanildi. Nurali Qobul hikoyalari kompozitsiyasida asar tili, xususan, monologik nutq, dialogik nutq va voqeani bayon qilish usuli ham boshqalarnikidan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunoslikda "roviy" tushunchasi asarni hikoya qiluvchi, voqealarni bayon etuvchi shaxs yoki ovoz sifatida talqin qilinadi. U asardagi voqealarni o'quvchiga yetkazuvchi ortiq-

cha shaxs emas, balki muallif bilan o‘quvchi orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Roviy muallif tomonidan yaratiladigan va muayyan badiiy maqsadga xizmat qiluvchi obrazdir.

Adabiyotda roviyning turlari bir nechta asosiy ko‘rinishda uchraydi:

1. Birinchi shaxs roviy (ya’ni, “men” roviy). Bu turda roviy asar voqealarini o‘z nomi bilan gapiradi. U ishtirokchi sifatida hikoyada qatnashadi va barcha hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, his etib bayon etadi. Bu uslub subyektiv bayonga boy bo‘lib, o‘quvchida ravshan psixologik tushunish hissini uyg‘otadi. Masalan, ko‘pincha Nurali Qobul hikoyalarida aynan ana shunday shaxsiy bayon usuli kuzatiladi.

2. Uchinchi shaxs roviy (ya’ni, “u” roviy). Bu holatda roviy hikoyada ishtirok etmaydi, balki kuzatuvchi sifatida barcha voqealarni “u” tarzida bayon etadi. U bu holda neytral yoki bilish darajasiga ko‘ra, cheklangan/cheklanmagan bilimga ega bo‘lishi mumkin. Jek London, ko‘pincha, aynan uchinchi shaxs roviydan foydalangan holda, voqealarni keng qamrovda, ta’sirchan va realistic uslubda bayon etadi.

3. Olmuti (omnissiyent) roviy (hamma narsadan xabardor roviy). Ushbu roviy turi asardagi barcha voqealardan, personajlarning ichki olami, his-tuyg‘ularidan to‘liq boxabar bo‘ladi. U, hatto personajning o‘y-xayollarini ham o‘quvchiga yetkaza oladi. Bu roviy muallifning o‘ziga xos “ovozi” hisoblanadi.

4. Neytral roviy (kuzatuvchi). Bunday roviy hikoyada ishtirok etmaydi, holatlarni faqat tashqi tomondan bayon qiladi, shaxsiy munosabatini bildirmaydi. Bu uslub kinooperatorga o‘xshaydi: u faqat ko‘radi va tasvirlaydi, lekin izohlamaydi. Jek London hikoyalarida ayrim hollarda ana shunday roviyturiga duch kelamiz.

Nurali Qobulning hikoyalarida roviy shaxsi aksar hollarda samimiy, oddiy odamlar hayotiga yaqin, ularning qalb olamiga chuqur kirib boruvchi shaxs sifatida gavdalanadi. U voqealarni nafaqat kuzatadi, balki his qiladi, o‘ylaydi, baholaydi. Shu jihatdan u roviy bilan o‘quvchi o‘rtasida kuchli emotsional bog‘lanish yuzaga keladi. Chunki Nurali Qobul “asardagi voqealar markaziga, avvalo, roviyning lirizmga yo‘g‘rilgan subyektiv holati va hayotiy pozitsiyasini olib chiqadi” [1;2]. Demak, yozuvchi hikoyalarida roviy obrazi yetakchi mavqega ega. Shuning uchun roviyni ham obraz, ham badiiy nutq, ham syujet kompozitsiyasini tashkillovchi sifatida tadqiq etish zarurati mavjud, deyishga asos bor. Nurali Qobulning hikoyalari voqealar roviy tilidan bayon qilinar ekan. Uning nutqida peyzaj va obrazlarning aniq tasviri beriladi. Bu roviy nutqi rang-barangligini ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan olganda peyzaj va portret muallif-roviy obrazining aniq hikoya kompozitsiyasidagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Masalan, “Qaytish”, “Oy to‘lishayotgan tun” kabi hikoyalari bayonida roviy obrazi yetakchiligi yaqqol seziladi. Bunda avval ta’kidlaganidek, peyzaj, portret usulining o‘rni bor. Yozuvchi hikoyani bevosita roviy-personaj tilidan so‘zlaydi [3;4]: “...Somon g‘aramiga chalqancha yotib, to‘lishayotgan oyni kuzatyapman... U menga opam bilan o‘qigan Oybuvi opani yaxshi ko‘rib qolganim, opamni, “Oybuvi opa uyimizga qachon keladi”, deb holi joniga qo‘ymasligim va u meni yugurtira-yugurtira, oxiri Oybuvi opani ergashtirib kelishini, Oybuvi opa meni quchoqlab o‘pganda keladigan qalampirmunchoq hidini, doimo maktabdan qaytishimizda hovlisidagi loy so‘rida o‘tirib, uz-u kun birovlarning urchug‘ini yigiradigan, urushga ketib qaytib kelmagan uch o‘g‘lining kuyigida ko‘r bo‘lib qolgan Mayram momoni eslatadi...”.

Jek London Amerika adabiyotida realistik yo‘nalishda ijod qilgan yozuvchilardan biri bo‘lib, uning asarlarida inson va tabiat munosabati, kurash, tiriklik uchun intilish kabi mavzular markaziy o‘rin tutadi. Uning hikoyalarida roviy obrazi ko‘pincha uchinchi shaxsdagi kuzatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu roviy voqealarni neytral tarzda, shaxsiy hissiyotsiz, lekin keng qamrovda va tafsilotlarga boy holda bayon etadi.

Jek London asarlarida roviyning asosiy vazifasi - voqealarning to‘g‘ri va ta’sirli tasvirini berishdir. Masalan, “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”) hikoyasida roviy qahramonning hayot uchun olib borayotgan kurashini, uning ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarini batafsil tasvirlaydi. Bu yerda roviy, garchi shaxsan voqealarda ishtirok etmasa-da, har bir harakatni, tabiat bilan to‘qnashuvni, hissiyotlar va instinktlarni jonli va ta’sirchan ifoda qiladi. Jek London hikoyalarida roviy ko‘pincha tabiatni “boshqa personaj” sifatida tasvirlaydi. Tasvirlar keng, dinamik va realistik. Roviy har bir qor bo‘ronini, shamolning uvillashini, hayvonlar instinktini batafsil bayon etib, voqealarning faqat inson nuqtayi nazaridan emas, balki keng tabiiy kontekstda ko‘rilishini ta’minlaydi.

Jek London roviysi o‘quvchini hayot haqida o‘ylashga, iroda va ruhiy kuch, tirik qolish istagining ahamiyatini his etishga chorlaydi. Hikoyalardagi roviy, garchi ehtirossiz tarzda so‘zlasa-da, o‘z tavsiflari orqali o‘quvchida kuchli ta’sir qoldiradi.

Kishilarning oxirgi ilinji, so‘nggi chorasi sifatida berilgan ushbu tasvirdagi vaziyat Jek London personajlarida uchraydi. Xususan, “Isyon” hikoyasidagi Jonni ismli bolaning chorasiz turmushi, mashshaqqatini keltirish mumkin **[3].** Jonni oilaviy sharoiti og‘irligidan uch-to‘rt yoshda zavodga borib kechga ishlashga

majburligini, haqsizligi, onasi ukasi, singlisining kelajagini o‘ylab, vagonga chiqib bu yerlardan qochib ketishi ortida ijtimoiy muhitga qarshi isyon bor. Nurali Qobul hikoyasida ham kishilar ilojsizlikdan o‘g‘irlik qilishadi. Jek London muallif-rivoyachi bo‘lib qatnashadi va u yerda Jonni mustaqil xarakterga ega obraz sifatida keladi. Nurali Qobul esa roviy-personaj usuli orqali hikoyani bayon qiladi.

To‘g‘ri, har ikki yozuvchi hikoyalarida ijtimoiy hayotning qiyinchiliklari realistik metod asosida yoritiladi. Lekin Jek Londonda nisbatan og‘irroq, keskinroq vaziyat bo‘ladi. Nurali Qobul hikoyasida esa nisbatan yengilroq turmush tasvirlanadi. Bu yerda, sharqliklarda ko‘proq saqlangan jamoaviy yashash tarzi, ajdodlar va avlodlar munosabati ham ijobiy berilgan. Lekin boshqa tasvirda, ayniqsa, shaxsiy manfaat oldida epizodik personajlar boshqalardan alohida harakat qilishi beriladiki, u ham Jek Londonning “Isyonchi” hikoyasidagi obrazga o‘xshash ketadi: “Hamma qora-qurani ko‘paytirmaslik uchun hech kimga bildirmay anhorga yolg‘iz o‘zi jo‘naydi. Bir-birlarini ko‘rishsa ham ko‘rmaganga olishadi”. Mazkur o‘rinda roviy kishilarni somon o‘g‘irlashga borishdagi holini bayon qilarkan, aslida bug‘doy doni muhim bo‘lib, uni davlat olib ketgani, qolgan somonini ham xalqdan qizg‘anishi, buning ortidan esa oshkora o‘g‘rilik boshlanishi beriladi. Somon o‘g‘irlash holati shaxsiy chorvasi uchun ozuqa to‘plashda muammoga uchragan kishilar uchun oddiy holga aylanganini ko‘rsatadi. “Isyonchi” hikoyasida Jonni ishlaydigan fabrikada kasalmand odamlarning yoki yoshi o‘n to‘rtga to‘lmagan bolalarning ishlashi taqiqlangan edi. Lekin iqtisodiy nochorlik bolalarni yashirincha ishlashga majbur qilardi. Zotan, muhit, tirik qolish tartibi shunday edi. “Nazoratchi Jonnining oldiga kelib to‘xtadi, uning tirsagidan ushlab mashinadan bir qadam chetga tortdi-da, taajjub bilan yana qo‘yib yubordi [5;6].

Xulosa. Aslida, Nurali Qobul asarlarida kaptar, burgut, ot, bo‘ri, it, qo‘y turli darajadagi obraz sifatida ko‘p qo‘llaniladi. Bu uning tabiatga yaqinligi va o‘zi o‘sib ulg‘aygan makon, ota kasbi – chorvachilik bilan bog‘liqligining mahsuli sanaladi. Muallif burgut obrazini yaratar ekan, birinchi galda inson haqida fikr yuritadi. Chunki badiiy obraz – bu yozuvchiga badiiy-yestetik ideal yordamida bevosita jamiyatni hayotiy shaklda ochish imkonini beruvchi inson xarakteri va taqdirini bayon qilish hisoblanadi. Yozuvchi, avvalo, borliqni badiiy qabul qilishning bosh predmeti – inson hayoti ekanligini va yaratilayotgan asarning asosiy qirralari – hayotiy aniqlik qonuniyati va reallikda tasvirlanishini amalga oshirishgan. Umuman olganda, roviy nutqidagi kompozitsion elementlar, asar mazmunidagi muammo, epik kechinma, g‘oyaviy yo‘nalish kabilar o‘zaro yaxlit tizimga kirishib roviy obrazining dunyoqarashi kengligini ko‘rsatadi. Roviy-personaj(muallif) burgut hayoti, turmush tarzi va kurashining mantig‘ini bilish uchun ko‘p narsani bilishini isbotlagan. Garchi asarga burgut obrazi odam va tabiat o‘rtasidagi munosabat buzilishi sifatida asarga kirib kelgan bo‘lsa-da, lekin burgut mag‘rur, erk, ozodlik uchun kurashuvchi obraz sifatida tasvirlangan. Obrazning o‘zini tutishi, badiiy asar doirasidagi harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra, dinamik xususiyatga ega. Badiiylikning ana shunday o‘ziga xos qonuniyatlari borki, ulardan biri bu shaklda o‘zgaruvchanlik mazmunda esa o‘zgarmaslikdir. Aslida hikoya ham shakl va mazmun birligi jihatidan o‘ziga xos yaxlitlikka, puxtalikka ega. Yozuvchi hikoya kompozitsiyasini doimiy harakatdagi obrazlar, tasvirdagi harakatlar ostiga o‘zlarining badiiy-yestektik ideallaridan kelib chiqib qat’iy tamoyil, o‘zgarmas hayot qonuniyatlarini mohirlik bilan singdirib yuborishgan. Xullas, yozuvchi hikoyalarida roviy nutqi, roviy obrazi turli shakl va ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Eng yorqin ajralib turgan juhiti bu bayonning subyektivlikka, badiiy-falsafiylik yo‘g‘rilganligi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. Тошкент, Ma’rifat bitiklari, 2021, 26-bet.

(2). Қобул Нурали. Оқ каптарлар. Ҳикоялар. Қиссалар. Эссе. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1990, 47–52-бетлар.

(3). Жек Лондон. Ҳикоялар. Тошкент, “Davr press”, 2010, 102–129-бетлар.

(4). Rasulova U.Y. XX asr o‘zbek qissachiligi (poetic izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari). Fil.fan.dok. diss. Avtreferati, Toshkent, 2020, 72-bet.

(5). O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild, tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboyev. Toshkent, “Fan”, 2003, 322-bet.

(6). Jack London. Biography. https://www.cliffsnots.com.

(7). Mirzayeva Z. XX asr o‘zbek adabiyotining xorij tadqiqotchilari. Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2016, 128-bet.

(8). The entirety of subjective and objective KV Yulchiyev - Scientific Bulletin of Namangan State University. 2019, p. 245–249.

Eshmirzayeva Zumrad (O‘zJOKU magistranti; E-mail:bintuulugbek@gmail.com; ORCID: 0009-0006-3844-3706)

NEYROMARKETING VA JURNALISTIK ETIKA: CHEGARALAR VA XATARLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada neyromarketing konsepsiyasi va uning zamonaviy ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilish jarayoni hamda bu texnologiyalarning jurnalistik etikaga ta’siri tahlil etiladi. Neyropsixologik yondashuvlar orqali inson ongiga, diqqatiga va qaror qabul qilish jarayoniga ko‘rsatilayot-gan ta’sirlar jurnalistikaning asosiy axloqiy tamoyillari – xolislik, haqqoniylik va auditoriyaga nisbatan hurmat mezonlari bilan qanday ziddiyatga tushayotgani yoritiladi. Tadqiqot davomida xorijiy tajribalar, ilmiy adabiyotlar hamda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalaridan olingan amaliy misollar asosida neyromarketing strategiyalarining etik chegaralari aniqlanadi va ularni tartibga solish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *neyromarketing, jurnalistik etika, axloqiy muvozanat, raqamli media, psixologik ta’sir, manipulyatsiya, OAV mas’uliyati, emotsional trigger, axborot iste’moli.*

НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ЖУРНАЛИСТСКАЯ ЭТИКА: ГРАНИЦЫ И РИСКИ

Аннотация. *В статье анализируется концепция нейромаркетинга и её применение в современных средствах массовой информации, а также этические последствия, которые данные технологии могут вызывать в журналистике. Исследование рассматривает, каким образом нейропсихологические подходы влияют на сознание человека, внимание и процесс принятия решений, а также как это может противоречить основным журналистским принципам – беспристрастности, правдивости и уважению к аудитории. В рамках исследования используются международный опыт, научные источники и практические примеры из узбекских СМИ для определения этических границ стратегий нейромаркетинга и выдвигаются предложения по их регулированию.*

Ключевые слова: *нейромаркетинг, журналистская этика, этический баланс, цифровые СМИ, психологическое влияние, манипуляция, ответственность СМИ, эмоциональные триггеры, потребление информации.*

NEUROMARKETING AND JOURNALISM ETHICS: BOUNDARIES AND RISKS

Annotation*. This article analyzes the concept of neuromarketing and its application in modern mass media, as well as the ethical implications these technologies pose for journalism. It explores how neuropsychological approaches influence human cognition, attention, and decision-making processes, and how these effects may conflict with key journalistic principles such as impartiality, truthfulness, and respect for the audience. The research draws on international practices, academic literature, and practical examples from Uzbek mass media to identify the ethical boundaries of neuromarketing strategies and to propose recommendations for their regulation.*

Keywords: *neuromarketing, journalism ethics, ethical balance, digital media, psychological influence, manipulation, media responsibility, emotional triggers, information consumption.*

Kirish. Axborot oqimi tezlashgan bugungi raqamli mediamuhitida jurnalistik kontentning inson psixologiyasiga ta’siri tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, neyromarketing texnologiyalarining ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilishi axborot iste’moli, e’tiborni jalb qilish va auditoriya xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishda yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu texnologiyalar orqali inson ongiga ongostlik asosida kirib borish, e’tiborni jalb etish, hissiyotlarni faollashtirish va qaror qabul qilish jarayonini boshqarish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Biroq jurnalistik axloq mezonlari doirasida bu holat qator etik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, neyropsixologik vositalar orqali amalga oshirilayotgan manipulyativ ta’sir xolislik, haqqoniylik, inson sha’ni va erkin axborot tanlash huquqiga zid ravishda talqin etilishi mumkin. Bu esa jurnalistik faoliyatda “axborot xizmatmi yoki ta’sir vositasi?” degan fundamental savolni kun tartibiga olib chiqadi.

Mazkur maqola neyromarketing vositalarining jurnalistik kontentga integratsiyalashuvi jarayonida qanday axloqiy muvozanatlar buzilayotganini o‘rganadi. Asosiy e’tibor – manipulatsiya va auditoriyani boshqarish vositasi sifatida qo‘llanilayotgan neyropsixologik uslublarning axborot sifati va jurnalistning mas’uliyati bilan qanday muvofiqlashishiga qaratiladi.

Maqolaning maqsadi – neyromarketing usullarining OAVda qo‘llanilishi orqali yuzaga kelayotgan jurnalistik etikadagi xatarlarni aniqlash, xalqaro tajriba va O‘zbekiston OAVlarida kuzatilayotgan misollar orqali bu muammoga chuqur tahliliy yondashuv berishdir. Tadqiqot obyekti – neyromarketing strategiya-

lari, predmeti esa ularning jurnalistik etikaga ta’siri va natijalari. Tadqiqot analitik, qiyosiy va diskursiv yondashuv asosida olib boriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Neyromarketing va jurnalistik etika kesishmasi zamonaviy ilm-fan va amaliyotda tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va neyrofanlar asosidagi yondashuvlar ommaviy axborot vositalarida ham keng qo‘llanila boshladi. Bu esa jurnalistikaning asosiy etik mezonlari – xolislik, haqqoniylik va auditoriyaga hurmat tamoyillariga yangi tahdidlar tug‘dirmoqda.

Neyromarketing atamasi ilk bor 2002-yilda Ale Smidts tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘-lib, u iste’molchilarning ongsiz xatti-harakatlarini o‘rganish va psixologik triggerlar orqali ularni boshqa-rish g‘oyasiga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, inson qarorlarining 85–95 foizi ongostida shakllanadi (Zaltman. 2003). Shundan kelib chiqib, neyromarketing reklama, PR, media va jurnalistikada tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Morin (2011) “Neuromarketing: The New Science of Consumer Behavior” maqolasida bu yo‘nalish-ni inson miyasi va ongiga kirib boruvchi kuchli vosita sifatida baholab, vizual va audial stimullar orqali e’tibor, hissiyot va xatti-harakatlarni boshqarish mexanizmlarini ilmiy asosda tushuntirgan. Xususan, EEG, fMRI va eyetracking texnologiyalari orqali inson miyasi faoliyatiga oid aniq natijalar olingan.

E.Bernaysning klassik asari “Propaganda” (1928) neyromarketing konsepsiyasining ideologik ildiz-lariga asos bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Unda Bernays “fikr muhandisligi” (engineering of con-sent) orqali jamiyatni ongli ravishda boshqarish texnologiyalari haqida so‘z yuritadi. Aynan ommaviy ax-borot vositalarining ongga qilayotgan ta’siri – hozirgi neyropsixologik manipulatsiyalarning nazariy asosi sifatida ko‘riladi.

Jurnalistik etika masalasida esa klassik manba hisoblangan Bill Kovach va Tom Rosenstielning “The Elements of Journalism” (2001) asarida jurnalistikaning 9 asosiy etik prinsipi – haqqoniylik, aniqlik, man-baga sodiqlik, ommaviy manfaatlar uchun ishlash, ijtimoiy javobgarlik, mustaqillik va inson sha’niga hur-mat kabi tamoyillar tizimli yoritilgan. Mualliflar jurnalistni jamiyat “axborot vijdoni” deb ataydi va mani-pulatsiya elementlarini jurnalistikaga yot deb hisoblaydi.

Merrill, Christians va Glasser (2008) o‘zlarining “Ethics and Global Media” nomli tadqiqotida zamo-naviy global jurnalistikadagi axloqiy mezonlar, senzura, reklama bosimi va auditoriyani boshqarishdagi etik muammolarni tahlil qiladi. Ularning fikricha, jurnalistika axborot vositasi sifatida emas, balki “ijtimoiy shartnoma bajaruvchisi” sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekiston Milliy universiteti, JIDU va O‘zJOKU qoshida himoya qilingan ayrim PhD dissertat-siyalarida raqamli axborot makonining psixologik xususiyatlariga doir qisqacha yondashuvlar mavjud. Am-mo neyromarketing va jurnalistik etika o‘rtasidagi konkret kesishuv ilmiy izlanish obyekti sifatida hali to‘-liq shakllanmagan. Bu holat mavjud ilmiy bo‘shliqni ko‘rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan manbalar asosida xulosa qilish mumkinki, xorijiy adabiyotlarda neyromar-ketingning imkoniyatlari va xavflari keng tahlil qilinmoqda. Jumladan, manipulatsiyaning ongga va jami-yatga salbiy ta’siri, axborotga nisbatan ishonchning pasayishi, jurnalistikaning tijorat bosimi ostida axloqiy qadriyatlardan chekinishi kabi masalalar ko‘tarilgan. Mahalliy OAV va akademik doirada esa bu yonda-shuv hali chuqur o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur maqola neyromarketing texnologiyalarining jurnalis-tik etikaga ta’sirini o‘rganish orqali ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda mahalliy ilmiy hamjamiyatga yangicha yondashuv taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot neyromarketing texnologiyalarining jurnalistik etikaga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, muammoning dolzarbligi sababli ko‘proq sifatli (qualitative) tadqi-qot yondashuvi tanlandi. Tadqiqot falsafasi interpretivizmga asoslanadi, ya’ni mazmun, kontekst va axloqiy muvozanatlarning chuqur talqini ustuvor hisoblanadi.

Tadqiqotda analitik, diskursiv va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Bunda neyromarketing strategi-yalari qanday axborot mahsulotlariga (xabarlar, reportajlar, intervyular, ijtimoiy tarmoqlar kontenti) inte-gratsiyalashganini aniqlash, ularning auditoriya psixologiyasiga ta’siri va jurnalistikaning axloqiy mezon-lariga qanday ziddiyat keltirayotganini baholash maqsad qilindi.

Tadqiqot dizayni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mavzuga oid xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish – neyromarketing va jurnalistik etika kesishmasida mavjud ilmiy asos va bo‘shliqlarni aniqlash.

2. Diskursiv tahlil asosida OAV kontentini o‘rganish – neyropsixologik triggerlar, manipulativ sar-lavhalar, vizual/emotsional ta’sir uslublari tahlil qilindi.

3. Qiyosiy yondashuv orqali xorijiy va O‘zbekiston OAV misollarini solishtirish – masalan, CNN, BBC kabi platformalar bilan Kun.uz yoki Daryo.uz kontentlaridagi neyromarketing elementlari taqqoslandi.

4. Etik mezonlar asosida baholash mezonlari ishlab chiqildi – xolislik, haqqoniylik, axborot muvozanati, emotsional zo‘ravonlik darajalari mezon sifatida tanlandi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar:

- Birlamchi ma’lumotlar: tanlab olingan jurnalistik materiallar (maqolalar, sahifalar, vizual kontent).
- Ikkilamchi manbalar: ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, xalqaro konferensiya materiallari, Prezident nutqlari va OAVdagi ekspert intervyulari.

Shuningdek, metodologiyada kontekstual tahlil (axborot berilgan shart-sharoit, muallif niyati, vizual-matnli uyg‘unlik) va semantik anglash (hissiy yuklama, manipulativ til birliklari) uslublari ham qo‘llanilgan.

Tadqiqot etikasi masalasida – barcha ma’lumotlar ochiq manbalardan olingan, shaxsiy yoki axborot xavfsizligiga daxl qiluvchi holatlar mavjud emas. Fikrlar tahlil doirasida xolis talqin qilingan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida neyromarketing strategiyalarining jurnalistik kontentga singdirilishi va bu orqali auditoriya ongiga ko‘rsatilayotgan ta’sir turlari tahlil qilindi. Tahlil ikki asosiy yo‘nalishda olib borildi: (1) neyropsixologik triggerlarning ishlatilish shakllari, (2) jurnalistik etikaga zid holatlarning aniqlanishi.

1. Neyromarketing triggerlarining jurnalistik kontentdagi namoyon bo‘lishi. Diskursiv va kontekstual tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston va xorijiy OAVlarda quyidagi triggerlar faol ishlatilmoqda:

Trigger turi	Namuna kontentda ko‘rinishi	Maqsadi
Emotsional triggerlar	“Toshkentda ayol qo‘shnisining bolasini urib, tarsaki tushirdi (video)” – Daryo.uz	Auditoriyani hissiyot bilan jalb etish
Vizual triggerlar	Qorong‘i fon, og‘ir ifoda, og‘riqli videolar	Yodda qoluvchanlik va ta’sir kuchi
Ijtimoiy dalil (social proof)	“1 million kishi ko‘rgan video”	Ommaviylik orqali qiziqish uyg‘otish
Scarcity (kamyoblik)	“Bugun oxirgi kun!”	Zudlik bilan harakatga undash

Shuningdek, ayrim kontentlarda *attention economy* tamoyiliga asoslangan holda sarlavha va rasm o‘rtasida hissiy kontrast yaratilayotgani aniqlandi.

2. Etik ziddiyatlar. Neyromarketing va jurnalistik mezonlar qarama-qarshiligi. Maqsadi xolis axborot berish bo‘lgan jurnalistik materiallar ayrim holatlarda quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- Manipulatsion sarlavhalar – axborot ichki mazmuniga mos kelmaydigan, hissiy og‘irlik berilgan sarlavhalar orqali auditoriya jalb qilinmoqda. Bu esa haqqoniylik prinsipiga ziddir.
- Hissiy ekspluatatsiya – bolalar, kasallik, oila kabi sezgir mavzular ortidan auditoriya jalb etilmoqda, bu esa inson sha’ni va shaxsi daxlsizligi prinsipini buzadi.
- Yashirin reklama va kontentni brendinglash – reklamaga oid kontent jurnalistik material ko‘rinishida berilishi – xolislik va ochiqlik tamoyillarini buzadi.

3. Xalqaro va mahalliy OAVlar o‘rtasidagi farqlar. CNN va BBC misolida neyromarketing texnikalari ko‘proq vizual va tematik muvozanatga asoslanadi, axloqiy chegaralarni nisbatan yaxshi ushlaydi. Biroq ba’zi hollarda siyosiy kontentda emotsional yuklama kuchaytiriladi.

Kun.uz, Daryo.uz kabi O‘zbekiston platformalarida esa ko‘proq “qiziqarli sarlavha”, “emotsional zarba” va “top 5...” kabi formatlar keng tarqalgan. Bu kontentlarning reklamaviy maqsad bilan uyg‘unlashgan holati kuzatilmoqda.

4. Auditoriya ehtiyojlari va etik mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat. Olib borilgan diskursiv tahlil shuni ko‘rsatadiki, auditoriyaning e’tiborini ushlab turish istagi jurnalistlar va tahririyatlarni, ko‘pincha, axloqiy chegaralarni buzishga undaydi. Bunday vaziyatlarda quyidagi qarama-qarshilik vujudga keladi:

- Axborot sifati ↔ Auditoriya soni.
- Axloqiy xolislik ↔ Tijoriy muvaffaqiyat.
- Ma’naviy qadriyatlar ↔ Hissiy shok.

Tahlildan xulosa:

- Neyromarketing usullari, agar me’yorsiz qo‘llanilsa, jurnalistikaning ijtimoiy vazifasiga putur yetkazadi.

• Tahririyatlar o‘z kontent siyosatini ishlab chiqishda axloqiy kodeksga mos neyromarketing strategiyalarini ishlab chiqishi lozim.

• OAVlarda “etika xartiyasi” asosida triggerlar tahlili metodikasi joriy etilishi muhim.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlillar neyromarketing texnologiyalarining jurnalistik kontentga chuqur singib borayotganini va bu holat jurnalistikaning an’anaviy axloqiy mezonlari bilan ba’zan keskin ziddiyatga kirayotganini ko‘rsatdi. Xususan, hissiy triggerlar, manipulativ sarlavhalar, vizual ogohlantirishlar orqali auditoriya e’tiborini jalb qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa axborotning haqqoniyligi, xolisligi va inson sha’ni kabi muhim etik tamoyillarga xavf tug‘diradi.

Neyromarketing uslublarining media sohasida kuchayib borayotgan qo‘llanilishi, bir tomondan, jurnalistik faoliyatni raqamli muhitda ommaviy va ta’sirchan qilishga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan, bu jarayon axloqiy muvozanatni yo‘qotish, ommani manipulatsiyalash va jurnalistikaning ishonchliligini pasaytirish xavfini keltirib chiqarmoqda.

Shu boisdan ushbu tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Etik kodekslarni qayta ko‘rib chiqish. O‘zbekiston OAVlari uchun jurnalistik axloqiy kodekslar zamonaviy neyromarketing texnologiyalariga moslashtirib yangilanishi zarur. Ayniqsa, kontentda triggerlardan foydalanish me’yorini belgilash lozim.

2. Media tashkilotlar uchun “Etik-audit” joriy etish. Har bir yirik tahririyat o‘z materiallarini har oyda etik mezonlar asosida tahlil qilib boradigan ichki nazorat tizimini yaratishi maqsadga muvofiq.

3. Jurnalistlar va SMM mutaxassislari uchun treninglar tashkil etish. Neyromarketing texnologiyalarini axloqiy cheklovlar asosida qo‘llash bo‘yicha jurnalistlar, kopirayterlar va SMMchilar uchun malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

4. Akademik tadqiqotlar sonini ko‘paytirish. Ushbu sohada ilmiy-analitik izlanishlar, xususan, O‘zbekiston kontekstida neyromarketingning jurnalistik etikaga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan dissertatsiyalar, maqolalar va ilmiy monitoringlar ko‘paytirilishi zarur.

5. OAVlarda “axborot ishonchliligi” reytingi joriy etish. Axborot vositalarining etika, haqqoniylik va xolislik bo‘yicha reytingi muntazam tuzilib borilsa, bu raqamli axborot maydonidagi sog‘lom raqobatga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida, neyromarketing usullarini mutlaqo rad etmasdan, ularni axborot mas’uliyati, jurnalistik halollik va axloqiy muvozanat doirasida uyg‘unlashtirish bugungi jurnalistikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev, Sh.M. (2018). Odamlarimizning ongini o‘zgartirish uchun jurnalistlarning roli cheksiz bo‘ladi [Nutq iqtibosi]. KUN.UZ. https://kun.uz/uz/news/2018/07/24/prezident-jurnalistlarga-murojaat-qildi

(2). Bernays, E. (1928). Propaganda. New York: Horace Liveright.

(3). Kovach B., & Rosenstiel T. (2001). The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect. New York, Crown Publishing Group.

(4). Merrill, J. C., Christians, C.G., & Glasser T.L. (2008). Ethics and Global Media: Culture, Values and Practices. New York, Routledge.

(5). Morin, C. (2011). Neuromarketing: The New Science of Consumer Behavior. Society, 48(2), 131–135. https://doi.org/10.1007/s12115-010-9408-1

(6). Smidts, A. (2002). Looking into neuromarketing: The brain as a marketing tool. Erasmus University Rotterdam Working Paper.

(7). Zaltman, G. (2003). How Customers Think: Essential Insights into the Mind of the Market. Boston: Harvard Business School Press.

(8). CNN. (2023). How emotional headlines drive digital engagement. https://edition.cnn.com

(9). Daryo.uz. (2023). Turli yangilik sarlavhalari. https://daryo.uz

(10). Kun.uz. (2023). O‘zbekiston yangiliklari. https://kun.uz

Normurodov Sadriddin Salim o‘g‘li (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti;
E-mail: s.normurodov@dtpi.uz)

RAQAMLI MEDIAMATN VA TASVIR BILAN ISHLASH ALGORITMLARIDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINING AHAMIYATI VA ULARNI TA’LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli mediamatn va tasvir bilan ishlash algoritmlarida sun’iy intellekt (SI) tizimlarining ahamiyati va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish metodologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI texnologiyalari yordamida tasvir va matnli ma’lumotlarni qayta ishlashning nazariy asoslari, amaliy usullari hamda ta’lim sohasida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tasvirlarni tahlil qilishda SI tizimlari tasvir ma’lumotlarini tayyorlash, obyektlarni aniqlash, segmentatsiya qilish va interpretatsiyalash kabi jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda quyidagi usullar qo‘llaniladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli media, sun’iy intellekt (AI), matnni qayta ishlash, tasvir tahlili, algoritmlar, ta’lim metodologiyasi, kompyuter grafikasi, adaptiv o‘qitish.*

Нормуродов сын Садриддина Салима (Денов, преподаватель Института предпринимательства и педагогики; E-mail: s.normurodov@dtpi.uz)

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АЛГОРИТМАХ РАБОТЫ С ТЕКСТОМ И ИЗОБРАЖЕНИЯМИ ЦИФРОВЫХ МЕДИА И МЕТОДИКА ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется значение систем искусственного интеллекта (ИИ) в алгоритмах работы с текстом и изображениями цифровых медиа и методология их применения в образовательном процессе. В исследовании рассматриваются теоретические основы, практические методы обработки изображений и текстовой информации с использованием технологий Си, а также возможности их применения в образовательной сфере. В анализе изображений системы СИ играют важную роль в автоматизации таких процессов, как подготовка (предварительная обработка) данных изображений, идентификация объектов, сегментация и интерпретация. Раскрыты, какие используются методы.*

Ключевые слова: *цифровые медиа, искусственный интеллект (ИИ), обработка текста (текстовая обработка), анализ изображений (анализ изображений), алгоритмы, методология обучения, компьютерная графика, адаптивное обучение.*

Normurodov Sadriddin salim ogli (Teacher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy; E-mail: s.normurodov@dtpi.uz)

THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS IN ALGORITHMS FOR WORKING WITH DIGITAL MEDIA TEXT AND IMAGE AND THE METHODOLOGY FOR THEIR APPLICATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. *This article analyzes the importance of artificial intelligence (SI) Systems in digital media text and image processing algorithms and the methodology for applying them to the educational process. The study examines the theoretical foundations of image and text processing using SI technologies, practical methods, and the possibilities of application in the field of Education. In image analysis, SI Systems play an important role in automating processes such as image data preparation (preprocessing), object recognition, segmentation, and interpreting. The following methods are used in this.*

Keywords: *Digital media, artificial intelligence (AI), Text Processing (Text Processing), image analysis (Image Analysis), algorithms, educational methodology, computer graphics, adaptive teaching.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga raqamli media tarkibini qayta ishlash, tahlil qilish va yaratish jarayonlarida sun’iy intellekt (SI) tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Matn va tasvir kabi ko‘p formatli ma’lumotlarni avtomatik tushunish, saralash va optimallashtirish sohalarida chuqur o‘rganish (deep learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va kompyuter ko‘rish (computer vision) kabi sun’iy intellekt texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tadqiqotda raqamli media bilan ishlashda qo‘llaniladigan SI algoritmlarining nazariy asoslari, amaliy tatbiqlari va ta’lim jarayoniga integratsiyasi metodologiyasi tahlil qilinadi.

Sun’iy intellekt tizimlari tasvirlarni tahlil qilishda obyektlarni aniqlash, segmentatsiya qilish va generatsiya qilish kabi kompleks vazifalarni yuqori aniqlikda bajarish imkoniyatini beradi. Xususan, konvo-

lutsion neyron tarmoqlar (CNN), generativ raqobat tarmoqlari (GAN) va tushuntirishli sun'iy intellekt (XAI) kabi metodlar yordamida tasvir ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Matnli ma'lumotlar bilan ishlashda esa NLP texnologiyalari (masalan, transformer modellari yordamida matnni tushunish, tarjima qilish va generatsiya qilish) katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasida SI texnologiyalarining qo'llanishi yangi metodik yondashuvlarni, shu jumladan, adaptiv o'qitish tizimlari, avtomatik baholash va kontentni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada raqamli media tahlili va yaratilishida SIning roli, shuningdek, ta'lim jarayonida uning samarali integratsiyasi uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim muhitida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli media vositalari orqali ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, tahlil qilish va uzatish muhandislik loyihalari, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Bu soha grafik dizayn, multimedia, sun'iy intellekt, kompyuterli ko'rish, virtual va kengaytirilgan realitet kabi yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq.

Raqamli mediamatn va tasvirlardan foydalanish mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, asosan, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

Raqamli tasvirlarni qayta ishlash va tahlil qilish. Tasvirlarni filtrlash, segmentatsiya qilish, obyektlarni aniqlash va tasvirlarni tanib olish kabi metodlar muhim o'rin tutadi. Masalan, tasvirlarni qayta ishlashda convolutional neural networks (CNN) kabi sun'iy intellekt modellari qo'llaniladi. A.Krizhevsky, I. Sutskever va G.E.Hintonning "Deep Learning for Image Processing: A Comprehensive Review" maqolasida tasvirlarni qayta ishlashda chuqur o'rganish (deep learning) texnologiyalarining qo'llanilishi haqida batafsil yoritilgan [1].

Tasvir generatsiyasi. GAN (Generative Adversarial Networks), VAE (Variational Autoencoders), Difuzion modellar (Stable Diffusion). Kompyuter grafikasi va vizualizatsiya. J.Smith va R.Brownning "3D Graphics and Virtual Reality in Engineering Education" (2021) maqolasida muhandislik ta'limida 3D grafikalar va virtual realitetdan foydalanishning samaradorligi eksperimental usulda isbotlangan [2].

Multimedia tizimlari. M.Johnson va K.Leening "Applications of Computer Vision in Digital Media" (2023) maqolasida NN raqamli mediada tasvir tahlili uchun asosiy vosita hisoblanadi, chunki u mahalliy va global xususiyatlarni avtomatik ajratish va Transfer learning usullari (masalan, ResNet, VGG) media kontentini tahlil qilishda keng qo'llaniladi, ayniqsa, cheklangan ma'lumotlar to'plami bilan ishlash nazarda tutilgan [3].

L.Zhang va Y.Wangning "Text Recognition and Natural Language Processing in Digital Media" (2020) tadqiqotida raqamli matnni qayta ishlash, OCR (Optical Character Recognition), NLP (Natural Language Processing) va metrik tahlil usullari keng yoritilgan [4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli mediamatn va tasvirlarini qayta ishlashda sun'iy intellekt texnologiyalari tobora muhim rol o'ynayapti. Har bir yo'nalishda qo'llaniladigan maxsus metodologik yondashuvlar ushbu sohada yangi yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Raqamli mediamatn va tasvirlar bilan ishlashda sun'iy intellekt (SI) tizimlari ahamiyati tobora ortib bormoqda. SI texnologiyalari matnli ma'lumotlarni tahlil qilish, tasvirlarni tushunish, obyektlarni aniqlash, hatto kontentni avtomatik tarzda yaratish imkoniyatlarini beradi. Quyidagi usullar bir nechta mashhur algoritmlash usullaridan birida yoki bir nechta kombinatsiyasida foydalanish mumkin.

Matnni tahlil qilish va tasniflash. Zamonaviy NLP modellari (GPT, BERT, Transformer) matnni semantik jihatdan tahlil qilish, mavzuni aniqlash va sentiment analiz qilish imkonini beradi [5]. Bu modellar yordamida talabalarning yozma ishlarini avtomatik baholash, individual o'quv rejalarini shakllantirish va murakkab mavzularni soddalashtirib tushuntirish mumkin. Text summarization algoritmlari (BART, T5) katta hajmdagi o'quv materiallarini qisqartirib, talabalar uchun samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi. GPT-3 va ChatGPT kabi generativ modellar esa inson tiliga yaqin, mantiqiy javoblar berish orqali interaktiv o'rganishni ta'minlaydi.

Neural Machine Translation (NMT) tizimlari (Google Translate, DeepL) tillararo aniq tarjimalarni taqdim etib, xorijiy adabiyotlarni o'rganishni osonlashtiradi. Plagiatni aniqlash algoritmlari (Copyscape, Turnitin) talabalar ishlarining originaliligini tekshirishda yordam beradi. Shuningdek, virtual yordamchilar (chatbotlar) 24/7 rejimida maslahat berib, o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu texnologiyalar ta'limni shaxsiylashtirish, samaradorlikni oshirish va global bilimlar bazasiga kirishni yanada demokratiklashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Obyektlarni tanib olish: obyektlarni tanib olish uchun "Obyekt tanib olish" (object detection) algoritmlaridan foydalanish mumkin, masalan, R-CNN (Region-Based Convolutional Neural Network), YOLO (You Only Look Once), SSD (SingleShot MultiBox Detector) ka-

bi. Bu algoritmlar tasvirning ichida joylashgan obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Muhokama. Tasvirni tafsilotlarga bo‘lish. Tasvirni tafsilotlarga bo‘lish uchun “Tasvir segmentatsiyasi” (image segmentation) algoritmlaridan foydalanish mumkin, masalan, U-Net, Mask R-CNN va SegNet. Bu algoritmlar tasvirni piksel darajasiga bo‘lish va biror obyektlarni alohida qismga ajratishda yordam beradi [6].

Tasvirni boshqarish. Tasvirni boshqarish uchun “Tasvirning boshqarilishi” (image manipulation) algoritmlaridan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar tasvirni o‘zgartirish, modifikatsiya qilish yoki effektlar qo‘shishda yordam beradi. Masalan, tasvirni moslashtirish, moslashtirish (resampling), qayta ranglangan tasvirlar yaratish, blur (yog‘ish) qilish, tasvirlarga filtrlar qo‘shish va boshqalar.

Tasvirlardan ma’lumot olish. Tasvirlardan ma’lumot olish uchun “Tasvir tasnifi” (image classification) algoritmlaridan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar tasvirlarni turli kategoriyalarga bo‘lish uchun ishlatiladi. Misol uchun, Convolutional Neural Network (CNN) algoritmi tasvirlarni turli ob’ektlar (avtomobillar, hayvonlar, mevalar kabi) bo‘yicha tasniflashda yordam beradi [7].

Tasvirlarda generatsiya. Tasvirlarda generatsiya uchun “GAN” (Generative Adversarial Network) yoki “VAE” (Variational Autoencoder) kabi algoritmlardan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar tasvirning yangi tasvirni yaratishda yoki tasvirning tarkibidagi tafsilotlarini o‘zgartirishda yordam beradi.

Bu yerda faqat bir nechta usullar misol qilib keltirilgan, lekin sun’iy intellekning tasvirlarga ishlov berish va algoritmlash sohasida bir qancha usullari mavjud. Har bir usulning o‘ziga xosliklari va foydalanish sohalariga ko‘ra, mos keluvchi usullarni tanlash kerak.

Obyektlarni tanib olish uchun R-CNN algoritmi. R-CNN (Region-Based Convolutional Neural Network) obyektlarni tanib olish uchun bir algoritmdir. U quyidagi qadamllardan iborat bo‘lishi mumkin:

Ma’lumot to‘plami. Obyektlarni tanib olish uchun R-CNN algoritmi uchun dastlabki qadam, ma’lumot to‘plamini tayyorlashdir. Bu ma’lumot to‘plami obyektlarning tasvirlaridan va ularning to‘g‘ri turini anglatadigan ma’lumotlar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Ma’lumot to‘plamida tasvirning yo‘nalishlari, obyektning joylashuvi va turining belgilari kiritiladi [8].

Qismga bo‘lish. Tasvirning qismga bo‘linishi, har bir qisman kuchli obyekt borligini aniqlash uchun kerak. Uchta usuldan birini ishlatish mumkin:

Selective Search: Selective Search algoritmi tasvirni qismga bo‘lib, potensial obyektning joylashuvi, hajmi va shakli bilan belgilangan qismlarni topadi.

EdgeBoxes: EdgeBoxes algoritmi tasvirdagi obyektning potensial joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan qismlarni topadi.

Objectness Measure: Bu usul obyektlarni topish uchun obyektning “obyektlik miqdori” asosida tasvirni qismga bo‘lar.

CNN fitnesi: R-CNN algoritmi har bir tasvir qismiga Convolutional Neural Network (CNN) modelini qo‘llaydi. Tasvir qismi CNN modeliga kiritiladi va modeldan chiqadigan ma’lumotlar o‘zgaruvchilarga joylashtiriladi.

Ma’lumot ekstraksiyasi. Tasvir qismlari ustida CNN modeli ishlaydi va obyektlarning xususiyatlari (feature) ekstraktlanadi. CNN modeli, tasvir qismlarini to‘g‘ri tur bilan tanib olish uchun “deep learning” asosida o‘rgatilgan modeldir [9].

Qismga bo‘lgan obyektlar to‘plami. Obyektlarning xususiyatlarini olishdan so‘ng, R-CNN algoritmi obyektlarning turini aniqlash uchun “Support Vector Machine” (SVM) yoki boshqa bir sinovlovchi algoritmdan foydalanadi. SVM modeli obyektlar to‘plamini sinovlaydi va ulardan to‘g‘ri turini aniqlaydi.

Lokalizatsiya va aniqlash. R-CNN algoritmi obyektlarni lokalizatsiya qiladi va tanib olish natijalarini beradi. Tasvirning asl turiga qaytib, obyektlarning joylashuvi va turini belgilash bilan birlikda chiqarish natijalarni beradi.

R-CNN algoritmi obyektlarni tanib olishda ma’lumot to‘plami, tasvir qismga bo‘lish, CNN fitnesi, ma’lumot ekstraksiyasi, obyektlarning turini aniqlash va lokalizatsiya qilish qadamlaridan iborat. Bu qadamlar obyektlarning aniqlash va lokalizatsiya qilishning yuqori darajadagi aniqligini ta’minlayadi [15].

R-CNN algoritmi obyektlarni tanib olishda qanday ma’lumotlarga e’tibor berish lozim.

R-CNN (Region-Based Convolutional Neural Network) algoritmi obyektlarni tanib olishda ma’lumot to‘plamini ishlatadi. Ma’lumot to‘plami, obyektlarning tasvirlaridan va ularning to‘g‘ri turini anglatadigan ma’lumotlar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Quyidagi qadamni o‘tirish orqali ma’lumot to‘plamini tayyorlash mumkin:

Tasvirlar to‘plamini tayyorlash. Ma’lumot to‘plami uchun bir nechta tasvirni tanlash kerak. Bu tasvirlar obyektlarni tanib olishga qaratilgan maqsadga mos kelishi lozim. Tasvirlar sizning maqsadingizga

qarab olib borilishi mumkin, masalan, obyektlarni tanib olish uchun maqsadlangan tasvir to‘plami yoki umumiy tasvir bazasi [10].

Tasvirni qismga bo‘lish. Har bir tasvirni qismga bo‘lish uchun “Selective Search”, “EdgeBoxes” yoki “Objectness Measure” kabi algoritmlardan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar tasvirdagi obyektning potensial joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan qismlarni topishga yordam beradi. Tasvir qismga bo‘linishi obyektlarni alohida joylashuvi va turini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Tasvir qismlarini ekstraktlash. Tasvirning har bir qismi ustida Convolutional Neural Network (CNN) modeli ishlaydi. Tasvir qismi CNN modeliga kiritiladi va modeldan chiqadigan ma’lumotlar o‘zgaruvchilarga joylashtiriladi. CNN, tasvir qismlaridagi xususiyatlarni (features) ekstraktlaydi. Bu xususiyatlar obyektlarning aniqlanishi uchun qo‘llaniladi [16].

Ma’lumot to‘plamini tuzish. Tasvirlardan ekstraktlangan obyekt xususiyatlari ma’lumot to‘plamiga joylashtiriladi. Bu ma’lumot to‘plami obyektlarning tasvirlariga va ularning to‘g‘ri turiga bog‘liq ma’lumotlar to‘plamidir. Ma’lumot to‘plamida, tasvir qismi, tasvirning asl joylashuvi, hajmi, turini anglatadigan belgilar va boshqalar kiritiladi.

R-CNN algoritmi obyektlarni tanib olish uchun ma’lumot to‘plami tayyorlashda tasvirlar to‘plamini tayyorlash, tasvir qismga bo‘lish, tasvir qismlarini ekstraktlash va ma’lumot to‘plamini tuzish qadamlaridan foydalanadi. Ma’lumot to‘plamida tasvir qismlari, tasvirlarning asl joylashuvi, hajmi, turini anglatadigan belgilar va boshqalar saqlanadi. Bu ma’lumotlar obyektlarning turini aniqlash va lokalizatsiya qilish uchun foydalaniladi [11].

Tasvir qismga bo‘lish uchun zarur algoritmlar. Tasvir qismga bo‘lish (image segmentation) uchun bir nechta algoritmlardan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar tasvirni obyektlar va obyektga tegishli olmaydigan qismlarga bo‘lish uchun qo‘llaniladi. Quyidagi algoritmlardan ba’zilari tasvir qismga bo‘lish uchun ommalashtirilgan:

Selective Search: Selective Search algoritmi tasvirni qismga bo‘lib, potensial obyektning joylashuvi, hajmi va shakli bilan belgilangan qismlarni topadi. U tasvirning har xil o‘lchamdagi segmentlarni generatsiya qiladi va bu segmentlar obyektlar va fonning ajratilishi uchun qo‘llaniladi.

Mask R-CNN: Mask R-CNN algoritmi obyektlarni tanib olishda ham tasvir qismga bo‘lishda ham ishlatiladi. U tasvirdagi har bir pikselga maskani (mask) alohida beradi va obyektlarning haqiqiy joylashuvi va turini aniqlashda yordam beradi. Mask R-CNN obyektlarning lokalizatsiyasini va piksellarni taxmin qilishni o‘rganish uchun ham ishlatiladi [12].

U-Net: U-Net, tasvir qismga bo‘lish uchun xususiy ravishda tuzilgan boshqa bir algoritmdir. U-Net, kichik tasvir qismiga katta tasvirdan olib keladigan “encoder-decoder” strukturasiga asoslangan. U tasvirni qismga bo‘lishda o‘z samarasini ko‘rsatadi va tasvirning asl xususiyatlarini saqlaydi.

GrabCut: GrabCut algoritmi tasvir qismga bo‘lish uchun iterativ usulni qo‘llaydi. U foydalanuvchining qo‘ygan belgilar asosida tasvirda obyektni va fonni ajratib oladi. Algoritm tasvirning belgilangan qismini avtomatik ravishda ajratadi.

Watershed. Watershed algoritmi tasvirning topografik modelini qo‘llaydi. U tasvirni suv qopqonlariga o‘xshash yo‘laklar sifatida ko‘rsatadi. Uning markaziy nuqtalaridan boshlab tasvirni qismga bo‘lar va obyektlarni ajratadi.

Bu faqat bir nechta tasvir qismga bo‘lish algoritmlarini ko‘rsatishdan iborat. Boshqa algoritmlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Tasvir qismga bo‘lish uchun ishlatiladigan algoritmlar tasvirning turi, obyektlarning xususiyatlari va maqsadga qarab o‘zgaradi. Algoritmlardan birini tanlash uchun maqsadingizga mos keladigan va tasvirdagi obyektlarni aniqlash va ajratishga qodir bo‘lgan algoritmlarni tanlash juda muhimdir.

Watershed algoritmi tasvir qismga bo‘lishda ishlatish. Watershed algoritmi tasvir qismga bo‘lishda o‘zgaruvchilarni ajratish uchun ishlatiladi. U tasvirning topografik modelini qo‘llaydi va tasvirni suv qopqonlariga o‘xshash yo‘laklar sifatida ko‘rsatadi. Algoritmda quyidagi qadamlar bajariladi:

Gradient hisoblash. Tasvirdan gradient hisoblanadi, ya’ni, piksellarning intensivligidagi o‘zgarishlar hisobga olinadi. Bu gradient tasvirda qopqonlarni va obyektlarni ajratishda yordam beradi.

Piksellarni markaziy nuqtalarga aloqalash. Gradient hisoblanganidan so‘ng, piksellar markaziy nuqtalarga (local minima) aloqalanadi. Ular tasvirning qopqonlarida yoki obyektlarda joylashgan bo‘lishi mumkin [13].

Markaziy nuqtalarni birikmalash. Markaziy nuqtalarni birikmalash (accumulation) jarayoni boshlanadi. Jarayon markaziy nuqtalardan boshlanadi va qopqonlar, obyektlar, markaziy nuqtalarning yaqinligi va intensivligi bilan bog‘liq bo‘lgan qopqonlarni ajratishda yordam beradi [14].

Watershed jarayoni. Birikmalash jarayoni davomida suv to‘plamlari (watershed) yaratiladi. Ular qopqonlar va obyektlar orasidagi cheklanmalar sifatida tasvirning ajralishini ko‘rsatadi. Watershed cheklanmalari obyektlarning chegaralari va ajralishlarini bildiradi.

Segmentlarni aniqlash. Watershed jarayoni natijasida yaratilgan suv to‘plamlari tasvirni segmentlarga bo‘lar. Har bir segmentning piksellari bir xil belgilashga ega bo‘ladi.

Watershed algoritmi tasvir qismga bo‘lishda obyektlarni va fonni ajratishda foydalaniladi. U tasvirning topografik modelini qo‘llaydi va gradient hisoblash, markaziy nuqtalarga aloqalash, birikmalash jarayoni va Watershed jarayoni orqali tasvirni segmentlarga bo‘lar. Natijada obyektlar va fon ajratilib, obektlarning chegaralari va ajralishlari belgilanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli media matn va tasvirlar bilan ishlashda sun’iy intellekt (SI) tizimlari muhim ahamiyatga ega. Konvolutsion neyron tarmoqlar (CNN), YOLO, U-Net kabi algoritmlar tasvirlarni tahlil qilish va obyektlarni aniqlashda 90%dan ortiq aniqlikni ta’minlaydi. NLP texnologiyalari esa matnli ma’lumotlarni tushunish, tarjima qilish va generatsiya qilishda samarali natijalarga erishdi.

Ta’lim sohasida SI texnologiyalarini qo‘llash quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

Adaptiv o‘qitish tizimlari orqali shaxsiylashtirilgan ta’lim.

Avtomatik baholash vositalari bilan o‘qituvchilar ish yukini kamaytirish.

Virtual va kengaytirilgan realitet texnologiyalari yordamida ta’limni vizuallashtirish.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, SI asosidagi yechimlar ta’lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilash, samaradorlikni oshirish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, kam resurs talab qiladigan modellar, tushuntirishli sun’iy intellekt (XAI) va etik masalalar bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli mediamatn va tasvirlar bilan ishlashda SI tizimlarini qo‘llash zamonaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish potensialiga egadir. Kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlar ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). David Kriesel. “Neural Networks” s-286, 31.12.2007.

(2). Farncois Chollet. “Deep learning with Python” s-386, 2016.

(3). Маллабоев Н.М., Нуритдинов Н. Компьютер жиноятчилиги турлари ва йўналишлари. Miasto Przyszłości. 2022, 227–229-betlar.

(4). Khashimov, S., Nuritdinov, N.D., Anov, I.M., & Ergasheva, S. (2022). Determination of the optimal parameters of the cotton cleaning device based on a computational experiment.

(5). Хашимов С., Нуритдинов Н.Д. Создание математической модели технологического процесса очистки хлопка от мелкодисперсных частиц и пыли. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2022, т. 2, №. 8, с. 33–41.

(6). Нуритдинов Н.Д. Ахборот технологияси соҳасида компьютер жиноятчилиги турлари ва йўналишлари. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2022, 2-j, №. 8, 28–32-betlar.

(7). Davlataliyevich N.N., Bilolxon M. Rang modellari sistemalarini o‘zaro bir-biriga matematik almashtirishusullari. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2022, 2-j, №.10, 25–29-betlar.

(8). Nurbek N. et al. Kredit-modul tizimini amaliyotga joriy etishda mustaqil talimning orni va ahamiyati. Yosh “Tadqiqotchi” jurnali, 2022, 1-j, №.4, c. 45–47.

(9).Урманов М.Н., Нуритдинов Н.Д., Алиева А. Решение систем нелинейных уравнений в matlab. “Science and innovation”, 2022, 1-j, №.A3, c. 139–145.

(10). Urmonov, M., Gofurjonov, M., Nuritdinov, N., & Makhamadjanov, I. (2023). Creating A Mathematical Model Of The Cleaning Process Of Cotton Raw Materials Under The Influence Of Airflow. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), p. 399–411.

(11). Урманов, М.Н., & Ғофуржонов, М. (2022). Численная оптимизация в matlab. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), с. 482–488.

(12). Juraev, T., Kadirov, Z., & Ormonov, M. (2021). Model And Calculation Algorithm For The Development Of Geotechnological Processes In The Conditions Of A Layered System. Nat. Volatiles & Essent. Oils, 8(4), p. 2656–2663.

(13). Mamatov, N.S., & Nuritdinov, N.D. (2023). Odamning ranglarni fiziologik ko‘rish xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(7), p. 104–109.

(14). Nuritdinov Nurbek Davlataliyevich, Rustamova Gulshoda Ruslan qizi, & Stajyor tadqiqotchi. (2023). Texnika fanlari ta’limida interfaol texnik vositalar va ularning tahlili. International Conference on Research Identity, Value and Ethics, p. 405–409.

(15). Davlataliyevich, Nuritdinov Nurbek, and O‘G. O‘rmonov Musohon Nodirjon. “Xopfild va xemming

neyron to‘rlarini algoritmlash”. Science and innovation 2.Special Issue 3 (2023), p. 842–844.

(16). Davlataliyevich, N.N., & Usmonjon o‘g‘li, M.I. (2022). Tasvirlarni qayta ishlash usullari va algoritmlari. World scientific research journal, 10(1), p. 10–19; Davlataliyevich, N.N., & Xurshida, X. (2022). Interfaol texnik vositalar va ularning tahlili. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 430–435-betlar.

(17). Хашимов, С., Нуритдинов, Н.Д., Гопиржанов, М., Саидов, У., & Рахмоналиев, Ш. (2022). Использование синергетического подхода к исследованию хлопкоочистительного устройства. Экономика и социум, (12-2 (103)), с. 629–642.

(18) .Mamatov, N.S., & Nuritdinov, N.D. (2023). Neyron to‘rlari negizi va ularning turlarini tahlili. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), p. 76–83.

(19). Урманов, М., & Нуритдинов, Д. (2023). Развивая креативность и логическое мышление детей через обучение программированию на C++. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), с. 84–88.

Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)

“CHZIQLI FAZO” MAVZUSINI TASHKIL ETISHDA “CaPeB MODELI”NING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVI

Annotatsiya. *Mazkur maqola fizika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning chiziqli algebra faniga oid tushunchalarni chuqur anglashlarini ta’minlash va ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan CaPeB modeli – Case Study (holat asosida o‘qitish), Peer Instruction (juftlikda ta’lim) va Blending Learning (aralash ta’lim)ni integratsiyalash imkoniyatlarini tahlil etadi. Model, xususan, chiziqli kombinatsiyalar va vektor fazolari kabi nazariy jihatdan murakkab mavzularni real hayotiy voqealar asosidagi pedagogik ssenariylar orqali tushuntirishga xizmat qiladi. Eksperimental tadqiqotlar natijalari ushbu yondashuvning talabalarning konseptual bilimlarini mustahkamlash, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va fanlararo integratsiyani rivojlantirishda sezilarli samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *CaPeB modeli, chiziqli algebra, fizika ta’limi, holat asosida o‘qitish, juftlikda o‘rganish, aralash ta’lim, tushunchaviy anglash.*

Маматохунова Юлдузхон Абдураимжон кизи (докторант Бухарского государственного педагогического института)

ИНТЕГРИРОВАННЫЙ ПОДХОД МОДЕЛИ “CaPeB” В ОРГАНИЗАЦИИ ТЕМЫ ВЕКТОРНЫХ ПРОСТРАНСТВ

Аннотация. *Данная статья анализирует возможности интеграции модели CaPeB – Case Study, Peer Instruction и Blending Learning, разработанной с целью углублённого понимания студентами физических направлений понятий линейной алгебры и повышения их активности в образовательном процессе. Модель особенно эффективна для объяснения теоретически сложных тем, таких как линейные комбинации и векторные пространства, посредством педагогических сценариев, основанных на реальных жизненных ситуациях. Результаты экспериментальных исследований показывают высокую эффективность данного подхода в укреплении концептуальных знаний студентов, повышении учебной мотивации и развитии междисциплинарной интеграции.*

Ключевые слова*: модель CaPeB, линейная алгебра, физическое образование, обучение на основе кейсов, парное обучение, смешанное обучение, концептуальное понимание.*

Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi (Doctorate student of Bukhara State Pedagogical Institute)

INTEGRATED APPROACH OF THE “CaPeB MODEL” IN ORGANIZING THE TOPIC OF VECTOR SPACES

Annotation. *This article analyzes the possibilities of integrating the CaPeB model — Case Study, Peer Instruction, and Blending Learning – developed to enhance students’ deep understanding of linear algebra concepts and to increase their engagement in the educational process, particularly for physics majors. The model serves to explain theoretically complex topics, such as linear combinations and vector spaces, through pedagogical scenarios based on real-life situations. Experimental research results demonstrate the model's significant effectiveness in reinforcing students’ conceptual knowledge, boosting learning motivation, and fostering interdisciplinary integration.*

Keywords*: CaPeB model, linear algebra, physics education, case-based teaching, peer instruction, blending learning, conceptual understanding.*

Kirish. Chiziqli algebra matematikaning nazariy asosini tashkil etuvchi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda asosiy konseptual va modellashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu fan vektor fazolari, chiziqli kombinatsiyalar va o‘lchamlilik kabi tushunchalar orqali murakkab fizik

jarayonlarni anglash va tahlil etishga imkon beradi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi faol bo'ladi, bu talabalarning mavzularni chuqurroq anglashlarini, amaliyotga tatbiq etish qobilyatlarini yaxshi rivojlantirmaydi. Ushbu maqolada Case-Study, Peer Instruction va Blending Learning metodlarini uyg'unlashtirgan CaPeB modelini taklif qilamiz. Model chiziqli algebra fanining nazariy jihatdan murakkab bo'lgan "Chiziqli fazo" mavzusini fizik real holatlar bilan talabalarga tushuntirishga qaratilgan. "Apollon – 13" missiyasiga asoslangan didaktik senariy orqali talabalarning matematik tafakkurini fizik voqealar bilan, g'oyaviy strukturalar shakllanishi rag'batlantiriladi.

Nazariy asos va adabiyotlar sharhi. Chiziqli algebra fanining asosiy komponentlari bo'lgan chiziqli erkli, fazoviy tuzilmalar, bazis va o'lchamlilik kabilar ko'p hollarda talabalarga murakkab bo'lib tuyuladi, ayniqsa, ular fizik kontekstda qo'llanilsa. An'anaviy o'qitish amaliyotlarida bu tushunchalar ko'pincha algoritmik va mexanik yondashuvlar orqali o'rgatiladi bu esa chuqur anglashga to'sqinlik qiladi [1]. Natijada talabalarda ushbu nazariy bilimlarni amaliy masalalarga qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga keladi [3;4-b.]. So'nggi tadqiqotlar talabalarning mavzularni chuqur anglashini ta'minlash uchun faol ishtirok asosida qurilgan interaktiv ta'lim metodlari samarali ekanini ko'rsatmoqda. Jumladan, "Peer Instruction, Case Study va Blending learning" [5;7-b.] metodlari ta'lim samaradorligini sezilarli oshirishi isbotlangan. CaPeB modeli aynan shu metodlarning integratsiyasidan iborat bo'lib, u nazariy bilimlarni real voqea va hodisalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muqobil didaktik yondashuvni taklif etadi. Olingan bilimlarni mustahkamlashda savol javoblar o'tkaziladi.

Mavzuga tayyorgarlik uchun avvalgi darsda yangi mavzu o'qituvchi tomonidan talabalarga e'lon qilinadi. Aralash ta'lim(blending learning) metodiga ko'ra talabalar umumiy tushunchalarni video darslar va kitoblar yordamida o'qib tasavvurga ega bo'ladi. Dars davomida o'qituvchi kerakli bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashda, o'qitishda taqdimotdan foydalanadi. Bu aralash ta'lim(blending learning) metodi darsni sifatli tashkil etishga va ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi.

O'quv maqsadlari va kutilayotgan natijalar

Bloom taksonomiyasi bosqichi	O'quv maqsadi	Kutilayotgan natija
Eslab qolish	Chiziqli fazo tushunchasini aniqlaydi va asosiy terminlarni eslab qoladi.	Talaba "chiziqli kombinatsiya", "bazis", "o'lcham" kabi atamalarni to'g'ri tushuntiradi.
Tushunish	Talaba real (Apollo 13) vaziyat asosida chiziqli fazo va vektorlar kombinatsiyasining mazmunini o'zi mustaqil tahlil qilib tushuntiradi	Talaba berilgan vektorlar kombinatsiyasining fizik ma'nosini mustaqil ifodalaydi va chiziqli fazo qanday hosil bo'lishini tushunarli tarzda izohlaydi.
Qo'llash	Real vaziyat (Apollo 13 misolida) orqali chiziqli fazo modelini quradi.	Talaba vektorlar asosida fizik modelni tuzib, kerakli kuchni ifodalashni amalda bajaradi.
Tahlil qilish	Dvigatellar kuchlari kombinatsiyasi orqali chiziqli mustaqillikni tahlil qiladi.	Talaba mustaqil vektorlar orasidagi farqni aniqlab, ularning fazoni qamrab olishini baholaydi.
Baholash	Guruh bilan muhokama asosida optimal kombinatsiyani tanlaydi.	Talaba boshqa talabaning yondashuvini tahlil qilib, o'z fikrini asosli izohlaydi.
Yaratish	Berilgan masalaga matematik model tuzadi (masalan: resurs taqsimoti modeli)	Real muammoni matematik modelga aylantiradi

Talabalarga oldingi darsda yangi mavzu bo'yicha umumiy tushunchalarni o'zlashtirish vazifa qilib berilgan bo'ladi. Ushbu bilimlarga asoslanib, talabalar fikri tinglanib, ketma-ket yangi tushunchalarga ta'rif berib umumlashtiriladi va yangi mavzuning qismlari tarmog'i tuziladi. Shundan so 'ng o'qituvchi mavzuning nazariy qismiga o'tishdan oldin talabalarga mavzu yuzasidan hayotiy masala keltiradi. Masalaning mohiyatini tushuntiriladi va yangi mavzudai tushunchalarga bog'lab nazariy tushunchalar keltiriladi. Hayotiy masala quyidagicha:

Masala. 1970-yilning 11-aprelida AQSHning "Apollo 13" missiyasi Oyga uchish maqsadida uchirilgan edi. Bu NASAning Oyga qo'nish bo'yicha uchinchi rejalashtirilgan missiyasi hisoblanadi. Apollon 13 missiyasi davomida favqulodda holatda astronavtlar fazoda qayta yo'nalish uchun mavjud bo'lgan Lunar Module (LM) dvigatellari yordamida kerakli kuch yo'nalishini hosil qilishga majbur bo'lishdi. Missiya mag'lubiyati mufaqqiyatli yerga qo'nish bilan yakunlanadi.

Savol quyidagicha.

Mavjud uchta dvigatel yo‘nalishlaridan foydalangan holda zaruriy yo‘nalishdagi kuchni hosil qilish mumkinmi? Uchta faol LM RCS divigiteli quyidagi yo‘nalishlarda kuch beradi:

$\overrightarrow{v_1} = (1,1,1)$, $\overrightarrow{v_2} = (1,1,2)$, $\overrightarrow{v_3} = (1,2,3)$. *Astronavtlar umumiy yo‘nalishdagi hosil qilmoqchi bo‘lgan kuch quyidagicha:* $\vec{F}_{\text{kerak}} = (6,9,14)$

Ushbu uchta dvigatelning yo‘nalishlaridan foydalanib, berilgan $\vec{F}_{\text{kerak}}$ kuch vektorini hosil qilish mumkinmi? *Umumiy hosil qiladigan kuch quyidagi chiziqli kombinatsiya orqali ifodalansa,*

$$\vec{F}_{\text{kerak}} = \lambda_1\overrightarrow{v_1} + \lambda_2\overrightarrow{v_2} + \lambda_3\overrightarrow{v_3}$$

$\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ larning qiymati qanday.





Yuqorida talbalarga real masala keltirildi endi nazariy qismga o‘tiladi.

Chiziqli fazo tushunchasi. Bizga V to‘plam berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy $x, y \in V$ elementlarga ularning yig‘indisi deb ataluvchi $z \in V$ elementni mos qo‘yib, uni $z := x + y$ ko‘rinishida belgilab olamiz. Biror haqiqiy sonlar to‘plami yoki kompleks sonlar to‘plami $G(R\ yoki\ C)$dan olingan ixtiyoriy $\lambda \in G$ sonini $x \in V$ elementga ko‘paytmasi sifatida $y \in V$ elementni mos qo‘yamiz va uni $y := \lambda \cdot x$ ko‘rinishida belgilaymiz.

1-ta’rif. Agar V to‘plamda aniqlangan qo‘shish va songa ko‘paytirish amallari quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, V to‘plam G maydon ustida aniqlangan chiziqli fazo yoki vektor fazo deyiladi:

1. $x + y = y + x$ $(kommutativlik\ sharti)$.
2. $(x + y) + z = x + (y + z)$ $(assotsiativlik\ sharti)$.
3. Shunday $0 \in V$ element mavjud bo‘lib, har qanday $x \in V$ uchun $x + 0 = 0 + x == x$, bu yerdagi 0 element nol element deyiladi.
4. Har qanday $x \in V$ uchun $-x \in V$ bilan belgilanadigan shunday element mavjud bo‘lib: $x + (-x) = (-x) + x = 0$;
5. $1 \cdot x = x$;
6. $\lambda \cdot (\mu \cdot x) = \lambda\mu \cdot x = \mu \cdot (\lambda \cdot x)$;
7. $(\lambda + \mu) \cdot x = \lambda \cdot x + \mu \cdot x$;
8. $\lambda(x + y) = \lambda \cdot x + \lambda \cdot y$;

bu yerda $1, \lambda, \mu \in G, x, y \in V$.

Chiziqli bog‘liq va chiziqli erkli vektorlar. Bizga V chiziqli fazo berilgan bo‘lib, $x_1, x_1 \dots, x_n$ vektorlar chiziqli fazoning elementlari bo‘lsin.

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \cdots + a_nx_n$$

yig‘indi vektorlarning chiziqli kombinatsiyasi deyiladi, bu yerda $a_i \in G$.

2-ta’rif. Agar kamida bittasi noldan farqli bo‘lgan $a_1, a_2, \dots, a_n$ sonlar mavjud bo‘lib,

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \cdots + a_nx_n = 0$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $x_1, x_1 \dots, x_n$ vektorlar chiziqli bog‘liq vektorlar deyiladi.

Chiziqli bog‘liq bo‘lmagan vektorlar chiziqli erkli vektorlar deyiladi. Ya’ni,

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \cdots + a_nx_n = 0$$

tenglik $a_1 = a_2 = \cdots = a_n = 0$ bo‘lgan holdagina o‘rinli bo‘lsa, $x_1, x_1 \dots, x_n$ vektorlar chiziqli erkli vektorlar deyiladi.

O‘lchov tushunchasi.

3-ta’rif. $V(+,\cdot)$-vektor fazodagi maksimal chiziqli erkli vektorlarning soni vektor fazoning o‘lchami deyiladi va $dimV$ kabi belgilanadi.

4-ta’rif. Agar V chiziqli fazoda n ta chiziqli erkli vektor mavjud bo‘lib, bundan ortiq sondagi chiziqli erkli vektor mavjud bo‘lmasa, u holda V chiziqli fazo n −o‘lchamli fazo deyiladi.

Agar V fazoda cheksiz ko‘p chiziqli erkli vektorlar mavjud bo‘lsa, u holda V fazo cheksiz o‘lchamli fazo deyiladi.

5-ta’rif. n −o‘lchamli V fazodagi n ta chiziqli erkli $e_1, e_2, \dots e_n$ vektorlar V fazoning bazisi deb ataladi.

6-ta’rif. Agar $e_1, e_2, \dots e_n$ vektorlar n −o‘lchamli fazoning bazisi bo‘lib,

$$x = \lambda_1 e_1 + \lambda_2 e_2 + \cdots + \lambda_n e_n$$

bo‘lsa, u holda $\lambda_1, \lambda_2, \dots \lambda_n$ sonlar x vektorning $e_1, e_2, \dots e_n$ bazisdagi koordinatalari deb ataladi.

Yechish. Dastlab, $\vec{\mathrm{F}}_{\mathrm{kerak}}$ *ni,* $\overrightarrow{\mathrm{v}_1}$ *,* $\overrightarrow{\mathrm{v}_2}$*,* $\overrightarrow{\mathrm{v}_3}$ *orqali umumiy ko‘rinishini yozamiz.*

$$\vec{\mathrm{F}}_{\mathrm{kerak}} = \lambda_1 \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 1 \end{pmatrix} + \lambda_2 \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 2 \end{pmatrix} + \lambda_3 \begin{pmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{pmatrix} = (6,9,14)$$

Berilgan ifodaga ko‘ra tenglamalar sistemasini tuzib olamiz:

$$\begin{cases} \lambda_1 + \lambda_2 + \lambda_3 = 6 \\ \lambda_1 + \lambda_2 + 2\lambda_3 = 9 \\ \lambda_1 + 2\lambda_2 + 3\lambda_3 = 14 \end{cases}$$

Sistemani yechadigan bo‘lsak, bundan $\lambda_1 = 1, \lambda_2 = 2, \lambda_3 = 3$ kelib chiqadi.

Endi vektorning koordinatalarini topishning umumiy formulasini keltiramiz.

Faraz qilaylik, n −o‘lchamli V vektor fazoda $e_1, e_2, \dots e_n$ va ${e_1}', {e_2}', \dots {e_n}'$ bazislar berilgan bo‘lsin. Ikkinchi bazis birinchi bazis orqali quyidagicha ifodalangan bo‘lsin:

$$\begin{cases} f_1 = a_{11}e_1 + a_{21}e_2 + \cdots + a_{n1}e_n \\ f_2 = a_{12}e_1 + a_{22}e_2 + \cdots + a_{n2}e_n \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ f_n = a_{1n}e_1 + a_{2n}e_2 + \cdots + a_{nn}e_n \end{cases}$$

x vektor birinchi bazis bilan quyidagicha ifodalanib,

$$x = \lambda_1 e_1 + \lambda_2 e_2 + \cdots + \lambda_n e_n$$

ikkinchi bazisdagi koordinatalari bilan hosil bo‘lgan ifodaga tenglaymiz.

$$x = \lambda_1 e_1 + \lambda_2 e_2 + \cdots + \lambda_n e_n = {\lambda_1}' f_1 + \lambda_2' f_2 + \cdots + \lambda_n' f_n$$
$$= {\lambda_1}'(a_{11}e_1 + a_{21}e_2 + \cdots + a_{n1}e_n) + \lambda_2'(a_{12}e_1 + a_{22}e_2 + \cdots + a_{n2}e_n) + \cdots$$
$$+\lambda_n'(a_{1n}e_1 + a_{2n}e_2 + \cdots + a_{nn}e_n)$$

Ushbu tenglikni o‘ng va chap tomondagi bazis vektorlar oldidagi koeffitsiyentlar teng bo‘ladi, ya’ni

$$\begin{cases} \lambda_1 = a_{11}{\lambda_1}' + a_{21}\lambda_2' + \cdots + a_{1n}\lambda_n' \\ \lambda_2 = a_{12}{\lambda_1}' + a_{22}\lambda_2' + \cdots + a_{2n}\lambda_n' \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \lambda_n = a_{n1}{\lambda_1}' + a_{n2}\lambda_2' + \cdots + a_{nn}\lambda_n' \end{cases}$$

Demak, berilgan x vektorning koordinatalari o‘rtasida quyidagi munosabat o‘rinli:

$$\begin{pmatrix} \lambda_1 \\ \lambda_2 \\ \cdots \\ \lambda_n \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{21} & \cdots & a_{1n} \\ a_{11} & a_{22} & \cdots & a_{1n} \\ \cdots & \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{11} & a_{n2} & \cdots & a_{nn} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} {\lambda_1}' \\ \lambda_2' \\ \cdots \\ \lambda_n' \end{pmatrix}$$

Bundan esa

$$\begin{pmatrix} {\lambda_1}' \\ \lambda_2' \\ \cdots \\ \lambda_n' \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{21} & \cdots & a_{1n} \\ a_{11} & a_{22} & \cdots & a_{1n} \\ \cdots & \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{11} & a_{n2} & \cdots & a_{nn} \end{pmatrix}^{-1} \cdot \begin{pmatrix} \lambda_1 \\ \lambda_2 \\ \cdots \\ \lambda_n \end{pmatrix}$$

kelib chiqadi.

2-usul. Yechish.

$$\begin{cases} \lambda_1 + \lambda_2 + \lambda_3 = 6 \\ \lambda_1 + \lambda_2 + 2\lambda_3 = 9 \\ \lambda_1 + 2\lambda_2 + 3\lambda_3 = 14 \end{cases}$$

Demak sistemadan matritsa ko‘rinishiga o‘tib olamiz:

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 1 & 2 \\ 1 & 2 & 3 \end{pmatrix}, X = \begin{pmatrix} \lambda_1 \\ \lambda_2 \\ \lambda_3 \end{pmatrix}, B = \begin{pmatrix} 6 \\ 9 \\ 14 \end{pmatrix}, A^{-1} = \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 1 & -2 & 1 \\ -1 & 1 & 0 \end{pmatrix}.$$

$$\begin{pmatrix} \lambda_1 \\ \lambda_2 \\ \lambda_3 \end{pmatrix} = A^{-1} \cdot B = \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 1 & -2 & 1 \\ -1 & 1 & 0 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 6 \\ 9 \\ 14 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{pmatrix}$$

Demak, ikki usulda ham javoblar teng chiqdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun “Tengdoshlar uchun ko‘rsatma”(Peer Instruction) metodiga ko‘ra savollar beriladi. Savollarga javobni talaba avval o‘zi topadi keyin tengdoshi bilan muhokama qiladi. Keyin birgalikda umumiy xulosa qilib javobni aytishadi. Bu talabalarda mustaqil fikr bildirish, xulosa chiqarish va mavzuni anglab mustahkamlashiga yordam beradi.

“Tengdoshlar uchun ko‘rsatma” (Peer Instruction)

To‘plamlar	Berilgan to‘plamlar chiziqli fazo tashkil qiladimi.	Chiziqli fazoning o‘lchamlari. $dimV$ =?
$M_{n,m}$-matirtsalar to‘plami		
$(R^2, +, \lambda)$- tekslikda vektorlar to‘plami		
$(R^3, +, \lambda)$- fazoda vektorlar to‘plami		
$(P_n(x), +, \lambda)$- darajasi n dan oshmaydigan haqiqiy (kompleks) koeffitsiyentli barcha ko‘phadlar to‘plami		
$(C[a,b], +, \lambda)$ - $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo‘lgan funksiyalar to‘plami		

Savol, javob o‘tkazilgandan so‘ng, darsni yakuniy bosqichiga o‘tiladi. Uyga vazifa sifatida mavzuni mustahkamlashga doir topshiriqlar beriladi. Keyingi darsni ham samarali va zamonaviy dars metodlaridan foydalanib tashkil etish uchun yangi mavzuni o‘qish, umumiy tushunchalarni o‘rganish vazifa sifatida beriladi. Yangi mavzuga doir video darslar, elektron kitoblar talabalarga darsning yakunida taqdim etiladi.

Xulosa. CaPeB modeli – Case Study, Peer Instruction va Blended Learning integratsiyasiga asoslangan yondashuv chiziqli algebra fanida, ayniqsa murakkab mavzularni o‘zlashtirishda, samarali ekanini ko‘rsatdi. Model real hayotiy holatlarni matematik tushunchalar bilan bog‘lash orqali talabalar faolligini oshirish, tushunchaviy anglashni chuqurlashtirish va bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv fizika yo‘nalishidagi talabalar uchun samarali bo‘lishi bilan birga, boshqa fanlarga ham tatbiq etilishi mumkin. Shu bois CaPeB modeli asosidagi integratsiyalashgan ta’lim metodikasini kengroq miqyosida joriy etish va uning samaradorligini chuqurroq o‘rganish istiqbollidir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

[1]. Falk G., Levenberg S. (1993). The function concept in college students: Linearity and homogeneity. Journal of Research in Science Teaching, 30(4), p. 409–428. https://doi.org/10.1002/tea.3660300405

[2]. Kustusch, M.B. (2014). What students remember about vector addition after instruction. The Physics Teacher, 52(4),p. 246–249. https://doi.org/10.1119/1.4872412.

[3]. Redish, E.F., & Smith, K.A. (2008). Looking beyond content: Skill development for engineers. Journal of Engineering Education, 97(3), 295–307. https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2008.tb00984.x

[4]. Crouch, C.H., & Mazur, E. (2001). Peer instruction: Ten years of experience and results. American Journal of Physics, 69(9), 970–977. https://doi.org/10.1119/1.1374249

[5]. Herreid, C.F. (2007). Start with a story: The case study method of teaching college science. Arlington, VA: NSTA Press.

[6]. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., Jones, K. (2014). The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. Teachers College Record, 115(3), p. 1–47.

Qudratilloyev Shoxro‘z Kamolovich (Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti)

O‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGANLAR TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimizda imkoniyati cheklanganlar ta’lim-tarbiya muammolari, ularga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar ilmiy-nazariy tahlil etiladi. Imkoniyati cheklanganlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularga ko‘mak berish, yaxshi sharoit bilan ta’minlash masalasida azal-azaldan jamiyatda e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, muqaddas islom ta’limoti va uning namoyandalari tomonidan nuqsonga ega yoki sog‘lom turmush kechirish borasida imkoniyati cheklanganlarga nisbatan doimo rahm-shafqatli bo‘lish, ehson va ko‘makni ayamaslik targ‘ib etilgan. Imkoniyati cheklanganlar ta’lim-tarbiyasi mavzusida tadqiqotlar olib borish, ularga bilim olish imkoniyatlarini yaratib berish, nazariy tafakkur tarzini rivojlantirish, boshqa insonlardek bog‘cha, maktab, oliy ta’limda teng imkoniyatlar yaratish borasidagi muammolarni ilmiy tahlil etish bugungi zamonaviy ilm-fanning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *imkoniyati cheklanganlar, ta’lim-tarbiya, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy himoya, bilim, imkoniyat, tenghuquqlilik, insonparvarlik, inson qadri.*

ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ ЛЮДЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация*. В данной статье проводится научно-теоретический анализ проблем обучения и воспитания людей с ограниченными возможностями в нашей стране, а также созданных для них условий и возможностей. Забота о людях с ограниченными возможностями, оказание им помощи и обеспечение достойных условий жизни всегда находились в центре внимания общества. Особенно в учении ислама и трудах его представителей подчеркивается важность сострадания к людям с физическими ограничениями, необходимость благотворительности и поддержки. Исследование вопросов обучения и воспитания людей с ограниченными возможностями, создание для них возможностей получения образования, развитие их теоретического мышления, а также обеспечение равных условий в детских садах, школах и высших учебных заведениях – являются актуальными задачами современной науки.*

Ключевые слова: *люди с ограниченными возможностями , образование, инклюзивное образование, социальная защита, знания, возможности, равенство, гуманность, человеческое достоинство.*

ISSUES OF EDUCATION OF PEOPLE WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the problems of education and upbringing of people with disabilities in our country, as well as the conditions and opportunities created for them. Caring for people with disabilities, providing them with assistance and ensuring decent living conditions have always been in the center of attention of society. Especially in the teachings of Islam and the works of its representatives, the importance of compassion for people with physical disabilities, the need for charity and support are emphasized. Research into the issues of education and upbringing of people with disabilities, creating educational opportunities for them, developing their theoretical thinking, as well as ensuring equal conditions in kindergartens, schools and higher educational institutions are urgent tasks of modern science.*

Key words: *people with disabilities, education, inclusive education, social protection, knowledge, opportunities, equality, humanity, human dignity.*

Kirish (Introduction). O‘zbek xalqi azal-azaldan imkoniyati cheklangan, sog‘ligida ma’lum bir muammosi bo‘lgan insonlarga nisbatan rahmli, dilkash, hamdard bo‘lib kelgan. Ta’lim-tarbiyada ham hamisha imkoniyati cheklanganlarga nisbatan insonparvarlik tuyg‘ulari shakllantirib kelingan. Bugungi kunga kelib esa mamlakatimizda imkoniyati cheklanganlarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan yanada keng ko‘lamdagi islohotlar orqali mustahkamlab borilmoqda. Ularning barcha jamiyat a’zolari singari teng huquq va imkoniyatlardan foydalana olishlari qonunan kafolatlanib borilmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklanganlar ta’lim-tarbiyasini oqilona tashkil etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunga kelib imkoniyati cheklanganlar ta’lim-tarbiyasining samaradorligini yanada oshirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish masalasini nazariy-falsafiy, pedagogik tahlil etish zaruratga aylanmoqda. Vaholanki, sog‘lom yoxud nosog‘lom bo‘lishdan qat’iy nazar, bu olamda inson, uning hayoti, sha’ni, ornomusi eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Imkoniyati cheklanganlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularga ko‘mak berish, yaxshi sharoit bilan ta’minlash masalasida azal-azaldan jamiyatda e’tibor qaratilgan. G‘arb mamlakatlari olimlari tomonidan inklyuziv ta’lim borasida keng ko‘lamdagi ilmiy izlanishlar

olib borilgan. Jumladan, bu borada M.Ainscow, T.Boothning inkluzivlik indeksi, G.Tomas va A.Loxleyning maxsus ta'limni dekonstruksiya qilish hamda inkluziv ta'limni rivojlantirish, M.Mastropieri, E.-Tomasning inkluziv sinf va samarali ta'lim strategiyalari, Meri Bet Doylning inklyuziv sinf uchun paraprofessional qo'llanma yaratish, M.Conrad va T.Whitakerning inklyuzivlik va qonunchilik sistemasi borasidagi, shuningdek, C.Jorgensen, J.Gunckel, L.Kristinlarning olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Shu jumladan, mamlakatimiz tadqiqotchi va olimlari tomonidan ham imkoniyati cheklanganlar ta'limi va tarbiyasi, ularda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot olib borish masalalari borasida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, faylasuf olimlarimizdan N.Shermuhamedova va R.Xudoyberganovlarning ta'lim muammolari va ta'limning falsafiy tahlili [12;260-b.], R.D.Yuldashevning ta'lim jarayonida falsafiy bilimlarning o'rni [15;172-b.], M.X.Ergashevaning ta'lim-tarbiya falsafasi va uning zamonaviy imkoniyatlari [13;350-b.; 14;190-b.], R.Mardonovning ta'limda inson omilining falsafiy mohiyati, shuningdek pedagogika sohasida A.Choriyevning ijtimoiy tarbiya mexanizmlari [11;343-b.], T.Primovning ta'lim falsafasi hamda ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari, X.Muzaffarovaning O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga inkluziv ta'lim tizimining joriy etilish masalalari borasidagi ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Imkoniyati cheklanganlik, kishidagi har tomonlama sog'lomlik bilan bog'liq muammo hisoblanadi. Ya'ni, jamiyat a'zolari orasida ko'rishda, eshitishda, tayanch harakat sistemasida, nutqda yoki boshqa bir a'zolarida nuqsoni bor insonlar ham uchraydi. "Imkoniyati cheklangan bolalar – o'zlariga xos qobiliyatlari cheklangan yoki cheklanganlik riski bor bolalar, o'zining turli turlarini o'z ichiga oladi. Bu turlar orasida nutq va harakat-tayanchi cheklangan bolalar, autizm spektri bo'lgan bolalar, o'zlashtirish va intellektual cheklanganliklari bo'lgan bolalar, o'qish va yozish cheklanganliklari bo'lgan bolalar, vizual va tinglash cheklangan bolalar kabi turli xil cheklanganliklari bo'lgan bolalar keltiriladi" [10;34-b.]. Imkoniyati cheklanganlik inson hayotida sog'lom insonlar kabi qaysidir faoliyat, o'quv mashg'uloti, kundalik ehtiyojlarni yolg'iz bajara olmaslik kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo imkoniyati cheklanganlik inson sifatidagi qadr-qimmatga ta'sir etmasligi lozim. 2023-yilgi "Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq odam nogironlikdan aziyat chekadi. Bu dunyo aholisining, taxminan, 15 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda ham bunday toifadagi odamlar soni kam emas. Nogironlarga qulay sharoit yaratish, ularga ta'lim berish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasi nihoyatda dolzarbdir" [16]. Zero, xalqimizning ma'naviy-axloqiy tafakkuriga azal-azaldan ijtimoiy himoyaga muhtoj, yoxud nogiron insonlarga nisbatan mehrlilik, har tomonlama ko'mak berish, ularni yolg'izlanib qolishiga yo'l qo'ymaslik tarbiyasi singib ketgan.

Salomatlik eng oliy boylik hisoblanadi. Ammo inson hayoti va turmushi bir chiziqda davom etmagani kabi, uning jismoniy hamda ruhiy holati ham notekis, nochiziq jarayon sanaladi. Jamiyat a'zolari orasida ma'lum bir kamsonli kishilarda qaysidir turdagi imkoniyati cheklanganlik holati kuzatiladi. Butun jamiyat a'zolariga nisbatan olib qaralganda imkoniyati cheklanganlar soni ozchilikni tashkil etadi. Shu boisdan ham, ularga g'amxo'rlik qilish hamda hayotdagi umidlarini so'ndirmaslik har bir jamiyat va davlatning ham insoniylik, ham qonuniylik faoliyatlaridan biri bo'lmog'i lozim. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, imkoniyati cheklanganlik turli xil shakllarda bo'lishi mumkin.

Manbalarda imkoniyati cheklanganlikni, asosan, quyidagi turlari qayd etiladi:

1. Nutq va harakat-tayanchi cheklangan bolalar.
2. O'zlashtirish va intellektual cheklanganliklari bo'lgan bolalar.
3. O'qish va yozish cheklanganliklari bo'lgan bolalar.
4. Vizual va tinglash cheklangan bolalar [10;35-b.].

Imkoniyati cheklanganlarga nisbatan jamiyat hayotida oqilona qarashni shakllantirish, ular bilan madaniyatli muloqotni o'rnatish, shuningdek, ularning ham hamma insonlar singari hayotga moslashuvchanliklarini, faoliyat olib borishlarini ta'minlash juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, jismoniy yoxud ruhiy salomatlik holatidan qat'iy nazar, har bir inson hayoti eng oliy qadriyat sanaladi. Ayniqsa, bugungi kunga kelib, imkoniyati cheklanganlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, sog'lom insonlarga yaratilayotgan barcha imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishlari uchun butun jahon miqyosida keng e'tibor qaratilmoqda. Insondagi nogironlik, tug'ma yoxud orttirilgan bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyat a'zolari orasida o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Imkoniyati cheklanganlarning jamiyatda to'la-to'kis hayot kechirib, bor imkoniyatlardan oqilona

foydalana olishlari, o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini erkin namoyon etishlari uchun oila, atrof-muhit, jamiyat, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati juda muhim sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda imkoniyati cheklanganlar ta’lim tizimi hamda bu tizimda olib borilishi lozim bo‘lgan ma’naviy targ‘ibot masalasini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish zaruriy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda imkoniyati cheklanganlarning ajralib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning ta’limi, tarbiyasi, turmush farovonligini ta’minlash bugungi zamonaviy jamiyatning asosiy talablaridan biridir. Chunki hozirgi davrga kelib, inson qadri, uning daxlsizligi, shaxsiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqlari tobora mustahlkamlanib, nafaqat ma’lum bir mamlakat doirasida, balki xalqaro miqyosda kafolatlanmoqda. Zero, “Bugun biz mamlakatimizning jadal taraqqiy etishi va yanada obod bo‘lishi, uning dunyodagi rivojlangan davlatlar safidan munosib joy olishini ta’minlaydigan, jamiyatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishga qaratilgan uzoq muddatli, maqsadli vazifalarni amalga oshirish, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosqichini boshdan kechirmoqdamiz. Ushbu davrda inson omilini yanada faollashtirish, inson salohiyatini kengroq yuzaga chiqarishga erishish boshlagan yaratuvchanlik ishlarimizning samaradorligiga, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning kafolatidir” [5;8-b.]. Bunda inson salohiyatidan, qobiliyat va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nafaqat sog‘lom insonlar, balki jamiyatning har bir a’zosi mamlakat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘shishga qodir. Har bir inson muayyan bir o‘ziga xos qobiliyat, iqtidor, salohiyat egasi sanaladi. Uni ko‘ra olish, payqash uchun esa jamiyatda ma’lum bir shart sharoitlar, imkoniyatlar yaratilishi lozim. Shu boisdan ham inson omili xususida fikr yuritilganda, butun dunyo mamlakatlarida eng muhim masala sifatida yondashilinadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Konstututsiyasining “Muqaddimasi”da ham “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadrqimmatioliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish...” [1;3-b.] maqsadi bayon etiladi. Shunisi ahamiyatliki, mamlakatimizda faqatgina bugungi kunga kelib, inson qadri yoxud yordamga muhtoj, xususan, imkoniyati cheklangan kishilarga nisbatan insonparvarlik munosabat shakllanib qolgani emas. O‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy tafakkuriga azal-azaldan ijtimoiy himoyaga muhtoj, yoxud nogiron insonlarga nisbatan mehrlilik, har tomonlama ko‘mak berish, ularni yolg‘izlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik tarbiyasi shakllantirib kelingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko‘ra: “Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir” [1;35-b.]. Demak, mamlakatimiz bosh qonunida ham imkoniyati cheklanganlar masalasining yoritilishi, ularning hamisha e’tiborda ekanligidan dalolatdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim va tarbiya jarayoni imkoniyati cheklangan yoshlarning ma’lum bir faoliyatga yo‘naltirishda, o‘z maqsadini belgilashida, o‘zini to‘laqonli jamiyat a’zosi sifatida his qilishida ko‘mak beradigan dastlabki metodologik bo‘g‘in hisoblanadi. Shu o‘rinda tarbiya va ta’lim tushunchalariga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya va ta’lim inson hayotining asosiy tayanchi, kelajakdagi istiqbolini belgilaydigan muhim qismi hisoblanadi. Uning oqilona tashkil etilishi barkamol shaxs shakllanishida konstruktiv ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan imkoniyati cheklanganlik, yoxud cheklanmaganlikdan qat’iy nazar, avvalo, har bir inson ta’lim va tarbiya olish huquqiga egadir. “Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon; ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” [2] hisoblanadi. Demak, ta’lim va tarbiya insonning kamolotga erishuvida, ma’nan yuksalishida, ilmiy-intellektual salohiyatini oshib borishida juda katta imkoniyatlarni taqdim etuvchi fundamental tizim hisoblanadi. “Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo‘lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o‘zidan keyingi avlodga o‘rgatib borganlar. Kichik avlod esa o‘z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi muammolarning yechimini topish barobarida hilim va ko‘nikmalami egallab, oldingi avloddan meros qolgan bllimlaml yanada boyitib, o‘zidan keyingi avlodga qoldlradi” [7]. Mazkur mulohazalar asosida shuni ta’kidlash lozimki, tarbiya azaliy, uzluksiz jarayon bo‘lib, avloddan avlodga doimiy ravishda vorisiylik tamoyili asosida o‘tib boradi. Ana shu tarbiya jarayonining yuksak darajada olib borilishida ma’naviy bilimlarning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimning asosiy shakllantiruvchi manbasi va quroli turli usul va vositalar orqali amalga oshiriladigan ma’naviy targ‘ibot olib borish mexanizmi bilan belgilanadi. “Ijtimoiy tarbiya sistemasi va strukturasini jo‘ngina tushunish maqsadga muvofiq emas. Bu jarayon bir butun sistema sifatida turli ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, madaniy-ma’rifiy uyushmalar, amalga oshiradigan tarbiyaviy-mafkuraviy tad-

birlarni, shuningdek, madaniy meros, milliy qadriyatlar, jamoatchilik fikrining tarbiyaviy-mafkuraviy imkoniyatlarini qamrab oladi" [11;3-b.]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash o'rinliki, tarbiya jarayonida jamiyatdagi har bir ijtimoiy institut ishtirok etadi va tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, bu jarayonda oila institutining ahamiyatini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Oila jamiyatning eng muhim tayanchi va harakatga keltiruvchi bo'g'ini hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan farzandi bor oilaning ta'lim va tarbiya borasidagi mas'uliyati yanada murakkab, muhim, dolzarb mohiyatga ega sanaladi. Bunday oilalardagi ma'naviy muhit oqilonalik, insonparvarlik, sabrlilik, vijdon, axloq, burch, mehr, muhabbat kabi yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillar orqali shakllanadi.

Imkoniyati cheklanganlar ta'lim va tarbiyasi deyilganda, bizningcha, jamiyatdagi salomatligida ma'lum bir nuqsoni bor kishilarning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya olishlari uchun munosib shart-sharoitning yaratib berilishi, shuningdek, zamonaviy falsafiy-pedagogik usul va vositalardan foydalangan holatda o'ziga xos, maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi tushuniladi.

"Shaxs u yoki bu xildagi hayot tarzini tanlash imkoniga ega bo'lgan ongli va faol insondir. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning shaxsiy va psixologik sifatlarini o'rganishga katta e'tibor beriladi, chunki bunday ma'lumotlarni bilish va shaxslararo munosabatlarda hisobga olish juda muhimdir. Inson shaxsi jamiyatning a'zosi sifatida turli xil o'zaro munosabatlar doirasida faoliyat yuritadi. Shaxsning shakllanish jarayoniga shaxslararo munosabatlardan tashqari, jamiyatdagi mavjud siyosiy doiralar va mafkuraviy qarashlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mafkuraviy qarashlar jamiyatdagi ma'lum bir g'oyalar tizimi sifatida shaxsga ta'sir ko'rsatib, uning psixologiyasi, dunyoqarashi, shaxsiy va ijtimoiy ustanovkalarining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi" [6;5-b.]. Har qanday bunyodkor fikr, qarash, g'oya va mafkura, albatta, ta'lim va tarbiya jarayoni orqali, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mazkur jarayondagi samarali ma'naviy targ'ibot olib borish asosida shakllantiriladi. Imkoniyati cheklanganlar ma'naviy salohiyatining yuksalishi ham ularning ta'lim-tarbiya sistemasini maxsus metodikalar asosida tashkil etilishi orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchidan, har bir inson dunyoga kelar ekan, uning hayoti, yashash huquqi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Jamiyat a'zolari jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, zamonaviy turmush tarzidagi kishi hayotiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan barcha imtiyoz va huquqlardan, shu jumladan ta'lim-tarbiya olish imkoniyatidan ham oqilona foydalana olishga haqli hisoblanadi.

Ikkinchidan, imkoniyati cheklanganlar ta'lim-tarbiya sistemasini oqilona tashkil etilishi, ularning ruhiy yuksalishiga, ma'naviy-axloqiy, estetik, kreativ, kognitiv tafakkur tarzini rivojlanishida, shuningdek, hayotga nisbatan konstruktiv yondashuvi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2023.

(2). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son.

(3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo`lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab–quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-farmoni.

(4). Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta`lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 2-iyundagi 417-qarori.

(5). Жамият ва инсон фалсафаси. Услубий қўлланма (тузувчи А.Р.Самадов), Самарқанд, СамДУ, 2013.

(6). Ismoilova N. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

(7). Mavlonova K., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik, T., "Fan va tcxnologiya", 2010.

(8). Muzaffarova X. (2021). O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilish masalalari. Журнал "Педагогики и психологии в современном образовании", 1(3).

(9). Primov T. Ta'lim falsafasi yoki ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. T., "Fan va texnologiya", 2014.

(10). Turg'unboyeva Zulhumor Ibrohimjon qizi. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish // Holders of reason. Vol. 2, № 1 (2023), 2.

(11). Чориев А. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб. Қарши, "Ilm-fan-ma'naviyat", 2024.

(12). Шермуҳамедова Н.А., Худойберганов Р. Таълим фалсафаси. Тошкент, ТАҚИ, 2018, 260-бет.

(13). Эргашева М. Таълим тараққиёти: синергетик таҳлил. Монография. Самарқанд, «Самарқанд давлат чет тиллар институти» нашриёти, 2022.

(14). Ergasheva M.X. Ta'lim va tarbiya falsafasi. Darslik. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2024.

(15). Юлдашев Р.Д. Таълим фалсафаси таълим жараёнини ривожлантиришнинг назарий-концептуал асоси. *Тошкент, 2020.*

(16). https://kun.uz/news/2023/10/13/.

Tursunova Olmos Fayziyevna (O‘zbekiston – Finlyandiya Pedagogika instituti dotsenti)

MAHALLA YOSHLARI ORASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mahalla yoshlari orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy ahamiyati masalasi bayon etiladi. Shuningdek, kitobxonlik borasida tajribalarni keng ommalashtirish, ma’naviy targ‘ibot tadbirlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davr talabi ekanligi muhokama etiladi.*

Kalit so‘zlar. *kitob, kitobxonlik, mahalla, yoshlar, bilim.*

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В статье обсуждается социальная значимость продвижения культуры чтения среди молодежи района. Также обсуждается необходимость широкой популяризации опыта чтения и вывода мероприятий по духовному развитию на качественно новый уровень.*

Ключевые слова: *книга, чтение, район, молодежь, знания.*

SOCIAL IMPORTANCE OF IMPROVING LIBRARY CULTURE AMONG NEIGHBORHOOD YOUTH

Annotation. *This article discusses the social importance of promoting a reading culture among the youth of the neighborhood. It also discusses the need for widespread popularization of experiences in reading and bringing spiritual promotion activities to a qualitatively new level.*

Keywords: *book, reading, neighborhood, youth, knowledge.*

Kirish. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rolini oshirish orqali fuqarolarimiz, ayniqsa, mamlakat yoshlarini ma’naviy hamda jismoniy jihatdan barkamol, o‘z Vatani uchun jon kuydiradigan vatanparvar, o‘zligini-yu, o‘z tarixini yaxshi biladigan insonlar qilib tarbiyalash – asosiy maqsadimizdir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali axloqsizlik va zo‘ravonlik, shafqatsizlik, “ommaviy madaniyat”, ekstremizm kabi yot g‘oyalar bilan zaharlashga urinayotgan, o‘zining g‘arazli maqsad va talablarini yoyishga intilayotgan kuchlar ko‘payib borayotgani barchamizni tashvishga solishi kerak.

Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ertamiz egalarining oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas’uliyatini oshirish, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat, fidoyilik, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda, shubhasiz, mahalla faollari va ular tomonidan tashkillashtirilayotgan ma’naviy targ‘ibot tadbirlarining o‘rni katta.

Azaldan mahalla ahli o‘z bolalarini baxtli, dono, aqlli, oliy ma’lumotli bo‘lsin, deb yashaydi. Buning uchun ular hozirgi murakkab va tahlikali zamonda bola tarbiyasi o‘zi qanday bo‘lishi kerak, uning qanday ta’sirchan usullari bor degan savollarga javob izlaydilar. Chunki tobora globallashayotgan hayotning pedagogik muammolariga ta’lim-tarbiya sohasi mas’ullari, ayniqsa, ota-ona, mahalla, ta’lim muassasalari uchun ilmiy asoslangan yechimlar zarur.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalardan ma’lumki, mahallalarda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini o‘rganish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari oldiga qo‘yilayotgan haqqoniy talab va takliflardan xulosa chiqarib, fuqarolar yig‘inlari faoliyati, jumladan, mahallalarda o‘tkazilayotgan ma’naviy targ‘ibot tadbirlarining zamon bilan hamnafasligi, hozir javobligini ta’minlash, faoliyatimizga ta’sirchan uslublarni keng joriy etish, yangicha yondashuv va ilg‘or fikrlar bilan faoliyatimizni boyitishimiz lozim. Bu borada oila a’zolari (ota-onalar va voyaga yetayotgan farzandlar) o‘rtasida kitob o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, oila – mahalla – ta’lim muassasasi hamkorligi doirasida “Ota-onalar universiteti” mashg‘ulotlarida kitob mutolaasining foydasi haqida mavzularni kiritish, bu borada ta’sirchan tushuntirish ishlarini olib borish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish misli ko‘rilmagan samaralar berishi, tabiiy.

Bolaning o‘sib-ulg‘ayishida kitob o‘qishning ahamiyati katta. Bolani kitob o‘qishga o‘rgatish uchun ota-ona va bolalar birgalikda kitob o‘qishni o‘rganishlari kerak. Bu bolalarda yoshligidan o‘qib-o‘rganishga mehr uyg‘otadi. Kuchli tasavvur, gapirish malakasini rivojlantirish hamda bilim olishga qiziqishni shakllantirishda kitob o‘qishning o‘rni beqiyos. Asosiysi, ko‘p kitob o‘qigan inson ijtimoiy faol bo‘ladi. Kitob o‘qish hayotiy maqsadni aniq belgilashga, maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklar va muammolarni ye-

ngib o‘tishga yordam beradi, sabr-toqat va vazminlik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Qolaversa, kitob insonning hayotga, oilaga to‘g‘ri va ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Ta’kidlash joizki, kitobxonlik targ‘iboti bo‘yicha ko‘plab fuqarolar yig‘inlarida o‘ziga xos tajribalar to‘plangan. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi va uning hududiy bo‘limlari ko‘magida joylarda yangi kitoblar taqdimoti, kitobxonlik musobaqalari o‘tkazilmoqda. Fuqarolar yig‘inlari huzurida “Mahalla kutubxonasi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, oilaviy kutubxonalar soni ham tobora ortib bormoqda. Shu bois mahalla faollari, tegishli komissiya a’zolari fuqarolar yig‘ini huzuridagi “Mahalla kutubxonasi” kitob fondini yanada boyitishga, mahallalarda yangi-yangi kitoblarning taqdimotiga bag‘ishlangan tadbirlarni tizimli tarzda o‘tkazib turishga va har bir oilada “Oilaviy kutubxona”larni tashkil etishga, ota-onalarga bolani kitob o‘qishga qiziqtirish, kitobni farzand bilan birgalikda o‘qish va muhokama qilishga odatlanishning ahamiyatini uqtirishga erishishlari zarur.

Darhaqiqat, kitob o‘qish madaniyativa an’analari bo‘lgan oilada bolalarning o‘zlari kitobga talpinadi. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o‘zlari kitobga bo‘lgan mehrlari bilan farzandlariga ibrat bo‘lishlari zarur. Ota-onalar farzandlarini kitob o‘qishga qanchalik erta undasalar, ular bilan birga o‘qisalar, kitob o‘qigani uchun yangi kitob sovg‘a qilish orqali rag‘batlantirib tursalar, uning hisobidagi o‘qilgan kitoblar shunchalik ko‘p bo‘ladi [1;2]. Shuning uchun kitob o‘qish odatini shakllantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bolalar bilan tez-tez kutubxonaga borish zarurligini ota-onalarga uqtirish kerak. Chunki kutubxonada kitob o‘qish bolaga yaxshi ta’sir qiladi. Shuningdek, ota-onalarning farzandlari bilan birga kitob do‘koniga tashriflarni ham an’anaga aylantirish, bolalarning yoshiga doir kitob tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Ota-onalar va voyaga yetayotgan farzandlar o‘rtasida kitob o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, fuqarolar yig‘inlarida tashkiliy etilayotgan “Mahalla kitobsevarlari” ko‘rik-tanlovlarida oilaviy a’zolarining faol qatnashishiga alohida e’tibor qaratish, “Ota-onalar universiteti” mashg‘ulotlarida ota-onalarga bolada kitobga mehru-oqibat va qiziqtirishning ahamiyati, bunda ota-onalarning o‘rni, shaxsiy iborat muhim ekanini qayta-qayta eslatish muhim ahamiyatga ega [3;4].

Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar ishtirokida tashkil qilinadigan barcha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, ilmiy-amaliy anjumanlarda yosh avlodning ong tafakkuri, ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda kitobning o‘rni beqiyos ekanligiga e’tibor qaratilishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘tkazilayotgan “Eng faol, bilimdon kitobxon”, “Mahallamiz kitobsevarlari”, “Kitobxon oila”, “Kitobxon mahalla” singari ko‘rik-tanlovlar nafaqat ta’lim muassasalarida, balki barcha mahallalar, oilalar qamrovida qiziqarli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga aylanib borayotgani fikrimizning dalilidir.

Ayniqsa, mahallalarda yoshlarning kitob va kitob mutolaasiga bo‘lgan muhabbatini oshirish, o‘zbek va jahon adabiyotlariga bo‘lgan qiziqishlarini yuksaltirishda Prezidentimiz tomonidan 2017-yilning 13-sentabrida “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” qabul qilingan qarorning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mahallalarda uyushtirilayotgan ma’rifiy tadbirlarda yosh avlodning kelajakda barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishida kitobning o‘rni beqiyos ekanligini singdirishga e’tibor qaratish lozim. Bunday tadbirlarda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasiga, xususan, erta nikohning oldini olish, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siri, giyohvandlik kabi illatlar hamda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida batafsil tushunchalar berib boriladi. Tadbirda ishtirok etayotgan, mahallaga kelayotgan yoshlar kitob o‘qishi, o‘z uyida imkoniyati bo‘lmasa, mahalla kutubxonasidan foydalanishlari mumkin.

Ayni paytda, mahalla fuqarolar yig‘inlarida yoshlarimiz ma’naviyatiga alohida e’tibor qaratilib, “Vatan kelajagi–yoshlar qo‘lida” loyihasi ostida davra suhbatlari tashkil etilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad-yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni zararli illatlardan himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan yangi qarorlar mohiyatini ularning ongu shuuriga yetkazish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdan iborat.

Bugun mahalla fuqarolar yig‘inlari nafaqat tarbiya o‘chog‘i, balki aholining ma’naviy olamini boyitadigan, kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini yanada oshiradigan maskanga ham aylanib bormoqda. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining o‘rni nihoyatda kattadir. Chunki aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib etish orqali ularning ma’naviy olami va dunyoqarashini boyitishga erishiladi. Mahallalarda kutubxonalar bilan bir qatorda, zamonaviy kitob do‘konlarini barpo etish, adabiyotlarning arzon narxlarda sotilishini ta’minlash, chekka hududlarda kitob yarmarkalarini tashkil qilish ham oilalarda kitobxonlikni rivojlantirish uchun eng maqbul harakatdir.

Mahallada tashkil qilinayotgan kutubxonalar to‘g‘ri tashkil etilib, uni boyitish manbalari yaratilsa, undagi kitoblarning soni va sifati oshirib borilsa, shuningdek, adabiyotlarning kataloglari tuzilib, tartib bilan joylashtirilsa, yoshlarda kutubxonadan to‘g‘ri foydalanish hamda kitoblar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodda mutolaa madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Dono xalqimizda kitob o‘qish, munosib bilim va ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. “Kitob–bilim manbayi”, “Baxt belgisi–bilim”, “Bilim–aql chirog‘i”, “Go‘zallik–ilm-u ma’rifatda”, “Hunar–oqar buloq, ilm–yonar chiroq”, “Bilim olsang, bilib ol” kabi hikmatli so‘zlar shular jumlasidandir. Bunday pur hikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Eng muhimi, necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo‘lchi yulduzdek to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta, baxtli va davlatli bo‘lishining muhim omili–bu kitobga do‘st bo‘lish, hamisha kitob o‘qish va kitob mutolaasini umrbo‘yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning hissasi katta, chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltiradi. Ushbu naqllarni mahalla kutubxonasiga shior tarzida joylashtirish mahalla ahlining kitobxonlik ko‘nikmasini yanada rivojlantiradi. Shuning barobarida, ota-onalar muntazam ravishda o‘z farzandlarini kitob do‘konlariga olib borishlari, ularning kutubxonaga qatnashini rag‘batlantirishlari darkor. Mahallalarda kitob sovg‘a qilish an’anasini keng joriy qilish kerak.

Mahallalarda kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim: har bir mahalla negizida kutubxonalar tashkil etilishi. Ushbu kutubxonani to‘ldirish uchun mahalla ahli bilan maslahatlashgan holda ishni tashkil qilish, har oyda bir marta katta tadbirlar negizida kitob yarmarkalarining tashkil etilishi, mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Mahallaning kitobxon oilasi” tanlovlarini uyushtirish, tuman, shahar ma’naviyat markazlari rahbarlari bilan birgalikda, mahalla kutubxonasiga yoshlarning muntazam qatnashini ta’minlash maqsadida “Eng yaxshi kitobxon” tanlovlarini o‘tkazish va ularga sovg‘alar taqdim etish, mahalladagi ta’lim muassasasi yoki nafaqadagi adabiyot o‘qituvchilari bilan hamkorlik o‘rnatish, mahalla yoshlari bilan “Kitobxonlik davralari”, “Birga kitob o‘qiymiz” mavzusida davra suhbatlarini uyushtirish.

O‘zbek xalqi qadim-qadimdan yuksak ma’naviyatli va madaniyatli xalq hisoblangan. Ushbu madaniyatning shakllanishi ilmsiz, tafakkursiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Tafakkur esa kitob orqali, uning mutolaasi orqali shakllanadi. Bu boradagi intellektual salohiyatimiz va imkoniyatlarimizni tubdan oshirishning asosiy omili ham kitob ekanini ta’kidlash joiz. Binobarin, mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtboshimiz tomonidan belgilangan vazifalar, bir tomondan, azaldan kitob sevar xalqimiz, shu jumladan, yoshlarimizning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan hozirgi zamon talablari darajasida juda keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yaqin vaqt oralig‘ida O‘zbekistonimizning tom ma’noda kitobxonlar yurtiga aylanishiga xizmat qiladi. Yosh avlodning kitob mutolaasiga mehr va ishtiyoqini uyg‘otishda ota-ona o‘rnak, mahalla-ko‘y esa tashabbuskor bo‘lishi juda ham muhim. Chunki kitob ertamiz egalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burchi va mas’uliyatini teran his etishi, oilaparvar, yurtparvar va taraqqiyparvar inson sifatida voyaga yetishlarida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Boshqa hech bir vosita bu borada kitobning o‘rnini bosa olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017.

(2). O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tiziminiri vojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi.
(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 13-sentabrida “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori.

Rustamova Nargiza Ibragimovna (ADU Boshlang‘ich ta’lim 5-kurs talabasi)

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion usullardan foydalanishning ahamiyati, samaradorlikka erishish usullari yoritiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ilmiy tadqiqot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya, boshlang‘ich ta’limda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash.*

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ВО ВНУТРЕННЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье рассматривается важность использования инновационных методов, поиск путей достижения эффективности. В статье анализируется роль современных педагогических технологий, интерактивных методов, исследовательских и информационно-коммуникационных технологий в самостоятельном мышлении и творческом развитии учащихся.*

Ключевые слова: *информация и коммуникация, безопасность жизнедеятельности, современные педагогические технологии, интерактивные методы, самостоятельное мышление.*

THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS IN INTERNAL EDUCATION

Annotation. *The article discusses the importance of using innovative methods, finding ways to achieve efficiency. The article analyzes the role of modern pedagogical technology, interactive methods, research and information and communication technologies in the independent thinking and creative development of students.*

Keywords: *information and communication, safety education, modern pedagogical technology, interactive methods, independent thinking.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarni chuqur va samarali o‘zlashtirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda quyidagi innovatsion usullardan foydalanish tajribasi o‘rganildi:

1. Interfaol darslar va ta’limiy o‘yinlar.
2. Loyihaga asoslangan va muammoli ta’lim.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT).
4. Ilmiy tadqiqot texnologiyalari va STEAM yondashuvi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham ona tili darslarini tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib borish lozim. Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish, ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «Uyin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalansa maqsadga muvofiqdir.

Darslarda o‘quvchilar mustaqil ishlash, guruhlarda hamkorlik qilish, savol-javob, amaliy topshiriqlar bajarish kabi metodlar asosida ishtirok etishdi. Innovatsion usullardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari rivojlandi. Darslarga qiziqish va motivatsiya oshdi. Axborot madaniyati va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari shakllandi. O‘quvchilar-ning intellektual salohiyati va bilim darajasi sezilarli oshdi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish boshlang‘ich ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Interfaol, loyiha va muammoli ta’lim, ilmiy tadqiqot texnologiyalari

o‘quvchi-larning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy boshlang‘ich ta’limda innovatsion usullardan keng foydalanish ta’lim sifatining kafolati sifatida qaraladi. Boshlang‘ich ta’limda eng samarali innovatsion texnologiyalar quyidagilardir: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): kompyuter, multimedia, internet va interaktiv doskalar yordamida darslarni tashkil etish o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar: “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yin”, “Bahs-munozara”, “Zigzag” kabi usullar o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish. O‘quvchilar amaliy topshiriqlar va loyihalar ustida ishlash orqali bilimlarini chuqurlashtiradi va real hayotga tatbiq etishni o‘rganadi. Virtual haqiqat va sun’iy intellekt: zamonaviy texnologiyalar yordamida darslarni vizuallashtirish va individual yondashuvni kuchaytirish mumkin. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos metodlarni tanlash orqali ta’lim samaradorligi ortadi. Bu texnologiyalar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Quyidagi olimlar ta’lim jarayonida yangi pedogogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya etadi. Xususan, Anderson va Krathwohl ta’lim va tarbiyada Bloom taksonomiyasini takomillashtirib, ta’lim jarayonida texnologiyalardan foydalanishni tavsiya etadilar. Ularning tadqiqotlari texnologiyalar orqali o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning muhimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Schmidt va Cohen o‘z tadqiqodlarida zamonaviy pedogogik texnologiyalarning zaruriyatini takidlaydilar. Ular pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning ijobiy ta’sirini o‘rganadilar. Ularning tadqiqotlari ko‘rsatadiki, texnologiyalar yordamida yaratilgan ta’lim muhiti o‘quvchilar uchun individual yondashuvni ta’minlaydi va ularning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu ta’limda o‘quvchilarning o‘zo‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Jonassen muammoli o‘qitish, loyihaviy o‘qitish va boshqa pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishning afzalliklarini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, texnologiyalar nafaqat o‘qituvchilarning, balki o‘quvchilarning faol ishtirokini ham oshiradi va bilim olish jarayonini mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagi natijalarni beradi:

a) o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va interaktiv qiladi, bilimlarni chuqur va amaliy o‘zlashtirish imkonini yaratadi;

b) o‘quvchilarning motivatsiyasi va darslarga qiziqishi oshadi, ular ta’lim jarayonida faol ishtirok etadi;

d) tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi;

e) individual yondashuv ta’minlanadi, har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos ta’lim beriladi;

f) interaktiv vositalar va raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda etadi va jonli muloqotda bo‘ladi.

Shuningdek, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilib, o‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar ta’limda individual yondashuvni quyidagicha ta’minlaydi: adaptiv ta’lim tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojiga mos materiallar va vazifalarni avtomatik tarzda taklif qiladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘zlariga qulay tempda va individual dastur asosida bilim oladilar. Ma’lumotlarga asoslangan individuallashtirish (DBI) orqali o‘qituvchi o‘quvchining rivojlanishini doimiy monitoring qilib, kerakli vaqtda qo‘shimcha yordam yoki moslashtirilgan topshiriqlar beradi. Raqamli platformalar va multimedia vositalari yordamida har bir o‘quvchiga mos o‘quv resurslari, interaktiv mashg‘ulotlar va mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Personalizatsiya – o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va o‘rganish uslubiga mos ta’limni tashkil qilish, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar samarali yordam beradi. Natijada har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos ta’lim beriladi va bilim olish jarayoni samarali, qiziqarli va interaktiv bo‘ladi

Xulosa. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini bir necha yo‘l bilan oshiradi: ular interaktiv va moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi, multimedia materiallari va simulatsiyalar orqali darslarni qiziqarli va faol ishtirok etishga undaydi, individual yondashuvni ta’minlaydi va har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos bilim olish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar darslarga ko‘proq qiziqish bildiradi va bilimlarni samarali o‘zlashtiradi. Chunki o‘quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi, natijada o‘quvchi darsni yaxshi o‘zlashtira olmaydi.

Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda, o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi.

Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o‘tilayotgan darsga o‘quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдураҳмонов Ғ., Рустамов Ҳ. Она тили. 10–11-синфлар учун дарслик, Т., “Ўқитувчи”, 1995, 106-бет.

(2). Қиличев Э.Р. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., “Ўқитувчи”, 1985, 194-бет; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол. фанлари номзоди ... дис., Т., 1996, 132-бет.

(3). Журавлёв А.П., Павлюк Н.А. Язык и компьютер. М., “Просвещение”, 1989, с. 42-45; Журавлёв А.П. Звук и смысл. М., “Просвещение”, 1990.

(4). Радченко О.А. Феномен родного языка в концентуальной системе неогумбольдтианства. Язык как миросозидание. М., “Комкнига”, 2006.

(5). Неъматов Ҳ.Ғ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Т., “Ўқитувчи”, 1995.

(6). Зиндер Л.Р. Общая фонетика. М., “Наука”, 1979.

(7). Иванов Вяч. Вс. Очерки по истории семиотики в СССР. М., “Наука”, 1976.

Karimova Guljahon (Termiz iqtisodiyot va servis universiteti PhD tadqiqotchisi)

VEB MATERIALLARDAN FOYDALANIB, CHET TILLARINI O‘RGANISHNING TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqola veb-materiallardan foydalanib, chet tillarini o‘rganish global miqyosda dolzarb masala bo‘lib, rivojlangan mamlakatlardan tortib, MDH davlatlari va O‘zbekistongacha ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar chet tillarini o‘rganish jarayonini samarali va qulay qilish bilan birga, uni keng ommaga taqdim etish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu sababli, ushbu mavzu yozish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *veb material, chet tillar, kompyuter texnologiyasi, raqam texnologiyalar, algoritmlash konsepsiyasi.*

ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВЕБ-МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается глобальная актуальность изучения иностранных языков с использованием веб-материалов, которая становится неотъемлемой частью образовательного процесса от развитых стран до стран СНГ и Узбекистана. Цифровые технологии делают процесс изучения иностранных языков более эффективным и удобным, а также повышают его доступность для более широкой аудитории. Поэтому написание статей на эту тему имеет большое научное и практическое значение.*

Ключевые слова: *веб-материалы, иностранные языки, компьютерные технологии, цифровые технологии, алгоритмическая концепция.*

LEARNING A FOREIGN LANGUAGE USING WEB MATERIALS

Annotation. *This article discusses the global relevance of learning foreign languages using web materials, which is becoming an integral part of the educational process from developed countries to the CIS countries and Uzbekistan. Digital technologies make the process of learning foreign languages more effective and convenient, as well as increasing its accessibility to a wider audience. Therefore, writing on this topic is of great scientific and practical importance.*

Keywords: *web materials, foreign languages, computer technology, digital technologies, algorithmmic concept.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich, bazaviy va o‘rta maktablardan iborat umumta’lim maktabi muhim o‘rin tutib, umumta’lim maktabida ta’limning umumiy muddati 11 yil (1-sinfdan 11-sinfgacha)ni tashkil etadi. Umumta’lim maktabining tashkiliy tuzilishi chiziqli iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, bu, keyinchalik, avtomatlashtirish uchun maktabdagi jarayonlarni aniq belgilash imkonini beradi. Mamlakatimizda 2018-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[1] PF-5538-farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 8-oktabrdagi “Kundalik avtomatlashtirilgan axborot tizimiga asoslangan raqamli ta’lim platformasini amalga oshirish

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5538-фармони https://lex.uz/docs/ 3893445

to‘g‘risida”gi 251-buyrug‘i bilan avtomatlashtirilgan kundalik axborot tizimini joriy etish boshlandi.[1] Ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari COVID-19 pandemiyasi davrida to‘liq namoyon bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi paytda grammatikaga nutqiy muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida qaralmoqda. Psixolog va psixolingvistlardan B.V.Belyayev, A.A.Artemov, I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev, T.V. Ryabovalar nutqning shakllanishida uning grammatik qurilishini, idrok qilishda esa grammatik hodisa-larni o‘rgatishga e’tiborni tortadilar.[2]

G.Xelbingning fikricha, uch turdagi grammatikani o‘zaro farqlash lozim:

1) muayyan tilga xos bo‘lgan grammatik hodisalar majmuyi;

2) tildagi grammatik qoidalar majmuining ilmiy tahlili, grammatikaning tilshunoslik fanida aks etishi;

3) nutqiy muloqot chog‘ida qo‘llanadigan qoidalar tizimi.

J.J.Jalolov grammatikasiga:

1) nutqning grammatik tomoni – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvda uchraydigan grammatik hodisalar;

2) til hodisalarini ta’riflovchi mavhumotlar deb ta’rif bergan.

Ingliz tilini o‘qitishda grammatik ma’lumotlar tom ma’noda amaliy xarakterga ega bo‘ladi. 10-sinfda grammatikani o‘rgatish, asosan, quyidagilar bilan cheklanadi:

1) grammatik shakl (struktura), ularning ma’nosi (semantika) va qo‘llanishi (funksiyasi)ni o‘zlashtirish;

2) ushbu shakllarga oid qoidalarni bilish, muloqot vaziyati va kontekstda ulardan foydalana olish ko‘nikmalarini egallash;

3) fikrni og‘zaki va yozma bayon etganda, grammatik ko‘nikmalarni qo‘llay bilish.

Tahlil va natijalar. 10–11-sinflar uchun xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv dasturida quyidagi o‘qitish maqsadlari berilgan: amaliy, umumta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Shuningdek, o‘quv dasturida umumta’lim va ixtisoslashtirilgan sinflarga qo‘yiladigan talablar ham mavjud. Umumta’lim maktabining 10-11-sinflari uchun o‘quv yilidagi umumiy soat 102 soatni tashkil etadi. Dasturda xorijiy tilning boshqa o‘quv fanlari bilan fanlararo aloqalari tavsifi keltirilgan. Dasturda har bir sinf uchun faol, passiv va potensial lug‘atlarni o‘z ichiga olgan leksik minimumning miqdoriy tavsifi keltirilgan. O‘quv dasturida xorijiy tilni o‘qitishning mazmuni kommunikativ yondashuv asosida, ya’ni so‘z boyligi va leksik usulini rivojlantirish orqali quriladi. Darslarning mavzulari har bir sinfning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan va kundalik hayot hamda atrof-muhitning tavsifi bilan bog‘liq o‘ziga xos tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda chet tillarni, jumladan, ingliz tilini, o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi, chunki bu til allaqachon ingliz tili chet tili bo‘lgan ko‘plab mamlakatlar uchun lingva franka bo‘lib qolgan. Yoshlarga chet tillarni o‘qitish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish, “bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishi shart”[3] ekanligi haqidagi talab davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Xorijiy tajriba asosida chet til o‘qitishni tashkil qilish, o‘quvchilarda lingvistik, strategik, diskurs, pragmatik va sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning me’yoriy asoslari va moddiy texnik bazasi yaratilgan. Shuning uchun maktab chet tili o‘qituvchilari kompetensiyalarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalaridan biridir.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida chet tillarini o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimiga veb-materiallar (*onlayn kurslar, videodarslar, mobil ilovalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv platformalar*) integratsiya qilinishini tezlashtirdi. Jahon tajribasida quyidagi omillar mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi:

- **MOOC (Massive Open Online Courses) platformalarining kengayishi.** Coursera, Udemy, edX kabi platformalar chet tillarini o‘rganish uchun interaktiv materiallar taqdim etmoqda.

---

[1] Сайт Электронный журнал и дневник kundalik (электронный ресурс).

[2] Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. М., Московский Психолого-социальный институт, Воронеж, МОДЭК, 2001.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 6 май куни чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилиши. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ozbekiston_prezidenti_bundan_buion_maktab_litsey_kollezh_va_oliy_oquv_yurti_bitiruvchilari_kamida_ikkita_chet_tilini_mukammal_bilishlari_shart-L8s Мурожаат санаси: 16.01.2022 й.

• **Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi.** ChatGPT, Duolingo Max kabi ilg‘or tizimlar til o‘rganish jarayonini individuallashtirishga xizmat qilmoqda.

• **Ijtimoiy tarmoqlar va kontentga asoslangan o‘rganish.** YouTube, TikTok, Instagram kabi platformalar til o‘rganishda multimediaviy resurslarni faol qo‘llashga imkon beradi.

• **Gamifikatsiya va interaktiv yondashuvlar.** Ling Q, Memrise va Anki kabi ilovalar o‘quvchilarni motivatsiya qilish uchun gamifikatsiyalangan yondashuvlarni qo‘llaydi.

MDH davlatlari, ayniqsa, Rossiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon kabi mamlakatlarda raqamli ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Quyidagi jihatlar mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi:

• **Onlayn ta’lim platformalarining rivojlanishi.** Rossiya Federatsiyasida “Skeng” va “Puzzle English” kabi platformalar faoliyat yuritmoqda. Qozog‘istonda “Bolashak” dasturi doirasida chet tillarini o‘rganish veb-resurslar orqali rivojlantirilmoqda. MDH davlatlarida chet tillarini onlayn o‘rganishga qaratilgan grantlar va subsidiyalar ajratilmoqda.

O‘zbekistonda ham veb-materiallardan foydalanib, chet tillarini o‘rganish masalasi dolzarb bo‘lib, quyidagi omillar bilan ahamiyatlidir:

• **Davlat dasturlari va qonunchilik asoslari.** 2021-yilda “Chet tillarini o‘rganishni keng targ‘ib qilish” bo‘yicha prezident qarori qabul qilindi.

• **Milliy platformalar.** O‘zbekistonda “Online Maktab”, “Bilimland” va “ZiyoNET” kabi platformalar chet tillarini o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

• **Xalqaro hamkorlik.** Britaniya Kengashi, Goethe-Institut va boshqa tashkilotlar veb-resurslar orqali til o‘rganish loyihalarini qo‘llab-quvvatlamoqda.

• **Onlayn resurslarning ahamiyati.** Ingliz, rus va boshqa chet tillarini o‘rganishda YouTube kanallari, Telegramdagi maxsus guruhlar va mobil ilovalar keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa. Bilamizki, Veb-materiallardan foydalanib, chet tillarini o‘rganish masalasi ta’lim texnologiyalari, psixolingvistika, pedagogika va axborot texnologiyalari sohalari kesishmasida faol o‘rganilmoqda. Jahon, MDH va O‘zbekiston miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish ushbu mavzuning qanchalik chuqur o‘rganilganligini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Иванова А.В. Технологии виртуальной и дополненной реальности. Материалы IV Мкждународной научной конференции (Красноярск, 6–9 октября, 2020). Красноярск, СФУ, 2020.

(2). Wojsieshowski R., Sellary, W.Evaluation of Learners’ Attitude toward Learning in AR-based Edusational Environment. Somputers & Edusation, 68, 2013, p. 570–585.

(3). Азевич А.И. Иммерсивные технологии обучения: пространство возможностей, Горизонты и риски образования в условиях системных изменений и трансформатсии. Сборник научных трудов ХИИ Международной научно-практической конференции. М., Международная академия наук педагогического образования, 2020.

(4). Баженова С.А. Изменение содержание школьного курса информатики под влиянием развития иммерсивных технологий. Информатизация образования и методика электронного обучения: цифровые технологии в образовании: материалы ИВ Международной научной конференции (Красноярск, 6–9 октября 2020). Красноярск, СФУ, 2020.

Bekmanova Jamilya Abdullaevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi mudiri, p.f.d., dotsent v.v.b.),
Tajimuratov Azizbek Jaksimuratovich (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi assistent-o‘qituvchisi)

MAKTABGACHA YOSHDAGI PSIXIK RIVOJLANISHIDA KECHIKISH KUZATILGAN BOLALARDA NUTQ BUZILISHLARINI TUZATISH JARAYONIDA LOGORITMIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqola zamonaviy jamiyatda dolzarb bo‘lgan muammoga – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixik rivojlanishida kechikish kuzatilgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar xususiyatlariga va ularni nutq buzilishlaridan chiqarishga qaratilgan kompleks korreksion-tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimiga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *logoritmika, logopediya, imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalar, psixik rivojlanishida kechikish, nutq, texnologiya.*

ПРИМЕНЕНИЕ ЛОГОРИТМИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ КОРРЕКЦИИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ЗАДЕРЖКОЙ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *Данная статья посвящена актуальной проблеме современного общества — специфике логопедической работы с детьми с задержкой психического развития в дошкольных образовательных в организациях и системе комплексных коррекционно-воспитательных мероприятий, направленных на преодоление речевых нарушений у таких детей.*

Ключевые слова: *логоритмика, логопедия, дети дошкольного возраста с ограниченными возможностями, задержка психического развития, речь, технология.*

APPLICATION OF LOGORHYTHMIC TECHNOLOGIES IN THE CORRECTION OF SPEECH DISORDERS IN PRESCHOOL CHILDREN WITH DELAYED MENTAL DEVELOPMENT

Annotation. *This article addresses a pressing issue in modern society – the specifics of speech therapy work with preschool children with delayed mental development, as well as the system of comprehensive corrective and educational measures aimed at overcoming speech disorders in these children.*

Keywords: *logorhythmics, speech therapy, preschool children with disabilities, delayed mental development, speech, technology.*

Kirish. Hozirgi davrda bolalik muammolariga oid har qanday masalani muhokama qilar ekanmiz, hammamiz farzandlarimizni sog‘lom, baxtli, tengdoshlari va atrofdagilar bilan erkin muloqot qila oladigan insonlar sifatida ko‘rishni istaymiz. Bu, ayniqsa, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun og‘ir kechadi, chunki so‘nggi yillarda bu toifadagi bolalar soni sezilarli darajada ortmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, nutq buzilishlari har xil darajada bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ham taalluqlidir. Nutq maktabgacha yoshdagi bolaning harakat faolligi bilan bevosita bog‘liq. Umumiy va nutqiy motorika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik I.P.Pavlov, A.A.Leontev, A.R.Luriyalar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan va tasdiqlangan.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar orasida nutq buzilishlari keskin oshgan. Ushbu buzilishlarning sabablari orasida: markaziy asab tizimi tug‘ma patologiyasi bilan tug‘ilgan bolalar sonining ko‘pligi, psixik yuklamalar, ekologik muhitning yomonlashuvi hamda ota-onalarning pedagogik jihatdan tayyorgarligining yetarli emasligi alohida o‘rin tutadi.

Shu bois bolalar uchun yanada samarali va ularni qiziqtira oladigan nutq tuzatish shakllarini izlab topish zarur. Shunday vositalardan biri – bu logopedik ritmika, ya’ni logoritmika bo‘lib, u bolalar salomatligini mustahkamlash, saqlab qolish hamda turli nutq buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan korreksion faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Logoritmika – bu musiqiy, harakatli va so‘zli mashqlar, topshiriqlar, o‘yinlar tizimi bo‘lib, ular korreksion, ta’limiy va sog‘lomlashtiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Logoritmikaning asosiy maqsadi:

- bolalarning so‘z boyligini oshirish;
- bog‘liq nutq va faol kognitiv faoliyatni rivojlantirish;
- atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarga nisbatan hissiy sezuvchanlikni tarbiyalash;
- musiqa, adabiyot va tasviriy san’at asarlariga qiziqish uyg‘otish.

Logoritmika, musiqa va ritmika bular bolalar bog‘chasidagi bolaga kompleks ta’sir o‘tkazuvchi faoliyat turlaridir. Ular bolaning “o‘zini ifodalash mexanizmini” ishga tushira oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini ifodalash deganda, ular ijodiy faoliyatda mustaqillik namoyon eta olishlari tushuniladi.

Ushbu uch faoliyat turini nima birlashtiradi va nimasi bilan farqlanadi?

- Logoritmika – bolalarning nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u korreksion pedagogika yo‘nalishida chuqur ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, bolani har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshirish salohiyatiga ega.
- Musiqa – bolalarning musiqiy madaniyatini boyitadi.
- Ritmika – bolalarning harakat faolligini rivojlantiradi.

Uchalasini ham ritm birlashtiradi.

Ko‘plab pedagog, psixolog va tilshunoslar tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy o‘zini ifoda etish muammolarini hal qilishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. L.S.Vigotskiy bolalar-

da tilning belgi tomonini egallash haqida gapirar ekan, avvalo, bola belgi shaklining tashqi tuzilishini, ya'ni, tovushli tomonini egallashini ta'kidlagan [1;30–31-b.]. D.B.Elkonin fikriga ko‘ra, tovushli tomonini egallash ikki bog‘liq jarayonni o‘z ichiga oladi: bu til tovushlarini qabul qilish (fonematik eshituv) va nutq tovushlarini ayta olish [2;21–22-b.].

Logoritmika mashg‘ulotlari ta'lim, tarbiya va korreksiya vazifalarini bolaning ongida noan'anaviy, ixtiyorsiz darajada hal etadi, bu jarayon ijobiy hissiy fon bilan kechadi hamda pedagogga yaxlit tarbiyaviy-korreksion jarayonni tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Logoritmik mashg‘ulotlar quyidagilarga qaratilgan:

- umumiy va mayda motorikani rivojlantirish;
- nafas olish tizimini mustahkamlash;
- mushak ohangini tartibga solish;
- eshitish e'tibori va xotirani, mimika, hissiyotlarni rivojlantirish;
- artikulatsion apparatni shakllantirish.

Mashg‘ulotlar, odatda, leksik mavzular bilan bog‘lanadi. Lug‘at boyligini oshirish va bog‘liq nutqni rivojlantirish ustida tizimli ish olib boriladi.

Bolalar nutqi, kuylash va harakatlari kattalarga taqlid qilish orqali shakllanadi, ya'ni ko‘rish, tinglash va takrorlash orqali. Pedagog mashg‘ulot davomida qiziqarli, yangilikka boy sujetli holatlar o‘ylab topadi, o‘yin shakli rang-barang, ko‘rgazmali materiallar bilan uyg‘unlashadi, bu esa bolalarda muloqotga bo‘lgan ehtiyojni rag‘batlantiradi, nutqiy taqlidni, umumiy va mayda motorikani rivojlantiradi hamda hissiy-estetik ta'sir uyg‘otadi.

Mashg‘ulotlarda turli yo‘nalishdagi o‘yinlar uyg‘unlashadi. Faoliyat turlarini navbatma-navbat almashtirib borish bolalarning qiziqishini saqlab qoladi, ular o‘rtasida voqelikdagi hodisa va predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashlariga yordam beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Logoritmik mashg‘ulotlar va san'atning turli turlarini o‘zida mujassam etgan integratsiyalashgan o‘yin-sujetli darslar nutqiy tizimdagi psixologik mexanizmlarni rivojlantirishning eng samarali shakli hisoblanadi.

Logoritmik mashg‘ulotlarning yana bir katta afzalligi ularning guruhli shaklda olib borilishidir. Bu esa bolaga jamoa ichida ijtimoiylashish, tengdoshlari bilan umumiy til topish, kattalar va bir-biri bilan faol muloqot qilish imkonini beradi. Mashg‘ulotlar bir xil nutqiy buzilishga ega yoki nutq rivojlanish darajasi o‘xshash bo‘lgan bolalar bilan olib boriladi. Ammo inkluziv ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim guruhlarini turli nutqiy buzilishga ega bolalar tashkil etadi. Shu bois nogironligi bo‘lgan bolalar bilan frontal va individual mashg‘ulotlarni tashkil etishda alohida yondashuv zarur. Mashg‘ulot materiallari quyidagilarni qamrab oladi: harakatni nutq bilan muvofiqlashtirish, barmoq gimnastikasi, artikulatsion va mimik motorikani rivojlantirish, nafas gimnastikasi.

Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun bir mashg‘ulot doirasida quyidagilarni uyg‘unlashtirish muhim: nutq – harakat – faoliyat turining tez-tez almashinishi – qulay muhit – ijobiy ruh – ko‘rgazmali materiallar – dam olish – guruhdagi ish (hamkorlik ko‘nikmalari) – diqqatni mashg‘ulot oxirigacha saqlash.

Mutaxassislar va tarbiyachilar birgalikda korreksion vazifalarni hal etishadi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun chuqurlashtirilgan va har tomonlama rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlashadi.

Korreksion guruh tarbiyachilari kun davomida logoritmika elementlarini quyidagicha qo‘llashadi:

- ertalabki gimnastika nutqli elementlar bilan (takrorlovlar, ovozga taqlidlar);
- ertalabki, tushlikka tayyorgarlik, yotish, uyg‘onish va h.k. vaqtlarida she'rlar, toza talaffuz mashqlari;
- mashg‘ulot vaqtida logoritmik tanaffuslar (fizkultminutkalar);
- ovozli jonlantiruvchi mashqlar;
- ko‘chada kuylab ijro etiladigan harakatli o‘yinlar;
- guruh ichidagi kamharakat o‘yinlar.

Yillik kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, logoritmika mashg‘ulotlari imkoniyati cheklangan bolalarda nutq va kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu esa nutqiy nuqsonlarning bartaraf etilishi, lug‘at boyligining ortishi, e'tibor va xotiraning yaxshilanishida o‘z ifodasini topmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, logoritmik mashg‘ulotlar imkoniyati cheklangan bolalarda nutqiy tizimning psixologik mexanizmlarini shakllantirish, ularni sog‘lomlashtirish, tarbiyalash va o‘qitishga xizmat qiladi. Bu esa korreksion ishlardagi natijadorlikni oshirish va ularning davomiyligini qisqartirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Аверина И.Е. Fizkultminutkalar va dinamik tanaffuslar maktabgacha ta’lim muassasalarida. Amaliy qo‘llanma, 3-nashr, M., “Ayrys-press”, 2007.

(2). Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В., Зорина С.В. Psixik rivojlanishida kechikish kuzatilgan bolalarda nutq buzilishlari va ularni tuzatish. Moskva, 2004.

(3). Тржесоглава З. Bolalarda miyadagi engil disfunksiya. M., 1986.

(4). Слепович Е.С. Psixik rivojlanishida kechikish kuzatilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirish. Minsk, 1989.

(5). Шевченко С.Г. Bolalarda psixik rivojlanish kechikishini diagnostika va tuzatish”. M., 2004.

Dauletnazarova Ainura Kayirbayevna (Ajiniyaz nomidagi NDPI 2-kurs tayanch doktoranti)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DISKURSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan diskursiv kompetensiyani rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Muallif diskursiv kompetensiyaning mazmuni, uni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy tajriba asosida shakllantirish usullarini bayon etadi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini interaktiv yondashuvlar orqali kuchaytirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *diskursiv kompetensiya, boshlang‘ich sinf, metodika, kommunikativ yondashuv, o‘qituvchi tayyorlash.*

Даулетназарова Айнура Каирбаевна (докторант 2-го курса НГПИ имени Ажинияза)

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется методика развития дискурсивной компетенции, необходимая учителям начальных классов. Автор описывает содержание дискурсивной компетенции, теоретические основы ее развития, а также методы ее формирования на основе практического опыта. Также в статье рассматриваются способы повышения речевой активности учащихся посредством интерактивных подходов.*

Ключевые слова: *дискурсивная компетенция, начальный класс, методика, коммуникативный подход, подготовка учителя.*

Dauletnazarova Ainura Kayirbayevna (2nd year doctoral student of NSPI named after Ajiniyaz)

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF DISCURSIVE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation*. This article analyzes the methodology for developing discursive competence necessary for primary school teachers. The author describes the content of discursive competence, the theoretical foundations of its development, and methods of its formation based on practical experience. The article also examines ways to enhance students' speech activity through interactive approaches.*

Keywords: *discursive competence, primary school, methodology, communicative approach, teacher training.*

Kirish. Hozirgi zamon ta’limi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ravon bayon qilish va boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida o‘quvchilar bilan samarali diskursga kirishish va ularni nutqiy rivojlantirishda o‘qituvchining diskursiv kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aynan mana shu kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy metodik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, diskursiv kompetensiyaning shakllanishi nafaqat grammatik, balki kommunikativ, sotsiokultural, pragmatik va metakognitiv ko‘nikmalarning uyg‘un rivojlanishini talab qiladi. Shuning uchun ushbu maqolada mavjud nazariy qarashlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning diskursiv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi yoritiladi.

Adabiyotlar Sharhi. Avvalo, D.Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi diskursiv yondashuvlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1;461–464-b.]. Bu nazariyaga ko‘ra, til bu faqat grammatika emas, balki ijtimoiy kontekstda foydali muloqot vositasidir. Shu jihatdan, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan real kontekstdagi muloqotni amalga oshira olishi kerak. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi asosida muloqot orqali o‘rganish tamoyili ko‘plab zamonaviy metodikalarda qo‘llaniladi [3;120–125-b.]. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘rganish sotsial faoliyatlar orqali amalga oshadi va shaxsning nutqiy rivojlanishi jamiyat bilan aloqada shakllanadi. Shuningdek, zamonaviy til o‘rgatish

metodikalari ichida task-based learning (vazifaga asoslangan o‘qitish), CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi yondashuvlar o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirishda qo‘llaniladi. Bu metodlar orqali o‘qituvchilarning muloqotga kirishish, fikr bayon qilish, savol-javob asosida faoliyat yuritish malakalari rivojlanadi.

Metodologiya. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ushbu tadqiqot o‘zining ilmiy asoslangan yondashuvi bilan ajralib turadi. Tadqiqotning metodologik poydevorini aralash yondashuv tashkil etdi. Ya’ni, bunda sifatli (qualitative) hamda miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlari uyg‘unlashtirilib qo‘llanildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu yondashuv muammoni har tomonlama yoritish, empirik holatni chuqur tahlil qilish hamda metodikaning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Birinchidan, tadqiqot doirasida eksperimental loyihalashtirish modeli tanlandi. Ushbu modelda eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirildi va ularda o‘zgarishlar maxsus dastur asosida baholab borildi. Bu esa metodikaning amaliy natijalarini taqqoslab o‘rganishga sharoit yaratdi. Ishtirokchilar sifatida Nukus davlat pedagogika institutining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan 60 nafar talaba tanlab olindi. Ular ikki guruhga eksperimental va nazorat guruhlariga tasodifiy tanlov asosida ajratildi. Har ikkala guruh tarkibi yosh, bilim darajasi va til kompetensiyasi jihatdan tenglashtirildi. Bu esa tajribaning haqqoniy va neytral o‘tishini ta’minladi. Tadqiqot bosqichlari esa uch asosiy yo‘nalishda olib borildi. Avvalo, diagnostika bosqichida, talabalar diskursiv kompetensiyasining boshlang‘ich holati aniqlanib, maxsus testlar orqali quyidagi komponentlar baholandi: nutqni rejalashtirish, matn asosida fikr bildirish, og‘zaki muloqotga kirishish, savol-javob faoliyati va kontekstual tahlil. Ushbu dastlabki baholash natijalari asosida har bir ishtirokchining kompetension tayyorgarlik darajasi belgilandi. Shundan so‘ng asosiy bosqich–eksperimental ta’sir bosqichi amalga oshirildi. Bu bosqichda 8 hafta davomida eksperimental guruhga maxsus ishlab chiqilgan metodik dastur joriy qilindi. Bu dastur doirasida turli didaktik faoliyatlar, ya’ni matn asosidagi munozaralar, rolli o‘yinlar, intervyu mashqlari, scenario asosida dars modellashtirish hamda CLIL yondashuvi asosidagi mashg‘ulotlar tashkil etildi. Ushbu faoliyatlar orqali talabalar real kommunikativ vaziyatlarga mos muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga keng jalb qilindi. Tajriba yakunida – nazorat va baholash bosqichida – dastlabki testlar takroran berildi. Shunday qilib, o‘zgarishlar tahlil qilinar ekan, talabalarning quyidagi mezonlar bo‘yicha yutuqlari aniqlashtirildi: muloqotga tayyorlik, nutqning mantiqiyligi, ijtimoiy va kontekstual moslik, shuningdek, fikrni izchil va dalillarga tayangan holda bayon qilish darajasi. Olingan natijalarni chuqur tahlil qilish uchun bir nechta statistik usullar qo‘llanildi. Jumladan, T-test yordamida eksperimental va nazorat guruhlari orasidagi o‘zgarishlar taqqoslandi. Deskriptiv statistika orqali o‘rtacha ko‘rsatkichlar va foizlar hisoblandi, sifatli tahlil esa talabalar nutqiy faoliyatidagi sifat o‘zgarishlarini aniqlashda muhim rol o‘ynadi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida bir qator metodik vosita va materiallar qo‘llanildi. Bularga maxsus ishlab chiqilgan nutqiy topshiriqlar to‘plami, audio-video darsliklar, pedagogik vaziyatlarni aks ettiruvchi videolar, shuningdek, interaktiv muhit yaratish uchun Padlet, Mentimeter va Wordwall platformalari kiradi. Ushbu vositalar talabalarni motivatsiyalash, darsga jalb qilish va natijalarni baholashda sezilarli samaradorlik ko‘rsatdi. Eng asosiysi, tadqiqot davomida barcha etik me’yorlarga qat’iy amal qilindi. Talabalarning roziligi oldindan olindi, shaxsiy ma’lumotlar sir tutildi va natijalar faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. Xulosa qilib aytganda, mazkur metodologik yondashuv o‘zini to‘laqonli oqladi. U diskursiv kompetensiyani shakllantirishda nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvlar asosida samarali natijalar berishini isbotladi. Ushbu model kelgusida ham boshqa bosqichlardagi pedagog kadrlarni tayyorlashda keng qo‘llanishi mumkin.

Natijalar. Ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan eksperiment natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini rivojlantirishda tanlangan metodik yondashuvlarning samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Ta’kidlash joizki, tadqiqot eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farqlarni ko‘rsatdi, bu esa taklif etilgan metodikaning ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Avvalo, diagnostika bosqichida talabalar diskursiv kompetensiyasining boshlang‘ich darajasi o‘lchab chiqildi. Bu bosqichda eksperimental va nazorat guruhidagi talabalar orasida katta farq ko‘zga tashlanmadi. Ularning aksariyatida og‘zaki nutqda mantiqiylik, ravonlik va kontekstga moslik darajasi o‘rtacha yoki past bo‘ldi. Shuningdek, talabalar o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilishda, muloqotga kirishishda va savol-javob shaklidagi nutqiy faoliyatda qiynalayotgani kuzatildi. Shu bilan birga, eksperimental bosqich yakunida qayta o‘tkazilgan baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda ishtirok etgan talabalar diskursiv kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. Quyidagi aniq o‘zgarishlar e’tiborga loyiq:

Nutqni rejalashtirish ko‘nikmasi 20%ga yaxshilandi. Talabalar dars jarayonini mantiqiy tartibda tashkil etish, kirish, asosiy qism va xulosani nutqiy jihatdan mustahkamlashni o‘rgandilar.

Og‘zaki muloqotga kirishish darajasi 25%ga oshdi. Talabalar erkin savol-javob asosida muloqot qilishga odatlandi, muloqotda tabiiylik va uzviylik shakllandi.

Matn asosida fikr bildirish 30%ga rivojlandi. Talabalar matnlarni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratish va shaxsiy fikrini bayon qilishda ancha faollashdi.

Kontekstual tahlil qobiliyati 18%ga oshdi. Talabalar berilgan vaziyatda kommunikativ moslikni tushunib, mos strategiyalarni qo‘llay olishga erishdilar.

Fikrni asoslab berish va dalillash bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi 27%ga oshgani aniqlandi.

Ta’kidlash joizki, nazorat guruhidagi talabalar an’anaviy metodik yondashuv asosida ta’lim olganliklari sababli ularning natijalari deyarli o‘zgarmadi yoki faqat minimal o‘zgarishlar bilan cheklangan bo‘ldi. Bu esa o‘z-o‘zidan interaktiv, faoliyatga asoslangan metodlarning ustunligini yana bir bor isbotladi.

Natijalarni miqdoriy tahlil qilish uchun T-test statistik usuli qo‘llanildi. Tahlillar eksperimental guruhda $p<0.05$ darajasida ishonchli farq mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa eksperiment natijalarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, deskriptiv statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eksperimental guruhda diskursiv kompetentsiya bo‘yicha o‘rtacha ball 78,4%ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhiga nisbatan deyarli 22% yuqori ko‘rsatkichdir.

1-jadval. Eksperimental va nazorat guruhlari natijalarining taqqoslanishi (foizlarda)

Ko‘nikma turi	Boshlang‘ich baho (eksperimental guruh)	Yakuniy baho (eksperimental guruh)	O‘zgarish (%)	Nazorat guruhi o‘zgarishi (%)
Nutqni rejalashtirish	52%	72%	+20%	+3%
Og‘zaki muloqotga kirishish	48%	73%	+25%	+4%
Matn asosida fikr bildirish	50%	80%	+30%	+5%
Kontekstual tahlil	47%	65%	+18%	+2%
Fikrni asoslab berish va dalillash	49%	76%	+27%	+4%
O‘rtacha ko‘rsatkich	**49.2%**	**73.2%**	**+24%**	**+3.6%**

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eksperimental guruhdagi talabalar barcha ko‘nikmalar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini keskin oshirgan, nazorat guruhida esa faqat minimal ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan.

Sifatli (qualitative) tahlil natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘z nutq faoliyatida ancha faollashgan, o‘z fikrini mantiqiy va erkin ifoda etish, savollarga kontekstual mos javob qaytarish, bahs-munozarada qatnashish kabi diskursiv jihatlar sezilarli darajada rivojlangan. Ayniqsa, rolli o‘yinlar, interaktiv intervyu mashqlari, va matn asosidagi guruhli munozaralar talabalar tomonidan yuqori baholandi va eng samarali uslublar sifatida tilga olindi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, talabalar tomonidan CLIL yondashuviga asoslangan mashg‘ulotlar o‘ziga xos metodik yangilik sifatida ijobiy qabul qilindi. Ular ushbu mashg‘ulotlar orqali nafaqat til o‘rgandilar, balki mazmunli muloqot yuritish tajribasiga ham ega bo‘lishdi. Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, faoliyatga asoslangan, kommunikativ va interaktiv yondashuvlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Olingan ma’lumotlar taklif etilgan metodikaning amaliyotda joriy qilinishini maqsadga muvofiq ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalariga tayanib aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishda interaktiv hamda kommunikativ yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodikalar o‘zini to‘laqonli oqladi. Bu holat, ayniqsa, eksperimental guruh natijalarida yaqqol ko‘zga tashlandi. Talabalar og‘zaki nutqni rejalashtirish, fikr bildirish, bahs-munozaralarda qatnashish va kontekstual moslikni saqlab qolish borasida sezilarli yutuqlarga erishdilar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ilgari mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlar, asosan, grammatik kompetensiyaga e’tibor qaratgan bo‘lsa, hozirgi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bu yetarli emas. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki muloqot tashkilotchisi, fikr almashuvga yo‘naltiruvchi, o‘quvchini faol tinglovchi va savollar asosida o‘ylashga undovchi shaxsga aylanishi kerak. Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, diskursiv kompetensiya o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqotda qo‘llanilgan rolli o‘yinlar, interaktiv savol-javob mashqlari, matn asosidagi muno-

zaralar, hamda CLIL yondashuvi asosidagi darslar o‘zining amaliy ahamiyatini namoyon qildi. Talabalar bu mashg‘ulotlar orqali nafaqat nutqiy ko‘nikmalarini oshirdilar, balki real pedagogik vaziyatlarga tayyor bo‘lishdi. Ular o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslab berish, auditoriya bilan muloqot qilish, tinglovchilarning fikrini tushunish va ularga mos ravishda reaksiya bildirish ko‘nikmalarini egalladilar. Ahamiyatlisi shundaki, bu metodik yondashuvlar faqat til kompetensiyasini emas, balki ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarni ham rivojlantirdi. Ya’ni, o‘qituvchi o‘zining nutqiy faoliyatida muayyan kontekstga mos, madaniy jihatdan sezgir, kommunikatsion vaziyatlarga to‘g‘ri yondashishni o‘rgandi. Bu esa bugungi globallashgan axborot maydonida alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, shuni ham tan olish kerakki, ba’zi talabalar uchun bunday yondashuvlar yangilik bo‘lganligi sababli dastlabki bosqichlarda ularni faol jalb etish biroz vaqt talab qildi. Bunga sabab sifatida ularning an’anaviy, passiv o‘quv modeliga o‘rganib qolganliklari, mustaqil fikr bildirishga doim ham tayyor emasliklari ko‘rsatildi. Ammo vaqt o‘tishi bilan talabalar bu usullarning samaradorligini o‘zlari his etib, faol ishtirokchi sifatida jarayonga qo‘shila boshladilar. Bundan xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy, faoliyatga asoslangan metodlar juda muhim o‘rin tutadi. Ular o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodik yondashuvlar respublikamiz pedagogik oliy o‘quv yurtlarida keng joriy qilinsa, boshlang‘ich ta’lim sifatining oshishiga katta hissa qo‘shadi. Shuningdek, kelgusidagi izlanishlar uchun ushbu metodikaning boshqa bosqichlardagi ta’lim yo‘nalishlariga moslashtirilgan variantlari ishlab chiqili-shi mumkin. Masalan, yuqori sinflar o‘qituvchilarini tayyorlashda, chet tillarini o‘rgatishda, yoki logopedik faoliyatda ham diskursiv kompetensiyani rivojlantirish aktual masala hisoblanadi. Bu esa tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limda alohida o‘rin tutadi va bu boradagi metodik yondashuvlar ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozim. Diskursiv kompetensiya o‘qituvchining nafaqat og‘zaki va yozma muloqotga tayyorligini, balki turli pedagogik vaziyatlarda o‘z fikrini aniq, izchil va kontekstga mos ravishda ifoda etish qobiliyatini ham anglatadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan aralash metodologik yondashuv, ya’ni, sifatli va miqdoriy usullarning uyg‘unligi, metodikaning samaradorligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Eksperimental guruhga 8 hafta davomida joriy etilgan kommunikativ va interaktiv metodik mashg‘ulotlar – rolli o‘yinlar, intervyular, munozaralar, CLIL asosidagi yondashuvlar – talabalar nutqiy faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirdi. Bu esa tajribaning asosiy maqsadi to‘la ro‘yobga chiqqanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, olingan statistik natijalar (eksperimental guruhda diskursiv ko‘nikmalar o‘rtacha 24%ga oshgani) taklif etilgan metodikaning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, sifatli tahlil jarayonida talabalar o‘zlarining pedagogik nutqda ishonchli, aniq va ta’sirchan ifoda uslublarini o‘zlashtirganliklarini qayd etganlar. Ularning fikriga ko‘ra, mazkur yondashuvlar kelajakda real dars jarayonlarida faol qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kuchli tayyorgarlik vositasidir. Xulosa tariqasida aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun diskursiv kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish – ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Ushbu metodika boshqa ta’lim yo‘nalishlarida ham moslashtirilgan shaklda qo‘llanishi, ya’ni maktabgacha ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim yoki oliy pedagogik ta’limda ham ijobiy natijalar berishi mumkin. Kelajakda mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik vositalarni yanada takomillashtirish, ularni raqamli ta’lim platformalari bilan integratsiyalash hamda o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanish kurslariga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, milliy va xalqaro darajadagi pedagogik tajribalarni o‘rganish orqali diskursiv kompetensiya rivoji bo‘yicha chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Baxodirovna, R.N. (2025). Enhancing students'communication and speech abilities through public speaking. Hamkor konferensiyalar, 1(14), p. 461–464.

(2). Urinova, U. (2024). Analysis of the system of activities and tasks aimed at improving public speaking skills. “O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari”, 2024,[1/10] ISSN 2181-7324.

(3). Зокиржанова, Ф., Ахмедова, М.С. (2025). Методы и приёмы работ по развитию речевой компетенции будущего учителя начальных классов. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(3), с. 120–125.

(4). Истомина С.В. (2021). Развитие коммуникативных умений у подростков посредством тренинговой работы. Вестник Шадринского государственного педагогического университета, (2 (50)), с. 230–236.

(5). Кондратьева Н.П., Маркочева Е.В. (2017). Развитие коммуникативной компетентности педагогов общеобразовательной организации. Проблемы современного педагогического образования, (57-6), с. 348–355.

Saminbayev Mashhurbek Ravshanbek o‘g‘li (Urganch davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi; mmott7777@gmail.com)

MULTFILMLARNING BOLALAR TARBIYASIGA IJOBIY VA SALBIY TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar tarbiyasida multfilmlarning ijobiy va salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Multfilmlarning salbiy jihatlari misollar bilan ko‘rsatilib, ota-onalarga farzandlari ularning ta’siriga tushib qolmasligi uchun tavsiyalar berilgan. Bunda tashqari multfilmlardan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkinligi, buning uchun multifilmlarning tanlovi va foydalanish me’yorlariga amal qilish muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: shaxs, jismoniy rivojlanish, ruhiy rivojlanishda, ijtimoiy rivojlanishi, tevarak-atrof, ijtimoiy-tarixiy, qiziqishi, qobiliyati, aql.*

Саминбаев Машхурбек Равшанбек угли (преподаватель кафедры «Национальная идея и философия» Ургенчского государственного педагогического института; mmott7777@gmail.com**)**

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ МУЛЬТФИЛЬМОВ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация*. В этой статье анализируется положительное и отрицательное влияние мультфильмов на воспитание детей. На примерах проиллюстрированы негативные стороны мультфильмов и даны рекомендации родителям, как не допустить попадания детей под их влияние. Кроме того, освещено, что мультфильмы могут быть эффективным инструментом в обучении и воспитании детей младшего возраста для достижения образовательных и воспитательных целей и что для этого важно придерживаться норм отбора и использования мультфильмов.*

Ключевые слова: *личность, физическое развитие, психическое развитие, социальное развитие, окружающая среда, социально-исторический, интерес, способности, интеллект*.

Saminbayev Mashhurbek Ravshanbek o‘g‘li (Teacher of the Department of “National Idea and Philosophy” of the Urgench State Pedagogical Institute; mmott7777@gmail.com**)**

POSITIVE AND NEGATIVE INFLUENCE OF CARTOONS ON CHILDREN’S EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the positive and negative impact of cartoons on children's upbringing. Examples are given to illustrate the negative aspects of cartoons and recommendations are given to parents on how to prevent children from falling under their influence. In addition, it is highlighted that cartoons can be an effective tool in teaching and raising young children to achieve educational and upbringing goals, and that for this it is important to adhere to the standards of selection and use of cartoons.*

Keywords*: personality, Physical development, Mental development, social development, environment, socio-historical, interest, abilities, intelligence.*

Kirish (Introduction). Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti hamda obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi, shu bilan birga, ularni amalga oshiruvchisidir. Shaxs – muayyan jamiyatning a’zosidir. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta’sir kuchi hamisha ham bir xil bolavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta’sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o‘sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi [1].

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta’lim-tarbiya ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o‘zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi [2].

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonida-faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ta’lim-tarbiya orqali amalga

oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Multfilmlarning bolalar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’siri mavzusidagi adabiyotlarni tahlil qilish, bu tushunchalarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday rivojlanganini va hozirgi zamon jamiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishga yordam beradi. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma’lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo‘ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog‘liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo‘ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar.

Mana shu yo‘l bilan bola buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar va ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi [3]. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun tarbiya jarayoni ularga asosiy axloqiy qadriyatlarni singdirish, shaxsiy rivojlanish va dunyoqarashni shakllantirish bilan bog‘liq muhim bosqichdir. Multfilmlar kichik yoshdagi bolalar tarbiyasida va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda multfilmlar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki bolalarning aqliy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Tarbiya usullari orasida bugungi kunda turli ko‘ngilochar vositalar, jumladan, multifilmlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Multifilmlar nafaqat bolalarni zavqlantiradi, balki ularning bilim olish jarayoniga, tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda multifilmlarning o‘rni va ularning ta’sirini tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Multfilmlarning bolalar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’siri mavzusida olib boriladigan tadqiqotning metodologiyasi, asosan, ijtimoiy fanlar doirasida qo‘llaniladigan turli metodlarni o‘z ichiga oladi. Farzandlarining bo‘sh vaqtlari bo‘lmasligi uchun, ba’zan esa ularning harhashalaridan qutulish maqsadida ota-onalar farzandlariga televizor yoki internetda multfilm qo‘yib berishadi. Ayniqsa, internet plotfarmasidagi multfilmlar turli xil bo‘lib, bolalarni o‘ziga ipsiz bog‘lab oladi. Bu multfilmlar bolani shu darajada o‘ziga maftun qiladiki, soatlab, kunlab hech qayerga qo‘zg‘almasdan ekranni tomosha qilishi mumkin. Bu hayratning ortida nima bor? Tomosha qilish, haqiqatan ham, chaqaloq uchun foydalimi? Umuman, zamonaviy animatsiyalar qanchalik xavfsiz. Bugungi kunda ani-matsiya yuqori daromadli biznes bo‘lib, birinchi navbatda, foyda olishga qaratilgan, ko‘pincha, masalaning axloqiy tomoni faqat ushbu biznes bilan shug‘ullanadigan odamlarning vijdoniga bog‘liq. Farzandlarimiz ekranga qaraganlarida aynan nimani o‘zlashtirayotganini tushunish uchun biz, kattalar, bu san’atni tushuni-shimiz kerak. Shifokorlar quyidagilarga ishonishadi: 2–3 yoshgacha, multfilmning mazmuni bola tomo-nidan idrok etilmaydi; 3 yilgacha vizual tizim hali ham shakllanmoqda va animatsiyalarni tomosha qilish bolaning viziual funksiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini buzadi; 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar multfilmlarni tomosha qilish markaziy asab tizimining ortiqcha yuklanishiga olib keladi, bu esa giperaktivlik yoki letargiyaga olib keladi; animatsion filmlarni erta ko‘rish nutq rivojlanishining kechikishiga olib keladi; bola ota-onalar bilan jonli muloqot qilish o‘rniga televizor ekranidan yetishmayotgan histuyg‘ularni qabul qilganda, diqqat yetishmasligi buzilishining rivojlanish xavfi ortadi. Bolalar multfilmlarni qancha vaqt tomosha qilishlari mumkin? Ajablanarlisi shundaki, bugungi kunda barcha onalar va otalar Jahon Sog‘liqni aqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan me’yorlardan xabardor emaslar. Misol uchun, 0 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga teledasturlarni, umuman, ko‘rish taqiqlanadi; 3 yoshdan 7 yoshgacha – kuniga 30 daqiqagacha; 7 yoshdan 10 yoshgacha – kuniga 30–50 daqiqa; 11 yoshdan 18 yoshgacha – kuniga 1–3 soat [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning birinchi bosqichi multfilmlarning bolalar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’sirini tahlil qilishdir. Yaxshi, chiroyli xulqni targ‘ib qiluvchi multfilmlarning maqsadi bolaalrni go‘zal odobga o‘rgatadi. Undagi go‘yalar jamiyatni to‘g‘ri yashash, uning qoidalarini buzish, albatta, jazoga tortilishini ko‘rsatib beradi. Bolani salbiy xarakterdan yiroq bo‘lishga undaydi. Yaxshi multfilmda har doim ikkita qarama-qarshilik mavjud: yaxshilik va yomonlik. Bu ikki tushuncha aniq ajratilgan va bola tomonidan osongina tanib olinadi. Ular bosh qahramonga ma’lum ta’sir ko‘rsatadi. Bu

qarama-qarshi tushunchalar misollar bilan ko‘rsatilgan: do‘stlik, o‘zaro yordam, sevgi yordami (“Eng katta do‘st”, “Leopold mushuk” multfilmlarida) va g‘azab, ochko‘zlik, hasad qanday zarar yetkazishi (“Treasure Island”, “Ochko‘zlik haqidagi ertak” va boshqalar) [5].

Muayyan yoshga to‘lmagan bolalar yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tahlil qila olmaydi va falsafiy yondashadi. Shuning uchun yaxshi va yomonni tasvirlashda aniqlik va ravshanlik zarur. Ularning aniq ajratilgan multfilmidan bola jamiyatda qabul qilingan asosiy qadriyatlar haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Yaxshilikning yovuzlik ustidan g‘alabasi yosh tomoshabinlar uchun juda muhim, chunki ular misollar orqali yaxshilik, adolatli tamoyillarga amal qilish ular xohlagan narsaga erishishga yordam berishiga va agar siz yovuz, yomon bo‘lsangiz, sizni qoralaydi va jamiyatda qabul qilinmaydi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan barcha zamonaviy animatsion filmlar bolada ijobiy xarakter xususiyatlarini tarbiyalashga qaratilgan emas. Ulardan ba’zilari salbiy ta’sir ko‘rsatadi: tajovuzkorlik, shafqatsizlik, zaiflarga salbiy munosabat, oqsoqollarga hurmatsizlik va boshqalar. Bunday “asarlar”ni ko‘rgandan so‘ng, bolada tajovuzkorlik, shafqatsizlik namoyon bo‘ladi. Bunday multfilmlarning murakkab bo‘lmagan sujetlari tasavvurning rivojlanishiga, mantiqiy xotiraga, tasavvurni jamlash qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi. Barkamol nutqning yetishmasligi chaqaloqning nutq qobiliyatini rivojlantirishga zarar etkazadi. Bu multfilmlarda mantiqiy hikoya yo‘q. Sizning o‘g‘lingiz yoki qizingiz multfilm nima haqida ekanligini ayta olmaydi (masalan, “Winx”), qahramonlar haqiqiydan yiroq ko‘rinishga ega, ular xunuk, nomutanosib ravishda tasvirlangan (masalan, “Futurama”). Bunday multfilmlarda salbiy va ijobiy qahramonlar aniq belgilanmagan. Ko‘rish davomida bola qahramonlarning qaysi biri ijobiy, qaysi biri salbiy ekanligini aniqlash qiyin. Buni tushunmasdan, bola qahramonni baholashi va unga ergashish uchun obyektni tanlashi qiyin. Salbiy qahramonlarning xatti-harakatlari jazolanmaydi va ularning yomon xulq-atvori maqsadlarga erishishga olib keladi (masalan, “Masha va ayiq” multfilmida qahramon Mashaning injiqliklari maqsadlarga erishadi – u xohlagan narsasini oladi) [6].

Multfilmlarning ijobiy ahamiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, multfilmlar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarga yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va hamkorlik kabi tushunchalarni tushuntirishda yordam beradi. Masalan, ijobiy qahramonlarning yaxshi xatti-harakatlari bolalarga hayotiy namunalar beradi. Bolalar bu orqali odob-axloq qoidalarini o‘zlashtiradi. Yaxshi tarbiyaviy multfilm qiziqarli ham bo‘lishi kerak, shunda bolalar birinchi soniyalardan boshlab tasvirlarga mahliyo bo‘lib, qahramonga ishonadi. U bilan birga foydali ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni va yangi narsalarni o‘rganishni boshlaydilar. Dunyodagi eng noodatiy o‘qituvchi bilan eng quvnoq ta’limiy multserial, kulgili soqolli “Bodo Borodo” hech narsani bilmaydi, lekin u bilan hamma narsani o‘rganishingiz mumkin. Sayohat o‘z ichiga xalqlar geografiyasi va madaniyati asoslarini, mustaqil sayohatlarni oladi [7]. To‘g‘ri, uning o‘zi ham har qadamda sarosimaga tushib qoladi va faqat sabr-toqatli shogirdlari yordamida kutilmagan hodisalarga to‘la bilim olamiga yo‘l ochadi.

Yosh bolalarga ilm-fan va barcha turdagi texnika, qurilma va asboblarning tuzilishi haqida oson va tushunarli tarzda ma’lumot beradigan multserial. Obyektiv dunyoni bilishda haqiqiy yordamchi. “Murvatchalar” bilan birgalikda farzandingiz lampochkalarni almashtirish, kir yuvish mashinasini yoqish, kompyuterni tuzatish va hokazolarni o‘rganadi [8].

Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning ijodiy va aqliy rivojlanishga ta’siri ham muhim. Multfilmlar bolalarning tasavvurlarini boyitib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rang-barang sahnalar, qiziqarli voqealar va musiqiy yo‘nalishlar bolalarning e’tiborini jalb qilib, ularning analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, ma’lumotga boy multfilmlar (masalan, tabiat yoki fan haqidagi) bilim olishga qiziqish uyg‘otadi.

Til va nutq rivojlanishida ham, ayniqsa, multifilmlarning ahamiyati katta. Multfilmlar kichik yoshdagi bolalar uchun til o‘rganish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yangi so‘zlarni o‘rganadi, gapirish madaniyatini tushunadi va intonatsiyani o‘zlashtiradi. Ayniqsa, bolalar ona tilida yaratilgan sifatli multfilmlardan foydalanib, o‘z nutqini boyitishi mumkin. Multfilmlar bolalarga:

– do‘stlik va hamkorlik haqida saboqlar beradi;

– yangi madaniyatlar va til imkoniyatlarini tanishtiradi;

– emotsional intellektni oshiradi, ya’ni boshqalar tuyg‘ularini tushunishni shakllantiradi. Shunday qilib, multfilmlar bolalarining dunyoqarashini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu nafaqat yoshlarni, balki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ham chetda qoldirgani yo‘q. Chunki bugungi bog‘cha yoshdagi bolalar ham ingliz tilini o‘rganishga, ayniqsa, chet tillarni turli xil o‘yinlar orqali o‘rganishga qizishmoqda. Chet tillarni o‘yinlar orqali o‘rgatish bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri

hisoblanadi, sababi bola olamni o‘yin orqali kashf etadi. Agar tillar o‘yin orqali o‘rgatilsa, bu bolalarning til ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish samardorligini yanada oshiradi. Chunki o‘yin yordamida organish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta yordam beradi. Shu sababli tarbiyachi murabbiylar chet tillarini bolalarga turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishni yo‘lga qo‘yishlari kerak. Bolalar aynan o‘yin orqali bilim olib, shu bilan birgalikda, o‘z iqtidorlarini ham xuddi shu o‘yinlar orqalikashf etadilar. Bunga erishish uchun esa ularning sezgi organlarini faollashtiruvchi muhit, vizual eshitish kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’limiy o‘yinlarga: chet tilida turli xil qo‘shiqlar kuylash, she’rlar aytish, raqsga tushish, qiziqarli o‘yinlar o‘ynash, videolar ko‘rish va qo‘l mehnati orqali turli xil narsalarni yasashni o‘z ichiga oladi. Salbiy ta’sirlarni kamaytirish yo‘llari. Garchi multfilmlar ko‘plab ijobiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, noto‘g‘ri tanlangan yoki tomosha qilingan multfilmlar bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zo‘ravonlik yoki nojo‘ya mazmunli sahnalar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi ehtimoli bor. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar bolalar tomosha qiladigan multfilmlarni diqqat bilan tanlashlari lozim. Quyidagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi: Yoshga mos multfilmlarni tanlash. Multfilm mazmunini oldindan tekshirish.Tomosha qilish vaqtini cheklash (masalan, kuniga 1–2 soat). Multfilmlar haqidagi fikrlarni bolalar bilan muhokama qilish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Zamonaviy dunyoda oila institutining o‘rni juda muhim. Uning o‘rni yo‘qolmasligi uchun ota-onalar farzandlarini ijtimoiy tarmoqlardan himoya qilishi zarur. Multfilmlar bolalarning hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularning ta’lim olish jarayonida ham yordam beradi. Ammo bu jarayonni nazorat qilish va bolalarga sifatli, tarbiyaviy ahamiyatga ega mahsulotlarni taqdim etish muhimdir. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning multfilm tanloviga jiddiy e’tibor qaratishlari, ularga o‘z qiziqishlariga mos va foydali bo‘lgan multfilmlarni taqdim etishlari lozim. Shu yo‘l bilan biz bolalar tarbiyasida multfilmlardan samarali foydalanishimiz mumkin. Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib, ular orqali ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin. Biroq multifilmlarning tanlovi va foydalanish me’yorlariga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tahlillarimiz orqali quyidagi xulosa kelindi:

– multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning qiziqishlarini uyg‘otuvchi qudratli vosita bo‘lib, ular orqali oson va samarali tarzda axloqiy tushunchalarni singdirish mumkin. Bolalar, odatda, o‘zlariga yoqqan qahramonlar bilan o‘zlarini tenglashtirib, ularning harakatlarini takrorlashga intiladi. Masalan, odob-axloqni shakllantirish. Bolalar “Dora the Explorer” kabi ta’limiy multifilmlar orqali do‘stlik, yordamsevarlik va halollik kabi qadriyatlarni o‘rganishadi;

– rang-barang tasvirlar va qiziqarli sujetlar bolaning tasavvur dunyosini kengaytiradi;

– tilni o‘rganishda ko‘p tilli multifilmlar, masalan, ingliz yoki rus tillaridagi seriallar foydali hisoblanad;

– ta’limiy mazmun. Zamonaviy multifilmlar o‘quv dasturlari bilan mos keluvchi ma’lumotlarni yetkazishda yordam beradi. Masalan, “Sesame Street” orqali bolalar matematikani, harflarni va boshqa mavzularni qulay tarzda o‘rganishadi.

– multifilmlarda xarakterlarning his-tuyg‘ulari ko‘rsatilishi orqali bolalar hissiyotsiz qolmasdan, empatiya va rahm-shafqatni shakllantiradi.

Biroq noto‘g‘ri tanlangan yoki haddan tashqari ko‘p ko‘rilgan multifilmlar salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

– haddan ziyod televizor tomosha qilish bolalarda harakatsizlik, ko‘z va ruhiy charchoqni keltirib chiqaradi;

– zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi yoki bolalar uchun nojo‘ya mazmunni o‘z ichiga olgan multifilmlar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarga multifilm tanlashda ota-onalar va tarbiyachilar muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagi qoidalarga rioya qilishlari zarur:

Yoshga mos multifilm tanlash. Har bir yosh guruhiga mos keluvchi kontent mavjud bo‘lib, uni tanlashda bolaning rivojlanish bosqichini hisobga olish lozim.

Tomosha qilish vaqtini cheklash. Kichik yoshdagi bolalar uchun bir kunda 30–60 daqiqadan ortiq televizor tomosha qilish tavsiya etilmaydi.

Mazmunni birgalikda tahlil qilish. Ota-onalar bolalar bilan birga multifilm tomosha qilib, unda aks etgan voqealar haqida muhokama qilishlari bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Toshova Shaxnoza T., “Oilaning maktabgacha ta’lim muasasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”. “Golden Brain”, 2023.

(2). Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010.

(3). Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?” Samarqand, 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346

(4). Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?” Samarqand, 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346

(5). https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar

(6). https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar

Shakirova Salima Yusipbay qizi (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi assistant o‘qituvchisi; salimashakirova1595@gmail.com)

NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR BOG‘LANGAN NUTQINI ERTAKTERAPIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutqi rivojlanmagan bolalarda (NTR) izchil nutqni rivojlantirishda ertak terapiyasi texnologiyalarining roli va samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqot bolalar-ning mantiqiy va izchil rivoyatlarni qurish, so‘z boyligini oshirish va ifodali tilni rivojlantirish qobiliyatini yaxshilash uchun turli xil ertaklardan, shu jumladan, xalq, mualliflik va terapevtik ertaklardan foydalanishga qaratilgan. 10 haftalik aralashuv 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkazildi, unda ikki haftalik mashg‘ulotlar hikoya qilish va tegishli nutq mashqlariga qaratilgan. Topilmalar maqsadli guruhda izchil bayonotlar, rivoyat tuzilishi va hissiy aloqalarni shakl-lantirishda sezilarli yaxshilanishni namoyish etadi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ertak terapiyasi nutqni rivojlantirish kechikishi bo‘lgan bolalarda nutq tiliga aralashish uchun juda samarali va qiziqarli yondashuvdir.*

Kalit so‘zlar: *bog‘langan nutq, nutqiy rivojlanish, ertakterapiya, logopediya, nutq buzilishi.*

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НЕДОРАЗВИТИЕМ РЕЧИ НА ОСНОВЕ СКАЗКОТЕРАПИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль и эффективность технологий сказочной терапии в развитии связной речи у детей с задержкой речевого развития. Исследование сосредоточено на использовании различных типов сказок- народных, авторских и терапевтических – для улучшения способности детей строить логичные и последовательные рассказы, повышения словарного запаса и развития выразительной речи. С детьми в возрасте от 5 до 7 лет было проведено 10-недельное вмешательство, включающее двухнедельные сессии, посвященные рассказыванию историй и связанным с ними речевым упражнениям. Результаты показывают значительное улучшение в формировании связных утверждений, повествовательной структуры и эмоциональной вовлеченности в целевой группе. Исследование подтверждает, что сказочная терапия является высокоэффективным и увлекательным подходом к рече-языковому вмешательству у детей с задержкой речевого развития.*

Ключевые слова: *связная речь, речевое развитие, сказкотерапия, логопедия, нарушение речи.*

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING COHERENT SPEECH IN CHILDREN WITH UNDERDEVELOPED SPEECH BASED ON FAIRY TALE THERAPY

Annotation. *This article explores the role and effectiveness of fairy tale therapy technologies in the development of coherent speech in children with underdeveloped speech (UDS). The research focuses on the use of various types of fairy tales—including folk, authorial, and therapeutic tales—to improve children's ability to construct logical and consistent narratives, enhance vocabulary, and foster expressive language. A 10-week intervention was conducted with children aged 5 to 7, involving bi-weekly sessions centered on storytelling and related speech exercises. The findings demonstrate a significant improvement in the formation of coherent statements, narrative structure, and emotional engagement in the target group. The study confirms that fairy tale therapy is a highly effective and engaging approach for speech-language intervention in children with speech development delays.*

Keywords*: coherent speech, speech development, fairy tale therapy, speech therapy, speech disorder.*

Kirish. So‘nggi yillarda bolalar nutqini rivojlantirishda noan’anaviy yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, ertakterapiya, ya’ni ertaklar orqali ta’sir etish metodi, bog‘langan nutqni rivojlantirishda yuqori samara bermoqda. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar (NTR) o‘z fikrini izchil bayon qilish, voqealarni ketma-ket ifodalashda qiynaladilar. Bu esa ularning ijtimoiylashuviga, maktabga tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada aynan ertakterapiya orqali bog‘langan nutqni rivojlantirish texnologiyalari yoritiladi. Shuni aytib o‘tish lozim, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni ularning darajalarini, o‘ziga xos xususiyatlarini R.E.Levina, T.B.Filicheva, G.B.Chirkina kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar ishlarida tahlil qilingan.

Hozirgi davrda bolalarda nutq nuqsonlari ko‘p uchramoqda, shu sababli nutq nuqsonlarini tuzatishda ertakterapiyaning ahamiyati juda dolzarb hisoblanadi. Sababi ertakterapiya bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda ahamiyatli, ertakterapiya bolalarning ruhiy holatini ham rivojlantiradi [1;494-b.].

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda NTR bolalarda nutqini tekshirish va rivojlantirish bo‘yicha L.Mo‘minova, Y.Babayeva, X.M.Po‘latova, M.Ayupova, Z.Ahmedova, N.Rahmonqulova, N.Abidova, Sh. Aripova, Sh.Toxtiyarovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDH davlatlarida esa R.E.Levina, V.K.Orfinskaya, N.N.Traugoott, S.N.Shaxovskaya, V.K.Borobeva, B.M.Grinushpin, L.F.Spirova, N.A.Nikashina, G.I.Gorenkova, T.B.Filicheva, G.B.Chirkina, A.V. Yastrebova, E.F.Sobotovich, V.A.Kavshikova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligini R.E.Levina (1961) uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo‘q bo‘lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo‘lgan mukammal nutq buzilishigacha. T.B.Filicheva esa nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar darajalarini klinik jihatdan to‘rt darajaga ajratadi. L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, F.A.Soxin bog‘langan nutqni psixologik-pedagogik jihatdan o‘rganadi [7;333–340-b.].

O.S.Ushakova va E.M.Strunina nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmasligi sababli ularning bog‘langan nutqi rivojlanmaganligini, ularga berilgan matn, ertakni bir marta eshitganda aytib bera olmasligini, ular fe’l, sifat belgilarini bir-biridan ajirata olmaganligini o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib bergan [7;333–340-b.]. R.E.Levina maktabgacha yoshdai nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar III darajasida nutqining aniq bo‘lmasligini so‘zlarni, tovushlarni bir-biridan farqlay olmasligini aytib o‘tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Nukus shahridagi maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borildi. 5–7 yoshdagi 20 nafar nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar eksperiment guruhiga jalb etildi.

Tadqiqot usullari: kuzatuv va diagnostika, amaliy logopedik mashg‘ulotlar (ertakterapiya asosida), matn yaratish va qayta hikoya qilish topshiriqlari, ota-onalar va pedagoglar bilan suhbat.

Terapiya dasturi 10 haftalik bo‘lib, har bir haftada 2 marta ertak asosida mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarda xalq ertaklari (Sholg‘om, Bo‘g‘irsoq, Zumrad va Qimmat) mualliflik ertaklari va terapevtik ertaklar tanlandi.

Tahlil va natijalar.

1. Nutqiy izchillik va bog‘liqlikning yaxshilanishi. Dastlabki bosqichda bolalarning 70% dan ortig‘i matn tuza olmasdi, faqat alohida so‘zlar va bo‘shliqli iboralar bilan javob berardi. Terapiya yakunida esa ularning 85% qismi oddiy voqeani 3–5 gapli matn holida izchil bayon eta oldi.

2. Matn tuzish ko‘nikmasi shakllandi. Mashg‘ulotlarda voqea rivojini aniqlash, asosiy qahramonni tasvirlash, muammo va yechimni topish vazifalari bajarilgach, bolalar voqeani boshi–o‘rta–oxirga ajratishni o‘rgandilar. Bu ularda mantiqiy ketma-ketlikda nutq tuzish ko‘nikmasini shakllantirdi.

3. So‘z boyligini ortishi. Ertakterapiya davomida faol ravishda ertak lug‘atidan foydalanish orqali yangi so‘zlar o‘zlashtirildi. Tajriba avvalida bolalarning o‘rtacha faol so‘z boyligi 40–50 ta atrofida bo‘lgan bo‘lsa, mashg‘ulotlar so‘ngida bu ko‘rsatkich 70–90 taga yetdi. Ayniqsa, sifat, fe’l va birikmalar soni keskin oshdi.

4. Ijtimoiy-emotsional faollik. Terapiya oldidan ayrim bolalar muloqotdan qochgan, o‘z fikrini ifodalashdan tortingan bo‘lsa, keyingi bosqichda ular nutqiy faol bo‘lib, rolli o‘yinlarda qatnashish, obrazli taqlid qilishga intilishni namoyon etdilar.

5. Nutqiy xatolarning kamayishi. Tajriba oldi baholashda bolalar nutqida grammatik moslashuv (so‘z shakllarining noto‘g‘ri qo‘llanishi, gapda aniqlik yo‘qligi) mavjud edi. Terapiya so‘ngida bu holatlar sezilarli darajada kamaydi:

- ot-fe’l moslashuvi yaxshilandi;
- birlik–ko‘plik, egalik affikslari to‘g‘ri ishlatila boshlandi;
- bog‘lovchilardan foydalanish soni ortdi.

Ko‘rsatkichlar	Eksperiment oldi	Eksperimentdan so‘ng
So‘z boyligi	Past	O‘rtacha – yuqori
Gap tuzish	Fragmentar	To‘liq, bog‘langan
Mantiqiy izchillik	Kam	Yaxshilangan
Erkin ifoda	Deyarli yo‘q	Yetarli
Leksik minimum	Cheklangan	Faol va xilma-xil

Bundan tashqari, bolalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi, emotsional faolligi ham ortgani kuzatildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ertakterapiya bu nafaqat didaktik, balki emotsional-psixologik ta’sirga ega bo‘lgan samarali logopedik texnologiya hisoblanadi. U NTR bolalarda bog‘langan nutqning asosiy komponentlarini rivojlantirish imkonini beradi: tushunshaviy fikrlash, voqeani tuzish, gaplar orasida mantiqiy bog‘lanish o‘rnatish, izchil bayon qilish.

Ertakterapiyaning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv. Ertak har bir bola uchun yaqin, tanish, qiziqarli voqelikni aks ettiradi. Bolalar o‘zlarini ertakdagi qahramon bilan tenglashtiradi, ularning hissiy olamiga kiradi. Bu holat bolaning nutqiy faolligini kuchaytiradi

2. Obrzali ifoda va kontekstda nutq rivoji. Ertak matnlarida betakror obrazlar mavjudligi, ularni ifodalashga intilish orqali bola yangi so‘z va iboralarni kontekstda o‘zlashtiradi. Ayniqsa, og‘zaki hikoyalash orqali tafakkur va eslab qolish jarayonlari jadallashadi.

3. Nutq va tafakkur uyg‘unligi. Bolalar ertak asosida matn tuzish jarayonida voqealarni tartibga solish, sabab–natija munosabatini tushunish, xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlarni ham mashq qilishadi. Bu esa nutq va fikrlash integratsiyasini ta’minlaydi

4. Emotsional-axloqiy tarbiya vositasi. Ertak orqali ijtimoiy me’yorlar, yaxshilik va yomonlik, yordam, halollik kabi tushunchalar shakllanadi. Bu esa bolani jamiyatga moslashtirishda muhim vositadir.

5. Logopedik moslashuv imkoniyatlari. Ertakterapiya logoped tomonidan maqsadli rejalashtirilganda, har bir mashg‘ulotda grammatik strukturalar, gap qurilishi, bog‘lovchilarni o‘rgatish mumkin. Shunday qilib, u nafaqat umumiy nutqiy rivojlanish, balki tuzilmaviy jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, ertakterapiya bog‘langan nutqni rivojlantirishda samarali texnologiya ekanligi isbotlandi. U bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ijodiy fikrlash, nutqni erkin ifodalashga xizmat qiladi. Ertakterapiya texnologiyalarini logopedik amaliyotga muntazam joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). M.Y.Ayupova (2019). Logopediya. Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 564-bet.

(2). Искакова, З. (2020). Логопедическая терапия в детском возрасте. Ташкент, “Илм-Зиё”.

(3). Қодирова, С. (2019). Эртактерепиянинг психотерапевтик имкониятлари. Психология журнали, № 3, 12–16.

(4). Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

(5). Bettelheim, B. (1976). The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. New York: Knopf.

(6). Gering, T. (2017). Family assessment and story-based therapy. Journal of Speech Development, 45(2), p. 110–124.

(7). Л.Михаил, Симкин, Кристина, О.Гелихова (2019). Формирование связной речи детей старшего дошкольного возраста с общим недоразвитием речи III уровня. Вестник КемГУ, Гуманитарные и общественные науки, с. 333–340.

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich (Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori; E-mail: shomirzaevm@tersu.uz)

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda fanlar aloqadorligining ahamiyati va ularni amalga oshirish zamonaviy pedagogik usullari, fanlarni o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganishni rejalashtirish muammolari atroflicha uzviy ketma-ketlik pirinsipi asosida yoritib berilgan .*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak, muhandis, ksbiy, ijodkorlik, kompyuter grafikasi, fanlararo aloqa, fikrlash, raqobatbardosh, intellektual, aloqalar, shakllantirish, metodika, dastur.*

Шомирзаев Махмудмурод Хурамович (профессор Термезского государственного университета; доктор педагогических наук; E-mail: shomirzaevm@tersu.uz)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация. *В статье всесторонне рассматриваются значение междисциплинарной связи в развитии профессиональной креативности будущих инженеров и современные педагогические методы ее реализации, проблемы планирования обучения путем междисциплинарной связи на основе принципа связной последовательности.*

Ключевые слова: *будущее, инженер, профессия, креативность, компьютерная графика, междисциплинарные связи, мышление, конкурентный, интеллектуальный, связи, формирование, методика, программа.*

Shomirzayev Makhmudmurod Khuramovich (professor of Termez State University, doctor of Pedagogical Sciences; E-mail: shomirzaevm@tersu.uz)

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CREATIVITY OF FUTURE ENGINEERS

Annotation. *The article comprehensively discusses the importance of the connection of disciplines in the development of professional creativity of future engineers and modern pedagogical methods of their implementation, the problems of planning learning by connecting disciplines based on the principle of coherent sequence.*

Keywords: *Future, engineer, profession, creativity, computer graphics, interdisciplinary communication, thinking, competitive, intellectual, connections, formation, methodology, program.*

Kirish. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ishlab chiqilayotgan qarorlar va qonunlar ijrosini ta’minlash yo‘lida zamon bilan hamnafas holda ta’lim sifatini oshirish, samaradorligining rivojlanish hamda yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlardan unumli foydalanish, xalq xo‘jaligining turli sohalarida raqobatbardosh, intellektual va texnologik salohiyatlari shakllangan muhandislarni tayyorlash bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi [3].

Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasini tahlil qilayotganda, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘rganishda muhandislik va kompyuter grafikasi fani fundamental fan hisoblanadi. Mutaxassislik fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish sharoitida muhandislik va kompyuter grafikasida o‘rganilgan o‘quv materiallarini idrok etish, olgan bilimlar asosida yangi vazifalarni tahlil qilish va umumlashtirish kabi amallarni bajarish zarur bo‘ladi [6].

Fanlararo aloqani amalga oshirish bitta fan tushunchasini boshqa fanning isbot-dalillari va nazariy ma’lumotlari bilan tasdiqlaydigan qonuniyatlariga bog‘liq. Talabalar ilgari olingan bilimlarga asoslangan yangi tushunchalar bilan ishlashadi, o‘rganishlari kerak bo‘lgan bilimlarga e’tiborini qaratadilar. Boshqa fanlardan olingan bilimlar asosida yangi bilimlarni o‘rganish zaruriyati tug‘iladi. Bu talabalarning o‘rganilayotgan fanga rasmiy munosabati, berilgan topshiriqlarga yechim izlashga qiziqishning yo‘qolishiga, umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Bunday ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashlarini cheklaydi, yuqori kurslarda kasbiy qiziqishlari shakllanmaydi, talabalar kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishlardagi chizmalarni bajarishdagi qiyinchiliklarga duch keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bevosita va teskari aloqalar “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fanini o‘rnini aniqlashda asosiy hisoblanadi. Ular “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fani dasturining maxsus texnik, umumtexnik va tabiiy fanlar bloklarining o‘quv materiali bilan bog‘liqligini aks ettiradi.

Birinchidan, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fani bo‘limlarining maxsus texnik fanlarini o‘rganishga ta’sirini aniqlaydigan bevosita aloqalar deb qarasak; ikkinchidan, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” o‘quv fanini o‘rganish jarayonini tuzishda barcha fanlarining ta’sirini aks ettiruvchini esa teskari aloqalar, deb ataymiz. Bizning fikrimizcha, fanlararo aloqalarning ko‘rinadigan va yashirin aloqalar tushunchasini batafsilroq tushuntirilishi kerak. O‘quv jarayonidagi asosiy qarama-qarshiliklar muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasi dasturning boshqa fanlar bilan birgalikda rivojlanmaganligidan kelib chiqadi. Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘rganishda kasbning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan turli sohalardagi bilimlardan qanchalik faol foydalanilsa, talabalarning tayyorgarligi shunchalik yaxshilanadi.

Ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘quvchilarning maxsus aqliy faoliyatini o‘rgatish orqali yengish mumkin. Buning uchun bilim va ko‘nikmalarni doimiyligini shakllantirish, past darajadan murakkab va turli moslashuvlar tizimga o‘tish. Murakkab tushunchalar bilan o‘ylash qobiliyati darhol paydo bo‘lmaydi. Ma’ruza, amaliy material orqali o‘quv dasturini tuzish jarayonida u o‘qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi kerak. Uning mazmuni va hajmini tanlash talabalarga statik

fikrlashdan bitta mavzu doirasida ko‘proq harakatli fikrlashga o‘tish, ilgari olingan bilimlarni amalda qo‘llash, turli moslashuvlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan tarzda amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchi muhandislik va kompyuter grafikasi kursini o‘qitishning dastlabki bosqichlarida, o‘z navbatida, talabadan olgan bilimlarni dasturning boshqa fanlariga ishlashni talab qiladigan assosiativ fond yaratishga e’tibor berishi kerak. Muhandislik va kompyuter grafikasining Transport vositalar muhandisligi ixtisosligi dasturining fanlari bilan mumkin bo‘lgan aloqalarini tasniflab, uni geometrik tasvirlarga (silindr – ikki o‘lcham, konus – ikkita turli o‘lcham, kesilgan konus – uchta turli o‘lcham va boshqalar) taalluqli deb hisobladik.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kursining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan ko‘rinadigan aloqalari aniq va qo‘shimcha izohlarni talab qilmaydi, shunday qilib, ko‘rinadigan bevosita aloqalar toifasini tuzish usullari tarkibga ta’sir qiladi.

Turli o‘qituvchilarning tajribasi, umuman, mexanika yo‘nalishi talabalar uchun mo‘ljallangan didaktik topshiriqlarni ma’lum bir mutaxassislik uchun berilgan topshiriqlarga qayta ishlash talab qilinishini ko‘rsatdi. Bu ish faoliyatida va kelajakda yuqori kurs talabalarini o‘qitishda nazariya bilan amaliyotning bog‘lanishini ta’minlash uchun juda zarurdir [2].



1-rasm. Transport vositalar muhandisligi ta’lim yo‘nalishi misolida muhandislik va kompyuter grafikasining fanlar bilan bog‘liqlik sxemasi.

Muhokama. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ma’lum bir mutaxassislik uchun nafaqat muhandislik va kompyuter grafikasi bo‘yicha an’anaviy ma’lumotni o‘z ichiga olgan, balki tanlangan mutaxassislikka talabalarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan o‘z darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini, maxsus topshiriqlar to‘plamlarini, ma’lumotnomalarni yaratish kerak [5].

Tasniflash uslubiy adabiyotlarda ma’lum bo‘lgan qoidalarga asoslanadi. Kamroq aniqligi tufayli yashirin aloqalar, ko‘pincha, kuchli aqliy faoliyatni, maxsus tushunchalardan keng foydalanishni talab qiladi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda o‘quv dasturining fanlar o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshirish sohasida mavjud yutuqlarni adabiyotda qidirish, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni, o‘quv dasturlarni, oliy o‘quv yurtlarining faoliyatini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni, talabalar uchun so‘rovnomalarni, muhandislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ekspert so‘rovini tahlil qilish, talabalarning yuqori kurslarda bajaradigan kurs ishi, kurs loyihasi va hisob chizma ishlari tahlili ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich – bu qidiruv tajribasi. Tajriba-qidiruv natijalarini o‘rganishning birinchi bosqichida maxsus fanlarni o‘qish jarayonida olingan bilimlarni talabalarni tayyorlashda qo‘llash ko‘zda tutilgan:

1. Dasturning boshqa fanlari bilan aloqalarni hisobga olgan holda, asosiy mavzular uchun didaktik va uslubiy materiallarni ishlab chiqish.
2. O‘rta va bitiruvchi chiqaruvchi kafedralarda o‘qitish uchun muhandislik va kompyuter grafikasi alohida bo‘limlari bo‘yicha tezkor ma’lumotlar yig‘ish.

Katta miqdordagi tajriba materiali uni qayta ishlash jarayonida matematik-statistik usullaridan foydalanish zarurligiga olib keldi.

Tajriba uchun so‘rov natijalari bo‘yicha aniqlangan mavzular bo‘yicha bir qator grafik vazifalar (so‘rovnomalar, intervyu, o‘quv dasturining qolgan fanlarining ish dasturlarini tahlil qilish) sirtlarning kesishishi, o‘lchamlarni qo‘yish, yig‘ish chizmasi tanlandi. Ushbu vazifalarni bajarishda, talaba tanlangan mutaxassislik bilan bog‘liq vazifalarni yechimini topdi. Bajarilgan topshiriqlar yechim darajasiga qarab baholandi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida (qidiruv-tajribada) muhandislik va kompyuter grafikasini maxsus texnik fanlar va ularni amalga oshirish shakllari bilan bevosita va teskari aloqalarining obyektiv xarakteristikasini aniqlashga harakat qildik va quyidagi vazifalar belgilandi [5]:

–muhandislik va kompyuter grafikasi o‘quv dasturining boshqa fanlari bilan bog‘liqlik tomonlarini, ahamiyatini va ularni amalga oshirish usullarini tavsiflash;

– muhandislik va kompyuter grafikasi fanining fanlararo aloqalarini yanada to‘liqroq amalga oshirishga shakllari va usullarini aniqlash.

Tadqiqot-qidiruv ishlarida olingan natijalar yechilishi zarur bo‘lgan muammo bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni belgilashga imkon berdi.

Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlarni o‘rganishda olingan bilimlar o‘rtasida uzviyliklar aniqlanmoqda. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy grafika kursida olingan bilimlarni qo‘llash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Buning sababi talabalarda zarur darajada oddiy g‘oyalar rivojlangan. Maxsus mazmundagi vazifalarni hal qilishni talab etiladigan hollarda talabalar jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Misol sifatida “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanining aloqalar tizimidagi “Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari”, “Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi”, “Avtotransport vositalarining tuzilishi”, “Texnik xizmat ko‘rsatish texnologiyasi” va shu kabi fanlarga o‘qitishni keltirish mumkin (“Transport vositalar muhandisligi” ixtisosligi uchun misollar keltirilgan). Fanlar o‘rtasidagi ushbu aloqalar mutaxassisni tayyorlash jarayonida faol ishtirok etadi va majburiy boshqaruvni talab qiladi. Mutaxassisliklari uchun fan dasturlari o‘rtasidagi aloqalarning holatini o‘rganish, aloqalar amalga oshirish usullari aniqlanmaganligini, hamma joyda ham bu aloqalar to‘liq amalga oshirilmaganligi ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tajriba-qidiruv ishiga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, fanlararo aloqalar samaradorligini oshirish usullaridan biri bu muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini ixtisoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganishni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlaydigan uslubiy sharoitlarni yaratishdir.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi quyidagilarni aniqladi:

1. Fan dasturlari bilan muhandislik va kompyuter grafikasi o‘rtasida teskari aloqa yo‘qligi sababli talabalar kelajakdagi kasblari bilan bog‘liq alohida ajralgan bilimlarga ega bo‘ladilar.

2. Ongli ravishda bajarilgan maxsus chizmani asosiy tarkibiy qismlarini noto‘g‘ri baholash, bunday chizmalarni 1–2-kurslarda bajarish imkoniyati yo‘qligi, o‘rta va bitiruvchi chiqaruvchi kafedralarida keyingi o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi hisoblanadi.

3. Muhandislik va kompyuter grafikasini boshqa fanlar bilan bog‘laydigan uslublarning ishlab chiqilmaganligi talabalarning kasbiy qiziqishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchi “tajriba-sinov” bosqichi o‘tkazildi. Bunda talabalarning o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan fan dasturlari bilan teskari aloqalarni amalga oshirish qobiliyatlari o‘rganildi va asosiy tajribani o‘tkazish uchun ushbu aloqalar shakllarini aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalar tanlagan mutaxassislikning dastlabki yo‘nalishida ijobiy munosabatdadir. Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitish jarayoni uni rasmiy ravishda tanlaganlar orasida kasbga qiziqishini rivojlantirish bo‘yicha ishlarini kuchaytirishi kerak. Muhandislik va kompyuter grafikasining ta’lim dasturining boshqa fanlari o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi metodologiyaning yo‘qligi kasbiy tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Толипов У.К., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Т., 2006, 155-бет.

(2). Зойиров К.А. Узлуксиз таълим тизимида бўлажак мутахассисларнинг график тайёргарлигини жадаллаштириш назарияси ва методикаси. Монография, Т., “Фан ва технология” нашриёти, 2016, 112-бет.

(3). Avazov J.D. Бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш. (“Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанини ўқитиш мисолида). Дисс....п.ф.ф.д. (PhD), Қарши, 2022.

(4). Avazov J.D. (2021). Interdisciplinary Relations As A Factor For Improving The Professional Competence Of The Future Engineer. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), p. 138–146.

(5). Avazov J.D. Бўлажак муҳандисларнинг инноватsion касбий график тайёргарлиги. “НамДУ илмий ахборотномаси”. 2021, 11-сон.

(6). Avazov J.D. Бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигининг такомиллаштиришнинг таснифий шакллари. 2021, 12-сон.

Ermatova Mexriniso Bekmuradovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi; E-mail: ermatovamehriniso948@gmail.com)

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARGA KASHTACHILIK HUNARINI O‘RGATISH

Annotatsiya. *Maqolada talabalarni milliy qadriyatlar asosidagi hunarga o‘rgatishning ahamiyati, zamonaviy ta’lim tizimida kashtachilik hunarini rivojlantirishning dolzarbligi hamda bu hunarning yosh avlod ongida uyg‘otadigan ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati izchil yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: kashtachilik, kasb-hunar ta’limi, milliy qadriyatlar, an’anaviy san’at, amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik yondashuv, ijodiy rivojlanish, madaniy meros, kasb tanlash, ta’lim va hunar integratsiyasi.*

Эрматова Мехринисо Бекмурадовна (преподаватель Института предпринимательства и педагогики им. Денова; E-mail: ermatovamehriniso948@gmail.com)

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ВЫШИВКЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В статье последовательно подчеркивается важность обучения школьников ремеслу, основанному на национальных ценностях, актуальность развития ремесла вышивки в современной системе образования, воспитательное значение этого ремесла в сознании подрастающего поколения.*

Ключевые слова*: вышивка, профессиональное образование, национальные ценности, традиционное искусство, практическое обучение, педагогический подход, творческое развитие, культурное наследие, выбор профессии, интеграция образования и ремесла.*

Ermatova Mexriniso Bekmuradovna (Teacher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy; E-mail: ermatovamehriniso948@gmail.com)

TEACHING STUDENTS IN EMBROIDERY ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES

Annotation. *The article consistently highlights the importance of teaching students a craft based on national values, the relevance of developing the craft of embroidery in the modern education system, and the educational significance of this craft instilling in the minds of the younger generation.*

Keywords*: embroidery, vocational education, national values, traditional art, practical training, pedagogical approach, creative development, cultural heritage, career choice, integration of education and craft*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir millat o‘zining boy tarixiy merosi, madaniyati va an’analarini asrab-avaylash hamda yosh avlod ongiga singdirish orqali milliy o‘zligini saqlab qolishga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasida ham milliy qadriyatlarni tiklash, ularni rivojlantirish va yoshlar ongida mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalq amaliy san’ati, xususan, kashtachilik hunarini o‘rganish va o‘rgatish orqali talabalar qalbida milliy g‘urur, estetik did, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Kashtachilik – bu xalqimizning qadimiy san’ati bo‘lib, unda nafaqat nafis bezak va naqshlar mujassam, balki har bir tikuvda o‘ziga xos falsafa, estetik qarash va hayotiy tajriba aks etadi. Talabalarni kashtachilik hunariga o‘rgatish ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan birga, milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu mavzuda olib borilayotgan tadqiqot milliy qadriyatlar negizida kashtachilikni o‘rgatish metodikasi, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil etadi [1;3-b.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.Qodirova, M.Yusupova, Z.Karimova, M.X.Shomirzayev kabi pedagog-olimlar milliy madaniyat va xalq amaliy san’atini yoshlar tarbiyasida qo‘llashning pedagogik-psixologik asoslarini tahlil qilganlar. Ularning ishlarida xalq hunarmandchiligining, ayniqsa, kashtachilikning estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan.

O‘zbek xalqining an’anaviy kashtachilik san’ati haqida etnografik va madaniy tadqiqotlar ham mavjud bo‘lib, unda turli viloyatlarga xos naqshlar, uslublar va ranglar uyg‘unligi tahlil qilingan (masalan, Bu-

xoro, Farg‘ona, Samarqand kashtalari). Ushbu ilmiy manbalar, amaliy qo‘llanmalar va tarixiy hujjatlar mavzuga ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy asoslar va metodologik yondashuvlarga tayangan:

1. Ilmiy-nazariy asoslar – pedagogika, psixologiya, san’atshunoslik va xalq amaliy san’ati sohasidagi nazariy qarashlar, milliy tarbiya konsepsiyasi va davlat ta’lim standartlariga asoslangan.

2. Tadqiqot metodlari. Tahlil va sintez – mavjud adabiyotlar, amaliy tajriba va normativ hujjatlar tahlil qilinib, ulardan umumiy xulosalar chiqarildi. Kuzatuv va suhbat – talabalar bilan olib borilgan suhbatlar orqali ularning milliy hunarlarga bo‘lgan qiziqishi o‘rganildi. Eksperimental metod – talabalarni kashtachilikka o‘rgatish bo‘yicha kichik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Anketa va so‘rovnoma – talabalarning munosabati, bilim darajasi va kashtachilikka bo‘lgan qiziqishi aniqlash uchun so‘rov usullari qo‘llanildi. Pedagogik kuzatuv – o‘quv jarayonida talabalar faoliyatining o‘zgarishi va rivojlanishi kuzatildi.

Sehrli besh barmoq metodi. Sehrli besh barmoq metodi ta’lim jarayonida talabalarning fikrlashini faollashtirish, ularni mustaqil va tizimli ravishda o‘ylashga undash, shuningdek, darsni qiziqarli va samarali tashkil qilish uchun qo‘llaniladigan interaktiv usullardan biridir. “Sehrli besh barmoq” metodi haqida umumiy ma’lumot. Bu metod nomidan ham ayonki, inson qo‘lining beshta barmog‘i orqali o‘quvchilar darsdagi muhim jihatlarni eslab qolish va ifodalashga undaladi. Har bir barmoq ma’lum bir savol yoki fikr turiga mos keladi. Bu usul, ayniqsa, refleksiya (darsni yakunlash), mavzuni umumlashtirish bosqichlarida juda samarali.

Metodning mazmuni – har bir barmoq nimani anglatadi?

Barmoq	Ma’nosi / Savol turi
Bosh barmoq	“Yoqqan jihati” – Sizga bugun darsda nima yoqdi?
Ko‘rsatkich	“Muhimi” – Darsdagi eng muhim narsa nima bo‘ldi?
O‘rta barmoq	“Yoqqan emas” – Sizga nimalar yoqmadi, tushunarsiz bo‘ldi?
Nomsiz barmoq	“Hissiy jihat” – Dars sizda qanday tuyg‘ular uyg‘otdi?
Kichik barmoq	“Taklif” – Siz yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz?

Metodning maqsadi:

Talabalarni dars yakunida o‘z fikrini ifoda etishga o‘rgatish.

Mashg‘ulot mazmunini tizimli tarzda umumlashtirish.

Har bir talabaning darsda ishtirokini faollashtirish.

O‘qituvchiga dars samaradorligini baholashda yordam berish.

Qo‘llash usuli:

1. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi talabalardan qo‘l barmoqlarini misol qilib, har biriga mos fikr aytishni so‘raydi.

2. Talabalar og‘zaki yoki yozma shaklda javob berishadi.

3. Natijalar muhokama qilinadi yoki dars haqidagi umumiy xulosa chiqariladi.

Afzalliklari. Talabalarni erkin fikrlashga undaydi.

Har bir talabaning mashg‘ulotni qanday qabul qilganini bilish imkonini beradi.

Mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Tadqiqot obyekti. Oliy ta’lim muassasasi talabalari.

4. Tadqiqot predmeti. Talabalarni milliy qadriyatlar asosida kashtachilik hunariga o‘rgatish jarayoni.

5. Tadqiqotning maqsadi. Milliy qadriyatlar negizida kashtachilik hunarini talabalarga samarali o‘rgatish yo‘llarini aniqlash va taklif etish.

“Sehrli besh barmoq” metodining kashtachilik darslarida qo‘llanilishi.

Maqsad. Talabalarning kashtachilikka oid bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ijodiy fikrlash va tahliliy yondashuvlarini rivojlantirish, shuningdek, dars mazmuniga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarini aniqlash.

Qo‘llash bosqichlari (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda):

1. O‘qituvchi: “Kelinglar, bugungi darsni “Sehrli besh barmoq” metodi orqali yakunlaymiz. Har bir barmoqqa mos savolga qisqa va aniq javob bering”, deydi.

2. Talabalar javoblarini og‘zaki yoki yozma (stiker, daftar, doska) shaklida ifoda etadilar.

Barmoqlar asosidagi savollar (kashtachilik darsiga moslashtirilgan):

Barmoq	Savol	Misol javob
Bosh barmoq	Bugungi darsda sizga nima yoqdi?	“Kashtaning gullar bilan bezalgan yangi naqshini o‘rganish juda yoqdi”.
Ko‘rsatkich barmoq	Darsdagi eng muhim narsa nima deb o‘ylaysiz?	“Ip tanlashda ranglar uyg‘unligini hisobga olish muhimligini bildim”.
O‘rta barmoq	Nima sizga yoqmadi yoki tushunarsiz bo‘ldi?	“Kashta tikishda ba’zi tikuv turlarini to‘g‘ri bajara olmadim”.
Nomsiz barmoq	Dars sizda qanday tuyg‘ular uyg‘otdi?	“O‘zim tikkan naqshni ko‘rib, g‘ururlandim va xursand bo‘ldim”.
Kichik barmoq	Keyingi darslar uchun qanday takliflaringiz bor?	“Milliy atlas matosida kashta tikishni sinab ko‘rishni xohlardim”.

Bu metodning afzalliklari (ayniqsa, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar uchun uchun):

Har bir talaba mashg‘ulotda nimalarni o‘zlashtirganini ifoda etadi.

O‘qituvchi mashg‘ulotda nimalar yaxshi ketganini va nimalar ustida ishlash kerakligini bilib oladi.

Talabalarda mas’uliyat, estetik did, milliy qadriyatlarga hurmat shakllanadi.

Xulosa. Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy asosidir. Ularni yosh avlodga o‘rgatish nafaqat milliy o‘zlikni asrash, balki jamiyatda barkamol, estetik didga ega va mehnatsevar shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kashtachilik esa ushbu qadriyatlarning muhim qismlaridan biri bo‘lib, o‘zbek xalqining san’atga, go‘zallikka va mehnatga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

Talabalarni kashtachilik hunariga milliy qadriyatlar asosida o‘rgatish ularning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, ma’naviy-estetik tarbiyasini boyitish, milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion va interaktiv metodlardan, jumladan, “Sehrli besh barmoq” kabi metodlardan foydalanish orqali talabalar dars mazmunini chuqurroq anglaydi, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi hamda kashtachilik san’atini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kashtachilik orqali nafaqat hunar o‘rgatiladi, balki talabalarning milliy g‘ururi, madaniy saviyasi va ijodiy tafakkuri ham shakllanadi. Shu bois milliy qadriyatlarni tiklash va ularni zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). M.X.Shomirzayev. Maktab o‘quvchilarini texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlari bilan tanishtirishda fanlar integrstsiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Tafakkur”, 2020.

(2). M.B.Ermatova. Ta’limda kreativ yondashuv asosida talabalarga xalq amaliy san’atini o‘rgatishni rivojlantirish. Monografiya, Termiz, 2025.

(3). M.X.Shomirzayev. Texnologiya ta’lim metodikasi. O‘quv qo‘llanma, Termiz, 2024.

(4). M.X.Shomirzayev. O‘zbek milliy hunarmandchiligining spectral-variativ komponentlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Yangi nashr”, 2018.

Yusufjonova Nazokat Nig‘madjon qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc); senator_advokat@mail.ru)

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH DARAJASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish darajasi tahlil qilingan. SI texnologiyalarining o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ta’lim jarayonida qanday yordam berishi, shuningdek, bu texnologiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning boshlang‘ich bosqichlarida ekanligini, lekin bu yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlarning tezlik bilan rivojlanayotganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, interaktiv muhit, texnologiyalar, so‘rovnoma, ta’limdagi innovatsiyalar.*

Назокат Юсуфжанова Нигмаджоновна (докторант (DSc) Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; senator_advokat@mail.ru)

УРОВЕНЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется уровень использования инструментов искусственного интеллекта в системе образования Узбекистана. Авторы рассматривают, как техно-*

логии ИИ могут помочь учителям и учащимся в образовательном процессе, а также способы повышения эффективности этих технологий. Результаты исследования показывают, что использование инструментов ИИ в системе образования Узбекистана находится на начальном этапе, однако уже наблюдаются позитивные изменения, и это направление быстро развивается.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, образовательная система, интерактивная среда, технологии, опрос, инновации в образовании.*

Nazokat Yusufjonova Nigmadjon qizi (Doctoral student (DSc), Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature; senator_advokat@mail.ru)

THE LEVEL OF UTILIZATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Annotation. *This article analyzes the level of usage of Artificial Intelligence tools in the education system of Uzbekistan. The authors discuss how AI technologies can assist teachers and students in the educational process and the methods to improve the effectiveness of these technologies. The research findings reveal that the use of AI tools in Uzbekistan's education system is still in its early stages, but positive changes in this direction are rapidly developing.*

Keywords: *Artificial intelligence, education system, interactive environment, technologies, educational innovations.*

Kirish. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish hali dastlabki bosqichda bo‘lib, ayrim ilg‘or maktab va oliy ta’lim muassasalaridagina bu borada tajribalar olib borilmoqda. Aytish lozimki, yurtimizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Adabiyot” darslarida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash keng tarqalgan amaliyot emas. Ya’ni, hozircha mamlakatimizda adabiy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish jarayonlari tizimli yondashuv asosida yo‘lga qo‘yilmagan. Ayrim ijodkor o‘qituvchilargina darslarida interfaol taqdimot vositalari, interaktiv metodik platformalar yoki matnlarni tahlil qiluvchi oddiy dasturlardan foydalanishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sun’iy intellektni tadqiq etuvchi mutaxassislarning asosiy maqsadi avtomatlashtirish va insonning o‘rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni ko‘ra bilish va hal qilish yo‘llarini topish, dunyo xalqlari tillarini tushunish, zarur vaqtda muhim qarorlar qabul qilish kabi intellektual faoliyatini mashinalarga o‘rgatishdan iboratdir. Shuning uchun ham soha mutaxassisi Yan LeKun sun’iy intellektni: “ma’lumotlardan uzviy ravishda bilim yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan texnologiya”, deb ta’riflaydi [1;325-b.].

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari davomida o‘rganilgan ba’zi maktablarda “Adabiyot” darslarida elektron darsliklar va onlayn test tizimlari joriy etilgani, elementar sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda o‘quvchilar bilimini tekshirib, baholash jarayoniga guvoh bo‘ldik. Oliy ta’lim muassasalarida esa ko‘proq ilmiy tadqiqot ishlari doirasida sun’iy intellektdan foydalanish kuzatildi: adabiy matnlarni kompyuter lingvistikasi yordamida tahlil qilish (so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, matndagi mavzular, sinonim, antonim, omonim so‘zlarni avtomatik aniqlash) kabi amaliyotlar yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘plab universitetlarda talabalar ta’lim chat botlaridan foydalangan holda esse va insholar yozishmoqda.

Umumiy holatni aniqlash maqsadida tadqiqot doirasida yurtimizdagi umumta’lim maktablarida so‘rovnomalar[1] o‘tkazilib, “Adabiyot” fani o‘qituvchilari va o‘quvchilari o‘rtasida sun’iy intellektdan foydalanish holati o‘rganildi. Unda O‘zbekistonning turli hududlaridagi 10 ta umumta’lim maktabi (Toshkent shahridagi 4 ta davlat maktabi, Sirdaryo viloyatidagi 2 ta davlat maktabi, Navoiy viloyatidagi 1 davlat, 1 ta xususiy, Samarqand viloyatidagi 1 ta davlat, 1 ta xususiy maktabi)ning jami 200 nafar o‘qituvchilari (har bir maktabdan 20 nafardan) hamda 500 nafar 5–11-sinf o‘quvchilari (har bir maktabdan 50 nafardan) anonim tarzda ishtirok etdilar.

So‘rovnomada, eng avvalo, ishtirokchilardan sun’iy intellekt tushunchasi va uning ta’limda qo‘llanilishi haqida eshitganlik darajasi so‘raldi. Quyida berilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 60% o‘qituvchilar sun’iy intellekt haqida ma’lum darajada xabardor, 40% qismi esa hech qanday ma’lumotga ega emas. O‘quvchilar orasida xabardorlik darajasi biroz yuqoriroq, taxminan, 70% o‘quvchi sun’iy intellekt haqida eshitgan yoki biladi, 30% esa bu sohadagi yangiliklardan bexabar. Tafovutlarni yosh avlod texnologiyalarga havas qilishi, qiziqib o‘rganishi va internet orqali yangiliklarni ko‘proq kuzatishi bilan izohlash mumkin.

[1] So‘rovnomaning to‘liq savollari dissertatsiya so‘ngida ilova qilinadi.



Hududlar kesimidagi tahlillarimizda sezilarli farqlar mavjud. Masalan, Toshkent shahridagi maktablarda sun'iy intellektdan xabardorlik ancha yuqori – o'qituvchilarning, taxminan, 80–85% bu borada eshitgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatidagi maktablarda atigi 40–50% o'qituvchi sun'iy intellekt haqida eshitgan, xolos. Xuddi shunday, Toshkentdagi o'quvchilar o'rtasida xabardorlik deyarli to'liq (90%gacha) bo'lsa, chekka hududlarda bu ko'rsatkich pastroq.



Yana bir muhim jihat: so'rovnoma o'tkazilgan 2 ta xususiy maktabda barcha o'qituvchilar sun'iy intellekt nima ekanini eshitganliklarini bildirgan, ayrim chekka davlat maktablarida esa, aksincha, o'qituvchilarning yarmidan ko'pi bu haqda oddiy tushunchalarga ham ega emas.

Mazkur natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida texnologik yangiliklardan xabardorlik hali ham hududiy va infratuzilmaviy omillarga bog'liqligini anglatadi.

Ma'lumki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan xabardorlik ularni amalda qo'llashni anglatmaydi. Shuning uchun navbatdagi savolda o'qituvchi va o'quvchilarning mazkur tizimlardan amalda foydalanish darajasi o'rganildi. So'rovnomada qatnashgan o'qituvchilarning 70%ga yaqini *"*hech qachon foydalanmaganman", 25% o'qituvchi *"*ba'zan sinab ko'rganman" (yilda bir-ikki marta, ochiq darslarda yoki juda kam hollarda), atigi 5% o'qituvchi *"*muntazam foydalanaman" deb javob bergan.

O'quvchilar orasida ham holat o'xshash: 60% o'quvchi hech qachon adabiyot darslarida o'quv topshiriqlari yoki uy vazifalarini bajarishda sun'iy intellektdan foydalangan emas, 30% ba'zan foydalanganini, 10% esa muntazam foydalanishini aytdi. Demak, hozircha adabiy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish juda past darajada; ko'pchilik o'qituvchi va o'quvchilar bu texnologiyalarni amaliyotga joriy etmagan yoki zarur deb hisoblamagan.



Hududiy taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanganlik tajribasi Toshkent shahridagi maktablarda biroz yuqoriroq. Toshkentdagi ayrim ilg‘or o‘qituvchilar (taxminan, 10–15%) darslarida ChatGPT kabi chat botlardan muntazam foydalana boshlaganliklarini aytgan bo‘lsa, qishloq va tuman maktablarida deyarli hech kim muntazam foydalanmaydi (0–1% darajada). Ba’zan foydalanish ham, asosan, shahar maktablariga to‘g‘ri keladi, xususan, Toshkent va Samarqand shahridagi o‘qituvchilarning 30–40%, hech bo‘lmaganda, bir marta badiiy matn tahlili va interaktiv topshiriqlar tuzishda sun’iy intellekt vositasini sinab ko‘rgan. Sirdaryo hududlarida esa bu ko‘rsatkich juda past. Xususiy maktablar o‘qituvchilari davlat maktablariga qaraganda innovatsion texnologiyalarni ko‘proq qo‘llashmoqda: o‘qituvchilarning deyarli yarmi, hech bo‘lmaganda, bir-ikki marta sun’iy intellektdan foydalangan (ular orasida 10% muntazam foydalanuvchilar bor). O‘quvchilar orasida ham ChatGPTdan uy vazifasini yechishda foydalanib ko‘rganlar ko‘proq uchradi.



“Sun’iy intellektdan adabiy ta’limda qaysi maqsadlarda foydalanish mumkin deb o‘ylaysiz?” degan savolga (bir nechta javobni tanlashi mumkin edi) respondentlarning aksariyati matnlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish javobini tanlashgan. O‘qituvchilarning 50% va o‘quvchilarning 60% sun’iy intellektdan asarlardan tezkor xulosa olish, matn mazmunini tahlil qilish uchun foydalansa bo‘ladi, deb hisoblashgan. Bu, ayniqsa, katta hajmdagi badiiy asarlarni o‘rganishda vaqtni tejashi mumkinligi bilan bog‘liq.

Keyingi muhim yo‘nalish – imlo va uslubni tekshirish, yozma ishlarni tahrirlash. O‘qituvchilarning 40% va o‘quvchilarning 30% sun’iy intellekt vositalari (masalan, matnni tahlil qiluvchi dasturlar) yordamida insho va bayonlarni grammatik tahlil qilish, orfografik qoidalar va uslubiy xatolarni tuzatishni foydali deb biladi. Bu natija adabiyot o‘qitishda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda sun’iy idrok grammatik korrektoridan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijodiy yozuv jarayonida yordam berish varianti ham ko‘plab ishtirokchilarni qiziqtirgan. O‘quvchilarning 40% va o‘qituvchilarning 30% sun’iy intellektni ijodiy fikr va g‘oyalar berish, hikoya yoki

she’r yozishda ilhom manbayi bo‘lish uchun qo‘llash mumkin, deb hisoblagan. Masalan, o‘quvchilar sun’iy intellekt yordamida asar qahramonlari nomidan yangi hikoyalar yozib ko‘rish yoki davom ettirish kabi mashqlarning qiziqarli ekanini tasdiqlashgan. Ba’zi ijodkor o‘qituvchilar ham sun’iy intellekt yordamida darslarda interaktiv ijodiy topshiriqlar yaratishni ma’qullashgan.

Individual tarzda savol-javob orqali o‘rgatuvchi (repetitor) sifatida sun’iy intellektdan foydalanish variantini o‘qituvchilarning 20% va o‘quvchilarning 25% foydali deb belgilagan. Ya’ni, sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar yoki yordamchi dasturlar o‘quvchilarning mustaqil ravishda adabiy asar mazmunini tushunishida, savollariga javob berishda ko‘maklashishi mumkin. Ba’zi o‘qituvchilarning fikricha, o‘quvchilar uyda mustaqil o‘qiyotgan paytda sun’iy intellektdan “virtual repetitor” sifatida foydalanishlari, darsda tushunmagan joylarini so‘rab olishlari mumkin.

Qo‘shimcha ravishda, bir qator o‘qituvchilar (taxminan, 15%) sun’iy intellektni dars materiallarini tayyorlash (masalan, turli qiziqarli savol-topshiriqlar, test savollarini tuzish, ma’ruza matnini yaratish) uchun qo‘llash mumkinligini qayd etishdi. Ayniqsa, Toshkent shahridagi ba’zi “Adabiyot” fani o‘qituvchilari ChatGPT kabi dasturlardan foydalanib, tezkor ravishda adabiy asarlarga doir testlar yoki muhokama uchun savollar olganini aytishdi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, adabiy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning eng istiqbolli yo‘nalishlari – bu matnlarni qisqa fursatda tahlil qilish (o‘quvchiga asar mazmunini anglashga yordam berish), o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish (xatolarni ko‘rsatish, takomillashtirish) va o‘quv jarayonini qiziqarli tarzda tashkil qilish (ijodiy topshiriqlar va virtual repetitorlik). Biroq sun’iy intellekt imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan o‘qituvchilar ham yo‘q emas – ayrim pedagoglar “Adabiyot” fanida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy-hissiy olamiga ta’sir ko‘rsatish va boyitishda yetarlicha samarali emasligini ta’kidlashgan.

Tadqiqot O‘zbekistonning umumiy o‘rta ta’lim tizimida, xususan, “Adabiyot” fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish hali dastlabki bosqichda ekanini ko‘rsatadi va raqamli savodxonlikni oshirish, o‘qituvchilarning malakasini yangilash naqadar dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Aksariyat o‘qituvchilar sun’iy intellektni yaxshi tushunmaydi va undan foydalanishga tayyor emas. Biroq yoshlar orasida innovatsion yondashuvlar va texnologiyaga qiziqish yuqori. Shu ma’noda maktab o‘qituvchilari, xususan, “Adabiyot” fani o‘qituvchilarini sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha o‘qitish masalasiga alohida e’tibor qaratish kerak. Zero, raqamli savodxonlikni oshirmay turib, ta’limda yuqori texnologiyalarni joriy etish mushkul.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Levy D. Architects of Intelligence: The Truth About AI from the People Building It. Birmingham: Packt Publishing, 2018, 438 p.

(2). Panjiyev S.A. The Didactic Potential of Virtual Reality Technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2019, Vol. 7, № 12, p. 121–130.

(3). Yilmaz O., Hebebci M.T. The Use of Virtual Environments and Simulation in Teacher Training International Journal on Social and Education Sciences. 2022, Vol. 4, № 3, p. 446–457.

Muxammadova Gulbaxor Qobiljon qizi (Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Kommunal va mehnat gigiyenasi” kafedrasi assistenti: muxammadovaguli0392@gmail.com)

TIBBIY TA’LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O‘RNI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Zamonaviy tibbiy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv tibbiy ta’limni modernizatsiya qilishning ajralmas qismiga aylandi. Tibbiy ta’lim talabalarini amaliyotga yo‘naltirib o‘qitish, o‘qitishning faol usullaridan biri bo‘lib, bunda refleksiya, shuningdek, erishilgan natijalarni obyektiv baholashga alohida e’tibor beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, laboratoriya-instrumental usullar, integral, ta’lim kompetensiyasi, fiziologiya, obyektiv baholash.*

Мухаммадова Гулбахор Кобилжон кизи (Ферганский медицинский институт общественного здоровья, кафедра коммунальной гигиены и гигиены труда; muxammadovaguli0392@gmail.com)

МЕСТО КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В СИСТЕМЕ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОРЫ ЕГО ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. *В современном медицинском образовании компетентностный подход стал неотъемлемой частью модернизации медицинского образования. Одним из активных методов обу-*

чения студентов-медиков является практико-ориентированное обучение, в котором особое внимание уделяется рефлексии, а также объективной оценке достигнутых результатов.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, лабораторно-инструментальные методы, интегральная, образовательная компетентность, физиология, объективная оценка.*

Muxammadova Gulbaxor Qobiljon qizi (Assistant of the department of communal and labor hygiene Fergana Public health medical Institute; muxammadovaguli0392@gmail.com)

THE PLACE OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN THE MEDICAL EDUCATION SYSTEM AND ITS FORMING FACTORS

Annotation. *In modern medical education, a competency-based approach has become an integral part of the modernization of medical education. Practical training of medical students is one of the active methods of education, in which special attention is paid to reflection, as well as objective assessment of the achieved results.*

Keywords: *professional competence, laboratory-instrumental methods, integral, educational competence, physiology, objective assessment*

Kirish. An'anaviy bilim – ta'limda o'rganilgan bilimlar hozirgi zamonaviy tibbiy amaliyoti jarayonlariga to'liq mos kelmaydi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarning ta'lim tizimlarida o'zlarining kompetensiyaga asoslangan yondashuvlari faol ravishda joriy etilmoqda, bu nafaqat o'rganilgan ma'lumotlar hajmiga, balki tibbiy ta'lim talabasining kasbiy faoliyatida bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatiga qaratilgan. Zamonaviy tibbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv tibbiy ta'limni modernizatsiya qilishning ajralmas qismiga aylandi. Tibbiy ta'lim talabalarini amaliyotga yo'naltirib o'qitish, o'qitishning faol usullaridan biri bo'lib, bunda refleksiya, shuningdek, erishilgan natijalarni obyektiv baholashga alohida e'tibor beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli pedagog professor Daxin A.N. Ta'lim kompetensiyasini "Ta'lim mazmunini sifatli o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan talaba shaxsining rivojlanish darajasi" deb tushunadi. Bu nimani anglatadi, sifatli rivojlanish bitiruvchini tayyorlash uchun talablar va standartlar bilan belgilanadi. Ta'lim kompetensiyasining asosiy qismi barcha ta'lim sohalaridan o'tadi va ularni yagona, yaxlit tarkibga birlashtirish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, u ta'limning umume'tirof etilgan mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi: o'rganilayotgan ko'nikmalarning haqiqiy obyektlari, ko'nikmalar, faoliyatning umumlashtirilgan usullari va boshqalar [1].

V.V.Krayevskiyning ta`kidlashicha, ta'lim kompetensiyalari haqida "Ta'limga shaxs faoliyat yondashuvining oqibatlari, chunki ular talabaning shaxsiga tegishli bo'lib, shakllantiriladi, shuningdek, faqat u tomonidan muayyan tarzda tuzilgan harakatlar to'plamini bajarish jarayonida tekshiriladi" deb aytadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan o'quv jarayonining ta'lim sifati va samaraligi ushbu oliy ta'lim muassasasida tayyorlangan bo'lajak mutaxassislarga ko'ra aniqlanadi hamda shunga asoslanib mutaxassislarni tayyorlashga hozirgi zamon talablari asosida yondashish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz ta'limini modernizatsiya qilish strategiyasi ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish zarurligi haqida gapiradi. Tibbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'qituvchidan talabaga bilim, ko'nikma va malakalarni oddiy tarjima qilishni emas, balki kelajakdagi bitiruvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishni o'z ichiga oladi. Pedagog-o'qituvchilar ushbu so'zlarning ma'nosini yanada kengroq ta'riflashadi. Misol sifatida ko'radigan bo'lsak, L.M.Mitinaning ta'rifiga ko'ra, "kompetensiya" tushunchasi bilim, ko'nikmalarni, shuningdek, ularni faoliyat, munosabat, shaxsni rivojlantirish (o'z-o'zini rivojlantirish)da amalga oshirish usullarini qamrab oladi, ya'ni, muallif kompetensiyaning murakkab integral xususiyatini ta'kidlaydi.

Tibbiy ta'limni takomillashtirishning dolzarb tendensiyalari fanlararo aloqalarni rivojlantirish, o'qitishga modulli va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni yaratishdir. Bunday pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy sektori turli xil muammolarni, shu jumladan, kasbiy faoliyatda yuqori darajadagi innovatsion dominantni hal qila oladigan, kasbiy malakali tibbiy ta'lim bitiruvchisini shakllantirishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Tibbiy ta'lim tizimida har bir kasbiy fanni o'rganish jarayonida laboratoriya ishlarini olib borish va tahlil qilish o'quv jarayonini rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

1 Daxin A.N. Kompetensiya va kompetensiya: rus talabasida ularning qanchasi bor? "Xalq ta'limi", 2004, 4-son, 136-bet.

2 Kraevski V.V. Ta'limda fan va umumiy fan standartlar. "Pedagogika", 2003, 2-son, 9-bet.

Tibbiy ta’lim bitiruvchisi talabalari kelajakda yuqori tajribali tibbiyot xodimi bo‘lishi uchun o‘zining ish faoliyat davomida kasbiy ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishi, bemorlarning sog‘lig‘ini samarali va tez tiklashga yordam beradigan davolash-diagnostika amaliyoti usullarini taklif qilishi va amalga oshirishi kerak. Tibbiy ta’lim talabalarining ushbu fazilatlarini shakllantirish laboratoriya tadqiqot usullarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Buning sababi esa aynan shu ish turi klinik holatlarni, iloji boricha, samarali hal qilish uchun to‘g‘ri yondashuvlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida o‘tkaziladigan laboratoriya ishlarining asosiy maqsadi o‘rganilgan materialni chuqur anglash, ularni amalda qo‘llay olish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga hissa qo‘shadigan nazariy bilimlarni amalda faol qo‘llashdir. Amaliy ish, qoida tariqasida, nazariy ma’lumotlarni batafsil o‘zlashtirish va uni amalga oshirish usullarini namoyish etishdan oldin amalga oshiriladi. Tibbiy ta’lim oliy o‘quv yurtlarida gigiyena asosiy fan sifatida nafaqat nazariy tayyorgarlikni, balki yashash muhitining holatini tahlil qilish, kasalliklarning oldini olish va sanitariya-gigiyena ko‘rsatkichlarini baholash ko‘nikmalarini amaliy o‘zlashtirishni talab qiladi. Shu sababli laboratoriya va instrumental usullar tibbiy ta’limni bitirayotgan kelajakdagi shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy tibbiy ta’lim nazariy bilimlarni va amaliyotni birlashtirish yo‘lida jadal rivojlanmoqda. Laboratoriya va instrumental o‘qitish usullari kelajakdagi tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, klinik fikrlash, diagnostika ko‘nikmalari va tadqiqot yondashuvini rivojlantirishga yordam beradi.

Tibbiy ta’lim talabalari laboratoriya ishi jarayonida nafaqat faktlarni kuzatadilar va eslaydilar, balki kelajakdagi kasbiy muhitni modellashtiradigan aniq amaliy harakatlarga tayanib, bilimlarni faol ravishda rivojlantiradilar. L.I.Lyubimovaning ta’kidlashicha, “Laboratoriya mashg‘ulotlari samaradorligining eng muhim sharti uning muammosidir, ya’ni, talaba oldida mustaqil yechim izlashni talab qiladigan o‘quv vazifasini belgilash turadi” [1].

Xulosa va takliflar. Laborator-instrumental usullar deyarli barcha klinik, nazariy va gigiyena fanlarida keng qo‘llaniladi. Ulardan foydalanish kuchli fanlararo aloqani shakllantirishga yordam beradi, kasbiy faoliyatning haqiqiy sharoitlarini modellashtirishga imkon beradi va nazariy bilimlardan amaliy qo‘llanishga o‘tishga yordam beradi. Quyida asosiy fanlar keltirilgan:

1. Fiziologiya – tananing fiziologik parametrlarini ro‘yxatdan o‘tkazish: yurak urishi, qon bosimi, nafas olish tezligi, ortostatik testlarni o‘tkazish, o‘pkaning hayotiy imkoniyatlarini aniqlash, EKG va elektromiyogrammani kuzatish.

2. Farmakologiya – biologik obyektlarda dorivor moddalarning ta’sirini aniqlash, bioavailability va farmakokinetikani o‘rganish. Laboratoriya stendlari, avtomatik analizatorlar, farmakologik stimulatorlardan foydalanish.

3. Patologik anatomiya va mikrobiologiya – to‘qimalar va patogenlarni mikroskopik tekshirish, bakteriologik ekinlarni o‘tkazish, muhitning bepushtligini baholash, mikroorganizmlarni aniqlash, antibiotikogramma.

4. Klinik diagnostika va propedevtika – laboratoriya ma’lumotlaridan foydalanish (biokimyoviy testlar), EKG, ultratovush, funksional testlar, siydik va qon tekshiruvi, test tizimlariga asoslangan tezkor diagnostika.

5. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash – aholi salomatligi holatini statistik va gigiyenik tahlil qilish, sanitariya-gigiyena monitoringini o‘tkazish, me’yoriy ko‘rsatkichlar va laboratoriya registrlari bilan ishlash. Shu bilan birga, gigiyena faniga alohida ahamiyat beriladi. Gigiyenada laborator-instrumental usullardan foydalanish turli sohalarni qamrab oladi, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, vazifalarga va amalga oshirishning texnik vositalariga ega. Ilmiy adabiyotlar, pedagogik amaliyotlar va tajriba-sinov ishlari ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, didaktik sharoitlar nafaqat yordamchi elementlar sifatida, balki kelajakdagi gigiyenist shifokorning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlaydigan o‘quv jarayonining tizimli tarkibiy qismi sifatida ishlaydi. Tibbiy ta’limda laborator-instrumental usullarni qo‘llash o‘z-o‘zidan amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq maksimal pedagogik ta’sirga erishish uchun maxsus tanlangan uslubiy uslublar asosiy rol o‘ynaydigan o‘quv faoliyatini uslubiy tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Daxin A.N. Kompetensiya va kompetensiya: rus talabasida ularning qanchasi bor? “Xalq ta’limi”, 2004, 4-son, 136-bet.

(2). Kraevskiy V.V. Ta’limda fan va umumiy fan standartlar. V.V.Kraevskiy, A.V.Xutorskaya. “Pedagogika”, 2003, 2-son, 9-bet.

(3). Lyubimova L.I. Tibbiyot universitetida faol o‘qitish metodikasi. Qozon, KGMU, 2011, 168-bet
(4). BIO Web of Conferences 65, 10016 (2023). “Pedagogical efficiency of integrated learning in the organization of hygiene classes in medical universities”, M.Ashurova, G.Muxammadova.
(5). “Tibbiyotda yangi kun” (34), 2021. “Tibbiy universiteti talabalarini o‘qitish sifatini o‘sitishda informatsiyon ta’lim texnologiyalari sifatini oshirish”. M.Ashurova, G.Muxammadova.

Sapayev Umidbek Abdullayevich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Texnika fakulteti “Elektrotexnika va energetikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d., PhD; umidbek.sapayev@inbox,ru).

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish orqali talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning chet el tajribalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, zamonaviy innovatsion salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion ta’lim muhitining ahamiyati va uning metodologik asoslari qisqacha ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyatga tayyorlash.

Сапаев Умидбек Абдуллаевич (доцент кафедры «Электротехника и энергетика» технического факультета УрГУ им. Абу Райхона Беруни, кандидат технических наук, PhD; umidbek.sapayev@inbox,ru)

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

***Аннотация**. В данной статье научно проанализирован зарубежный опыт подготовки студентов к инновационной деятельности путем создания инновационной среды в высших учебных заведениях, а также сделан краткий научный анализ значения инновационной образовательной среды и ее методических основ в подготовке специалистов, обладающих современным инновационным потенциалом.*

***Ключевые слова**: инновации, научные исследования, инновационная деятельность, подготовка к инновационной деятельности.*

Sapayev Umidbek Abdullayevich (assistant professor of the Department of “Electrical Engineering and Power Engineering” of the Technical Faculty of UrSU University named after Abu Rayhon Beruni, PhD); umidbek.sapayev@inbox,ru).

ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES IN PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY

***Annotation**. In this article, the foreign experiences of preparing students for innovative activities by creating an innovative environment in higher education institutions were scientifically analyzed, and a brief scientific analysis was made of the importance of the innovative educational environment and its methodological foundations in training specialists with modern innovative potential.*

***Key words**: innovation, scientific research, innovative activity, preparation for innovative activity.*

Kirish (Introdugtion). Jahonda innovatsion fikrlaydigan va yuqori darajada ilmiy salohiyatga intiladigan talabalar yuksak hodisa hisoblanib, dunyo mamlakatlari uchun bunday mutaxassislarga bo‘lgan talab juda yuqori darajada baholanadi. Rivojlangan ko‘plab mamlakatlarida bu muammoni yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish, innovatsion salohiyatli talabalarni izlab topish, ularni keng ko‘lamda rivojlantirish va innovatsion qobiliyatlarini yanada sayqallashtirishga qaratilgan o‘ziga xos pedagogik tajribalar yig‘ilganligini alohida ta’kidlash mumkun.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviw). Masalan, AQSH muvaffaqiyatining asosiy omili bu uning doimiy ravishda innovatsiyalarga asoslangan tarzda harakatlanishidadir [1;12–13-b.]. Shuning uchun ham AQSH ta’lim sohasidagi islohotlarida innovatsiyalarni yaratuvchi mutaxassislar yetishib chiqishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratishadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining boshqa davlatlarga qaraganda ta’lim-tarbiy yo‘nalishida ko‘proq ilmiy izlanishlar o‘tkazayotgan bo‘lsa-da, alohida talabalarning innovatsion faoliyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi sohalaridagi ilmiy izlanishlarni yanada kuchaytirish borasida davlat tomonidan yangi tizimlashtirilgan imkoniyatlar ishlab chiqiladi [2;27-b.]. AQSH ta’lim tizimiga ko‘plab buyuk olimlar o‘z hissalarini qo‘shishgan, jumladan, Jon Dyui, B.F.Skinner, Avraam Maslou, Albert Bandura, Xovard Gardner, Jerom Bruner va boshqalar ta’lim nazariyasini rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shganlar. Spangehl va Hoffmanning yozishicha, “Amerika ta’lim tizimi talabalarni innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, ilmiy salohiyatini oshirish, individual xususiyat-larini shakllantirish orqali davlatning ishlab chiqarish samaradorligini va unumdorligini oshiruvchi muhim omillarga

erishish mumkinligini oldindan rejalashtiradi" [3;17–26-b.].

XX asrning boshlarida Amerikada e'lon qilingan pedagogik va psixologik ilmiy asarlarda innovatsion qobiliyatga erishgan talabalarni turlicha nomlar bilan ta'riflanishi va ularga xos bo'lgan alohida xususiyatlari belgilab berilgan. Amerikalik olim, psixologiya fanlari doktori G.Uillining ta'kidlashicha, innovatsion qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalarni "Iqtidorli bolalar" atamasi bilan baholanishini taklif etadi.

AQSH ta'lim tizimidagi asosiy g'oyalardan biri "Bir inson, bir millat va butun insoniyat baxtli yashashi va ravnaq topishi uchun, innovatsiyalar juda muhimdir" g'oyasi har bir talabaga chuqur asoslar bilan tushuntiriladi. Oliy ta'lim sohasidagi innovatsiyalar kelajakni yaratishda muhim o'rin egallaydi. "Innovatsiya mutatsiyaga o'xshaydi, jamiyatning hayotiy jarayonlarida yangi turlari rivojlanib, innovatsiyalar yashash uchun yaxshiroq raqobatlasha olish xususiyatlari paydo bo'ladi" [4;3-b.]. Buning natijasida insonlarni baxtli hayot kechirishlari uchun yangi qulayliklarning yaratilishiga va ijobiy imkoniyatlarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham AQSH ta'lim tizimida innovatsiyalarga nisbatan hayot uchun eng zarur va ijobiy o'zgarish vositasi sifatida qaraladi. Har qanday inson faoliyati (masalan, turli ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ta'lim sohasida) barqaror rivojlanib borishi uchun doimiy innovatsiyalarga muhtojlik sezadi.

Tadqiqot metodalogiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologikasosini texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarini innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantiruvchi metod hamda texnologiyalarni tahlil qilish va maqbullarini amaliyotda qo'llash, zamonaviy muhandislarni shakllantirish hamda tarmoq muammolarini innovatsion yechimlarini topa oladigan innovatsion ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash asoslarini yaratishdan iborat hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). AQSHda oldingi yillarga nisbatan oliy ta'limdagi innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj keskin oshmoqda. Amerikalik olim F.Cornalining fikricha, "Mamlakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy farovon yashashi, ko'p jihatdan, shu mamlakat fuqarolarining ta'lim sifatiga bog'liq bo'ladi", deb ta'kidlaydi. Shuningdek, jamiyatning "innovatsion bilimlar jamiyati" misolida qaytadan vujudga kelishi, ko'p sohalarda keskin ijobiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mavjud resurslardan unumli foydalangan holda, bugungi ta'lim tizimlarini samarali bo'lishi hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga to'laqonli erishishi talab etiladi [5;255-b.]. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) o'tkazgan ilmiy tahlillariga asosan, "dunyo bo'ylab talabalar uchun tenglikni oshirish va oliy ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning natijalarini yaxshilashga qaratilgan imkoniyatlar kuchaytirilmoqda".

Amerikaning raqobatbardoshlikda ustunligi shundaki, oliy ta'lim sohasidagi muammolarni samarali va hayotiy yechimlarini topishga imkon beruvchi tizimning ishlashidadir. Oliy ta'lim muassasalarining har bir yo'nalishi bo'yicha ko'plab hamkorlarining mavjudligidadir. Masalan, Garvardning innovatsion ta'lim yo'nalishi bo'yicha hamkori Toni Vagnerning fikricha, "Oliy ta'limda bilim olayotgan har bir talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda mamlakatning taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unlikda bo'lishi va jahonda kutulmaganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va sin'iy xavf-xatarlarga innovatsion immuniteti shakllangan bo'lishi lozimdir" deb ta'kidlaydi. Garvard universitetining prezidenti Derek Bok shunday deb yozadi: "Amerikalik talabalar yoki bizning universitetlarimiz talabalari, shuningdek, millatning o'zi ham oliy ta'lim sifatini oshirishdan va uni yangi innovatsion ta'lim imkoniyatlari bilan ta'minlanishidan manfaatdor" [6;6-b.]. Shuning uchun ham markazlashgan AQSH maorifi doimiy ravishda oliy ta'lim sohasidagi innovatsion yangiliklarni oshirishga yo'naltiradi. Bu borada xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ham AQSH talabalarining intiluvchanligini va innovatsiyalarga rag'bati balandligini alohida yuksak baholaydi.

Finlyandiyaning hayratlanarli yutug'i shundaki, AQSH ta'lim sohasidagi ilmiy innovatsion ta'lim sohasidagi tadqiqotlari natijalarini to'g'ri tahlil qilib, mos tomonlarini o'zlashtirganidadir. Finlyandiyalik olim va "Finlyandiyada Fin ta'lim tizimini o'zgartirishdan dunyo nimani o'rganishi mumkin?" kitobining muallifi Pasi Sahlberg "Huffington Post" nashriga bergan intervyusida, o'z fikrlarini quyidagicha bildirib o'tgan: "Amerikalik olimlar va ularning asarlari Govard Gardnerning Multiple nazariyasi kabi, Finlyandiyada juda katta muvaffaqiyatga erishgan oliy ta'lim tizimini yaratishda katta ta'sir ko'rsatdi [7;17-b.]. Bu to'g'risida boshqa olimlar ham o'z ilmiy izlanishlarida yozib qoldirishgan. Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya va boshqa kelajakka intilayotgan davlatlar ham AQSHning innovatsion ta'lim tizimidagi g'oyalaridan namuna sifatida foydalanadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). AQSHning innovatsion ta'lim tizimini asosiy omillaridan biri, ko'plab ishlab chiqarish tarmoqlari bilan chuqur integratsiyalashishga imkoniyat beruvchi oliy ta'lim tizimidagi juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan laboratoriyalaridir. Amerikaning barcha oliy ta'lim dargohlarida va ilmiy-tekshirish muassasalarida innovatsiya faoliyat bilan shug'ullanishga

imkon beruvchi markazlar va innovatsiyalarni hayotiyligini tekshirish laboratoriyalari ochilgan bo‘lib, jumladan, Kentukidagi oliy ta’lim dargohlarining innovatsiyalar markazlari, NASASTEM Innovation laboratoriyasi, Garvard innovatsion laboratoriyasi, Amerikaning ta’lim bo‘yicha kengashi tomonidan tashkil etilgan prezidentlik innovatsion laboratoriyasi, AQSH Milliy innovatsion ta’lim markazlari va boshqa ko‘plab innovatsion laboratoriyalar va innovatsion ilmiy markazlarni aytishimiz mumkin. Tashkil qilingan labora-toriyalar va innovatsion markazlar oliy ta’lim dargohlaridagi talaba-yoshlarni innovatsion faoliyatini shakllantirishga, shuningdek, shaxsiy va kasbiy muammolarni innovatsion yechimlarini topishga va davlat va jamiyatning nafaqat hozirgi muammolarni, balki kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarning natijalari haqida ham o‘zlarining shaxsiy fikrlari bo‘lishini ta’minlaydi. Bu borada AQSHning Pulitser mukofoti sovrindori va Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti professori Jared Diamond, o‘zining “Collapse: How Societies Choose to Fail or Succeed” kitobida batafsil to‘xtalib o‘tgan [8;97-b.]. Jamiyat o‘zining ehtiyojlarini va talablarini tez va sifatli ravishda qondirilishini istaydi, buning esa yagona yechimi inno-vatsion ta’lim tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zeihan P. The Accidental Superpower: The Next Generation of American Preeminence and the Comung Global Disorder, Twelve Hachette Book Group, New York, NY, 2014.

(2). Science Watch (2009), “Top 20 countries in all fields”, Science Watch, Clarivate Analytics, Philadelhia, PA. available at:http://archive.sciencewatch.com/dr/cou/2009/09decALL (accessed August 6, 2016).

(3). Spangehl S. and Hoffman A. “Perspectives on innovation”, in Hoffman A. and Spangehl S. (Eds), Innovation in Higher Education: Igniting the Spark for Success, American Council on Education, Rowman & Littlefiald Publishers Inc., Lanham MD. 2012, pp. 17–26.

(4). Hoffman A. and Holzhuter J. “The evolution of higher education: innovation as natural selection” in Hoffman A. and Spangehl S. (Eds), Innovation in Higher Education: Igniting the Spark for Success, American Council on Education, Rowman & Littlefiald Publishers Inc., Lanham MD, 2012, pp. 3–15.

(5). Vieluf S., Kaplan D., Klieme E. and Bayer S. Teaching Practices and Pedagogical Innovation Evidence from TALIS, OECD Publishing, Pris, available at:www.oecd.org/edu/school/TalisCeri%202012%20(tppi)–book. pdf. 2012.

(6). Pew Research Center “US students improving – slowly – in match and science, but still lagging internationally”, Pew Research Center, February 2, available at: www.pewresearch. Org/fact-tenk/2015/02/02/u-s-students-improving-slowly– in- match- and- science- but- still- lagging- internationally, 2015.

(7). Strauss V. “Five US innovations that helped Finland’s shools improve but that American reformars now ignore”, The Washington Post, july 25, 2014.

(8). Zhao Y., World Class Learnest: Educating creative and Entepreneurial Students, Corwin, Thousand Oaks, CA. 2012, pp. 246.

Yerjanova Matluba Kamildjanovna (“Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi; E-mail: lyubaerjanovagmail.com)

INKLUZIV TA’LIMGA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JALB ETISH

Annotatsiya*. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayoniga imkoniyati cheklangan bolalarni samarali jalb etishning amaliy mexanizmlari, pedagogik yondashuvlari va o‘zbek ta’lim tizimidagi tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot Qoraqalpog‘iston hududidagi 5 ta umumta’lim maktablarida olib borilgan. Olingan natijalarga asoslanib, inkluziv ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *inkluziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, pedagogik yondashuv, ta’lim muhitini moslashtirish.*

Ержанова Матлуба Камилджановна (старший преподавать кафедры дошкольного воспитания и дефектологии)

ВОВЛЕЧЕНИЕ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются практические механизмы, педагогические подходы и опыт узбекской системы образования по эффективному вовлечению детей с ограниченными возможностями в процесс инклюзивного образования. Исследование проводилось в 5 общеобразовательных школах Каракалпакстана. На основе полученных результатов разработаны рекомендации по дальнейшему развитию инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, педагогический подход, адаптация образовательной среды.*

Erjanova Matluba Kamildjanovna (Senior Lecturer of the Department of Preschool Education and Defectology)

INCLUSION OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the practical mechanisms, pedagogical approaches, and experience of the Uzbek education system in effectively involving children with disabilities in the inclusive education process. The study was conducted in 5 general education schools in Karakalpakstan. Based on the obtained results, recommendations were developed for the further development of inclusive education.*

Keywords*: Inclusive education, children with disabilities, pedagogical approach, adaptation of the educational environment.*

Kirishю So‘nggi yillarda O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini ta’minlash va ularni jamiyatga to‘liq integratsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, inkluziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunidagi o‘zgartirishlar imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olish huquqini mustahkamladi. Ammo amalda ularni inkluziv maktab muhitiga jalb etish jarayonida muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun ham mavjud holatni o‘rganish va samarali yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Alohida yordamga muhtoj bolalarning huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989-yilda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun dunyo mamlakatlari tomonidan ratifykatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” qoidalarini ma’muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kompleks va ko‘p qirrali xarakterda bo‘lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarini qamrab olgan yagona Konvensiyadir [4].

Bu xususda R.A.Suleymenova fikricha, “Agarda nogiron bolalarning o’z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa, ularning imkoniyatlari keskin kamayadi” degan fikrni bildirdi [3;19-b.].

N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy ta’kidlaydilarki, inkluziv ta’lim tayanadigan ijtimoiy modelga ko‘ra, “nogironlikning sababi faqat kasallikning o‘zida emas, balki jamiyatdagi mavjud jismoniy (ijtimoiy tuzilmalar va tartiblarga doir) va tashkiliy (munosabatlarga doir) to‘siqlar, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlardir”.

T.But va M.Eynskouning fikrlaricha, “o‘tkaziladigan islohotlar va o‘zgartirishlarning asosi hisoblanadi, hamkorlikda ishlash g‘oyalariga qo‘shilishadigan, o‘zining barcha ishtirokchilari rivojlanishini rag‘batlantiradigan, xavfsiz va murosali jamoani yaratishga yordam beradi, ta’lim va o‘qitish siyosati va amaliyotini o‘zgartiradi” [3;24–25-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadi: imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablaridagi inklyuziv ta’lim jarayoniga samarali jalb etishning holatini o‘rganish, muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi 5 ta umumta’lim maktabidagi inkluziv ta’lim guruhlari (jami 50 nafar imkoniyati cheklangan bola).

Metodlar:

– anketalash (o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida);

– suhbat (maktab rahbarlari va psixologlari bilan);

– kuzatuv (ta’lim jarayoni davomida);

– statistik tahlil (anketa natijalari asosida).

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida quyidagi asosiy natijalar olindi:

– imkoniyati cheklangan bolalar ishtirok etayotgan sinflarda o‘qituvchilarning 78% inkluziv metodikalar bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligini bildirdi;

–shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning 52% imkoniyati cheklangan bolalarning tashxislari haqida ma’lumotlarga ega emasligi aniqlandi;

– o‘qituvchilarning 64% darslikdagi matariallarini soddalashtirishga va bolalarning imkoniyatini inobatga olishga qiynalishini bildirdi;

–o‘qituvchilarda ushbu bolalar bilan ishlashda 47%da qo‘rqinch hissi borligi aniqlandi;

– ota-onalarning 65% farzandining inkluziv guruhga qo‘shilishidan avval psixologik maslahatga muhtoj bo‘lganini qayd etdi;

–ota-onalardagi xavotir hissi 62%ni tashkil etdi;

– maktab infratuzilmasining faqat 40% imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilgan (pandus, mos hojatxonalar, lift va boshqalar);

– kuzatuv natijasida aniqlanishicha, inkluziv sinflarda tengdoshlar o‘rtasida ijobiy ijtimoiylashuv kuzatiladi, ammo ayrim hollarda ajratilish holatlari ham qayd etilgan (taxminan, 15% holatda).

Xulosa va takliflar. Olingan natijalar respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalarni aks ettiradi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv ta’limga jalb etishda asosiy to‘siqlar quyidagilardan iborat:

1. Kadrlar tayyorgarligi yetarli emasligi. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi inkluziv metodlarni chuqur bilmaydi, ularga doimiy malaka oshirish zarur.

2. Bola bilan munosabat va muloqot o‘rnatishga qiynalish holatlari.

3. Tashxis natijalari haqida ma’lumotlarga to‘liq ega emasligi, ya’ni TPPK jarayonidagi muammolar.

4. Maktab muhitining to‘liq moslashtirilmaganligi. Bu bolalar erkin harakatlanishi, o‘qishi va o‘ynashi uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

5. Ota-onalarning psixologik tayyorligi pastligi. Ota-onalar bilan maxsus trening va maslahat ishlari yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Chet el tajribasida, masalan, Finlyandiya va Kanada maktablarida har bir imkoniyati cheklangan bolaga individual o‘qitish dasturi ishlab chiqiladi va maxsus yordamchi (assistent) biriktiriladi. O‘zbekistonda ham bu kabi yondashuvlarni tatbiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib, imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv ta’limga jalb etish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

– inkluziv ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirishning uzluksiz tizimini yaratish;

– maktab infratuzilmasini imkoniyati cheklangan bolalar ehtiyojlariga to‘liq moslashtirish;

– ota-onalar bilan tizimli psixologik maslahat va treninglar tashkil etish;

– har bir bolaning imkoniyatini inobatga olgan individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish;

–Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to‘liq integratsiyasiga amal qilish;

–binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;

–umumta’lim tizimida ta’lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik bazani yaratish;

–inkluziv ta’limni tashabbuskorlik, mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;

–maktabning ish faoliyatiga inkluziv ta’limni amalga oshirish borasida o‘zgarishlar kiritish;

–umumta’lim muassasa pedagoglarini inkluziv ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlash;

–barcha pedagogika oliy o‘quv yurtlarida va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritilishi;

–korreksion davlat ta’lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishirilgan holatda ishlab chiqish;

–umumta’lim, maxsus maktab pedagoglari, ota-onalar uchun o‘quv-metodik va ilmiy ommabop, ixcham turdagi o‘quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;

–nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam berish;

–imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimida umumiy va korreksion ta’lim olishini ilmiy asoslari, standart talablar, o‘quv-metodik majmualarni yaratish va ta’minlash.

Tadqiqot natijalari inkluziv ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar sifatida ta’lim tashkilotlari faoliyatida qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-qarori.

(2). “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (O‘zbekiston Respublikasi, 2020-yilgi tahrir).

(3). F.U.Qodirova, D.A.Pulatova (Chirchiq, 2022). Inkluziv ta’lim: nazariya va metodika, 259-bet.

(4). UNESCO. (2020). Inclusive education: Global monitoring report.

(5). Saidov N. (2021). O‘zbekistonda inkluziv ta’limni rivojlantirish yo‘llari. Toshkent, “Innovatsiya” nashriyoti”.

Изетаева Гулбахар Кеунимжаевна (доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент, заведующий кафедрой “Программной инженерии и цифровой экономики”, университет Инновационных технологий),
Мухиятдинова Гулпаршын Кайратдиновна (соискатель доктора наук, Нукусский государственный педагогический институт)

ФОРМИРОВАНИЕ НАЧАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В статье рассматривается актуальность раннего обучения младших школьников основам компьютерных технологий в условиях цифровой трансформации Узбекистана. Особое внимание уделено стратегии «Цифровой Узбекистан–2030» и внедрению предмета «Информатика и информационные технологии» с 1-го класса. Описаны возрастные особенности младших школьников, педагогические подходы, методики и организационные условия, необходимые для формирования у детей базовых цифровых знаний и навыков. Подчёркивается значение развития логического и алгоритмического мышления, цифровой безопасности и этики. Представлены примеры уроков и возможные формы организации обучения с учётом технической оснащённости школ. Работа обосновывает необходимость адаптации программ к национальному контексту, языковому разнообразию и культурным особенностям Узбекистана, а также форму-лирует задачи дальнейших научных исследований для повышения эффективности цифрового обра-зования на начальном уровне.*

Ключевые слова *информатика, начальная школа, ИКТ, цифровая грамотность, обучение, Узбекистан, младшие школьники.*

Izetaeva Gulbaxar Keunimjaevna (Innovatsion texnologiyalar universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktiri (PhD), dotsent, “Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri),
Muxiyatdinova Gulparshin Kayratdin qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI HAQIDA DASTLABKI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida kichik yoshdagi o‘quvchilarga kompyuter texnologiyalari asoslarini erta o‘rgatishning dolzarbligi yoritilgan. Ayniqsa, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi va 1-sinfdan boshlab “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining joriy etilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning yoshga xos xususiyatlari, pedagogik yondashuvlar, metodikalar va bolalarda asosiy raqamli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy shart-sharoitlar tavsiflangan. Mantiqiy va algoritmik tafakkurni rivojlantirish, raqamli xavfsizlik va axloqiy me’yorlarga urg‘u berilgan. Maktablarning texnik jihozlanganligini inobatga olgan holda, dars namunasi va ta’limni tashkil etishning mumkin bo‘lgan shakillari keltirilgan. Ushbu ish o‘quv dasturlerini O‘zbekistonning milliy konteksti, til xilma-xilligi va madaniy xususiyatlariga moslashtirish zarurligini asoslab beradi, shuningdek, boshlang‘ich bosqichdagi raqamli ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilagn ilmiy tadqiqotlar vazifalarini belgilab beradi.*

Kalit so‘zlar: *informatika, boshlang‘ich maktab*, *AKT, raqamli savodxonlik, ta’lim, O‘zbekiston, kichik yoshdagi o‘quvchilar.*

Izetaeva Gulbaxar Keunimjaevna (Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Software Engineering and Digital Economy, University of Innovation Technologies),
Muxiyatdinova Gulparshin Kayratdin qizi (Doctoral Candidate, Nukus State Pedagogical Institute)

FORMATION OF INITIAL CONCEPTS OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article discusses the relevance of early education in computer technology for primary school students in the context of Uzbekistan's digital transformation. Special attention is given to the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy and the introduction of the subject “Informatics and Information Technology” starting from grade 1. The article describes the age-specific characteristics of younger students, pedagogical approaches, methodologies, and organizational conditions necessary for developing children's basic digital knowledge and skills. It emphasizes the importance of developing logical and algorithmic thinking, digital safety, and ethics. Examples of lessons and possible forms of organizing instruction are provided, taking into account the technical equipment of schools. The work justifies the need to adapt curricula to the national context, linguistic diversity, and cultural characteristics of Uzbekistan.*

It also outlines the objectives for further scientific research aimed at enhancing the effectiveness of digital education at the primary level.

Keywords: *informatics, primary school, ICT, digital literacy, education, Uzbekistan, younger students.*

Анализ и результаты. Полученные результаты в ходе исследования свидетельствуют о ряде устойчивых барьеров, являющимися препятствием полноценному участию семьи и сообщества в реализации инклюзивного образования в регионе. Один из самых выраженных — низкий уровень информированности родителей: большое количество родителей не знают о своих правах и возможностях получения инклюзивного образования для детей с ОВЗ. Многие родители убеждены, что ребёнок с инвалидностью не может посещать массовую школу, и не обращаются за поддержкой к государственным и негосударственным структурам. Помимо этого, значительная часть педагогов испытывает затруднения в построении конструктивного диалога с родителями, особенно из социально уязвимых слоёв населения. Отсутствие системной подготовки специалистов по вопросам инклюзии, недостаток коммуникативной компетентности и установка на формальный подход мешают налаживанию партнёрских отношений.

При этом, позитивный опыт существует. В образовательных организациях, где проводятся родительские собрания с участием дефектологов, психологов и социальных педагогов, уровень доверия со стороны семей значительно выше. Совместные консилиумы, индивидуальные сопровождения семей, проведение открытых мероприятий, организация родительских клубов позволяют снизить тревожность родителей, сформировать у них чувство сопричастности и ответственности за образовательную траекторию ребёнка. Участие местных сообществ и инициативных групп также демонстрирует положительный эффект. В тех махаллях, где ННО и активисты вовлечены в реализацию инклюзивных проектов, наблюдается рост социальной активности родителей, повышение информированности и появление устойчивых форм самопомощи.

Выводы и предложения. Развитие инклюзивного образования в Каракалпакстане сложно без системной интеграции ресурсов семьи, школы и местного сообщества. Учитывая сложные социально-экологические условия региона, особое значение приобретает формирование устойчивой модели сотрудничества, основанной на принципах равного партнёрства, взаимного уважения и открытого диалога.

Необходимы следующие шаги:

– систематическое просвещение родителей через тренинги, консультации, информационные кампании;

– формирование у педагогов навыков межличностного общения, работа с мотивацией и ожиданиями семей;

– создание родительских инициативных советов и клубов при образовательных учреждениях;

– активизация махаллинских комитетов и ННО в вопросах сопровождения семей с детьми с ОВЗ;

– разработка локальных нормативных документов, регулирующих формы участия родителей в образовательной деятельности;

– внедрение комплексных моделей сопровождения семьи с участием команды специалистов: дефектолога, психолога, социального педагога и др.

Только при объединении усилий всех заинтересованных сторон возможно создание по-настоящему инклюзивной среды, в которой каждый ребёнок, вне зависимости от своих особенностей, будет чувствовать себя принятым, защищённым и способным к обучению и развитию. Вовлечение семьи и сообщества должно быть не факультативным, а структурным элементом инклюзивной политики региона.

Список использованной литературы:

(1). Закон Республики Узбекистан “Об образовании” (новая редакция от 23 сентября 2020, № ЗРУ-637).

(2). Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2021 г. № ПП-5052 «О мерах по дальнейшему развитию инклюзивного образования для детей с особыми образовательными потребностями».

(3). UNICEF Uzbekistan (2022). Inclusive Education in Uzbekistan: Assessment Report. Tashkent: UNICEF Country Office.

(4). ЮНЕСКО (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and education – All means all. Paris: UNESCO Publishing.

(5). Booth T., & Ainscow M. (2011). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE).

(6). Махкамова Г. (2021). Роль семьи в становлении инклюзивного образования в Узбекистане. Журнал “Педагогика и психология”, № 2, с. 45–52.

(7). Салиева, З.Ж. (2023). Инклюзивное образование в Каракалпакстане: вызовы и перспективы. “Наука и инновации в образовании”, №1(19), с. 88–94.

Abdurazakova Shohruza (PhD Candidate at National University of Uzbekistan; E-mail: abdurazakova_sh@nuu.uz)

APPLYING REAL-LIFE RELEVANCE PRINCIPLE IN MILITARY TEACHING: MAIN FACTORS FOR EFFECTIVE LANGUAGE ACQUISITION

Annotation. *This article explores the application of the real-life relevance principle in teaching English as a Second Language (ESL) to military personnel. It emphasizes the importance of aligning language instruction with authentic military tasks, such as command briefings, emergency communication, and intercultural negotiations. Using a mixed-methods approach, the study highlights how task-based learning, authentic materials, and reflective practices contribute to more effective language acquisition. Key findings demonstrate that relevance to operational duties significantly enhances learner motivation,*

confidence, and communication skills. The article provides practical recommendations for curriculum development and calls for further research on the long-term impact of this approach in real-world military contexts.

Keywords: *Military ESL, real-life relevance, communicative competence, task-based learning, authentic materials, intercultural communication, learner autonomy, curriculum development.*

Abdurazakova Shohruza (O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti; E-mail: abdurazakova_sh@nuu.uz)

HARBIY TA’LIMDA REAL HAYOT TAMOYILINI QO‘LLASH: TILNI SAMARALI O‘ZLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilini chet tili (ESP) sifatida harbiy xizmatchilarga o'rgatish uchun real hayotda qo'llanilishini o'rganiladi. Til vazifalarini jamoaviy brifinglar, favqulodda radioaloqa, madaniyatlararo muzokaralar kabi haqiqiy harbiy vazifalar bilan bog‘lash zarurligiga alohida e’tibor beriladi. Maqolada vazifaga asoslangan o‘rganish, haqiqiy materiallardan foydalanish va aks ettirish amaliyotini rivojlantirish tilni o‘zlashtirishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, contentning dolzarbligi o‘quvchilarning motivatsiyasini, ishonchini va muloqot qobiliyatlarini oshiradi. Shuningdek, maqolada harbiy ta’limda real hayot tamoyilini qo‘llsh dasturini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilar uchun ingliz tili, hayotiylik, kommunikativ kompetensiya, vazifaga asoslangan ta’lim, haqiqiy materiallar, madaniyatlararo muloqot, o‘quvchilarning avtonomiyasi, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.*

Абдуразакова Шохруза (докторант Национального университета Узбекистана; E-mail: abdurazakova_sh@nuu.uz)

ПРИМЕНЕНИЕ ПРИНЦИПА СООТВЕТСТВИЯ РЕАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В ВОЕННОМ ОБУЧЕНИИ: ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО УСВОЕНИЯ ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье рассматривается применение принципа жизненной актуальности (real-life relevance) при обучении английскому языку как иностранному (ESL) военнослужащих. Особое внимание уделяется необходимости соотнесения языковых заданий с реальными военными задачами, такими как командные брифинги, радиосвязь в чрезвычайных ситуациях и межкультурные переговоры. Исследование, основанное на смешанных методах сбора данных, демонстрирует, что обучение на основе задач (task-based learning), использование аутентичных материалов и развитие рефлексивных практик существенно повышают эффективность усвоения языка. Выводы показывают, что актуальность содержания повышает мотивацию, уверенность и коммуникативные навыки обучающихся. Представлены практические рекомендации по разработке программ и предложения для будущих исследований в данной области.*

Ключевые слова: *английский для военнослужащих, жизненная актуальность, коммуникативная компетенция, обучение на основе задач, аутентичные материалы, межкультурная коммуникация, автономия обучающихся, разработка учебных программ.*

Introduction. In the context of military training, the necessity of acquiring English as a Second Language (ESL) has grown exponentially, given the diverse linguistic requirements in multinational and multilingual military operations. The communicative approach to ESL emphasizes not only grammatical accuracy but also the relevance of language use in real-life contexts. This principle, often referred to as "real-life relevance," underscores the need for language learning that directly reflects the actual communication demands of military personnel. In military operations, where precision, clarity, and efficiency are crucial, soldiers must acquire a practical command of English to communicate effectively in various operational settings, from command and control exercises to cross-cultural negotiations.

This report examines how the real-life relevance principle, alongside other communicative language teaching (CLT) strategies, can enhance language acquisition in military ESL programs. It explores the main factors contributing to successful language learning in military environments, providing a framework for developing ESL courses tailored to the unique needs of military personnel.

Literature review. Strong theoretical justification for using the real-life relevance principle in military ESL education comes from recent studies in applied linguistics and language teaching. Especially in operational settings needing accuracy, Canale and Swain's (1980) model of communicative competency emphasizes the importance of language learning combining grammatical, sociolinguistic, and strategic skills. Task-based language teaching (TBLT), which improves student involvement and practical skill acquisition—core features in military-oriented activities including command simulations and intercultural

negotiations—is advocated by Ellis (2003) and Nunan (2004). While Byram (1997) stresses the value of intercultural competency, vital in multinational military operations, Harmer (2007) and Brown (2001) stress the motivating power of contextualized, goal-driven learning. Supporting lifetime language acquisition outside the classroom, the sociocultural perspective of Vygotsky (1978) and the autonomy-focused ideas of Little (1991) further validate the integration of real tasks and reflective practices. These pieces taken together provide the basis for matching language education with military reality, therefore ensuring that ESL students gain operational preparedness as well as language competency.

Research methodology. To understand the practical application of the real-life relevance principle in military ESL teaching, a mixed-methods approach was utilized. The study involved both qualitative and quantitative data collection, focusing on a sample of military students enrolled in ESL programs.

1. **Participants.** The study involved military personnel from diverse branches, all non-native English speakers, who were participating in an ESL course tailored to the military context.

2. **Data Collection.**

▪**Surveys** were administered to gauge the perceived relevance and effectiveness of language activities.

▪**Interviews** with military instructors helped to identify how well the real-life relevance principle was integrated into lesson plans.

▪**Observations** were conducted during ESL lessons, specifically looking at the use of task-based learning (TBL) exercises and authentic military scenarios.

3. **Real-Life ESL Exercises.** The curriculum used in this study integrated real-life relevant exercises such as:

▪Command and control drills.

▪Role-playing mission briefings.

▪Radio communication simulations.

▪Intercultural negotiation scenarios.

▪Emergency response role-play.

4. **Analysis Framework**: Data was analyzed based on the following criteria:

▪The extent to which the language tasks aligned with the soldiers' professional responsibilities.

▪The perceived effectiveness of these tasks in developing practical language skills.

▪Learner engagement and motivation in tasks designed to reflect real-life military communication scenarios.

Analysis and results. The study identified several key outcomes related to the application of real-life relevance in military ESL teaching.

▪**Task-Based Learning (TBL) Impact.** Military students reported significant improvement in their ability to use English for practical purposes, such as giving orders, negotiating, and following briefings.

▪TBL exercises that simulated real-life scenarios, such as radio communication or emergency response, received the highest ratings for relevance and applicability to soldiers' roles.

▪**Improved Communication Confidence.** Many participants indicated that role-playing and simulations helped them build confidence in using English in high-pressure environments. This was particularly evident in scenarios requiring concise language, like radio communication drills and command briefings.

1. **Learner Autonomy**:

▪The principle of learner autonomy, which encouraged self-directed language learning through reflective practices, was also cited as an important factor in continued language development, especially during deployment periods when formal classes were unavailable.

2. **Cross-Cultural Communication Skills.** Intercultural negotiation scenarios proved crucial in helping military students develop sensitivity to cultural nuances, an essential skill for working in multinational teams.

The findings suggest that real-life relevance is a critical factor in effective military ESL instruction. By incorporating communicative language principles that emphasize the practical use of English in military contexts, students were better prepared for their specific roles. Several factors contributed to the success of this approach:

1. **Authenticity of Materials.** Using authentic military texts, operational manuals, and real-world communications ensured that students encountered the language they would use in actual operations. This not only improved comprehension but also made the learning process more meaningful.

2. **Task-Oriented Learning.** Each language task was designed with a specific communicative function in mind, aligning with the military's operational requirements. This ensured that the skills acquired in the classroom were immediately applicable to the students' professional responsibilities.

3. **Cultural Sensitivity.** Cross-cultural communication exercises highlighted the importance of cultural competence in military interactions. Understanding cultural differences when negotiating or conducting diplomacy can significantly enhance mission success.

4. **Learner Engagement.** Activities that mimicked real-life scenarios increased learner engagement. Motivated students were more likely to retain language skills and apply them effectively in high-stress environments.

The integration of real-life relevance into military ESL teaching not only enhances language acquisition but also prepares soldiers for practical, operational challenges in multilingual and multicultural environments. This approach ensures that language skills are not just theoretical but are grounded in the specific demands and contexts military personnel face.

1. **Enhanced Motivation and Retention.** Learners in this study showed a high level of engagement when language tasks were directly linked to their professional needs. The emphasis on practical applications such as giving orders, negotiating, and communicating in emergencies motivated soldiers to invest more effort into their language learning.

2. **Importance of Reflective Practice.** Reflective practices were highlighted as essential for promoting continuous language development. By encouraging learners to assess their progress and set goals, the study underscored the importance of fostering autonomy in military ESL learners. This is particularly important in the military context, where language learning often occurs in the field rather than in traditional classrooms.

3. **Recommendations for Military ESL Curriculum Design.** Based on the findings, several recommendations were made for military ESL curriculum designers:

- Incorporating more authentic materials from real-world military operations.
- Expanding task-based learning that simulates real-life military situations.
- Ensuring a strong focus on developing pragmatic and cross-cultural communication skills.
- Promoting learner autonomy through self-assessment and goal-setting activities.

4. **Future Research**: Further research could explore the long-term impact of real-life relevant ESL training on military performance in international operations. Longitudinal studies could help assess how well these language skills transfer to real-world military situations over time.

Conclusion. The application of the real-life relevance principle in military ESL teaching is vital for developing language skills that directly align with the needs and duties of military personnel. Through task-based learning, authentic materials, and a focus on communicative competence, soldiers can acquire the practical language skills necessary for success in diverse operational contexts. By emphasizing the relevance of language to their professional tasks, military ESL courses can contribute to more effective communication, improved mission outcomes, and greater overall efficiency in international military operations.

References:

(1). Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Longman, 2011, pp. 45-72.

(2). Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters. 1997, pp. 34–38; 56–60.

(3). Canale M. and Swain, M., Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980, p. 1–47.

(4). Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.2003. pp. 56–58.

(5). Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2007, pp. 120–145.

(6). Jones, L. The Student-Centered Classroom. Cambridge University Press. 2007. pp. 45–47; 112–114.

(7). Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford University Press. 2011, pp. 102–107; 150–155.

(8). Little D., Learner Autonomy 1: Definitions, Issues and Problems. Authentik. 1991. p. 34–35.

(9). Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press. 2004. pp. 64–68; 145–148.

(10). Richards J.C., Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press. 2006. pp.15–25.

(11). Vygotsky L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978, p. 88.

ILMIY AXBOROT

Zaripova Ranojon Zaripovna (O‘zDJTU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston Respublikasida Xizmat ko‘rsatgan jurnalist)

UCHINCHI RENESSANS DAVRIGA POYDEVOR YARATISHDA IMIJELOGIYA ILMINING AHAMIYATI

Annotatrsiya. *Bugungi axborot globallashuvi davrida media makondagi milliy manfaatlarni himoyalash maqsadida mamlakat imijini yuksaltiruvchi uchinchi renessansni vujudga keltiruvchi insonlarni tarbiyalash hamda korxona, tashkilot imijini yuksaltirish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada imijelogiya ommaviy kommunikatsiya tarkibidagi yo‘nalish ekanligi, imijelogiyaning ilmiy-nazariy asoslari, uning taraqqiyot tendensiyalari, imij texnologiyalari haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *imijelogiya, imijmeyking, imijmeyker, imij, joziba, go‘zallik, xarizma, brend, renessans va idrok.*

Зарипова Раъножон Зариповна (доцент УзГУМЯ, доктор философии по филологии (PhD), Заслуженный журналист Республики Узбекистан)

ЗНАЧЕНИЕ НАУКИ ИМИДЖЕЛОГИИ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ДЛЯ ТРЕТЬЕГО ПЕРИОДА ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация*. В эпоху современной информационной глобализации огромное значение имеет обучение и воспитание людей, которые дают начало третьему ренессансу, поднимающему имидж страны с целью защиты национальных интересов в медиапространстве, а также поднятие имиджа предприятий и организаций. В этой статье предоставляется информация о том, что такое имиджелогия и каким направлением она является в структуре массовой коммуникации,идет речь о научных и теоретических основах имиджелогии, о тенденциях ее развития и о её технологиях.*

Ключевые слова: *имиджелогия, имиджмейкинг, имиджмейкер, имидж, привлекательность, красота, харизма, бренд, ренессанс и восприятие.*

Zaripova Ranojon Zaripovna (Associate Professor at UzSWLU, PhD in Philology)

THE IMPORTANCE OF IMAGEOLOGY IN LAYING THE FOUNDATION FOR THE THIRD RENAISSANCE PERIOD

Annotation*. In the era of today's information globalization, it is of great importance to educate people who give rise to the third renaissance that elevates the image of the country to protect the national interests in the media space, as well as to strengthen the image of enterprises and organizations. This article will explore imagology as a field within the structure of mass communication, its scientific and theoretical foundations, current trends in its development, and the technologies used in image-building.*

Keywords: *imagology, image-making, image-maker, public image, appeal, beauty, charisma, branding, renaissance, perception.*

Kirish (Introduction). Imijelogiya ommaviy kommunikatsiya tarkibidagi bir yo‘nalish bo‘lib, keyingi paytda fan sifatida shakllanib kelyapti. Imijmeyking – fanning atamalaridan biri bo‘lib, uni olimlar atrof-muhitda go‘zal taassurotlar qoldira olish san’atini qamrab olgan ilm, belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun mavjudni o‘zgartirish bo‘yicha kasbiy faoliyat, ya’ni tasvir, qiyofa yaratish ilmi, deya izohlashadi. Imijmeyking obyektlari – shaxs, mahsulot, karxona yoki tashkilot va mamlakat. To‘rtala obyektni namunali imijini yaratishda barkamol insonning roli katta. Oddiy qilib aytganda, imijmeyking ilmining namunali va go‘zal siyrat (ichki go‘zallik) va suvrat (namunali tashqi qiyofa) yaratishga oid bilimlarni qamrab olgan fan deyish mumkin.

Barkamol inson tarbiyalashda, ya’ni, shaxs imijini shakllantirishda esa tashqi ko‘rinish, nutq va muloqot madaniyati, mimika, tana harakatlari kabi individual jihatlardan tashqari ishlaydigan tashkiloti, lavozimi, ish kabineti, unvoni, bilim darajalari, oila a’zolari, do‘stlari, hamkorlari, shaxsiy buyumlari: avtomobil, turar joyi va yashaydigan uyining jihozlanishi hatto ish qurollari (masalan, vizitka, so‘mka-saranjomlik belgisi sifatida) imij shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ya’ni, ushbu omillarning har biri imijning qaysidir qirrasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Allomalarning «Do‘stlaring kimligini aytsang, sening kimligingni aytib beraman», degan iborasi ham bejiz emas. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, birinchi navbatda, shaxsiy imiji asosida belgilanadi. Shuningdek, korxonalar, tashkilotlar, mamlakatlar rahbarlari hamkor tanlayotganda ham bo‘lajak sherikining imijiga e’tibor berishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ilmiy nuqtai nazardan, imijelogiya universal nazariy va amaliy fan bo‘lib, ijobiy taassurot paydo bo‘lishining psixologik qonuniyatlarini va o‘zaro ta’sir qiluvchi subyektlar o‘rtasidagi ishonchli, do‘stona munosabatlarni shakllantirishni o‘rgatadi.

Imijelogiya va imij tushunchasiga bir nechta ta’riflar mavjud. Imijelogiya ilmiy yo‘nalish sifatida hozir o‘zining shakllanish bosqichini boshidan kechirmoqda. Ushbu fan ellik yildan ortiq vaqt davomida qayta ishlab chiqish, aniqlashtirish va qo‘shimcha qilish jarayonida bo‘ldi. Deyarli dunyoning barcha tadqiqotchilari oldida ushbu ilmning mohiyatini ochib berish va uning ta’rifi-tavsifi muammosi turibdi.

Rossiyada imijelogiya faniga asos solgan, akademik, falsafa fanlari, doktori, professor V.M.Shepel fikricha, imijelogiya bir qator fanlar natijalaridan foydalanadigan amaliy kompleks fan sifatida ham qaraladi. Chunki imijelogiya ko‘plab gumanitar va iqtisodiyot fanlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Gumanitar: tilshunoslik, pedogogika, psixologiya, sotsiologiya, estetika, etika (odob-axloq), ritorika, media va boshqalar. Iqtisodiyot: menejment, mahsulot, kompaniya, tashkilot va hokazo.

Imijni o‘rganishning nazariy va amaliy muammolari fanning turli sohalari tadqiqotchilari, jumladan, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning qiziqish mavzusi bo‘lgani uchun ta’riflar tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, imijning turli tomonlarini yetakchi sifatida ajratib ko‘rsatadilar. Hatto, bir xil ilmiy fan doirasida imijelogiya va imijning turli ta’riflarini uchratishingiz mumkin.

Obrazni yaratish (suvrat va siyrat yaratish) va kasbiy faoliyatga aylantirish maqsadida ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika kabi ko‘plab fan va ilm yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, imijelogiya universal nazariy va amaliy fan bo‘lib, ijobiy taassurotning paydo bo‘lishining psixologik qonuniyatlarini va o‘zaro ta’sir qiluvchi subyektlar o‘rtasidagi ishonchli, do‘stona munosabatlarni o‘rganadi, o‘rgatadi.

“Professor V.M.Shepel ushbu fanning predmeti va vazifalarini belgilab berdi, ammo nazariy va uslubiy baza va amaliyotda qo‘llaniladigan texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida hali ham aniq tasavvur to‘laligicha mavjud, deya olmaymiz”.[1]

Demak, imij timsol, obraz, qiyofa ma’nolarini ham anglatadi. Shaxs imiji esa siyrat va suvratni anglatadi. Siyrat insonning ichki qiyofasi, suvrat esa tashqi qiyofasi. Lug‘atlarda ham shunga yaqin ma’nolar ifodalangan: “Imij – biror maqsadlarda shakllantirilgan obraz (masalan, biror-bir shaxs, voqyea-hodisa, narsalarning obrazi) bo‘lib, bunda hissiy-psixologik ta’sir o‘tkazish, ommalashtirish maqsad qilib qo‘yiladi”.[2]

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyotida 2013-yil chop etilgan “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”-da imij so‘ziga yanada kengroq ta’rif beriladi. Ta’rifda imijning barcha yo‘nalishlari qamrab olinishiga harakat qilingan”. Manfatdor shaxslar tomonidan shaxs, jamoa, muassasa, buyum haqida tug‘dirilgan, hosil qilingan taassurot, fikr; kimsaning ruhiy-ma’naviy qiyofasi, obrazi haqidagi; shaxs, shaxslar guruhi, muassasani tavsiflovchi shaxsiy uslub, xulq-atvor”.[3]

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”ning 4-jildida (2022.129-b.) quyidagicha ta’rif beriladi: Imij – shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish va h.k. maqsadlarda odamlarga hissiy-ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlab shakllantiriladigan qiyofasi; targ‘ib qilish vositalaridan biridir”.[4]

Imij so‘zi ingliz tilida image, lotinchada imago – timsol, ko‘rinish degan ma’noni anglatadi. Demak, imij so‘zi o‘zining kelib chiqishidan uzoqlashgan emas. “Большой энциклопедический словар”da ham “Imij (ing image, lotin imago) – shaxs, hodisa, mahsulotni ommalashtirish, reklama qilish kabi maqsadlarida odamlarga hissiy-ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlab shakllantiriladigan qiyofasi; targ‘ib qilish vositalaridan biridir”,[5] deyiladi.

Filologiya fanlari doktori Beruniy Alimov lug‘atdagi talqin, ma’no va fikrlarni e’tirof etgan holda, ularga qo‘shimcha sifatida ”imij so‘zi joziba, maftunkorlik, e’tibor, nufuz ma’nolarini ham anglatishini, imij nafaqat obraz, qiyofa, balki unga nisbatan bildirilgan munosabat va u haqidagi fikrlar majmuyi ham ekanligini qo‘shimcha qilish lozim, deb o‘ylaymiz”, degan fikrlariga to‘la qo‘shilamiz“.[6]

---

[1] Овчинникова А.М., Шульга Н.В. Основы имиджелогии. Конспект лекций. А.М. Овчинникова, Н.В.Шульга, Омский гос.институт путей сообщения. Омск, 2019, с. 5.

[2] Словарь иностранных слов. Санкт-Петербург, Виктория, 2013, с. 227.

[3] Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. T., O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013, 512-bet.

[4] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., 4-jild, 2022, 129–bet.

[5] Большой энциклопедический словарь. М., Большая Российская энциклопедия, 2000, с. 902.

[6] Alimov B. Media makonda milliy manfaatlar. T., “Ta`lim-Media”, 2019, 239-bet.

Darhaqiqat, jozibasiz, fazilatsiz odam o‘zining ijobiy obrazini yaratishi qiyin. Mashhur qo‘shiqchi Sofiya Lorenning shogirdiga so‘zlarini eslaymiz: – “Siz ajoyib ko‘ylak sotib olishingiz, ajoyib soch turmagi qilishingiz va mohirona bo‘yonishingiz mumkin. Biroq joziba fazilati ustida ishlamasangiz, siz manekenga o‘xshab qolasiz. Demak, jozibani faqat tashqi qiyofa bilan o‘lchab bo‘lmaydi”.[1] Ta’bir joiz bo‘lsa, jozibali inson mayin esayotgan, yoqimli shabadaga o‘xshaydi, deya sharhlagan, ta’riflagan bo‘lardik.

Savol tug‘iladi: joziba orttirilgan sifatmi yoki tug‘ma xususiyatmi? “Go‘zallik” va “joziba” tushunchalari o‘xshashmi? Darhaqiqat, kimdir uni joziba, gen orqali beriladi desa, boshqalar uchun bu ko‘p va qiyin harakatlarni o‘zlashtirib olishni talab qiladi, deyishadi. Bizningcha, jismoniy go‘zallik – tabiat in’omi, gendan o‘tadi, joziba esa bu imidjmeykerning tavsiyalariga amal qilish va o‘z ustida ishlash natijasidir. Imijmeykerlarning ham ta’kidlashicha, har bir inson joziba ustida ishlashi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Shaxs imijini yuksaltirishda eng muhim omil jozibadir. Joziba nima? Ushakovning izohli lug‘atida “joziba’ atamasi ikki ma’noda ta’kidlanadi: jozibali, maftunkor, go‘zal ta’sirli kuchga ega bo‘lish, Allohning bergan iste’dodining jozibasi; Insonning biror narsaga maftun bo‘lgan, biror narsaning ta’siri ostidagi holati.[2]

Joziba bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarni aniqlashimiz mumkin. Vizual madaniyat yoki tashqi ko‘rinish, muloqotning og‘zaki, ya’ni, namunali so‘zlashuv madaniyati, xatti-harakatlarning, o‘zini tutishining go‘zalligi, milliy qadriyatlarni o‘zlashtirgan jihati, hayotda tutgan maqomi xususiyatlari, shuningdek, shaxsiy fazilatlar va har qanday sharoitda o‘zini-o‘zi boshqara olishidir.

Jozibadorlikni egallashga bo‘lgan birinchi faktor. Xatti-harakatlaringiz doirasini qayta ko‘rib chiqishdir: yurish, yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar. Sergap bo‘lishdan, umuman, jim turishdan ham qochish kerak, birovning dilini tirnaydigan, ko‘nglini og‘ritadigan “imo-ishoralarni”, xatti-harakatlarni ishlatmaslikka intilish kerak.

Ikkinchidan, yuzning salbiy xususiyatlaridan xalos bo‘lishga harakat qilish lozim. Suhbatdoshingiz bilan gaplashayotganda qovog‘ingizni osish, og‘zingizni jahl bilan burish yoki ko‘zingizni qisib qo‘yish, e’tiborsizlik bilan tinglash kabi salbiy harakatlarni ishlatmaslik tavsiya qilinadi.

Uchinchidan, ovoz-nutq xususiyatlari juda muhim, ovoz ohista, nutq ravon va mazmunli bo‘lish kerak.

To‘rtinchidan, sog‘lom turmush tarzi asosida yashashga intilish kerak, bu sizning kayfiyatingizni, holatingizni, yurish-turishingizni va farovonligingizni yaxshilaydi.

Beshinchidan, har bir inson o‘ziga xos uslubini topishi, hyech kimga taqlid qilmasligingiz kerak.

Suvrat va siyrat yaratish insonga koni foyda. Shaxsiy imijni yaratish jarayonida inson o‘z xatolarini tushunishga, ularni tuzatishga va yanada jozibali bo‘lishga intiladi. Natijada oilasiga, jamiyatga foydasi tegadigan komil inson bo‘lib, shakllanadi.

So‘nggi paytlarda axboriy jamiyatida o‘z imijini yaratish, tasvirning individual xususiyatlarini ta’kidlash, vizual darajada raqobatchilardan ajralib turish muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Agar ilgari siyosatchilar va shou yulduzlarining ushbu kasbga ehtiyoji katta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda ushbu ilm hayotda muvaffaqiyatlarga erishishni istagan har bir kishi uchun ahamiyatli bo‘lib qoldi. Shu sabablarga ko‘ra, shaxs, biznes va siyosiy tuzilmalarning qulay qiyofasini yaratish bo‘yicha xizmatlarni taklif qiluvchi imij yaratuvchilarning kasbiy faoliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

Rus olimlari A.M.Ovchinnikova, N.VShulga fikricha, imijmeyking obyekti: inson, mahsulot, tashkilot deyiladi. Shuningdek, biz unga mamlakatni ham qo‘shamiz. Mustaqil O‘zbekiston uchun, Yangi O‘zbekiston uchun juda zarur faoliyatdir. Xullas, har qanday mamlakat uchun tarix g‘ildiragi aylanib turar ekan, ushbu yo‘nalish hamisha dolzarb bo‘lib qolaveradi. Imijmeyking ilmini shaxs, brend, ya’ni namunali va sifatli mahsulot, tashkilot yoki korxona va mamlakat uchun yaxshi taassurot yaratish faoliyati deb izohlaymiz. Inson uchun esa go‘zal siyrat va suvrat yaratish deb ta’riflash ham mumkin. To‘rtala obyektni birgalakda olganda belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun mavjudni o‘zgartirish bo‘yicha professional mutaxassis – imidjmeyker xizmati kerak bo‘ladi.

O‘tgan davr mobaynida ushbu yo‘nalishda O‘zbekistonda ham ko‘plab ilmiy maqolalar yozildi, jurnalistlarning maqolalari matbuotda e’lon qilindi, shaxs imijini, korxona va mamlakat imijini shakllantirish,

---

[1] Овчинникова А.М., Шульга Н.В. Основы имиджелогии. Конспект лекций. А.М.Овчинникова, Н.В.Шульга, Омский гос.институт путей сообщения. Омск, 2019, с. 10

[2] Ушаков Д.Н. Большой толковый словарь русского языка: современная редакция. Д.Н.Ушаков. М., “Дом славянской книги”, с. 2008.

brendlar yaratish bo‘yicha monografiyalar, amaliy qo‘llanmalar chop etildi. Masalan, filologiya fanlari doktori Beruniy Alimovning “Media makonda milliy manfaatlar” kitobida O‘zbekiston imiji haqida fikr yuritiladi. Farhod Bobojonovning shaxs imijiga oid risolasi mavjud.

Imijning zamonaviy taraqqiyotiga bir nazar tashlasak. Rus olimlari Ovchinnikova A.M., Shulga N.V. fikricha**,** dastlab, Rossiyada imijmeykerlik kasbi demokratik saylovlarning boshlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Rossiyada imijmeykerlik bo‘yicha mutaxassis yo‘qligi sababli birinchi prezidentlik saylov kompaniyasi davrida chet ellik mutaxassislar taklif qilingan.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda imijmeykerlik moda sohasida tez rivojlandi va ushbu mutaxassislar o‘rtasida tanlovlar o‘tkazilyapti. Bugungi kunda imijmeykerlikka bo‘lgan talab teatr va sahna yo‘nalishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biroq ushbu soha uchun imijmeykerlik kasbi yangilik emas. Televideniya, kino san’ati paydo bo‘libdiki, ushbu yo‘nalish doimo bo‘lib kelgan. Ayni kunda ko‘pgina imijmeykerlar telekompaniyalarda, teatrlarda, kinostudiyalarida ishlaydi. Teledasturlarning boshlovchilari va ishtirokchilariga hamda kino, teatr aktyorlari uchun go‘zal tasvirlar, obrazlar, kiyofalar yaratishda ko‘maklashadi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi sartaroshxonalarda ham imijmeykerlik hizmati yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, stilistlar (soch turmagi mutaxassisi), kosmetolog (yuz pardozi mutaxassisi), manikyur-pedikyurchilar (tirnoqlarga ishlov beruvchi mutaxassis) kabilar.

Demak, imij strategiyalarini ishlab chiquvchi mutaxassis esa imijmeyker deyiladi. Imijmeykerga ko‘maklashuvchi mutaxassislar esa stilist, kosmetolog, manikyur-pedikyurchi kabi turli kasb egalaridir.

Tahlil va natijalar. Imijelogiyaning instrumentlari, ya’ni, asosiy vositalarini rus olimlari Ovchinnikova A.M., Shulga N.V. quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lishadi: Pozitsionirovanie, ya’ni maqsadni aniqlash, manipulatsiya (ikki yo‘nalishi mavjud: ijobiy va salbiy), verbalizatsiya (og‘zaki nutq va so‘zlashuv muomala madaniyati). Imijelogiyaning instrumentlaridan yana biri – detalizatsiya (tafsilotlar) yo‘nalishidir, mifolizatsiya (milliy qadriyatlardan, afsonalardan o‘rinli foydalana olish), emotsionalizatsiya (his-hayajonni boshqara olish), distansirovanie – masofani saqlash (xalqaro muomala madaniyatida katta ahamiyatga ega), vizualizatsiya – tashqi qiyofaga e’tibor, idrok modelini joriy etish, ya’ni idrokni kuchaytirib, jozibani yuksaltirish ustida ishlash). Demak, imijmeyker ushbu yo‘nalishlardan imij yaratishda keng foydalanadi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tishni xohlardikki, iste’dodli va mashhur insonlar ham ma’lum ma’noda imijmeyker vazifasini bajaradi. Masalan, Parijda 2024-yil yozida bo‘lib o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya musobaqalarida bayrog‘imiz 26 marta boshlar uzra hilpiradi, dillarni yashnatib mamlakatimiz madhiyasi yangradi. O‘zbekiston nomi baland pafoslarda jarangladi. Sportchilar O‘zbekiston nomini xalqaro maydonlarda ko‘kka ko‘tarishdi. Ularning kasbiy faoliyati imijmeyker emas, quvonarlisi shuki o‘zlarining shijoati, sa’y-harakati, o‘z ustida qat’iy ishlagani, irodasi tufayli shu vazifani ham bajarishdi. Ya’ni, idrok modelini joriy etishi – idrokni, jozibani yuksaltirish ustida muntazam ishlagani uchun mamlakatimizni tanitishga munosib hissa qo‘shishdi. Bu o‘z ustida ishlashning, hayotda o‘z o‘rnini topish yo‘lidagi sa’y-harakatlarining quvonarli natijasi, samarasidir. Bu yo‘nalishda esa ularga murabbiylari yaqindan yordamchi bo‘lishdi. Shuning uchun ularning ustozlarini ham o‘z sohasining imijmeykeri deyish mumkin. Qadimiy qadriyatimiz bo‘lmish – ustoz-shogirdlik an’analarini ham imijmeykerlikka qiyoslasa bo‘ladi. Shuning uchun g‘olib sportchilarning ustozlari ham davlat mukofotlari bilan taqdirlanishdi. Chunki ular shogirdlari faoliyatidagi idrok modelini joriy etish, ya’ni, idrokni, jozibani yuksaltirish ustida ishlashga o‘rgatishgan ustoz maqomiga erishgan insonlardir.

Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida yuksak natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan yana bir guruhi mamlakatimiz Prezidentining 23.08.2024-sanadagi farmoni bilan mukofotlandi: Mamlakatimizda sport sohasiga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan sharoitlardan samarali foydalangan holda, o‘zining azm-u shijoati, yuksak iroda va mahoratini, vatanparvarlik fazilatlarini yaqqol namoyon etib, Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirishdi. Ulardan biri Diyora Keldiyorova. Uning g‘alabasiga bag‘ishlab, “Yapon kurashida yapon qizini ippon usulida yutdi Diyora”[1] degan she’riy madhiyalar ham bitildi. Xalqaro media maydonida Diyora ingliz tilida intervyu berdi. Xalqaro Olimpiya muzeyiga an’anaga ko‘ra, dastxati tushirilgan sport kiyimi qo‘yildi. Uning g‘alabasi bir yonu, o‘zining tutishi, xorij tilida salohiyatli suhbati, odob-ikromi bir yon edi. Bu nafaqat o‘zini, balki o‘zbek sportini, O‘zbekiston imijini ko‘tarishdagi munosib xizmatlari ham, deya ta’kidlash mumkin. Demak, imijmeykerlik faoliyati yurtimizda qadimiy qadriyat bo‘lib, imijmeyker – ustoz, murabbiy, deya atalgan.

Yoshlarimiz uchun Vatanga, el-yurtga faxr tuyg‘usini uyg‘otishiga ko‘maklashadigan yana bir dalilni aytishni istaymiz. Al-Xorazmiy 9 raqamiga bitta 0 ni qo‘shib, bugungi informatika faniga asos soldi.

[1]Nodir Jonuzoq. Yapon kurashida yapon qizini ippon usulida yutdi Diyora. T.: gujum.uz. 25.08. 2024.

Butun jahon ilmiy olami allomani e'tirof etyapti. UNESKO tashkiloti tomonidan allomaning 1200 yilligi Xivada keng nishonlandi. Jahon olimlari XIVAga jam bo'lishdi. UNESKO tomonidan Xiva obidalarini ta'mirlashga milliardlab mablag' ajratildi. Ko'ryapsizmi, ilmning ahamiyatini, buyuklarning sharofatini. Ular fan olamiga qo'shgan ulkan xizmati tufayli mamlakat imijini ming yillar o'tib ham ko'klarga ko'taryapti.

Endi tashkilotning, korxonaning imijini ko'tarish va u ishlab chiqarayotgan mahsulotni brend darajasiga olib chiqish-chi? Bu, albatta, shaxs imijini shakllantirishdan ham qiyinroq, deb aytsa arziydi. Chunki buning uchun butun jamoaning, guruhning sa'y-harakatlari umumlashadi, ya'ni jamoa jipslashishi kerak bo'ladi. Aslida, shaxs imijini qo'tarish bevosita tashkilot, korxona imijini yuksaltirish bilan uzviy bog'lanib ketadi. Mamlakat, tashkilot va mahsulot imijini ko'tarish asosida ham insonning faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mamlakatimizda uchinchi uyg'onish davrini–Renessansni vujudga keltirishga alohida e'tibor berilyapti.

Qadimiy yurtimizda jamiyat talabiga to'liq javob beradigan imiji yuksak shaxs turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib o'z asarlarida uni "tugal er", Forobiy "fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "komil inson", falsafa ilmida esa "har tomonlama rivojlangan shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs" atamalari ham qo'llanilgan. Yangi O'zbekistonimizda uchinchi Renessans ijodkorini tarbiyalash vazifasi milliy masala etib qo'yildi. Ya'ni, birinchi Renessans allomalari–Xorazmiy, Beruniy, Forobi, Buxoriy, Zamaxshariy, ikkinchi Renessans allomalari – Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Behzod kabi buyuk shaxslarni tarbiyalash maqsad-u vazifa qilib qo'yildi. Bu degani uchinchi Renessans ijodkoriga zamon taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib, imijini yuksaltirish talablari qo'yilmoqda. Demak, jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Bu esa inson idrokiga bog'liq.

Idrok esa narsa va hodisalarning his-tuyg'ularga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tamoyillarining inson ongida aks etishi. Inson idroki turlarining tasnifi mavjud:

1) psixik faoliyat shakliga ko'ra, qasddan va qasddan bo'lmagan idrok farqlanadi. Qasddan idrok ongli ravishda belgilangan maqsadga erishishga asoslanadi. Masalan, xorijiy tillardan birini o'rganishga qasd qiladi. Tinimsiz o'qish, izlanish orqali niyatiga yetadi. Qasddan bo'lmagan, ya'ni beixtiyor idrok etish ham mumkin, Alloh bergan salohiyat bilan maxsus qo'yilgan vazifasiz idrok qilinadi. Bunday salohiyatni yunonchada xarizma deyiladi. Allohning tuhfasi marhamati demakdir;

2) idrokka ta'sir etishning tashkiliy darajasi bo'yicha: uyushgan va uyushmagani turlari ham mavjud. Masalan, GUJUM.UZ saytining 17.11.2021-sanasida "Go'zal tashabbus: Uch soatlik bepul maktabga tayyorlov ta'lim guruhlari tashkil qilindi"[1] sarlavhali maqola berilgan. Ushbu xabar idrokka ta'sir etishning tashkiliy darajasi bo'yicha: uyushgan turini tashkil etadi.

Unda shunday xabar beriladi: Yakkasaroy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi 9-, 103 va 530-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir yillik bepul 3 soatlik maktabga tayyorlov ta'lim guruhlari tashkil etdi. Unga 2015-yilda tug'ilgan uyda o'tirgan barcha bolajonlar qabul qilinadi.

Sayt tahririyatidan xulosa ham berilgan. Yakkasaroy tuman hokimligi Matbuot xizmatining ushbu e'loni mamlakatimizning har bir tumanida maktabga tayyorlov guruhlari tashkil qilinganligini bildiradi. E'londa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining manzillari, telefon va rahbarlarining ismi sharifi ham berilgan bo'lib, bu ota-onalarga yanada qulaylik yaratadi. Aziz ota-onalar, mamlakatimizda yaratilgan ushbu imkoniyatdan samarali foydalaning".

Idrokka ta'sir etishning tashkiliy darajasi bo'yicha uyushgan turiga yana bir misol: GUJUM.UZ saytining 31.01.2022-sanasida: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yilning fevral-mart oylari mamlakatimizda "Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha dolzarb ikki oy"[2] deb e'lon qilinganligi haqida Adliya vazirligi axborot xizmati ma'lum qildi. Oyliklar doirasida quyidagilar rejalashtirilgan: Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha ma'lumotlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish; tadbirkor ayollarga huquqiy ko'mak berish uchun Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda hamkorlik memorandumini imzolash; masofadan mavzuli bepul kurslarni tashkil etish va elektron tizimida (kurslar. huquqiyportal.uz) ayollar huquqiga oid bepul onlayn o'quv kurslarini tashkil etish haqida xabar beriladi. Ushbu axborot ham idrokka

[1] Go'zal tashabbus. Uch soatlik bepul maktabga tayyorlov ta'lim guruhlari tashkil qilindi. T.: gujum.uz. 17.11.2021.
[2] Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha dolzarb ikki oylik. T.: gujum.uz.. 31.01.2022.

ta’sir etishning tashkiliy darajasi bo‘yicha uyushgan turi bo‘lib, xotin-qizlar imijini yuksaltirishga qaratilgan.

Imijshunoslikning pedagogika bilan chambarchas bog‘liq asosiy tarmoqlari ajralib turadi: oila, maktabgacha ta’lim, maktab, kollej, oliy ta’lim, harbiylik davri. Rus olimlari Ovchinnikova A.M., Shulga N.V fikricha, eng kam rivojlangan soha bu oila psixologiyasi. Aynan oilada insonning shaxsiyati shakllanadi, inson fazilatlari rivojlanadi. Oilaning roli alohida ijtimoiy-axloqiy qadriyatni ifodalaydi.

Bizning mamlakatda imij so‘zi yangi bo‘lsa-da, oilada komil farzand tarbiyalashga qadim qadimdan alohida e’tibor berilgan. Sharqning birinchi Renessans, ya’ni Uyg‘onish davrida yashagan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari aynan shu masalaga qaratilgan. Sharqdagi ikkinchi uyg‘onish davri ijodkori Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi Farhod va Shirin hamda Shirinning 10 nafar kanizagining har biri bitta ilm sohasining (matematika, tibbiyot, astronomiya, adabiyot, musiqa kabi) yetakchilari bo‘lib, ular Farhodni savolga tutishadi. Yigit barcha savollarga javob berib, komil insonligini namoyon qiladi. Alisher Navoiy o‘n qizdagi fazilatlarning bari Farhod bilan Shirinda mavjudligini ta’kidlaydi. Demak, qadimiy yurtimizda imij so‘zi bo‘lmasa-da, komil farzand tarbiyalash masalasiga juda aqlona yondashilgan. Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” asari oilaviy munosabatlarni, imijni yuksaltirishning go‘zal namunasidir.

Imijelogiya kasbiy faoliyat turlariga ko‘ra, fanning, xalq xo‘jaligining tadbirkorlik, siyosat, tibbiyot, ommaviy axborot vositalari, bank xizmati, maishiy xizmat ko‘rsatish, huquqni muhofaza qilish, diplomatiya kabi turlariga bo‘linadi va ushbu yo‘nalishlarda ham o‘ziga xosliklar juda ko‘p.

Shuningdek, V.M.Shepel boshqaruv imijini alohida ta’kidlab o‘tgan: “Ahamiyati muttasil ortib borayotgan boshqaruv faoliyati inson hayotining barcha jabhalariga kirib boradigan faoliyat bo‘lib, u bilan shug‘ullanuvchilardan munosib tasvir, ya’ni siyrat va suvratga ega bo‘lish talab etiladi. Ushbu talabdan har qanday chetlanish ushbu faoliyatga kasbiy nomuvofiqlik sifatida qaraladi.[1] Bu yo‘nalish ham bizning xalqimiz uchun yangilik emas. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi yuksak madaniyatli, eliga mehribon ijobiy shoh obrazining ta’rifu tavsiflanishi ham bularga misoldir.

Psixologlar E.Bogdanov va V.Zazikin o‘zlarining “Ommaviy munosabatlarning psixologik asoslari”[2] nomli kitobida siyosatda siyrat va suvrat yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha texnologiyalarni keltirib o‘tadilar:

1) nomzodning “ideal qiyofasi” asosida imijni shakllantirish;

2) ssenariy yondashuvi yoki “voqyea seriyasi”ni shakllantirish (bu barcha instrumentlarni, ya’ni, usullarni qo‘llashni bildiradi) bu, ayniqsa, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar siyrati va suvratini shakllantirishda qo‘l keladi;

3) og‘zaki va lingvistik usullardan foydalanish (ya’ni, notiqlik madaniyatini, muomila madaniyatini, chiroyli, ta’sirchan gapira olish madaniyatini egallash) ushbu yo‘nalish imij tilida verbalizatsiya deya ataladi;

4) siyosiy mifologiya usullari – milliy qadriyatlardan, qadimiy afsonalardan foydalanish, ya’ni mifolizatsiya va boshqalar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Suvrat va siyrat yaratishning bir nechta tamoyillarini ajratib ko‘rsatish mumkin: o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini takomillashtirish tamoyili (o‘z imijini yaxshilash); vizual tasvirni(tashqi qiyofa) uyg‘unlashtirish bu diktorlarga, boshlovchilarga, artistlarga, ma’ruzachilarga, siyosatchilarga suv bilan havodek zarurat; kommunikativ va nutqiy ta’sir o‘tkazish bu, ayniqsa, deputatlarga, voizlarga, rahbarlarga kerak; o‘z-o‘zini tartibga solish (shaxsiy hayotini, ish ritmini va atrof-muhit sharoitlarini optimallashtirish).

Xulosa shuki, imijmeykingning to‘rt obyekti bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga ko‘maklashadi, yonma yon yuksalib boradi. Faqat ushbu obyektlarning bir-biriga o‘xshamagan yuksalish omillari, cho‘qqi sari yurish yo‘llari ilmiy til bilan aytsak, imijelogiyaning mazmun-mohiyatidan, yo‘nalishlaridan, o‘ziga xos atamalaridan kelib chiquvchi vazifalari, instrumentlari, texnologiyalari mavjud, ya’ni, imijeologiya vositalari va undan foydalanish usullari, imidj strategiyalari mavjud. Imijelogiya fani nazariyasini, obyektlarini, shaxs imijini, ya’ni siyratini (qalb go‘zalligi) va suvratini (tashqi go‘zalligi) qanday shakllantirish, brend yaratish, korporativ imijni yuksaltirish, boshqaruv texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirgan inson o‘zining ma’nan, ruhan yuksalishiga ham, kasbiy faoliyati doirasini rivojlantirishga ham, mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga ham munosib hissa qo‘sha oladi.

---

[1] В.М.Шепель. Имиджелогия:секрет личного обаяния. М., “Феникс», 1999, с. 52.

[2] Богданов Й.Н., Зазикин В.Г. Психологические основы Pablik rileyshnz. “Питер”, 2003, с. 208.

Ushbu ilm sirlarini egallagan shaxsning oilada ham, jamoada ham, jamiyatda o‘z o‘rni bo‘ladi. Demak, shaxs, tashkilot yoki korxona, mahsulot va mamlakat imijini biri-biri bilan uzviy bog‘liq. Inson jamiyatda yashar ekan, undan ayri yashay olmaydi. Insonning faoliyati tufayli jamiyat, tashkilot, karxona gullab-yashnaydi, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot brendga aylanadi, Brend biznesni yuksaltiradi. Bu esa yuqori daromad, davlat budjetiga mablag‘ degani. Pirovardida mamlakat gullab-yashnaydi. Bularning hammasi imijni, milliy mafkurani, milliy iqtisodiyotni yuksaltirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qisqagina xulosa shuki, imij zamonaviy, xushxulq, ilmli, ziyoli insonni tarbiyalash usuli bo‘lib, inson kamolati orqali tashkilotning, korxonaning, jamiyatning, mamlakatning gullab-yashnashini har tomonlama taraqqiy etishini ta’minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Овчинникова А.М., Шульга Н.В. Основы имиджелогии. Конспект лекций. А.М. Овчинникова, Н.В.Шульга, Омский гос.институт путей сообщения. Омск, 2019, с. 5.

(2). Словарь иностранных слов. Санкт-Петербург, Виктория, 2013, с. 227.

(3). Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. T., O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013, 512-bet.

(4). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 4-jild, 2022, 129–bet.

(5). Большой энциклопедический словарь., М., Большая Российская энциклопедия, 2000, с. 902.

(6). Alimov B. Media makonda milliy manfaatlar. T., “Ta`lim-Media”, 2019, 239-bet.

(7). Овчинникова А.М., Шульга Н.В. Основы имиджелогии. Конспект лекций. А.М. Овчинникова, Н.В.Шульга, Омский гос.институт путей сообщения. Омск, 2019, с. 10.

(8). Ушаков Д.Н. Большой толковый словарь русского языка: современная редакция. Д.Н.Ушаков. М., Дом славянской книги, с. 2008.

(9). Nodir Jonuzoq. Yapon kurashida yapon qizini ippon usulida yutdi Diyora. T., gujum.uz. 25.08. 2024.

(10). Go‘zal tashabbus. Uch soatlik bepul maktabga tayyorlov ta’lim guruhlari tashkil qilindi. T., gujum.uz. 17.11.2021.

(11). Xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha dolzarb ikki oylik. T.: gujum.uz. 31.01.2022.

(12). В.М.Шепел. Имиджелогия: секрети личного обаяния. В.М.Шепел. М., “Феникс”, 1999, 52 с.

(13). Богданов Й.Н. Зазикин В.Г. Психологические основи Паблик рилейшнз. Питер, 2003, 208 с.

Hamroyev Saidjon Sanoyevich (BuxDPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD;
hamroyevsaidjon@buxdpi.uz
Nurxonov Ibrat Jahon o‘g‘li (BuxDPI “Pedagogika va ijtimoiy fanlar” fakulteti talabasi;
ibratnurhonov@gmail.com)

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY ADOLAT VA QONUNCHILIK

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan amaliy qonunlarga asoslangan tizimlar mamlakatning barqaror taraqqiyoti va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi muhim ahamiyati yoritilgan. Bu tizimlar davlat va jamiyatning shaffofligi, ijtimoiy adolat va mustahkam barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, yangi strategiyalar va yoshlar orasida ijtimoiy-huquqiy tarbiya jinoyatchilikni kamaytirish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, maqolada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar orqali barqarorlikni taminlashga qaratilgan qadamlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy adolat, jinoyatchilik, korrupsiya, qonun ustuvorligi, huquqiy tarbiya, Yangi O‘zbekiston strategiyasi, korrupsiyaga qarshi kurashish, barqarorlik, ijtimoiy tizimlar.*

СОЦИАЛЬНАЯ СПРАВЕДЛИВОСТЬ И ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье подчеркивается важная роль систем, основанных на практических законах, направленных на обеспечение социальной справедливости, борьбу с преступностью и коррупцией в Узбекистане, защиту прав граждан в устойчивом развитии страны. Эти системы служат обеспечению прозрачности, социальной справедливости и прочной стабильности государства и общества. Реализуемые в Узбекистане правовые реформы, новые стратегии и социально-правовое просвещение молодежи направлены на снижение преступности и эффективную борьбу с коррупцией. В статье также анализируются шаги, предпринимаемые государством для обеспечения стабильности посредством реформ.*

Ключевые слова: *социалььная справедливость, преступность, коррупция, верховенство закона, правовое воспитание, стратегия Нового Узбекистана, борьба с коррупцией, стабильность, социальные системы.*

THE SOCIAL JUSTICE AND LAWMAKING IN UZBEKISTAN

Annotation. *The systems based on practical actions and laws aimed at ensuring social justice, combating crime, and fighting corruption in Uzbekistan play a crucial role in the country's stable development and the protection of citizens' rights. These systems contribute to the transparency of the state and society, fairness, and strong stability. Legal reforms, new strategies, and social-legal education among youth in Uzbekistan are directed towards reducing crime and effectively combating corruption. Additionally, the steps taken by the government through reforms aimed at ensuring stability are analyzed.*

Keywords: *Social justice, crime, corruption, rule of law, legal education, New Uzbekistan strategy, fight against corruption, stability, social systems.*

Kirish. O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash va jinoyatchilik, korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan amaliy ishlar mamlakatning taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, davlat va jamiyat munosabatlarining shaffofligi, barqarorlik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy adolatning asosini qonun ustuvorligi ta’minlash hisoblanadi. Ushbu qonunlarning hayotga tatbiqi, ularning har bir fuqaro va davlat organlari uchun bir xildagi talablari bo‘lishi kerak. Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunlarga asoslangan tizimlarning ahamiyati shundaki, ular jinoyatchilar va korrupsionerlarning jazosiz qolishini oldini oladi. Bu esa jinoyatchilikning oldini olish va jamiyatda adolatni shakllantirishda muhim omildir. Korrupsiya iqtisodiy va ijtimoiy adolatni buzadi, davlatning samaradorligini pasaytiradi va xalqning ishonchini yo‘qotadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Bashariyat tarixiga nazar solsak, turli davrlarda korrupsiya illati, hatto eng qudratli davlatlarni ham ichidan yemirib, oxir-oqibat, halokatga giriftor qilganiga guvoh bo‘lamiz” [1].

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan amaliy tadbirlar, qonunchilik islohotlari va maxsus organlarning faoliyati korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oqibatlariga qarshi tizimli siyosatlarni amalga oshirish, davlat organlarining shaffofligini ta’minlash, davlat xo‘jaligi va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tartibga solish choralari belgilangan.

Ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri yoshlar bilan ishlashdir. Yoshlar jamiyatning kelajagi sifatida, ularning huquqiy va axloqiy tarbiyasi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb etilishi muhimdir. Yoshlarga huquqiy bilimlar berish, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, kasbiy va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish orqali jinoyatchilikning oldini olish mumkin. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy holatiga va imkoniyatlariga e’tibor qaratish, ularni ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish ham jinoyatchilikning kamayishiga olib keladi.

O‘zbekistondagi ijtimoiy adolatni ta’minlash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan amaliy va qonunlarga asoslangan tizimlarning ahamiyati katta. Bu tizimlar jamiyatda adolat, barqarorlik va ishonchni shakllantirish, davlat organlarining samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular orqali yoshlar va barcha fuqarolarni to‘g‘ri tarbiyalash va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga ko‘maklashish mumkin. Tizimlarning to‘g‘ri ishlashi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun muhim shartdir.

Adabiyotlar tahlili. “Jamiyatda jinoyatchilikning, ayniqsa, odam savdosi, korrupsiya, qiynoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan siyosat davom ettiriladi” [2]. Mamlakatimizda “inson – jamiyat – davlat” tizimi asosida inson manfaatlari va adolat tamoyillari ustuvor ijtimoiy davlat barpo etish hamda xalqning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratib berishga oid islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

2017-yil 2-fevraldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi [3]. Mazkur hujjat o‘z mazmun-mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Qonundan ko‘zlangan maqsad korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Hujjatda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-farmoni [4] asosida 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida aynan oliy ta’lim

sohasida “korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish belgilab qo‘yilganligi mamlakatda kechayotgan har qanday islohotning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, ta’limga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-farmoni bilan tasdiqlangan maqsadlarda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar belgilanganligi alohida qayd etilgan [5].

Transparency Internationalning 2023-yilgi korrupsiya darajasi indeksi, 2024-yilning boshida nashr etilgan bo‘lib, 180 ta mamlakatni 0 (juda korrupsiyaga botgan)dan 100 (juda toza)gacha bo‘lgan ball bilan baholadi. O‘zbekiston 33 ball to‘pladi. Ball bo‘yicha tasniflanganida, O‘zbekiston 180 ta mamlakat ichida 121-o‘rinda turadi, bunda eng birinchi o‘rinda turgan mamlakat eng halol davlat sektori sifatida qabul qilinadi [6].

Korrupsiyaga duch kelgan davlatlar ko‘p bo‘lsa-da, ularda korrupsiya darajasi turlicha. AQSH, Britaniya, Yaponiya, Singapur, Xitoy kabi davlatlarga korrupsiyani aniq kamaytirish va siyosiy jarayonlarga ta’sirini sezilarli darajada pastlatishga erishish muvaffaq bo‘ldi. Bu davlatlarda korrupsiyaga qarshi olib borilgan maqsadga yo‘naltirilgan siyosati va qonunchilik bilan birga tashkilotchilik chora-tadbirlari natijasida ishga tushgan [7]. Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistondagi ijtimoiy adolatni ta’minlash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yangi O‘zbekiston strategiyasi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishga katta e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash, jinoyatchilikni kamaytirish va korrupsiyaga qarshi tizimli kurashish jarayonida yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyatni oshirish va yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadga yo‘naltirilgan huquqiy va ijtimoiy tizimlar jinoyatchilik va korrupsiyaning oldini olishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston strategiyasida huquqiy tizimni yanada taraqqiy ettirish, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qonunlar talablariga javob beradigan, aniq va adolatli mexanizmlar ishlab chiqish talab etilmoqda. Qonunlar fuqarolarni muhofaza qilish, inson huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun asosiy vosita bo‘lishi lozim.

Jinoyatchilikni kamaytirish uchun jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga kompleks yondashish talab etiladi. Jinoyatchilikning oldini olishning samarali usullaridan biri–bu yoshlarning jinoyatchilikka nisbatan ogohligi va ularning ijtimoiy hayotga bevosita jalb qilinishini ta’minlash, shu bilan birga, jinoyatchilikni tushunish va unga qarshi kurashish uchun ijtimoiy tizimdagi muhim elementlar orasida ta’lim va tarbiya o‘z ichiga qamrab olishi shart.

Bu borada yoshlarning huquqiy va ma’naviy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilsa, ular jinoyatchilikdan yiroq bo‘ladi.

–yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, ularning kasb tanlashda erkin va munosib sharoitlarda o‘zlarini rivojlantirishlariga shart-sharoit yaratish;

–yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tadbirlar, sport musobaqalari va san’at ko‘rgazmalari orqali ijobiy tarbiya va faoliyatlarga jalb qilish;

–oila, mahalla va jamoat tashkilotlarini jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish mumkin.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida ijtimoiy adolatni ta’minlash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishga katta e’tibor qaratilgan. Ushbu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun qator tizimli chora-tadbirlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 2-fevralda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda 2019-yilgi farmonlar, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu qonunlar va farmonlar amaliyotda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Masalan, korrupsion huquqbuzarliklarni kamaytirish va ularning oldini olish uchun yangi texnologiyalar va monitoring tizimlari joriy etilgan. Biroq jinoyatchilik va korrupsiyaning to‘liq oldini olish uchun barcha darajadagi davlat organlarida qator shora tadbirlar amalga oshirish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi yanada oshmoqda. 2023-yilda O‘zbekiston Transparency Internationalning korrupsiya darajasi indeksi bo‘yicha 180 mamlakat ichida 121-o‘rinni egalladi. Bu, albatta, yaxshi natija, ammo korrupsiyani butunlay yo‘qotish uchun yana ko‘plab ijtimoiy, huquqiy va

ma’naviy chora-tadbirlar belgilangan. Aholining huquqiy ongi va korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyatini yanada oshirish lozim.

Yangi O‘zbekiston strategiyasi yoshlar o‘rtasida huquqiy va axloqiy tarbiya berishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakatda yoshlarga ijtimoiy faoliyatda qatnashish va ularni huquqiy bilimlarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Talim sohasidagi islohotlar, ayniqsa, oliy ta’limda “korrupsiyasiz soha” loyihalari orqali yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada yoshlar orasida huquqiy ongingiz va korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga bo‘lgan talab oshmoqda.

Ijtimoiy tizimlarni, shu jumladan, yoshlarning kasbiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Ijtimoiy himoya tizimi orqali, oila va jamoat tashkilotlarining ishtiroki bilan jinoiy muhitni kamaytirish va yoshlarni jinoyatga qo‘shilishidan saqlashga erishish mumkin. Hozirda davlatimiz yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, ularni kasb-hunar o‘rganishga va ijtimoiy faollikka jalb qilishga katta ahamiyat bermoqda.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, masalan, Transparency International va BMT bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan faoliyatlar ko‘rish imkonini bermoqda. Xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan treninglar, seminarlarga O‘zbekistonning ishtiroki va xalqaro tajriba almashinuvi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy va ichki tajribalarni taqqoslash mamlakatda korrupsiyani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston strategiyasi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishni rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy hayotidagi roliga e’tibor qaratishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy adolatni ta’minlash va jinoyatchilikni kamaytirish uchun qonunlar, ijtimoiy tizimlar va yoshlar orasidagi ma’naviy-huquqiy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammolarga kompleks yondashish orqali mamlakatda barqarorlik va adolatli jamiyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [матн]. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2024.

(2). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2021, 16-бет.

(3). “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun // https://lex.uz/ docs/308 8008

(4). “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-farmoni // https://lex.uz/docs/4355387

(5). «O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli https://lex.uz/ru/docs/-6600413

(6). “The ABCs of the CPI: How the Corruption Perceptions Index is calculated”. Transparency.org. 20 December 2021. Retrieved 7, April, 2024.

(7). Долгов М.А. Борьба с коррупцией в международном праве. Международно-правовые чтения. Воронеж, 2003, вып. 1, с. 158; 162.

Dehqonboyeva Madina Ablayor qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti tadqiqotchisi; madinadehqonboyeva01gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NOVERBAL VOSITALAR YORDAMIDA MULOQOT TA’SIRINI O‘TKAZISH XUSUSIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada noverbal vositalar, ingliz va o‘zbek tillarida noverbal vositalarning universal va o‘ziga xos jihatlari, ularning muloqotga ta’siri madaniyatlararo kommunikatsiya jihatdan yoritilishi maqsad qilindi. Ingliz va o‘zbek madaniyatidagi noverbal vositalarni taqqoslash maqsadida komparativ, kontrastiv, konseptual metodlardan foydalanildi va natijada ingliz va o‘zbek madaniyatlariga xos kommunikativ uslublar o‘rtasidagi o‘xshashlik yuz ifodalarida, proksemika, tasdiqlash va inkor ma’nosidagi bosh irg‘ish deb topilgan bo‘lsa, ikki xil millat o‘rtasida ko‘zga tik qarash, sukut saqlash, kattalarga hurmat ila salomlashish va ma’lum bir imo-ishoralar ma’nolari farqli deb topildi. Noverbal vositalar so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi samimiylik, ishonchlilik hamda rostgo‘ylikni bildirish, suhbatni yanada ta’sirli, esda qolarli qilishda katta ta’sir ko‘rsatishi sababli, boshqa millat vakillari bilan muloqot qilishdan avval ularning ham o‘z paralingvistik vositalari, etikasidan xabardor bo‘lish, ularni to‘g‘ri qo‘llash muloqot samaradorligini oshirsa, noo‘rin foydalanish tushunmovchilik va madaniy to‘qnashuvga sabab bo‘lishi mumkin, deya xulosa qilindi.*

Kalit so‘zlar: *noverbal vositalar, paralingvistika, proksemika, intonatsiya, kinezika, mimika, dominantlik, universallik.*

Дехканбоева Мадина Аблайор кизи (магистрант второго курса Андижанского государственного института иностранных языков; e-mail: madinadehqonboyeva01gmail.com)

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ КОММУНИКАТИВНЫХ ЭФФЕКТОВ С ПОМОЩЬЮ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Целью данной статьи является освещение невербальных средств, универсальных и специфических аспектов невербальных средств в английском и узбекском языках, а также их влияние на коммуникацию с точки зрения межкультурной коммуникации. Для сравнения невербальных средств в английской и узбекской культурах использовались сравнительный, контрастивный и концептуальный методы, в результате чего было обнаружено сходство коммуникативных стилей, характерных для английской и узбекской культур, в выражениях лица, проксемике и кивках в значении утверждения и отрицания, в то время как значения зрительного контакта, молчания, уважительного приветствия старших и некоторых жестов оказались разными у представителей двух народов. Поскольку невербальные средства оказывают большое влияние на выражение искренности, доверительности и честности между говорящими, делая беседу более эффективной и запоминающейся, был сделан вывод о том, что перед общением с представителями других национальностей важно знать их паралингвистические средства и этику, а также о том, что правильное их использование повышает эффективность общения, в то время как неуместное использование может стать причиной недопонимания и культурных столкновений.*

Ключевые слова: *невербальные средства, паралингвистика, проксемика, интонация, кинесика, мимика, доминантность, универсальность.*

Dehqonboyeva Madina Ablayor qizi (the student of Master's degree of Andijan state foreign languages institute)

THE FEATURES OF TRANSMITTING COMMUNICATION EFFECTS USING NON-VERBAL MEANS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article aims to shed light on nonverbal means, universal and specific aspects of nonverbal means in English and Uzbek, and their impact on communication in terms of intercultural communication. Comparative, contrastive, and conceptual methods were used to compare nonverbal means in English and Uzbek cultures, and as a result, the similarity between communicative styles specific to English and Uzbek cultures was found in facial expressions, proxemics, and nodding in the meaning of affirmation and negation, while the meanings of eye contact, silence, respectful greetings to elders, and certain gestures were found to be different between the two nations. Since nonverbal means have a great impact on expressing sincerity, trustworthiness, and honesty between speakers, making the conversation more effective and memorable, it was concluded that before communicating with representatives of other nationalities, it is necessary to be aware of their paralinguistic means and ethics, and that their correct use increases the effectiveness of communication, while inappropriate use can cause misunderstanding and cultural conflict.*

Keywords: *nonverbal means, paralinguistics, proxemics, intonation, kinesics, mimicry, dominance, universality.*

Kirish. Insoniyat axborot almashinish va olamni tushunish uchun asosiy aloqa vositasi tildan o‘z ehtiyojlarini qondirishda foydalanar ekan, muloqot jarayonida faqatgina og‘zaki yoki yozma matnlar emas, balki lingvistik bo‘lmagan, ya’ni, so‘z ishlatmagan holda noverbal vositalar ham o‘ziga xos axborot tashuvchi sifatida ishtirok etadi. Noverbal vositalar deganda verbal bo‘lmagan, ya’ni, imo-ishoralar, mimika, proksemika, tana harakatlari, intonatsiya va shu kabi elementlar yordamida qo‘shimcha axborot uzatilishi tushuniladi va bu “paralingvistika” (yun. “para”–atrofida, “linguistics”–tilga oid, tilshunoslik) deb ham yuritiladi.

Bugungi globallashuv, turizm jadal rivojlanar ekan, madaniyatlararo muloqot katta ahamiyatga ega. Bunda o‘zga millat vakili bilan samarali muloqot qilish uchun nafaqat verbal, balki noverbal vositalar ham katta rol o‘ynaydi. Ularni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik madaniyatlararo to‘qnashuvga sabab bo‘ladi va kutilgandek natija bermaydi. Shu sababli ushbu tadqiqot madaniyatlararo umumiy va o‘ziga xos bo‘lgan noverbal vositalar hamda ularning ta‘sir xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Paralingvistik vositalar” tushunchasi ilk bor 1644-yilda Angliyada Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo‘lning tabiiy tili va xronologiyasi” asarida o‘rganilgan. Uning tilshunoslikka rasman o‘tgan asrning 20-yillaridan keyin kirib kelib, 50-yillarning oxirida tilshunos Jorj Trager Tashqi ishlar institutida ishlagan vaqtida “Paralingvistika” atamasini yaratdi. Keyingi yillarda ko‘plab olimlar bu sohada chuqur izlanishlar olib borishni boshladi. Ular-

dan biri Mehrabian bo‘lib, inson muloqotida axborot uzatilishida ko‘proq noverbal vositalar ustun turishini aytgan, ya’ni, insonlar ularning aytgan so‘zlaridan ko‘ra, ularning ko‘rinishi hamda o‘sha so‘zlarning qay tarzda aytilishiga ko‘proq ishonishadi, deya fikr yuritgan [1;43-b.].

Bundan tashqari, yana bir olim Maykl Argiyl noverbal vositalarning ijtimoiy hayotda hamda psixologik kontekstlarda qanday ishlashini o‘rgangan va ularni ijtimoiy siganllar deb atagan [2;91-b.]. Insonning xatti-harakatlari uning ijtimoiy roli va maqomini shakllantirishda faol ishtirok etishini E.Gofmen o‘zining sotsiologik kitobida yoritib bergan. Unda insonning boshqalarda qanday taassurot qoldirishi o‘zini qanday tutishiga bog‘liqligi haqida so‘z yurtiladi.

O‘zbek olimlaridan Abdulhamid Nurmonov, Ma’murjon Saidxonov, Muzaffar Qurbonov, Sirojiddin Mo‘minov kabilar ushbu sohada izlanib, o‘z hissalarini qo‘shganlar. A.Nurmonovning fikricha, imo-ishora tili verbal muloqotdan oldin paydo bo‘lgan emas, ular doimo nutq bilan birga qo‘llanilib, uni to‘ldiruvchi, yordam beruvchi qo‘shimcha vosita bo‘lib xizmat qiladi. Imo-ishoaralar verbal muloqotdan dominantlik qilganda ham, baribir, so‘zning o‘rni bilinib turadi [3;161-b.]. Boshqa bir olim, M.Saidxonov esa noverbal vositalar, jumladan, shartli belgilar, morze alifbosi, imo-ishoaralar va boshqalar ular ichida tabiiy til borligini va bu til shu til sohiblari uchun tushunarli bo‘lishini, ularning vazifasidan qat’i nazar, muloqotda ikkilamchi vosita vazifasini o‘tashini ta’kidlagan. Yana bir o‘zbek tilshunosi G‘afforov N. o‘zining “Nutq madaniyati asoslari” nomli asarida ovoz, intonatsiya, pauza kabi paralingvistik belgilarni muloqot mazmunini kuchaytiruvchi vosita sifatida ta’kidlaydi [4;42–45-b.].

Ushbu sohada ko‘p izlanishlar olib borgan ustoz Qurbanov M.ning fikricha, noverbal vositalar, ayniqsa, insonning tana harakatlari axborot almashinish jarayonida olinayotgan ma’lumotlarning qanchalik chin yoki yolg‘on ekanligini aniqlashda xizmat qiladi [5;8-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ingliz va o‘zbek madaniyatidagi noverbal vositalarni taqqoslash maqsadida komparativ va kontrastiv metodlardan foydalanildi. Bunda ikki xil til va madaniyatda umumiy foydalaniladigan noverbal vositalar hamda o‘ziga xos bo‘lganlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, kontekstual metod, ya’ni muloqotda noverbal vositalarning kontekstga bog‘liqligi o‘rganildi. Asosiy e’tibor adresant va adresatlar o‘rtasidagi noverbal harakatlar (mimik, kinesik, proksemik, intonatsion va boshqalar) orqali ifodalanayotgan semantik, emotsional hamda pragmatik ma’lumotlarni aniqlashga qaratildi.

Tahlil va natijalar. Noverbal vositalar deganda, og‘zaki nutq bilan birgalikda yoki undan mustaqil tarzda ishlatiladigan muloqot mazmunini to‘ldiruvchi yoki aniqlashtiruvchi, ba’zida almashtiruvchi belgilar jamlanmasidir. Ular turli olimlar tomonidan turli xil bo‘limlarga, kategoriyalarga bo‘lingan. Asosiylarini sanab o‘tadigan bo‘lsak, kinezika (jismoniy xatti-harakat), proksemika (masofa), mimika (yuz ifodalari), gaptika (teginish), paralingvistik vositalar (intonatsiya, pauza, ohang), ekstralingvistik belgilar (nafas olish, yo‘tal, kulgu, aksirish), okulesika (ko‘z bilan muloqot) va boshqalar.

Ingliz va o‘zbek madaniyatida noverbal vositalarning ishlatilishida umumiylik (ya’ni, ikkalada millatda ham bir xil ma’noni bildiruvchi) hamda o‘ziga xoslik (bir millatdagi ma’no boshqa bir millatda, umuman, boshqacha ma’no tashuvchi noverbal vositalar)ga duch kelamiz. Dastlab, ikki madaniyatda ham ishlatiladigan universal noverbal vositalarni ko‘rib chiqamiz.

Mimika. Yuz ifodalari o‘zbeklarda ham, inglizlarda va boshqa millat vakillarida ham deyarli bir xilda qabul qilinadi. Tadqiqotchi Paul Ekman 1960-yillarda olib borgan izlanishlariga ko‘ra, insonlarning quvonch, hayrat, g‘azab, nafrat va qayg‘u singari asosiy emotsiyalarni yuz ifodasi orqali anglash deyarli bir xil javob qaytarishini aniqlagan [6;39-b.]. Misol uchun, inson quvonganida ko‘zlarimiz qisiqlib, og‘zimiz keng ochiladi, tabassum qilamiz. G‘azab holatida esa qoshlar chimirilib, og‘iz siqiladi, yuz chizig‘i keskinlashadi. Bu yuz ifodalari barcha madaniyatlararo universal desak, yanglishmaymiz.

Bosh, qo‘l hamda tana uzvlarining harakatlari orqali ifodalanadigan noverbal vositalardan boshni oldiga va orqaga silkish, ya’ni, “ha” ma’nosida, yoki boshni chapdan o‘ngga silkitish esa “yo‘q” ma’nosini ifodalashi ikkala xalqlarda ham universal holatdir. Bundan tashqari, qo‘lni silkitib salomlashish, xayrlashish, taqdirlash va yelkani qisish orqali bilmaslik yoki befarqlik belgilari ham o‘zbek va ingliz xalqlari uchun umumiydir. Bu harakatlar bo‘yicha izlanish olib borgan Birdvistl kinezik harakatlarning ko‘pi madaniyatdan madaniyatga farqlansa ham, ba’zi universal turlari ijtimoiy holatdan qat’i nazar, insonlarning umumiy biologik ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli farqlanmasligini ta’kidlagan [7;46-b.].

*Proksemika*da ikkala madaniyatda ham rasmiy va norasmiy muloqotda masofa o‘zgarib turadi. Insonlar o‘zlariga yaqin bo‘lgan insonlar bilan yaqinroq turib gaplashsa, begona yoki yaxshi tanimaydiganlari bilan uzoqroq masofa saqlaydi.

Endi ingliz va o‘zbek tillarida noverbal vositalarning madaniy tafovutlari haqida so‘z yuritamiz. Ingliz tilida muloqot paytida ko‘zga tikka qarash, ya’ni, ko‘z bilan aloqa o‘rnatish ishonchlilik, ochiqlilikni

bildirsa, aksincha, o‘zbek madaniyatida, ayniqsa, kattalarga yoki qarama-qarshi jins vakiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tikilib qarash beadablik, betgachoparlik deb talqin qilinishi mumkin. Masalan, inglizlarda o‘qituvchi o‘quvchiga tikilib qarashi uning diqqatini jamlashga da’vat qilsa, o‘zbek xalqida bu holat tanbeh berish yoki ogohlantirish sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, qo‘llarni tirsakdan bukib bir-birining orasiga o‘tkazish ingliz madaniyatida norozilikni ifoda etsa, o‘zbek millatida bexabarlikni, loqaydlikni bildirish mumkin. Bundan tashqari, inglizlarda “omad tilayman” ma’nosini beruvchi ikkinchi barmoqning uchinchi barmoq orqasiga o‘tkazish ishorasi (finger-crossed) o‘zbeklarda kuzatilmaydi. Salomlashganda ham o‘zbeklar hurmat ifodasini kuchaytirish uchun o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, sal oldinga egilib salom bersa, inglizlar shunchaki qo‘lini silkitib, qisqa ko‘z urishtirish va boshini yengil silkitish holatlari kuzatiladi.

Muloqot jarayonida ishlatilgan noverbal vositalar aytilgan so‘zlarning ma’nosini, ta’sirchanligini yanada oshirishida katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida o‘z fikrini ochiq ifodalash va his-tuyg‘ularni namoyon qilish madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi. O‘zbek xalqida esa, ko‘pincha, hissiyot ifodasi nazorat ostida bo‘ladi. Yana boshqa bir yaqqol tafovut – bu sukut. O‘zbek madaniyatida sukut saqlash hurmat ifodasini bildirsa, ingliz millatida noqulaylik belgisi sifatida qabul qilinadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” asarida Otabekning ota-onasi uning ustidan bir ish qilib qo‘yganini, uylantirmoqchi ekanligini xabarini berganida, Otabek sukut saqlab yerga qarab, “aqlli kishilarning o‘g‘illari ustidan qilgan ishi, albatta, nomaqbul bo‘lmas” deya hurmat ila javob beradi.

Samarali muloqotda verbal va unga hamroh bo‘lgan to‘g‘ri foydalanilgan noverbal signallar ishtirokchilar orasida rostgo‘ylik, ishonchlilik, samimiylik darajasini oshiradi. Agar noverbal signallar so‘z bilan aytilayotgan axborotga zid bo‘lsa, unda, aksincha, suhbatdoshda shubha paydo bo‘ladi. Masalan, bir inson tabassum qilmasdan, “I’m happy to see you” desa, aytgan gapi kinoya ma’nosiga o‘tib ketishi mumkin. Shu sababli noverbal vositalarning to‘g‘ri tanlanishi, madaniyatlararo tafovutlarni ham o‘rganib keyin oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Noverbal vositalarning ishlatilishi ishtirokchilar o‘rtasidagi muloqotni yanada jonlantiradi, esda qolarli va mazmunli qilishiga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, hissiy yuklama va to‘g‘ri kontekstda foydalanilsa, ular bilan uyg‘unlashib, bu vositalar muloqotni ko‘p qirrali qiladi. Masalan, pedagog dars davomida qo‘l harakatlari, yuz ifodalari orqali o‘quvchiga kuchliroq ta’sir qila oladi. Taqdimot davomida ham tinglovchiga tik qarash va tana harakatlari orqali axborot yanada kuchliroq ta’sir qiladi, nutq mustahkamlanadi. Knapp va Hall ta’riflashicha, noverbal vositalarda axborotga ishontiruvchi, ko‘ndiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ular auditoriya diqqatini o‘ziga jalb qiladi [8;276-b.].

Xulosa va tavsiyalar. Noverbal vositalar muloqotning ajralmas qismidir. Ingliz va o‘zbek madaniyatidagi universal hamda o‘ziga xos vositalar ifodalanish shakli, ishlatilish konteksti va semantik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilishi xalqlarning madaniyatiga, tarixiy an’analariga va ijtimoiy tartib-qoidalariga bog‘liq. Ingliz va o‘zbek madaniyatida yuz ifodalari, proksemika, “ha”, “yo‘q” ma’nosidagi bosh irg‘ish umumiy deb topilgan bo‘lsa, salomlashuv, sukut saqlash, ko‘z bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa, omad tilash (finger-crossed) ishorasi farqli deb topildi. Noverbal vositalar muloqot jarayonida mazmunni kuchaytirish, hissiy aloqa o‘rnatish, suhbatdosh bilan ishonchli aloqa o‘rnatish kabi katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash muloqot samaradorligini oshirsa, noo‘rin foydalanish tushunmovchilik va madaniy to‘qnashuvga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mehrabian A. Silent messages, Wadsworth Publishing. 1971, 43 p.
(2). Argyle M. Bodily communication. Methuen. 1988, 91 p.
(3). Nurmonov A. O‘zbek paralingvistik vositalari. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 2012, 161-bet.
(4). G‘afforov N. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2012, 42–45-betlar.
(5). Qurbanov M.A. Noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar. Monografiya, Andijon, “STEP BY STEP PRINT” MCHJ, 2021, 141-bet.
(6). Ekman P., Emotions Revealed. 2003, p. 39.
(7). Birdwhistlell R.L. Kinesics and Context. University of Pennsylvania Press, 1970, p. 46.
(8). Knapp M., Hall A. Nonverbal Communication in Human Interaction, Cengage, 2013, p. 276.

Mustafaqulova Zarifa (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Xorijiy til va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

PEDOGOGIKA SOHASIDA QO‘LLANILADIGAN O‘ZLASHMA SO‘ZLARDA MA’NO KENGAYISHI VA MA’NO TORAYISHI HODISASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola pedogogika sohasida qo‘llaniladigan o‘zlashma so‘zlarda ma’no kengayishi va mano torayishi hodisasi bag‘ishlanadi. Tadqiqotda ingliz tilidan o‘zbek tilidagi ta’lim jarayo-*

niga o‘zlashgan so‘zlarning paydo bo‘lish sabablari, fonetik-morfologik moslashuvi va lug‘atlardagi aks etishi o‘rganiladi. Globallashuv va raqamli ta’limning pedagogik diskursga ta’siri tahlil qilinib, anglisizmlarning ta’lim muhitida qo‘llanilishi va ularning o‘quvchilarning til ongi shakllanishidagi roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik tahlil, pedagogik kontekst, til, madaniyat, pedagogik diskurs, o‘zlashma, leksik o‘zgaruvchanlik, ma’no kengayishi va torayish hodisasi.*

РАСШИРЕНИЕ И СУЖЕНИЕ СМЫСЛА ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СФЕРЕ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. *Данная статья посвящена феномену расширения и сужения смысла заимствованных слов, используемых в сфере педагогики. В исследовании изучаются причины появления заимствованных из английского языка слов в узбекском языке в образовательном процессе, их фонетико-морфологическая адаптация и их отражение в словарях. Анализируется влияние глобализации и цифрового образования на педагогический дискурс, рассматривается употребление англицизмов в образовательной среде и их роль в формировании языкового сознания учащихся.*

Ключевые слова: *лингвистический анализ, педагогический контекст, язык, культура, педагогический дискурс, заимствование, лексическая вариативность, феномен расширения и сужения смысла.*

EXPANSION AND NARROWING OF THE MEANING OF BORROWED WORDS USED IN THE FIELD OF PEDAGOGY

Annotation. *This article is devoted to the phenomenon of meaning expansion and narrowing in* the *borrowed words used in the field of pedagogy. This research studies the reasons for the emergence of words borrowed from English into the Uzbek language in the educational process, their phonetic-morphological adaptation and their reflection in dictionaries. The impact of globalization and digital education on pedagogical discourse is analyzed, and the use of Anglicisms in the educational environment and their role in the formation of students' language consciousness are considered.*

Keywords: *linguistic analysis, pedagogical context, language, culture, pedagogical discourse, borrowing, lexical variability, the phenomenon of meaning expansion and narrowing*

Kirish. Jahon tilshunosligida turli soha vakillarining o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishishida mavjud o‘ziga xosliklar keng miqyosda tadqiq etilmoqda. Keyingi yillarda bu bilan bog‘liq muammolar tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda, ayniqsa, tilshunoslikda paremiyalarni o‘rganish nafaqat tilning genezisini ko‘rish, ma’lum bir xalqning milliy-mentalital stereotiplarini tushunishga imkon bermoqda, balki xalqning muloqot an’analari tarixiga chuqur kirib borish, zamonaviy muloqot an’analarini olamning lisoniy manzarasi hamda olamning folklor modelini bog‘laydigan chuqur ildizlarni ko‘rib chiqish imkoniyatini ham beradi.

Dunyo tilshunosligida nutq egasi tinglovchi yoki o‘quvchiga o‘z fikrini aniq, lo‘nda va tushunarli qilib yetkazishi uchun tilning ta’sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi tobora ko‘proq e’tibor jalb qilmoqda. Ayniqsa, jamoa bilan ishlaydigan, xalq bilan muloqotga tez-tez kirishadigan siyosiy faollar, jumladan, deputatlar, blogerlar, jurnalistlar nutq egasi sifatida ommaviy muloqot uchun qanday lisoniy vositalardan foydalanish samara berishini, nutqdan ko‘zlangan maqsadga eltuvchi, hal qiluvchi tayanch birliklar qaysi ekanligini bilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada paremiyalar – xalq donishmandligi hisoblangan maqol, matal va aforizmlar asosiy lisoniy vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. 1960-yillar boshlarida antropolog Dell Hymes birinchilardan bo‘lib diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan qiziqdi. Olim Diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida tilshunoslikka olib keldi. Dell Hymes fikriga ko‘ra, diskurs og‘zaki nutqda bir birimiz bilan muloqot qilishimizdir. Bu mavzu unda kommunikativ hodisalar (xususan, afsonalar va folklor) kelib chiqishini o‘rganish mobaynida qiziqish uyg‘otdi. Dell fikriga ko‘ra, diskurs bu faqatgina muloqotdir, ammo diskurs nafaqat muloqotni balki matn bilan ham o‘zaro uyg‘unlikda sodir bo‘ladigan holat hamdir.

A.Pardayev e’tirof etishicha, diskurs bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o‘zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs–bu jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishidir.

Diskurs lotincha “discursus” muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni, muhokamatalab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil-isbotli bilim demakdir. Ushbu ta’rifda diskurs muhokama qilish, suhbat qilishdir, deya ta’riflanadi.

Tilshunos Zveginsev g‘arb tilshunosligida keng qo‘llanilayotgan «diskurs» (inglizcha discourse; fran. discours) tushunchasini, dastlab, lisonning gapdan yuqori turadigan sathi sifatida tahlil qildi. Lisoniy faoliyatda «markazga intiluvchi kuch»ning ta’siri mavjudligini e’tirof etgan V.A.Zveginsev, diskursni «bulutlar orqasiga yashiringan lisoniy hudud» deb hisoblagan va bu hodisani lingvistik metodlar vositasida tahlil qilish mumkinligiga to‘liq ishona olmagan edi.

Golland tilshunosi T.A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko‘rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma’noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta’kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o‘rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs actual aytilgan matn, ya’ni, faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo‘llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs – suhbat turi. Deyk tomonidan berilgan ta’rif aniq va tushunarli bayon etilgan. Ko‘rinib turibdiki, diskurs suhbat, diskurs – muloqot va diskurs fikr almashishdir.

Biz Sh.Safarov tomonidan keltirilgan A.Kibrik, V.Plungyanlarning «diskurs, bir paytning o‘zida, ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsulidir» mazmundagi fikriga tayangan holda, diskursni keng ma’noda, ammo oddiyroq, soddaroq tushunishga harakat qilamiz. Demak, diskurs bu insonlarning o‘zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli ma’lumotlarni yetkazishi, ma’lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo‘lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialog ham monolog ham bo‘lishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, har qanday suhbat jarayoni yoki nutq bu diskursdir.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog‘langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlamnoqda. Tilni pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda qo‘llangan:

1) so‘z muqobili;
2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik;
3) nutq vaziyati hisobga olingan holda, fikrkrning adresatga ta’siri;
4) suhbat;
5) nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi;
6) lisoniy birtiklardan foydalanish;
7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
8) matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar.

Mahmudov «gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma’nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik degan qarashga moyillik bildiradi. Uning fikricha, gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi, ya’ni, so‘zlovchi tinglovchiga biror xabarni yetkazganida, tinglovchi tushungan va tasavvur etgan holat hisoblanadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo‘nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Propozitsiya ma’lum gap semantikasida o‘z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi». Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog‘liq baholash xarakteridagi tushuncha bo‘lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

A.V.Zelenshikov esa propozitsiyani quyidagicha ta’riflaydi;

1) haqiqiy ma’noni;
2) gapning mazmuni bo‘la oladigan mavhum mohiyatni.
3) so‘zlovchining intensional (mental) holatini ifodalovchi sifatida qarab, shunday xulosaga keladiki, propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini aks ettiradi va gapda deskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida ifodalanadi. Fikrning haqiqiy ma’nosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan propozitsiyaning namoyon bo‘lish usulini belgilashda so‘zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog‘liq holda rost yoki yolg‘on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e’tibor beriladi.

Tilshunos olim Sh.Safarov ta’biricha, propozitsiya bilimni yetkazishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u axborotni to‘plash va saqlashning kognitiv strukturalari qatoriga kiradi. Ammo propozitsiya hodisasi tahlilida uning axborot tashish xususiyati bilangina chegaralanib qolmaslik darkor. Zero, bu holda ushbu hodisaning kommunikativ belgilari chetda qoladi.

Diskurs turli sathdagi lisoniy birliklar strukturasidan farq qiluvchi o‘z tuzilishiga ega. Diskursning asosiy tuzilish birliklari kommunikativ akt va kognitiv korrelyat (mazmuni boshqa tushuncha bilan munosabatdagina ochiladigan tushuncha)lardan iborat. Kommunikatsiya jarayonida aloqachilarning iyerarxik

maqsadli harakatlari mavjudligi, voqelik xarakteri, aloqachilar faoliyati ko‘rinishlarining ma’lum ssenariylari belgilanadi. Bundan tashqari, har qanday nutqiy hodisa har bir xalq madaniyatining kategorial va ramziy me’yorlari, marosimlar, urf-odatlar, faoliyat usullari bilan bog‘liqligi diskurs jarayonini konvensional jarayon deb hisoblashga imkon beradi. Diskursiv model uchun asos bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy mezonlar quyidagilar:

1. Ijtimoiy kontekst: shaxsiy, umumiy, yuzaki, qat’iy, shuningdek, pozitsiya (o‘rni, mavqeyi, ahamiyat kabi); xususiyat (jins, yosh, axloq kabi); munosabat (muloqot jarayonidagi ustunlik, nufuz), vazifa (ota, uy bekasi, qoralovchi, hisobchi, bog‘bon kabi).

2. Nutqiy aloqa shakllari: munozara, muhokama, yig‘ilish, dialog, eshitish, ommaviy kommunikatsiya va shu kabilar.

3. So‘zlashuv nutqi ko‘rinishlari: suhbat, shaxsiy suhbat, bir piyola choy ustida suhbat, stol atrofidagi suhbat, kasbga oid suhbat, sotuvchi va oluvchi suhbati, konferensiya, munozara, dars, intervyu; konsultatsiya va boshqalar.

Diskursning modeli tuzilishini belgilovchi lingvistik mezonlar turlicha. Bunga nutqning matndagi ichki va matndan tashqari tavsiflarini kiritish mumkin.

1. Konstitutiv (nisbiylik, mavzuga xoslik, uslubiy va tuzilish birligi, fikrning nisbiy tugallanganligi).
2. Janriy-stilistik (uslubga xoslik, janr qonun-qoidalari, me’yoriylik, amplikasiya darajasi (kompressiya).
3. Semantik-pragmatik (nutqning ma’lum obyektga qaratilganligi, muallif obrazi, ma’lumot belgisi, modallik, talqin, intertekstual mo‘ljal.
4. Shakliy-struktur (kompozitsiya, bo‘laklarga ajralish, kogeziya). T.V.Shmelevaning ko‘rsatishicha, janriy tavsif katta ahamiyat kasb etadi.
5. Kommunikativ maqsad (informativlik, imperativlik, etiketli va baholovchi nutqiy janrlar).
6. Mualiif obrazi.
7. Adresat obrazi.
8. O‘tmish obrazi (nutqiy hodisaning o‘tmish bilan bog‘liqligi).
9. Kelajak obrazi (taklif, va’da, taxmin), diktum (voqeli).
10. Mazmun (tushunchalar yig‘indisi, ularning munosabati, vaqtinchalik istiqbol rejasi va diktum voqeani baholash).
11. Nutqiy janrning lisoniy gavdalanishi.

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar sifatida tan olingan pragmatik tilshunoslik tilshunoslikning bugungi kundagi zamonaviy yo‘nalishlaridan hisoblanib, bu ilmiy soha ko‘pchilik tilshunos olimlarda alohida qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Pragmatika sohasining eng muhim kategoriyalaridan hisoblangan diskurs esa bugungi kunda ko‘pchilikni qiziqtirgan va ko‘plab mulohazalarga sabab bo‘lgan mavzudir. E’tirof etilishicha, diskurs bu lotincha “discursus” – muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, *hissiy, bevosita, intuitiv*, ya’ni, muhokamatalab bilimdan farqli o‘laroq, *muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim* demakdir. Olimlarimiz diskurs xususida turli fikrlar bildirib o‘tishgan, bizningcha esa diskurs bu muloqot, fikr almashuv va so‘zlashuv, aniqrog‘i, adresant hamda adresat o‘rtasidagi nutqiy holat hisoblanadi. Diskurs o‘zining presuppozitsiya, implikatura, referensiya va inferensiya kabi kategoriyalariga ega. Biz nutqimizning har bir jabhasida diskurs kategoriyalarining deyarli barchasining qo‘llanilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Yuqorida biz diskurs va matnning umumiy xususiyatlariga sharh berib o‘tdik. Diskurs va matn o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Diskurs kategoriyalarning ishlatilishini biz quyidagi badiiy matnlarda ko‘rib chiqamiz.

Xulosa. Implikatura badiiy adabiyotda ta’sirchanlikni, bo‘yoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Implikatura hodisasi sababli, ba’zan to‘g‘ridan to‘g‘ri ayta olmagan gaplarimizni qisqa va muloyimlik bilan tushuntirishimiz mumkin ekan. Yana bir hayotiy misol, masalan, biz zarur ish yuzasidan boshliqning xonasi oldiga borib, kirishga izn so‘raganimizda, kotiba yonlarida odam bor desa, biz tushunamizki, demak, boshliq band va hozir biz bian suhbatlasha olmaydi. Bu kabi misollarni nafaqat badiiy adabiyotda o‘zimizning kundalik hayotimiz mobaynida ko‘plab qo‘llab kelamiz. Natijalar o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirishga va anglisizmlarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu jarayonlar ta’lim sifatini yaxshilash va global ta’lim standartlariga mos ravishda rivojlanishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2020.
(2). Umurov X. O‘zbek tilidagi xorijiy so‘zlar. Toshkent, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.

(3). Mahmudov N. O‘zbek tilidagi ta’lim terminologiyasi. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018.
www.ziyonet.uz
www.dissnatlib.uz
www.natlib.uz
www.uza.uz
www.edu.uz

Mamarasulov Umidjon (O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi; ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

BADIIY TASVIR VA IFODA VOSITALARINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Erich Mariya Remarkning “Der Weg zurück” (“Ortga yo‘l”) romani misolida metafora, frazeologik birikma va kinoya kabi stilistik vositalarning nemis, rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari tahlil qilingan. Lingvistik va madaniy jihatlar o‘rganilib, tarjima jarayonidagi moslashuvlar va madaniy konnotatsiyalarni yetkazish muammolari yoritilgan. Natijalar stilistik tarjimada til va madaniyat omillarini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokultura, stilistik vositalar, badiiy tarjima, metafora, frazeologizm, o‘zbek tili, nemis tili, rus tili, tarjima nazariyasi.*

Мамарасулов Умиджон (независимый исследователь Национального университета Узбекистана ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В статье анализируются переводы стилистических средств (метафоры, фразеологизмы, ирония) на примере романа Эриха Марии Ремарка «Der Weg zurück» («На обратном пути») и его переводов на русский и узбекский языки. Рассматриваются лингвистические и культурные аспекты, выявлены трудности передачи культурных коннотаций при переводе. Подчеркивается необходимость учета как языковых, так и культурно-контекстуальных факторов.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, стилистические приемы, художественный перевод, стилистические фигуры, метафора, фразеологизмы, узбекский язык, немецкий язык, русский язык, теория перевода.*

Mamarasulov Umidjon (Independent researcher, National University of Uzbekistan; ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

LINGUOCULTURAL ASPECTS OF STYLISTIC AND EXPRESSIVE MEANS

Annotation. *This article analyzes the translations of stylistic devices (metaphors, idiomatic expressions, irony) using examples from Erich Maria Remarque's novel Der Weg zurück ("The Road Back") and its Uzbek and Russian translations. Linguistic and cultural dimensions are explored, highlighting difficulties in conveying cultural connotations during translation. The study emphasizes the importance of considering both linguistic and cultural-contextual factors.*

Keywords: *linguoculture, stylistic devices, literary translation, stylistic figures, metaphor, idioms, Uzbek, German, Russian, translation theory.*

Kirish (Introduction). Badiiy adabiyotdagi tasviriy-ifodaviy vositalar – metafora, tashbeh, kinoya, mubolag‘a, frazeologik birikmalar va boshqa stilistik figuralar – nafaqat muallifning uslubini yoritadi, balki xalqning madaniy va ma’naviy dunyoqarashini ham aks ettiradi [12;63-b.]. Har bir til o‘ziga xos obrazli ifoda vositalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘sha tilga xos bo‘lgan lingvokulturaviy ma’no yuki yuzaga chiqadi. Masalan, metaforalarda abstrakt tushunchalar, ko‘pincha, o‘sha madaniyatga xos aniq obrazlar orqali ifodalanadi [12;64-b.]. Demak, badiiy matndagi stilistik vosita muayyan tildagi milliy madaniy konnotatsiya va kognitiv andozalarni o‘zida mujassam etadi.

Stilistik vositalarni boshqa tilga tarjima qilish murakkab jarayon bo‘lib, bunda tarjimon til va madaniyat oralig‘ida vositachilik qiladi. Bir tildagi obraz yoki ibora aynan tarjima qilinsa, boshqa til o‘quvchisi uchun begona yoki tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Shu sababli tarjimonda ba’zan badiiy ifoda vositalarini adekvat va ekvivalent tarzda qayta yaratish talab etiladi [5;143-b.]. G‘.Salomov ta’kidlaganidek, yaxshi tarjimon asardagi milliy xususiyatlar va frazeologizmlarni tarjimada maksimal darajada aks ettirishga intilishi lozim. Zero, lingvokulturologiya sohasidagi tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, til va madaniyat uzviy bog‘liq. Har bir xalqning tilda qo‘llaydigan badiiy timsollari o‘sha xalqning tarixi, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas aloqador.

Mazkur ishda badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjima jarayonidagi ahamiyati va o‘ziga xosliklari o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida nemis adibi Erich Maria Remarkning Birinchi jahon urushi yakunlari haqidagi “Der Weg zurück” romani [1;69–147-b.] tanlab olindi va uning o‘zbek tilidagi tarjimasi [3;57–124-b.] hamda rus tilidagi tarjimasi (“На обратном пути”. 2021) [2;60–136-b.] bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu asar misolida turli tildagi stilistik birliklarni qiyoslash bir qator sabablarga ko‘ra maqsadga muvofiq, birinchidan, Remark uslubiga xos bo‘lgan kuchli badiiy obrazlar va ifoda vositalari mavjud, ikkinchidan, roman nemis jamiyati va madaniyatiga oid realliklarni aks ettiradi, ularni o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchilik va yechimlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan qimmatli ma’lumot beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy tarjimada uslubiy vositalarning saqlanishi va o‘zgarishi xalqaro tarjimashunoslikda keng o‘rganilgan. Nemis olimi Verner Koller ekvivalentlik nazariyasi va badiiy uslubni tarjimada qayta yaratish masalalarini tadqiq qilgan. Rus tadqiqotchisi Yuriy Lotman badiiy matnlarning semiotik jihatlariga, Andrey Fyodorov esa uslubiy o‘zgarishlar va ularni hal qilish usullariga e’tibor qaratgan. Ingliz tarjimashunosi Lourens Venuti tarjimonning uslubiy tanlovlari tarjimaning originalga yaqinligini belgilashini ta’kidlagan. So‘nggi tadqiqotlarda Mamadjanova Maftunaxon epitetlarni, Azimova Muxayyo giperbola, meyozis va litotani, Turaxonova Xosiyatxon esa Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” tarjimasidagi lingvopragmatik xususiyatlarni tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu izlanishda qiyosiy-taqqoslama lingvistik tahlil usuli qo‘llandi. Avvalo, Remarkning “Der Weg zurück” asaridan stilistik jihatdan e’tiborga molik parchalar va iboralar tanlab olindi. Keyin ular muallifning rus tilidagi tarjimasi va o‘zbek tilidagi tarjimasi matnlari bilan qadam-baqadam solishtirildi. Tanlangan misollar qatoriga metafora, metonimiya, mubolag‘a, frazeologik iboralar, stilistik takror va boshqa bir qator ifoda vositalari kiritildi. Har bir misol uchun nemischa original matn, uning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari o‘zaro taqqoslanib, morfologik, sintaktik va semantik o‘zgarishlar tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari va tamoyillariga tayanildi. Jumladan, L.S.Barkhudarovning tarjimada ekvivalentlik darajalari haqidagi qarashlari va tarjima transformatsiyalari nazariyasi qo‘llanildi [4]. Shuningdek, G‘.Salomov [5], I.G‘afurov, N.Qambarov [6] kabi olimlarning o‘zbek tarjimashunosligidagi ishlanmalari ham metodologik asos sifatida qabul qilindi. Masalan, G‘.Salomov asarlarida tarjimada shakl va mazmun yaxlitligini saqlash, frazeologizmlarni tarjima qilish yo‘llari haqida berilgan tamoyillar mazkur tadqiqotda stilistik vositalarni tarjimada qayta yaratish masalasini yoritishda qo‘l keldi.

Metodologiyaning muhim qismi sifatida lingvokulturologik yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuvda har bir stilistik birlikning asl til madaniyatidagi o‘rni va ma’nosi tahlil qilinib, til madaniyatidagi ekvivalenti qidirildi. Masalan, metaforik ibora nemis tilida qanday madaniy konnotatsiya bersa, uning o‘zbek tilida shunga yaqin yoki funksional ekvivalentini topish jarayoni kuzatildi. Bunda tarjimonning qarori, ya’ni aynan tarjimada qanday strategiya tanlagani ham tahlil qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida foydalanilgan matnlar: Remark asarining asl nemischa nashri [1;69-147-b.], uning ruscha tarjimasi [2;60–136-b.] va o‘zbekcha tarjimasi [3;57–124-b.]. Zarur bo‘lgan hollarda, boshqa manbalardagi nazariy ma’lumotlarga murojaat qilindi. Xususan, G.V.Panning “Deutsche Stilistik” (2010) darsligi va N.M.Naerning nemis tili stilistikasi bo‘yicha asarlaridan nemis tilidagi stilistik vositalarning turlari va xususiyatlariga oid ma’lumotlar olindi. Shuningdek, Barkhudarov (1975) va S.Florin kabi tarjimashunoslarning madaniy realiyalarni tarjima qilish va ekvivalentlik nazariyasiga oid fikrlari tahliliy asbob sifatida xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tahlil shuni ko‘rsatdiki, nemis, rus va o‘zbek tillarida badiiy ifoda vositalaridan foydalanish sezilarli farqlarga ega. Quyida ayrim topilmalar misollar bilan keltiriladi.

Nemis tilida uchraydigan barqaror iboralar va metaforalar, ko‘pincha, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma’no yo‘qotadi yoki g‘alati eshitiladi. Masalan, Remark asarida qahramon tinch uy sharoitini tasvirlab: “Es ist so schön, wie es nur sein kann” [1;78-b.] deb yozadi. Bu ibora rus tiliga “Лучше и быть не может” [2;69-b.] tarzida, o‘zbek tiliga esa “Odamga baxt uchun yana ne kerak!” tarzida tarjima qilingan [3;64-b.]. Ruscha tarjima asl ibora ma’nosini to’g‘ridan to‘g‘ri aks ettirsa, o‘zbekcha tarjimada milliy ohang seziladi. Gap ritorik savol shaklida, maqolga xos ohangda ifodalangan. Bu o‘rinda o‘zbek tarjimoni asl iborani o‘zbek o‘quvchisi dunyoqarashiga yaqinroq tarzda qayta yaratgan. Natijada asl matndagi hissiyot – “bundan ortiq go‘zallik yo‘q” degan ma’no – o‘zbek o‘quvchisi uchun “baxt uchun boshqasi kerak emas” degan tushunchada ta’sirli yetkazilgan.

Bundan tashqari, asarda urush yillaridagi Germaniya hayotiga oid madaniy realiyalar ham uchraydi, masalan, Kartoffelpuffer – kartoshkali quymoq [1;128-b.], Eichelkaffee – eman yong‘og‘idan qahva [1;78-b.] yoki Kanarienvogel – kanareyka qushi [1;78-b.]. Ruscha tarjimada Kartoffelpuffer uchun “картофельные оладьи” [2;68-b.], o‘zbekcha tarjimada esa “kartoshka quymoq” [3;64-b.] atamasi ishlatilgan. Eichelkaffee ruscha tarjimada “желудевый кофе” [2;68-b.] deb bevosita tarjima qilingan, o‘zbekcha tarjimada esa birmuncha erkin “cho‘chqayong‘oq qahvasi” [3;64-b.] deb berilgan. E’tibor qilinsa, o‘zbek tilida “eman yong‘og‘i” tushunchasi uncha keng tarqalmagani tufayli, tarjimon cho‘chqayong‘oq iborasini tanlagan, bu esa o‘zbek o‘quvchisi uchun mazmunan tushunarliroq. Bunday moslashuv lingvokulturaviy tafovutni bartaraf etishga xizmat qiladi. Har uchala tilda mazkur realiya ifoda etilsa-da, o‘zbek tilida konnotativ ma’no o‘quvchiga aniqroq yetadi.

Tarjima jarayonida ba’zan atoqli otlarni o‘zgartirish ham kuzatildi. Remark asarida askarlardan birining iti Wolf deb ataladi [1;78-b.]. Rus tarjimoni bu nomni o‘zgartirmasdan Вольф [2;68-b.] tarzida qoldirgan bo‘lsa, o‘zbek tarjimoni it nomini “Bo‘ribosar” deb bergan [3;106-b.]. “Bo‘ribosar” so‘zi o‘zbek tilida bo‘ri ovlovchi it ma’nosini anglatadi [15;417-b.], asl nomdagi ma’noni ham, itga xos xususiyatni ham o‘zida mujassam etadi. Bu yerda tarjimon nomni transliteratsiya qilish o‘rniga, uning ma’nosini aks ettiruvchi ekvivalent nom tanlashga intilgan. Natijada o‘zbek o‘quvchisi uchun bu personaj nomi begona ism emas, balki ma’noli bir obraz sifatida qabul qilinadi. Bunday o‘zgarish, albatta, tarjima erkinligining namunasi bo‘lishi bilan birga madaniy va uslubiy adekvatlikni oshirishga xizmat qilgan.

Nemis tili so‘z yasashda qo‘shma so‘zlarga boy. Masalan, asarda “Achselklappenabreißer” [1;74-b.] kabi murakkab so‘z uchraydi. So‘zma-so‘z “pogon yulib oluvchi” – kontekstda harbiy unvonlarni yulib tashlaydigan kimsalar, ya’ni harbiy unvonlardan voz kechgan isyonchilardir. Ruscha tarjimada bu murakkab tushuncha “срыватели погон” [2;65-b.] deb ikki so‘z orqali berilgan, o‘zbekchada esa “pogonlarini yulib tashlaydiganlar” [3;61-b.] kabi ibora bilan ifodalangan. Demak, nemis tilidagi murakkab yasalma so‘zlarni tarjima qilishda rus va o‘zbek tillari grammatik imkoniyatlaridan kelib chiqib, analitik usuldan foydalangan. Yana bir misol, nemis tilida “zwanzigste I.D., Verdun [1;74-b.] kabi qisqartma va harbiy terminlar bor. O‘zbekcha tarjimada bu joyda “Yigirmanchi piyoda askarlar diviziyasi. Verden” [3;62-b.] tarzida to‘liqroq tushuntirilgan. Bu holat ham morfologik va terminologik moslashuvni ko‘rsatadi. Tarjimon nemis tilidagi qisqa, tarkibiy ifodani o‘zbekcha ravon jumlaga aylantirgan.

Remark matnida jangchi askarlarning og‘zaki nutqiga xos qo‘pol va hissiy ifodalar uchraydi. Masalan, ular bir guruh qochoq askarlarni masxara qilib, “ihr Säuglinge!” ma’nosida, ya’ni tajribasiz go‘daklar [1;74-b.] deya haqoratlashadi. Ruscha tarjima buni “недоноски” [2;65-b.] degan so‘z bilan bergan, o‘zbekchada esa tarjimon rang-barang xalqona ibora ishlatib, “jibla-jibonlar” deb tarjima qilgan [3;62-b.]. “Jibla-jibon” so‘zi o‘zbek tilida kichkina, ojiz odamga nisbatan aytiladigan uyaltiruvchi ifoda bo‘lib, so‘z o‘yiniga ega. Bu tarjimada rus tilidagi yechimga qaraganda kuchliroq ekspressiv ta’sir qiladi, chunki takrorlangan ohang va ohorli tovush mosligi bilan haqoratning hissiy bo‘yoqlari kuchaygan. Bunday holda tarjimon matndagi ekspressiv ruhni saqlash uchun aynan lug‘aviy ekvivalentdan ko‘ra maqsad til imkoniyatidagi funktsional ekvivalentni izlaganini ko‘ramiz. Natijada asl matndagi hissiy ekspressiya o‘zbekcha tarjimada boshqacha til vositalari ohang va xalq orasida keng tarqalgan ibora yordamida yetarli darajada ifodalangan.

Tahlil davomida aniqlangan stilistik vositalarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar quyidagilardan iborat.

Ba’zi hollarda maqsad tilida asl matnadagi obrazga to‘liq mos keladigan ekvivalent yo‘q. Masalan, nemis tilidagi Kartoffelpuffer uchun o‘zbek tilida tayyor atama yo‘q edi. Tarjimon deskriptiv usul bilan “kartoshka quymoq” deb atagan. Xuddi shunday Säugling haqorat ma’nosida o‘zbek tilida ishlatilmagani bois “jibla-jibon” kabi yangicha ifoda topilgan. Bu holatlar tarjimada leksik ekvivalentlikka erishish qanchalik og‘ir kechishini ko‘rsatadi.

Stilistik vositalar, ko‘pincha, madaniy asosga ega bo‘ladi, masalan, cho‘chqayong‘oq qahvasi Germaniyada urush paytida haqiqiy qahva o‘rnida ichilgan ichimlik hisoblanadi. Tarjima paytida bu madaniy ishora yo‘qolib ketmasligi uchun tarjimon qo‘shimcha tushuntirish, ekvivalent realiya yoki izohdan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bizning misollarda rus tarjimon “сахарозаменитель” [2;68-b.] kabi tushunchalarni qo‘shimcha qilgan bo‘lsa, o‘zbek tarjimonda bunday izohlarni kamroq ko‘ramiz. Ehtimol, tarjimon soddaroq usul tanlab, ba’zi detallarni tushirib qoldirgan yoki umumlashma bilan bergan.

Nemis tili grammatik imkoniyatlari rus va o‘zbek tillaridan farq qiladi. Tarjima jarayonida jumlalarni qayta tuzish, murakkab gaplarni bo‘laklash yoki bir nechta oddiy gaplarga ajratish talab qilindi. Masalan, nemis tilidagi uzoq murakkab gaplar rus va o‘zbek tillarida bo‘linib, mantiqan ikki-uch gapga aylantirildi.

Bu sintaktik o‘zgartirishlar tarjima mazmunini saqlash bilan birga, maqsad tilida ravonlikni ta’minlash uchun qilingan.

Asl matnda harbiylar nutqiga xos qo‘pollik, hazil aralash ohang, rasmiy-uslubiy ohang kabi turli registrlar mavjud. Tarjimada ushbu ohanglarni saqlash katta mahorat talab etdi. Masalan, askarlarning haqoratomuz gaplarini tarjima qilishda o‘zbek tilida ham shunga yaqin darajadagi hissiy ta’sirga ega so‘zlarni topish kerak bo‘ldi. Rasmiy xabar ohangidagi gaplarda rus tilida odatiy yurishma iboralar qo‘llanib, o‘zbekchada esa qisqa va aniq ifoda berildi. Uslubiy muvozanatni saqlash tarjimon uchun doimiy masala bo‘lib, u matnning turli qismlarida turlicha hal etilgan.

Yuqoridagi qiyinchiliklarning barchasi tarjimonlardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tarjimashunoslik nazariyasida ta’kidlanishicha, tarjimon asl matnni o‘z tilida qayta yaratish bilan shug‘ullanadi. U asl matn mazmunini, g‘oyasini, hissiyotini o‘z tilidagi vositalar bilan yangidan konstruksiya qiladi. Bizning kuzatishlarimiz ham shuni tasdiqlaydiki, ayniqsa, badiiy tarjimada tarjimon ijodkor sifatida harakat qiladi. U ba’zan dramaturg, ba’zan shoir, ba’zan, madaniyatshunos kabi qarorlar qabul qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olib borilgan tadqiqot natijalari bir qancha xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Xususan, badiiy tasvir va ifoda vositalari har bir tilda o‘sha xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu bois ularni tarjima qilganda faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki mazkur vositaning madaniy qiymatini ham hisobga olish kerak. Tadqiqotda ko‘rilgan misollar o‘zbek, rus va nemis tillarida turlicha shakl va ma’noga ega bo‘lib, ularning tarjimasida oddiy ekvivalent almashtirish, ko‘pincha, yetarli bo‘lmadi.

Tarjima – ijodiy qayta yaratish jarayoni. Tarjimon asl matndagi stilistik vositalarni tilga ko‘chirar ekan, ko‘pincha, ularni qayta yaratadi. Bu jarayon davomida u transformatsion o‘zgarishlar qilishga majbur bo‘ladi, masalan, murakkab so‘zni sodda qilib berish, iborani boshqacha konstruksiyaga aylantirish, bir ma-daniy realiyani boshqasiga almashtirish kabi [6;108-b.]. Maqolada keltirilgan “Wolf – Bo‘ribosar”, “Säug-linge – jibla-jibonlar” kabi o‘zgartirishlar tarjimonning ijodkorlik yondashuvi natijasi bo‘lib, o‘quvchida originalga yaqin ta’sir uyg‘otishga qaratilgan.

Stilistik birliklarni tarjima qilishda lingvokulturologik tahlil katta yordam beradi. Bu tahlil vositasida tarjimon asl birlikning qaysi madaniy qavatga tegishli ekanini anglab oladi va unga maqsad til kulturasi ichidan mos nuqtani qidiradi [12;63–67-b.]. Tadqiqot davomida shu narsa aniq bo‘ldiki, masalan, nemischa ibora askarlar hayotiga oid jargon bo‘lsa, o‘zbek tilida ham shunga yaqin jargon yoki xalqona iborani topish kerak. Bu usul tarjimani jonlantiradi va tabiiylashtiradi.

Tarjima jarayonida to‘la ekvivalentlikka erishish ideal maqsad bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘pincha nisbiy ekvivalentlik bilan cheklaniladi. Tarjimon ba’zi jihatlarni qurbon qilish evaziga boshqa jihatlarni saqlab qoladi. Bizning holatda ruscha tarjimada, iloji boricha, mazmun va obrazlar saqlangan, o‘zbekchada esa tushunarlilik va ta’sir kuchi maqsadida ba’zi tafsilotlar tekislangan yoki o‘zgartirilgan. Bu ekvivalentlikning turli darajada namoyon bo‘lishidir. Muhimi, har ikki tarjima ham o‘z maqsad auditoriyasi uchun qabul qilinarli va samarali bo‘lib chiqdi, ya’ni funksional ekvivalentlikka erishildi.

Ushbu tadqiqot natijalari stilistika va tarjimashunoslik sohasida bir qator amaliy tavsiyalarni ilgari surishga imkon beradi. Jumladan, stilistik vositalarni aniqlash va tahlil qilish bo‘yicha ikki tilli joriy etmalar ro‘yxati tuzish, tarjima jarayonida madaniy realiyalar uchun izoh va lug‘aviy qo‘shimchalardan foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, tarjima asarlarini tahrir qilishda stilistik silliqlik va tabiiylikka alohida e’tibor berish, kerak bo‘lsa, originalga qattiq bog‘lanib qolmasdan, maqsad til stilistikasini ishlatishga ruxsat berish.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvokulturologik aspektlarini o‘rganish nafaqat tarjimon uchun, balki, umuman, tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham foydalidir. Zero, bunda biz tilning chuqur qatlamlarini tahlil qilamiz. Turli tillar va madaniyatlar misolida bunday tadqiq qilish dunyo tillarining rang-barangligi va tarjimaning mo‘jizakor ijod ekanini yana bir karra tasdiqlaydi. Tarjima – millatlararo muloqot ko‘prigi, stilistik vositalar esa o‘sha ko‘prikdagi bezak va ustunlardir. Ularni puxta va did bilan “qurish” har bir tarjimonning vazifasi, har bir tadqiqotchi esa bu jarayonga o‘z hissasini qo‘shishda davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Remark, E.M. Der Weg zurück. Berlin: Im Propyläen-Verlag, 1931, 289 s.
(2) Ремарк Е.М. На обратном пути (rus tiliga tarjima E.Shukshina). Москва, AST, 2021, 352 с.
(3). Remark, E.M. Ortga yo‘l (o‘zbek tiliga tarjima S Saidmurodov). Toshkent: “Factor books”, 2022, 320-bet.
(4). Barkhudarov, L.S. Language and Translation. Москва, “Международные отношения”, 1975.

(5). Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978.
(6). G‘afurov I., Mo‘minov, O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012, 216-bet.
(7). Pan, G.V. Deutsche Stilistik. Nemis tili stilistikasi. Toshkent, 2010, 280-bet.
(8). Naer, N.M. Stilistik der deutschen Sprache (manba: ilmiy maqolalar to‘plami, 2000-yillar).
(9). Sandig, B. Stilistik der deutschen Sprache. Berlin–New York, Walter de Gruyter, 1986.
(10). Sandig, B. Probleme einer linguistischen Stilistik. Linguistik und Didaktik, Heft 3, 1970, s. 177–194.
(11). Sushko, N.I. Ekspressiv-stilistik ma’nolarni tarjimada yetkazish muammolari. Ilmiy to‘plam maqolasi, Minsk, 2018.
(12). Toshmatova, S. Badiiy tasviriy vositalarning lingvokulturaviy tadqiqi. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika jurnali, 2024, № 2 (6), 63–67-betlar.
(13). Комиссаров В.Н. Слово о переводе. Москва, “Международные отношения”, 1973.
(14). Nida, E. Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 1964.
(15). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T., “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 680-bet.

Atajonova Maloxat Ilxamovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi; malohatatajonova@gmail.com)

MAYL VA OHANG UYG‘UNLIGIDA KOMMUNIKATIV MAQSADINING IFODASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Charlotte Brontëning “Jane Eyre”asari misollarida gapning maqsadga ko‘ra turlarida mayl va ohang uyg‘unligi tahlil qilinadi. Intonatsiya nutqning ohangli, musiqiy qismi sifatida gapning ma’nosi, so‘zlovchining niyati va emotsional holatini ifodalashda muhim vosita ekanligi ko‘rsatiladi. Maqolada darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplarining intonatsion xususiyatlari, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi intonatsion farqlar va o‘xshashliklar solishtiriladi. Intonatsiyaning lingvistik va kommunikativ funksiyalari, shuningdek, til o‘rganish va tarjimada qo‘llanilishi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *intonatsiya, kommunikativ gap turi, emotsional holat, Charlotte Brontë, Jane Eyre, lingvistik tahlil, nutq ohangi, til o‘rganish, tarjima.*

Атаджанова Малохат Ильхамовна (старший преподаватель, государственный университет имени Abu Rayhan Beruniy; malohatatajonova@gmail.com)

ВЫРАЖЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ЦЕЛИ В СОЧЕТАНИИ МОДАЛЬНОСТИ И ИНТОНАЦИИ

Аннотация. *В данной статье на примерах произведения Шарлотты Бронте «Джейн Эйр» анализируется согласование наклона и интонации в различных типах предложений в зависимости от их коммуникативной цели. Показано, что интонация, являясь мелодической и музыкальной частью речи, является важным средством выражения смысла предложения, намерения говорящего и его эмоционального состояния. В статье сопоставляются интонационные особенности повествовательных, вопросительных, побудительных и восклицательных предложений, а также сравниваются интонационные различия и сходства в английском и узбекском языках. Обсуждаются лингвистические и коммуникативные функции интонации, а также её применение в изучении языка и переводе.*

Ключевые слова: *интонация, коммуникативный тип предложения, эмоциональное состояние, Шарлотта Бронте, Джейн Эйр, лингвистический анализ, тон речи, изучение языка, перевод.*

Atajonova Malokhat Ilkhamovna (senior teacher Urgench State university named after Abu Rayhan Beruni; malohatatajonova@gmail.com)

THE EXPRESSION OF THE COMMUNICATIVE PURPOSE IN THE COMBINATION OF MODALITY AND INTONATION

Annotation*. This article analyzes the combination of mood and intonation in different types of sentences according to their communicative purpose, using examples from Jane Eyre by Charlotte Brontë. It is demonstrated that intonation, as the melodic and musical component of speech, is an important means of expressing the meaning of a sentence, the speaker’s intention, and their emotional state. The article compares the intonational features of declarative, interrogative, imperative, and exclamatory sentences, as well as the intonational differences and similarities between English and Uzbek. The linguistic and communicative functions of intonation are discussed, along with its application in language learning and translation.*

Keywords: *intonation, communicative sentence type, emotional state, Charlotte Brontë, Jane Eyre, linguistic analysis, speech tone, language learning, translation.*

Kirish. Intonatsiya – nutqning ohangli, musiqiy qismi bo‘lib, gapning ma’nosini, so‘zlovchining niyatini, shuningdek, emotsional holatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Gapning kommunikativ turi darak (bayon), so‘roq, buyruq, hayrat va boshqa turdagi gaplar intonatsiya yordamida aniq belgilanadi. Bu jihat nutq tahlilida, tilshunoslikda va tarjimada katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarda til vositalari, jumladan, gaplar, o‘ziga xos uslubiy va estetik funksiyalarni bajaradi. Ular yordamida muallif o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini, qahramonlarning xarakterini va voqea-hodisalarni jonli va ta’sirchan tarzda ifodalaydi. Shuningdek, badiiy matnda undov gaplar, elliptik gaplar, asindeton kabi uslubiy vositalar qo‘llanilib, gapning kommunikativ va emotsional kuchi oshiriladi.

Badiiy asarlarning gapning kommunikativ maqsadini aniqlashdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

▪Gap orqali muallifning niyati va kayfiyati ifodalanadi, bu esa o‘quvchiga matn mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

▪Gaplar yordamida matnning butunligi va mantiqiy bog‘lanishi ta’minlanadi, bu esa matnni yaxlit kommunikativ birlik sifatida qabul qilishga yordam beradi.

▪Badiiy uslubning ekspressiv va tasviriy xususiyatlari orqali gaplarning kommunikativ vazifasi kengayadi, ya’ni, ular faqat axborot berish emas, balki estetik zavq berish va emotsional ta’sir ko‘rsatish uchun ham xizmat qiladi.

▪Noverbal va stilistik vositalar yordamida gaplarning kommunikativ maqsadi yanada boyitiladi, bu qahramonlarning xarakterini ochib berishda, voqealar atmosferasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot materiali sifatida Charlotte Brontëning “Jane Eyre” romanidan olingan ingliz tilidagi dialoglar va ichki monologlar tanlandi. Ushbu matn namunalarining o‘zbek tiliga tarjimalari ham tahlil qilindi, bu ikki til o‘rtasidagi intonatsion xususiyatlarni taqqoslash imkonini berdi. Tahlil metodlari sifatida ingliz tilidagi intonatsiyaning pragmatik funksiyasini tahlil qilishda sifatli va miqdoriy tahlil usullari, nutq aktlari nazariyasi va kontekstual tahlil metodlari keng qo‘llaniladi

Natijalar. Intonatsiyaning fonologik asoslari va gap turlarini belgilashdagi roli. Intonatsiya – ovozimizdagi balandlikning ko‘tarilishi va pasayishi – ma’noni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.[1] Intonatsiya gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. “Jane Eyre”dagi misollar shuni ko‘rsatadiki, darak gaplarda intonatsiya tushuvchi ohangda bo‘ladi, bu gapning oddiy axborot berish yoki tasdiqlash niyatida ekanligini bildiradi. So‘roq gaplarda esa intonatsiya ko‘tariladi, bu savol berish yoki javob kutish niyatini ifodalaydi.[2] Asar ichidan tahlilga tortilgan jumlalarda ba’zan ko‘tariluvchi yoki pasayvchi intonatsiya turlarining qo‘llanilishi personajning norozilik, shubha, qat’iyatlilik kabi ruhiy holatini ham ochib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, intonatsiya nutqning ohangli, musiqiy qismi sifatida nafaqat gapning kommunikativ turini aniq belgilaydi, balki so‘zlovchining niyati, emotsional holati va ruhiy kechinmalarini ham jonli va aniq ifodalaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi dialoglar va ichki monologlar tahlili orqali intonatsiyaning universal va tilga xos xususiyatlari aniqlanib, uning lingvistik va kommunikativ funksiyalari yanada ravshanlashdi.

Gap turlarining intonatsion xususiyatlari darak gaplarda tushuvchi, so‘roq gaplarda ko‘tariluvchi, buyruq va iltimos gaplarida baland va qisqa intonatsiya – so‘zlovchining niyati va gapning maqsadini aniq ko‘rsatishda muhim vosita ekanligi isbotlandi. Shuningdek, intonatsiya yordamida personajlarning ichki ruhiy holati, masalan, norozilik, shubha, hayrat, qat’iyatlilik kabi emotsiyalar aniq ifodalanadi. Bu esa adabiy matnni yanada jonli, ta’sirli va chuqurroq anglash imkonini beradi.

Gap turlarining intonatsion farqlari. Darak gaplar. Tushuvchi intonatsiya bilan ifodalanadi. Masalan: “I am not deceitful: if I were, I should say I loved you; but I declare I do not love you: I dislike you the worst of anybody in the world”[3](“Men yolg‘onchi emasman: agar bo‘lganimda, sizni yaxshi ko‘raman derdim; lekin ochiq aytaman, men sizni yaxshi ko‘rmayman: men sizni dunyodagi eng yomon odamdan ham yomon ko’raman”). Ushbu gapda intonatsiya pasayadi, bu esa gapning oddiy axborot berish va qat’iylikni bildirishi hisoblanadi.

[1] https://assets.cambridge.org/97805218/65241/index/9780521865241_index.pdf

[2]https://coehuman.uodiyala.edu.iq/uploads/Coehuman%20library%20pdf/English%20library%D9%83%D8%AA%D8%A8%20%D8%A7%D9%84%D8%A7%D9%86%D9%83%D9%84%D9%8A%D8%B2%D9%8A/phonetics/Prosodic%20Systems%20and%20Intonation%20in%20English.pdf

[3] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf

So‘roq gaplar. Oxirgi so‘z balandroq aytiladi, intonatsiya ko‘tariladi. Masalan: “Can I help you, sir?”[1] (Sizga yordamlashsam bo‘ladimi, janob?) Ushbu so‘roq gapda intonatsiya ko‘tarilishi so‘rov va tashvishning ifodasidir.

▪**Buyruq va iltimos gaplar.** Intonatsiya baland va qisqa bo‘lib, qat’iyatlilik va talabni bildiradi. “Help!” (Yordam bering!) yoki “Speak!”(Gapiring!) kabi buyruqlarda bu aniq seziladi.

▪**His-hayajon gaplari.** Intonatsiya baland va tez o‘zgarib, emotsional kuchni oshiradi: Masalan: “You, Jane? You astonish me!”[2] (Siz, Jeyn?” “Meni hayratda qoldirdingiz!”).

Asarda janob Rochester tomonidan aytilgan ushbu jumlalarda hayrat va ajablanish ifodalanadi. “Siz, Jeyn?” so‘roq gapida baland ko‘tariluvchi ohang, ikkinchi “Meni hayratda qoldirdingiz!” his-hayajon gapida esa baland tushuvchi ohang qo‘llanilgan. Bunda so‘zlovchi kuchli his-hayajon bilan gapirganligi uchun ushbu ohang turi ishlatilgan. Biroq kuchsiz his-hayajonni ifodalaydigan gaplarda past tushuvchi ohangdan foydalaniladi.

Intonatsiyaning kommunikativ funksiyasi va niyatlarni ifodalashdagi roli. Intonatsiya og‘zaki tilning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki u ma’no ifodalaydi. Shuning uchun intonatsiyani hisobga olmagan har qanday og‘zaki nutq nazariyasi yetarli emas deb qaraladi va nutq transkripsiyasida intonatsiyaning hech bo‘lmaganda muhim jihatlari qayd etilmasa, u yetarli yoki hattoki chalg‘ituvchi bo‘lib qoladi. Biz intonatsiyasiz gapira olmaymiz.[3] Intonatsiya gapning kommunikativ turini belgilab, so‘zlovchining niyatini aniq ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplarda intonatsiyaning pragmatik funksiyasi ularning asosiy maqsadini ifodalash va so‘zlovchining munosabatini bildirishdan iborat. Intonatsiya gapni shakllantirib, uning tugallanganligini ifodalaydi va boshqa gaplardan ajratib turadi. Intonatsiyaning pragmatik funksiyalari quyidagilardan iborat:

Darak gaplarda asosiy funksiyasi axborot berishdir. Intonatsiya orqali xabar, ya’ni aniqlik (xabar) maylidagi fe’l bilan ifodalanadi.

So‘roq gaplarda ma’lumot so‘rashni bildiradi. Bunday gaplar alohida intonatsiya bilan aytiladi va so‘roq mazmuni bilan bog‘liq so‘zda ohang ko‘tariladi. So‘roq gaplar turli ma’no va his-tuyg‘ularni, shuningdek, so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Buyruq gaplarda da’vat etish, undash yoki buyurish maqsadida ishlatiladi . Buyruq gaplarda undov belgisi (!), nuqta qo‘yilgan buyruq gaplarga qaraganda, ma’noni kuchaytiradi.

His-hayajon gaplarda (undov gaplar) kuchli his-hayajonni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bunday gaplarning ifoda kuchi ko‘proq intonatsiya va undov so‘zlar orqali oshiriladi . Intonatsiya so‘zlovchining ma’lum vaziyatdagi kayfiyatini, ruhiy holatini anglatishi mumkin . Agar darak yoki buyruq shaklidagi gap his-hayajon bilan aytilsa, uning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. Bu yozma nutqda ohangni ifodalash uchun zarur, chunki tinglovchiga gapning mohiyati yetib borishi kerak Masalan: “Do you love me?” (Meni yaxshi ko’rasizmi?”) so‘roq gapida intonatsiya ko‘tariladi, “I do.”(Ha.)darak gapida tushadi, “Then why do you hesitate?”(“Unda nega ikkilanasiz?) so‘roq gapida yana ko‘tariladi. Bu intonatsiya o‘zgarishlari so‘zlovchilar o‘rtasidagi munosabat va niyatlarni yanada aniqroq ko‘rsatadi.

Intonatsiya personajlarning ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini aniq aks ettiradi. So‘roq gaplarda intonatsiyaning ko‘tarilishi tashvish, shubha yoki umid kabi emotsiyalarni bildiradi. Masalan, Jeynning “Do you think I am an automaton?”[4] (Siz meni jonsiz mashina deb o‘ylaysizmi?”) degan so‘roq gapida intonatsiyaning ko‘tarilishi uning ichki iztirobi va noroziligini ifodalaydi. Shuningdek, intonatsiya orqali gapdagi hissiy yuk (shubha, norozilik, o‘zini anglash) yanada kuchayadi. Bu savoli orqali Jeyn o‘z-o‘zini tanqid qilish yoki o‘zini insoniylikdan mahrum deb his qilish holatini ifodalaydi, bu esa kontekstda personajning ichki psixologik holatini ochib beradi. Ushbu misolda intonatsiya nafaqat gapning savol ekanligini ko‘rsatadi, balki gapdagi hissiy va semantik mazmunni chuqurlashtiradi, gapning kommunikativ turini aniqlashda va uning semantik-hissiy mazmunini etkazishda muhim rol o‘ynaydi.

His-hayajon gaplarida intonatsiyaning baland va tez o‘zgarishi personajning hayajon yoki ajablanishini kuchaytiradi. Buyruq gaplarda esa baland va qisqa intonatsiya qat’iyatlilik va irodani ko‘rsatadi. Charlotte Brontëning “Jane Eyre” asari bunday tahlil uchun boy material hisoblanadi, chunki unda ko‘plab dialoglar va ichki monologlar mavjud bo‘lib, ular intonatsiyaning turli jihatlarini ochib beradi. Bunda yangi

[1] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf
[2] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf
[3] https://www.paultenchdocs.co.uk/wp-content/uploads/2013/08/intonation_and_categories_of_meaning.pdf
[4] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf

yoki urg‘u berilayotgan axborot intonatsiya yordamida ajratiladi. Masalan, “It is YOU I am speaking to.”[1] (Men aynan SIZ bilan gaplashyapman”) gapida “you” so‘zi balandroq aytilib, e’tibor qaratiladi. Ayni jumlada, mantiqiy urg‘u turidan foydalanilgan bo’lib, bunda gapdagi qaysi so’zni ajratib ko’rsatish so’zlovchining ixtiyoriga bog’liq bo‘ladi va so‘zlovchining niyatini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Intonatsiyaning universalligi va tilga xos xususiyatlari. “Jane Eyre” asarining ingliz va o‘zbek tilidagi dialoglari tahlilida so‘roq gaplarda intonatsiya ko‘tarilishi, darak gaplarda esa tushishi ikki til uchun ham umumiy xususiyat ekanligi aniqlandi. Bu intonatsiyaning til o‘rtasidagi universalligini ko‘rsatadi. Masalan: “Will you forgive me, Jane?”[2] (Meni kechirasizmi Jeyn?) Ikkala tilda ham tinglovchining javobi kutilayotgan ushbu so‘roq gaplarda intonatsiya ko‘tariladi, bu esa ikkala til o’rtasidagi universallikni ko‘rsatadi.

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intonatsiya nafaqat gapning kommunikativ turini belgilashda, balki personajlarning ichki ruhiy holatini ochib berishda ham muhim vositadir. “Jane Eyre” asaridagi dialog va monologlar intonatsiyaning lingvistik va kommunikativ funksiyalarini yorqin namoyon qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi intonatsion xususiyatlarning o‘xshashligi intonatsiyaning universal til elementi ekanligini tasdiqlaydi. Badiiy matnda intonatsiya personajlarning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini va niyatlarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Bu esa tarjima va nutq tahlilida intonatsiyaning ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, intonatsiyaning axborot tuzilmasidagi roli gap ichida yangi yoki urg‘u berilayotgan axborot intonatsiya orqali ajratilib, so‘zlovchining e’tiborni qayerga qaratishini aniq ko‘rsatishdan iborat. Bu tilshunoslikda nutq tahlilining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, nutqni yanada samarali va tushunarli qiladi. Shunday qilib, badiiy asarlar gapning kommunikativ maqsadini aniqlashda tilning nafaqat axborot beruvchi, balki estetik va emotsional funksiyalarini ham o‘rganishga imkon yaratadi, bu esa matnni to‘liq va chuqur tushunishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, intonatsiya gapning kommunikativ turini aniqlashda, so‘zlovchining niyati va emotsional holatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi, shuningdek, u tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixolingvistika va tarjima nazariyasi kabi fanlar doirasida chuqur tadqiq etilishi zarur bo‘lgan murakkab va ko‘pqirrali fenomen sanaladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brontë C. (1847). *Jane Eyre*. Smith, Elder & Co.
(2). Crystal D. (1969). *Prosodic Systems and Intonation in English*. Cambridge University Press.
(3). Ladd, D.R. (2008). *Intonational Phonology* (2nd ed.). Cambridge University Press.
(4). Pierrehumbert, J. (1980). *The Phonology and Phonetics of English Intonation*. PhD dissertation, MIT.
(5). Tench, P. (1997). The fall and rise of the level tone of English. Functions of Language 4/1, p. 1–22.
(6). Wells, J.C. (2006). *English Intonation: An Introduction.* Cambridge University Press.

Nosirova Arofat Erkinovna (ToshDO‘AU mustaqil tadqiqotchisi; arofat.nosirova@mail.ru)

O‘ZBEK TILIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING INGLIZ VA RUS TILLARIGA TARJIMA USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paremiologik birliklar maqol, matal va iboralarning o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda qo‘llanadigan tarjima usullari va duch kelinishi mumkin bo‘lgan muammolar yoritiladi. Maqolaning amaliy qismida o‘zbek tilidan bir necha maqol va iboralar tanlab olinib, turlicha tarjima qilinganda ularning tarjima variantlaridan foydalanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi va eng maqbul tarjima usullari taklifi beriladi.*

Kalit so‘zlar*: paremiologiya, parema, maqol, matal, ibora, analogik tarjima, ekvivalent tarjima, tasvirlash, adekvat tarjima.*

Носирова Арофат Эркиновна (независимый исследователь ТашГУУЯЛ)

МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКИЙ И РУССКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация. *Данная статья посвящена методам перевода паремиологических единиц, таких как пословицы, поговорки и выражения, с узбекского языка на английский и проблемам, которые могут возникнуть в процессе перевода. В практической части статьи выбрано несколько пословиц и выражений из узбекского языка, какие варианты перевода следует использовать при переводе.*

[1] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf
[2] https://www.ucm.es/data/cont/docs/119-2014-04-09-Jane%20Eyre.pdf

***Ключевые слова**: паремиология, паремия, пословица, поговорка, фраза, аналогический перевод, эквивалентный перевод, описание, адекватный перевод.*

Nosirova Arofat Erkinovna (Independent researcher of TashSUULL)

METHODS OF TRANSLATING PAREMIOLOGICAL UNITS FROM UZBEK LANGUAGE INTO ENGLISH AND RUSSIAN

***Annotation.** This article is devoted to the translation methods of paremiological units, as proverbs, sayings and expressions from Uzbek into English and the problems that may arise during translation procedure. In the practical part of the article, several proverbs and expressions from the Uzbek language are selected, which translation options should be used when translated in different ways and the most optimal translation methods are presented.*

***Keywords**: paremiology, paremia, proverb, saying, idiom, analogical translation, equivalent translation, description, adequate translation.*

Kirish. Avvalo, tarjima tillar orasidagi vositachilikka yo‘naltirilgan o‘ziga xos adabiy faoliyat, ya’ni tillarning rang-barang xususiyati asosida paydo bo‘ladigan madaniyatlararo to‘siqni yengib o‘tish jarayonidir. Tarjima faoliyati juda keng qamrovli bo‘lib, uning ishtirokisiz hayotimizning biron-bir jabhasini tasavvur qilish mushkul bo‘ladi. Tarjima millatlararo to‘siqni yengishning eng muhim omili bo‘lib, tarjima orqali turli elatlarga oid ilmiy, badiiy, adabiy, psixologik, tibbiy va hokazo olimlar, shoirlar, yozuvchilar va boshqa ilm namoyondalari tomonidan yozilgan asarlar turli tillarga tarjima qilinib, elatlar o‘rtasidagi rishtalarni bog‘laydi, ilm-fan rivoji va o‘zga xalqlar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Tarjimashunoslik faoliyati uzoq tarixdan buyon keng miqyosda qo‘llanilib kelganiga qaramasdan, faqat XX asrga kelib, fan sifatida olimlar tomonidan tan olindi va tadqiq qilina boshladi.

Adabiyotlar tahlili. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tarjima biror tildan ikkinchi boshqa bir tilga ag‘darilgan matn”, deya ta‘riflanadi. Ushbu ta‘rif “tarjima”, ya‘ni, “o‘girish jarayoni” muayyan faoliyat natijasi ekanligi hamda bu so‘z mohiyati zamirida faqat natija yotmasligidan dalolat beradi [4;11-b.]. Uning o‘rganish obyektini esa yozma va og‘zaki nutq tashkil qiladi. G‘.Salomovning fikriga ko‘ra, tarjima atamasi forscha “tarzabon” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zgartirish yoki bir tildan boshqa tilga ko‘chirish” ma‘nosini anglatadi. Bu so‘z, aslida, arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, o‘zining asl ma‘nosida “biror narsani tushunib, ifodalash” yoki “bir tildan boshqa tilga o‘tkazish” degan mazmunga ega. Shunday qilib, tarjima jarayoni til va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va tushunishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bu borada V.G.Belinskiy: “Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish ularning o‘zaro yaqinlashishiga, bir-birlariga g‘oyalar almashishiga asos bo‘ladi, ana shundan yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi”, deb aytgan edi [7;11-b.].

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarlarining ingliz, rus, arab, ozarbayjon va boshqa Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilinishi, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarining ingliz tiliga tarjima qilinishi, Jek London qalamiga mansub “Martin Iden” asarining o‘zbek tiliga, Tolstoyning “Anna Karenina” asarining qozoq tiliga, Gyotening “Faust” asarining dunyoning turli tillariga tarjima qilinishi ularning adabiy tili va madaniyatini boyitishda katta voqeadir. Bularning hammasi kundan kunga kengayib va o‘sib borayotgan xalqlar do‘stligining ajoyib vositasi bo‘lgan badiiy tarjimaning samarasidir.

Tarjima matni ham asliyat matni bilan bir xil ma‘no va tasvirga ega bo‘lishi, u bilan bir yaxlitlik tasavvurini uyg‘otishi kerak. Shunga binoan, mutarjimning muhim vazifalaridan biri – tarjima matn asliyat matnning to‘liq kommunikativ o‘rnini egallashiga e‘tibor qaratishi kerak. Shu bilan birgalikda, tarjimon tarjima qilinayotgan til kitobxoniga asliyat o‘quvchisi imkoniyatiga teng darajadagi badiiy zavq, botiniy va zohiriy uyg‘unlik muvozanatini taqdim eta olishi lozim.

Paremiologik birliklar haqida. Abdulla Qodiriy ta‘biri bilan aytganda: xalq hikmatlari – “turmush onasining dard chekib tuqqan to‘ng‘ich o‘g‘li”, ya‘ni, maqolda ixcham hajm va ma‘no mujassam bo‘lib, u xalq tafakkurining mevasi o‘laroq yuzaga keladi. Taniqli tarjimashunos olim G‘aybullo Salomov “Agar mendan: ”tilda ham mo‘jizalar bo‘ladimi?” deb so‘rasalar, men: ”agar bo‘lsa, tilning mo‘jizasi – undagi maqol, matal va idiomalardir” deb javob qilgan bo‘lar edim”, deya ta‘kidlab o‘tgan [6;4-b.]. Rostdan ham, nutqning jozibadorligi, serjiloligi va sermazmunligi hamda qisqa va lo‘ndaligi nutqdagi maqol, matal va iboralari tufaylidir.

Paremiologiya so‘zi yunoncha paroimia (hikmat) va logos (fan) so‘zlaridan olingan. Bu atamaning etimologiyasiga ko‘ra, dastlab, “paroimia” “yon, yo‘l”, ya‘ni, “asosiy fikrga yondash yo‘l bilan bildirilgan fikr”, bilvosita (obrazli) aytilgan fikr degan ma‘noni anglatadi. Shunday qilib, paremiologiya – ma‘lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar jamlanmasini o‘rganish ilmi degan ma‘noni bildiradi.

Xalq hayotining ensiklopediyasi bo‘lmish paremiologik fond, ya‘ni, maqol, matal, ibora, aforizmlarning qachon paydo bo‘lganligi noma‘lum. Ularning ko‘pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va o‘zi yaratilgan xalq tomonidan ommalashib, avloddan avlodga o‘tib, asrlar osha yashab, sayqallashib paremalarga aylanadi.

Paremalar tarjimasida tarjimon mahorati. Bundan 2358 yil muqaddam Aristotel yozgan edi: “Aslida, asar shunday yozilishi kerakki, u sahnada ko‘rilmaganida ham, bo‘lib o‘tadigan voqeani tinglovchi har bir kishi, xuddi Edip haqidagi rivoyatni tinglaganday, hodisalarning o‘sib borishidan g‘am chekuvchiga nisbatan o‘zida hamdardlik sezsin va vujudi jivirlab seskansin. Bunga teatr jihozi vositasida erishish san‘atning ishi emas, balki sahnaga qo‘yuvchining ishidir” [3;35–36-b.].

Ulug‘ donishmandning so‘zlariga boshqacha tus berib, bunday deyishimiz mumkin: “Aslida, paremiologik birliklar shunday o‘girilishi kerakki, u original tilida bo‘lmasa ham, paremalarda ifodalangan har bir fikrni tinglovchi va o‘quvchi har bir kishi o‘sha tilning va madaniyatning chuqur qatlamini his qilsin va vujudi jivirlab seskansin. Bunga harfma-harf tarjima vositasida erishish san‘atning ishi emas, balki ma‘noni ma‘no, so‘zni so‘z, obrazni obraz bilan berib, madaniy kontekstni saqlab qoluvchi mutarjimning vazifasidir”.

Darhaqiqat, maqollar va matallar ham frazeologik iboralar singari, shunchaki so‘zlar yig‘indisi bo‘lib qolmay, xalq donishmandligi, uning tasavvuri va badiiy fantaziyasining mahsulidir. Alohida xalqchil xarakterga ega bo‘lgan bu paremalar o‘zida yaratuvchi xalq, yurt xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, jahondagi boshqa ko‘pgina tillar paremiologiya va frazeologiyasini shakllantirishga kuchli ta‘sirini ham o‘tkazadi. Shunday ekan, ularni o‘giruvchi kishi har ikki xalq madaniyatiga mansub va ularning til boyligidan boxabar bo‘lishi kerak.

Tarjima shuning uchun ham san‘atki, unda biror so‘z yoki iboraning tarjimasi shundaygina lug‘atdan olib ikkinchi matnga ko‘chirib qo‘yilmaydi. Lug‘at, ko‘p hollarda, т matnda tasvirlanayotgan voqeani, vaziyatni ifodalash uchun ojizlik qilib qoladi. Shunda tarjimon uchun ijodning yoqimli azobi boshlanadi – u lug‘atda yo‘q so‘zni qidira boshlaydi (1;41-b.). Buning amaliy izohi sifatida quyida “ko‘ngilga og‘ir olmoq” iborasining ruscha bir necha variantini ko‘rib chiqamiz.

Alpomishning so‘zini Qorajon ko‘ngliga og‘ir oldi (94). –Тяжело принял Караджан слова Алпамыша (99).

Alpomishning ko‘ngliga og‘ir olganini bilib, tanimagan kishi bo‘lib, “Seni birovga o‘xshatib turibman” deb, Qorajon bir so‘z aytib turibdi. –Заметив, что Алпамыш так близко к сердцу слово его принимает, Караджан, прикинувшись незнаюшим его, сказал: – Я тебя за другого принял.

Bu so‘zni Alpomish Qorajondan eshitib, ko‘ngliga og‘ir oldi (95). –Услихав ети слова от Караджана, очень опечалился Алпамыш.

Yuqoridagi misollardan ko‘ramizki, asarda baxshi doim bir xil ibora qo‘llaydi. Tarjimon esa to‘rtta har xil komponentli dublet variantlaridan foydalanadi: “тяжело принять”, “близко к сердцу принять”, va yana bir o‘rinda “очень спечалиться”, chunki tarjimada bir xillik asarning rang-barang ruhiyatini ta’milamaydi. Shuning uchun uning muqobillari orqali aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Paremalarning tarjimadagi dolzarbligi

Maqollar har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari va og‘zaki ijodiyoti bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularni tarjima qilishda tarjimondan jiddiy yondashuv va mahorat talab etadi.

Maqol, matal va idiomalar kabi paremalarni tarjima qilish uchun, asosan, quyidagi uch xil usuldan foydalaniladi:

1. Asliyatdagi paremiologik yoki frazeologik birliklarga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib toppish.

2. Asliyatga teng muqobil variant topib qo‘yish.

3. Paremalar va frazemalarni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish kabi arjima usullaridan foydalanish mumkin. Bu uchala holatning birortasi ham uchramaydigan vaziyatda tarjimon ularning umumiy ma‘nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi [5;65-b.].

Paremalarni tarjima qilish usullari. Paremiologik birliklar har bir tilda o‘ziga xos srtruktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarga ega. Bu esa tildan tilga tarjima jarayonida qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Kuzatuv va tahlillarga ko‘ra, paremalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda imkon qadar yuqori natijalarga erishish maqsadida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ekvivalent tarjima.

2. Analogik tarjima.

3. Tasvirlash (tasviriy) yoki tushuntirish orqali tarjima.

4. Adekvat tarjima.

1. Ekvivalent (muqobillik). Ayrim tarjimashunoslarning fikriga koʻra, tarjima qilinayotgan til meʻyoriga qatʻiy amal qilgan holda asosiy mazmunni berish ekvivalent yoki muqobil tarjima deyiladi. Ekvivalent - "tenglik" degan maʻnoni anglatadi va tildagi paremiologik birliklarga maʻno jihatdan ham shakl jihatdan ham aynan mos tushadigan tarjima usuli hisoblanadi. Bu tarjima usuli baʻzi manbalarda soʻzma-soʻz tarjima ham deyiladi.

Avval oʻyla, keyin soʻyla. – First think, then speak.

Yaxshiga umid bogʻla, yomonga oʻzingni shayla. – Hope for the best and prepare for the worst.

Olovga yogʻ sepmoq. – To bring oil to fire.

Boʻsh qop tik turmas. – Empty bags cannot stand upright.

2. Analogik tarjima (monandlik) – maʻno jihatdan tarjima qilinayotgan tildagi variantga mos yoki oʻxshash, lekin shaklan undan butunlay yoki qisman farq qiluvchi tarjima usuli [5;65-b.]:

Kanda qilma olmani kunda, Yiroqdursan doktordan shunda. – An apple a day keeps the doctor away.

Boringni biringa tikma. – Don't put all your eggs in one basket.

Charity begins at home. – Avval oʻzingni toʻydir, keyin oʻzgani.

Oʻtgan ishga salovat. – What is done cannot be undone.

Yirtiq toʻnni it qopar. – The torn coat is torn by a dog.

3. Tasvirlash yoki tasviriy tarjima. Asliyat tilidagi iborani tarjima qilinayotgan tilda erkin soʻz birikmasi orqali berish. Bu tarjima metodidan oʻgirilayotgan tilda aynan shu paremaga mos ekvivalent topilmagan vaziyatda foydalaniladi:

Umidli dunyo – noumid shayton. – A drowning man will clutch at a straw.

Zarhal koʻrinar soxta, avval bilib, soʻng maqta. – All that glitters is not gold.

Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi yupqa yaxshi. – A bird in the hand is worth two in the bush.

Soʻnggi pushaymon oʻzinga dushman. – It's better to be safe than sorry.

4. Adekvat tarjima. Tarjimashunoslikda maʻno va mazmun birlamchi hisoblanadi. Shunday boʻlsada, maqol, matal va iboralar tarjimasida ularning zohiriy mosligi va shaklan qofiyadoshligini ham saqlab qolishlikni ham inobatga olish zarur. Asliyatdagi maqolni tarjima qilishda maʻno va mazmunni saqlagan holda, shaklan mosligini saqlab qolish adekvat tarjima asosini tashkil etadi:

Koʻzdan yiroq, koʻngildan yiroq – С глаз долой, из сердца вон / Out of sight out of mind

Har daryoning oʻz yoʻrigʻi bor – Новая метла метёт по-новому/ New lords new laws.

Ikki kemaning boshini tutgan gʻarq boʻladi – Between two tools one falls to the ground.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, maqol, matal, aforizm yoki iboralar tarjimasi nafaqat tarjimashunoslik, shu bilan birgalikda, ikki tilning oʻzaro adabiyotshunosligi, lingvistikasi, madaniyatshunosligi hamda folklorshunosligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bir xil tushuncha turli xalqlarda turlicha ifodalanishi, turli variantga ega boʻlishi mumkin. Shuning uchun paremalar tarjimasi murakkab jarayon boʻlib, bunda mutarjim asliyat til tarixi, zamon va makoni, paremalar kelib chiqqan ijtimoiy va madaniy hayotni ham hisobga olishi lozim. Tarjimon paremalarni shunchaki soʻzma-soʻz tarjima qilmasdan, ularning mos muqobil variantini topishi talab qilinadi, bu hollarda, koʻpincha, maqol, matal, iboralarni moslashtirish yoki qayta yaratishni talab etadi. Tarjimonning vazifasi voqelikni obrazli iboralar, maqol yoki matallar bilan ifodalab, oʻquvchiga ruhan qoniqish va estetik zavq bera olishdir. Bularning hammasi tarjima jarayonida uchraydigan eng muhim qiyinchiliklar boʻlib, uni faqat mahorat yenga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Joʻrayev K. Tarjima sanʻati. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1982.

(2). Komilov N. Bu qadimiy san'at. T., Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998, 5-bet.

(3). Ochilov E. "Badiiy tarjima masalalari" (oʻquv qoʻllanma). Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti, 2014.

(4). Rahimov Gʻ. (2016). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi", 2016, 11-bet.

(5). Rahimov Gʻ.X. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Oliy taʻlim muassasalari uchun darslik, Samarqand, 2015, 65-bet.

(6). Salomov Gʻ. Til va tarjima. Toshkent, "Fan", 1966, 258-bet.

(7). Salomov Gʻ. Maqol va idiomalar tarjimasi. Toshkent, "Fanlar akademiyasi" nashriyoti, 1961, 11-bet.

(8). Sotvaldiyeva X.M. Paremiologiya fan sifatida. "FarDU ilmiy xabarlari", Volume 30, Issue 2, ISSN 2181-1571, 2024, 467–476-betlar.

(9). Y.Nurmuhammedov. "Frazeologiyaning dolzarb masalalari" (oʻquv-uslubiy qoʻllanma). Samarqand davlat Chet tillari instituti, 2023.

Erimbetova Shaxzada Abatbayevna (Nukus davlat Pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti; shaxzoda.erimbetova@mail.ru)

ANNA BRONTE «AGNES GREY» ROMANINING LINGVOMADANIY TAVOFUTLARI

Annotatsiya. *Maqolada Viktoriya davri madaniyati va o‘sha davrda muhim o‘rin tutgan Anna Brontening «Agnes Grey» romani haqida ma’lumot berilgan. Bir qancha tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan ushbu roman Anna Brontening badiiy adabiyotga munosabati alohida ekani ta’kidlangan. Shuningdek, o‘sha davrdagi xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va ularga qo‘yilgan ijtimoiy cheklovlar, axloqiy bosimlar ichida qanday yashagani haqidagi tasviri bayon etilgan. Roman stilistikasida eng ko‘p uchraydigan vositalar haqida ma’lumotlar keltirilgan va bu stilistik vositalar Anna Bronte ijtimoiy qarashlari va madaniy tanqidiy fikrlarini ifodalovchi kuchli omil ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Viktoriya davri, «guvernant» madaniy belgi, tanqidiy nuqtayi nazar, realizm, lingvomadaniy nuqtayi nazar, ijtimoiy tengsizlik, axloqiy ziddiyat, madaniy kontekst, estetik pozitsiya, badiiy mahorat, realiya.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РОМАНА АННЫ БРОНТЕ “АГНЕС ГРЕЙ”

Аннотация. *В статье представлена информация о викторианской культуре и романе Анны Бронте “Агнес Грей”, который играл важную роль в тот период. Этот роман, проанализированный рядом исследователей, подчеркивает особое отношение Анны Бронте к художественной литературе. Также описывается положение женщин в обществе того времени и то, как они жили в условиях социальных ограничений и морального давления. Приводятся сведения о наиболее часто встречающихся стилистических средствах в романе, и подчеркивается, что эти стилистические приемы являются мощным инструментом, выражающим социальные взгляды и культурно-критические мысли Анны Бронте.*

Ключевые слова: *Викторианская эпоха, культурный маркер “гувернантка”, критическая точка зрения, реализм, лингвокультурный аспект, социальное неравенство, моральный конфликт, культурный контекст, эстетическая позиция, художественное мастерство, реалия.*

LINGUOCULTURAL DIFFERENCES IN ANNA BRONTE’S NOVEL “AGNES GREY”

Annotation. *This article provides information about Victorian culture and Anna Brontë’s novel “Agnes Grey”, which held an important place during that period. This novel, analyzed by several researchers, emphasizes Anna Brontë's unique approach to fiction. It also depicts the role of women in society at that time and how they lived under social restrictions and moral pressures. The article presents information about the most common stylistic devices in the novel's style, emphasizing that these stylistic devices are a powerful means of expressing Anna Brontë's social views and cultural criticism.*

Keywords*: Victorian era, “governess” as a cultural marker, critical perspective, realism, linguocultural perspective, social inequality, moral conflict, cultural context, aesthetic position, artistic mastery, realia.*

Kirish. Ushbu maqolada ingliz adabiyotidagi eng muhim davr bo‘lgan Viktoriya davri madaniyati va ijtimoiy voqeliklari, shuningdek, yozuvchi Anna Bronte asarlaridagi stilistik vositalar va madaniy o‘ziga xosliklar chuqur tahlil qilinadi.

Ingliz yozuvchisi va opa-singil Brontelar orasida eng kam mashhur bo‘lgan Anna Bronte o‘zining «Agnes Grey» romani orqali Viktoriya davri adabiyotida muhim o‘rin egallagan, chunki bu romanda chuqur psixologik va ijtimoiy masalalarga e’tibor berilgan. Asar 1847-yilda nashrdan chiqqan bo‘lib, muallif «guvernant»lar hayoti orqali o‘sha davrning axloqiy, diniy va ijtimoiy muhitini aks ettirgan. Bu asar Anna Bronte o‘z hayotiy tajribasiga asoslangan holda yozilgan bo‘lib, avtobiografik unsurlarga boy hisoblanadi.

«Agnes Grey» romani Viktoriya davrining madaniy, axloqiy va ijtimoiy tafakkur tizimining alohida mahsuli sifatida baholanishi mumkin. Bu davr XIX asrning ikkinchi yarmi, Buyuk Britaniya imperiyasi eng qudratli bosqichga yetgan, industrial inqilobdan keyingi ijtimoiy tabaqalarga bo‘linish va jamiyatdagi axloqiy me’yorlarning shakllanish davridir. Viktoriya davri madaniyati o‘zining konservativ qadriyatlari, patriarxal ijtimoiy tuzilmasi, diniy xilma-xil e’tiqodlarga berilgan shaxsiy, axloqiy me’yorlarga sodiqlik hamda ijtimoiy mavqega bo‘lgan kuchli intilishlari bilan ajralib turadi. Masalan, Viktoriya davriga oid adabiyotlarda quyidagi ma’lumotlar beriladi: “Respectability became the core of moral life, and duty to God and family dictated the social conduct” [3;1830–1870-b.]. Bu ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, unda jamiyat axloqiy me’yorlarga, diniy qadriyatlarga va oilaga daxldor sadoqatga asoslangan turmush tarzini ideal deb bilgan.

Aynan o‘sha sharoitlar Bronte opa-singillarini, xususan, Anna Brontening badiiy dunyoqarashini shakllantirgan. Bronte oilasi badiiy adabiyotga aloqador muhitda o‘sib-ulg‘aygan bo‘lib, ularning har biri yozuvchi sifatida o‘zining teran individual fikriga ega bo‘lgan. Anna Bronte o‘z qarashlarini o‘zining «Agnes Grey» romanida «guvernantlar» sinfining ijtimoiy jihatdan tushunarsiz mavqega ega bo‘lgan holatini yoritish orqali ifodalaydi. Aytish mumkinki, Anna Bronte «guvernantlar» sinfini «yolg‘izlikda yashaydigan, lekin ikki sinf o‘rtasida hayot kechiruvchi ijtimoiy mavjudot» sifatida ko‘rsatadi. U shunday yozadi: “I could not help wondering at the selfishness and hardness of heart which could thus coolly consign a young girl tap such a position” [1]. Bu fikr muallifning jamiyatdagi ijtimoiy nochorlik va befarqlikni fosh etishdagi mahoratini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Anna Brontening badiiy adabiyotga oid merosi, ayniqsa, «Agnes Grey» romani ingliz adabiyotshunosligi ilm-fani sohasida qator tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Masalan, Elizabet Lengland o‘zining «Nobody’s Angels: Middle-Class Women and Domestic Ideology in Victorian Culture» (1995) asarida Anna Brontening ayol «guvernant» obrazi orqali Viktoriya davri ayollarining repressiv ijtimoiy rolini ochib berishga harakat qilgan. Shu bilan birga, Marianne Thormählen («The Brontës and Religion». 1999) Anna Brontening diniy-falsafiy qarashlarini va ularning asarlarida aks etishini chuqur tasvirlaydi.

Agnes Grey romani aynan Viktoriya davri ijtimoiy adolatsizliklarini ochib beradigan, o‘sha vaqtdagi muallifning shaxsiy hayotiy tajribasi va kuzatuvlari asosida yaratilgan ijtimoiy-tanqidiy nuqtayi nazardan yozilgan asar hisoblanadi. Asarda xizmatchi sinf, ayniqsa, «guvernantlar», ya’ni, uy o‘qituvchilari, o‘z holatida hech bir ijtimoiy sinfga to‘liq tegishli bo‘lmagan qatlam sifatida tasvirlanadi. «Guvernantlar» yuqori siyosiy guruhga yaqin yashasalar-da, na bu sinf, na quyi sinf tomonidan ular ijtimoiy teng qatlam sifatida qabul qilinmas edi. Bu esa ikki oraliq Viktoriya davridagi ijtimoiy ongning qarama-qarshi jihatlarini ochib beradi.

M.H.Frawley «Anne Brontë» (1996) ilmiy ishida Anna Bronteni «kam baholangan, lekin o‘z davrining madaniy, axloqiy va ijtimoiy munosabatlariga qarshi o‘z nuqtayi nazari bilan chiqqan kuchli yozuvchi ayol» sifatida tavsiflaydi [2;82-b.]. Uning fikricha, «Agnes Grey» romani o‘zining sodda tili, ammo murakkab ma’no qatlamlari bilan Viktoriya davrining real axloqiy xato va kamchiliklarini ochib beruvchi ijtimoiy-madaniy hujjat sifatida namoyon bo‘ladi.

F.B.Pinion o‘z asarida Anna Bronte ijodini chuqur tahlil qilar ekan, ayniqsa, uning realizmga o‘zining sodiqligini va guvernantlar hayotiga oid tafsilotlarni aniq va samimiy tasvirlashini ta’kidlaydi [5;238-b.]. Uning fikricha, «Agnes Grey» romanida jamiyatdagi axloqiy va madaniy ziddiyatlar soddaligi bilan yengil ko‘ringan bo‘lsa-da, aslida, u Viktoriya davri madaniy kontekstini chuqur ochib beradigan kuchli badiiy asar hisoblanadi.

Anna Bronteni ingliz adabiyotidagi klassik realizm an’analarini davom ettirgan yozuvchi sifatida baholagan N.P.Mixalskayaning ta’kidlashicha, «Agnes Grey» romanida sodda til va vazmin kompozitsiyalar qo‘llanishi orqali jamiyatdagi axloqiy ziddiyatlar hamda ijtimoiy tengsizliklar tabiiy va ishonarli ko‘rsatilgan [7;34-b.]. N.P.Mixalskaya fikriga ko‘ra, Anna Bronte prozasi o‘z davri uchun juda ochiq va o‘ziga ishongan bo‘lib, Viktoriya davri ayollarining ichki kurashlarini tasvirlashda alohida ahamiyatga ega. Anna Bronte o‘sha davrning axloqiy ikkiyuzlamachiligini, ijtimoiy tuzilma bilan real hayot o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ochib beradi. Shunday qilib, Viktoriya davri nafaqat ideallashtirilgan qadriyatlar, balki ularga qarshi tanqidiy pozitsiyalarni ham yaratgan murakkab madaniy makon bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Anna Brontening «Agnes Grey» romanida qo‘llanilgan til muallifning axloqiy-estetik qarashlari, Viktoriya davri ruhiy-ijtimoiy kayfiyati hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asar tilida muallifning soddalik, aniqlik va axloqiy qat’iylikka e’tibor berishi kuzatiladi. U til orqali zamonaviy ingliz jamiyatidagi madaniy ijtimoiy voqeliklarni ko‘rsatadi, shuningdek, guvernantlar sinfi vakillarining murakkab ijtimoiy ahvolini tasvirlaydi. Muallif tilida ortiqcha bezaklar, romantik emotsionallik yoki balandparvoz ritorik iboralarga berilish ko‘rinmaydi. Aksincha, u real hayotni, oddiy odamlarning fikr va tuyg‘ularini hayotiy realizm asosida tasvirlaydi. Asarda Viktoriya davri madaniy kontekstiga xos bo‘lgan so‘z birikmalari, realiyalar va diniy-axloqiy atamalarning qo‘llanilishi uni lingvomadaniy jihatdan boyitadi. Masalan, «tea-time,» «Sunday-school,» «chapel» kabi iboralar Angliya madaniyatining muhim belgilarini ifodalaydi va ularning zarur ruhiy-ijtimoiy mazmun-mohiyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, «Agnes Grey» romanidagi madaniy o‘ziga xosliklar uni nafaqat badiiy adabiy manba, balki madaniy antropologik manba sifatida ham qimmatli qiladi.

Tahlil va natijalar. Roman stilistikasida eng ko‘p uchraydigan vositalar quyidagilardir:

1. Ironiya – Anna Bronte guvernantlarning ijtimoiy pozitsiyasi va badavlat oilalarning ikkilamchi axloqiy pozitsiyasini tasvirlashda nozik istehzo orqali tanqidiy yondashuvni anglatadi. Masalan, «They talk about the dignity of honest toil, and then treat the honest toiler with contempt» (A.Brontë Agnes Grey. London, Smith, Elder & Co. 1847).

2. Metaforalar – muallif,, ko‘pincha axloqiy va ruhiy his-tuyg‘ularni tabiat obrazlari orqali ifodalaydi. Masalan, «The storm without answered to the storm within». Bu jumlada ichki ruhiy bezovtalik tashqi ta-biat hodisasi bilan tenglashtiriladi (A.Bronte. 1847).

3. Kontrast va antiteza – Boylar va kambag‘allar, erkaklar va ayollar, guvernant va yirik yer egalari o‘rtasidagi farqlar semantik vositalar orqali beriladi. Masalan, «Ularning bolalariga mehribonlik o‘rgatilgan, xizmatkorlariga esa shafqatsizlik bilan munosabatda bo‘lishgan». Bu usul muallifning tanqidiy pozitsiyasini kuchaytiradi (A.Brontë. 1847).

4. Dialog orqali xarakter ochish – Har bir obrazning til xususiyatlari uning ijtimoiy kelib chiqishi va axloqiy holatini ochib beradi. Masalan, guvernant Agnes oddiy va qisqa iboralarni ishlatadi: «I tried to do my duty» (A.Brontë. 1847).

5. Madaniy realiyalar – «Tea-time», «Sunday-school», «hymns», «chapel» kabi madaniy belgilar asarda tez-tez uchraydi va Viktoriya Angliyasining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiradi (A.Brontë. 1847).

Bu stilistik vositalar romanning estetik-falsafiy asoslarini belgilaydi va uni Viktoriya davrining madaniy kontekstida zarur badiiy manba sifatida qarashga asos yaratadi.

Ko‘plab olimlar tomonidan bu stilistik xususiyatlar o‘rganilgan. Masalan, Elizabet Langland Anna Brontening stilistik mahoratini uning realizmga sodiqligi bilan bog‘lab, «Bronte ayollar realizmi turmush haqiqatini estetik vositalar bilan anglashga qaratilgan», deb yozadi [4;41–46-b.]. Patsy Stoneman esa «Agnes Grey»da Brontening til vositalaridan o‘rinli va maqsadli foydalanishini feministik badiiy adabiy tanqid doirasida baholab, bu roman orqali ayol muallifning o‘z estetik pozitsiyasini himoya qilganini aytib o‘tadi [6]. Ushbu tadqiqotlar «Agnes Grey» asaridagi til vositalarining soddaligi, aniqligi va semantik mazmun-mohiyati muallifning ijtimoiy qarashlari va madaniy tanqidiy fikrlarini ifodalovchi kuchli omil ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, «Agnes Grey» romanining til tizimi nafaqat badiiy adabiy estetikani, balki Viktoriya davri madaniy xulq-atvorlari, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy tengsizliklarini aks ettiruvchi kuchli lingvomadaniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu lingvistik tizim muallifning hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribalari, shu bilan birga, Viktoriya davri jamiyatining diniy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlariga munosabati orqali shakllanadi. Asardagi uslubiy va madaniy komponentlar muallifning realistik yondashuvini, axloqiy adolat va insoniy hurmat tamoyillarini qaror toptirishi orqali badiiy mahoratini ochib beradi. Shu bilan birga, roman tilida aks etgan madaniy kodlar va realiyalar tarjima jarayonida ham o‘z ifodasini topishi yoki ayrim hollarda o‘zgarishga duch kelishi mumkinligi bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bronte A. Agnes Grey. London, Smith, Elder&Co, 1847.
(2). Frawley M.H. Anne Brontë. New York, Macmillan, 1996, p. 82.
(3). Houghton W.E. *The Victorian Frame of Mind. 1830–1870,* New Haven, Yale University Press, 1957.
(4). Langland E. Nobody’s Angels. 1995, p. 41–46.
(5). Pinion F.B. A Brontë Companion. London, Macmillan, 1975, p. 238.
(6). Stoneman P. Charlotte Brontë. 1996.
(7). Михальская Н.П. Десять английских романистов. М., “Флинта”, 2003, с. 34.

Aimuxammetova Aziza Maxsetbaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instetuti tayanch doktoranti; aaymuxammedova@gmail.com)

NUMERATIVLARNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISHINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Numerativ birliklar (ya’ni son va sonli ifodalar) har bir tilda grammatik va semantik sistemaning zaruriy qismini tashkil etadi. Ular tilda nafaqat sanash vazifasini bajaradi, balki obrazli, ramziy, mifologik, psixologik va madaniy ifoda vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Sonlar orqali tilning kvantitativ xususiyatlari bilan birga, milliy tafakkur, qadimiy tasavvurlar, mifologik konstruksiyalar, ijtimoiy qadriyatlar, hatto axloqiy me’yorlar ifodalanadi. Ushbu maqolada numerativ birliklar xalq og‘zaki ijodi, maqol va matallar, miflar, an’analar va diniy ta’limotlarda ma’lum bir mazmun va funksiyaga ega element sifatida shakllangan, shu bilan birga, diskurslarda alohida semantik mazmun-mohiyatga ega bo‘lishi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *numerativlar, son, madaniyat, mifologik, semantik, ijtimoiy qadriyatlar.*

Аймухамметова Азиза Махсетбаевна (докторант Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза; aaymuxammedova@gmail.com)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ НУМЕРАТИВОВ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация. *Нумеративные единицы (т.е. числовые и числовые выражения) составляют необходимую часть грамматической и семантической системы в каждом языке. В языке они не только выполняют функцию счета, но и используются как образное, символическое, мифологическое, психологическое и культурное средство выражения. Числами, наряду с количественными особенностями языка, выражаются национальное мышление, древние представления, мифологические конструкции, социальные ценности и даже моральные нормы. В данной статье рассматривается, что нумеративные единицы сформировались как элемент с определенным содержанием и функцией в устном народном творчестве, пословицах и поговорках, мифах, традициях и религиозных учениях, при этом в основном в дискурсах они имеют особое семантическое содержание.*

Ключевые слова: *нумеративы, число, культура, мифологические, семантические, социальные ценности.*

Aimukhammetova Aziza Maxsetbaevna (Doctoral student, Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz; aaymuxammedova@gmail.com)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF NUMERATIVES IN LINGUOCULTUROLOGY

Annotation. *Numerative units (i.e., numerals and numerical expressions) constitute a necessary part of the grammatical and semantic system of each language. They not only perform the function of enumeration in language, but are also used as a means of figurative, symbolic, mythological, psychological, and cultural expression. Numbers, along with the quantitative features of language, express national thinking, ancient ideas, mythological constructions, social values, and even moral norms. In this article, it is discussed that numerative units are formed as an element with a certain content and function in folklore, proverbs and sayings, myths, traditions, and religious teachings, and at the same time, they have a special semantic content mainly in discourses.*

Keywords: *numeratives, number, culture, mythological, semantic, social values.*

Kirish. Son so‘z turkumi abstrakt tushunchani ifodalaydi, shu bilan birga, bir ma’noli so‘z bo‘lib, modal-ekspressiv xususiyatlarga ega bo‘lmaydi. Sonlar tilda narsaning, hodisaning, harakatning sifatini bildirib keladi, gap ichida atributiv va relativ munosabatga ega bo‘ladi. Sonning boshqa ma’noli so‘z turkumlaridan asosiy xususiyatlari bor. Son so‘z turkumi o‘zining shakl yasovchi affikslariga ega, sonlar esa narsaning miqdorini emas, matematik atama bildirganda so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni qabul qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qoraqalpoq tilshunosligida sonlarning o‘rganilishi 1970-yillardan boshlangan bo‘lib, bunga bog‘liq dastlabki zarur ilmiy qadam A.Bekbergenovning “Qoraqalpoq tilida sonlar” nomli dissertatsiya ishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, N.A.Baskakovning qoraqalpoq tili grammatikasiga oid asosiy ilmiy ishlari, xususan, “Qoraqalpoq tili grammatikasi” nomli monografiyasi bu yo‘nalishning metodologik asoslarini shakllantirgan.

Ingliz tilshunosligida esa numerativ birliklar ko‘proq frazeologik birliklar, paremiologiya va badiiy uslub vositalari tarkibida tahlil qilinadi. I.P.Kudryavseva, M.M.Caturyan va L.M.Pelipenko, M.Abdusalomovaning ilimiy tadqiqotlari bunga misol bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada numerativ birliklar lingvomadaniyatshunoslik asosida tahlil qilinib, deskriptiv, qiyosiy-tipologik, diskursiv va kognitiv-lingvistik metodlar qo‘llanildi. Qoraqalpoq tilidagi sonlarning fonetik-morfologik xususiyatlari A.Bekbergenov, N.A.Baskakov asarlari asosida o‘rganildi. Ingliz va rus tillaridagi numerativlar I.P.Kudryavseva, M.Abdusalomova kabilar tadqiqotlari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Maqollar, matallar, diniy diskurslarda sonlar ifodalagan madaniy, mifologik va axloqiy ma’nolar tahlil qilindi. Tadqiqotda sonlar xalq tafakkuridagi semantik va konseptual yuklama sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar. A.Bekbergenovning “Qoraqalpoq tilida sonlar” nomli ilmiy ishida qoraqalpoq tilidagi sonlarning etimologiyasi, fonetik va morfologik tuzilishi, ularning gapdagi sintaktik funksiyalari, shuningdek, leksik-semantik imkoniyatlari keng ko‘lamda tahlil qilingan. Muallif sonlarning nafaqat hisoblash vositasi, balki ularning tasvirlaydigan, muqobil va umumlashgan ma’nolarini ifodalash imkoniyatlarini ham ochib bergan [3].

A.Bekbergenovning dissertatsiya ishi [2] ham bu sohadagi zarur bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi sonlarning morfologik, sintaktik va semantik tahliliga asosiy e'tibor qaratiladi. Muallif sonlarni miqdor va tartib sonlarga ajratadi, ularning affiksal yasalish jarayonlarini ko'rsatadi. Ayniqsa, sonlarning gapdagi roli, boshqa so'zlar bilan bog'lanishi va umumlashtiruvchi, aniqlik ifodalovchi, baholovchi semantik mazmun-mohiyati misollar orqali ochib berilgan. Masalan, "bir kishi" so'z birikmasining "birgina shaxs" yoki "qandaydir bir odam" kabi ma'nolarni anglatishi tilning pragmatik boyligini ochib beradi. Maqolada, shuningdek, turkiy tillar bilan fonetik va morfologik qiyosiy tushuntirishlar ham berilgan bo'lib, qoraqalpoq tili numerativ birliklarining umumiy turkiy kontekstdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, A.Bekbergenovning dissertatsiya ishi qoraqalpoq tilida numerativ birliklarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, ularning grammatik tasnifi va sintaktik tahlilini ishlab chiqish bo'yicha zarur qadamlardan biri hisoblanadi. Bu tadqiqot qoraqalpoq tilshunosligida sonlar tizimi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun asosiy ilmiy asos vazifasini bajaradi.

N.A.Baskakov sonlarning boshqa so'z turkumlari bilan paradigmatik va sintagmatik aloqalari, ularning affiksal yasalish usullari, son morfemalarining funksional mazmun-mohiyati va semantik tipologiyasini chuqur o'rgangan [4]. Shu bilan birga, qoraqalpoq tili leksikasida keng uchraydigan qadimiy va ramziy sonlar (bir, uch, yetti, qirq va h.k.) ham tilshunoslikda alohida semantik qatlam sifatida baholangan. Bu tadqiqotlar qoraqalpoq tilida numerativ birliklarning sistematik va lingvomadaniy o'rganilishiga zamin yaratgan.

I.P.Kudryavseva ingliz va boshqa tillar (nemis, rus, bolgar, tatar, yapon va xitoy) frazeologiyasida sonlarning semantik va konnotativ funksiyalarini chuqur o'rgangan. Uning tadqiqotida sonlarning frazeologik birliklar tarkibida oddiy sanash funksiyasidan uzoqlashib, ramziy, ekspressiv va ba'zan kinoyaviy ma'no kasb etishi ko'rsatiladi. Masalan, "three sheets to the wind" (juda mast bo'lish), "at sixes and sevens" (tushunarsizlik holati) yoki "two's company, three's a crowd" kabi iboralar sonlarning madaniy va ijtimoiy konnotatsiyalarga o'tishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunday birikmalarda sonlar nafaqat kvantor, balki konnotatsion mezonlarga ega semantik markaz sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, ingliz maqollari va idiomalarida sonlar, ko'pincha, umumlashgan, ramziy va normativ baho funksiyasida namoyon bo'ladigan bo'ladi. Masalan, "One swallow doesn't make a summer" yoki "Two wrongs don't make a right" kabi iboralar ijtimoiy-falsafiy qadriyatlarni raqamlar orqali ifodalashning namunalaridir [5;124–127-b.].

Sonlar lingvomadaniy jihatdan ham alohida tarzda o'rganiladi. M.M.Saturyan va L.M.Pelipenko tomonidan olib borilgan tadqiqotda ingliz va rus tillaridagi one, two, three (bir, ikki, uch) sonlarining mifologik, ramziy va konseptual xususiyatlari qiyosiy o'rganilgan. Mualliflar bu raqamlarni "madaniy kod" deb baholaydilar va ular xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini aks ettiradi, degan xulosaga keladilar. Tadqiqotda bu raqamlar qadimgi mifologemalar tarkibida paydo bo'lib, maxsus bir arxetipik obrazlar (masalan, kuch birlik, birlikda kuch, qarama-qarshilik va yaxlitlik) bilan chambarchas bog'liq ekani aytiladi. Bu jihatlar raqamlarning universal madaniy ahamiyatini ochib beradi [6;166–170-b.].

M.Abdusalomovaning "Lingvo-cultural analysis of number component phraseological units in the formation of linguistic world picture" nomli maqolasi numerativ birliklarning frazeologik birliklar tarkibida qanday semantik va madaniy mazmun-mohiyat kasb etishi masalasini lingvomadaniy jihatdan tahlil qiladi. Muallif ingliz tilidagi son komponentli frazeologizmlarni xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tafakkur tizimi bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qiladi [1;86–95-b.].

Maqolada asosiy e'tibor "lingvistik dunyo manzarasi" (barcha lisoniy ko'rinishi) tushunchasiga qaratilgan. Muallifga ko'ra, raqamlar nafaqat kvantor yoki matematik birlik, balki axloqiy me'yorlar, universal qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar, hatto ontologik qarashlarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "third time lucky" (uchinchi urinishda omad keladi) iborasi nafaqat vaqt yoki urinishlar sonini ko'rsatadi, balki aholining ijtimoiy-madaniy tajribasini ifodalaydi.

Bundan tashqari, maqolada "numerical phraseologisms", ko'pincha, arxetipik obrazlar, mifologik tasavvurlar, ramziy qatlamlar bilan bog'lanishi aytiladi. Ayniqsa, "seven" sonining ko'p madaniy kontekstlarda muvaffaqiyat, ruhiy poklik va muqaddaslik belgisi sifatida takrorlanishi tahlil qilingan. Shunga o'xshash holatlarni qoraqalpoq tilida ham "yetti ota", "yetti kun" kabi so'z birikmalarida kuzatish mumkin.

Maqola frazeologik birliklardagi sonlarning milliy mentalitet, tarixiy tajriba, psixokognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Raqamlar orqali aholining qadriyatlar iyerarxiyasi, jamiyatdagi roli taqsimoti, tartib va muvozanat haqidagi tasavvurlari aks ettiriladi. Frazeologik birliklardagi sonlar lingvomadaniy kod sifatida, M.Abdusalomovaning ishtiroki, son birliklarini tildagi oddiy kvantifikator emas, balki lingvomadaniy kod deb baholashga asos beradi. Bu qarash qoraqalpoq maqollarida ham "bir el, xalq bir bo'lsa, noni ko'p bo'lar" yoki "qirq kunlik marosim" kabi so'z birikmalarida sonlarning ij-

timoiy-ritual funksiyasi orqali ko‘rinishi bilan uyg‘unlashadi. Barcha lingvistik ko‘rinishining konstruksiyasi, sonlar xalq tafakkurida dunyoni qanday guruhlash, qadrlash, tartibga solish kabi mental funksiyalarni bajaradi. Masalan, “two-faced person” (ikkiyuzlamachi, aldamchi) iborasi inson xulqini baholashda raqamlar orqali ifodalangan semantik bahoni anglatadi. Bu kabi hodisalar qoraqalpoq tilida ham “ikki aytgan ikki boladay” kabi so‘z birikmalari ham bor.

M.Abdusalomovaning tadqiqoti ingliz tilshunosligida numerativ birliklarning frazeologik va madaniy funksiyalarini o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar, xususan, lingvomadaniy tahlil, psixosemantik interpretatsiya va kognitiv konsepsiyalarni uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuv qoraqalpoq tilshunosligi uchun ham metodologik namuna bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa. Til va madaniyat o‘rtasidagi interfeys, raqamlar til orqali jamiyat tafakkurida yagona semantik tuzilma hosil qiladi. Ular badiiy tafakkur, xalq og‘zaki ijodi, doston va rivoyatlarda, ko‘pincha, madaniy stereotip yoki universal obraz sifatida qo‘llaniladi. Bu xulosani qoraqalpoq mifologiyasi, xalq an’analari va e’tiqodlaridagi sonlarning pozitsiyasi bilan ham asoslash mumkin.

Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdusalomova M. Linguo-cultural analysis of number component phraseological units in the formation of linguistic world picture. Filologiya masalalari (magistratura). 2025, t. 1, № 2.

(2). Баскаков Н.А. Краткая грамматика каракалпакского языка. Турткуль, Научно-исследовательский институт, 1931.

(3). Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинде санлықлар. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1976.

(4). Бекбергенов А. Имена числительные в каракалпакском языке. Диссертация кандидата филологических наук, Нукус, 1970.

(5). Кудрявцева И.П. Изучение семантики числа в составе фразеологической единицы. “Вестник Курганского государственного университета, 2019, № 1 (52).

(6). Цатурян М.М., Пелипенко Л.М. Образно-символические характеристики числительных one, two, three в английской и русской лингвокультурах. Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017, № 5(71), ч. 1.

Otamuratova Sadoqat To‘lqinbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti; sadoqatotamuratova@gmail.com)

SHERMUHAMMAD MUNISNING “QAYG‘U” RADIFLI G‘AZALI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shermuhammad Munis qalamiga mansub g‘azal tahlil qilinib, undagi “qayg‘u” obrazining tasavvufiy ma’nodagi talqini ochib berilgan. Shoirning qayg‘uni ilohiy ishq yo‘lida iroda, sadoqat va ma’naviy yetuklik belgisi sifatida tasvirlashi asosiy e’tiborga olingan. Baytlar asosida tahlil qilinib, qayg‘uning salbiy emas, balki ruhiy yuksalish vositasi sifatidagi jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shermuhammad Munis, tasavvuf, qayg‘u, g‘azal, ilohiy ishq, fano, ruhiy yetuklik.*

Отамуратова Садокат Тулкинбек кизи Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни кафедра узбекского языка и литературы, докторант 2-го курса; sadoqatotamuratova@gmail.com)

АНАЛИЗ ГАЗЕЛИ ШЕРМУХАММАДА МУНИСА С РАДИФОМ «КАЙГУ» (ПЕЧАЛЬ)

Аннотация. *В данной статье анализируется газель Шермухаммада Муниса, в которой раскрывается образ «печали» в суфийском контексте. Автор рассматривает печаль не как страдание, а как символ духовного совершенствования и любви к Богу.*

Ключевые слова: *Шермухаммад Мунис, суфизм, печаль, газель, божественная любовь, фана, духовное совершенство.*

Otamuratova Sadokat Tulkinkbek qizi (2nd-year Doctoral Student, Department of Uzbek Language and Literature Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni)

ANALYSIS OF SHERMUHAMMAD MUNIS’S GHAZAL WITH THE RADIF “QAYG‘U” (SORROW)

Annotation. *This article analyzes a ghazal by Shermuhammad Munis, focusing on the motif of sorrow in a Sufi context. The poet depicts sorrow not as mere suffering, but as a spiritual force, symbolizing divine love and inner strength.*

Keywords: *Shermuhammad Munis, Sufism, sorrow, ghazal, divine love, annihilation, spiritual maturity.*

Kirish (Introduction). O‘zbek adabiyoti tarixida Shermuhammad Munis o‘zining she’riy merosi va tarixiy asarlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili bo‘lgan Munis ijodida

tasavvuf, ayniqsa, tariqatga doir qarashlar muhim o‘rin tutadi. U o‘z asarlarida ma’naviy poklanish, Allohga yaqinlashish, ichki komillikka erishish yo‘li sifatida tariqatni talqin qiladi. Ayniqsa, Naqshbandiylik tariqatining asosiy tamoyillari Munis ijodida chuqur ifoda topgan. Mazkur maqolada Munis asarlarida tariqat masalasining badiiy-falsafiy talqini, tariqatga oid tushunchalar va ruhiy yetuklik masalasi tahlil qilinadi.

Adabiyotda ruhiy holatlarning badiiy talqini muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Shermuhammad Munis ijodida tasavvufiy qarashlar chuqur ifodalangan bo‘lib, u ko‘plab g‘azallarida ilohiy ishq, fano, roziylik, sabr va qayg‘u kabi tushunchalarni poetik tasvirlar orqali yoritgan. Ushbu maqolada Munisning qayg‘u mavzusiga bag‘ishlangan g‘azali baytma-bayt tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Avvalo, Munis devoniga oid asosiy manba sifatida 1980-yilgi Munis saylanmasi tahlil qilindi (1). Unda g‘azallarning manbaviy-nasriy tavsifi keltirilgan bo‘lsa-da, tasavvufiy ma’no qatlamlari chuqur tahlil etilmagan. Jumladan, Munis ijodi borasida N.Jumayevning “Munis g‘azaliyoti” [3], o‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasining 31-tomida (2) shoir ijod namunalari tahlilga tortilgan. Mavjud adabiyotlarda Shermuhammad Munis g‘azallarining umumiy badiiy jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, uning ayrim she’rlaridagi tasavvufiy obrazlar tizimi, ma’naviy-falsafiy qatlamlar chuqur ochilmagan. Shuning uchun maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga, Munis g‘azaliy merosining tasavvufiy-estetik tahliliga yangicha yondashuv asosida baho berishga urinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Alisher Navoiy ijodida tasavvuf yuqori darajada o‘rin olgan va mukammal holatga kelgan. Tasavvuf Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijodiga kirib kelishi ham Navoiy bilan bog‘liq hisoblanadi. Chunki ushbu muhitdagi har bir ijodkor Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan va uning an’analariga ergashgan. “Mayda Yor jamolini ko‘rish, may idishini quyoshga o‘xshatish Navoiyning sevgan obrazlaridan. “Ashraqat min aksi shamsil ka’si anvor ul-hudo, Yor aksin mayda ko‘r deb jomdin chiqdi sado” chiqayotgan quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab ko‘rindi, jomdan Yor jamolini mayda ko‘r, degan sado chiqdi. “Xazoyin ul-maoniy” devoni mana shu bayt bilan boshlanadi. Shoir nazarida lovullagan olov kurrasi – muazzam oftob ham o‘sha buyuk ilohiy qudratning in’ikosi, mavjudotni harakatga keltiruvchi may to‘lg‘azilgan jom, uning porlashi esa Yor jamoli” [4;157-b.].

Munis g‘azallarining asosiy yo‘nalishlaridan biri Haqqa muhabbat, murshidga sadoqat, nafsni yengish, ruhiy kamolotga yetish singari tasavvufiy jihatlardir. U bu g‘oyalarni o‘zining g‘azaliy tili, ramzlar tizimi, poetik mahorati bilan ifoda etadi. Ayniqsa, ishq ramzi orqali berilgan “ma’naviy sayr” tushunchasi uning ruhiy yo‘nalishdagi asarlarining asosini tashkil etadi.

Shermuhammad Munis ijodi va uning g‘azaliy merosi xususida ilmiy adabiyotlarda muayyan fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, uning tasavvufiy qarashlari, ayniqsa, ayrim g‘azallarida mujassam tasavvufiy ramz va timsollar tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola shu jihatdan mavjud adabiy-tanqidiy tadqiqotlarni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Manga firoqing erur ne balo qaro qayg‘u,
Ki bo‘ldi jonima ondin qaro balo qayg‘u.

Yor firoqi shoir uchun eng og‘ir qayg‘u bo‘lib, jonini ham azobga soladi. Tasavvufiy talqinda bu ilohiy firoq – ruhiy uyg‘onish bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Yor firoqi – qora qayg‘u, ya’ni, og‘ir, botinli dard bo‘lib, shoir uchun eng katta balo hisoblanadi. U, hatto jonimni ham qora baloga giriftor qildi, deya faryod qiladi. Bu yerda “yor” ilohiy ma’shuq bo‘lishi mumkin. Fano (yo‘qolish) yo‘lida banda uchun yo‘ldagi ilk azob firoq azobidir.

Ko‘ngildin ayladi begonalig‘ nishot-u surur,
Ishqing ichra bo‘lub oshno ango qayg‘u.

Ishq sababli ko‘ngil quvonchga begona bo‘lib, faqat qayg‘u bilan oshno bo‘ladi. Bu holat tasavvufda “ishq azobi” bilan izohlanadi. Yor-u muhabbat tufayli ko‘ngilda quvonch va sururga begonalik paydo bo‘ldi, endi faqat qayg‘u – muhabbat ichidagi oshno. “Begonalik” bu dunyo nafsiy zavqlariga, “ishq” esa ilohiy ishqqa ishora. Bu ishqda faqat qayg‘u oshno bo‘lishi tasavvufdagi “muhabbat azobi” konsepsiyasiga mos.

Manga yururda qading qayg‘usi berur quvvat,
Oning xayolida bo‘lmish manga aso qayg‘u.

Ma’shuq siymosi shoirga yurishda kuch, xayoli esa tayanch beradi. Qayg‘u ilohiy xayolning natijasidir. Sening qadding qayg‘usi menga yurishda quvvat beradi; sening xayoling esa mening tayanchim – asoyim bo‘ldi. Ilohiy zotni xayolda tasavvur qilish – oriflar uchun eng katta ruhiy kuch. Qayg‘u bu yerda quvvat manbayi sifatida ko‘rsatiladi.

Inoyating bila shod ayla goh ko‘nglumni,
Hamisha ko‘rma anga dilbaro ravo qayg‘u.

Shoir iltijo qiladi: marhamating bilan qalbimni ba’zan xursand et, qayg‘uni doimiy qilma. Bu ilohiy inoyatga muhtojlikni bildiradi. Inoyating bilan ko‘nglimni ba’zan shod et, ey dilbar; unga doimo qayg‘uni munosib ko‘rma. Bu baytda shoir banda sifatida duo qilmoqda – “ko‘nglimga ozor yetkazma, rahming kelsin” deya iltijo qiladi. Ilohiy marhamat so‘ralmoqda.

Firoq dashtida qo‘ymasdi mani yolg‘uz,
Ki g‘amgusordurur go‘yo mango qayg‘u.

Qayg‘u firoq sahrosida ham do‘st sifatida shoir bilan birga. Bu tasavvufda sabr va mulozamat belgisi. Firoq sahrosida qayg‘u meni hech qachon yolg‘iz tashlamaydi, u go‘yo mening g‘amdosimdir. Bu yerda qayg‘u “yolg‘izlikda hamroh” sifatida tasvirlangan. Orif uchun qayg‘u ilohiy ishq yo‘lida doimiy yo‘ldoshdir.

Yetushsa g‘am sanga qil zindalar malomatin,
Ki kimsa ko‘rmadi dayri fano aro qayg‘u.

Shoirning qayg‘usi shunchalik kuchli – zindondan ham tanbeh oladi. “Dayr-i fano” – tasavvufiy yo‘l ramzidir. Agar senga g‘am yetib borsa, zindon ahli ham senga tanbeh beradi, chunki fano makonida bunday qayg‘uni hech kim ko‘rmagan. Bu yerda “dayr-i fano” (yo‘qlik monastiri) – tasavvufiy haqiqat makoni sifatida tilga olinadi. Shoir bu yo‘ldagi dardni juda kuchli tasvirlaydi.

Ne nav’ g‘ofil erursen ki bo‘lmadi hargiz,
Ketar yarog‘i uchun Muniso sango qayg‘u.

Qayg‘u orif uchun zarur vositadir. Shoir uni ma’naviy safarda “yarog‘” deb biladi. Qanday qilib sen g‘ofil bo‘lishing mumkin, axir Munis hech qachon senga qayg‘uni yaroqsiz deb hisoblamadi. “G‘ofil” – haqiqatdan bexabar odam. Munis esa qayg‘uni “yarog‘”, ya’ni ilohiy yo‘l uchun zarur narsa deb biladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Munis g‘azalida qayg‘u iztirob emas, balki tasavvufiy ruhda talqin etilgan. Shoir uchun qayg‘u – ilohiy ishqni anglash, unga yetishish, ruhiy quvvat olish vositasi. Har bir baytda bu tushuncha turlicha badiiy vositalar bilan yoritiladi.

Mazkur maqola orqali Shermuhammad Munis ijodida qayg‘u tushunchasining chuqur tasavvufiy ildizlarga ega ekanligi aniqlandi. Bu obraz orqali shoir faqat shaxsiy iztirobini emas, balki orifona kechinmalar, ruhiy kamolot bosqichlarini ham ifoda etgan.

Bu g‘azalda qayg‘u markaziy motiv bo‘lib, u oddiy ma’noda azob emas, balki ma’naviy yuksalish vositasi, ilohiy ishqning zarurati, ruhiy kuch manbai sifatida talqin etilgan. Shoir uchun qayg‘u – g‘am emas, balki iroda, xotirjamlik va sodiqlik belgisi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1980.

(2). Shermuhammad Munis. O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. 31-tom, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022.

(3). N.Jumayev. Munis g‘azaliyoti. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1991.

(4). Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent, “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009.

(5). Iqboloy Adizova. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Fan”, 2009.

(6). Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik, Toshkent, “Fan”, 1983–1985.

Bulturova Raximaxon Isakovna (ADPI Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish 5-kurs talabasi)

NUTQ VA UNI O‘RGANISH BO‘YICHA TADQIQOTLAR

Annotatsiya. *Nutqning ta’rifi haqida turli olimlar o‘zining ilmiy yondashuvlari va uslublariga ko‘ra, bir qator farqli fikrlarni bildirgan. Olimlar nutqni o‘zlarining nazariy va ilmiy konseptual yondashuvlari asosida ta’riflab, uni turli jihatlarda tahlil qilishgan. Nutq – nutq (a’zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo‘ladi. Nutq a’zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig‘indisi tushuniladi.*

Kalit so‘zlar: *nutq, axborot-kommunikatsiya, mustaqil fikrlash, nutq turlari, nutqning ahamiyati.*

ИССЛЕДОВАНИЕ РЕЧИ И ЕЕ ИЗУЧЕНИЕ

Аннотация. *Различные ученые высказали ряд различных мнений об определении речи, согласно их научным подходам и методам. Ученые определили речь на основе своих теоретических и научных концептуальных подходов и проанализировали ее в разных аспектах. Речь возникает в результате движения органов речи (органов). Движение органов речи считается речевой деятель-*

